



ISSN: (E) 2181-1784
SJIF 2023 = 6.131
ASI-Factor = 1.7



TOGETHER WE REACH THE GOAL



ORIENTAL RENAISSANCE:

*Innovative, educational,
natural and social sciences*

www.oriens.uz

Exact sciences

Natural sciences

Engineering sciences

Pedagogical sciences

Social and Human sciences

Philological sciences

Philosophy sciences

Economic sciences

VOLUME 3

No 11

2023





**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL,
NATURAL AND SOCIAL SCIENCES
SCIENTIFIC JOURNAL**

**VOL. 3 / ISSUE 11
ISSN 2181-1784
Impact Factor: 6.131
ASI Factor = 1.7**

**November
2023**

**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL,
NATURAL AND SOCIAL SCIENCES
SCIENTIFIC JOURNAL**

EDITOR-IN-CHIEF

Dr. KADIROV MUKHAMMADJON

Candidate of philosophical sciences, Associate professor of the department of “Oriental philosophy and culture” of Tashkent state university of oriental studies

EDITORIAL BOARD

DSc. NODIRAKHON R. NISHONOVA

Doctor of Philosophy,
Head of the Department “Philosophy and National idea” of Tashkent State Technical University

PhD. LAZIZ A. TURAEV

Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences, Head of the Department for the organization of research activities of students of TSUOS

**Dr. KHOLMUMINOV JAFAR
MUHAMMADIEVICH**

Doctor of Philosophical Sciences (DSc)
Professor of the department of "Source Studies and Hermeneutics of Sufism" of Tashkent State University of Oriental Studies. Professor at the Antique World International Academy of Sciences

PhD. FARHOD L. USMONOV

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences, Senior lecturer of the Department of Social Humanities of Tashkent State University of Economics

Dr. AZAMAT B. KHAYRIDDINOV

Candidate of Economic Sciences
Associate professor of Karshi Institute of Engineering and Economics

Prof. Dr. ULFATKHON MUHIPOVA

Doctor of Philological Sciences
Head of the department of South and Southeast Asian Languages of Tashkent State University of Oriental Studies

Prof. Dr. SULTON F. AMIROV

Doctor of technical sciences
Head of the department of Electricity Supply of Tashkent State University of Transport

Prof. Dr. TULKIN M. TOGAEV

Doctor of Philological Sciences
Head of the Department of Uzbek Linguistics of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

PhD. AZIZA A. SHAYUSUPOVA

Candidate of Pedagogical Sciences Associate professor of the department of Pedagogy and Psychology of Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. IMAM K. WAHYUDI

Doctor of Philosophy (PhD)
in Philological Sciences
Head of Office of International Affairs and Faculty Member, Faculty of Teacher Training and Education of Universitas Islam Malang, Indonesia

Dr. AZIZ KH. KHUDOYBERDIEV

Candidate of Historical Sciences, Associate professor of the department of Eastern countries and Anthropology of Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. SAYYORA N. KHAMRAEVA

Doctor of Philosophy (PhD) in economics
Head of the department of Innovative Economics of Karshi Institute of Engineering and Economics

Dr. ALISHER N. NAZAROV

Doctor of Philosophy in Political Sciences (PhD), Senior Lecturer of the Department of Oriental Politics and International Relations, Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. ERKIN A. RAKHMATOV

Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Head of the Department of Oil and Gas Processing Technology, Karshi Engineering and Economics Institute

Dr. PHOOL BADAN

Doctor of Philosophy in Political Sciences (PhD), Professor of the School of International Studies, Jawaharlal Nehru University

Dr. SIROJIDDIN S. NURMATOV

Candidate of Philological Sciences
Associate professor of Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. METIN ORBAY

Doctor of physics and mathematical science (DSc), Professor of Faculty of Education of Amasya University

Prof. PhD. SAO FEY

Professor of Hangzhou Normal University, Linguist.

Prof. Dr ASIF MAHBUB KARIM

Doctor of Philosophy in Business administration (PhD), Dean, professor Binary Graduate School, Binary University of Management & Entrepreneurship

Prof. YALCHIN KAYALI

Ankara University, Faculty of Languages and History-Geography, Department of Eastern Languages and Literatures, Sub-Department of Indology, Faculty Member.

Dr. NIGORA Z. SAYDALIEVA

Candidate of Philosophical Sciences
Senior Lecturer of the department of Oriental Philosophy and Culture of Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. K.K. KHAKBERDIEV

Doctor of Philosophy (PhD) In Economics
Director of the Center for Scientific analysis of the study of the development of Eastern Countries at the Tashkent State University of Oriental Studies

PhD. CHJAN KONG

School of Humanities and Communication, Zhejiang University of Finance and Economics

Dr. NAUMENKO A. OLEG

Candidate of Philosophical Sciences Associate Professor of the Department of Social Sciences and Technologies, National Research Technological University MISIS, Moscow, Russia

TA'LIM MUASSASALARIDA YOSHLARNI MUSTAQIL ISHLASH FAOLLIGINI BOSHQARISHDA PROFESSOR-PEDAGOG MAHORATI

Mirzayev Ikrom Boboqulovich

Toshkent davlat transport universiteti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida yoshlarni mustaqil ishlash faolligini boshqarishda professor-pedagog mahorati, pedagog faoliyatiga kreativ yondoshuv metodi ochib berilgan. Innovatsion jarayon: pedagog va uning faoliyati tahlil etilgan. Pedagogning kompetensiyaviy piramidasi hamda o'qituvchi pedagogik faoliyatida kasbiy refleksiyaning o'rni kabi dolzarb masalalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *pedagogik faoliyat, Dars-munozara, pedagog mahorati, Innovatsion jarayon, ta'lim muassasalari, ta'lim-tarbiya jarayoni.*

ABSTRACT

This article reveals the skills of a professor-pedagogue in managing the activity of independent work of young people in educational institutions, and the method of a creative approach to the work of a pedagogue. Innovative process: the pedagogue and his activities are analyzed. Current issues such as the teacher's competency pyramid and the role of professional reflection in the teacher's pedagogical activity are highlighted.

Key words: *pedagogical activity, lesson-discussion, pedagogic skill, innovative process, educational institutions, educational process.*

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim muassasalari talabalarini yangicha tafakkurga ega, ijodiy fikrlovchi, yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalash o'quv muassasalarimiz oldida turgan eng dolzarb muammolar sirasiga kiradi. Bunday muammolarni hal etish ko'p jihatdan ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan samarali usullar, vositalar va ularni shakllantirish yo'llariga ham bog'liq. Demak, ta'lim muassasalarida yoshlarni mustaqil ishlash faolligini boshqarishda professor-pedagog tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonini uzluksiz ravishda barcha bosqichlarda amalga oshirishlariga bog'liq, deyish mumkin. Buning uchun ta'lim dargohlarida mustaqil ishlashga o'rganish tarbiyasini shakllantirishni dolzarb vazifa qilib qo'yimoq lozim. Pedagogik ta'lim-tarbiya tizimida har bir fan talaba-yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda ma'lum maqsadlar uchun o'z ta'sirini o'tkazadi. Talabalarni axloq qoidalari, fanlar bo'yicha bilimlarni baholash mezonlari, ichki tartib-qoidalari va nizomlari bilan belgilanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Pedagogikaga oid adabiyotlarda pedagogik o‘yin degan tushuncha mavjud. Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator metodlari va usullari hamda turli shakldagi pedagogik o‘yinlar —O‘yinli pedagogik texnologiyalarni tashkil etadi. Pedagogik o‘yinda ta’limning pedagogik maqsadlari aniq qilib qo‘yiladi. Pedagogik o‘yinlar asosida talabalarning o‘quv faoliyatiga yo‘llovchi o‘yinli usullar va vaziyatlarni vujudga keltirish yotadi. G.K.Selevko tomonidan pedagogik o‘yinlar tasnifi va uni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqilganini e‘tirof etmay bo‘lmaydi. Olimning fikriga ko‘ra, pedagogik o‘yinlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda bo‘ladi: - didaktik maqsad o‘yinli vazifa shaklida qo‘yiladi; - o‘quv faoliyati o‘yin qoidalariga bo‘ysunadi; - o‘quv materialidan o‘yin vositasi sifatida foydalaniladi; - o‘quv jarayoniga didaktik vazifa o‘yinga aylantirilganda musobaqalashish unsurlari kiritiladi; - didaktik vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi o‘yin natijalari bilan bo‘linadi. Pedagogik o‘yinlar faoliyat turlari, pedagogik jarayon xarakteri, o‘yin metodikasi, soha xususiyati, o‘yin muhiti bo‘yicha tasnif qilingan. Oliy Oliy ta’lim amaliyotida tadbirkorlik o‘yinlariga alohida ahamiyat beriladi. Tadbirkorlik o‘yinlari nazariyasi umuman boshqa o‘yin faoliyati nazariyasi bilan bevosita bog‘langan. Tadbirkorlik o‘yinlarini mashhur psixologlar L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, N.Y.Galperin va boshqalarning ishlarida nazariy jihardan asoslangan. Ta’lim jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalarning shakllanganlik darajasini nazorat qilish ham alohida ahamiyatga ega. Shu xususda, o‘yin orqali og‘zaki savol-javob usuli an’anaviy usullardan biri hisoblanadi. Og‘zaki savol-javob orqali tashkil qilingan o‘yin texnologiyasi talabalarni hozir javoblikka tayyorlaydi. Og‘zaki savol-javob orqali tashkil qilingan o‘yin yakka va yopasiga so‘rash tariqasida amalga oshiriladi. Yakka talabadan so‘ralganda pedagog talabaga savol beradi, uning javoblaridan talaba materialini qanchalik o‘zlashtirganligi ma’lum bo‘ladi. Butun guruh yopasiga so‘ralganda, pedagog o‘zaro mantiqiy bog‘langan savollarni tanlaydi va ularni butun guruh talabalariga tashlaydi. Bunday holatda talabalarning javob berishga faolligi aniqlanadi. Og‘zaki savol-javob talabalarni so‘zamollikka, aniq so‘zlar ishlatib, mantiqiy javob axtarishga, shakllangan bilimni so‘zlarda ifodalashga o‘rgatadi hamda og‘zaki nutq madaniyatini o‘stiradi. Pedagogning vazifasi, talabalar nutqidagi ba’zi nuqsonlarni ustalik bilan talabaning izzat-nafsiga daxl qilmasdan, kamsitishlarsiz to‘g‘rilashdan iborat. Bu o‘yin turi talabalarda nutq o‘stirish mezonini tarbiyalash turiga kiradi.

Metodik ko‘rsatmalarda metodologiya masalalari va pedagogik o‘yinlar nazariyasiga katta e‘tibor berilgan. Pedagogik o‘yinli, munozarali, muammoli masalalarni yechish amaliy mashg‘ulotlarda har bir mavzu bo‘yicha o‘yin

texnologiyalar asosida adabiyotlarda manbalar taklif etiladi. Biz talabalarga o‘yin mashg‘ulotlarini bajarishdan oldin quyidagi amallarni bajarishni tavsiya etamiz: • mavzu yuzasidan zaruriy adabiyotlarni to‘plash va ularni o‘rganish; • fikrlab, o‘ylab, o‘yinning rejasini tuzish; • asosiy manbalarning to‘g‘riligiga ishonch hosil qilish; • adabiyotlarda ko‘rib chiqilgan asoslarni taqqoslab ulardan umumiy va xususiylarini ajratish; • o‘yinga tegishli ko‘rgazmali qurollarni tayyorlash, shaxsiy kuzatishlar, tajriba va hayotiy mohirlikdan foydalanish. Ta‘lim jarayonida o‘tkaziladigan o‘yinlar talabalarning nafaqat fanga nisbatan qiziqishini uyg‘otadi, balki ularning milliy qadriyatlar va madaniy-meroslarimizdan foydalanishning asoslarini mukammal bilib olishga asos bo‘ladi. Bu nazariya pedagogik texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi. Tadqiqot metodologiyasi. Pedagogik texnologiya shakllar, metodlar, yo‘llar, usullar, tarbiyaviy vositalarni, tanlab olish va joylashtirishni, aniqlovchi psixologik-pedagogik, ko‘rsatmalarning majmuidan iborat .

Texnologik tuzilmalarning yordamida o‘quv-tarbiya ishining bironta yoki bir nechta jabhalarda talabalarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini o‘zlashtirishda samarali natijalarga erishish ta‘minlanadi. Shunday qilib, o‘yin texnologiyasini tashkil qilishda professor-pedagoglar va talabalarning o‘zaro bir-biriga bog‘liq ishi dasturlashtiriladi. O‘yin texnologiyalarining bir necha modifikatsiyalari mavjud: 1) Imitatsion o‘yinlar. Bunday o‘yinlardan maqsad qaysidir tashkilot, muassasa va uning qismlari faoliyati andaza qilinadi. Voqealar kishilarning biron faoliyati yoki holati namuna qilib olinishi mumkin. Ssenariyda bunday o‘ynash yozib chiqiladi va imitatsiya qilinadigan obyektlar va jarayonlar belgilanadi. 2) Operatsion o‘yinlar. Bunday o‘yinlarda aniq o‘ziga xos voqea-hodisaning bajarilishi mashq qilinadi. Operatsion o‘yinlar ish jarayoniga mos modellashtiriladi.

3) Rol ijro etish o‘yinlari. Unda aniq shaxsning xulqi xatti-harakati, o‘z vazifalari va majburiyatlarini bajarilish taktikasi mashq qilinadi. 4) Tadbirkorlik teatri. Bunda qandaydir vaziyat va undagi kishining xulqi o‘ynaladi. Bu o‘yinning asosiy vazifasi turli holatlarda mo‘ljalni to‘g‘ri baholay olishni o‘rgatish, o‘zining xulqiga to‘g‘ri baho berish, boshqa kishilarning imkoniyatlarini baholay olish, ular bilan muloqot o‘rnata olishga o‘rgatishdir. 5) O‘yinga kirishish. Bu bosqichda o‘yin rejasi aniqlanadi, mashg‘ulotning bosh rejasini belgilanib olinadi, mashg‘ulotning bosh maqsadi shakllantiriladi, muammoni qo‘yish va vaziyatni tanlash kerak bo‘ladi. 6) O‘tkazish bosqichi. Bu o‘yin jarayonidir. O‘yin boshlangach, hech kim unga aralashmaydi va uning borishini o‘zgatira olmaydi. O‘yinni faqat uni boshqaruvchi tuzatib borishi mumkin. 7) Tahlil bosqichi. O‘yin natijalari muhokama qilinadi va baholanadi. Bu bosqichda ekspertlarning fikrlari eshitiladi, o‘zaro fikr almashinadi, talabalar o‘z xatti-harakatlari va xulosalarini himoya qiladilar. Tahlil va natijalar.

O‘yin texnologiyalaridan foydalanishning asosini talabalarni faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. O‘yin olimlar tadqiqotlariga ko‘ra, mehnat va o‘qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning ta’kidlashlaricha, o‘yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, hayotda o‘z o‘rnini barqaror egallash, o‘zini-o‘zi boshqarish va shuningdek, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. O‘yin ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirish va qayta yaratishga yo‘nalgan vaziyatlarda faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o‘z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi. O‘yin hissiy ko‘tarinkilikka xosdir. U o‘zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo‘ladi. O‘yinning o‘yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtincha izchilligini ko‘zda tutgan bevosita tegishli va unga aloqador qoidalar bo‘lishini ko‘rsatadi. Tadqiqotchilar nazariy aspektda o‘yinga faoliyat, jarayon va o‘qitish metodi sifatida qaraydilar. O‘yin faoliyat sifatida maqsadning belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi. Va bunda shaxs subyekt sifatida o‘z imkoniyatlarini to‘la amalga oshiradi. O‘yin faoliyatini motivatsiyalash o‘yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o‘zini namoyon qila olishi, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarni qondirishdan kelib chiqadi. O‘yinlar turli maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarida qo‘llaniladi. O‘yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatda bilim, malaka va ko‘nikmalarni qo‘llash, umumta’lim malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi. O‘yinning tarbiyaviy maqsadi esa mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtainazarlar, ma’naviy-estetik dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo‘ladi. Faoliyatni rivojlantiruvchi o‘yinlar, diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, chog‘ishtirish, o‘xshashni topish, faraz, xayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal yechimni topa olish, o‘quv faoliyatini motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Keyingi vaqtlarda pedagogikada tadqiqotning yangi yo‘nalishini o‘qitishning o‘yin shakli qaror topa boshladi. Hozirgi zamon ta’lim amaliyoti uchun o‘yin asosida qurilgan darslar, avvalo, o‘quv jarayonini faollashtirish uchun muhimdir. O‘yinli vaziyatlar talabalarni shartli, qiziqarli, ovunchoqlik faoliyatiga jalb etadi. U mazmunida o‘zlashtirayotgan bilimlar, malakalar va ko‘nikmalarni mujassamlashtirilgan o‘yinlar talabani ruhiyatiga kuchli ta’sir etadi. O‘yinlar bilim egallashda, emotsional ko‘tarinki holatni yuzaga keltiradi. Ta’lim orqali o‘qitish

texnologiyasida pedagogning vazifalari quyidagilar: - aniq materialda illyustratsiya vaziyatlar yoki muammoli vaziyatlarni tanlab olish; - didaktik materiallar tanlash, har bir talaba uchun kartochka, topshiriqlar tuzish; - talabalarning kichik guruhini tanlash (3-4 kishilik guruh); - masala (muammo) qo'yish toki bunda guruhlar o'z nuqtai nazarini aytsin. - kutiladigan javoblar va e'tirozlarni o'ylash; - pedagogning doimo talabalarga o'z qiziqishini namoyon etishi; - talabalar bir necha guruhlariga bo'linib, guruhning har bir a'zosi o'z vazifalarini aniq bilishi kerak. o'yinning vaqti cheklangan bo'lishi, u yakunlangach esa o'yin natijalarini albatta ko'rishimiz mumkin. Ta'lim jarayonida talabalarning axborot texnologiyalaridan foydalanishga qiziqishlarini oshirish quyidagi muhim natijalarga olib keladi: O'quv-tarbiya jarayoni faollashgan, ta'lim samaradorligi oshadi; Axborotni turli shaklda (ovoz, matn, video, grafika, animatsiya, o'yin yordamida) berilishi talabalarning diqqatini tortadi, yuqori darajadagi ko'rgazmalilik talabalarda katta qiziqish uyg'otadi, mavzuning uzoq vaqt xotirada salanishini ta'minlaydi; Tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan ta'limni amalga oshirishga imkon beradi. O'quvchilarning intellekti bilan bog'liqlikda individuallashtirilgan tarzdagi o'quv materiallarini, o'quv topshiriqlarini taklif etish imkoniyati yuzaga keladi; Talaba dars davomida sust tinglovchidan faol ishtirokchiga muloqotga kirisha oladigan, hamkorga aylanadi; Mustaqil ta'lim olish imkoniyati, sohalari kengayadi, mustaqil ta'lim madaniyati rivojlanadi; Professor-pedagog tomonidan bajarilgan ko'pgina tashkiliy vazifalarni kompyuter yordamida amalga oshiriladi. Natijada vaqt tanqisligi muammosi sezilarli kamayadi. Pedagog darsda interfaol metodlarni qo'llab, individual, guruhiy va jamoaviy o'quv ishlarini olib boradi; Dars davomida bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlar soni keskin ortadi. Mashqlarni tanlash oddiydan murakkablik tamoyiliga asoslanadi; O'yinli texnologiyalar, rolli texnologiyalardan foydalanish imkoniyati ortadi. O'yin ishtirokchilarining o'yin davomida o'zi o'ynagan rollariga baho berish, o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyati tug'iladi. Shunday qilib, o'yinlarni, materiallarni, yangi bilimlarni egallashi, o'tilganlarni mustahkamlash, ijobiy qobiliyatlarni rivojlantirish kabi bir qator vazifalar o'z yechimini topadi.

REFERENCES

1. Hoshimov K va boshqalar. Pedagogika tarixi //Pedagogika oliy o.,uv yurtlari va dorilfununlar talabalari uchun O.,quv qo'llanma. - Toshkent, O.,qtuvchi, 1996, - 301-bet.
2. Mahkamov U, Tillaboeva N, Tillaboeva SH. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. T.: 2003 y

3. Ikrom Boboqulovich Mirzaev (2021). **MILLIY MADANIYAT FALSAFASI**. Academic research in educational sciences, 2 (12), 965-969.
4. 2. Mirzaev Ikrom Boboqulovich O'zbekiston yosh avlodi tarbiyasida milliy qadriyatlarning o'rni // Fan va ta'lim bugungi kun. 2019 yil, 4-son (39). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-natsionalnyh-tsennostey-v-vospitanii-molodogo-pokoleniya-uzbekistana> (kirish sanasi: 18.01.2023).
5. Mirzaev Ikrom Boboqulovich Zamonaviy madaniyat jarayonlarida milliy va umuminsoniy uyg'unlik // Ilmiy jurnal. 2020 yil. 3-son (48). URL: World scientific research journal www.wsrjournal.com Volume-12_Issue-1_February-2023 146 <https://cyberleninka.ru/article/n/garmoniya-natsionalnogo-iobschechelovecheskogo-v-protsessah-sovremennoy-kultury> (kirish sanasi: 18.01.2023).
6. Ikrom Boboqulovich Mirzaev, D. A. Abduhoshimov **ZAMONAVIY KADROLAR TAYYORLASH TIZIMI VA MAQSADLARI** // Ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar. 2022. #TSTU konferensiyasi 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zamnaviy-kadrlar-tayyorlashning-tizimli-va-masadli-zhi-atlari> (kirish sanasi: 18.01.2023).
7. Ikrom Boboqulovich Mirzaev **GLOBALLASHUV DAVRIDAGI "SOXTA DINIY DUNYOQARASH"** // Pedagogik fanlarda akademik tadqiqotlar. 2022. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/globallashuv-davridagi-sohta-diniy-dunyo-arash> (Kirish sanasi: 18.01.2023).
8. O'.Erniyozov, I.Merzayev, & M.Hasanov. (2022). **SHAXSNI SHAKILLANTIRISHDA "OILA" VA "JAMIYATNING" AXAMIYATI**. World Scientific Research Journal, 4(2), 96–101. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/1445>
9. Раматов, Ж. С., Эрнийёзов, У. К., Султанов, С. Х., & Хасанов, М. Н. (2022). **САНЪАТНИНГ ТАРИХИЙ-ФАЛСАФИЙ АСОСЛАРИНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ АХАМИЯТИ**. World scientific research journal, 9(2), 65-70.
10. 8.Ramatov, J., Baratov, R., Jurabayev, N., Umarova, R., & Mamajanova, G. (2022, June). Evolution of railway construction development in Uzbekistan: Past and prospects. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 030011). AIP Publishing LLC.
11. Jumaniyoz Ramatov, Rozigul Umarova, Rashid Baratov, Mirshod Khasanov, Siroj Sultonov, & Fayzulla Kushakov (2022). **PROBLEMS OF INFLUENCE OF ISLAM ON CONSCIOUSNESS TRANSFORMATION**. Academic research in educational sciences, 3 (10), 591-597.
12. Раматов, Ж. С., Баратов, Р. У., Султанов, С. Х., Муратова, Д. А., Хасанов, М. Н., & Эрнийёзов, У. К. (2022). **ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ**

КИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ КАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ
МАЗМУН-МОҲДИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and
social sciences*, 2(10), 376-386.

13. Рамаатов, Ж. С., Муратова, Д., Султанов, С. Ҳ., Тухтабоев, Э., Кушаков, Ф.,
& Хасанов, М. Н. (2022). ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ ВА ҚАДРИЯТЛАР
ПЛЮРАЛИЗМИ. *World scientific research journal*, 8(1), 102-108.

14. Рамаатов, Ж. С., Баратов, Р. Ў., Султанов, С. Ҳ., Муратова, Д. А., Хасанов,
М. Н., & Эрнийёзов, У. К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ
ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ
МАЗМУН-МОҲДИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and
social sciences*, 2(10), 376-386.

15. Джуманиёз Рамаатов, Розигуль Умарова, Рашид Баратов, Миршод Хасанов,
Сиродж Султонов, Файзулла Кушаков ПРОБЛЕМЫ ВЛИЯНИЯ ИСЛАМА НА
ТРАНСФОРМАЦИЯ СОЗНАНИЯ // Академические исследования в области
педагогических наук. 2022. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/problems-of-influence-of-islam-on-coding-transformation> (дата обращения: 31.01.2023).

16. Hasanov, M., & Tuhtaboev, E. (2021). THE PERFORMANCE OF THE
PERFECT MAN IN THE EASTERN RENESSANCE (ON THE EXAMPLE OF
FARABI'S VIEWS). *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(05),
1-6.

17. Ҳасанов, М. Н., Ҳафизов, Д. А., Тоиров, Р. Х., & Болтабоев, Х. Қ. (2022).
АБУ НАСР ФОРОБИЙ ЯШАГАН ДАВРДАГИ ИЛМ-ФАН ВА ТАЪЛИМ-
ТАРБИЯ. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 4 (3), 137–140.

UDK:42 (076). X-68

TRANSLATION STRATEGIES OF ISLAMIC TERMS

Khodjakulova Feruza Rustamovna.

Senior lecturer of the department "Foreign languages" of the International Islamic Academy of Uzbekistan.

Phone: 911642157

gmail: feruzahodjakulova77@gmail.com

ABSTRACT

This article explores and discusses strategies or message distortions used in translating Islamic terms from Uzbek to English. Translation strategies refer to the ways in which meaning is conveyed from the source language (LL) to the target language (LL). These studies were qualitatively analyzed using the concepts of translation strategies, which are Islamic terms. The study showed that translators mainly use the strategies of preservation, addition, globalization and localization. The retention strategy is used by extracting terms from the source language (SL) because it was difficult to find the same terms in English as the LT (target language); and is an additional strategy using English terms with brief descriptive notes in the text.

Key words: *Islamic terms; translation strategies; source language; target language.*

ISLOMGA OID ATAMALARNING TARJIMA STRATEGIYALARI

Xodjakulova Feruza Rustamovna

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

“Chet tillar” kafedrası katta o'qituvchisi.

Tel: 911642157

gmail: feruzahodjakulova77@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada islomga oid atamalarini o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishda qo'llanilgan strategiyalar yoki xabarlarini buzib ko'rsatilishi o'rganiladi va muhokama qilinadi. Tarjima strategiyalari ma'noni manba tildan (SL) maqsadli tilga (TL) o'tkazish usullarini nazarda tutadi. Tadqiqot ma'lumotlari islomga oid atamalar bo'lib, tarjima strategiyalari tushunchalaridan foydalangan holda sifat jihatidan tahlil qilindi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, tarjimonlar asosan saqlash, qo'shish, globallashtirish va mahalliyashtirish strategiyasidan foydalanib keladilar. Saqlash strategiyasi manba tilidagi (SL) atamalarni olish orqali qo'llaniladi, chunki ingliz

tilida TL(target language) bilan bir xil atamalarni topish qiyin edi; va matnda qisqacha tavsiflovchi eslatmalar bilan inglizcha atamalardan foydalangan holda qo'shimcha strategiya hisoblanadi.

***Kalit so'zlar:** Islomga oid atamalar; tarjima strategiyalari; manba tili; maqsadli til*

СТРАТЕГИИ ПЕРЕВОДА ИСЛАМСКИХ ТЕРМИНОВ

Ходжакулова Феруза Рустамовна

Старший преподаватель кафедры «Иностранные языки»

Международной исламской академии Узбекистана.

Телефон: 911642157

gmail: feruzahodjakulova77@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В этой статье исследуются и обсуждаются стратегии или искажения сообщений, используемые при переводе исламских терминов с узбекского на английский. Стратегии перевода относятся к способам передачи значения с исходного языка (ЯЯ) на целевой язык (ЯЯ). Данные исследования были качественно проанализированы с использованием концепций переводческих стратегий, которые являются исламскими терминами. Исследование показало, что переводчики в основном используют стратегии сохранения, добавления, глобализации и локализации. Стратегия удержания используется путем извлечения терминов из исходного языка (ЯЯ), потому что было трудно найти те же термины на английском языке, что и ПЛ (целевой язык); и является дополнительной стратегией с использованием английских терминов с краткими описательными примечаниями в тексте.

***Ключевые слова:** исламские термины; стратегии перевода; исходный язык; язык перевода.*

INTRODUCTION

Nowadays, writing scientific articles is widespread among teachers and students in higher education institutions, and is one of the main requirements for obtaining a higher degree or promotion to a new job.

Every discipline has its own words, terms or jargon, such as Islamic terms, which are usually a little difficult to find an exact equivalent in English. They originated from "Islam" as a religion and from local cultures. Therefore, in the process of translation, they should correctly choose English words that are equivalent to Islamic terms, that is, the students will be able to understand the same linguistic nuances. Because of this, they sometimes face difficulties in finding the appropriate

words by translating words from the Qur'an, Arabic or Uzbek into English. Such difficulties depend on different concepts, so the cultural background from which they come must be taken into account.

DISCUSSION AND RESULTS

To find the appropriate English words, translators must use specific translation strategies to ensure that the English words they use are equivalent and close to the original. Translation strategies include adopting or adapting SL(source language) words, creating new words (neologisms), or identifying TL(target language) words with similar meaning by using target language words means that the methods mentioned above should be used. Of course, in order to find equivalence, translators must also consider the linguistic and cultural components that help shape the intended meaning. Linguistic components to consider, such as whether the translated words need any phonological or orthographic correction to facilitate pronunciation or writing for target language (TL) learners; or morphological changes in meaning should be taken into account.

However, not all translators can effectively use translation strategies because there are still problems or difficulties in understanding the intended meaning of the words used in the target language (TL).

This arouses the interest of researchers to conduct more research on the translation strategies used in transferring the meaning or message of Islamic terms from Uzbek or Arabic as a source language to English as a target language (TL). It is still interesting to study whether translation strategies are effectively used to transfer meaning from the source language to the target language without any changes or distortions. There is research on translation strategies, but not enough research on the translation of Islamic terms. A study of strategies for translating cultural terms from English to Uzbek shows that translators do not focus on using one strategy, but are close to natural translation that combines two or more strategies. Translators should not rely on a single strategy, but should mix more strategies according to the lexical and syntactic elements of the text.

In his article, El-Zaini shows that, contrary to previous studies, lexical gaps have caused problems in translating Islamic terms into English; recommends the use of lexicographic approaches to bridge such gaps by comparing three dictionaries to find equivalents of Islamic terms in English. However, it does not focus on Islamic terms that are often found in scholarly articles. This shows that it is necessary to carry out research on the translation of Islamic terms from Uzbek as a source language (SL) to English as a target language (TL).

Translation strategies can be defined as potentially conscious procedures for solving the problem that an individual faces when translating a segment of text from one language to another. They can be conscious and unconscious processes; and are overt tactics and mental processes that involve identifying and creating multiple relationships at the semantic and phonological levels in both cultural context and language. These strategies are used to translate the meaning of Islamic terms from Uzbek to English not because of their linguistic content, but because of the cultural content or elements of the source language. In order to better understand why translators use such techniques, such strategies are developed sequentially: retention, inclusion, globalization, and localization.

Retention: becomes the most commonly used strategy for translating Islamic terms from Uzbek to English.

This is mainly done by preserving the original form of the (SL)source language, and it is concerned with preserving meaning in two different language cultures. The use of retention indicates that the translated terms do not apply to concepts of Islamic teachings and other cultural contexts.

They mainly refer to references in the world, such as places named after people, days, and the title of a book. Al-Ghazali, Ahmad Dahlan, Tafsir Ibnu Katsir, Makkai Mukarrama and Al-Madina Al-Munawwara are available in English abstracts. The following words do not retain their cultural element, but target language learners (TL) have the same experience as source language learners (SL). However, there are some Islamic terms that refer to the concept of worship that are not translated, such as fiqh, tawheed, and taqwa. Fiqh means all the principles or rules of worship; tauhid refers to the concept of believing in one God; and piety is surrendering to Allah and accepting His destiny.

The second is an abstract and popular strategy used by translators, although it reached only 7% of the total terms found. Supplement (SL) refers to any additional information attached to the translated terms so that the readers understand the intended message. Additional information in a translation can take many forms: (1) in-text, (2) footnotes, (3) end-of-chapter notes, and (4) end-of-book notes or a glossary.

In conclusion, translators can decide to keep the original text, so they can fill the text with any information they deem necessary. Unlike retention, addition can be used to translate all cultural objects, including Islamic terms, with any description or information that is considered important to include. Some terms like sunnat rasul, tawheed, shariah ibada and haji were deemed appropriate and translated into English using this strategy. The term sunnat rasul was changed to the tradition of prophet; A

final strategy that abstract writers also use is to localize SL terms by adapting phonemes or graphic symbols to help TL readers identify with them more easily. There are several terms that have been translated using this strategy, such as Abasiah, caliph, Kufah, Umayya, and Syariah. When translating these terms, translators make phonological adaptations that match the TL system.

REFERENCES

1. Grinev S.V. Terminology and scientific cognition. Moscow.(1991).p.15-27
2. Zhukov, O.R. (2017). Sistemnye aspekty definirovaniia v terminologii vyrazitelnykh sredstv yazyka [Systemic aspects of definition in terminology of expressive means of language]. Candidate's thesis. Saratov [in Russian].
3. Mihina, I.I. (1988). Semanticheskaiia variativnost termina i sredstva ee leksikograficheskoho otrazheniia (na primere terminologii literaturnykh zhanrov v anhliiskom i russkom yazykakh) [Semantic variability of the term and means of its lexicographic reflection (on the example of terminology of literary genres in English and Russian languages)]. Candidate's thesis. Moscow [in Russian].
4. Xodjakulova F.R.(2020). Analysis of terminology of literary criticism in English. Namangan davlat universiteti.Ilmij axborotnomasi.11son.2020 yil.

O'ZBEKISTONDA SOYADAGI TA'LIMNING RIVOJLANISHI

Zaylobidinova Munira Gulomovna

Farg'ona davlat universiteti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada asosan O'zbekistonda soyadagi ta'limning rivojlanish omillari muhokama qilinadi. Ayniqsa, unga bo'lgan talabning o'sishi va o'quvchi-yoshlarni "repetitor" kurslaridan foydalanishga majbur qiladigan sabablar o'rganilgan. Shuningdek, maqolada repetitorlarning ta'lim berish sifati haqida ham so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: *soyadagi ta'lim, talab, neoliberalizm, iste'molchilik, xususiylashtirish, davlat tomonidan tartibga solish, tarqatish, kasb-hunar kollejlari.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье в основном рассматриваются аспекты распространения теневого образования в Узбекистане. В частности, триггеры спроса и то, что заставляет студентов нанимать частных репетиторов. В нем также описывается качество репетиторских центров и государственная политика в отношении частных репетиторских центров.

Ключевые слова: *образование, спрос, неолиберализм, потребление, приватизация, государственное регулирование, распространение, профессионально-технические колледжи.*

KIRISH

Ayni paytda mulkni xususiylashtirish- neoliberalizm ko'p davlatlarda jadal suratlarda rivojlanib bormoqda va jamiyatning barcha sohalariga kirib bordi. Mulkni xususiylashtirish va davlat tasarufidan chiqarish bu neoliberal yondashuv bo'lib, bunda davlat aktivlari xususiy mulk tarkibiga kiradi. Ta'lim sohasiga neoliberal yondashuv kirib keldi va ayni paytda o'quv dargohlarni xususiylashtirish odatiy holatga aylanib bo'lgan. Ta'limni xususiylashtirish ham global hodisaga aylanib turlicha ko'rinishlarga ega. Masalan buning bir turi xususiy universitet, maktab, bog'chalarni paydo bo'lishi bo'lsa, yana bir turi "repetitorlik" markazlarining jaddal tarzda rivojlanishidir. Bu jarayon butun dunyoda "shadow education-soyadagi ta'lim" deb nom olgan.

Verger (2016) ta'limni xususiylashtirish ilgari kuzatilgan jarayon emasligini ta'kidlaydi. O'quv dargohlari oilalar tomonidan moliyalashtiriladi. Bunda albatta moliyaviy ta'minlangan oilalar farzandlarini bilim oladi, kam ta'minlangan oilalar farzandlari esa chetda qoladi yoki davlat yaratgan bepul maktablarda o'qiydilar.

Shunda: “Butun dunyo bolalar huquqi konvensuyasi” nima uchun kerak?- degan savol tug’iladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Repetitorlik-neoliberal element qadriyatlarini o’z ichiga oladi va yashirin xususiylashtirish jarayoniga kiradi. Repetitorlik kurslari asosan maktabdagi asosiy darslardan keyin amalga oshadi. Repetitorlar-o’quvchilarning maktabdagi fan o’qituvchisi yoki universitet talabasi bo’lishi mumkin.

Baker (1992) “shadow education-soyadagi ta’lim” iborasini 1992 yili muomalaga olib kirdi va bu metafora 1999 yildan buyon ta’limda keng qo’llana boshlandi. Keyinchalik bu ibora ko’plab olimlarning ilmiy asarlarida uchray boshladi. Nima uchun soyadagi ta’lim iborasi olindi degan savolga Bray (1999): “...chunki repetitorlarning dasturi asosan maktabdagi o’quv dasturidan olinadi. Shunday qilib soyadagi ta’lim bu-bolalar bilan maktab dasturi ustida intensiv shug’ullanish jarayonidir” deb ta’kidlagan.

Bray (1999), shuningdek, soyadagi ta’limni quyosh-soatiga taqqoslagan, chunki quyosh osmon bo’ylab harakatlanar ekan, uning soyasi quyosh-soatining turli soat chizig’iga to’g’ri keladi. Huddi shunday, soyadagi ta’lim asosiy maktab ta’lim dasturidan olinadi va maktab dasturiga chambarchas bog’liqdir.

Hozirda “repetitor”, “repetitorlik kursi” atamaları o’zbek tilida ko’p qo’llanadigan atamalarga aylangan. Aslida bu so’z rus tilidan olingan bo’lib o’zbek tilida aniq talqini yo’q. “Repetitor” o’zbek tiliga xususiy murabbiy deb tarjima qilinadi ammo muloqotda murabbiy so’zi kamdan kam “repetitor” mano’sida ishlatiladi. Shuning uchun ruscha “repetitor” so’zi repetitor, repetitorlik hodisani tasvirlash uchun olingan.

O’zbekistonda soyadagi ta’lim fenomeni

O’zbekistonda soyadagi ta’lim jarayonini o’rganishdan oldin, mamlakatning geografik joylashuvi va tarixiy kelib chiqishiga to’xtalib o’tish maqsadga muvofiqdir. O’zbekiston Markaziy Osiyodagi ikkita davlat tomonlama dengizga chiqa olmaydigan yagona davlat bo’lib, shimoldan Qozog’iston, shimoli-sharqdan Qirg’iziston, janubi-sharqdan Tojikiston, janubi-g’arbdan Afg’oniston va Turkmaniston bilan chegaradoshdir. O’zbekiston Sotsialistik Respublikasi 1924-yilda sobiq Ittifoq tomonidan tuzilgan. 1991 yilda Sovet Ittifoqining parchalanishi O’zbekistonga, boshqa O’rta Osiyodagi mamlakatlar singari, mustaqillik olib keldi. O’zbekiston mineral resurslarga boy, asosiy iqtisodiyoti paxta yetishtirish, dehqonchilik, chorvachilikdan iborat. O’zbekiston jahonda paxta yetishtiruvchi yetakchi davlatlardan biri sanaladi. Mamlakat aholisi 33 milliondan ortiq kishidan

iborat bo'lib, o'zbeklar, ruslar, tojiklar, qozoqlar, qirg'izlar va ozroq qismini koreyslar tashkil etadi.

Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston ta'lim tizimi deyarli Sovet Ittifoqi tizimiga o'xshab ketardi. Postsovet davrida O'zbekiston ta'lim tizimi maktabgacha ta'lim (2-7 yosh), boshlang'ich ta'lim (1-4-sinf) va o'rta maktab (5-11-sinf) ta'limidan iborat bo'lgan. O'rta maktabni tugatgandan o'quvchilarda ikkita tanlov bor edi ya'ni 5 yillik yoki 7 yillik ta'limni tanlash kerak edi. 5 yillik ta'limni tamomlagan talabalar "Профессиональное-техническое училище" (PTU) nomi bilan mashhur bo'lgan o'rta ta'lim muassasalariga o'qishga kirardilar. O'quvchilar o'rta maktabni (11 yillik ta'limni) tugatgan so'ng oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirishi mumkin bo'lgan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (2007-2008) ta'kidlanganidek, 1997-2001 yillar O'zbekistonda milliy ta'lim siyosatini shakllantirish davri bo'lgan. 1997 yilda ta'lim vazirligi tomonidan milliy dastur qabul qilindi va u milliy qonunchilik darajasigacha shakllantirildi. O'zbek milliy dasturi Sovet Ittifoqidan keyingi dastlabki vaqtinchalik islohotlarni to'xtatdi va ta'lim islohotlarini amalga oshirish uchun izchil harakat boshladi. 1998-yilda O'zbekistonning Birinchi Prezidenti tashabbusi bilan sohada jiddiy islohot amalga oshirildi. Ushbu islohot tufayli barcha o'rta maktablar bitiruvchilari majburiy ta'lim sifatida professional va kasb-hunar ta'lim muassasalari belgilandi. Bunday islohot o'rta maktabda o'qish muddatini 11 yildan 9 yilga qisqartirdi. Bundan tashqari, islohotda umumta'lim maktablarini bitiruvchilar uchun qo'shimcha 3 yillik majburiy ta'lim belgilandi. Professional va kasb-hunar kollejlarning joriy etishning maqsadi o'qitish sifatini oshirish, yoshlarning kasbiy mahoratini oshirish va mehnat bozoriga kirish uchun ko'proq imkoniyatlar yaratish edi (UNDP, 2007). Kollejlardan farqli o'laroq, litseylar o'quvchilarni davlat dasturi orqali oliy o'quv yurtlariga tayyorlashga yo'naltirilgan (Zaylobidinova, 2021).

O'zbekistonda 1998-yildan boshlab kollejlarda tahsil olish majburiy ta'lim sifatida joriy etilgan, biroq majburiy ta'lim o'z maqsadlarini oqlay olmadi. O'quvchilarning kollejlarda davomati pastligi va litseylarda repetitorstvaga bo'lgan talabning yuqoriligi hukumat vakillarini tizimga o'zgartirish kerakligi haqida o'ylantirdi. Qolaversa, aksariyat ota-onalar kollejlarda ta'lim sifati qoniqarli emasligidan shikoyat qilar edilar. Shuning uchun aholining fikrini aniqlash maqsadida, umumta'lim maktablarida majburiy ta'lim islohotini saqlab qolish yoki o'zgartirish haqida so'rovnoma o'tkazildi va ta'lim sohasida o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Shu munosabat bilan litseylar ikki yillik o'quv dargohiga aylandi. O'quvchi litseyni tugatgandan so'ng o'rta maktabni tamomlaganlik to'g'risidagi guvoohnoma oladi. Kollejlarda esa to'lov-kontrakt asosida o'qitish joriy etildi va 11 yillik

majburiy o'rta ta'limni tugatgan talabalarni qabul qilishni boshladi. Kollejlarda o'qish muddati talabalar tanlagan fakultet va mutaxassislikka bog'liq (odatda 1,5-2 yil). Hozirgi kunda O'zbekistonda aksariyat yoshlar majburiy ta'limni tugatgandan so'ng, oliy o'quv dargohida o'qishga kirishga harakat qilishadi. Odatda oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonidan muvaffaqiyatli o'ta olmagan yoshlar kollejlarga boradi.

Mustaqillikka erishgandan so'ng, O'zbekiston iqtisodiy tanazzulga yuz tutdi, bu esa ta'limga sarflanadigan mablag' va xarajatlarni sezilarli darajada qisqartirdi. O'zbekistonga ierarxik markaziy rejalashtirish va resurslarni samarasiz taqsimlash Sovet Ittifoqi siyosatidan meros bo'lib qoldi, bu nafaqat ta'lim, balki boshqa sohalarni moliyalashtirishda ham ko'plab muammolarni keltirib chiqardi. Birlashgan Millatlar Ta'lim, Fan va madaniyat Tashkilotining (2001) (UNESCO) ma'lumotlariga ko'ra, davlatning ta'limga sarflangan xarajatlari 6,8% gacha qisqartirilgan, ammo ota-onalarning ixtiyoriy hissasi 55% gacha oshgan. O'zbekiston hukumati ta'lim sohasiga katta sarmoya kiritdi va moliyaviy yukni mahalliy hokimiyat o'rganlar, maktablar va ota-onalar zimmasiga yuklab, ta'limni markazlashtirishga harakat qildi (Ochiq Jamiyat Instituti, 2002). Maktablar bolalarni tekin kitoblar bilan, o'quv xonalarni esa jihoz va texnologiya bilan ta'minlay olmadi. O'qituvchilarning maoshi 3-4 oyga kechiktirildi va shu sababli ko'plab malakali o'qituvchilarning ish tashlash jarayoni kuzatildi. Odamlar maktablardagi sifatli ta'limga bo'lgan ishonchini yo'qotib, o'zlari farzandlari uchun xususiy repetitorlar yollashni boshlashdi. Shunday omillar va ayniqsa, ish haqining kechikishi, o'qituvchilar oilasini boqish uchun boshqa daromad manbaini izlashga majbur qildi (Zaylobidinova, 2021). Bunga o'xshash omillar Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin gruziyalik o'qituvchilarni ham ish tashlab repetitorlik bilan shug'ullanish jarayoni jaddalashdi. (Kobaxidze, 2018).

O'zbekistonda soyadagi ta'limning rivojlanishining yana bir sababi, markazlashtirilgan test tizimining joriy etilishidir. Abiturientlar o'rtasida raqobatni kuchayishi, xususiy repetitorlikni rivojlanishiga asos bo'ldi. 2013 yil manba'siga asosan O'zbekistonda 100 o'rin uchun 633 nafar abituriyent kurash olib bordi. Imtihan topshiruvchilar eng yuqori ball olishga va grant asosida o'qishga harakat qiladilar, chunki pul to'lab o'qishga ko'p odamlarning moliyaviy ahvoli to'g'ri kelmasdi. Shuning uchun ota-onalar farzandlarini pullik repetitor bilan shug'ullanishlari uchun sharoit yaratib berishga kirishdilar.

O'zbekistonda o'quv markazlari nafaqat maktab fanlarini, balki bolalar bog'chasi, pazandachilik va hunarmandchilikni o'rgatish ham o'z ichiga oladi. O'quv markaz egalari odatda xususiy tadbirkorlardir. Ularning maqsadi qo'shimcha daromad topish shuning uchun binoni ijaraga oladilar, repetitorlik qiluvchi

o'qituvchilarni yollaydilar va davlatga daromad solig'ini to'laydilar. Bunday markazlarni ochish uchun markazlashgan yagona darcha-elektron tizimidan litsenziya oladilar. O'zbekistonda kengayib borayotgan o'quv markazlardan yana biri bu IELTS (inglis tilini bilish darajasi) repetitorlik markazlaridir. IELTS markazlarini har bir xohshi bor xususiy tadbirkor yoki xususiy repetitor ochishi mumkin. Odatda repetitorlik kurslarini o'tkazish uchun bo'sh bino ijaraga olinadi va hukumat ro'yxatidan o'tkaziladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunga kelib Farg'ona viloyatida 220 repetitorlik markazlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Yana bir qiziq hodisa shundaki, repetitorlik Farg'onaning ayrim tumanlarida oilaviy biznesga aylangan, ya'ni oila a'zolari bilan repetitorlik qilishadi. Hindistonlik Puballi Ghoshning (2019) takidlashicha Hindistonnig ayrim shaharlarida oilaviy repetitorlik faoliyati kuzatish mumkin. Biroq, soyadagi ta'limning ushbu shakli chuqur o'rganilmaganligi tufayli bu haqda ma'lumotlar kam uchraydi. Farg'ona shahrida oilaviy repetitorlik rivojlanganlik jarayonini esa quyida tasvirlashga harakat qildim.

O'zbekistonda abituriyentlarning bilimi oliy ta'lim muassasasining muayyan fakultetiga kirish imtihonida 1994-2021 yillar oralig'ida uchta majburiy fanlardan iborat bo'lgan. Asosiy fanlar "blok" nomini olgan. "Blok" so'zi ruschadan olingan bo'lib "bo'lim" ma'nosiga egadir. Barcha fanlar bo'yicha 36 ta test savollar tuzilib faqatgina uchta yo'nalish bo'yicha davlat test imtihonlarida abituriyentlarga tarqatilar edi. Ana shunday fanlar triangulyatsiyasi mavjudligi sababli, ayrim xususiy repetitorlar oila a'zolari, qarindoshlari yoki do'stlarini repetitorlik qilish jarayoniga jalb qilar edilar va shu tufayli oilaviy biznes yaratadilar. Masalan, tarix fanidan ota, ona-tilidan o'g'il va ingliz tilidan qiz farzand repetitorlik bilan shug'ullanar edi. Bunday sharoitda abituriyentlar nafaqat o'qishardi, balki repetitorning uyida ham yashashardi. Taxminan 40 nafar abituriyent xonadonning bitta katta xonasiga joylanar edi va mana shu xona ularning bir yil davomida uxlash va ovqatlanish xonasiga aylanardi. Biroq, agar qizlar va o'g'il bollar birga o'qisa, xonalar ajratilar edi. Oilaviy repetitorlarning hozirda ham mavjud bo'lib intensiv kurslari odatda sentyabr oyida boshlanadi va iyun oyining oxirida tugaydi. Bunday sharoitda abituriyentlarga smartfonlardan foydalanish, televizor ko'rish taqiqlanadi, abituriyentlar faqatgina o'qish bilan ovvora bo'ladilar. Talabalar har ikki haftada repetitorlik to'lovi va yashash uchun yetarli oziq-ovqat olib kelish uchun uylariga borishadi. Oilaviy repetitorlar abituriyentlarni kirish imtihonlarida 90% muvaffaqiyat va'da qilishar, kirolmagan abituriyentni esa aybi o'zida ekanligini ta'kidlashadi. Ularning uyqu soatlari, repetitorlik mashg'ulotlari, ovqatlanish va mustaqil o'rganish vaqti rejalashtirilgan va bu qoidalarga barcha ta'lim olayotgan yoshlar rioya qiladilar.

Bilimlarni o'zlashtira olmagan yoki qoidalarga rioya qilmagan o'quvchi repetitorlik kurslaridan chetlanadi. Bunday oilaviy repetitorlik Farg'onaning Vodil, Qo'qon va Rishton viloyatlarida keng tarqalgan.

Hozirda repetitorlik qilish faolligi O'zbekistonda ancha pasaygan. Bunga sabab oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlari talablari o'zgarganligi, xususi universitetlar, maktablar va bog'chalar paydo bo'lganligidandir.

Oliy o'quv yurtiga kirish imtihonlarining talabini o'zgarganligi, masalan, uchta asosiy fanlar qisqartirilib ikkita bo'lib qolgan ammo uchta majburiy fanlar qoshilgan. Boshqa tomondan qaraganda imtixonlarda fanlar soni ko'payib abituriyentlarni yanada ko'proq repetitor kurslariga qatnashga majbur qilib qo'ydi. Chunki O'zbekistonda aksariyat xususi repetitorlarning asosiy maqsadi talabalarni har yili bo'ladigan oliy o'quv yurtiga kirish imtihoniga tayyorlashdir. Ammo yildan yilga imtihon shartlari o'zgarib boryapti. Chet tiliga bo'lgan e'tibor kuchaygani tufayli magistratura va doktorantura bosqichida o'qimoqchi bo'lgan talabgorlarga til bilish xalqaro sertifikatini hal qiluvchi vazifani bajaryapti. Shuning uchun hozirgi kunda chet tilidan repetitorlik kurslari yanada rivojlanib eng qimmat pul to'lab o'qiladigan kursga aylangan.

Repetitorlik markazlarida talabalarining soni odatda 30-40 abituriyentni tashkil qiladi. Repetitor kurslariga oylik to'lov repetitorning maqomi va fanga ko'ra bir oz farq qiladi. Agar repetitor, "mashxur" bo'lsa, uning xizmati boshqalarga qaraganda qimmatroqdir. Ingliz tili hozirda elita va talabgorlar soni yuqori fan hisoblanadi, shuning uchun ingliz tilidan repetitorlik narxi qimmatroqdir.

Xususan, IELTS repetitorlari eng qimmat hisoblanadi. Uzoq vaqt davomida IELTS dan saboq berib, shu yillar davomida shuhrat qozonayotgan usta-repetitorlar biznesi ancha rivojlangandir. Aksariyat hollarda IELTS xalqaro imtixonidan yuqori bal olgan o'quvchilar o'zlari taxsil olgan repetitorlik markazlarida ishlagani qoladilar.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ingliz tili bo'yicha xususi repetitorlik ancha kengaygan. Bunga asosiy sabab hozirgi kunda yoshlarning chet elda o'qish tendensiyasi kundan kunga o'sib bormoqda va bu fenomen ota-onalar tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Vestminster (Buyuk Britaniya), Inha (Koreya), Turin politexnika universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti kabi jahon universitetlarining Toshkentdagi filiallari IELTS bali bilan talabalarni o'qishga qabul qilinadi. Shu sababli, odamlarning talabini qondirish uchun IELTS o'qitish markazlari soni ortib bormoqda. Boshqa fanlardan masalan: tarix, o'zbek, biologiya, kimyo fanlari ham yetakchi o'rinda turadi, chunki O'zbekistondagi nufuzli universitetlarga (masalan: Toshkent jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent davlat yuridik universiteti, Toshkent tibbiyot akademiyasi) kirish uchun

Davlatimiz rahbarining 2021 yil 26 martdagi «Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori negizida ilgari surilgan «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» g‘oyasi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarda olib borilayotgan yangilanishlar, ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalishda olib borilayotgan faoliyatning, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga xizmat qiluvchi ta‘lim va tarbiya usullarini asosi bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yuqorida sanab o‘tilgan muammolarni bartaraf etishda, birinchidan, targ‘ibot-tashviqot tizimini shakllantirish, ikkinchidan, tashqi va ichki siyosiy holatni milliy mafkura bilan bog‘lagan holda milliy manfaatlar negizida ko‘rib chiqish va baho berish, uchinchidan, milliy mafkura negizlarini aniqlash va aniq siyosiy maqsadlarni ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish kerak bo‘ladi.

«Ommaviy madaniyat» tahdidi, bugungi zamon voqelikka ochiq ko‘z bilan, real va hushyor qarashni, jahonda va yon-atrofimizda mavjud bo‘lgan, tobora kuchayib borayotgan ma‘naviy tahdid va xatarlarni to‘g‘ri baholab, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarib yashashni talab etadi. Shu bois yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod ongida murakkab va tahlikali hayot haqida, uning shafqatsiz o‘yinlari to‘g‘risida biryoqlama va soxta tasavvur bo‘lmasligi lozim. Unutmasligimiz kerakki, ogoxlik va xushyorlik, mafkuraviy yetuklik va manaviyatlilik davrimizning talabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Dwight MacDonald “A Theory of Mass Culture”, in Diogenes, No. 3, Summer 1953, pp. 3-4.
2. Saidov U. “Olomon adabiyoti”, “Tafakkur” jurnali, 2008, №2, 5-bet.
3. Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma‘ruzasi. «Xalq so‘zi», 04.08.2017.
4. I.Karimov. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. T., “Ma‘naviyat”, 2008, 142-bet.
5. Milliy istiqloq g‘oyasi. Darslik.T.,”Akademiya” nashriyoti, T, 2005, 114-bet.

6. В'yukenen P. G'arbning halokati. "Jahon adabiyoti" jurnali, 2007, 1-son, 35-bet.
7. Allanbaev R. "Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda mo'siqa san'atining o'rni". O'zDSMI xabarlarlari — 2018, №1(5),38-bet.
8. Ibragimov S.E. Yoshlar tarbiyasida "Ommaviy madaniyat" tahdidi. "Sohibqiron yulduzi" jurnali 2022 yil № 1, b-140.
9. Ibragimov S.E. Globallashuv jarayonida "Ommaviy madaniyat"ning yoshlar tarbiyasiga tahdidi. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. No. 11, 2022, 397-402.
10. Ibragimov S. E. JADIDCHILIK HARAKATI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 3. – С. 119-129.
11. Ибрагимов, С. (2022). ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА "ОММАВИЙ МАДАНИЯТ" НИНГ ЁШЛАР ТАРБИЯСИГА ТАҲДИДИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 397-403.
12. Ibragimov, S. E., & Ibragimov, J. S. O. G. L. (2022). MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAGRIKENGLIK OZBEK XALQINING YUKSAK QADRIYATIDIR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 811-818.
13. Ибрагимов, С. (2021). БАРКАМОЛ АВЛОДНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ГЎЗАЛЛИК ТУШУНЧАСИНИНГ АХАМИЯТИ. *Научно-просветительский журнал "Наставник"*, (2).
14. Тураева, С. Х., Ибрагимов, С. Э., & Буриев, И. И. (2019). ЭСТЕТИКА КАК ОБЩАЯ ТЕОРИЯ ИСКУССТВО. In *Colloquium-journal* (N
15. Ochilova, N. R., & Ibragimov, S. E. (2019). THE ETHICS OF NONVIOLENCE AND ITS ROLE IN STRENGTHENING THE FAMILY. *Theoretical & Applied Science*, (10), 608-610.

BUGUNGI KUN YOSHLARDA KREATIV FIKRLASH VA KREATIVLIK JIHATLARINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI (CHET TILINI O'QITISH MISOLIDA)

Xalikova Latofat Uktamovna

Toshkent davlat transport universiteti

“Chet tillari” kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda yoshlarda kreativ fikrlash va kreativlik jihatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari tahlil qilingan. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimiga e'tibor berilib, o'quvchi yoshlarimizning jahon andozalariga mos ravishda zamonaviy bilim va kasb-hunarli bo'lishi talab etilmoqda. Jismonan va ma'nan yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi, ularning qobiliyat va iste'dodini yuzaga chiqarish ularning qalbida vatanparvarlik, insoniylik, kasbiga fidoiylik tuyg'ularini rivojlantirish kabi fazilatlarni shakllantirishning zamonaviy usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

***Kalit so'zlar:** Yoshlar, kreativ fikrlash, o'quvchi yoshlarimiz, yangi bosqich, ta'lim, tarbiya, pedagog mahorat, xalqaro ta'lim standartlari, ilg'or pedagogik texnologiyalar.*

ABSTRACT

Today, effective ways of developing creative thinking and creativity in young people have been analyzed. In our country, attention is paid to the education system, and it is demanded that our students have modern knowledge and professional skills in accordance with world standards. Information is provided on modern methods of developing qualities such as developing the feelings of patriotism, humanity, devotion to the profession in their hearts, to grow into physically and mentally mature people, to reveal their abilities and talents.

***Key words:** Youth, creative thinking, our young students, a new stage, education, training, pedagogical skills, international educational standards, advanced pedagogical technologies.*

KIRISH

O'zbekiston rivojlanishning yangi bosqichiga o'tgandan keyin Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan yoshlarga alohida e'tibor bera boshlandi. Jumladan, O'zbekiston yoshlarining «Kamolot» ijtimoiy harakati» «O'zbekiston yoshlar ittifoqi» deb o'zgarishi yoshlar masalasidagi islohotlarning boshlang'ich nuqtasi sifatida qaraladi. O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish,

xalqaro standartlar asosida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta'lim muassasasini jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatishi, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, talabalar, ilmiy-pedagog kadrlarni zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, yoshlar auditoriyasi bilan ish olib borishda interfaol usullardan samarali foydalanish masalalari harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlariga muvofiq oliy ta'lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirishning asosiy vazifalari sifatida belgilandi¹³. Bugungi kunda jahonda ta'limga kompetentli yondashuv asosida bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, yosh pedagog kadrlarning kreativ kompetentligini rivojlantirish orqali ijodiy ta'lim jarayonini loyhalashtirishning zamonaviy metodik ta'minotini yaratish, talabalarda kasbiy faoliyat sohalariga yo'naltirilgan kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek oliy ta'limning ta'lim sifatini ta'minlash jarayonidagi ijtimoiy rolini oshirish masalalari dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda. Ana shu nuqtai-nazardan ilg'or xorijiy tajribalar asosida zamonaviy kasbiy ta'lim mazmunini internatsionalizatsiyalash va modernizatsiyalash, kompetensiyalarga asoslangan innovatsion ta'lim muhitini shakllantirish, interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalarini amaliyotga keng tatbiq etish asosida talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhim o'rin tutadi.

Birinchi navbatda kreativlik tushunchasiga to'xtalib o'tmoqchimiz Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Amerikalik psixolog P.Torrensning fikricha, kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish, farazni tekshirish va o'zgartirish, qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash, muammo echimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama- qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi.

Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va

¹³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2017. – Б.39.

u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o‘zini-o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni echish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e‘tibor qaratishi zarur.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

XXI asr zamonaviy texnologiyalar jadal rivojlanayotgan va har bir sohada o‘z aksini topayotgan davrdir. Ushbu globallashgan jamiyatda xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan talab kun sayin oshib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 19-may 2021-yildagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida ham “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” davlat dasturiga muvofiq, xorijiy tillarni o‘rgatishni ta‘lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo‘nalishda ta‘lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga alohida ahamiyat qaratilgan. Yurtimizda chet tillarni o‘qitilishida yangicha bosqich, yangicha davr boshlandi. Chet tili darslarining o‘qitilishi jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalar, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish talab qilinmoqda. Respublikamizda chet tilining o‘qitilishi, chet tili o‘qituvchilarining bilim va ko‘nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqilmoqdi. Xususan, umumta‘lim maktablari va kasb- hunar maktablari o‘quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o‘quv xonalari, yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili fani to‘rt aspektga (o‘qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) bo‘linib, ularning har biri boyicha alohida tushuncha va ko‘nikmalar berilmoqda.

Xorijiy tillarni o‘qitishda ilg‘or zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati beqiyos. Zero ta‘lim jarayonida texnologik vositalardan foydalanish chet tillarini o‘rganishning har bir bo‘limida bilimlarni o‘zlashtirish va mustahkamlashda beqiyos rol oynaydi. Masalan, tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirishni kompyuter, player, CD disklarsiz amalga oshirish imkonsiz. Tinglab tushunish til o‘rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o‘quvchi bir paytning o‘zida so‘zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so‘z boyligi va uning ma‘nolariga

e'tibor berishi talab qilinadi. Bugungi globallashtirish jarayonida internet hayotimizning har bir jabhasini qamrab olgan. Yosh avlod orasida ijtimoiy tarmoqlardan, turli saytlardan chet tillarini o'rganishda oqilona foydalanishni yo'lga qoyish dolzarb masalaga aylanib ulgurdi. Ayniqsa internet orqali chet tilida so'zlashuvshilar bilan muloqot qilish imkoniyatidan foydalanib, gapirish ko'nikmasini rivojlantirish, e-mail orqali xat yozish bilan yozish mashqini takomillashtirish kabi jihatlari o'rganildi.

Dars jarayonlarida multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati beqiyosdir. Jumladan, slaydlar orqali darsni tashkil qilish, o'quvchilarni xorijiy til darsi boshlanishiga o'ziga jalb qiluvchi usullar (warm-up activities)dan foydalanish, turli xil rangdagi ko'rgazmalardan foydalanish orqali darsni mazmunli tashkil qilishga hamda o'quvchilarning mavzuni to'liq o'zlashtirishiga erishish mumkin. Shuningdek, maktablarda dars jarayonlarini interfaol oyinlar orqali tashkil qilish ham juda katta ijobiy natijalar berishi isbotlangan. Ma'lumki, darsning turli xil oyinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlash imkoniyatlarini kashf etibgina qolmay, balki ularning diqqatni jamlash, muammoli vaziyatlardan chiqish yo'llarini izlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Chunki, oyinlardan foydalanishning asosini o'quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, oyinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda barqaror o'rnini topish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday oyin zahirida umumiy qabul qilingan ta'lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O'quv oyinlariga o'quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. Oyinlar jarayonida o'quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg'ulotga qiziqibrog' yondashadi va o'zini erkinroq tutadi. Bu ayniqsa tabiatan uyatchang va jamoaga tez qo'shila olmaydigan o'quvchilar bilan ishlashni osonlashtiradi. Ularning kirishimlilik qobiliyatlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash lozimki, oyin eng avvalo, o'qitishning bir usulidir. O'quvchilar oyinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g'alaba qozonishga intiladilar, pirovardida bilim va ko'nikmalarini ham boyitib boradilar. Masalan o'quvchi ingliz tilidagi oyinda qatnashish jarayonida o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi, men bu tilda gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb motivatsiya oladi.. Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jarayonida o'quvchi sub'ekt bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi. Chet tili darslariga qoyilgan eng muhim talablardan biri o'quvchilarni mustaqil, kreativ fikrlashga o'rgatishdir. Bugungi kunda respublikamizdagi xorijiy til o'qituvchilari Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda:

– “Muammoli vaziyat yechimi” (Creative Problem Solving) bu usulni qo'llashda hikoyaning boshlanish qismi o'qib beriladi, yakuni qanday bo'lishi esa o'quvchilar, hukmiga havola qilinadi. Bu o'z navbatida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

– “Quvnoq topishmoqlar” (Merry Riddles) o'quvchilarga topishmoqlarni o'rgatishning xorijiy tilni o'qitishda o'rni beqiyos. Topishmoq yodlash orqali o'quvchilarning so'z boyligi oshib boradi, undan tashqari xotirani mustahkamlashda ham topishmoqlarning ahamiyati juda katta.

– “Tezkor javob” (Quick answers) o'tilgan dars mavzusini mustahkamlashga yordam beradi;

– “Chigil yozdi” (“Warm-up exercises”) o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil oyinlardan foydalanish, dars boshlanishidan oldin o'quvchilarni o'tiladigan mavzuga moslashtirishga xizmat qiladi [3];

– “Pantomima” (pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo'ladi;

– “Hikoya zanjiri” (a chain story) usuli o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishda yordam beradi;

– “Rolli oyinlar” (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo'llanilishi mumkin. Hunarga o'rgatish uchun “Interpreter”, “Translator”, “Writer”, “Poet” kabi kasbdagi kishilar darsda ishtirok etishib o'quvchilar bilan suhbatlashishlari mumkin;

– “Allomalar yig'ini” (Thinkers meeting) U. Shekspir, A. Navoiy, R. Burns kabi shoirlar va yozuvchilarni “taklif qilish” mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli so'zlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson bo'lib tarbiyalanishiga yordam beradi;

– “Rasmlar so'zlaganda” (When pictures speak) usuli ancha qulay bo'lib, ingliz tilini o'rgatishda, talaba, o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim;

– Kviz kartochkalari (quiz cards) o'quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma talabalar bir vaqtda darsda ishtirok etish imkonini beradi, barcha o'quvchilarga e'tibor berilishi ta'minlaydi va vaqtni tejaydi .

XULOSA

Xulosa qilib shu aytishimiz mumkinki, zamonaviy o'qitish usullari talabalarning o'zaro ta'siri va ularni o'quv jarayoniga jalb qilish, materialni passiv idrok etishga yo'naltirish uchun foydalidir usullardan biridir. O'rganishning chekka shakllarining afzalliklaridan samarali foydalanishga imkon beradigan zamonaviy o'quv

infratuzilmasi, o'quv, texnologik, tashkiliy komponentlarni o'z ichiga oladi. har bir innovatsion texnologiya o'ziga xos afzallik jihatlari egadir. Bunday usullarning barchasida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik, o'quvchining ta'lim jarayonidagi faol harakati ko'zda tutiladi. Xorijiy til darslarida innovatsion texnologiyalar va usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy va kreativ fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Darslarning noan'anaviy usullarda, turli metodlarni qo'llagan holda tashkil qilinishi orqali zerikarli mashg'ulotlarning oldi olinadi. Bu esa yosh avlod o'rtasida xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishning, bilim olishga bo'lgan ishtiyoqning ortishiga, darslarning esa samarali tashkil etilishiga zamin yaratadi. Natijada o'quvchilarning darsga puxta tayyorgarlik ko'rib kelishiga, o'zlashtirish samaradorligining jadal o'sishiga erishiladi.

REFERENCES

1. Muminova, F. M. Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish / F. M. Muminova. — Tekst: neposredstvenniy // Molodoyucheniy. — 2020. — № 18 (308). — S. 590-592.
2. N. Q. Xatamova, M.N. Mirzayeva. "INGLIZ TILI DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR" (uslubiy qo'llanma), Navoiy, 2006, 40 bet.
3. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. "CHET TILINI O'QITISHDA YORDAMCHI VOSITALARDAN FOYDALANISH". Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005
4. O'.Hoshimov, I. Yoqubov. "INGLIZ TILI O'QITISH METODIKASI" (o'quv qo'llanma) Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2003
5. Otaboyeva, M. R. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / M. R. Otaboyeva. — Tekst: neposredstvenniy, elektronniy // Molodoyucheniy. — 2017.— № 4.2 (138.2). — B. 36–37. — URL: <https://moluch.ru/archive/138/39058/>
6. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). - Alexandria - Virginia, USA: ASCD, 2014
7. Turdiyeva M. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkurni shakllantirish. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2008.

ЯНГИЛАНГАН КОНСТИТУЦИЯ – ИСЛОҲОТ ВА ИМКОНияТЛАР АСОСИ

Очилова Гўзал Араловна

Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти доценти

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришгандан кейин йиллардаги ислоҳотлар жараёнида фуқаролик жамиятини ривожлантиришнинг объектив зарурати, фалсафий, ҳуқуқий асослари ва маъсулияти, унинг моҳиятини ижтимоий-сиёсий тизим, трансформацион қонуниятлар призмасида илмий таҳлил қилинган. Унда муаллиф: давлат ва ижтимоий; давлат ва ижтимоий-иқтисодий; давлат ва маънавий; давлат ва ижтимоий-ҳуқуқий, шунингдек давлат ва жамият ҳаёти; давлат ва шахс каби умумфалсафий ва ҳуқуқий категорияларнинг ривожланган фуқаролик жамиятини барпо этиш жараёнларида нечоғлик катта аҳамиятга молик эканлиги мухтасар баён қилинган.

Калит сўзлар: *Фуқаролик жамияти, ижтимоий ислоҳотлар, зарурият, ҳуқуқ, маъсулият, ижтимоий-сиёсий тизим, трансформация, давлат ҳокимияти, давлат институтлари, конституция, ижтимоий-сиёсий, ижтимоий-иқтисодий, маънавий-маданий, ижтимоий-ҳуқуқий, давлат ва жамият, давлат ва шахс.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье проведен научный анализ объективной необходимости, философско – правовых основ и сути социально-политической системы, трансформационных закономерностей развития гражданского общества в процессе реформ, проводимых республикой Узбекистан в течение почти 30 лет после обретения независимости. В ней автор анализирует государственную и общественную; государственную и социально-экономическую; государственную и духовную; государственную и социально-правовую жизни и жизнь государства и общества. В статье изложено значение таких общеправовых и правовых категорий, как государство и личность, для построения развитого гражданского общества.

Ключевые слова: *Гражданское общество, социальные реформы, необходимость, право, ответственность, общественно-политический строй, трансформация, государственная власть, институты государства, конституция, социально-политические, социально-экономические, духовно-*

культурные, социально-правовые, государство и общество, государство и личность.

ABSTRACT

This article provides a scientific analysis of the objective necessity, philosophical and legal foundations and essence of the socio-political system, transformational patterns of civil society development in the process of reforms carried out by the Republic of Uzbekistan for almost 30 years after independence. In this article the author analyzes the state and public; state and socio-economic; state and spiritual; state and socio-legal lives and the life of the state and society. The article outlines the importance of such general philosophical and legal categories as the state and the individual for building a developed civil society.

Keywords: *Civil society, social reforms, necessity, law, responsibility, socio-political system, transformation, state power, state institutions, constitution, socio-political, socio-economic, spiritual and cultural, socio-legal, state and society, state and personality.*

КИРИШ

Маълумки, 2023 йил (1.05.) Ўзбекистоннинг янги тахрирдаги Конституцияси референдум орқали халқимизнинг эҳтиёжларидан келиб чиқиб қабул қилинди, унга кўра моддалар 128 тадан 155 тага, нормалар сони 275 тадан 434 тага ошди. Яъни, Асосий қонунимиз матни қарийб 65 фоизга ортди. Конституцияда Ўзбекистон – суверен, демократик, ҳуқуқий ва **Ижтимоий давлат** экани қатъий белгилаб қўйилди. Тарихимизда илк бора Ўзбекистон – ижтимоий давлат, деб белгиланди. Яъни, инсонга эътибор ҳамда ғамхўрлик – давлат ва жамиятнинг энг асосий сифатида мустаҳкамланиб бормоқда. Бу борадаги нормалар Конституцияда 3 баробар кўпайтирилди. 2023 йил “Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили” деб, эълон қилинишининг замирида ҳам бугунги ва эртанги порлоқ ҳаётни кўзлаб қилинаётган саъй-ҳаракатлардан бири бўлиб, жамият олдида янада фаоллик, ташаббускорлик каби талабларни қўймоқда. Шу мақсадда 2021-2030 йилги ривожланишнинг янги ҳаракат стратегияси ва дастурий вазифалари белгиланиб, фуқаролик жамиятини шаклланиши ва ривожланиши жараёнларини янада тезлаштирмоқда. Фуқароларнинг қонуний ҳуқуқлари ва эркинликларини муҳофаза этиш, уларни қўллаб-қувватлаш ҳар қачонгидан ҳам ҳозирги кунда янада фаоллашганлиги кузатилмоқда. Шунингдек, ҳозирги пайтда ёшларнинг ҳуқуқ ва манфаатлари давлатнинг асосий эътиборида бўлиб, уларнинг таълим олиши, илмий, техникавий ва бадиий ижод эркинликларининг белгиланиши, умумий ўрта таълим узлуксизлигини таъминлаш, имконияти чекланган ёшларнинг инклюзив

таълим асосидаги ўқиши, жамиятнинг тўлақонли аъзоси сифатида иштирокини таъминлайди. Таълим олиш ҳуқуқи ва имконияти кенгайтирилди, энг қувонарлиси, ўқитувчилар ҳуқуқи конституциявий мақомга эга бўлди.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Ўзбекистон Конституциясида ёшларга оида 5 та энг муҳим янгиликлар киритилганлиги ҳам таъкидлаш ўринлидир. Жумладан, 1. Давлат ёшларнинг шахсий, сиёсий, иқтисодий, ижтимоий, маданий, экологик ҳуқуқлари ҳимоя қилинишини таъминлайди.

2. Давлат ёшларнинг жамият ва давлат ҳаётида фаол иштирок этишини рағбатлантиради.

3. Давлат ёшларнинг интеллектуал, ижодий, жисмоний ва ахлоқий жиҳатдан шаклланиши ҳамда ривожланиши учун шарт-шароитлар яратади.

4. Давлат ёшларнинг таълим олишга, соғлиғини сақлашга, уй-жойга, ишга жойлашишга, бандлик ва дам олишга бўлган ҳуқуқларини амалга ошириш учун шарт-шароитлар яратади.

5. Давлат ва жамият ёшларда миллий ва умуминсоний кадриятларга содиқликни, мамлакатидан ҳамда халқнинг бой маданий меросидан фахрланишни, ватанпарварлик ва Ватанга бўлган меҳр-муҳаббат туйғуларини шакллантириш тўғрисида ғамхўрлик қилади.

Бу билан янги таҳрирдаги Конституция янада ўзининг афзаллик томонларини намоён этади ва ҳуқуқий қафолатлайди Инобатга олинаётган энг асосий мақсад ҳам аҳолини фаровонлигини таъминлаш, ҳуқуқ ва манфаатларини, эркинликларини руёбини амалда кучайтириш билан ҳамоҳангдир. Юқоридаги 4 бандда таъкидлаганимиздек, ёшларни иш билан таъминлаш, бандлик масаласини бугун ҳаётнинг ўзи тақозо этмоқда. Айниқса, ҳозирги таҳликали даврда, ишсизлар ва ортиқча ишчи кучларини, биринчи навбатда, техникум, лицей, коллеж ва олийгоҳларни тамомлаб, бўш юрган талабаларнинг ҳаёти ва тарбияси энг долзарб масалалардан бири сифатида барчанинг диққат эътиборида бўлмоғи лозим. Президентимиз Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганидек, “Аҳолини иш билан таъминлаш, биз учун нафақат иқтисодий, айти пайтда катта ижтимоий аҳамиятга эгадир. Ҳокимликлар, вазирлик ва идоралар, иш берувчи ташкилотлар билан бир қаторда банк мусасалари ҳам бу ишга янада фаол жалб этилиши керак”. [1] 4-б. Яъни, кўпгина янги иш ўринлари яратиш, уларга ўз қобилиятларини намоён қилишлари учун рақобат муҳитини вужудга келтириш ҳам ижтимоий-иқтисодий ривожланишга, ҳамда меҳнат унумдорлиги сифатини ошишига ва аҳолининг бандлигига ҳисса бўлади. Шу нуқтаи-назардан, “бугуннинг ўзида ҳар бир битирувчини аниқ бир

ташкilotга бириктиришни таъминлаш билан бирга, унинг бўлажак иш жойи, иш ҳақи ва ижтимоий шароитларини аниқ белгилаш зарур”. [2] 5-б.

Жамиятнинг ижтимоий ёки ижтимоий-сиёсий тизими ўзига хос ташкилий, институционал хусусиятларга ва бошқа тизимлар билан алоқаларга эга. Шунинг учун у кенг ижтимоий ҳаёт ва муносабатлар мажмуида мавжуддир. Жамиятдаги мафкура, ахлоқий ва ҳуқуқий меъёрлар, миллий ва умуминсоний қадриятлар, тарихий-маданий тажриба ижтимоий-сиёсий тизимга устқурма сифатида таъсир этади. Бироқ, жамиятнинг бу ижтимоий унсурлари тизими билан ижтимоий-сиёсий тизимлар ўртасида мудом фарқ сақланиб қолади. Демак, ижтимоий-сиёсий тизим устқурма таъсирида бўлса-да, айнан унинг ўзи эмас, балки ўзининг институционал, функционал, регулятив ва аксиологик жиҳатлари билан бошқа ижтимоий тизимлардан фарқ қилади. Ушбу фарқ ижтимоий-сиёсий тизимнинг ички тартиби, ташкилий жиҳати, ҳеч бўлмаганда, минимал даражадаги сиёсийлигида намоён бўлади.

Ижтимоий-сиёсий тизим аввало ташкilot ёки институционаллаштирилган бирликдир. Ушбу ташкilotга муайян бир тартибда ташкил этилганлик ва фаолият кўрсатиш, расмий-юридик ташкил қилинганига далил бўлувчи Низом ва бошқа таъсис ҳужжатларига, ўзига хос мақсад ва вазифаларига эга бўлиш, ижтимоий ҳаётда қабул қилинган маълум тамойилларга мувофиқ фаолият кўрсатиш, ички ва ташқи фаолиятни бошқариш органларининг тузилгани, мавжудлиги ҳосдир. Аммо ижтимоий-сиёсий тизимнинг барча қисмлари ҳам бир хил мавқе, ҳуқуқ ва функцияларга эга эмас. Ижтимоий-сиёсий тизимнинг қисмлари — тузилмавий бўғинлари сиёсий, ижтимоий ва кам даражада сиёсийлашган институтларга бўлинади. Сиёсий институтларга — давлат, сиёсий партиялар ва сиёсий ҳаракатлар; ижтимоий институтларга — касаба уюшмалари, ёшлар иттифоқи, тадбиркор хотин-қизлар ассоциацияси, жамғармалар, ижодий уюшмалар; кам сиёсийлашган ижтимоий-сиёсий институтларга — фуқароларнинг у ёки бу маданий эҳтиёжларини қондиришга қаратилган ихтиёрий уюшмалари, тўғараклари, бирлашмалари киради.

Социология асосларидан ижтимоий-сиёсий тизимга институционал ёндашувнинг хусусиятлари ҳақида қуйидагиларни биламиз. Институционал ёндашув жамият сиёсий тизимининг моҳияти ва мазмунини ифода этиб, унинг асосий фаолият йўналишига, ижтимоий мазмуни ва вазифаларига катта таъсир кўрсатади. Жамиятнинг умумий сиёсий тизимига асосий ҳал этувчи қуйи тизим сифатида кириб боради. Бу унинг жамият сиёсий ҳаётида юзага келадиган энг муҳим алоқалар негизини ташкил этгани билан боғлиқдир. У ана шундай алоқаларни йўлга қўйишнинг механизм ва меъёрларини белгилаб беради.

Айнан шунинг учун сиёсий тизим борасидаги сиёсий ғоялар, қарашлар, нуқтаи назар ва тасаввурлар, ўзининг хусусий тизимларини яратган ҳолда, институционал тизимга хизмат қилади.

Хуллас, ижтимоий-сиёсий тизимга институционал ёндашув, биринчидан, ушбу тизимнинг ички ташкилий ва функционал хусусиятларини тўлароқ очиб бериш, иккинчидан, унинг ташқи муҳит, жамият ва бошқа тизимлар билан барча турдаги алоқаларини кенг қамраб олиш имконини беради. Шу нуқтаи назардан келиб чиқиб айтадиган бўлсак, ижтимоий-сиёсий тизим ўзининг ташқи ва ички хусусиятларига эга ижтимоий институтдир. Уни маълум маънода мақсадга йўналтирилган ижтимоий фаолият ва ижтимоий муносабатларни ташкил этиш механизми дейиш мумкин. Шу боис, ижтимоий институтда ўрнатилган ҳуққ-атвор, тартиб-қоида ва меъёрларни қўллаб-қувватлаш, индивидларнинг ҳатти-ҳаракатларини уларга мувофиқ бошқариш муҳим аҳамиятга эгадир.

Юқорида баён этилган ёндашув ва фикрлардан келиб чиққан ҳолда, Ўзбекистонда давлат институтининг ижтимоий- сиёсий ислоҳотлардаги ўрни, аҳамияти, зарурияти ва унинг ҳуқуқи, маъсулияти масалаларини тадқиқ этамиз.

Америка социологи Т.Парсонснинг "Замонавий жамиятлар тизими" асарида таъкидланганидек, жамият ўз характери ва тузилишига кўра "ўз-ўзини юксак даражада таъминлай оладиган ижтимоий тизим"дир. Ўз-ўзини таъминлаш ён-атрофдаги табиий, иқтисодий, сиёсий тизимлар билан алоқаларни, интеграцияни инкор қилмайди. Аммо жамият ўзининг бутунлигини сақлаш учун зарур алоқаларни қўллаб-қувватлайди, зарарли алоқаларнинг олдини олиш ёки уларни ижтимоий манфаатлар томон буриш чора-тадбирларини кўради. Ушбу вазифани жамиятнинг махсус институтлари, энг аввало, давлат бажаради. Унинг фикрига кўра, давлат икки функцияни бажаради: Жамиятни глобал таҳдиддан химоя қилади ва ижтимоий манфаатлар нуқтаи назаридан жамоа ҳатти-ҳаракатларини бошқаради [3: 264-287].

Биз кўраётган мавзуга давлатнинг иккинчи функцияси бевосита тааллуқлидир. Чунки, давлатнинг ислоҳотчилиги аслида жамият ҳаётини, ижтимоий-сиёсий институтлар (қуйи тизимлар) фаолиятини такомиллаштиришга қаратилгандир. Такомиллаштириш вазифаси эса, давлатнинг ички сиёсий ва ҳуқуқий механизмлари билан боғлиқ. Ислоҳотлар — тарихий зарурат, ҳуқуқ — ислоҳотларнинг самарадорлигини ошириш механизми, маъсулият эса, давлатнинг жамият олдидаги ўз бурчини идрок этиши, вазифаларини бажаришидир.

Ўзбекистон мустақилликка эришгач, жамиятни янгилашни, кенг маънодаги ислохотлар ўтказишни тарихий зарурат деб билди. Зарурат ижтимоий тараққиёт кун тартибига қўядиган муаммоларни тўғри идрок этиш ва ушбу заруратга одамларни ишонтириш каби икки йўналишни ўз ичига олади. Давлатнинг заруратни идрок этиши қанчалик муҳим бўлса, унга одамларни ишонтириш ҳам шунчалик муҳимдир. Зарурат идрок этилган тақдирдагина белгиланган мақсадларга эришишнинг энг маъқул йўл ва механизмларини топиш имкони бўлади, одамлар онг-тафаккурида ислохотлар муваффақиятига ишонч уйғонади.

Истиқлолнинг илк йилларида жамиятни эски тасаввурлардан, марксча-ленинча догмадан ва тоталитар бошқарув усулларида халос этиш зарурат эди. 90-йилларнинг ўрталарида авж олган инқирозлар, юқоридан (марказ) қабул қилинган дастурлар, қарорларнинг ҳақиқий ҳаётга мос келмагани сабабли бажарилмаслиги "социалистик цивилизация"нинг ўз умрини яшаб бўлганидан далолат берарди. Марказ билан миллий республикалар, сиёсий тизим билан иқтисодий ҳаёт, ғайриҳаётий "қайта куриш" билан мавжуд муайян манфаатлар каби зиддиятлар кучайди, "юқоридагиларнинг бошқара олмаслиги" ва "қуйидагиларнинг уларга итоат этишни истамаслиги" каби муаммолар янада кескинлашди, жамиятдаги барқарорликка хавф уйғотувчи қалтис муносабатлар етакчи ўринга чиқа бошлади.

Ушбу ҳолатдан чиқиш йўллари жамиятнинг келгуси ҳаётини белгилаб бериши зарур эди. Илмий адабиётларда бу "трансформация босқичи" номини олган. Унга кўра трансформация узвийлик касб этган инқирозлар кўламини аниқлаш ва моҳиятини баҳолаш, инқирозларни келтириб чиқарган сабабларни аниқлаш ва шу асосда ижтимоий диагностика қилиш, ижтимоий тараққиёт даражасига мос келмайдиган тизимларни, институтларни бартараф этиш, жамиятнинг янги ҳолатини белгилаб олиш ва ривожланиш йўлларини ишлаб чиқишни ўз ичига олади. Демак, 90-йилларнинг ўрталарида жамиятни янгилаш, унинг барча тизимларини трансформация қилиш ижтимоий-тарихий зарурат эди. Ушбу зарурат трансформация қонунларига мувофиқ:

— сиёсий тузум ва давлат тизимини ўзгартириш, демократик тамойилларни ҳаёт тарзига айлантириб, бошқарув усулларида сингдирадиган, яққаҳоқим мафкурадан воз кечиб, инсон ҳуқуқларини таъминлашни устувор деб билган ва шу тамойилга амал қиладиган давлат барпо этиш;

— ижтимоий-иқтисодий ҳаётни қайта куриш, яъни марказлаштирилган бошқарувдан ўз-ўзини иқтисодий бошқаришга ўтиш, бозор иқтисодиёти қонунларини жорий этиш, хусусий мулкни, кўп укладли иқтисодиётни

шакллантириш;

— либерал-демократик кадриятларни тан олган ҳолда боқимандаликдан, "давлат боқиши керак" деган тушунча ва кўникмалардан воз кечиш;

— жаҳон тажрибаси талабларига мос келадиган ички бозорни яратиш, ташқи иқтисодий сиёсатда трансмиллий алоқаларга ва халқаро иқтисодий интеграцияга интилиш;

— ижтимоий тараққиётга мос келувчи янги маънавий-маданий маслак ва матлабни, мақсад ва вазифаларни белгилаб олишни тақозо этди.

Ўзбекистонда сиёсий тузум ва давлат тизимини ўзгартиришга қаратилган ислохотларнинг зарурлигини Президент Шавкат Мирзиёев Олий Мажлисга Мурожаатномаси (2020 йил 24 январь)да чуқур асослаб, ушбу заруратнинг сиёсий-фалсафий моҳиятини очиб берди: “Биз Ўзбекистонни ривожланган мамлакатга айлантиришни мақсад қилиб қўйган эканмиз, бунга фақат жадал ислохотлар, илм-маърифат ва инновация билан эриша оламиз. Бунинг учун, авваламбор, ташаббускор ислохотчи бўлиб майдонга чиқадиган, стратегик фикр юритадиган, билимли ва малакали янги авлод кадрларини тарбиялашимиз зарур. Шунинг учун ҳам боғчадан бошлаб олий ўқув юртигача – таълимнинг барча бўғинларини ислоҳ қилишни бошладик. Нафақат ёшлар, балки бутун жамиятимиз аъзоларининг билими, савиясини ошириш учун аввало илм-маърифат, юксак маънавият керак. Илм йўқ жойда қоқоқлик, жаҳолат ва албатта, тўғри йўлдан адашиш бўлади”[4:10].

Ш. Мирзиёев ижтимоий-сиёсий ислохотларнинг асосий тамойилларини ўз ичига олган “Миллий тикланишдан-миллий юксалиш сари”номли асарида мамлакатни тараққий эттириш дастурини яратар экан, унда ҳар бир фуқаро, ҳар бир ватандошимизнинг бугунги ва келгусидаги манфаатлари ўз ифодасини топиши лозимлигини таъкидлади. Амалий натижа билан мустахкамланган, ўз меваси, ҳосилини бераётган ислохот одамларнинг қалбига, юрагига тез кириб боради. Ва бундай ислохотни, бундай шиддатли жараённи ҳеч ким, ҳеч қандай куч, тўхтата олмайди. Энг муҳими, ислохотларимиз самарасини юртимизда яшаётган ҳар бир инсон, ҳар бир оила бугун ўз ҳаётида ҳис этиши керак. Бунинг учун барча бўғиндаги раҳбарлар фоизлар, рақамлар, қоғознинг ортидан қувмасдан, ҳар бир фуқаро учун, унинг ҳаётий манфаатларини таъминлаш учун ишлаши шарт. Шунда нуруний кексаларимиз, мухтарам отахон ва онахонларимиз, хурматли аёлларимиз, азиз фарзандларимиз, жажжи набираларимиз, кўп миллатли бутун халқимиз биздан рози бўлади”[4:48].

Фуқаролик жамиятининг сиёсий-фалсафий ва ижтимоий-ҳуқуқий хусусиятлари қуйидагиларда акс этади:

- 1) жамият ҳаёти ва тараккиётининг хусусий мулкчилик, тадбиркорлик, ишбилармонлик фаолияти билан уйғунлиги;
- 2) барча мулк шакллари раванк топишининг давлат, қонун томонидан кафолатланиши;
- 3) фуқароларнинг ҳуқуқий тенглиги, қонун устуворлиги, суд тизимининг фуқаролар ҳуқуқини ҳимояловчи посбонга айланиши;
- 4) фуқароларнинг хусусий ҳаётига давлат томонидан ноқонуний аралашувнинг чекланиши;
- 5) давлат ҳокимияти олдида шахснинг мулкӣ ва иқтисодий мустақиллиги;
- 6) давлат, давлат институтлари ва фуқаролар ҳуқуқнинг тенг субъектлари эканлигидан келиб чиққан ҳолда фуқаролар ҳуқуқларини кафолатлаш ва қонун устуворлигини таъминлаш механизмларининг яратилгани;
- 7) фуқароларнинг ижтимоий ва ихтиёрӣ институтлари шакллангани, уларнинг тўлақонли фаолият юритиши;
- 8) жамиятда юксак маънавий-маданий муҳит шакллангани, шахс қадри, шаъни, ҳурмати асосӣ қадриятларга айлангани.

Ушбу хусусиятлар мутлақ идеал ёки ижтимоий-утопик қарашлар маҳсули эмас, балки мустақиллигимизнинг бугунги кунида давлатимиз белгилаб олган стратегик мақсад, тамойиллар уларни реал воқеликка айлантириш кафолатлари бўлиб хизмат қилмоқда. Ҳозирнинг ўзидаёқ амалга оширилаётган ижтимоий-сиёсий ислоҳотларнинг ҳуқуқий давлат барпо этиш ва ҳуқуқий давлат асосида очик, эркин ва албатта, адолатли жамиятни шакллантиришга қаратилгани фуқаролик жамиятини реал воқеликка айлантирмоқда. Демак, фуқаролик жамияти ижтимоий-утопик модел бўлгани учун эмас, балки тенг ҳуқуқли, эркин ва фаровон ҳаёт, ҳар бир шахсга ўз иқтисодий қобилятини, ижодий кучларини тўла намоён қилиш учун зарур ижтимоий, сиёсий, ҳуқуқий ва маънавий-маданий муҳит яратиш бериши туфайли мафтункордир. Ушбу жамиятни барпо этишнинг шартӣ эса демократик ҳуқуқий давлат кўришдир. Ўзининг сиёсий уюшқоқлиги, институтларининг барқарорлиги, ислоҳотларни амалга ошириш имкониятларига эга эканлиги, халқ ҳокимияти сифатида умумхалқ манфаатларига хизмат қилиши билан давлат фуқаролик жамияти барпо этиш вазифасини ўз зиммасига олади.

Мустақил давлатимизнинг ўтган ўттиз йил ичида амалга оширган ислохотларни зарурат, ҳуқуқ ва масъулият уйғунлиги нуқтаи назаридан қуйидаги йўналишларда қараш мумкин.

Биринчи йўналиш - давлат ва ижтимоий-сиёсий ҳаёт.

Бу йўналишга давлатимиз ўз мустақиллигини эълон қилиши ва Конституция қабул қилинишидан янги давлат ҳокимияти органлари тизими, фуқароларнинг ўз-ўзини бошқариш органлари шакллантирилиши, икки палатали парламент тизимига ўтилишигача бўлган саъй-ҳаракатлар киради.

Маълумки, шўро даврида ҳам "назарий жиҳатдан" миллий республикалар мустақил, суверен эди. Баъзи назариётчилар бу республикалар "ўз суверенитетидан ихтиёрий равишда воз кечган" деган қарашни асослашга ҳам интилганлар. Бу билан, гўё улар тоталитар давлатни ихтиёрий тарзда ташкил этиб, уни қўллаб-қувватлайдилар, демокчи бўлганлар. Ўзбекистон Республикасининг 1990 йил 20 июнда қабул қилган Мустақиллик тўғрисидаги декларацияси ҳақиқий суверенитетга йўл очиб берди. Бу ҳужжат мамлакатимизнинг янги Конституциясини ишлаб чиқишга асос бўлди ва Конституциявий комиссия тузилди.

Конституцияни яратиш ишига бутун ақлий салоҳият жалб этилди, чет мамлакатларнинг конституциялари синчиклаб ўрганилди, Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси ва бошқа халқаро ҳужжатлардаги қоидалар инобатга олинди. Кейин Конституция лойиҳаси умумхалқ муҳокамасига қўйилди ва бу муҳокама давомида 6 мингдан зиёд таклиф, фикр-мулоҳаза билдирилди. Шу тариқа халқимизнинг орзу-умидлари ва хоҳиш-иродасини ифода этган, келажагимизни белгилаб берган ҳужжат — Конституция юзага келди. Шавкат Миромонович айтганидек, “Конституция ва қонун устуворлиги – ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамиятининг энг муҳим мезони” бўлиб хизмат қилади.

Конституцияда мамлакатимизни ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиётига ўтказишнинг, очиқ фуқаролик жамияти ва демократик ҳуқуқий давлат қуришнинг асосий тамойиллари белгилаб берилган.

Конституция мамлакатимизда кенг ижтимоий-сиёсий ўзгаришларга йўл очиб берди. Эски ижтимоий-сиёсий тизим ўрнига миллий демократик мақсадларга мос келадиган янги тизимларни, институтларни яратишга киришилди. Бу жараёнлар институционал ёндашувдангина иборат эмас. Давлат учун зарур институтларни ташкил қилиш билан бирга, аслида энг муҳими ҳам шу, уларнинг самарали ишлаш механизмлари ҳам яратилди. Ушбу нуқтада давлатнинг ташкилотчилик функциялари ҳуқуқ, ижтимоий тарбия, маданият,

маънавият соҳалари билан уйғунлашади, муаммолар ва уларнинг ечимларига, ислохотларга кенг қамровлилик бахш этади.

Мустакиллик йилларда мамлакатимиз ижтимоий-сиёсий ҳаётида эришилган энг катта ютуқлардан бири, шубҳасиз, икки палатали парламент тизимининг шакллантирилганидир. Бу ҳақда куйида кенгроқ тўхталамиз.

Иккинчи йўналиш - давлат ва ижтимоий-иқтисодий ҳаёт. Бу йўналишга хусусий мулкчиликни қўллаб-қувватлаш, кўп укладли иқтисодиётни қарор топтириш, бозор иқтисодиётига ўтишни таъминлаш, фермерликни жорий қилиш, янги солиқ тизимини яратиш кабилар киради. Янги қабул қилинган конституцияда ҳам Хўжалик юритувчи субъектларнинг иқтисодий эркинликлари ва ҳуқуқларини, ҳамда иқтисодиётнинг барча соҳаларида хусусий мулк микёсларини кенгайтириш, ернинг хусусий мулк сифатида белгиланиши, шахснинг мавқеи ва ҳуқуқларини мустаҳкамлаш, тадбиркорликка, унинг ривожланишига ҳар томонлама кўмак бериш билан бирга бозор инфратузилмасини кенг ривожлантириш мақсадида давлат бошқаруви ролини чегаралашга асосий эътибор қаратилаяпти.

Иқтисодий ҳаётни жаҳонда тан олинган цивилизацияли муносабатлар асосига қуриш, эркин рақобат ва ижодий мусобақани ишбилармонлик, тадбиркорлик тамойилларига айлантириш зарурат эди. Афсуски, қишлоқ хўжалигидаги самарадорлик давр ва сарфланаётган харажатлар даражасида эмас. Номаъқул ҳолатларга бутунлай барҳам бериш учун бошқарув соҳасида, авваламбор, самарали ишлайдиган изчил сиёсий тизимни шакллантириш керак. Бу тизим шундай ишлаши керакки, бордию бирор-бир мансабдор шахс давлат сиёсатидан чекиниб, қонунга хилоф ишлар билан шуғулланадиган, ўз манфаатини давлат, халқ манфаатидан устун қўядиган бўлса, у кимлиги, кимнинг қариндоши, қайси раҳбарнинг оғайниси эканидан қатъи назар, муқаррар равишда жазосини олиши шарт. Яъни, бундай жазонинг муқаррарлигини шу одамдан юқори лавозимда ўтирганлар эмас, балки тизимнинг ўзи талаб этиши зарур.

Жамиятда ана шундай қараш, ана шундай тушунча шаклланган тақдирдагина қонунга итоат қилиб яшаш ҳаётий меъёрга айланади, қонун устуворлиги сўзда эмас, амалда таъминланади.

Президентимиз ижтимоий-иқтисодий ислохотларнинг тақдири, ҳаётда нечоғли ўз ифодасини топиши раҳбар ходимларга, уларнинг масъулияти ва ўз ишига қанчалик пухта бўлишига боғлиқ деб кўрсатади. У шундай деб таъкидлайди: ҳар бир раҳбарнинг фаолиятига мана шу икки талабга қай даражада жавоб беришига қараб баҳо берамиз ва хулоса чиқарамиз. Мен бу

икки талабдан биринчисига, яъни масъулият масаласига кўпроқ эътибор бераман. Майли, раҳбарнинг билими етишмасин, уни ўрганса бўлади. Лекин у масъулият ва жавобгарликни унутса, ишда ҳеч қандай силжиш ва ўзгариш бўлмайди.

Хусусий мулкчиликни қўллаб-қувватлашнинг яна бир муҳим воситаси солиқ тизимини яхшилашдир. Ўзбекистонда бу йўналишда кўп хайрли ишлар амалга оширилди. Солиқ турлари камайтирилди, чет эллик сармоядорлар билан ҳамкорликда ташкил этилган ишлаб чиқариш корхоналарига катта солиқ имтиёзлари берилди. Муҳим жиҳати шундаки, мулкдорда мулкка эгаллик ҳиссини уйғотиш ва унинг ҳуқуқларини такомиллаштириш баробарида, давлат ва жамият олдидаги бурчларини теран ҳис қилиши борасида ҳам талай чоратadbирлар кўрилмоқда.

Учинчи йўналиш - давлат ва маънавий-маданий ҳаёт.

Маънавий-маданий ҳаёт ижтимоий тараққиётнинг нафақат пировард натижаси, балки аввало, ислохотлар самарадорлигининг барометри, кўрсаткичи ҳамдир. Давлат амалга ошираётган ислохотларнинг ижтимоий тараққиёт қонунларига нечоғли мослиги, ислохотлар фуқароларнинг, халқнинг маънавий-маданий ҳаётида қанчалик намоён бўлишида ақс этади. Демак, давлат ислохотларнинг нафақат пировард натижаси, худди шунингдек, ислохотлар фуқароларнинг, халқнинг кундалик маънавий-маданий ҳаётида ўзининг аниқ ифодасини топиши учун ҳам масъулдир.

Маънавий-маданий ҳаёт таълим-тарбия, маданий мерос, тарихий тажриба, диний, ахлоқий, маърифий қарашлар, турмуш тарзи, ранг-баранг муносабатлар, илм-фан, халқ байрамлари, сайллари, томошалари ва удумлари, санъат, адабиёт каби соҳаларни ўз ичига қамраб олади. Халқнинг, миллатнинг ўзига хос этник хусусиятлари, жаҳон цивилизациясига қўшган ҳиссаси ҳам аслида ана шу маънавий-маданий қадриятлар билан ўлчанади.

Мустақиллик йилларида маънавий-маданий масалаларга, айниқса миллий мерос, аجدодларимизнинг тарихий-маданий ва ахлоқий тажрибасини ўрганишга эътибор, қизиқиш кучайди. Президентимиз ва ҳукуматимиз томонидан илгари сурилган инсонпарварлик ғоялари билан йўғрилган концепциялар, баркамол авлодни вояга етказишга қаратилган таълим-тарбия тизимидаги ислохотлар, маънавият ва маърифат марказларининг тузилиши жамиятимиздаги янги маънавий-маданий муҳитни шакллантирди. 2019 йилнинг "Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили", 2020 йилнинг "Илм-маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили", 2021 йилнинг эса "Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили"

2022 йил “Инсон кадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили” деб эълон қилиниши давлатимизнинг инсонпарварлик ғояларига таянаётганидан далолат беради.

Мустақиллик йилларида инсонпарварлик ғоялари билан йўғрилган миллий меросга бўлган муносабатни ўзгартириш, уни ўрганиш, тарғиб этиш ва келгуси авлодга етказиш ишлари давлат аҳамиятига молик вазифа даражасига кўтарилишининг ўзи муҳим воқеадир. Инсонпарварлик ғоялари маънавиятнинг бошқа соҳалари сингари авлоддан авлодга ўтиш — ворисийлик асосида тараққий этган. Бундай ворисийлик, давомийлик, узлуксизлик тарихий тараққиётнинг ҳамма даврларига хос бўлиб, ҳозирги мустақиллик шароитида инсонпарварлик ғоялари ривож учун муҳим ва бой манба бўлиб хизмат қилмоқда.

Тўртинчи йўналиш — давлат ва ижтимоий-ҳуқуқий ҳаёт.

Профессор З.Исломов ўзининг "Ҳуқуқ тушунчаси, моҳияти, ижтимоий вазифаси" асарида таъкидлаганидек, "ҳуқуқ моҳиятига кўра кишиларни, бутун инсоният ҳамжамиятини нормал, тартибли ҳаёт билан таъминлашга даъват этувчи" ҳодисадир. “Ҳар қандай жамиятда унинг аъзолари ўртасидаги муносабатларни тартибга солиш ўша жамият мавжудлигининг шартидир”, деб таъкидлайди [5]. Демак, ҳуқуқ – ижтимоий тараққиётнинг, кишилик жамияти мавжудлигининг шарти, зарурати, асосидир.

Ижтимоий-ҳуқуқий ҳаёт нафақат юридик институтларни, шу билан бирга, шахс, жамият, давлат ҳаётининг ҳуқуқ билан бевосита боғлиқ барча соҳа ва жиҳатларини ўз ичига олади. Меъёрий ҳуқуқ давлат томонидан ўрнатилган тартиб-қоидалар доирасида амал қилади, унга расмийлик хос. Одатий ҳуқуқ, бошқача айтганда, ахлоқ меъёрлари улардан ташқарида бўлади, лекин меъёрий ҳуқуқ билан бирга ижтимоий-ҳуқуқий маконни ташкил этади.

Давлат меъёрий ҳуқуқни яратиш билан чекланиб қололмайди, акс ҳолда, у бошлаган ислоҳотлар кўзланган натижаларга олиб келиши мушкул. Шунинг учун давлат ахлоққа, халқ маданияти ва турмуш тарзига сингиб кетган урф-одатларга ("одатий ҳуқуқ"), яъни ижтимоий меъёрларга ҳам таянади, улар орқали фуқароларни ижтимоий ўзгаришларга жалб этади. Одатий ҳуқуқ энг содда ва оддий, энг оммалашган муносабатларни тартибга солиб боради. Шунинг учун мамлакатимизда адолатли демократик жамиятни шакллантириш жараёнлари барча ижтимоий меъёрлар, айниқса, ҳуқуқий, маънавий (ахлоқий), сиёсий меъёрларга изчил риоя этилишини талаб қилади.

Ижтимоий-ҳуқуқий ҳаётда қарор топган ушбу "энг содда ва оддий, энг оммалашган муносабатлар"ни ҳисобга олмаслик, уларни нигилистларча инкор этиш тузумни таназзулга олиб келади. Шўро давлати миллатларнинг ана

шундай тарихий-маданий ва ҳуқуқий анъаларини, тажрибасини ҳисобга олмади, тўғрироғи, уларга менсимасдан қаради ва охир-оқибат пароканда бўлди. Шу сабабли ижтимоий-ҳуқуқий ҳаётда қарор топган анъаналарни ҳисобга олиш нафақат зарурат, балки жамиятда тадрижий ривожланишни, ислоҳотлар самарадорлигини таъминлаш нуқтаи назаридан келгуси авлодлар олдидаги масъулият ҳамдир.

Фуқаролик жамияти ва демократик ҳуқуқий давлатда зарурат инсон манфаатлари орқали англанади, ҳуқуқ меъёрлари орқали таъминланади, масъулият орқали эса амалда ўз ифодасини топади. Демак, инсон манфаатларини англатувчи зарурат — субстанция, ҳуқуқ — механизм, масъулият — тўла тадқиқот шартидир. Давлат эса ушбу учликнинг уйғун ҳаракатланишини, уларнинг йўналишига умумхалқ ва умуммиллий тус беришни таъминловчи ижтимоий-сиёсий тизимдаги бош институтдир.

Бу ўринда Президент Ш.Мирзиёев Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 27 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузасида: “Мустақиллигимизнинг илк даврида қабул қилинган Конституциямиз шахс, жамият ва давлат ўртасидаги муносабатларда ўзаро ҳуқуқ ва мажбуриятлар ҳамда уларнинг кафолатларини аниқ-равшан белгилаб берди. Бош қомусимиз, жинси, ирқи, миллати, тили, дини, ижтимоий келиб чиқишидан қатъи назар, юртимиз фуқаролари тенглигининг кафолатланишини эътироф этди ва замонавий демократик тараққиёт учун замин яратди” дейди [4:2]. Ижтимоий-ҳуқуқий ҳаётнинг савияси жамият аъзоларининг ҳуқуқий маданияти ва шахснинг ижтимоий-ҳуқуқий фаоллик даражаси орқали намоён бўлади. Шахснинг ижтимоий-ҳуқуқий фаоллиги эса турли ҳуқуқбузарликлар унинг бевосита манфаатларига зарар етказишидан ёки етказмаслигидан қатъи назар уларга қарши курашишга тайёрлик даражаси билан ўлчанади. Демак, давлатнинг ижтимоий-ҳуқуқий ҳаётдаги фаолияти, ҳуқуқ соҳасида амалга ошираётган ислоҳотлари инсонни ҳуқуқбузарликка йўл қўйишдан асраш, жамиятда қонун устуворлигини таъминлашга қаратилгандир.

Бешинчи йўналиш - давлат ва жамият ҳаёти. Юқоридаги йўналишлар моҳиятан жамият ҳаёти билан чамбарчас боғлиқдир. Уларда жамият ҳаётининг сиёсий, иқтисодий ёки маънавий-маданий соҳалари назарда тутилади. Лекин жамият ҳаётининг давлат фаолияти, у амалга ошираётган ислоҳотлар билан боғлиқ бошқа жиҳатлари ҳам мавжуд. Масалан, ижтимоий демография, этник-ижтимоий муносабатлар, ҳарбий тизим, давлатлараро алоқалар, халқаро терроризмга қарши кураш кабилар шулар жумласидандир. Буларнинг ҳар бири

жамият ҳаётига тааллуқли бўлиб, фақат давлатгина уларни зарур кўлам ва даражада йўлга қўя олади.

In this article, we have discussed the different aspects of the concept of "stepmother" in English and Uzbek folk tales today, as well as modern methods of developing such qualities. The cross-analysis of English and Uzbek fairy tales allows to determine how language units related to the perception and verbalization of fairy tales of different ethnic groups are formed in the human mind in the linguistic landscape of the world. Due to the fact that the content of the concept of "stepmother" is a human phenomenon with its own characteristics, the conceptual analysis of its content in the framework of linguistic and cultural studies using fairy tales is effective in identifying not only similarities, but also differences between cultures.

Key words. *English and Uzbek fairy tales, cross-sectional analysis, linguistic and cultural studies, education, upbringing, human phenomenon.*

KIRISH

Ingliz va o‘zbek ertaklarini chog‘ishtirma tahlil qilish olamning lingvistik manzarasida turli xil etnik guruhlarning ertaklarni idrok etish va verballashtirish bilan bog‘liq til birliklari inson ongida qanday shakllanishini aniqlashga imkon beradi.

“O‘gay ona” konseptining mazmuni o‘ziga xos xususiyatli inson fenomeni bo‘lganligi tufayli uning mazmunini chog‘ishtirma tarzda lingvomadaniyatshunoslik doirasida ertaklar yordamida konseptual tahlil qilish madaniyatlararo nafaqat o‘xshashliklarni, balki farqli jihatlarini ham aniqlashda samarali hisoblanadi.

O‘zbek xalq ertaklari matnlari bilan ishlash jarayonida olingan ma’lumotlarni tahlil qilish ijobiy va salbiy belgilar tavsiflarida farqlar mavjudligini ko‘rsatdi, masalan, ijobiy va salbiy qahramonlar orasidagi farqlar tashqi yoki ichki belgilarning aniq ustunligida namoyon bo‘ladi. Shaxsiy fazilatlar mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, vatanparvarlik, mardlik kabi belgilar uchun ahamiyatli bo‘lib, bu holat har ikkala millat ertaklariga xos xususiyat sanaladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ingliz xalq ertaklari matnlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, umuman olganda, *qirol, keksa odam, kampir* va *o‘gay qizning* xarakterlari ijobiydir; salbiy obrazlarga *dev, o‘gay ona, o‘gay onaning o‘z qizi* kiradi. Xarakteristikalarining farqi *malika, jodugar* kabi qahramonlarni tasvirlashda namoyon bo‘ladi. Tashqi ko‘rinishini tavsiflashda malikaning go‘zalligi, o‘gay qizning mehnatsevarligi, ajdahoning yovuzligi kabi belgilar dominantlik qiladi. Eksperimental tadqiqotlarga ko‘ra, o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar belgilarni ijobiy va salbiy deb aniqroq tasniflaydilar, qahramonlarni ijobiy va salbiy, yoki “yaxshi” va “yomon” ga ajratadilar.

O‘zbek va ingliz ertaklaridagi farqlar asosan tashqi belgilar emas, balki shaxsiy fazilatlar qatorida kuzatiladi. Agar ingliz tilida tashqi va ichki xususiyatlar orasida o‘xshashliklar teng ravishda mavjudligi kuzatilgan bo‘lsa (masalan, *old man* va *stepdaughter* belgilari taqqoslanganda tashqi va ichki belgilarning soni bir xil; *witch* va *widow* personajlari orasida hech qanday o‘xshash belgilar uchramadi), o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar ongida o‘zbek xalq ertaklarining ijobiy obrazlari, birinchi navbatda, yoshlik, go‘zallik va aql bilan, salbiy – keksalik va tashqi jozibasizlik bilan tenglashtiriladi. Biroq, bu so‘z ingliz xalq ertaklari belgilariga nisbatan qo‘llanilganda, qismangina to‘g‘ri keladi: salbiy belgilar jirkanch ko‘rinish bilan o‘zaro bog‘liq; shaxsiy fazilatlarini jihatidan tashqi ko‘rinishi jozibali deb ta’riflangan belgilar noaniq xarakterlanadi, bu esa, shunga ko‘ra, yadro ichki xususiyatlarini ajratib ko‘rsatishga imkon bermaydi, bu holat ushbu fikrni dalillaydi: ijobiy belgi jismoniy jozibadorlik (malika) bilan, salbiy belgi (o‘gay ona) – jirkanch tashqi ko‘rinish bilan; shu bilan birga, salbiy xarakter (o‘gay ona) tashqi tomondan *chiroyli* sifatida ham tavsiflanishi mumkin. Shu o‘rinda “Snow–white” – “Oppog‘oy” ingliz xalq ertagidagi o‘gay onaning dunyodagi eng go‘zal sifatida tasvirlanganligini misol qilib keltirish mumkin.

Ikkala til madaniyatida mavjud o‘gay ona belgilarining ichki va tashqi

xususiyatlarini taqqoslashda turli lingvistik madaniyat vakillari tomonidan xalq ertaklari personajlarini qabul qilishda ham farqlar mavjud. Xarakterni tavsiflashda ikki til madaniyati uchun umumiy bo‘lgan o‘gay ona – bu qahramonning tashqi ko‘rinishini belgilovchi xususiyat; o‘zbek va ingliz tillarida ushbu xususiyat konseptning yadrosiga tegishli. Xarakterni tavsiflashda o‘gay ona ikki tilda ham qahramonga xos bo‘lgan universal shaxsni tavsiflovchi – *wicked and evil* – yovuzlik belgisiga to‘g‘ri keladi, har ikkala til vakillari ertakdagi o‘gay ona xarakterini salbiy deb qabul qilishadi, ammo bu yovuzlikning aks etishi turlicha ko‘rinishga ega. O‘gay ona haqidagi ingliz va o‘zbek xalq ertaklarida o‘gay qizdan qutulish usullari ham turlicha beriladi. Agar Zumradning o‘gay onasi cholga qizini o‘rmonga tashlab kelishni buyursa, Zolushkaning o‘gay onasi – qirolicha sehr orqali o‘ldirishga urinadi. O‘zbek xalq ertaklarida o‘gay onalar qari kampir, tashqi ko‘rinishi nihoyatda qo‘rqinchli, “*qovog‘idan qor yog‘ar edi*”, janjalkash, ochko‘z, rahmsiz sifatida tasvirlansa, ingliz xalq ertagidagi o‘gay ona esa “*go‘zallikda yagona*” bo‘lishga da‘vogarlik qiladi: “*o‘ta mag‘rur va o‘ziga ishongan, kimningdir undanda go‘zalroq bo‘lishi mumkinligi haqidagi xayolni ham miyasiga keltira olmaydigan*”, “*hasad va g‘urur uning yuragida begona o‘t kabi shunchalik tez va balandroq o‘sa boshladiki, na kechasi va na kunduzi halovat topa olmas edi*”⁴⁶. Yovuz o‘gay onalar haqidagi ertaklarda o‘gay ona va o‘gay qiz orasidagi ziddiyat shunchalik chuqurlashadiki, ertaklarning deyarli barchasida o‘gay qizning o‘limi rejalashtiriladi.

Ingliz tilidagi “O‘gay ona” turkumli ertaklarning o‘zbek tilidagi ertaklardan yana farqli jihatlari shundaki, ularning deyarli barchasi to‘y marosimi bilan yakunlanadi: *Their wedding was planned with great splendor and majesty* (Snow white); *Then, dressed in splendor, she was taken to the prince. He thought she was more beautiful than ever and married her a few days later* (Cinderella), undan tashqari oshkora sevgi bayonini ko‘rishimiz mumkin: *The prince said joyfully, “You are with me.” “I love you more than anything else in the world. Come with me to my father’s castle. You shall become my wife.”* (Snow white). Bunday xususiyatlar o‘zbek tilidagi “O‘gay ona” turkumli ertaklarda uchramadi.

O‘gay qizni tahqirlash ham ingliz va o‘zbek xalq ertaklarida turli xil tasvirlanadi. “Cinderella”da bu hol o‘gay qizni og‘ir ish bilan band qilib qo‘yish bilan boshlansa: “*They took her pretty clothes away from her, put an old grey bedgown on her, and gave her wooden shoes. There she had to do hard work from morning till night, get up before daybreak, carry water, light fires, cook and wash*”⁴⁷. “Zumrad va Qimmat”da esa uzoq manzillarga adashtirib kelish yoki haydab yuborish vositalari

⁴⁶ <http://nota.triwe.net/> English Fairy tales.

⁴⁷ Andrew Lang. The blue fairy book. 5th ed. – London: Longmans, 1991. – P. 25-35.

bilan aks ettiriladi: “*Bir kuni kampir Zumradni yomonlab, cholga do‘q uribdi: – Qizing beodob, ishyoqmas, uni haydab yubor, o‘rmonga oborib adashtirib kel! Bo‘lmasa sen bilan bir nafas ham birga turmayman*”⁴⁸. O‘gay onaning qiyofasi o‘gay qizning tasviri bilan chambarchas bog‘liq, ikki tilda ham biri ikkinchisining antagonistini vazifasini bajaradi. Binobarin, bu xususiyat o‘rganilayotgan etnik guruhlar uchun ham keng tarqalgan. Bundan tashqari, ikki lingvomadaniyatda ham o‘gay onaning o‘gay qizidan qutulish istagi qayd etilgan, o‘gay qizidan qutulishni istash ta‘rifini o‘gay ona xarakterining universal xarakteristikasi deb atash mumkin. Ammo o‘gay ona qanday qilib yovuz bo‘lib qolgani haqida ertaklarda hikoya qilinmaydi. Ocharchilik dunyoning ko‘p mamlakatlarini egallab olgan XV asrda qish chillasida yovvoyi hayvonlarga yem bo‘lishi natijasida yosh bolalarning o‘limi ommaviy tus olgan. Shu haqiqat zamirida yana bir obraz dunyoga keldi, o‘rmondagi vahshiy hayvon roli yalmog‘iz kampirga o‘tdi, aynan u ertak qahramonlarini o‘rmonning daraxtlar zich o‘sgan eng qalin joyida kutib oladi, bunga esa o‘gay ona *faol* yordam beradi. O‘gay bolalardan qutulish uchun ularni qattiq sovuq kuni yupun va och holatda uydan chiqarib yuborish – ularni o‘limga yuborish ekanligini biladi, chunki qishda o‘rmonda och bo‘rilar, vahshiy hayvonlar izg‘iydi, ulardanda vahshiyroq o‘gay ona ular uchun o‘gay bolasini yemish sifatida chiqarib yuboradi.

Yomonlik belgisi ingliz va o‘zbek tillarida ushbu tushunchaning asosiy ma‘nosiga ishora qiladi; o‘gay onaning xarakteri ikki til madaniyatida ham salbiy deb ta‘riflanadi. O‘zbek va ingliz xalq ertaklarini chog‘ishtirma kuzatish asosida xulosa qilish mumkinki, o‘zbek lisoniy madaniyatida tasvirning salbiy ko‘rinishi kamroq, ingliz ertaklarida o‘gay onaning xarakteri ko‘proq ko‘rinadi, ammo u doimo o‘gay qiziga nisbatan shafqatsiz. Shunga qaramay, yovuzlik alomatini o‘gay ona xarakterining universal shaxsiy xususiyati sifatida ajratish mumkin. Bundan tashqari, ikki lingvomadaniyatning yana bir farqli xususiyati – bu belgining yoshi: o‘zbek xalq ertaklarida o‘gay onaning yoshi o‘tganligini ko‘rsatish eski xususiyat, ammo ingliz ertaklarida u yosh bo‘lishi ham mumkin; ammo ikkala holatda ham u konseptning yadrosiga tegishli. O‘gay ona haqidagi ertaklar syujetining ibtidoiy matn ko‘rinishidan oqsuyak zodagonlarning nazokatli matnlariga ko‘chishi bu ertaklarda sehrarlik, jodugarlik kabi qora kuchlarning zohirlanishiga olib keldi, shuning uchun *jodugarlik* o‘gay ona xarakterining universal xususiyati bo‘lib hisoblanadi. Sehr–jodu ostida doimo o‘gay qizning yoshligi va go‘zalligiga hasad qilish motivi yotadi. Navbatdagi motiv esa o‘z qizining shaxsiy manfaatlarini himoya qilish instinktidir. O‘gay qizining o‘limini “buyurtma” qilish ko‘proq o‘rta asrlar Yevropa o‘gay onalariga xos, buni “Zolushka” ertagining aka–uka Grimmlar variantida uchratish

⁴⁸ Ўзбек халқ эртақлари. – Тошкент, 2007. – Б. 38.

mumkin. Zodagon o'gay onalar real hayotda o'gay qizlarining o'limini emas, balki tahqirlanishini buyurtma qilishgan, nomusiga tajovuz qilingan o'gay qiz ortiq oila mulkiga xavf solmagan, ularni, odatda, uzoqroq bo'lgan monastirlarga rohibalikka yuborishgan. Mana shu mulkka daxl qilish doimo o'gay onalarni tashvishga solgan va o'gay qiziga nisbatan turli yovuzliklarni amalga oshirishlarida asosiy motivatsiya bo'lib hisoblangan.

Shunga qaramay, ingliz va o'zbek xalq ertaklarining salbiy qahramoni – o'gay onalarni bir–biridan ajratib turadigan ko'pgina farqlar ham mavjud. O'gay ona personajini ertaklar matnlarida chog'ishtirma tahlil qilish turli etnik guruhlar o'rtasida an'anaviy ravishda shakllanib kelgan xususiyatlarning farqlarini aniqlashda yordam beradi. Demak, "Stepmother/o'gay ona" konseptining ingliz va o'zbek ertaklarida qo'llanilishidagi farqli jihatlar quyidagilarda namoyon bo'lishini aniqladik:

1) ingliz ertaklarida o'gay onalarning qizidan qutulishi uchun motiv hasad va rashk bo'lsa, o'zbek tilidagi ertaklarda esa bu ochko'zlik bilan izohlanadi: – *This time, though, it was not for love; this time it was to a man who still mourned his own dead wife, and who preferred his daughter's company to hers. Desperation gave way to jealousy; then, when Cinderella's father died, hope gave way to hatred. "Why are you so cruel?" a baffled Cinderella, after years of abuse, asks her stepmother. "Because you are young, and innocent, and good";* – *Mol shuncha ko'p, shu qadar ajoyib emishki, Zumradning butun umriga yetib ortar emish. Bu narsa o'gay onani og'ir tashvishga solibdi.*

U cholga qizi Qimmatni ham tezda o'rmonga olib borib adashtirib kelishni buyuribdi. Mening aqlli qizim qimmatli mollar keltiradi, – debdi u. Qizining kelganini ko'rib kampir o'zida yo'q sevinibdi. Qo'ni–qo'shnilar yig'ilibdi, sandiqni ochmoqchi bo'lishibdi. Shunda kampir bilan qizi ikkisi: "Yo'q, ochmanglar!" deb o'zlarini sandiq ustiga tashlabdilar. Keyin ikki qulog'idan ko'tarib uyga olib kiribdilar.

2) ingliz ertaklarida o'gay onaning xarakterida ayyorlik va mag'rurlik kuzatilsa, o'zbek tilida esa janjalkashlik, yolg'onchilik dominantlik qiladi: – *but she was proud and arrogant, and she could not stand it if anyone might surpass her in beauty;* – *Bir kun kampir Zumradni yomonlab, cholga do'q uribdi: – Qizing beodob, ishyoqmas, uni haydab yubor! Bo'lmasa sen bilan bir nafas ham birga turmayman!*

3) ingliz ertaklarida o'gay onaning tashqi qiyofasi "*She was a beautiful woman*", o'zbek ertaklarida esa "*qo'rqinchli, qovog'idan qor yog'ar edi*" kabi tasvirlanadi. Yovuzlik va go'zallik yonma–yon tasvirlangan ingliz ertagidan farqli o'laroq, o'zbek xalq ertaklaridagi *yovuz, johil, berahm* o'gay ona hech qachon *go'zal* tarzida tasvirlanmaydi. Xarakterni tasvirlashda o'gay ona faqat ingliz tilida *go'zal* ayol

sifatida gavdalanadi, bu esa qahramonning jismoniy jozibadorligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ingliz va o'zbek xalq ertaklari matnlarida personajning tashqi jozibadorligi tavsifi qo'shimcha tafsilotlarni o'z ichiga olmaydi, aksincha mavhum bo'lib, umumlashtiriladi. Biroq, ushbu ta'rif ikki til madaniyati uchun odatiy bo'lishiga qaramay, ingliz va o'zbek xalq ertaklarida uni universal deb hisoblash mumkin emas;

4) ingliz ertaklarida o'gay onaning sehr-jodudan foydalanishi aytilsa, o'zbek xalq ertaklarida bu yumush o'gay ona tomonidan bajarilmaydi, balki boshqa personajlarga murojaat etish orqali amalga oshiriladi: *"It's only a poor old woman," came a squeaky voice, "selling apples." Yet it was the evil Queen, disguised as an old woman. "It's raining out here, my dear," said her voice through the door. "Please let me in." "Poor thing," thought Snow White, "having to go door to door selling apples in the rain." And so she opened the door. "Take a look at this big red apple," said the old woman, who as you know by now was really the Queen in disguise. She held the red apple close to Snow White's face. "Lovely, my dear, isn't it?"; Chol nima qilarini bilmay qolibdi. Axiri kampir: – Qizingni o'rmonga oborib adashtirib kel! U bilan birga turmayman! – debdi.*

5) ingliz va o'zbek xalq ertaklaridagi o'gay onalarning o'gay qizdan qutulish usullarida ham farqlar kuzatiladi: *"Kill her, and as proof that she is dead bring her lungs and her liver back to me"; "Qizingni o'rmonga oborib adashtirib kel!"*. Ingliz ertaklarida shavqatsizlik xususiyati dominantlik qiladi.

6) ingliz va o'zbek xalq ertaklaridagi o'gay onalarning jamiyatda tutgan o'rini belgilash ham har ikkala xalqning milliy mentalitetidan kelib chiqadi. Ingliz xalq ertaklarida salbiy hisoblangan o'gay ona qirolicha tarzida ifodalanishi mumkin, ammo o'zbek xalq ertaklarida omi, savodsiz, hech qanday martabaga ega emas shaxs sifatida ushbu obrazning salbiy qahramon ekanligi ochib beriladi, ularning turmush tarzlari ham bir-biridan farq qiladi. Ingliz ertagidagi o'gay ona qirolicha bo'lib, katta, hashamatli saroyda yashasa, o'zbek xalq ertagida o'gay ona kamtarona turmush tarzini kechiradi: – *Once upon a time, a princess named Snow White lived in a castle with her father, the King, and her stepmother, the Queen; – Bir zamonda katta bir soy bo'yida kichkina bir uy bo'lar ekan. Bu uyda chol, uning Zumrad degan qizi, o'gay ona va uning Qimmat degan arzanda qizi turar ekanlar.*

Nafaqat ingliz va o'zbek, balki boshqa xalqlar ertaklarining ham salbiy qahramoni – o'gay ona konseptining barchasi madaniy ahamiyatga ega, ma'lum pragmatik yukni ko'taradi va har bir xalq ertaklari matnlarida muntazam ravishda takrorlanadi. Binobarin, ushbu konseptni o'rganish olamning xalq folklori lisoniy manzarasi va unda aks etgan etnik guruh mentaliteti to'g'risida to'liq tushuncha olishga imkon beradi. Xalq mentaliteti, milliy xususiyatlari g'oyasi asosida

etnomadaniy tahlil qilish, lisoniy belgilarni madaniy talqin qilish usullaridan foydalanib, “ko‘rib chiqilayotgan lingvistik birliklarning pragmatik, konnotativ va madaniy salohiyatini aniqlash mumkin”.

Xulosa qilib Konseptlarni qiyoslab o‘rganish ham xuddi tilshunoslikning o‘zi kabi ong, tafakkur va til o‘rtasidagi aloqa fiksatsiyasidir va shu bilan bir qatorda tilga alohida yondashuvni ifodalaydi, “Stepmother/o‘gay ona” konseptini qiyoslab o‘rganish – bu lingvomadaniy tahlil bo‘lib, tarkibiy qismlarini chuqur o‘rganish va olam lisoniy manzarasining shakllanish mexanizmini tasvirlash orqali amalga oshirildi.

Ingliz va o‘zbek xalq ertaklarida “stepmother/o‘gay ona” konseptining chog‘ishtirma talqini – bir–biridan madaniy, mintaqaviy va hududiy uzoq bo‘lgan ikki xalq ertaklaridagi o‘xshashlikni ochib berish orqali millatlar orasida bu kabi o‘xshashliklar uchrashi kuzatildi. Ingliz va o‘zbek xalq ertaklarida sehrlilik predmetlarga keng murojaat qilinadi, keng tarqalgan o‘xshash obraz – bu sehrlilik ko‘zgu, dev obrazlaridir, shuningdek, bu ikki xalq ertaklarida bir xil syujetga ega o‘xshash mavzular ko‘plab uchrashi isbotlandi.

“Stepmother/o‘gay ona” konseptini ingliz va o‘zbek xalq ertaklarida chog‘ishtirma tahlil qilish, belgilarining ichki va tashqi xususiyatlarini taqqoslash orqali turli etnik guruhlar o‘rtasida an’anaviy ravishda shakllanib kelgan bir qator xususiyatlarning farqlari aniqlandi.

REFERENCES

1. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – Москва, 1993. – С. 37.
2. Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. – Москва: Прогресс, 1984. – С. 247.
3. Кубрякова Е. С. Язык и Знание: На пути получения знаний в языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – С. 9; Попова З. Д., Стернин И. А.
4. Andrew Lang. The blue fairy book. 5th ed. – London: Longmans, 1991. – P. 25-35.
5. Ўзбек халк эртаклари. – Тошкент, 2007. – Б. 38.

ILMIY MATNLARNI TARJIMA QILISH JARAYONIDAGI ASOSIY QIYINCHILIKLARI TAHLILI

Rasulova Sanobar Jalalovna

I. Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Amaliy ingliz tili kafedrasida katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola bugungi kunda dolzarb bo'lgan ilmiy texnik atamalarni tarjima qilishda uchraydigan ba'zi muammolar va ularning sabablari haqida yoritilgan. Shu bilan birga tarjima tadqiqotida uchrovchi tarjima modellari ya'ni qiyosiy, jarayon va o'zgaruvchan modellar yoritiladi. Shuningdek jahon tarjimashunosligida to'rtta standart (izohlovchi, tasvirlovchi, tushuntiruvchi va tahmin qiluvchi) gipotezalar qayta tarjima qilish hodisasiga asoslanib bayon qilinadi va tasvirlanadi.

Kalit so'zlar: *prima facie, gipoteza, erkin tarjima, so'zma-so'z tarjima, texnik atamalar, tarjima muammolari, ilmiy-texnik matn, adabiyot, qiyinchilik, soha, o'rganish, ibora, chet tili, lug'at, tarjima modeli.*

ABSTRACT

This article describes some of the problems encountered in the translation of today's scientific and technical terms and their causes. At the same time, in translation research, encountering translation models, i.e. comparative, process and variable models are highlighted. Also, in world translation studies, four standard (explanatory, descriptive, explanatory and predictive) hypotheses are stated and described based on the phenomenon of retranslation.

Keywords: *prima facie, hypothesis, free translation, literal translation, technical terms, translation problems, scientific and technical text, literature, difficulty, field, study, phrase, foreign language, vocabulary at, translation model.*

KIRISH

Tarjima tipologiyasi bo'yicha an'anaviy fikrlarning aksariyati ikkita bir-biriga qarama-qarshiyo'nalishdan iborat bo'lib, «erkin va so'zma-so'z» bo'lgan tarjimalardir. Ushbu farqning zamonaviy talqini Nyumark (1981) tomonidan semantik va kommunikativ tarjima asosida taklif qilingan. [6] Semantik tarjima literal tarjimaga yaqinroq bo'lib, u asl nusxaning ma'nosi va shakliga eng maqbul ustuvor ahamiyat beradi va diniy matnlar, huquqiy matnlar, adabiyotlar, rasmiy nutqlar kabi yuqori mavqega ega bo'lgan matnlarining tarjimalariga mos keladi. Kommunikativ tarjima erkinroq bo'lib, yuborilgan xabarning samaradorligiga ustuvor ahamiyat beradi. U o'qish va tabiiylik kabi omillarga e'tiborni qaratadi va asl nusxaning ma'nosi bilan unchalik bog'liq bo'lmagan «pragmatik» matnlar tarjimalariga mos

keladi. Bularga reklama, sayyohlik risolalari, mahsulot tavsifi va ko'rsatmalari, qo'llanmalar kabi matnlar kiradi. Ushbu turdagi farqlanishning asosiy muammosi — so'zma-so'zlik, yaqinlik yoki masofa, va erkinlik darajalaridadir. Uning bitta maqsadli yechimi matndan matngacha bo'lgan turli xil o'zgarishlarni (siljishlar, strategiyalar) tahlil qilish va hisoblashdir. Ilmiy-texnik adabiyotlarning xarakterli xususiyati bir tomondan fikrni ifodalashning aniqligi va qisqaligi, ikkinchi tomondan esa qat'iy mantiqiy ketma-ketlik va taqdimotning to'liqligidir. Ilmiy-texnik adabiyotlar ko'p sonli atamalardan, shuningdek, ma'lum so'z va iboralardan foydalanish bilan tavsiflanadi. Bunda gaplar kengayish bilan tavsiflanadi, ya'ni gapning bosh bo'laklari atrofida ko'p sonli kichik bo'laklarni guruhlash, katta aniqlovchi guruhlar va taqsimlangan bir hil bo'laklarning mavjudligi, kirish konstruktsiyalarining keng qo'llanilishi, shuningdek, murakkab birikma va jumalarning qo'llanilishi kabi. Tarjima malakasini egallash tarjima bilan shug'ullanuvchi shaxsning tayyorgarlik darajasi va xususiyatiga qarab turlicha amalga oshiriladi. Yaxshi texnik tayyorgarlikka ega, ammo chet tilini yetarli darajada bilmaydigan shaxslar uchun birinchi navbatda, lingvistik hodisalardagi muammolar, ya'ni ma'noni tushunishdagi asosiy qiyinchiliklar kelib chiqadi. Bunda jumladagi alohida so'zlar o'rtasida semantik aloqalarni o'rnatish, tilni tushunish, tuzilmalar, ularning tarjimasini to'g'ri variantini tanlash, lug'atdan so'zni topish qobiliyati va boshqalar. Ilmiy va texnik adabiyotlarni deyarli lug'atdan foydalanmasdan o'qiy olish uchun qancha so'zni bilish kerak? Tarjimani o'qitish bo'yicha maxsus tadqiqotlar va tajriba shuni ko'rsatadiki, buning uchun 2500-3000 ta so'z lug'ati etarli. Minimal lug'atga birinchi navbatda qanday so'zlar kiritilishi kerak? Odatda, ilmiy-texnik matnning asosiy xususiyati undagi maxsus atamalarning ko'pligidir. Ehtimol, birinchi navbatda, bu atamalarni o'rganish kerakdir? Ko'pchilik shunday deb o'ylaydi. Bu savolga javob berish uchun atamalar nimani anglatishini aniqlab olishimiz kerak. Mutaxassis nuqtai nazaridan atama - bu maxsus tushunchani belgilash uchun xizmat qiluvchi so'z.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Fan va texnikaning har bir sohasi uchun atamalar soni juda katta va o'n minglar bilan o'lchanadi. Bundan tashqari, fan va texnika taraqqiyoti bilan bog'liq holda yangi maxsus tushunchalar va ularga mos atamalar doimiy ravishda paydo bo'lmoqda. Lekin shu bilan birga, umumiy so'zlar ko'pincha atamalar sifatida ishlatiladi. Ko'rinib turibdiki, chet tilini o'rganishda, eng avvalo, asosiy, eng muhim tushunchalarni anglatuvchi shunday atamalarni o'zlashtirish zarur. Bundan tashqari, har bir mutaxassis tegishli fan va texnika sohasidagi bir qator eng muhim yuqori ixtisoslashtirilgan atamalarni ham o'rganishi kerak. Notanish so'zning ma'nosini

aniqlay olish uchun siz kontekstdan qanday foydalanishni, soʻz tuzuvchi elementlarning maʼnosini va soʻzning tarjimasiga taʼsir qiluvchi boshqa omillarni oʻrganishingiz kerak. Umumiy kontekst va torroq kontekst mavjud. Umumiy kontekst maʼlum bir gapning mazmunini va butun matnni anglatadi.

Umumiy kontekst har bir soʻzning maʼnosini ochish yoki aniqlashtirish uchun fon boʻlib xizmat qiladi. Tor kontekst deganda gapda berilgan soʻz bilan bogʻlangan va uning maʼnosini belgilovchi soʻzlarning leksik maʼnosi tushuniladi. Gapda maʼno jihatdan bogʻlangan soʻzlarni ajratish mumkin. Shuning uchun ulardan birini tarjima qilish uchun undan uzoq boʻlgan soʻzni ishlatish kerak. Matndagi notanish soʻzni tarjima qilish va soʻzlarni eslab qolish uchun soʻz yasash tahlili katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham soʻz yasash yoʻllari va asosiy soʻz yasash elementlarini bilish, shuningdek, murakkab soʻzlarni tarkibiy qismlariga koʻra tarjima qila olish zarur. Bu odamni koʻp sonli hosila soʻzlarni yodlash uchun qoʻshimcha kuch sarflash zaruratidan xalos qiladi, ularning maʼnosi asosiy soʻzning maʼnosidan osongina chiqariladi. Shuni yodda tutish kerakki, eng koʻp hosila soʻzlar feʼllardan hosil boʻladi. Shuning uchun feʼllarning oʻzlashtirilishiga alohida eʼtibor qaratish lozim. Ilmiy-texnik adabiyotlarni tarjima qilishda matndagi turli grammatik shakl va konstruksiyalarni tanib olish, tarjima qilish bilan bogʻliq koʻplab qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bu, birinchi navbatda, umumiy taʼrifning asosiy belgisi boʻlgan izohli soʻzlar bilan artiklning "bogʻlanishi" ni tan olmaganida, umumiy taʼrifga ega boʻlgan otlar guruhi kabi konstruksiyalarga taalluqlidir.

Muayyan qiyinchilik polisemantik grammatik shakllar va polisemantik yordamchi soʻzlarni tarjima qilish bilan bogʻliq. Bunda soʻzning grammatik vazifasini aniqlab, oʻzbek tiliga tarjima qilishga yordam beradigan bir qancha omillarni hisobga olish zarur. Tarjima jarayonida asosiy eʼtibor pirovard maqsad – matn mazmunini eng toʻliq va toʻgʻri anglash va bu mazmunni oʻzbek tili vositasida toʻgʻri va toʻgʻri ifodalashga qaratilishi uchun barcha tarjimalar matn mazmunini toʻgʻri va toʻgʻri ifodalashga qaratiladi, harakatlari erkin, minimal kuch va vaqt bilan amalga oshirilishi mumkin, goʻyo oʻz-oʻzidan, boshqacha qilib aytganda, maksimal darajada avtomatlashtirilgan.

REFERENCES

1. “Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат” Омонов Х.Т., Хўжаев Н.Х. Тошкент 2012й.
2. Абдурахмонова, З. Ю. (2021). ЗАМОНАВИЙ ЎҚИТИШНИНГ МУАММО ВА ЕЧИМЛАРИДА САМАРАЛИ ЁНДОШУВ. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 1189-1193.

3. Aripov, N., Kamaletdinov, S., Tokhirov, N., Khudayberganov, S., Bashirova, A., & Djalalovna, M. (2023, March). Simulation modeling of train traffic based on GIS technologies. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2612, No. 1). AIP Publishing.
4. Nord C. Text analysis in translation: theory, methodology, and didactic application of a model for translation-oriented text analysis. Amsterdam: Rodopi, 1991. Juliane House-Translation as Communication across Languages and Cultures-Routledge (2015) (1) <https://www.academia.edu/38151758/>.pdf Reisiql, M. Rhetoric of Political Speeches. In R.Wodak and V. Koller (Eds), *Handbook of Communication in Public Sphere* (pp. 243–269). Berlin/New York: Mouton de Gruyter, 2008. Collombat, Isabelle. «Skopos Theory as an Extension of Rhetoric». *Poroi* 13, Iss. 1 (2017): Article 3. <https://doi.org/10.13008/2151-2957.1236>
5. Azatova, N. A. (2021). Tarjimashunoslikda matn va tarjima turlari masalalari. *Молодой ученый*, (12), 311-313.

ИЗУЧЕНИЕ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА – РУССКИЙ ЯЗЫК

Авлиякулов Зокир Авазович

Преподаватель Термезского Государственного педагогического института
факультета Филологии

кафедры Русского языка и литературы

Тел: +998990681467

Электронная почта: zokiravliyoqulov@gmail.com

Абдуллаева Дилшода Бахромовна

студентка 2-курса 205-группы Факультет “Филологии” по направлению
русский язык и литература в иноязычных группах Термезского
Государственного педагогического института.

Джураев Атхамжон Шухратжонович

студент 2-курса 201-группы Факультет “Филологии” по направлению
русский язык и литература в иноязычных группах Термезского
Государственного педагогического института.

АННОТАЦИЯ

Мониторинг интереса к изучению русского языка является одним из основных направлений деятельности по поддержке и продвижению русского языка. Актуальность статьи обусловлена недостаточным количеством современных исследований, посвященных положению русского языка в академическом образовательном пространстве. Цель исследования - проследить динамику изучения русского языка как иностранного (РКИ) в узбекских университетах за последние пять лет и выявить приоритетные факторы, послужившие причиной выбора русского языка для изучения.

***Ключевые слова:** русский язык как иностранный, Узбекистан, университеты, динамика интереса к изучению русского как иностранного, причины выбора русского как иностранного.*

ABSTRACT

Monitoring interest in learning the Russian language is one of the main activities to support and promote the Russian language. The relevance of the article is due to the insufficient number of modern studies devoted to the position of the Russian language in the academic educational space. The purpose of the study is to trace the dynamics of studying Russian as a foreign language (RFL) at Uzbek universities over the past five years and identify priority factors that led to the choice of Russian for study.

Key words: *Russian as a foreign language, Uzbekistan, universities, dynamics of interest in studying Russian as a foreign language, reasons for choosing Russian as a foreign language.*

ВВЕДЕНИЕ

Изучение иностранного языка, в том числе русского как иностранного (РКИ), — длительный и трудоемкий процесс, цел которого — приобретение коммуникативных навыков. При этом общая лингвистическая компетенция неразрывно связана с формированием социокультурной компетенции, основанной на знании учащимися национально-культурных особенностей социального и речевого поведения носителей языка, включающих обычаи, этикет, социальные стереотипы, историю и культуру, а также выработкой умения пользоваться полученными знаниями в процессе общения. Особенности формирования такой компетенции «заключаются в специфической направленности занятий по языку, которые проводятся в контексте диалога культур с учетом различий в социокультурном восприятии мира и способствуют, таким образом, достижению межкультурного понимания между людьми и формированию "вторичной языковой личности"»[3. С. 304].

Русский язык является одним из общепризнанных мировых языков, будущее официальным или рабочим языком крупнейших международных организаций: ООН, ЮНЕСКО, ВОЗ, ОДКБ, ОБСЕ и др. Принадлежность русского языка и культуры к общечеловеческим ценностям мирового значения не подлежит сомнению.

Традиционно распространение русского языка в Узбекистане рассматривается исследователями в контексте исторических событий и взаимоотношений между странами. Столкновение геополитических интересов и близость русско-узбекских границ привели к увеличению роли русского языка в военной сфере.

В этой связи основная задача преподавателей РКИ состоит в повышении интегральной мотивации для обеспечения устойчивого интереса к русскому языку и культуре. Особое внимание следует уделять формированию межкультурной компетенции, подбирая учебный материал в контексте диалога культур.

Материалы и Методы.

Занимая значительное место в академическом образовательном пространстве Узбекистана в настоящее время, русский язык обладает широкими перспективами для развития. С целью поддержания и стимулирования интереса

к его изучению необходимо расширят российско- узбекское сотрудничество в научно образовательной и культурной сферах по следующим направлениям: активизация программ по обмену студентами и профессорско-преподавательскими кадрами, организация международных конференций и симпозиумов, проведение совместных научно- исследовательских проектов, курсов повышения квалификации преподавателей и др. Кроме того, актуальным представляется создание профессионального объединения преподавателей русского языка как иностранного в Узбекистане для обмена опытом и информацией о современных подходах в методике преподавания РКИ.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ.

Своевременное определение мотивов учащихся к изучению русского языка имеет ключевое значение при разработке учебных программ и формировании методических концепций [1. С. 332]. В этой связи необходимо расширят исследования в области динамики изучения русского языка в Узбекистане, тенденций его развития, оценки мотивации студентов.

Для реализации цели исследования применялся комплекс теоретических и практических методов. Теоретические: анализ научных статей, опубликованных в рецензируемых журналах за последние 15 лет, и справочной информации, представленной на интернет-сайтах российских официальных ведомств. Практические: онлайн-анкетирование, метод статистического анализа данных.

Русский язык активно используется респондентами при использовании опосредованных источников речи: интернет-контента и платформ соцмедиа. Однако наблюдается относительно низкая активность в таких видах речевой деятельности, как говорение и чтение [2. С. 49].

Суммируя сказанное, можно отметить положительную динамику интереса к изучению русского языка в Узбекистане как на государственном уровне, так и на индивидуальном.

Взаимосвязь между изучением русского языка и перспективами карьерного роста обусловлена требованиями рынка труда, влияние на который оказывают русско-узбекские экономические отношения. Активно развиваясь с конца 1990-х годов, сотрудничество в области торговли привело к внушительным результатам.

В диссертации на соискание ученой степени доктора педагогических наук В.А. Степаненко «Лингвометодическая модель обучения коммуникации с учетом сертификации уровней владения русским языком как иностранным» [2. С. 46] рассматривается один из важных аспектов теории и методики преподавания

РКИ. Обучение коммуникации иностранных учащихся элементарного, базового и первого уровня владения РКИ с учетом семантико-синтаксических особенностей сложного предложения как необходимого компонента, определяющего восприятие и построение речевых произведений. Автором разработана модель обучения коммуникации на базе синтаксиса сложного предложения с учетом современного состояния русского языка применительно к трем первым уровням владения РКИ.

В работе в виде целостной системы изучены и представлены значимые для обучения на данных уровнях владения РКИ типы и разновидности сложного предложения, произведена классификация ошибок, связанных с восприятием и продуцированием конструкций сложного предложения и предложены пути и способы их преодоления. В диссертации выявлены и описаны характерные черты синтаксиса современного русского языка, которые должны найти отражение в текстах учебных пособий, исследован лингводидактический потенциал новостных программ с точки зрения представленности в них единиц обучения на уровне сложного предложения, введено понятие дискурса применительно к лингводидактическим описаниям, ориентированным на первые три уровня владения РКИ, разработана и апробирована методика преодоления разрыва между естественной и учебной коммуникацией на первом уровне владения РКИ.

Социокультурный компонент содержания обучения как средство повышения мотивации овладения русским языком иностранными студентами подробно изучен в кандидатском исследовании О.Г. Бутырской [1. С. 85]. В работе дополнены и систематизированы составляющие социокультурного компонента содержания обучения РКИ, описана развернутая структура социокультурной компетенции иностранных учащихся, владеющих русским языком в объеме ИИ и ИИИ сертификационных уровней. Обоснованы критерии отбора учебного материала социокультурной тематики в обучении РКИ, установлены преобладающие виды внутренней мотивации овладения русским языком иностранными учащимися и роль социокультурной информации в формировании мотивов учебной деятельности. Одним из приоритетных направлений научной работы нашей кафедры является лингво- культурология. Впервые изучены и описаны невербальные средства коммуникации в трех аспектах: лингво-страноведческом, структурно- семантическом, функциональном; обоснована необходимость учета невербального компонента в процессе обучения иностранному языку.

В настоящее время продвижение русского языка за рубежом является одним из приоритетных направлений внешней политики России, что зафиксировано в ряде государственных документов, в частности в Концепции государственной поддержки и продвижения русского языка за рубежом 2015 года и Концепции внешней политики Российской Федерации 2016 года. Распространение русского языка рассматривается как способ формирования положительного отношения к России и установления равноправных международных отношений. Принимая во внимание широкий диапазон российско-узбекского сотрудничества в наши дни, вопрос изучения русского языка в Узбекистане приобретает особую значимость.

Своевременное определение мотивов учащихся к изучению русского языка имеет ключевое значение при разработке учебных программ и формировании методических концепций. В этой связи необходимо расширять исследования в области динамики изучения русского языка в Узбекистане, тенденций его развития, оценки мотивации студентов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Каждому языку присущи свои специфические особенности, отличающие его от остальных языков. Вместе с тем в главных чертах все языки мира имеют между собой много общего, что дает основание ученым говорить о человеческом языке вообще. Люди давно заинтересовались языком и со временем создали науку о нем, которая называется языкознанием или лингвистикой.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (REFERENCES)

1. Бабушкин А.П. Концепты разных типов в лексике и фразеологии и методика их выявления // Методологические проблемы когнитивной лингвистики. Воронеж, 2001.
2. Зиновева Э.И. Понятие «концепт» в отечественном языкознании: основные подходы и направления исследования // Вестник СПбГУ. Сер. 2, 1993. Вып. 2.
3. Игнатева О.П. Роль коммуникативной компетенции в переосмыслении теории ошибки // Лингво-культурологические и лингво-страноведческие аспекты теории и методики преподавания русского языка : матер. междунар. науч.-практ. конф. Тула, 2009.
4. Берарди Симона. Дистанционное обучение в практике преподавания русского языка в иностранной аудитории (на примере авторских мультимедийных курсов «Краски-А1» и «Краски-А2»): Дисс канд. пед. наук. М., 2011.

5. Буглакова Л.М. Государственное тестирование по русскому языку как иностранному в системе европейского языкового образовательного стандарта: Дисс. ... канд. пед. наук. М., 2011.
6. Avliyoqulov, Z. A. (2022). FEATURES THAT SHOULD BE PAID ATTENTION TO WHEN TEACHING RUSSIAN AT A PEDAGOGICAL INSTITUTE. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(6), 676-678.
7. Кадыров, У. (2023). FACTORS AND IMPORTANCE OF FORMING PERSONAL CONSCIOUSNESS IN THE INFORMATION SOCIETY. *American Journal of Pedagogical and Educational Research*, 18, 74-79.
8. Қодиров, У. (2023). Психологик хизмат–замонавий таълим тизимининг ажралмас таркибий қисми. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 21-24.
9. Умарали Қодиров (2022). ДЕСТРУКТИВ ДИНИЙ ТАСАВВУРЛАРНИНГ ШАХСГА ПСИХОЛОГИК ТАЪСИРИ. *Academic research in educational sciences, Religion Conference*, 290-294.
10. Avazov, K. H. (2020). FACTORS OF THE EFFECTIVENESS OF POLITICAL POWER AS THE BASIS OF THE SUSTAINABILITY OF SOCIETY. *Theoretical & Applied Science*, (2), 586-589.
11. Komil, A. (2022). The Role of State Authority in Ensuring Political Stability. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 15, 9-16.
12. Авазов, К. Х. (2018). Угрозоустойчивость общества в системе политического исследования. In *Общественные науки в современном мире: политология, социология, философия, история* (pp. 46-50).
13. Авазов, К. Х. (2023). Социально-политический анализ формирования угрозоустойчивого общества. *Вопросы политологии*, 2(90), 590-593.
14. Mamanovich, R. H. (2022). The mass media as a subject of political and legal propaganda. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(10), 122-128.
15. Расулов, Ҳ. М. (2022). МАЪНАВИЙ ТАРҒИБОТДА ИЛҒОР ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАР. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 818-826.
16. Mamanovich, R. H. (2021). Civil Society: Prosperities of Decentralization in Management. *Middle European Scientific Bulletin*, 18, 359-362.

MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARIDA BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Ochilova Xilola Sheraliyevna

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim texnologiyasi
kafedrasi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bolalarning nutq ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni haqida ma'lumot berilgan. Bu jarayon bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirish, ularning nutqini yaxshilash va so'z boyligini kengaytirish omilidir. Bolalarning ma'naviy va estetik tarbiyasining barcha jabhalarida til va nutq ko'nikmalarining ahamiyati ko'rsatilgan. Ushbu maqolada maktabgacha ta'limning dastlabki yillarida og'zaki va og'zaki bo'lmagan muloqot qobiliyatlariga asoslangan til ko'nikmalarini o'rganish va rivojlantirish uchun asos yaratilganligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: *nutq, nutq o'stirish, metod va usullar, so'z boyligini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasasi.*

АННОТАЦИЯ

В этой статье представлена информация о процессе развития речевых навыков детей. Этот процесс является фактором приобщения детей к окружающей среде, улучшения их речи и расширения словарного запаса. Показано значение языковых и речевых навыков во всех аспектах духовно-эстетического воспитания детей. В этой статье подчеркивается, что в начальные годы дошкольного образования была заложена основа для изучения и развития языковых навыков, основанных на разговорных и невербальных коммуникативных навыках.

Ключевые слова: *речь, развитие речи, приемы и методички, увеличивающие словарный запас, дошкольное образовательное учреждение.*

ABSTRACT

This article provides information about the process of developing children's speech skills. This process is a factor in introducing children to the environment, improving their speech and expanding their vocabulary. The importance of language and speech skills in all aspects of spiritual and aesthetic education of children is shown. This article emphasizes that in the early years of preschool education, the foundation was laid for the study and development of language skills based on conversational and non-verbal communication skills.

Keywords: *speech, speech cultivation, methods and methods, increasing vocabulary, preschool educational institution.*

KIRISH

Bolalar bog'chasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim va tarbiya berishda eng asosiy vazifalardan biri bolalarga ona tilini o'rgatish, nutqini rivojlantirish, nutqiy munosabatga muomalaga o'rgatishdir. Nutq o'stirish uslubiyoti pedagogik fan bo'lib, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutqni shakllantirishga qaratilgan pedagogik qonuniyatlarni o'rganadi. Nutq o'stirish uslubiyoti fanining asosiy vazifasi— nutq o'stirish uslubi va uslubiyotlarini, ularning eng samarali vositalarini ilmiy-pedagogik asoslarda ishlab chiqish va bolalar bog'chalari tarbiyachilarini ular bilan ta'minlashdan iboratdir. Tarbiyachilar esa o'zlashtirilgan uslub va uslubiyot yordamida bolalarda zaruriy nutqiy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga harakat qiladilar. Nutq o'stirish uslubiyotining maqsadi bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishdan, atrofdagilar bilan nutqiy muloqotda bo'lish malakasini shakllantirishdan iborat.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Nutq o'stirish uslubiyoti boshqa xususiy uslubiyolar kabi quyidagi savollarga javob beradi:⁴⁹

- 1) nimaga o'rgatish kerak (bolalarda qaysi nutqiy malakalarni tarbiyalash kerak);
- 2) qanday o'rgatish kerak (bolalar nutqini shakllantirishda qanday sharoit qaysi usul va uslubiyotlardan foydalanish kerak);
- 3) nima uchun xuddi shunday o'rgatish kerak (nutqni rivojlantirish uchun taklif etilayotgan usul nazariy va amaliy jihatdan qanday asoslangan).

Nutq o'stirish uslubiyoti vazifasi o'z ichiga bir qancha maxsus xususiy vazifalarni ham qamrab olgan. Jumladan, bolalar bog'chasida bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha quyidagi maxsus, xususiy vazifalar amalga oshiriladi:

1. Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutqini o'stirish, boyitish.
2. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish.
3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash.
4. So'zlashuv nutqini (dialog) shakllantirish.
5. Hikoya qilishga o'rgatish (monologik nutqni shakllantirish).
6. Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish.
7. Bolalarni boshlang'ich savodga tayyorlash.

Ushbu vazifalar bar bir guruhdagi bolalarning yoshi va individual xususiyatlariga ko'ra quyidagicha taqsimlangan:

Birinchi va ikkinchi kichik guruhda.

1. Tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutq o'stirish, lug'atini

⁴⁹ Shodiyeva, N. (2008). NUTQ O'STIRISH USLUBIYOTI. Toshkent: O'QITUVCHI NASHRIVOT-MATBAA.

boyitish.

2. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish.
3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash.
4. So'zlashuv nutqini (dialog) shakllantirish.
5. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish.

Ushbu guruhda hikoya qilishga (monolog nutqqa) o'rgatish bo'yicha boshlang'ich ma'lumot berish belgilangan.

Kichik guruh bolalari tarbiyachining hikoyasini eshitib, uning savollariga javob bera olishi, mavzulardagi rasm yuzasidan suhbatlarda ishtirok etishi bilan birga, avval eshitgan ertak va hikoyani xotirasida tiklab, uning mazmunini buzmasdan aytib bera olishlari lozim.

O'rta va katta guruhlarda tarbiyachi bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha quyidagi vazifalarni amalga oshirishi kerak:

1. Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutqini o'stirish, lug'atini boyitish.
2. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish.
3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash.
4. So'zlashuv nutqini (dialog) shakllantirish.
5. Hikoya qilishga (monolog nutq) o'rgatish.
6. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish.

Maktabga tayyorlov guruhida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutqini o'stirish, lug'atini boyitish.
2. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish.
3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash.
4. So'zlashuv nutqini (dialog) shakllantirish.
5. Hikoya qilishga o'rgatish (monolog nutqni shakllantirish).
6. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish.
7. Bolalarni savod o'rgatishga tayyorlash.

I. Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutqini o'stirish, lug'atini boyitish.

Lug'at ustida ishlash bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish orqali amalga oshiriladi. Bolalarni tevarak-atrofdagi buyumlar, hodisalar, o'simliklar, hayvonot dunyosi, kattalar mehnati va h. k.lar bilan tanishtirish jarayonida ularning nomlarini, sifatlarini, xususiyatlarini, xarakterlarini so'zlar bilan aytamiz. Masalan, buyumlarning nomini anglatadigan: k o'zgu, taroq, sovun, tish va kiyim cho'tkalari, palos, gilam, javon, karavot, xontaxta; sabzavotlarning nomini anglatadigan: sabzi, karam, sholg'om, bodring, baqlajon; o'simliklar: daraxt, gul, o't va boshqalar; mevalar: olma, nok, olcha, gilos, olxo'ri va hokazolar; uy hayvonlari: xo'roz, tovuq, ot, sigir, it, mushuk, qo'y, eshak; ularning bolalarining nomini bildiruvchi: joja, toychoq, buzoq, qo'zichoq,

uloqcha, xo'tik; harakatlarni ifodalovchi: yuvinmoq, artmoq, pishirmoq, tayyorlamoq, kir yuvmoq, dazmollamoq, ekmoq va boshqalar; sifatlarni bildiruvchi: katta, kichik, qizil, sariq, ko'k, zangori, oq, qora, issiq, sovuq, shirin, achchiq va hokazo so'zlar bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish jarayonida bolalar lug'atiga kiritiladi, buning natijasida ularning lug'ati boyitiladi, nutqi rivojlanadi.

Bolalar bog'chasida lug'at bilan ishlash dasturi mavjud bo'lib, tarbiyachi bolalarga atrofdagilar bilan tez nutqiy muloqotga kirishib keta olishiga yordam beradigan so'zlarni tanlab, maxsus usul va uslubiyot yordamida ular nutqiga kiritib boradi. Bolalarni so'zlarning ma'nosini tushunishga o'rgatibgina qolmay, balki bu so'zlarni o'z nutqlarida faol ishlatishga ham odatlantirib boradi. Shuningdek, tarbiyachi bola lug'atining qopol so'zlardan xoli bo'lishiga shevaga oid (mahalliy) so'zlarni adabiy tildagi so'zlar bilan almashtirishga e'tibor berishi kerak.

Agarda tarbiyachi bola nutqidagi, tovush talaffuzidagi nuqsonlar, ohang va tempga, diksiyasiga (aniq, burro gapirish), nutqining mazmundorligi va ifodaliligiga e'tibor bermasa, bunday nuqsonlar bilan maktabga borgan bola bilimni o'zlashtira olmaydi va bu uning kelajakdagi mustaqil hayotida ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi, ya'ni nutqida nuqsoni bo'lgan bolaning nutqi boshqalarga tushunarsiz bo'ladi, o'z fikrini ifodalashda qiynaladi, uyaladi, natijada gapirmaslikka harakat qilib, indamas, jizzaki bo'lib qoladi. Bularning hammasi uning ruhiy rivojlanishiga ham ta'sir etadi. So'z tovush nutqini (dialog) shakllantirish. Bolalarga bilim va tarbiya berishda so'zlashuv nutqiga (dialog) o'rgatish kata ahamiyatga egadir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan so'zlashish bolalarning kundalik faoliyatlari va turli voqea hodisalarni kuzatish natijasida hosil boigan tushunchalarni aniqlash va uni bir tizimga solishda eng zaruriy ish vazifasi hisoblanadi. Bolada so'zlashuv nutqini shakllantirish bu boshqalarning nutqini tinglash va tushunish, so'zlashishni quvvatlash, savollarga javob berish va so'rashdir (savollar berish). Bola so'zlashuv nutqining rivojlanganlik darajasi uning lug'at boyligiga, tilning grammatik tomonini egallaganligiga bog'liqdir.

Bolani so'zlashuv nutqiga o'rgatish uning madaniy nutqni egallaganlik darajasiga ham bog'liqdir. Masalan, suhbatdosh bilan so'zlashayotgan vaqtda o'zining va suhbatdoshining nutqiga doimo e'tiborli bo'lish, suhbatdoshining nutqini aslo bo'lmaslik, savollarga odob bilan qo'l ko'tarib, ruxsat berilgach, javob berish, "ha" yoki "yo'q" deb qisqa javob bermay, balki shoshmay, o'ylab, so'ng to'liq, to'g'ri javob qaytarishga odatlantirish lozim.

So'zlashganda o'rtacha ovozda fikrni tushunarli qilib bayon etish, nutqning yoqimli bo'lishiga e'tibor berish, shuningdek, gapirayotgan vaqtda yerga, tevarak-

atrofqa qaramay, balki o'rtoqlariga qarab, ikki qo'lini yonga tushirib, erkin, samimiy so'zlashishga o'rgatishi va buni har mashg'ulotda bolalardan talab qilib boorish zarur.


"The only true wisdom is in knowing you know nothing." (English)

"Ilmning asli qalbdadir." (The essence of knowledge is in the heart.) (Uzbek)

Axloq va fazilatlar:

"Actions speak louder than words." (English)

"Iyman ikki qorong'uchodir." (Faith is like a double-edged sword.) (Uzbek)

Vaqt va imkoniyat:

"Strike while the iron is hot." (English)

"Vaqtida kelgan bo'lsin, vaqti ketgan bo'lsin." (May you come on time, may your time pass.) (Uzbek)

Sevgi va munosabatlar:

"Love is blind." (English)

"Muhabbat xalqda va dil daryosida yoqdir." (Love is found among people and in the river of the heart.) (Uzbek)

Qiyinchilik va chidamlilik:

"When life gives you lemons, make lemonade." (English)

"Hurmaga to‘qinmagan chag‘alar chumoqqa ergashadi." (Teapots that have not been exposed to fire become rusty.) (Uzbek)

Tabiat va atrof-muhit:

"A rolling stone gathers no moss." (English)

" Tabiat shamolni ushlab turmaydi; yuragida bir juft ho‘kiz saqlamaydi.." (Nature doesn’t hold onto the wind; it doesn’t keep a pair of oxen in its heart.) (Uzbek)

Bu misollar ingliz va o‘zbek tillaridagi katta aforizmlar to‘plamining faqat bir qismini tashkil etadi. Har bir aforizm hayotning turli jabhalari, inson tabiati va madaniy qadriyatlarga oid qisqa va esda qolarli tushunchalarni taqdim etuvchi muayyan mavzu yoki xabarni qamrab oladi.

Adabiyotda ingliz va o‘zbek aforizmlari ko‘p uchraydi. Adabiyotda qo‘llaniladigan ko‘plab aforizmlar adabiy qo‘llanishini yo‘qotib, ular paydo bo‘lgan asardan tashqari o‘z ma‘nosida ham dolzarb bo‘lib qoladi. Shekspir o‘z asarlarida aforizmlardan foydalangan. Ko‘p aforizmlardan foydalanish uning o‘tkir idroki va mulohazasidan dalolat beradi. Quyida ba‘zi misollar keltirilgan:

Having nothing, nothing can he lose. (Henry VI)

Life is a tale told by an idiot-full of sound and fury, signifying nothing. (Macbeth) Lord, what fools these mortals be! (A Midsummer Night’s Dream)

Hikmatli so‘zlarni mustaqil ilmiy janrlarda ham, ilmiy, falsafiy, tarixiy, badiiy asarlarda ham uchratish mumkin. Ba‘zan asar boshidan oxirigacha Hikmatli so‘zlardan iborat bo‘lishi mumkin (Forobiy). Alisher Navoiyning ayrim asarlari hikmatli so‘zlarga boy ("Nazm ul-javohir", "Arbain", "Mahbub ul-qulub" va boshqalar). Sharq xalqlari adabiyotida, jumladan, o‘zbek adabiyotida hikmatli so‘zlarning aksariyati nasihat va tanbeh tarzida uchraydi.

Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim,

Orlanib so‘ramagan-o‘ziga zolim (Alisher Navoiy)

Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur,

Qatra-qatra yig‘lib daryo bo‘lur. (Alisher Navoiy)

O'zbek tilida : Xaqiqatni ochinglar, to'g'ri yo'ldan yuringlar. (Abu Ali ibn Sino)
Tirik tilga yaqin hikmatli so'zlar, xalq maqollari ham keng tarqalgan.

O'zbek tilida: "O'qsiz soldat — qilichsiz qin" (Oybek)

"Tishi chiqqan bolaga chaynab bergan osh bo'lmas" (A.Qahhor)

O'zbek adiblaridan Hamza, A.Qodiriy, G.G'ulom, Oybek, H.Olimjon, A.Qahhor, Shayxzoda o'z asarlarida hikmatli so'zlarning zamonaviy namunalarini yaratib, o'zbek adabiy tili rivojiga zamonaviy hissa qo'shgan. Ko'pchilik o'zlarining jozibali va jodugar so'z tanlovi tufayli kundalik suhbatda ishlatiladi. Aforizmlar umumiy iboralarda, shuningdek, taniqli adabiyotlarda mavjud.

XULOSA

Yuqoridagi aforizmlarni o'rganish yoshlarga maslahat, yo'l-yo'riq yoki maslahat, hayotiy xulosalar olish imkonini beradi. Umuman olganda, har bir hikmatli so'z xalq donishmandligi ifodasi, ko'p yillik hayotiy tajribaning umumlashmasidir. Hikmatli so'zlarning tilda ko'rinishi ularni yaratgan xalqning tarixi bilan belgilanadi. Ko'pgina aforizmlar qadim zamonlarda yaratilgan va hozirgacha ularni yaratuvchisi bo'lgan odamlar bilan yashaydi. Aforizmlar mashhur bo'lib, avloddan-avlodga o'tib, asrlar davomida yashaydi.

Ilmiy izlanishlar jarayonida ko'pchilik aforizmlar bir vaqtning o'zida ikkita ma'noni: to'g'ridan-to'g'ri va ko'chma ma'noni o'z ichiga olishini ham aniqladik, shuning uchun biz ba'zan bir qarashdayoq aforizmlarni tushunishga qiynalib qolamiz. Asosan, aforizmlarning majoziy ma'nosi yoki ko'zda tutilgan ma'nosi odatda metafora, metonimiya, giperbola, o'xshatish yoki metafora kabi qimmat vositalar orqali yetkaziladi. Aforizm kelajak avlod uchun ajralmasdir. Kim bu aforizmlarni o'qib tushunsa, har tomonlama mukammal bo'ladi.

REFERENCES

1. Azamatov. M. Hikmatlar xazinası. Toshkent. 1977
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik. 2-tom. Moskva, << Russkiy yazik>> nashriyoti. 1981.O'zbek xalq ertaklari. Sehrli so'z. Navro'z. Toshkent. 2017.
3. I.I.Akramov. –2022. —The aphorism and the aphoristic style of communication. Центр научных публикаций
4. Jumaniyozova M.M. Literary Aphorisms As An Element Of Linguistic Art (On The Example Of Erkin Azam's Work) Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 804 European Journal of Molecular & Clinical Medicine ISSN 2515-8260 Volume 7, Issue 06, 2020

5. Samadova O. I. Comparative linguistic analysis of Uzbek and English aphorisms Academic research in educational sciences volume 1 |issue 3 | 2020. ISSN: 2181-1385.
6. A. Navoiy. Mahbub ul- qulub. Sano standart. Toshkent. 2018.

DIALOGIK DISKURSDA SHAXS RUHIYATINING IFODALANISHI

Qazaqova Nozima Abdulboqiyevna,

Namangan davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedراسи dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

e-mail:nozimakozakova2@gmail.com

ANNOTATSIYA

Diskurs tushunchasi bugungi zamonaviy tilshunoslikda markaziy tushunchalardan sanaladi. Diskurs ijtimoiy, madaniy, etnik, psixologik, emotsional-ekspressiv qimmatga ega bo'lgan va lisoniy hamda nolisoniy birliklar uyg'unligi vositasida tarkib topadigan, so'zlovchi va tinglovchi munosabati, nutqiy vaziyat, so'zlovchining kommunikativ strategiyasini aks ettiruvchi muloqot jarayoni, kommunikativ-pragmatik-lingvistik hodisa sanaladi. Mazkur xususiyatlar badiiy matn nuqtayi nazaridan qaraganda dialogik diskurslarda to'liq reallashadi.

Mazkur maqolada dialogik diskursning pragmatolingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Dialogik diskursning shaxs ruhiyatini ifodalashdagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada antroposentrik tilshunoslik metodologiyasiga asoslaniladi. Diskurs va unda shaxs ruhiyatining ifodalanishi masalasida pragmatik omillarga alohida ahamiyat beriladi.

Kalit so'zlar: *diskurs, dialogik diskurs, matn, nutq birligi, emotsional-baholovchi leksika, nutqiy faoliyat, muloqot.*

ABSTRACT

The concept of discourse is one of the central concepts in today's modern linguistics. Discourse is a communication process that has social, cultural, ethnic, psychological, emotional-expressive value and is composed by the combination of linguistic and non-linguistic units, the relationship between the speaker and the listener, the speech situation, the communicative strategy of the speaker, communicative - is considered a pragmatic-linguistic phenomenon. These features are fully realized in dialogic discourses from the point of view of literary text.

This article analyzes the pragmatolinguistic features of dialogic discourse. The importance of dialogic discourse in expressing the individual's psyche is revealed. The article is based on the methodology of anthropocentric linguistics. Pragmatic factors are given special importance in the issue of discourse and the expression of the individual's psyche in it.

Key words: *discourse, dialogical discourse, text, speech unit, emotional-evaluative lexicon, speech activity, communication.*

KIRISH

Inson hayotining barcha jabhalarida, kundalik turmushda, ish faoliyatida, jamiyatning barcha tarmoq va sohalarida muloqot eng muhim kategoriya sanaladi. Muloqot jarayoni o'zining lisoniy va nolisoniy omillar, vositalar uyg'unligida to'liq bo'la olishi bilan ham xarakterlidir. Til, albatta, avvalo muloqot vositasi sanaladi. Shu bilan birga, tilning inson ruhiyatini aks ettirishi, muloqot jarayonida so'zlovchi va tinglovchi orasida nafaqat fikrlar almashinuvi, balki his-tuyg'ular almashinuvi ham yuz berishi tilshunoslikda qator tadqiqotlarda e'tirof etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Diskurs termini bugungi tilshunoslikda faol qo'llanayotgan tushunchalardan sanaladi. Prof. A.Nurmonov diskursni insonning subyektiv ruhiyatini aks ettiruvchi hodisa sifatida baholab, pragmatikaning o'rganish doirasiga kiritsa [6], prof. SH.Safarov nutq sathining maksimal birligi, bajarayotgan kommunikativ vazifasi jihatdan tizimlashgan va muloqot vaziyatiga moslashgan nutqiy qurilma, inson ongli faoliyatining ma'lum bir turi, turkumi, matni esa uning bir ko'rinishi sifatida ta'riflaydi. Matn va diskurs hodisalarini qiyoslab, ikki hodisani "giperonim" – "giponim" munosabatida o'rganishni taklif qiladi. Nutqni jarayon sifatida o'rganish faqat muloqot – so'zlovchi va tinglovchi orasidagi o'zaro diskurs (fikir almashtirish), savolga javob berish hollaridagina tadqiq etilishi mumkin, deb hisoblaydi.[8,9] Aslida matn ham, diskurs ham nutq birligi sanaladi. Jahon tilshunosligida diskurs borasida I.V.Karasik [5], M.O. Jeltuxina [3], V.G. Borotko [1], O.V. Guseva [2] kabilar, o'zbek tilshunosligida A.Nurmonov [6], Sh.Safarov [8,9], L.Raupova [7] kabilar tomonidan fikrlar bayon qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada antroposentrik tilshunoslik metodologiyasiga asoslaniladi. Diskurs va unda shaxs ruhiyatining ifodalanishi masalasida pragmatic omillarga alohida ahamiyat beriladi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Diskursni "jonli", lisoniy va nolisoniy vositalar uyg'unlashgan matn sifatida izohlashimiz mumkin. Dialogik diskursning sotsiopragmatik xususiyatlarini tahlil qilgan professor L.Raupova ham diskursga "nolisoniy hodisalar qurshovidagi matn" sifatida qaraydi [7]. Demak, diskurs ijtimoiy, madaniy, etnik, psixologik, emotsional-ekspressiv qimmatga ega bo'lgan va lisoniy hamda nolisoniy birliklar uyg'unligi vositasida tarkib topadigan, so'zlovchi va tinglovchi munosabati, nutqiy vaziyat, so'zlovchining kommunikativ strategiyasini aks ettiruvchi muloqot jarayoni,

kommunikativ-pragmatik-lingvistik hodisadir. Mazkur xususiyatlar badiiy matn nuqtai nazaridan qaraganda dialogik diskurslarda to'liq reallashadi. Chunki dialog shunchaki suhbat, qahramonlarning fikr almashinuv jarayoni emas, badiiy asar syujeti va kompozitsiyasida muhim tarkibiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisa, qahramonlar pozitsiyasi va dunyoqarashini aks ettiruvchi hamda ularga nisbatan kitobxonda ijobiy yoki salbiy baholashni yuzaga keltiruvchi matn qismidir. Dialog o'zining mustaqil qurilish tizimiga va qat'iy tartib-qoidalariga ega bo'ladi. U syujetni rivojlantirish, xarakterlarni takomillashtirish, qahramonlar o'rtasidagi ziddiyatlarni keskinlashtirish, ularning ichki dunyosini chuqurroq ochishga xizmat qiladi. Dialogik diskurs badiiy ijodkor uchun ijod texnikasining eng qiyin bo'laklaridan biri sifatida qaralsa, tilshunos uchun uning sintaktik o'ziga xosliklari, pragmatik va diskursiv mazmuni hamda tuzilishi muhim ahamiyat kasb etadi [7]. Mohir so'z san'atkorlari bayonchilikka yo'l qo'ymay, aynan dialogik diskursda qahramonlarni hayotiy, jonli odam sifatida tasvirlab, ularning insoniy xususiyatlarini qahramonlarning o'z nutqi orqali ochib beradilar. Pragmatika nuqtai nazaridan kommunikatsiya jarayonining ikkinchi qatnashchisi, ushbu nutq namunasi mo'ljallangan tinglovchi yoki o'quvchini hisobga olish katta ahamiyatga ega. Ma'lum bir nutq namunasi kontekstini tushunish, uning umumiy hikoyadagi kommunikativ rolini anglash uchun so'zlayotgan va eshitayotgan, yozayotgan va o'qiyotgan shaxslar nafaqat umumiy til bilimiga, balki tarixiy, madaniy, ijtimoiy mazmundagi ma'lumotlarga ega bo'lishi talab etiladi. O'quvchining saviyasi badiiy matnni qabul qilishda katta ahamiyatga ega. Badiiy matnni anglashda esa bu hal qiluvchi omildir. Qahramonlar ruhiyati, o'zaro munosabati, tasvirlanayotgan voqealarga munosabati shu jarayonda ochiladi, turli nutqiy vaziyatlar namoyon bo'ladi. Qahramonlarning dialogik nutqini emotsional-baholovchi leksika (murojaat, zoometaforalar, kuchaytirma sifatlar, iboralar; prosodik elementlar (punktuatsiya matn mazmunini o'quvchiga tez va to'g'ri anglashga yordam beradi); nutqning uslubiy o'ziga xosligi, tavsifi (qahramon nutqining o'ziga xosliklari); informativlik; ijtimoiy-madaniy omillarning ta'siri (jamiyatdagi tabaqalanish, ijtimoiy kelib chiqish, jins va yosh, muloqot tipi va boshqalar); dialogning psixologik asosi kabi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin.[4]

Masalan: Hoji shartta o'zini yerga otdi. Emaklab u tomon kela boshladi.

- Meni kechiring. Kechiring. Gunohlarimni oqlayman. O'sha o'ttiz ming so'mni to'layman. Ellik ming qilib to'layman.

- Pulni-ku to'laysan. Senga pul cho't emas. Qurbonlar umrini nima bilan to'laysan? Azob-uqubatda yo'qolgan navqiron umrimni nima bilan to'laysan? Sarson-sargardon bo'lib, o'lib ketgan xotinimning umrini nima bilan to'laysan? Yo'q bo'lib

to'zib, patarat topib ketgan oilamga qancha haq to'laysan? Kiyimlarni yoq. Bo'lmasa tepkini bosaman. (Said Ahmad "Jimjitlik")

Dialogik diskurs nutq ishtirokchilarining munosabatlari, ruhiy quvonchlari, iztiroblari, xarakterli jihatlarini ochishda alohida ahamiyatga ega ekanligi yuqoridagi misoldan ko'rinib turibdi. Badiiy asarlardagi eng kulminatsion, qizg'in nuqtalar aynan dialoglarda ham o'z ifodasini topishi mumkin. Yuqoridagi dialogic diskursda ritorik so'roq gaplarning takror qo'llanishi muloqotga keskinlik, qahramon ruhiyatidagi to'xtatib bo'lmas alam, iztirobni yaqqol ochib berishga xizmat qilgan. Qahramon xarakteridagi keskinlik, alamzadalik, shu nutqiy vaziyatda hokim pozitsiyada ekani qat'iy buyruq gaplar orqali o'z ifodasini topgan.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, dialogik diskursda muloqot ishtirokchilari nutqida informativlikka qo'shimcha tarzda ijtimoiy munosabatlar, ruhiy ta'sirlanishlar doirasida o'zaro fikr va tuyg'ular almashinuvi yuz beradi. Bu jarayonda tilning barcha sath birliklari birday ahamiyatli bo'lib, so'zlovchi samarali muloqot uchun til birliklarini eng ta'sirli shaklda qo'llashga intiladi. Badiiy matnda esa yozuvchi dialogik diskurs orqali asar hayotiyiligini, qahramonlarning hayotiyiligini ta'minlash uchun foydalanadi. Asar qahramonlarining eng xarakterli jihatlarini, dunyoqarashi va mafkurasi, pozitsiyasi dialog orqali ochib beriladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Борботько В.Г. Общая теория дискурса (принципы формирования и смыслопорождения): Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. Краснодар, 1998. – 48 с.
2. Гусева О.В. Лингвопрагматический анализ дискурсивно-идиоматических параметров открытого письма в современном английском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Иркутск, 2000. – 17 с.
3. Желтухина М.Р. Комическое в политическом дискурсе конца XX века. Русские и немецкие политики: Монография / Ин-т языкозн. РАН. М.– Волгоград: Изд-во ВФ МУПК, 2000. – 264 с.
4. Ибрагимова Э.Ўзбек тили лексикасининг аксиологик тадқиқи. – Фарғона, 2018. – 115 б.
5. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Москва, 2002. – 331 с.
6. Нурмонов А. Танланган асарлар. –Тошкент: Академнашр, 2012. 3-жилд. – Б.197.

7. Раупова Л. Диалогик дискурсадаги полипредикатив бирликларнинг социопрагматик тадқиқи: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – Б. 13.
8. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б. 221-253.
9. Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд, 2007. – Б. 15.
10. Соболева Е. Проблемы прагматики англоязычного художественного текста // Известия ПГПУ. 2008.
11. Қамбаров Ғ. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши (шахслараро муносабат асосида): филол.фанлари номз... дис. – Тошкент, 2008. – 125 б.
12. Nozima Kozakova. Main Concepts in Pragma Linguistic Analysis of Literary Text (In the Examples of Gafur Gulyam's Works) International Journal of Science and Research (IJSR) ISSN: 2319-7064 ResearchGate Impact Factor (2018): 0.28 SJIF (2018): 426 <https://www.ijsr.net/archive/v8i5/ART20197904.pdf>

ГАФУР ҒУЛОМ ШЕЪРИЯТИДА ВАҚТ ИФОДАЛАШ УСУЛЛАРИ

Х.Шарафиддинов,

Фарғона давлат университети доценти,
филология фанлари номзоди

АННОТАЦИЯ

Мақолада Вақт тушунчасининг фалсафий англаниши, унинг тилда ифодаланиши, Гафур Ғулом шеъриятида унинг турли сўз ва сўз бирикмалари орқали ифодаланиши ҳақида сўз боради.

Калим сўзлар: фалсафий, эра, тарихий, физиологик-психологик, мифологик, мучал.

ABSTRACT

The article talks about the philosophical understanding of the concept of time, its expression in language, and its expression through various words and phrases in Gafur Ghulam's poetry.

Key words: philosophical, era, historical, physiological-psychological, mythological, muchal.

КИРИШ

Фалсафий маънода вақт моддий оламдаги ҳар бир нарса-предметнинг, ижтимоий ҳаётдаги воқеа-ҳодисаларнинг мавжудлиги ва яшаш муддати, бу муддатнинг давомийлиги, ўлчамлари каби қатор тушунчаларни ўзида жамлайди. Бу тушунчалар сўзлар воситасида юзага чиқади. Обьектив оламдаги барча нарсалар ва уларнинг ҳаракатлари маълум маконда намоён бўлганидек, муайян замон билан ҳам боғланади. Шу жиҳатдан қаралганда, вақт объектив мавжудликнинг яшаш шакли; материянинг зарурий, муҳим ва ажралмас хусусияти – ҳаракат [1,94]. Бу хусусият ифодаси маълум майдонга мансуб сўзларни талаб этади. Масалан, “кун қиёмдан оққанда етиб бордик” [5,184] жумласида нарса-предмет, бу ўринда биринчи шахсда бўлиб, расман ифодаланмаган “биз”нинг ҳаракати “етиб бордик” ҳукмида реаллашган; кун қиёмдан оққанда фаолият юзага чиқадиган вақт-фаолият реализацияси вақти.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Вақт тушунчасини ифодаловчи сўзларнинг катта оралиқларни кўрсатувчилари мавҳумлик белгисини ҳеч қачон йўқотмайди. Чексизлик, узлуксизлик, доимийлик, номаълумлик, вақт тушунчаси билан боғланганда, “давр” сўзида акс этади. “Эра” сўзида ҳам вақт тушунчаси англашилади, шунингдек, бу сўз даврларни ажратиш ҳам туради. Маълум бир давр, эранинг

муайян бир бутунликни конкретлаштирувчи оралик даври “аср” сўзида ифодаланган тушунчада реаллашади: эрадан олдинги X-IX асрлар, эрадан кейинги IX-X асрлар тарзида. Аср равшанлик касб этиш йиллар билан ўлчанганда маълум бўлади: XX асрнинг 20-йиллари. Бу кетма-кетлик аниқ ва қатъий система сифатида барқарорлашган.

Миқдор тушунчасини англатиб, арифметик ёзув белгисига эга бўлган бир – 1, ўн – 10, юз – 100 каби сўзлар вақт тушунчасини билдирувчи сўзлар билан атрибутив алоқадорликда вақт тушунчаси конкрет ифодага эга бўлади.

Йигирма учинчи йилнинг тонгида

Шеърим билан эгиз бўлиб туғилдинг. [5,35]

Биринчи мисрадаги 23 рақами йилнинг атрибути бўлиб келган – йил шу рақам орқали аниқлик касб этган. “Тонг” сўзи орқали эса шу йилнинг бошланиши аниқланган. Бу ифодада кўчим бор – тонг йилнинг эмас, сутка кундузининг бошланиши. 23-йилнинг тонги шу йилнинг бошланғич ойи, яъни январ тушунчасини беради.

Ғафур Ғулом ўз асарларида вақт тушунчасини ифодалаш учун турли усулларга мурожаат қилади.

Булар қуйидагилар:

1. Машҳур шахслар ҳаётининг маълум бир дамлари вақт ифодалаш учун хизмат қилади.

Мен ҳам роппа-расо Пушкин ёшида,

Фақат бу курашдир, эмасдир дуэл.

Дуэлда ўлурлар, курашда – ҳаёт,

Тарих талаб қилган улуғ қиран йил. [5,37]

Машҳур кишилар (келтирилган парчада Пушкин) ёши орқали ифодаланган улуғ қирон йил шеър ёзилган вақтни ҳам, шоир ёшини ҳам акс эттиради. Шунингдек, уруш ва маълум бир ҳаёт йўлларининг тугашига – ҳалок бўлишига ҳам ишорат этилади.

2. Тарихий воқеа-ҳодисалар рўй берган йиллар вақт тушунчасини образли ифодаланишининг омиллари сифатида хизмат қилади.

Ленада ишчилар отилган куни

Абжад ўқиш учун мактабга бордим. [5, 35]

Келтирилган иккиликнинг биринчи мисрасида 1912 йил апрель ойининг тўртинчи санаси кўзда тутилади. Шу куни подшо ҳукумати томонидан икки юз эллик киши отиб ташланади. Булар яшаш имкониятларининг чегараси ўз ҳаддига келганлиги учун иш ташлаган намоёнчилар бўлган. Бу воқеа орқали шеърнинг кичик бир бандига кўшимча маълумотлар киритилган, образли ифода

орқали шеър мазмуни бойитилган. Шеърни ўқиган ҳар бир киши таъсирли бир маълумотга эга бўлади ёки шу маълумотларни олиш учун бошқа манбаларга муурожаат қилади. Хуллас, шу бир мисра асар мазмун доирасининг янада кенгайишига хизмат қилган.

3. Ғафур Ғулом шеъриятида вақт ифодалаш физиологик-психологик омиллар билан ҳам боғланади. “Алифбе ўқишга кириш” вақт ифодаси бўйича бевосита шу омилга асосланади.

Шеър ўсди, сен ўсдинг соатма-соат,
Мана, энди, улғайиб ҳарбий ёшинг бор.

Дўстлар билан сафда ўқишга, албат,
Мен ёзган эгизак марш – йўлдошинг бор. [5,36]

Мисралардаги “саф”, “марш” сўзлари ҳарбий ҳаётнинг фаол сўзлари саналади. Бу ҳаётга кириб келишнинг физиологик-психологик чегаралари белгиланган. Албатта, бу ҳарбий кадрлар хизмат даври билан эмас, оммавий ҳарбий сафарбарлик – муддатли ҳарбий хизмат учун мўлжалланган вақт бирлигидир.

4. Мифологик ривоятлар асосида белгиланган вақт тушунчаси ҳам образли ифода учун қўлланади. Шоирнинг “Хотин” шеърисида шундай мисралар бор:

Улғайдим, “ёр, сенга мубтало бўлдим...”
Кучини кўрсатди шунда ғазаллар.
Ҳазил-ҳазил билан мучаллар ўтди,
Кулмасин баркамол ёшли гўзаллар. [4,50]

Тўртликнинг охирги мисраси дастлабки вариантларда “Кулмасин комсомол ёшли гўзаллар” тарзида бериб келинган. “Комсомол ёшли” бирикмаси вақт ифодаси бўйича, “баркамол ёш” бирикмаси билан яқин бўлганлиги туфайли кейинги вариант осон алмаштирилган – вақт англашилиши ҳам ўзаро мос тушади. Бу ижтимоий-физиологик омил асосидаги вақт ифодалаш саналади. “Мучаллар ўтди” бирикмаси эса мифологик ривоятлар асосига кўра вақт ифодалайди. Мучал – вақт ҳисоби. Бу ҳисобга кўра, ҳар ўн икки йил бир мучал ҳисобланади, ҳар бир мучал даври эса ички бўлинишга эга бўлиб, унинг ҳар бир йили бир ҳайвон номи билан юритилади. Мисрадаги “Мучаллар ўтди” бирикмаси улғайишга ишорат этади, банднинг биринчи мисраси ҳам “улғаймоқ” феълидан бошланади.

5. Ғафур Ғулом шеъриятида астрономик тушунчалар ифодаловчи сўзлар воситаси билан ҳам вақт тасвири берилади. “Қуёшнинг йиллик ҳаракат йўли

бўйлаб жойлашган ўн икки юлдузлар туркумининг” (2,150) номларига асосланувчи “шамсия йил ҳисоби” (3,84) бўйича вақт ифодаланади.

Сунбула сувидай тиниқ манглай тер,

Марварид доналар бўлди оқибат.

Чалишмак мезонин ботмонларидан

Юлдуз сон қанорлар тўлди оқибат. [5,56]

Сумбула // сунбула астрономик вақт ҳисоби бўйича, йигирма иккинчи августдан йигирма иккинчи сентябргача бўлган вақтни ўз ичига олади. Бу вақт куз фаслининг бошланиши. Совуган сув эса тинади. Мисраларда сумбула сувини айни шундай, тиниқ деб кўрсатилади.

6. Даврнинг ижтимоий тузуми томонидан белгиланган удумларга мувофиқ равишда вақт ифодалаш шеър мавзуси ва ғояси билан зич боғланган ҳолда баён этилади. Шоирнинг “Сен етим эмассан” номли шеърда шундай ҳолат кузатилади.

Кўзимга уйқунинг

Мудроқ овчиси

Тўрин солмасдан –

(Биринчи гудокка

Икки соат бор) –

Оталик ҳиссининг

Бебаҳо, лазиз

Тўлқинлари ичра

Ғарқ бўлиб кетиб,

Азиз бошинг устида

Термулмакдаман...

“Биринчи гудокка” ҳали “икки соат бор”, лекин шоир ухлагани йўқ, у жонсарақ ота сифатида ўз бурчини ўташда давом этади. Биринчи гудок вақти эса давр кишиларига маълум. У даврда шаҳарлар завод гудоклари билан уйғонган, қишлоқлар раис машинасининг сигналлари билан кўз очган даврлар фақат шу замон кишиларига маълум бўлган.

7. Вақт оқимининг табиатда намоён бўлишини ифодаловчи сўзлар воситасида ифодалаш ҳам Ғафур Ғулом ижодига хос хусусиятлардан биридир. Шоирнинг “соғиниш” номли шеърда табиий вақт оқимини билдирувчи “Саҳар”, “тонг отар” каби сўзлар орқали нарса-ҳодисаларнинг белгилари ифодаланади.

Суйганинг лабида реза тер каби

Унда титраб турар сабуҳий шабнам.

Кўчатлар қоматин эслатганидек,

Нафасин уфурар тонг отар ели.

Келтирилган парчаларда вақт ифодаловчи сўзлар вақт билан боғлиқ бўлган атрибутив вазифада қўлланган. Қуйидаги мисраларда тонг отар яна бир вақт ифодаловчи “чоғ” сўз билан бир бирикма таркибида келиб сутканинг аниқ даврини англатиб келган.

Тонг отар чоғида жуда соғиниб,

Бедил ўқир эдим, чиқди офтоб.

8. Ғафур Ғулом шеъриятида она сайёранинг маълум бир ҳудудига хос табиий шароитларга хос бўлган тушунчалар орқали ҳам вақт ифодаланади. Масалан, бизнинг ўлкада етиштириладиган қишлоқ хўжалик маҳсулотларининг етиштирилиши, тайёр бўлиши даврий вақт тушунчасини ифодалаш учун асос бўлади.

Ҳоки анжир тугаб, қовун ғарқ пишган,

Бахтли тонг отар чоғ уни кузатдим. [5,47]

9. Фазовий жисмлар ҳаракати асосида вақт ифодалаш Ғафур Ғулом прозасида ҳам кузатилади. “Кун қиёмдан оққанда кўлида яримта ноннинг юзига сузма суртиб хўжайин чиқиб қолди”. [4,219] “... эй, менинг тарбиям учун кўз юммасдан ҳулқар кўзларингга чўккан она...” [5,119]. “Кун қиёмдан оққанда” бирикмаси таркибида келган қиём сўзи орқали қуёш ҳаракати кўрсатилади: “Қуёш тикка кўтарилган пайт; пешин” [2,569] вақти; ҳулқар юлдузлар туркуми унинг кўриниб туриш давомийлиги, тун. Тонгдан бошлаб кўринишни йўқотади, у она кўзларига чўкиб кўринмайди, бу усул она меҳнати улуғлигини таъкидлаш учун келтирилади.

“Шум бола” қиссасида шундай жумлалар бор: “... мана бу – Хулқар, кеча шу юлдуз тикка келганда, эшак сўйилган эди. Мана бу Сомончининг йўли, кеча шу кунботарга яқинлашиб қолганда, домла биқинимга тепган эди” (4,176). “Сомон йўли” ҳаво очиқ тунда оддий кўзга ёруғ йўл бўлиб кўринадиган юлдузлар туркуми” [2,68].

10. Ғафур Ғулом прозасида йил фасллари билан боғлиқ ҳолда ўзгариб турадиган, сутканинг тонгга яқин даврини халқона ифодалаш ҳам кузатиладики, бунда вақт тушунчаси нисбатан мавҳумроқ англашилади – ҳамма учун бир хил бўлган аниқ бир вақтнинг конкрет ифодаси билинмайди. “Икки хўроз қичқирганча суҳбат давом қилди”. [4,260]

Ғафур Ғуломнинг “Вақт” номли шеърида вақт тушунчасини ўз номинал маъноси билан ифодаловчи сўзлар кўплаб ишлатилади.

Яшаш саодатининг олтин капгири
 Ҳар бориб келиши бир олам замон.
 Голиб асримизга қуёшдан машъал,
 Замон қўрасининг сўнмас чўғимиз.
 “Лаҳза” сўзи бир банднинг ўзида уч марта такрорланади.
 Ҳар лаҳза замонлар умридек узун,
 Асрлар тақдири лаҳзаларда ҳал.
 Умрдан ўтажак ҳар лаҳза учун
 Қудратли қўл билан қўйлик ҳайкал.
 “Дам” сўзи ҳам бирдан ортиқ мисраларда такрор қўлланади:
 Коинот шу дамда ўз куррасидан...
 Кўз очиб юмгунча ўтган дам-қиммат...
 Бебаҳо дамларнинг тирик жони биз...
 Дамлар ғаниматдир, умрзоқ соқий.
 Шеърда фурсат, аср, соат, он сўзлари уч мартадан қўлланган.
 Ғунча очилгунча ўтган фурсатни...
 Фурсатдир қилгувчи азиз, мукаррам...
 Фурсат ғаниматдир, шоҳ сатрлар-ла...

“Вақт” шеърида номинал маънода вақт тушунчасини ифодаловчи ўн олти сўз бўлиб, ўттиз икки сўз қўллаш кузатилади. Шунингдек, нутқий кўчимлар билан ҳам вақт ифодаланади. “Ялт этмоқ”, “Бир нафас”, “ҳар нафас”, “Кўз очиб юммоқ” бутунликларига вақт тушунчасининг ўта қисқа маънолари юкланган ва улар муддат, дам, умр сўзлари билан боғланиб, бу сўзлардан англашиладиган вақт тушунчасини конкретлаштириш билан бирга, вақт давомийлиги тушунчаларига зидликда қўлланган.

Баъзида бир нафас олгулик муддат
 Минг юлдуз сўниш учун етгулик.

Ялт этган умри-ла барқарор қилди,
 Башарнинг муқаддам, олий ҳуқуқин.

Шоир ўзининг “Кузатиш” шеърида “Бешинчи йилларнинг тўлқинлари”, “Ленада ишчилар отилган куни”, “Наполен Москвада этик йўқотиб... Парижга қочган чоғида” каби кўчим ва образли ифодаларни қўллар экан,

- Жўра, шу чистонни дўстларингга айт:

“Бобоси туғилган кун набираси

Алифбе ўқишга кирибди”, - фақат

Айтмагил, юз йилдир бунинг ораси, -

дея таъкидлайди. Чистон ўзбек поэзисида шеърий топишмоқ. Нарсалар номлари айтилмайди, бироқ умумий алоқадорлик ёки ўхшашлик омили бўйича белгилари тавсифланади. Мана шу тавсифий белги орқали предмет топилади. Ғафур Ғулом эслатган чистонда эса вақт яширилган, шу вақтда бўлиб ўтган воқеа-ҳодисаларнинг умумий белгилари тавсифланган.

Чистон деб кўрсатилган бу сатрларда вақт билан боғлиқ яна бир муқояса бор: “бобоси туғилган кун” ва набиранинг “алифбе ўқишга кирган” кунлар. Буларнинг ораси юз йил фарқ билан туғилмоқ ва ўқишга бормоқ кунлари тенг келади.

ХУЛОСА

Юқоридагилардан маълум бўладики, Ғафур Ғулом шеъриятида вақт тушунчасининг ифодаланиш ўзига хос рангба-ранг услубийликка эга. Машҳур шахслар ёшларига муқояса (мен ҳам... Пушкин ёшида) шаклида, тарихий воқеалар рўй берган саналар (Ленада ишчилар отилган куни) воситасида, ижтимоий-физиологик омиллар билан белгиланган (алифбе ўқишга бориш, ҳарбий ёш) вақтлар, мифологик ривоятлар асосида белиланган (... мучаллар ўтди) вақт, астрономик тушунчаларни ифодаловчи (сунбула) сўзлар, ижтимоий тузум ва мафкуралар томонидан урфга киритилган (биринчи гудок) вақт ўлчовлари ҳамда вақт оқимининг фазовий жисмлар ҳаракати билан боғлиқ ҳолда ўлчаниб (сабуҳи субҳ) номланган сўзлар орқали вақт тушунчаси ифодаланиши билан турли қайтариқлардан ҳоли бўлишга, шеър мазмунига қўшимча маълумотлар киритилиши ва мазмуннинг янада бойитилишига, мукаммал образлилик яратилишига эришилган.

АДАБИЁТЛАР (REFERENCES)

1. Философский энциклопедический словарь. –М.: “Советская энциклопедия”, 1983.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I том. –М.: “Рус тили”, 1981.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II-том. –М.: “Рус тили”, 1981.
4. Ғафур Ғулом. Асарлар. Ўн томлик. 5-том. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973.
5. Ғафур Ғулом. Танланган асарлар. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-манбаа ижодий уйи, 2018.
6. Шарафиддинов Хурсанд. Мавзу белгилашда давр ижтимоий мазмунининг ўрни. THEORITICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES 9 (9), 105-107. 2023.

7. Шарафиддинов Хурсанд. Уруш даври она ва бола фожиасининг бадийи тасвири. Analytical Journal of Education and Development 3 (3), 10-109, 2023.
8. Sharafutdinova N. Undalma teonimlar tavsif sifatida. Analytical Journal of Education and Development 3 (3), 111-116, 2023.
9. Nilufar Sharafutdinova. THE WORDS GOD AND BLUE (KO,,K) ARE THEONYMS, Vol-7-Issue Q2- 2022.
10. Sharafutdinova N. Mythology - ancient man's fiction. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal Volume: 7 | Issue: 5 May 2021.
11. Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel “Night and day” by Chulpan. Scientific journal of the Fergana State University, 1(6), 119-120.
12. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of Characters in Utkir Hoshimov’s Story “Yanga”. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 8(6), 196-200.
13. Sabirdinov, A. (2020, December). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. In Конференции.
14. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of the banned period in the stories of Naim Karimov. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(11), 4-91.
15. Сабирдинов, А. Г. (1993). Слово и образ в поэзии Айбека.
16. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. Scientific Journal of Polonia University, 32(1), 116-120.
17. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. –P.33-39.
18. Murodilovna, O. G. (2020). Melody and musicality in Lirycs. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 656-664.
19. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 03. – С. 245-249.
20. Oripova, G. (2020, December). RHYTHM AND MYTHING IN LYRICAL GENRE. In Конференции.
21. Oripova, G. (2019) "Traditions of folk ballads and distinctiveness of uzbek poetry of independence period," Scientific journal of the Fergana State University: Vol. 2 , Article 12.

22. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(12), 90-94.
23. Oripova, Gulnoza, & Ibrohimova, Gulchiroy (2022). SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA MUMTOZ MUSHTARAKLIKLAR. *International scientific journal of Biruni*, 1 (2), 251-255.
24. Oripova, Gulnoza Murodilovna, Akhmadjonova, Okila Abdumalikovna, Kholmatov, Oybek Umarjon Ugli, & Muminova, Tabassum Siddigovna (2022). INTERPRETATION OF MOTHER IMAGE IN LITERATURE. *International scientific journal of Biruni*, 1 (2), 304-309.
25. Oripova, Gulnoza, & Alijanova, Maftuna Azimjon Qizi (2022). ASQAD MUXTORNING “CHINOR” ROMANIDA AYOL PORTRETINING BADIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. *International scientific journal of Biruni*, 1 (2), 221-226.
26. Oripova, Gulnoza Murodilovna, & Abdurasulova, Nafisa Abdumannob Qizi (2022). O’ZBEK NASRIDA URUSH MAVZUSI VA “YO’QOTILGAN AVLOD” MUAMMOSI. *International scientific journal of Biruni*, 1 (2), 213-220.

ODAM ANATOMIYASI VA FIZIOLOGIYASI FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Xamidova Dilbar G'iyosovna

Navoiy davlat pedagogika instituti, Biologiya kafedrası o'qituvchisi.

E-mail: dilbarxamidova2503@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada masofaviy ta'lim jarayonida pedagogika oliygohlarida odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitishda talabalarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, hamda ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini takomillashtirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning o'rni va ahamiyati haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: interaktiv, kichik guruhlarda ishlash, atamalar zan jiri, atamalar varag'i, Keys, insert, masofaviy ta'lim, venn diagrammasi, aqliy hujum, tezkor o'yinlar va o'yin mashqlari, pedagogik texnologiya, biologiya kursi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье изложены сведения о роли и значении использования педагогических технологий при преподавании анатомии и физиологии человека в педагогических вузах в процессе дистанционного образования, что повышает учебную и творческую активность студентов, повышает эффективность учебно-воспитательной деятельности процесс.

Ключевые слова: интерактив, работа в малых группах, словарный запас, терминологический лист, кейс, вкладыш, дистанционное обучение, диаграмма Венна, мозговой штурм, быстрые игры и игровые упражнения, педагогическая технология, курс биологии.

ABSTRACT

This article provides information about the role and significance of the use of pedagogical technologies in teaching human anatomy and physiology in pedagogical universities in the process of distance education, which increases the educational and creative activity of students, increases the efficiency of the educational process.

Key words: interactive, work in small groups, vocabulary, terminology sheet, case, insert, distance learning, Venn diagram, brainstorming, quick games and game exercises, educational technology, biology course.

KIRISH

Pedagogika oliygohlarida masofaviy ta'lim jarayonida odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'rganishda talabalarning bilim samaradorligini oshirish va ijodiy,

kreativ fikrlashi interaktiv texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitishda interfaol texnologiyalardan «Keys», «Insert», «Waster», «Venn diagrammasi», «Aqliy hujum», «Kichik guruhlarda ishlash», «Atamalar zanjiri», «Atamalar varag'i», tezkor o'yinlar va o'yin mashqlarning turli shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini mazmunidagi muammoli masalalarni o'qitishda «Keys» dan foydalanish yuqori samara beradi. «Keys» — case studies ingliz tilidan olingan bo'lib, jarayon yoki vaziyat degan ma'noni beradi. Dastlab bu texnologiyadan biznesmen va tadbirkorlarni o'qitishda foydalanilgan bo'lib, hozirgi paytda o'qitiladigan fanning mazmunidan kelib chiqqan holda, tirik organizmlarda boradigan jarayonlarning tashqi va ichki, obyektiv va subyektiv omillari yuzasidan muammoli vaziyatlar yaratilib ularni hal etish uchun o'quv munozaralari tashkil etiladi. Odam anatomiyasi va fiziologiyasini o'qitishda dastur mazmunidagi “tayanch harakatlanish sistemasi”, “nerv sistemasi”, “ovqat hazm qilish sistemasi”, “nafas olish sistemasi”, “ayirish sistemasi”, “ichki sekretiya bezlari” kabi mavzularni o'qitishda foydalanish mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ta'lim-tarbiya jarayonida keysdan foydalanish uchun o'qituvchi:

- dastur mazmunidagi muammoli mavzularni aniqlashi, shu mavzularni o'qitish uchun muammoli savol-topshiriqlar tuzishi;
- dars davomida muammoli savol - topshiriqlarning qiyinchilik darajasiga ko'ra yakka tartibda yoki talabalarning kichik guruhlarida mustaqil ishlarni tashkil etilishini aniqlashi;
- talabalarning bilish faoliyatini mazkur muammolarni hal etish, o'quv munozaralari orqali bahsda qatnashtirish yo'llarini rejalashtirishi;
- muammoli savol-topshiriqlar asosida tashkil etilgan o'quv munozaralarida yakuniy fikrni vujudga keltirishi lozim.

Dastur mazmunidagi faqat faktik materiallarni o'rganish nazarda tutilgan mavzularda Insertdan foydalanish tavsiya etiladi.

Waster cluster ingliz tilida shajara degan ma'noni anglatadi. Ushbu lokal texnologiya talabalar tomonidan o'zlashtirilgan va o'zlashtiradigan g'oya, nazariya, qonuniyat hamda tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishini anglash, bir-biriga uzviyligini tushunishga imkon yaratib tahliliy-tanqidiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga zamin tayyorlaydi.

Klasterni tuzish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- Odam anatomiyasi va fiziologiyasi kursi mazmunidagi muayyan g'oya doska yoki qog'oz o'rtasiga yoziladi;

• ushbu g'oya bilan bog'liq qonuniyatlar, tushunchalar bir-biriga bog'liq holati ko'rsatkich bilan belgilanadi, so'ngra mazkur qonuniyat va tushunchalarning faktik ma'lumotlari grafik tarzda yoziladi va tarmoq hosil qilinadi;

• avval o'rganilgan mavzu va o'rganiladigan mavzu o'rtasidagi bog'lanishlar haqida xulosa chiqariladi. Klasterdan foydalaniladigan darslarda talabalar teng sonli kichik guruhlarga ajratilib, ularga o'quv topshirig'ining didaktik maqsadi va bajarilish tartibi tushuntirilgandan so'ng, ular belgilangan vaqt ichida fikrlarini jamlab, o'zlari tuzgan Klasterni himoya qilib, fikrlarini dalillashga imkon yaratilib, eng yaxshi va asosli tuzilgan Waster aniqlanadi, g'oliblar rag'batlantiriladi. Klasterni bitta mavzu yoki bob bo'yicha yaxlit holda tuzish talabalarning tizimli fikr yuritishiga zamin yaratadi. Klasterning asosidan asosiy g'oya yoki tushuncha o'rin oladi, masalan, ovqat hazm qilish sistemasi bo'yicha quyidagicha tuziladi: tarmoq shaklida, ovqat hazm qilish sistemasining har bir organi masalan, lab , og'iz , tish, halqum, qizilo'ngach, oshqozon, oshqozon osti bezi , jigar, ichaklar tartib bilan ketma-ket kiritilib, keyingi qatorda ularning funksiyalari yoziladi va shu tariqa tushunchalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik jadval tarzida tasvirlanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida lokal darajada qo'llaniladigan texnologiyalardan biri — Venn diagrammasi bo'lib, uni ishlab chiqqan ingliz olimi Jon Venn nomi bilan yuritiladi. Venn diagrammasi o'rganilayotgan mavzudan o'rin olgan fakt, shun cha va jarayonlarni tahlil qilish, sintezlash va taqqoslashni talab etadi. Ushbu diagrammadan endokrin sistema va uning kasalliklari, ovqat hazm qilish sistemasi kasalliklarini tahlil qilish, sintezlash va taqqoslashda foydalanish mumkin.

Ta'lim-tarbiya jarayonida talabalar tomonidan tushuncha va atamalarni mustahkam o'zlashtirishga zamin tayyorlash muhim o'rin tutadi, shu sababli o'qituvchi har bir bob va mavzular mazmunidagi tushuncha va atamalarni «Atamalar zanjiri»ga keltirishi kerak.

«Atamalar zanjiri» bu atamalar va ularning ta'riflari bo'lib, ulardan o'qituvchi o'tgan mavzuni yakunlash, yangi o'rganilgan mavzu yuzasidan talabalarning bilimlarini mustahkamlash maqsadida darsning bir qismida foyda langanligi sababli, ularni lokal texnologiyalar guruhiga kiritish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitishda masofaviy ta'limda interaktiv metod va texnologiyalardan foydalanish talabalarning mustaqil ishlashiga , ijodiy fikrlashiga va ta'lim samaradorligini orttirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. J.O.Tolipova “Biologiyani o`qitishda innovatsion texnolo giyalar” Pedagogika oliy o`quv yurti talabalari uchun darslik. Toshkent - “Cho`lpon” – 2011 y.
2. М.Н.Ибодова Биологияни ўқитишнинг интерфаол ва муаммоли изланиш методлари . Педагог журнали 11.07.2022 й
3. М.Н.Ибодова Биология дарсларини ташкил этиш технологияси. Услужий қўлланма. (Академик лицей 3920001 табиий фанлар тайёрлов йўналиши ўқувчилари учун мўлжалланган). 11.08.2022 й
4. М. N. Ibodova . Effectiveness of independent work in tne educational process. *Academicia An International Multidisciplinary Research Journal*. 10.10.2021г.
5. М. N. Ibodova Akademik litseylarda biologiya fanini o`qitishninh interfaol va muammoli izlanish metodlaridan foydalanish texnologiyasi *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(4/2), April, 2023
6. М. N. Ibodova Conceptual framework for tne use of integrative technologies for teaching biological sciences in academic lyceums. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol. 11 No. 4, 2023 ISSN 2056-5852
7. М. N. Ibodova . Effectiveness of independent work in tne educational process. *Academicia An International Multidisciplinary Research Journal*. 10.10.2021г.
8. М. N. Ibodova .Conceptual framework for the use of integrative technologies for teaching biological sciences in academic lyceum . *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 11 (4), (2023). <https://www.idpublications.org/ejrres-vol-11-no-4-2023/>
9. Боймуродов, Х., Эгамкулов, А., Суяров, С., Жумабаев, Б., Хасанов, Н., Жалилов, Ф., ... & Туйназарова, И. (2020). ВСТРЕЧАЕМОСТЬ ИНДИКАТОРНЫХ МОЛЛЮСКОВ ВОДОЕМОВ И ВОДОТОКОВ УЗБЕКИСТАНА. *ББК 1 E91*, 28.
10. Nematovna, A. M., & Ваходировна, M. F. (2023). THE EFFECTIVENESS OF DEVELOPING STUDENTS'CREATIVE THINKING IN TEACHING BIOLOGICAL SCIENCES. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(09), 170-174.
11. Sayfullayev, A. (2021). UZLUKSIZ TALIM VOSITASIDA EKOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISH TEXNOLOGIYASI. *Uzluksiz talim*.
12. Malikova, A. R. (2023). UMUMTALIM MAKTABLARIDA BOTANIKANI O`QITISHDA DIDAKTIK O`YINLI DARSLARDAN FOYDALANISH YO

‘LLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4-2), 83-89.

13. Nematovna, Atakulova Manzura, and Murtozayeva Fazlatxon Baxodirovna. "THE EFFECTIVENESS OF DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE THINKING IN TEACHING BIOLOGICAL SCIENCES." *International Journal of Advance Scientific Research* 3.09 (2023): 170-174.

14. Muhabbat, R., & Mohinur, Q. (2020). Biologiya fanini oqitishda laboratoriya ishlarining ahamiyati. *Science and Education*, 1(3), 550-553.

15. Shamsidinova, G. D., Sayfullaev, A. F., Achilova, N. R., & Baratov, U. D. (2021). Prospects for the development of " Education for sustainable ecological development" on the basis of the declaration of Uzbekistan. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(3), 144-149.

16. Tukhtaev, F., Karimova, D., Malikova, A., & Kamalova, D. (2020). Research of kinetic sorption of Cu²⁺ ions in CuSO₄ solution by composite polymeric sorbents under various conditions. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(S6), 505-511.

SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BIOLOGIYANI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Sharipova Dildora Rajabovna

Navoiy davlat pedagogika instituti, Biologiya kafedrasida o'qituvchisi
dildorasharipova@icloud.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada biologiyani o'qitishda sinergetik yondashuv asosida o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, hamda ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini takomillashtirishda axborot texnologiyalardan foydalanishning o'rni va ahamiyati haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: sinergetik yondashuv, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, kichik guruhlarda ishlash, virtual ekskursiya, didaktik o'yinlar, pedagogik texnologiya, modulli ta'lim texnologiyasi, biologiya kursi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе синергетического подхода к преподаванию биологии представлена информация о роли и значении использования информационных технологий, повышающих учебную и творческую активность учащихся, повышающих эффективность учебно-воспитательного процесса.

Ключевые слова: синергетический подход, кооперативная технология обучения, работа в малых группах, виртуальная экскурсия, дидактические игры, педагогическая технология, модульная образовательная технология, курс биологии.

ANNOTATION

This article, based on a synergetic approach to teaching biology, provides information about the role and significance of the use of information technologies that increase the educational and creative activity of students, increasing the efficiency of the educational process.

Keywords: synergetic approach, cooperative learning technology, work in small groups, virtual excursion, didactic games, educational technology, modular educational technology, biology course.

KIRISH

Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan o'qitish jarayonining samaradorligini orttirish yuzasidan qabul qilingan m'e'yoriy hujjatlarda pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim vazifa sifatida belgilangan. Darhaqiqat, axborotlar globallashtirilgan davrda ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitish samaradorligini orttirish dolzarb

muammo sanaladi. Tabiiy fanlar, shu jumladan, biologiyani o'qitishda axborot texnologiyalardan foydalanish uchun biologiya ta'limi mazmunining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish zarur. Biologiyani o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning o'quv motivlarini rivojlantirish, tabaqalashtirilgan ta'limni tashkil etish, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash, tahsil oluvchilarning mustaqil va ijodiy izlanishlarini tashkil etish mumkin. Biologiyani o'qitishda foydalaniladigan axborot texnologiyalari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Ta'limiy vazifasi — o'quvchilarga o'rganiladigan mavzu bo'yicha asosiy va qo'shimcha materiallar, asosiy tushuncha va ularning izohlari, turli jadvallar, diagramma, murakkab ilmiy va ishlab chiqarish xarakteridagi tajribalar to'g'risida keng qamrovli bilim berish imkoniyati vujudga keladi.

2. O'quvchilarning o'quv faoliyatini yo'naltirish vazifasi - o'quvchilar axborot texnologiyalari mahsullari bo'lgan ta'lim beruvchi, modellashtirilgan va nazorat dasturlari, shuningdek, animasiyalar vositasida ishlash barobarida, mazkur dasturlar o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishni ham o'zida mujassamlashtiradi, ya'ni o'quvchilarni chuqur va mustahkam bilim olishga yo'naltiradi.

3. Ko'rgazmalilik vazifasi — boshqa o'qitish vositalaridan farq qilib, axborot texnologiyalan mahsullari bo'lgan animasiyalar o'quvchilar tomonidan biologiyaviy jarayonlarni harakat va dinamik tasvirlash imkoniyati mavjudligi sababli, o'qitish jarayonida o'rni beqiyos.

4. Nazorat vazifasi — biologiya ta'limining barcha shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari darslarda, shuningdek, biologiya darsining barcha bosqichlarida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash, nazoratning haqqoniyligi, muntazamliligi, keng qamrovliligi, takrorlanuvchanligini amalga oshiradi.

4. Rivojlantiruvchi vazifasi — o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish dasturlaridagi o'quv topshiriqlarning qiyinlik darajasiga ko'ra: reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli va ijodiy xarakterda bo'lishi o'quvchilarning topshiriqlarini bilishi, ehtiyoji va qiziqishiga mos holda keyingi bosqich topshiriqlarini bajarishga bo'lgan intilishini orttiradi, fan asoslarini mustahkam o'zlashtirishiga zamin yaratib shaxs sifatida rivojlanish imkoniyatini vujudga keltiradi.

5. Tarbiyaviy vazifasi — o'quvchilar axborot dasturlari bilan ishlashi natijasida o'quv va aqliy mehnat ko'nikmalarini rivojlantiriladi.

6. Ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish vazifasi — tabiat va undagi obyektlarni o'rganish 2 olam: makro va mikroolamga ajratilib, biologiya fani o'zining mazmuniga ko'ra, aksar hollarda mikroolam: hujayra, to'qimalarda boradigan jarayon, kimyoviy elementlarning molekula, atomning tuzilishi, masalan, modda va energiya almashinuvi, fotosintez, oqsillar biosintezi, biotexnologiya va gen injeneriyasi ga doir o'quv materiallarni animasiyalar orqali o'rganib, abstrakt tafakkuri va ilmiy dunyoqarash rivojlanadi va pirovard natijada

Biologiyani o'qitishda axborot texnologiyalarining yuqorida qayd etilgan vazifalarini e'tiborga olgan holda ta'lim - tarbiya jarayonida foydalanish yo'llarini belgilash va amaliyotga joriyetish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sanaladi. Biologiya o'quv fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish quyidagi didaktik maqsadlarni amalga oshirishga zamin tayyorlaydi:

1. Axborot texnologiyalari biologiyani o'qitishda ko'zda tutiladigan ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirish imkonini beradigan o'quv materialini yig'ish, saralash, unga didaktik ishlov berish, tarqatish va ta'lim jarayonida foydalanishga zamin yaratadi.

2. Har bir o'quvchida mavjud iqtidor, ehtiyoj, qiziqish va o'quv motivlariga mos holda tahsil olish trayektoriyasi, tem pini belgilash, zarur hollarda axborot dasturlaridan takroran foydalanish imkonini beradi.

3. Biologiya darslarining strukturasi tubdan o'zgartiradi, darsning borishi, xarakteri, o'quvchilarning bilish faoliyatini obyekt-subyekt munosabatidan, subyekt-subyekt munosabatiga, ya'ni o'quvchilar o'quv maqsadlariga erishish uchun pedagogik jarayonning faol ishtirokchisiga aylantiradi.

4. O'quvchilarda mustaqil, ijodiy, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga zamin tayyorlaydi.

5. O'quv yurtida amalga oshirish imkoni bo'lmagan hollar (kerakli jihozlar bo'lmagan, o'tkaziladigan tajribalar o'quvchilar sog'ligi uchun zararli, uzoq davom etadigan, ishlab chiqarish korxonalarining texnologiyalarini o'rganish)da tajribalarni virtual namoyish qilish imkonini beradi.

6. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini faollashtirish va o'quv motivlarini orttirishga zamin tayyorlaydi.

7. Ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini aniqlash maqsadida teskari aloqa, ya'ni qisqa muddat ichida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash va baholash imkoniyati vujudga keladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi larning oldidagi muhim vazifalardan biri o'quvchilarning fan asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini

rivojlantirish asnosida ularning barkamolligini ta'minlash sanaladi. Ushbu muammolarni hal etishda axborot texnologiyalarining mahsullari muhim ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Axborot texnologiyalari mahsullaridan foydalanilgan darslar axborotlarga boy, ko'rgazmali, interfaol bo'lib, vaqtdan unumli foydalanish, har bir o'quvchining o'z tempi bo'yicha bilim olish, o'qituvchi esa, o'quvchilar bilan tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan ta'limni amalga oshirish imkoniyati vujudga keladi, shu bilan bir qatorda o'qitishda natijalarini nazorat qilish va baholash uchun zamin yaratadi. Biologiya fani mazmunidagi hujayra, to'qima, kimyoviy elementlarning molekula, atomning tuzilishi, modda va energiya almashinuvi, fotosintez, oqsillar biosintezi, biotexnologiya va gen injeneriyasiga doir jarayonlarni o'quvchilar bevosita kuzatish imkoniyati boimaydi, mazkur jarayonlarni vizual holatga aylantirish ko'zlangan natijani beradi. Jumladan:

- o'quvchilarning hujayra, to'qima, kimyoviy elementlarning molekula, atomning tuzilishi, modda va energiya almashinuvi, fotosintez, oqsillar biosintezi jarayoni haqida tasavvur hosil qilish, abstraksiyalash va xotirada saqlash imkonini beradi;

- o'quvchilarning motivlari va o'zlashtirish darajasi e'tiborga olgan holda zarur hollarda takroran o'rganish va o'quvchilarning bilimidagi bo'shliqlarni to'ldirish irrikonini beradi;

- biologik jarayonlarni animasiyalar tarzida virtuellashtirish o'quvchilar ko'rgazmali-obrazli fikr yuritish va o'quv materialini to'liq o'z lashtirishga zamin tayyorlaydi;

- biologiya darsida animasiyalardan foydalanish darsning barcha bosqichlarida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga olib keladi.

Biologiyani o'qitishda axborot texnologiyalarning quyidagi mahsullaridan foydalanish mumkin:

1. Har bir mavzu mazmuniga asosan ko'rgazmalilikni amalga oshirish, ya'ni taqdimot materiallari.

2. Biologik jarayonlarning animasiyasi.

3. Virtual laboratoriya va amaliy ishlar.

4. Ishlab chiqarish korxonalariga virtual ekskursiya.

5. Biologik jarayonlarning modellashtirilgan dasturi.

6. Biologik jarayonlarning ta'lim iy dasturlari.

7. O'quvchilarning mavzular bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash uchun nazorat dasturlari.

8. O'quvchilarning mustaqil tahsili va ishi uchun o'quv-axborot saytlari.

9. Didaktik o'yinga asoslangan animasiyalar.

10. Qiyinchilik darajasi turlicha bo'lgan ijodiy topshiriqlar dasturi. Biologiyani o'qitishda axborot texnologiya laridan foydalanish imkoniyatlari juda katta. Barcha tabiiy fanlar kabi biologiyani o'qitishda tabiiy vositalar muhim o'rin tutadi, lekin tasviriy vositlarni kompyuter xotirasiga joylab, ulardan mavzuni o'rganish jarayonida foydalanish mumkin.

Axborot texnologiyalaridan quyidagi maqsadlarda foydalanish tavsiya etiladi:

I. Ko'rgazma vositalari multimedialarni namoyish etish — ko'rgazmalilik.

II. Modul dasturlari orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish boshqarish.

III. Qo'shimcha materiallar to'plash va ular ustida mustaqil ishlash — rivojlantirish.

IV. Nazorat dasturlari, test topshiriqlari orqali o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholash — nazorat.

V. Didaktik o'yinlar, boshqotirmalarni echish — bilim ini orttirishga bo'lgan ehtiyojini qondirish va qiziqishini rivojlantirish vazifalari. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, biologiyani o'qitishda nafaqat pedagogik, balki axborot texnologiyalaridan uyg'un ravishda foydalanish yuqori samara beradi, o'quvchilarning fan asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlari va ehtiyojlarini rivojlantirish imkonini beradi. O'qituvchi o'rganiladigan mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda axborot texnologiyalarining mahsullari bo'lgan elektron darslik, versiya va multimedialarni o'rganishi va ularni tahlil etish natijasida mavzuning didaktik maqsadlarini amalga oshirish imkoniyatlari, ta'limiy, modellashti rilgan va nazorat dasturlar, multimedialardan foydalanish yo'llarini belgilashi zarur. Buning uchun mazkur axborot texnologiyalari mahsullaridan biologiya darslarida foydalanish yo'llarini aniqlash, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish yo'llarini ishlab chiqishi lozim.

O'qituvchlarning bu boradagi amalga oshiradigan ishlari quyidagi algoritmlardan iborat bo'ladi:

Birinchi bosqich.

- Axborot texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash.
- Tavsiya etilgan axborot texnologiyalarining mahsuli bo'lgan elektron darsliklar va multimedialarni ko'rib chiqish.

- Ularda o'quv mavzularning didaktik maqsadlarni amalga oshirish imkoniyatlari va afzalliklarini aniqlash.

Ikkinchi bosqich.

- Ta'limiy dasturlarni tahlil qilish va ulardan biologiya darslarida foydalanish yo'llarini belgilash.
- Nazorat dasturlarini tahlil qilish va o'quvchilarning mustaqil tahsilini tashkil etishda foydalanish yo'llarini belgilash.
- Modellashtirilgan dasturlarini tahlil qilish va ulardan biologiya darslarida foydalanish yo'llarini belgilash.
- Multimediyalarni tahlil qilish, ulardan biologiya darslari va o'quvchilarning mustaqil tahsilini tashkil etishda foydalanish yo'llarini belgilash.
- Tanlangan multimediyadan biologiya darslarida foydalanish yo'llarini aniqlash.
- O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish yo'llarini belgilash. dars davomida o'quvchilarning bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar va nazorat testlarini tuzishi zarur.

Biologiya o'qituvchisi ushbu ishlarni bosqichm a-bosqich bajarganidan so'ng, pedagogik va axborot texnologiyalarni uyg'unlashtirish muammolarini hal etishi lozim. Uzlüksiz ta'lim tizim ida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalar axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish dolzarb muammo sanaladi. Shu sababli axborot texnologiyalaridan foydalanish uchun uning didaktik funksiyalarini aniqlash zarurati vujudga keldi.

Ma'lumki, axborot texnologiyalari ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilganda ko'zlangan samarani beradi. Mazkur jarayonda zam onaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini uyg'unlashtirish da axborot texnologiyalarining axborot, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, ko'rgazmalilik, o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholash, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va qiziqishini orttirish kabi funksiyalari asos qilib olindi. Biologiyani o'qitishda xususiy metodik darajada foydalaniladigan didaktik o'yin, modulli, muammoli ta'lim , hamkorlikda o'qitish texnologiyalarining imkoniyatlari va ahamiyatini anglagan holda, axborot texnologiyalarining axborot, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, ko'rgazmalilik, o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholash, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va qiziqishini orttirish kabi funksiyalarini darslarda uyg'unlashtirish im koniyatlarini beradi.

Sinergetik yondashuv asosidagi didaktik o'yin texnologiyasiga asoslangan konferensiya darslarida o'quvchilarning bilish faoliyati o'yin syujeti va qoidasiga binoan tashkil etilishi va boshqarilishi sababli mazkur funksiyani amalga oshirish imkoni yo'q, lekin axborot texnologiyalarining axborot, ko'rgazmalilik, o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish baholash, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va qiziqishini orttirish kabi funksiyalarni amalga oshirish mumkin.

Didaktik o'yin texnologiyasiga mansub taqdimot dars larida o'quvchilar muayyan bob yoki fanning dolzarb muammolari yuzasidan fikr yuritganligi sababli axborot texnologiyalarining axborot manbai, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish kabi funksiyalarini amalga oshirish mumkin bo'lmaydi.

Didaktik o'yin texnologiyasiga mansub ijodiy o'yin darslarida o'quvchilar ijodiy muammolarni hal etganligi sababli, axborot texnologiyalarining barcha funksiyalarini amalga oshirish mumkin. Didaktik o'yin texnologiyasiga mansub o'yin mashqqa asoslangan darslarda o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari nazorat qilish va baholash nazarda tutilganligi sababli, axborot texnologiyalarining axborot manbai funksiyasini amalga oshirish imkoniyati bo'lmaydi.

Sinergetik yondashuv asosidagi modulli ta'lim texnologiyasining barcha dasturlaridan foydalanilgan darslarda axborot manbai, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, ko'rgazmalilik, o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholash, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va qiziqishini orttirish kabi funksiyalarini to'liq amalga oshirish imkoniyati mavjud. Mazkur darslarda biologiya o'qituvchisi mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan modul dasturi va modullarni kompyuter xotirasiga joylashi, dars davomida modul dasturining savollari va unga mos holda modullarning mazmuni ketma-ket namoyish etilishini dasturlashi lozim.

Sinergetik yondashuv asosidagi hamkorlikda o'qitish texnologiyasining kichik guruhlarda o'qitish metodidan foydalanilgan darslarda biologiya o'qituvchisi o'quvchilar tom onidan o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan mavzularni tushuntirishi, faktik va qo'shimcha o'quv materiallari o'quvchilar tom onidan mustaqil o'zlashtirishini nazarda tutgan holda, mavzuning muayyan qismi uchun axborot manbai, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, ko'rgazmalilik, o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholash, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va qiziqishini orttirish kabi funksiyalarini amalga oshirishi mumkin.

Sinergetik yondashuv asosidagi hamkorlikda o'qitish texnologiyasining komandada o'qitish metodi foydalanilgan darslarda o'quvchilar komandaga ajratilgan holda ta'lim - tarbiya jarayonini tashkil etilishi nazarda tutilganligi sababli, axborot texnologiyalarining axborot manbai, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, ko'rgazmalilik, o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholash, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va qiziqishini orttirish kabi funksiyalarini amalga oshirishni rejalashtirishi lozim. Buning uchun biologiya o'qituvchisi dars davomida o'quvchilar tom onidan bajariladigan o'quv topshiriqlari

va mavzu mazmunini kompyuter xotirasiga joylashi, dars davomida o'quv topshiriqlari va unga mos holda mazmunning ketma-ket namoyish etilishini dasturlashi lozim.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining «arra» yoki «zig - zag» metodi foydalanilgan darslarda o'quvchilar ikki marta guruhlariga ajratilishi, ya'ni avval mavzuning muayyan qismi uchun «mutaxassislar» tayyorlanishi, so'ngra «mutaxassislar uchrashuvi» guruhi tashkil etilganligi bois, axborot texnologiyalarining o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish funksiyasi amalga oshirish imkoni yo'q, lekin axborot manbai, ko'rgazm alilik, o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholash, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va qiziqishini orttirish kabi funksiyalarni amalga oshirish mumkin.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining kichik guruhlarda ijodiy izlanishlarni tashkil etish metodiga asoslangan darslarda axborot texnologiyalarining axborot manbai, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, ko'rgazmalilik, o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholash, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va qiziqishini orttirish kabi funksiyalari bilan bir qatorda o'quvchilarning ijodiy izlanishi uchun zarur bo'lgan aqliy faoliyat operatsiyalarini egallash imkoniyati vujudga keladi.

Sinergetik yondashuv asosidagi hamkorlikda o'qitish texnologiyasining «Birgalikda o'qiymiz» metodidan foydalanilgan darslarda mavzu mazmuni qismlarga bo'linishi, o'quvchilar guruhlariga ajratilishi, guruhning har bir a'zosi mavzuning muayyan qismini o'rganishi va dars davomida guruh a'zolari hamjihatlikda mavzu mazmunini yaxlit holda ishlab chiqilishi nazarda tutilganligi sababli, axborot texnologiyalarining o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish funksiyasi amalga oshirish imkoni yo'q, lekin axborot manbai, ko'rgazmalilik, o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholash, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va qiziqishini orttirish kabi funksiyalarini amalga oshirish mumkin.

Darslarni tashkil etishda o'qituvchi didaktikada ishlab chiqilgan ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari va vositalarining uzviyligi prinsipiga amal qilishi, fanlar bo'yicha tuziladigan o'quv-metodik majmuada va mavzuli rejada pedagogik texnologiyalarning qaysi turidan foydalanishini o'quv yili boshidan belgilashi maqsadga muvofiq.

XULOSA.

Biologiya fanini o'qitishda sinergetik yonda- shuv asosida axborot texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil ishlashiga , ijodiy fikrlashiga va ta'lim samaradorligini orttirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. J.O.Tolipova “Biologiyani o’qitishda innovatsion texnologiyalar” Pedagogika oliy o’quv yurti talabalari uchun darslik. Toshkent - “Cho’lpon” – 2011 y.
2. М.Н.Ибодова Биологияни ўқитишнинг интерфаол ва муаммоли изланиш методлари . Педагог журнали 11. 07. 2022 й
3. М.Н.Ибодова Pedagogical Condi- tions of Developing Self-Studu Working Skills with Textbo- ok book for School children.Eastern European Scientific Journa.Ger many, 2018г. № 2.(13.00.00, №1).P. 295-297.
4. М. N. Ibodova . Effectiveness of independent work in tne educational process. *Academicia An International Multidisciplinary Research Journal*. 10.10.2021г.
5. М. N. Ibodova Akademik litseylarda biologiya fanini o’qitishninh interfaol va muammoli izlanish metodlaridan foydalanish texnologiyasi *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(4/2), April, 2023
6. М. N. Ibodova Conceptual framework for tne use of integrative technologies for teaching biological sciences in academic lyceums. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol. 11 No. 4, 2023 ISSN 2056-5852
7. М. N. Ibodova . Effectiveness of independent work in tne educational process. *Academicia An International Multidisciplinary Research Journal*. 10.10.2021г.
8. М. N. Ibodova .Conceptual framework for the use of integrative technologies for teaching biological sciences in academic lyceum . *Suropean Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 11 (4), (2023). <https://www.idpublications.org/ejrres-vol-11-no-4-2023/>
9. Nematovna, A. M., & Baxodirovna, M. F. (2023). THE EFFECTIVENESS OF DEVELOPING STUDENTS'CREATIVE THINKING IN TEACHING BIOLOGICAL SCIENCES. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(09), 170-174.
10. Sayfullayev, A. (2021). UZLUKSIZ TALIM VOSITASIDA EKOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISH TEXNOLOGIYASI. *Uzluksiz talim*.
11. Shamsidinova, G. D. (2023). BIOLOGICAL MARKETING TOSHKIL ETISH TAMOYILLARI VA BOSH KOIDASI. *Sharq uyg'onishi: innovatsion, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar* , 3 (4-2), 90-97.

12. Shamsidinova, G. D., Sayfullaev, A. F., Achilova, N. R., & Baratov, U. D. (2021). Prospects for the development of " Education for sustainable ecological development" on the basis of the declaration of Uzbekistan. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(3), 144-149.
13. Nematovna, Atakulova Manzura, and Murtozayeva Fazlatxon Baxodirovna. "THE EFFECTIVENESS OF DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE THINKING IN TEACHING BIOLOGICAL SCIENCES." *International Journal of Advance Scientific Research* 3.09 (2023): 170-174.
14. Mukhabbat, R., & Normurod, S. (2023). THE VALUE OF USING GAME EXERCISES WHEN TEACHING THE CHAPTER " ORGANS AND ORGAN SYSTEMS" IN THE 7TH GRADE OF BIOLOGY". *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(5), 2365-2369.
15. Malikova, A. R. "METHODS OF USING INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF TEACHING BIOLOGICAL SCIENCES IN HIGHER EDUCATION." *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities* 11.1 (2023): 798-800.

BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INTEGRATIV-BINAR MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI

Ibodova Mahfuza Namozovna

Navoiy davlat pedagogika instituti, Biologiya kafedrası dotsenti.

E-mail: ibodovamahfuza75@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada biologiya fanini o'qitishda integrativ - binar, didaktik o'yin texnologiyalaridan foydalanish haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *didaktik o'yin, ta'lim, ijodiy muhit, konferensiya, taqdimot, ta'lim - tarbiya, reproduktiv, produktiv, o'quv fani.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье изложены сведения об использовании интегративно-бинарных, дидактических игровых технологий в преподавании биологии.

Ключевые слова: *Ключевые слова: дидактическая игра, образование, творческая среда, конференция, презентация, образование – обучение, репродуктивное, продуктивное, педагогическая наука.*

ABSTRACT

This article provides information about the use of integrative-binary, didactic game technologies in teaching biology.

Key words: *didactic game, education, creative environment, conference, presentation, education-learning, reproductive, productive, pedagogical science.*

KIRISH

Uzluksiz ta'lim tizimida biologiyani o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun darsning o'quvchilarning o'tgan mavzu yuzasidan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, ularni tizimlashtirish, yangi mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholash, shuningdek, yangi mavzuni o'rganish jarayonida xususiy metodik va lokal texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Biologiyani o'qitishda xususiy metodik darajadagi pedagogik texnologiyalardan didaktik o'yin texnologiyalari, modulli ta'lim texnologiyalari, hamkorlikda o'qitish texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda o'quvchilarning bilim olish jarayonini o'yin faoliyati bilan uyg'unlashtiriladi. Shu sababli, o'quvchilarning bilim olish faoliyati, o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘yin faoliyati o‘zining quyidagi xususiyatlari bilan tavsiflanadi:

1.O‘yin ishtirokchilari rollarni, vazifalarni tanlashi natijasida erkin rivojlantiruvchi faoliyat, ya’ni o‘quvchilarning o‘z faoliyatini tahlil va nazorat qilishi, maqsadga muvofiq natijaga erishgan hollarda o‘z faoliyatidan ko‘ngli to‘lishi, o‘z bilimi va kuchiga ishonch vujudga keladi.

2.Ijodiy muhit tarkib topadi. O‘yin ishtirokchilari muammolarni hal etishda tegishli ijodiy va mustaqil faoliyatga ega bo‘ladilar.

3. O‘yin davomida musobaqa, raqobat, hamkorlik, o‘zaro yordam vujudga keladi. Shu asnoda his-hayajonli vaziyat paydo bo‘ladi. His-hayajonga yo‘g‘rilgan bilim, ko‘nikmalar inson xotirasida bir umr muhrlanib qoladi.

4.O‘yin davomida belgilangan qonun-qoidalarga amal qilinadi. O‘yin ishtirokchilarida ijtimoiy normalarga mos ongli intizom vujudga kelishiga zamin tayyorlaydi.

5.O‘yin mazmuni, borishi, mantiqiy ketma-ketligi, vaqt balansi va o‘quvchilar ning muammoli vaziyatlarni zudlik bilan hal etish, mo‘ljalni to‘g‘ri olishga o‘rgatadi.

Didaktik o‘yinli darslarni o‘quvchilarning bilim olish va o‘yin faoliyatining uyg‘unligiga ko‘ra:

- syujetli-rolli o‘yin;
- ijodiy o‘yinlar;
- ishbilarmonlar o‘yini;
- konferensiya;
- taqdimot;
- o‘yin-mashqlarga ajratiladi.

Boshqa o‘quv va mehnat faoliyati kabi o‘yin faoliyati tarkibiga quyidagilar: a) o‘yinning syujeti;

- b) o‘yin ishtirokchilari bajaradigan muayyan rollar, vazifalar;
- v) ushbu rollarni amalga oshirish uchun bajariladigan amallar (usullar);
- g) real yoki shartli ravishdagi o‘yin vositalaridan foydalanish;
- d) o‘yin ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabat, muloqot kiradi.

O‘quvchilarning bilish faoliyatini o‘yin faoliyati bilan uyg‘un holda tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

- Didaktik o‘yindan ko‘zda tutilgan maqsadni aniqlash,
- Didaktik o‘yin syujeti va ishtirokchilar faoliyatini loyihalash;
- O‘yindan ko‘zda tutilgan maqsadni amalga oshirish yo‘llarini belgilash;

• Didaktik o'yinni maqsadga muvofiq tashkil etish, uning mazmuni, borishi, mantiqiy ketma-ketligi, vaqt balansi va o'quvchilarning muammoli vaziyatlarni zudlik bilan hal etishiga e'tiborni qaratish;

- O'yin ishtirokchilarini rag'batlantirish;
- Olingan natijalarni tahlil qilish;
- Olingan natijalarga muvofiq holda o'yin strukturasi va borishiga
- tegishli o'zgartirishlar kiritish;

Didaktik o'yinli darslar orqali quyidagi funksiyalar amalga oshiriladi:

1. Ta'lim-tarbiya berish;
2. Shaxsni rivojlantirish;
3. O'quvchilarni ijodiy faoliyatga yo'naltirish;
4. Bilimlarni nazorat va tahlil qilish;
5. Kasblar bilan tanishtirish va kasbga yo'naltirish;
6. O'quvchilarning muloqot va nutq madaniyatini rivojlantirish;

Ta'lim-tarbiya jarayonida bu funksiyalar majmua holda amalga oshiriladi, lekin quyida o'rganiladigan didaktik o'yin turlarida qaysidir funksiya ustunlik qiladi. Masalan, konferensiya darslarida shaxsni rivojlantirish ustunlik qiladi, qolgan funksiyalar unga ilova bo'ladi, o'yin mashqlarda bilimlarni nazorat va tahlil qilish ustunlik qiladi, qolgan funksiyalar uni to'ldiradi va h.k.

O'qituvchi didaktik o'yinli darslarni o'tkazishga qizg'in tayyorgarlik ko'rishi va uni o'tkazishda quyidagi didaktik talablarga amal qilishi lozim:

- Didaktik o'yinli darslar dasturda qayd etilgan mavzularning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad va vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi;
- Amaliyotdagi va jamiyatdagi muhim muammolarga bag'ishlangib, ular o'yin davomida hal qilinishi;
- Barkamol shaxsni tarbiyalash tamoyillariga, sharqona odob-axloq normalariga mos kelishi;
- O'yin strukturasi mantiqiy ketma-ketlikda bo'lishi;
- Mazkur darslarda didaktik prinsiplarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflanishiga erishish kerak.

Didaktik o'yinli darslarning muvaffaqiyati, avvalo o'quvchilarning mazkur o'yinlarga puxta va qizg'in tayyorgarlik ko'rishlariga, o'qituvchining mazkur faoliyatni tashkil etish va mohirlik bilan boshqarishiga bog'liq.

O'quvchilarning didaktik o'yinga tayyorgarlik ko'rish faoliyati quyidagilarni o'z ichiga olishi:

- Didaktik o'yin maqsadi, vazifasi, olib borilish tartibi, qoidalari bilan tanishish;

- Didaktik o‘yin maqsadi va vazifasidan kelib chiqadigan muammoli vaziyatni anglash;
- Muammoli vaziyatdan chiqishning eng samarali yo‘llarini topish;
- Har bir o‘quvchi o‘zi bajarishi lozim bo‘lgan vazifalarni anglashi, o‘qituvchidan kerakli yo‘riqnoma va ko‘rsatmalar olish;
- Turli bilim manbalaridan foydalangan holda muammoli vaziyatni hal etishning optimal variantini tanlash;
- Didaktik o‘yin ishtirokchilari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, o‘zaro yordam va o‘zaro nazorat vujudga kelishi lozim.

XULOSA

Biologiya darslarida integrativ-binar texnologiyasini amaliyotda qo‘llash talabalarning mustaqil bilish faoliyatini va ijodiy ko‘nikma, malakalarini takomillashtirishda, kreativlik va qiziqishini orttirish kabi funksiyalarini darslarda uyg'unlashtirish imkoniyatlarini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. J.O.Tolipova “Biologiyani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” Pedagogika oliy o‘quv yurti talabalari uchun darslik. Toshkent - “Cho‘lpon” – 2011 y.
2. Умарова, Ж. К., & Рахмонова, Р. Б. (2023). НАСЛЕДОВАНИЕ ОПРЕДЕЛЕННЫХ КАЧЕСТВЕННЫХ ПРИЗНАКОВ ХЛОПЧАТНИКА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4-2), 118-124.
3. Ibodova Mahfuza Namozovna "IMPROVING THE METHODOLOGY OF USING ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING THE SUBJECT "ZOOLOGY" IN PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS." *Open Access Repository* 4.3 (2023): 21-25.
4. Ibodova, Mahfuza Namozovna. "AKADEMIK LITSEYLARDA BIOLOGIYA FANINI OQITISHNING INTERFAOL VA MUAMMOLI IZLANISH METODLARIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3.4-2 (2023): 125-131.
5. Ibodova Mahfuza Namozovna "BIOLOGIYANI OQITISHNING INTERFAOL VA MUAMMOLI IZLANISH METODLARI." *PEDAGOGS* jurnali 11.2 (2022): 12-21.

6. Ibodova Mahfuza Namozovna "Effectiveness of independent work in the educational process." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.10 (2021): 322-326.
7. Ibodova Mahfuza Namozovna "A FORMING THE BASIC COMPETENCIES OF PUPILS BY USING OF SELF-STUDY ASSIGNMENTS." *ПЕДАГОГИКА И ПСИХОЛОГИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ* (2018):
8. Muhabbat Ravshanova Ndpi , R., & Mohinur, Q. (2020). Biologiya fanini oqitishda laboratoriya ishlarining ahamiyati. *Science and Education*, 1(3), 550-553.
9. Malikova, A. R. "METHODS OF USING INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF TEACHING BIOLOGICAL SCIENCES IN HIGHER EDUCATION." *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities* 11.1 (2023): 798-800.
10. Mukhabbat, R. (2022). THE IMPORTANCE OF ORGANIZING STUDENTS'INDEPENDENT WORK IN BOTANY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(5), 281-284.
11. Shamsidinova, G. D., Sayfullaev, A. F., Achilova, N. R., & Baratov, U. D. (2021). Prospects for the development of" Education for sustainable ecological development" on the basis of the declaration of Uzbekistan. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(3), 144-149.
12. Sayfullayev, A. (2021). UZLUKSIZ TALIM VOSITASIDA EKOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISH TEXNOLOGIYASI. *Uzluksiz talim*.
13. Сохибназаров, Р. А., & Сайфуллаев, А. Ф. Ў. (2023). МЕТОДЫ УЧЕТОВ ЧИСЛЕННОСТИ ПТИЦ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4-2), 132-138.
14. Shamsidinova, G. D. (2023). BIOLOGICAL MARKETING TOSHKIL ETISH TAMOYILLARI VA BOSH KOIDASI. *Sharq uyg'onishi: innovatsion, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar* , 3 (4-2), 90-97.
15. Malikova, A. R. "METHODS OF USING INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF TEACHING BIOLOGICAL SCIENCES IN HIGHER EDUCATION." *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities* 11.1 (2023): 798-800.

YOSH AVLODGA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTISH VA UNING ISTIQBOLLARI

Shamsidinova Gulchehra Do'smurodovna

Navoiy davlat pedagogika instituti Biologiya kafedrası professori

E-mail: Gulchikhra.shamsiddinova@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ekologik tarbiya – shaxsda ekologik ong va madaniyatni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta'lim, jismoniy, ruhiy, ahloqiy, ma'naviy-ma'rifiy pedagogik jarayon. Bu jarayonda yuqorida ta'kidlanganidek, xalqimizning amaliy urf-odatları va qolaversa, oila muhiti muhim o'rin tutadi.

Ekologik madaniyat orqali sog'lom turmush muhitini yaratish, rivojlanish va odamlar taraqqiyot ehtiyojlarini qondirish uchun qiziqishlariga va tabiiy o'zgartirish, xulq munosabati ifodalangan madaniy va ijtimoiy qadriyatlarni hisobga olish zarur. Ekologik madaniy qadriyatlar - bu tabiat ekotizimida yashash, ishlash va rivojlanish jarayonida odamlar tomonidan yaratilgan barcha qadriyatlardir. Ushbu maqolada, yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish va uning istiqbollari haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: *ekologik ta'lim, madaniyat, ekologik xavfsizlik, ijtimoiy qadriyatlar, sog'lom muhit yaratish, yoshlar tarbiyasi, tabiatni asrash, biosfera, ekotizim, tabiiy resurslar, antropogen omillar.*

АННОТАЦИЯ

Экологическое воспитание - практическое воспитание, физический, умственный, нравственный, духовно-воспитательный педагогический процесс, направленный на формирование у человека экологического сознания и культуры. В этом процессе, как было сказано выше, большую роль играют практические традиции нашего народа и, тем более, семейная среда.

Чтобы создать здоровую среду обитания посредством экологической культуры, удовлетворить потребности развития и развития людей, необходимо учитывать культурные и социальные ценности, выражающиеся в интересах и природных изменениях и отношениях. Экологические культурные ценности – это все ценности, созданные людьми в процессе жизни, работы и развития в природной экосистеме. В данной статье изложены мысли и мнения о формировании экологической культуры среди молодежи и ее перспективах.

Ключевые слова: *экологическое образование, культура, экологическая безопасность, социальные ценности, создание здоровой окружающей среды,*

образование молодежи, охрана природы, биосфера, экосистема, природные ресурсы, антропогенные факторы.

ABSTRACT

Ecological education is a continuous psychological, moral and educational pedagogical tendency aimed at the formation of the environmental culture of the individual. At the same time, folk customs and traditions, as well as the environment for human upbringing, play an important role.

In order to create a healthy living environment through ecological culture, to meet the development and development needs of people, it is necessary to take into account cultural and social values expressed in interests and natural changes and relationships. Ecological cultural values are all values created by people in the process of living, working and developing in the natural ecosystem. This article outlines thoughts and opinions on the formation of an environmental culture among young people and its prospects.

Key words: *ecological education, culture, ecological safety, social values, creation of a healthy environment, youth education, nature protection, biosphere, ecosystem, natural resources, anthropogenic factors.*

KIRISH

Bugungi kunda atrof-muhitni sog'lomlashtirish, aholini ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, biologik xilma-xillikni asrash, iqlim o'zgarishlarining oldini olish dolzarb muammolar hisoblanadi va ularni ijobiy hal qilish insoniyatning kelgusi taraqqiyotini belgilaydi. Yoshlarda yer sayyorasi haqidagi tasavvurlar, o'z yashash muhiti to'g'risidagi bilimlar, tabiat va insonlarni o'zaro uzviy bog'liqligi haqidagi ilmiy-nazariy dunyoqarashlar, ekologik tizimlar, ularning paydo bo'lishi, evolyutsion rivojlanishi, antropogen o'zgarishi, milliy, mintaqaviy va global miqyosdagi tabiat va jamiyat munosabatlari, amaliy ekologik ko'nikma va malakalar, atrof-muhitni muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanish ularni tanlagan kasblariga qarab ekologik ta'lim va tarbiya shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

Ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga doir kadrlar tayyorlash tizimini qayta ko'rib chiqish ekologik qonunchilik bazasini har tomonlama tahlil qilish va uni amaliyot bilan bog'lash mexanizmini yaratish, milliy ekologik ta'limning majburiylik prinsipini amalda qo'llash, ekologik ta'limni barqaror rivojlanish qoidalariga mos ravishda qayta ko'rib chiqish kabi masalalarni hal etishga undaydi. Hozirgi vaqtda ekologiyaning asosiy vazifasi tiriklikning yashashiga yordam berishdir, chunki antropogen omillarning tabiatga salbiy ta'sir qilishi kuchayib bormoqda, natijada jamiyat va tabiat orasidagi muvozanat buzilib, atrof-muhitga salbiy ta'sir

kuchaymoqda. Havo, suv, tuproq turli chiqindilar bilan ifloslanmoqda, ekotizimlar buzilishi natijasida ekologik inqirozlar kelib chiqmoqda. Hozirgi ekologik ta'lim orqali vujudga kelayotgan ekologik madaniyat – turmushning barcha yo'nalishlarida, ma'naviyatga va ekologik siyosatga amal qilishdir. Ekologik madaniyat doim o'zgarib va rivojlanib turuvchi insoniyatning tabiatga odamiylik bilan javob berishidir. Yuksak ekologik madaniyatli inson biosferada tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish orqali munosabatda bo'lishdir. Ekologik madaniyat – bu insoniyat tomonidan tabiat va jamiyat birligini va taqdirini tushunishdir. Tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishning yo'llaridan biri yuqori samara beradigan tabiiy resurslar bilan bir qatorda, kam, samaralilaridan ham foydalanishdir. Yer osti boyliklaridan asosiy elementlar bilan birga uchraydigan boshqa ma'danlarni ham ajratib olib, ma'dansiz chiqindilarni xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida ishlatish, ya'ni chiqindisiz texnologiyaga erishish, dehqonchilikda unumsiz, notekis, botqoq, sho'rxok va toshloq yerlarni xo'jalik ehtiyojlari uchun yaroqli holga keltirish bunga misol bo'la oladi. Jamiyatning ekologik madaniyati uning tabiatga nisbatan aqlli munosabati ko'rsatkichi yoki indikatoridir.

METOD VA METODOLOGIYA

Ekologik madaniyat bu tabiatga imkoni boricha zarar keltirmaslik, tabiat va jamiyat taqdiri birligini tushunishdir. Yoshlarda tabiatdan uning boyliklariga zarar yetkazmagan holatda foydalanish kerakligini o'rgatish ekologik ta'lim tarbiyaning asosi hisoblanadi. Bunday maqsadlarga erishda Oliy o'quv yurtlarida turli kasb egalari uchun alohida dasturlar, metodik qo'llanmalar yaratilgan bo'lib, ularda har bir mutaxassislik bo'yicha tabiatga salbiy ta'siri, atrof – muhit muhofazasi muammolari o'z aksini topgan bo'lishi zarur. Yoshlarda ekologik ta'lim tarbiya masalariga chuqur yondoshishda maxsus ekologik ta'lim tarbiya dasturi va metodik qo'llanmalar asosida amalga oshiriladi.

Ekologik ta'lim va tarbiya olgan mutaxassislarda atrof-muhitning tuzilishi, unda bo'lib o'tayotgan voqealar, ekologik o'zgarishlar hamda xalq xo'jaligining turli tarmoqlaridan chiqayotgan chiqindilarni yig'ish, qayta ishlash bilan zararli moddalar miqdorini kamaytirish, tabiatni saqlash borasidagi ilg'or tajribalarni umumlashtirish va keng joriy qilish, tabiiy boyliklardan foydalanishda isrofgarchilikka yo'l quymaslik, natijada atrofmuhit muhofazasini yuqori darajada olib borishda turli yoshdagi, kasbdagi aholini jalb qila bilish bilimi va mahorati bo'lishi kerak.

Ekologik ta'lim va tarbiyani amalga oshirishda turli aholi guruhlarini atrofmuhit muammolarini hal qilish uchun o'qitish va qayta o'qitish kurslarida, fakultetlar da “Ekologik ta'lim asoslari”, “Atrof-muhit”, “Atrof-muxitning dolzarb muammolari”, “Atrof-muhitning tozaligi va inson salomatligi”, “Tabiat va tabiiy boyliklardan

tejamkorlik bilan foydalanish”, “Ekologiya va yoshlar tarbiyasi”, “Qishloq xo’jaligi ekologiyasi”, “Ijtimoiy ekologiya”, “Avtotransport va atrof-muhit”, “Biologik xilma-xillik” kabi qisqa kurslar ma’lum o’quv dasturlari asosida o’tiladi. Shu bilan bir qatorda, turli xo’jaliklar, korxonalariga ekskursiyalar va tajribali dehqonlar, ishchi-texnik-muhandislar bilan uchrashuvlar tashkil qilib, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog’lash vositasida turli guruhlarga atrof-muhitni o’rganishga, undagi ekologik salbiy holatlarni tuzatishga qiziqish uyg’otish mumkin.

TADQIQOT NATIJASI VA MUHOKAMA

Ekologik ta’lim va tarbiyani olib borishda ommaviy axborotning roli juda katta. Birgina televideniya orqali ekologik mazmundagi ko’rsatuvlarning doimiy ravishda berib borilishi aholi, ayniqsa, yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarga ekologik ta’lim-tarbiya berish orqali ularda yuksak ekologik ong, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, atrof-muhit muhofazasi, biologik xilma-xillikni muhofaza qilishdek yuksak vazifalarni bajarishga hissa qo’shish zarur. Xalqimizni milliy hamda diniy qadriyatlari shaxsiy gigena, tozalik va ozodalikdan tortib o’zi yashab turgan joyini turli xil chiqindilar bilan ifloslantirmaslik, tabiat ne’matlarini isrof qilmaslik, atrofni ko’kalamzorlashtirishni keng targ’ib etadi. Ushbu tushunchalar insonlarning yoshligidanoq o’z oilasidagi keksa avlod vakillari tomonidan ular ongiga singdirib boriladi. Demak insonda dastlabki tushunchalar o’z oilasi paydo bo’ladi. Keyinchalik tushunchalar bog’cha, maktab, litsey, oliy o’quv yurtlarida kengaytiriladi va rivojlantiriladi.

Ekologik tarbiyaning keyingi rivojlanishi va samarasi eng avvalo oilada qo’yilgan poydevorga bog’liq ekanligini bugun hayotning o’zi yaqqol ko’rsatib turibdi. Global miqyosda ekologik muammolar yanada kuchayib, uning ta’siri O’zbekistonda ham yaqqol sezilayotgan, insoniyatning atrof – muhitga bo’lgan salbiy ta’siri yanada ortib borayotgan, tabiat ne’matlaridan ayovsiz foydalanilayotgan bugungi sharoitda bu yanada dolzarflik kasb etadi.

Ekologik tarbiya – shaxsda ekologik ong va madaniyatni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta’lim, jismoniy, ruhiy, ahloqiy, ma’naviy-ma’rifiy pedagogik jarayon. Bu jarayonda yuqorida ta’kidlanganidek, xalqimizning amaliy urf-odatlar va qolaversa, oila muhiti muhim o’rin tutadi. Har bir oilada yoshi kattalar ommaviy axborot vosilari, gazeta va jurnallarda ekologik madaniyatni shakllantirish, hayvonot va qushlar dunyosi, o’lkashunoslik, ekoturizm kabi mavzularidagi film va ko’rsatuvlarni o’z farzandlari bilan birga ko’rib, muhokama qilishlari hamda ona tabiat qo’ynida amaliy ishlarni bajarish, yani bog’lar yaratish, turli daraxt va gul ko’chatlari o’tkazish, uy hayvonlarini parvarishlash, tomorqada turli – xil ekinlarni yetishtirish orqali yosh avlodda ekologik ta’lim tarbiya asosli ravishda

shakllantirilishi mumkin. Tomchilardan yig'ilib, dengiz bo'ladi degan naqlga muvofiq ekologik sohasida qilinayotgan kichik – kichik ishlar yig'ilib, pirovord natijada o'lkamiz tabiati musaffoligini saqlab qolishda va kelgusi avlodlarga yetkazishda muhim omil bo'ladi. Keksa avlodning oilada yurish-turishi, hatti-harakati, pand-nasihati, hayotiy, tajribasi shu oilada o'sayotgan yosh avlodga o'rnak va ibrat bo'ladi.

XULOSA

Ekologik madaniyat yoshlar va tabiat o'rtasidagi munosabatlarda haqiqat - xayrixohlik – tabiatni avaylash qadriyatlarini namoyish etadi. Hozirgi davrda fan va texnikaning rivojlanishi yoshlar farovonligida sezilarli yaxshilanishlarni amalga oshirdi va yashash joylari ko'p yo'nalishlarda kengaytirildi, ammo ekologik muhit yomon ta'sir ko'rsatmoqda. Zero “Qush uyasida ko'rganini qiladi” degan maqol bejizga aytilmagan. Yoshlarda ta'lim tarbiya, ekologik madaniyatning yanada oshishida kekxa avlodlarning o'rni beqiyos, ularning bilim va tushunchalari yoshlarning ekologik ongi va ekologik madaniyatini yanada yuksalishida o'rnak va ibratdir.

Shubhasiz, bugungi kunda yoshlar tabiiy dunyoning bizga bo'lgan munosabatiga olib kelishi kerak bo'lgan oqibatlari axloqiy masaladir. Rivojlanish strategiyasida ekologik madaniyat ta'limi faoliyatini takomillashtirish va ekologik madaniyatni shakllantirish barqaror rivojlanish uchun ijtimoiy ishlab chiqarish va ekologik muhit o'rtasidagi munosabatlarni ongli ravishda boshqarish uchun asosdir.

REFERENCES

1. Кодиров, Ж., Тешабоев, Н., Тешабоева, М., Абдуллаева, Г., & Мухторов, Ш. (2021, August). PRODUCTION POSSIBILITIES OF AUTUMN WHEAT VARIETIES: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1405>. In RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES (No. 18.06).
2. Turdaliev, A. T., Darmonov, D. Y., Teshaboyev, N. I., Saminov, A. A., & Abdurakhmonova, M. A. (2022, July). Influence of irrigation with salty water on the composition of absorbed bases of hydromorphic structure of soil. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1068, No. 1, p. 012047). IOP Publishing.
3. Хужжиев, С. (2022). ФИТОРЕМЕДИАЦИЯ ПОЧВ, ЗАГРЯЗНЁННЫХ ТЯЖЁЛЫМИ МЕТАЛЛАМИ. *ЭКОЛОГИЯ (БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ)*.
4. Altievich, K. S., Khudargonovich, Y. M., Farhod ogli, S. A., & Komiljonovna, U. G. (2022). ADVANTAGES OF PREPARATION AND USE OF BIOFERTILIZERS FROM BIOMASS OF HIGHER AQUATIC PLANTS. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*, 8(1), 21-25.

5. Shamsidinova, G. D., Sayfullaev, A. F., Achilova, N. R., & Baratov, U. D. (2021). Prospects for the development of " Education for sustainable ecological development" on the basis of the declaration of Uzbekistan. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(3), 144-149.
6. Sayfullayev, A.F.O. (2023). SHAHARLARNI KO'KALAMZORLASH-TIRISHDA KATALPA DARAXTINING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4-2), 77-82.
7. Shamsidinova, G. D., Sayfullaev, A. F., Achilova, N. R. va Baratov, U. D. (2021). O'zbekiston deklaratsiyasi asosida "Barqaror ekologik rivojlanish uchun ta'lim"ni rivojlantirish istiqbollari. *Osiyo ko'p o'lchovli tadqiqotlar jurnali (AJMR)*, 10 (3), 144-149.
8. Shamsidinova, G.D., Tilakova, S. va Ahatova, M. I. (2023). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA 2030-YIL BARQAROR RIVOJLANISH DASTURI MAQSADLARINI AMALGA OLISHDA EKOLOGIK MUAMMONI TAHLILI. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*, 9 (4), 95-97.
9. Shamsidinova, G. D., Umaraliev, G. K., Giyosova, N. (2022). O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMINDA ASOSIDA RIVOJLANISH JARAYONLARINI "BARQAROR RIVOJLANISH-2030" DASTURI YANGI MAQSADLARI. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*, 8 (7), 115-117.
10. Shamsidinova, G. D., Tilakova, S. va Ahatova, M. I. (2023). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha UNEP DASTURI MAQSADLARI. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, 8 (4), 100-104
11. Shamsidinova, G. D., Giyosova, N., Hosilova, U., & Sayimova, M. (2022). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BO'LGAN ISLOLOOTLAR "BARQAROR RIVOJLANISH-2030" DASTURI ASOSIDA TAHLILI. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, 7 (6), 296-298.
12. Shamsidinova, G.D. va Babaqulova, F.Z. (2021). O'zbekiston Respublikasida Mingyillik rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish. *Ruminiya Hujayra Biologiyasi Jamiyatining yilnomalari*, 3379-3382.

BIOLOGIYNI OQITISH JARAYONIDA TALABALARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI

Malikova Ayzada Raxmatovna

Navoiy davlat pedagogika instituti Biologiya kafedrasida dotsenti

E-mail: ayzadaraxmatovna@mail.ru

ANNOTATSIYA

Maqolada pedagogika oliy o`quv yurtlarida ta`lim olayotgan talabalarning ekologik madaniyatini ya`ni atrof-muhitni toza saqlash, tabiat va uning boyliklarini asrash, ulardan oqilona foydalanishni dars jarayonida shakllantirish usullari haqida ma`lumot berilgan. Shu bilan bir qatorda o`quv – dala amaliyoti faqatgina talabalar bilimini oshirishda emas, balki ularni ekologik jihatdan tarbiyalashga ya`ni ularda ekologik madaniyatni shakllantirishda asosiy omillardan biri ekanligi ko`rsatib berilgan.

Kalit so`zi: *ekologiya, atrof-muhit, madaniyat, tabiat, tabiiy resurslar, ta`lim-tarbiya, model, texnologiya, amaliyot*

АННОТАЦИЯ

В статье представлена информация о путях формирования экологической культуры студентов, обучающихся в педагогических вузах, то есть сохранения чистоты окружающей среды, охраны природы и ее ресурсов, разумного использования их в ходе урока.

Кроме того, показано, что полевая практика является одним из основных факторов не только повышения знаний студентов, но и их экологического воспитания, то есть формирования у них экологической культуры.

Ключевые слова: *экология, окружающая среда, культура, природа, природные ресурсы, образование, модель, технология, практика*

ABSTRACT

The article provides information on ways to form an ecological culture among students studying at pedagogical universities, that is, preserving the cleanliness of the environment, protecting nature and its resources, and using them wisely during the lesson.

In addition, it is shown that field practice is one of the main factors not only in increasing students' knowledge, but also in their environmental education, that is, in developing their environmental culture.

Keywords: *ecology, environment, culture, nature, natural resources, education, model, technology, practice*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov ekologiya masalasiga alohida to'xtalib, «Ekologiya har bir fuqaroning va oilaning maxsus e'tibor zonasiga aylanishi zarur» deya ta'kidlagan edi [1].

Chunki atrof-muhit tozaligi, tabiat sofliigi, go'zalligi, boyligi insonning go'dakligidanoq sog'lom, jismonan baquvvat o'sishida muhim o'rin tutadi. Barkamol avlodni voyaga yetkazish ma'lum bir ma'noda ekologik tizimning xatosiz ishlashiga bog'liqdir.

Oliy ta'lim muassasalari talabalariga ta'lim-tarbiya berish bilan chegaralanmay, balki ularning ekologik ongi va bilimni yuksaltirish, tabiat boyliklarini asrash va tabiatni muhofaza qilishga bo'lgan ma'naviy ehtiyojlarini rivojlantirishning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan, yosh avlod qalbida tabiatga nisbatan muhabbat uyg'otish talabalarining ekologiya haqidagi bilimlariga bog'liq. Shu sababli oliy ta'lim muassasalari talabalarida ekologik madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Talabalarga tabiatning rang-barangligi, foydali va zararli tomonlarini tanishtirib borish, asrab-avaylash, rivojlantirish, boyitish va bunday mas'uliyat bilan mehnat qilish munosabatida bo'lishi ularda ekologik madaniyatning qay darajada shakllanganligiga bog'liqdir.

Ekologik madaniyat ijtimoiy va ma'naviy hayotda qo'lga kiritilgan jamiki yutuqlarni, o'qimishlilik, ta'lim – tarbiya ko'rganlik, ziyolilik kabi xususiyatlarni bildiradi. Ekologik madaniyat odamlarda tayyor holda vujudga kelmaydi. Unga muttasil o'qish, o'rganish, bilim va ko'nikmaga ega bo'lish, hamda tarbiya orttirish orqaligina erishiladi. Ekologik madaniyat qanchalik boyib borsa jamiyat va millat shunchalik ravnaq topadi. Ekologik madaniyatli odam inson va tabiat ekologiyasi nimaligini aniq biladi, umrini mazmunli tabiat qo'ynida o'tkazish yo'lini izlab topadi, pirovardida tabiat bilan muamola qilish madaniyatini egallaydi. Shu bilan birga tabiat ekologiyasiga insof va adolat nuqtai nazardan yondoshaoladi. Ya'ni, atrof-muhitni toza saqlash, tabiat va uning boyliklarini asrash, ulardan oqilona foydalanish uning faoliyatidan chuqur o'rin egallaydi. Albatta, bu muammolarni hal etishda talaba-yoshlarning bu borada olgan bilimlari va ularning ekologik madaniyati darajasi shakllanganligiga bog'liqdir. Chunki, kundan-kun shaharlarning kengayib borishi, o'simliklar va hayvonot olamining qisqarib borishi, transport vositalarining ortishi natijasida atmosfera tarkibidagi zaharli moddalar miqdorining ortib borishi, suv, havo va tuproq tarkibi ifloslanishi sababli inson salomatligiga, o'simliklar dunyosi va hayvonot olamiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Ularni oldini olishda talaba-yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish orqali, ona-tabiatimizning tabiiy

holatini avvalgidek saqlab qolish, uni asrash va tabiiy boyliklardan unumli foydalanish kabi vazifalarni amalga oshirish mumkin.

Shu maqsadda bo`lajak o`qituvchilar ya`ni oliy ta`lim muassasalari talabalarini biologiya darslarida ekologik madaniyatini shakllantirish uchun bir qator imkoniyatlar mavjud.

Pedagogika institutlarida o`qitiladigan “Biologiya o`qitish metodikasi” fani o`quv predmetiga 50 soat ma`ruza, 50 soat amaliyot, 50 soat laboratoriya mashg`ulotlari uchun ajratilgan. Mazkur o`quv kursi “Tabiiy fanlar” fakultetining Biologiya yo`nalishi III-kurs talabalariga o`qitiladi. Bu kurs bo`lajak biologiya o`qituvchisiga kasbiy tayyorgarlik, kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida yuksak kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka ega pedagogik kadrlarning yangi avlodini shakllantirishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ygan.

Biologiya o`qitish metodikasi fani o`z oldiga quyidagi vazifalarni qo`yadi:

- biologiya fanlarining jamiyatimizda amalga oshirib kelinayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik davlat qurilishi jarayonlariga moslashish.
- talabalarni ma`naviy-madaniy tarbiyalashning samarali shakl va uslublarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tadbiiq etish.

Fanning o`z oldiga qo`ygan asosiy vazifalaridan yana biri, ta`lim muassasalarida ta`lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish, fanning so`ngi yutuqlarini amaliyotga joriy etish, bu orqali ijtimoiy faol, ma`naviy boy, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, ekologik madaniyati shakllangan, mustaqil fikr yurita oladigan yoshlarni tarbiyalashdir.

METOD VA METODOLOGIYA

Oliy ta`lim muassasalari talabalarini hayotga mustaqil qadam qo`yganlarida tabiatning «bo`ysindiruvchi»siga emas, balki uning yaratuvchisiga, himoyachisiga aylanishi kerak. Bu ishda, shubhasiz, ularga ustozlari yordam berishlari maqsadga muvofiqdir. Buning uchun biologiya fanlari mashg`ulotlarida o`qituvchining bilimi, pedagogik mahorati, talabalar bilan muloqotda bo`lishi muhim ahamiyatga ega. Biz talabalarga dars berish jarayonida ularda ekologik madaniyatni shakllantirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida dars mashg`ulotlarini amalga oshirdik. Quyida “Biologiya” kursida o`tkazilgan dars ishlanmasini keltiramiz.

Yangi mavzu: Ekologiya fani, uning vazifalari va metodlari.

Darsning ta`limiy maqsadi: Talabalarni ekologiya fani, uning vazifalari va metodlari, asosiy bo`limlari va asosiy ekologik tushunchalar bilan tanishtirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Talabalarni tashqi olam hodisalari, ularni bir-biri bilan bog`liqligi bilan tanishtirish orqali ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ekologik tarbiya berish.

Darsni rivojlantiruvchi maqsadi: talabalarni ekologik muhit haqidagi tushunchalari, hozirgi ekologik ahvol, tabiatda sodir bo'layotgan jarayonlarni kuzatish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Darsni jihozlash: ekologiya bo'limlari, o'qitish metodlari tasvirlangan jadval va rasmlar.

Darsda foydalanadigan texnologiya: didaktik o'yin texnologiyasi (taqdimot darsi).

Asosiy tushunchalar va tayanch bilimlar: ekologiya fanining vazifalari va bo'limlari, asosiy ekologik tushunchalar.

Darsning borishi:

- I. Tashkiliy qism.
- II. Talabalarning o'zlashtirgan bilimlarini faollashtirish.
- III. Talabalarni dars mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.
- IV. Yangi mavzuni o'rganish.

Reja:

1. Ekologiya fani, uning maqsad va vazifalari.
2. Ekologiya fanining bo'limlari.
3. Ekologiya fanini o'rganish metodlari.
4. Asosiy ekologik muammolar.

O'qituvchi yangi mavzuni boshlashdan avval, talabalar guruhi bilan tayyorgarlik ishlarini olib boradi. Talabalarga ekologiya sohasida ishlayotgan «ekologlar» nomini berib, ularga yangi mavzu ya'ni ekologiya fani predmeti, uning maqsad va vazifalari, ekologiyaning ilmiy-tadqiqot metodlari, ekologiyaning hozirgi muammolari asosida ma'lumot to'plash va ma'lumotlar bilan o'quvchilarni tanishtirish vazifasi yuklatiladi.

Tashkiliy qismdan so'ng o'qituvchi talabalarni avval olgan bilimlarini faollashtiradi, so'ngra yangi mavzu, maqsadi va darsning borishi bilan tanishtiradi. Shundan so'ng fanning taqdimoti boshlanadi.

партере с подножками и действием ногами. Цель борьбы – прижать противника спиной к коврику. Время схватки неограниченно.

6. Борьба в стойке в партере с действиями ногами, захватами ниже пояса и болевыми приемами.

В этой группе видов борьбы разрешается применять броски, удержания на спине и болевые приемы (перегибание и поворачивание конечностей в суставах, и различные сдавливания). Запрещаются лишь удары и опасные для жизни захваты. Болевые приемы применяются с целью принудить противника к сдаче.

Японская борьба (дзюдо). Разновидность японской борьбы. В Японии существует как система физического воспитания. Место борьбы — специальный, сложенный из рисовых циновок ковер — татами. Костюм (кимоно) — специальный халат с поясом и холщовые брюки несколько ниже коленей. Борьба ведется босиком. Применяются захваты за пояс и любую часть халата выше пояса. Разрешается захватывать ногу, если она поднята и не стоит на ковре. Разрешаются действия ногами, захваты суставов рук (кроме кисти) с целью причинить болевое ощущение, удушающий захват горла при помощи отворотов халата и предплечья. Кроме того, разрешается удерживать противника спиной вниз, прижимаясь к нему туловищем. Для победы надо четко бросить противника спиной вниз (не обязательно оставаясь в положении стоя) или удерживать его спиной вниз в течение 30 сек., или принудить его к сдаче, применяя болевой или удушающий прием. Победа присуждается также за лучшие технические действия. Время схватки ограничено условием — по 5 или 10 мин.

Борьба самбо (самозащита без оружия). Борьба, сложившаяся в приемов борьбы дзюдо, греко-римской, национальных видов борьбы народностей некоторых приемов самозащиты. Место борьбы – ковер, как в греко-римской и вольной борьбе. Костюм борцов — трусы, борцовки с мягкой подошвой и специальная куртка с мягким поясом. В борьбе применяются болевые приемы на руки и ноги (кроме удушающих приемов). Победа присуждается за бросок на спину (при этом атакующий должен остаться стоять на ногах) и за болевой прием в положении лежа. В остальных случаях победа присуждается по очкам. Оценка по очкам непрерывно изменяется и совершенствуется.

Вольно-американская борьба (кэч-эз-кэч-кэн). Любительская борьба, культивируемая в США, главным образом, в колледжах и университетах. Костюм — обычные трусы или трико и ботинки. Разрешается применять все приемы, которые выполняются в вольной борьбе по международным правилам, и дополнительно болевые приемы на суставы рук и ног с целью повернуть

противника спиной вниз. Задача – прижать противника спиной к коврику на 2 сек. Время, установленное для борьбы, – 10 мин.

Вольно-американская профессиональная борьба (реслинг). Борьба, распространенная среди профессиональных борцов США, Франции, Италии, других странах. Место борьбы – ковер, ограничиваемый барьером или канатами, – ринг. Одежда – обычные борцовские трусы и ботинки. Разрешается выполнять любые приемы, в том числе удушающие и болевые, с целью прижать противника спиной к коврику. Время поединков устанавливается по специальным условиям матчевой встречи. Соревнования носят коммерческий характер.

Голландская борьба (самозащита). Приемы борьбы, культивируемые в Старой Голландии, известны по литературному источнику Фабиана Ауэрсвальда «Искусство борьбы» (1539) и гравюрам на меди известного художника Дюрера. В этой борьбе, судя по гравюрам, применялись подножки, броски с захватом ног руками и болевые приемы на руки в стойке и партере. Костюм – обычный национальный: куртка с поясом и брюки несколько ниже коленей, туфли. Победа присуждалась, когда противник признавал себя побежденным. Время схватки не ограничивалось.

Борьба, как вид спорта, культивируется различными народами на протяжении многих веков. Каждый народ в разные исторические эпохи проводил соревнования по борьбе. В них он отражал свои национальные обычаи и особенности культуры. В соревнованиях создавались различные приемы для достижения победы. Так, с течением времени рождались правила состязаний и техника борьбы. Это привело к образованию большого количества различных видов борьбы. Одни из них уже исчезли и известны лишь по памятникам искусства и литературным источникам, другие получили распространение и широко используются в современной спортивной практике.

В мире, где существует широкое разнообразие культур, а также видов спорта, всегда будет жить извечная мечта о сближении и единении народов, но одновременно неистребимо желание быть первыми, значительными, неповторимыми, поэтому необходимо сохранить самобытность и основу борьбы на поясах.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (REFERENCES)

1. Ильдарханов И.Г. Мы родом из «Курэш». Казань: Гасыр, 2003. 42 с.
2. 115
3. Кашгарий, М. Devonu lugatit turk. Фан Нашриети. 1960. 344 с.

4. Ким-Кимэн А.Н. Кузнецова З.М. Развитие традиций предков во славу якутского спорта. //Педагогико-психологические и медико-биологические проблемы физической культуры и спорта. 2018.
5. Кузнецов, А.С., Шулика Ю.А. Теоретические основы и методология овладения техникой и тактикой борьбы на поясах. Казань: Поволжская ГАФКСиТ. 2010. 264 с.
6. Кузнецова З.М. История физической культуры и спорта в Республике Татарстан. Монография. Набережные Челны: КамГиФК. 1999. 268 с.
7. Рустамов, Л. Х. (2013). Источники и этапы развития теории и методики физического воспитания. *Педагогика и современность*, (3), 69-76.
8. Рустамов, Л. Х. (2013). Физическая культура и ее влияние на организм человека. In *Актуальные вопросы современной науки* (pp. 99-103).

ВЫЯВЛЕНИЕ КОМПОНЕНТОВ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ ВЕРХНЕЙ ПОДАЧИ ВОЛЕЙБОЛИСТОВ 12-13 ЛЕТ

Рахимкулов Каримжан Даткаевич

Профессор Узбекского государственного университета мировых языков

Кулуев Бакытбек Мамасаитович

Доцент общефакультетской кафедры физического воспитания ОшГУ №2

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена выявлению компонентов физических качеств, определяющих эффективность верхней подачи у волейболистов 12-13 лет, с помощью выявления взаимосвязей между показателями эффективности техники данного технического действия и уровнем развития физических качеств спортсменов данного возраста.

Ключевые слова: *волейболисты 12-13 лет, волейбол, физические качества, верхняя подача, технические действия волейболистов, техника.*

ABSTRACT

This article is devoted to the identification of the components of physical qualities that determine the efficiency of the upper serve in volleyball players 12-13 years old, by identifying the relationships between the indicators of the effectiveness of the technique of this technical action and the level of development of the physical qualities of athletes of this age.

Keywords: *volleyball players 12-13 years old, volleyball, physical qualities, top serve, technical actions of volleyball players, equipment.*

АКТУАЛЬНОСТЬ.

Спортивные достижения волейболистов во многом зависят от уровня их технического мастерства, поэтому поиски путей оптимизации процесса технической подготовки – одна из важнейших проблем современного волейбола.

В волейболе технику составляют приемы и способы, необходимые для ведения игры. Для понимания техники игры как комплекса приемов и способов существует классификация техники.

В технический арсенал занимающихся волейболом входят около 15 технических приемов, и только половина из них более или менее систематически используется спортсменами в соревнованиях.

Среди технических приемов, без которых невозможна успешная соревновательная деятельность, особое место занимают подачи. Высокий уровень владения подачами может сразу принести команде очки или прием

мяча после подачи бывает настолько затруднен, что противник лишается возможности эффективно осуществлять нападающие действия. А это облегчает подающей команде организацию защитных действий.

Подача – единственный технический элемент, исполнение которого полностью зависит от игрока, а не определяется игровой ситуацией и взаимодействием с партнерами или противником. Подающий игрок владеет мячом – он сам выбирает место подачи, способ ее выполнения и решает, куда направить мяч. Это обстоятельство предъявляет самые высокие требования к техническому исполнению подачи.

Большое значение для техники играет уровень сформированности физических качеств у спортсменов, не является исключением и техника подачи у волейболистов. Проявление таких физических качеств, как координационные и скоростные качества, скоростно-силовые качества, гибкость особенно важны для волейболистов.

Следовательно, возникает необходимость определения компонентов физических качеств, определяющих эффективность верхней подачи волейболистов 12-13 лет.

Методы и организация исследований.

Цель исследования – выявить компоненты физических качеств, определяющие эффективность верхней подачи волейболистов 12-13 лет.

Для выявления компонентов физических качеств, определяющих эффективность верхней подачи волейболистов 12-13 лет, проводился корреляционный анализ между показателями эффективности техники верхней подачи и уровнем развития физических качеств спортсменов данного возраста

РЕЗУЛЬТАТЫ И ИХ ОБСУЖДЕНИЕ.

Результаты данного корреляционного анализа представлены в таблице.

Таблица

Показатель	Компоненты физических качеств							
	способность к пространственным характеристикам (кол-во раз)	способность к динамическому равновесию, (кол-во раз)	скоростно-силовые качества мышц ног (см)	скоростно-силовые качества мышц ног (см)	скоростно-силовые качества мышц ног (см)	скоростно-силовые качества мышц ног (см)	реакция выбора (кол-во раз)	реакция движения (кол-во раз)

Эффективно сть верхней подачи, (%)	0,76	0,36	0,83	0,80	-0,36	0,54	-0,43	-0,73
--	------	------	------	------	-------	------	-------	-------

Показатели корреляционного анализа между показателями эффективности верхней подачи и уровнем развития компонентов физических качеств у волейболистов 12-13 лет

В ходе корреляционного анализа между показателями эффективности верхней подачи и уровнем развития компонентов физических качеств у волейболистов 12-13 лет, результаты которого представлены в таблице, определено, что сильные положительные корреляционные связи выявлены между следующими показателями: эффективностью верхней подачи и уровнем развития способности к пространственным характеристикам ($r=0,76$), скоростно-силовыми способностями мышц ног ($r=0,83$) и мышц рук ($r=0,80$). Отрицательная сильная взаимосвязь была выявлена между показателями эффективности верхней подачи и уровнем проявления подвижности в плечевых суставах ($r=-0,73$).

Заключение. Следовательно, компонентами физических качеств, определяющими эффективность техники верхней подачи у волейболистов 12-13 лет, являются – способность к пространственным характеристикам, скоростно-силовые способности мышц ног и рук, подвижность в плечевых суставах. При построении процесса технической подготовки волейболистов 12-13 лет необходимо учитывать полученные данные, так, при совершенствовании техники верхней подачи у спортсменов данного возраста необходимо одновременно повышать уровень развития и компонентов физических качеств, определяющих эффективность данных технических действий.

ЛИТЕРАТУРА (REFERENCES)

1. Казарьян, Ю.Б. Специфические особенности воспитания физических качеств гребцов с ампутацией нижних конечностей / Ю.Б. Казарьян, Г.М. Юламанова, А.Н. Попов // Известия ТулГУ. Физическая культура. Спорт. 2018. Вып. 1 С. 134-140.
2. Костарев, А.Ю. Реализация спортивно-образовательного проекта «Здоровое поколение – сильный регион» в системе физического воспитания школьников / А.Ю. Костарев, Г.М. Юламанова, Т.Ф. Емелева, Р.Р. Исмагилова // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. -№1. -2018. -С. 47-49

3. Рустамов, Л. Х. (2013). Источники и этапы развития теории и методики физического воспитания. *Педагогика и современность*, (3), 69-76.
4. Рустамов, Л. Х. (2013). Физическая культура и ее влияние на организм человека. In *Актуальные вопросы современной науки* (pp. 99-103).
5. Рустамов, Л. Х. (2023). ВОЛЕЙБОЛ В ФИЗИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ. *PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI*, 3(1), 48-50.
6. Rustamov, L. (2022). TALABALARNING KASBIY FAOLIYATLARIDA SHAHSGA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUVNI AMALGA OSHIRISH. *Science and innovation*, 1(B8), 1259-1262.

ЭТНОТАФАККУРНИНГ ИЖОБИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ БОРАСИДА МУЛОҲАЗАЛАР

Умарова Фариди Саидикрамовна

Тошкент тиббиёт академияси Ижтимоий фанлар кафедраси катта ўқитувчиси, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

АННОТАЦИЯ

Мақолада этнотафаккурнинг прагматизм, инновация, тадбиркорлик, янгиланиш жараёнлари билан боғлиқ масалалари муҳокама қилинади, бу борадаги фалсафий қарашларга мурожаат этилади.

***Калит сўзлар:** этнотафаккур, халқ онги, миллат тафаккури, рационал тафаккур, прагматизм, сиёсий тафаккур, иқтисодий тафаккур.*

ABSTRACT

The article discusses issues of ethno-thinking related to pragmatism, innovation, entrepreneurship, renewal processes, and addresses philosophical views in this regard.

***Key words:** ethno-thinking, national consciousness, national thinking, rational thinking, pragmatism, political thinking, economic thinking.*

КИРИШ

Халқ, миллат ижтимоий борлиғини ифода этган ҳар қандай воқелик, ҳодиса маълум бир маънода рационал маънога, прагматистик хусусиятга эга. Келажакни мистицизм ва спиритизмга муккасидан берилган кишилар, элатлар эмас, балки ақлу идрокка, давр талабларини англаган, бу ўриндаги муаммоларни амалий ҳал этишга қодир, Д. Дьон ибораси билан айтганда “тафаккурда реконструкция” қила оладиганлар яратган [1; С. 5-6].

Прагматизм ижтимоий тараққиёт, бу борада амалга ошириладиган инструментлар, эришиладиган ютуқлар, натижалар, ақлу идрокни уларга йўналтириш тўғрисидаги дунёқараш ҳисобланади [2; С.541]. Уни фалсафий таълимотга айланишида Ч.С.Пирс, Ж.Жемс, Д.Дьон каби америкалик файласуфларнинг роли катта. Айнан улар прагматизмдаги инсонни амалий фаолиятга, кундалик муаммоларни, айниқса ишлаб чиқариш ва иқтисодий ҳаёт масалаларини ҳал этишга қодир ақлу тафаккурига эътибор қаратдилар. Амалий натижа – тафаккур ва фалсафий изланишларнинг мақсади бўлишини асослашга интилдилар. Улар прагматизмдаги утилитаризмни тадбиркорлик ва ишбилармонликни, кўпроқ “фойда кўриш”ни ёқлаб чиқдилар. Ж.Жемснинг

“радикал эмпиризми” ҳамма нарсани тажриба келтирган фойда, наф орқали баҳолаш усули сифатида фалсафада ўзига хос ўрин эгаллади [3:С.150].

Тафаккур, шу жумладан, этнотафаккур ҳам, субъектив ходисадир. “Ақлу идрок”, “онг”, “тасаввур”, “хаёл”, “идрок”, “англаш” каби психологик-гносеологик тушунчалар тафаккурнинг атрибутлари, ички, таркибий қисмлари ҳисобланади. Мазкур тушунчалар тафаккурнинг у ёки бу жиҳатларини, хусусиятларини ифода этиб, уни полифункционал воқелик эканини тасдиқлайди. Полифункционаллик биринчидан, тафаккурга таъсир этувчи омилларнинг ранг-баранглиги, серқирралиги, иккинчидан, рационалнинг зиддиятли шаклланиши билан боғлиқдир. Инсон ақлу идрокининг беором изланишга, гоҳо ўзини ўзи рад этишга мойиллиги полифункционалликни муаммолар муаммосига айлантиради.

“Этнотафаккур” халқ, миллат ҳаётига, ақлу идроки, ташқи оламга субъектив муносабатлари, ўзлигини англаши ва ифода этишига оид тушунча ҳисобланади. Унда умуммиллийлик устувор. Шу нуқтаи назардан у тафаккурнинг шахс, гуруҳ, давлат билан боғлиқ поғоналаридан фарқ қилади.

Халқ, миллат мудом ён-атрофга ўзининг реал эҳтиёжлари, ҳаётий тажрибалари нуқтаи назардан ёндошади. Ҳатто, улар эъзозлайдиган ва сиғинадиган дин, эътиқод, символлар ҳам маълум бир ҳаётий эҳтиёжларни ифода этади. Ижтимоий ҳаёт талабларидан мутлақ узилган эҳтиёж йўқ. Халқ, миллат эҳтиёжлари мудом объектив, реалдир. Шунинг учун этнотафаккурнинг прагматик хусусиятларини ўрганиш муҳим илмий ва амалий аҳамиятга эга.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Этнотафаккур халқнинг, миллатнинг объектив борлиққа, ижтимоий муаммоларга рационал муносабати инъикоси ҳисобланади. Ушбу бош белги, хусусият орқали биз халқнинг, миллатнинг ижтимоий борлиқни қандай идрок этаётганини англаймиз. Бу идрок силлиқ шаклландиган ва ўзини зиддиятсиз кўрсатадиган воқелик эмас. Масалан, ўтган асрнинг 90 йилларидаги ўзбек халқи тафаккуридаги ҳолатларни эслайлик. Ўзбек халқи сиёсий тузумнинг даъватларига иккиланмай ишониб келгани туфайли СССРни сақлаб қолиш ғоясининг тарафдори эди. Халқимиз тафаккурида Ўзбекистон кўпмиллатли совет халқи ичидагина барқарор ривожланиши мумкин, деган ўйда эди. Ҳатто 1991 йил 31 августда республикаимиз сиёсий мустақилликка эришган пайтда ҳам у “пролетар интернационализми” ва “коммунистик жамият” қуришга ишончли йўқотмаган. Бу ўринда этнотафаккурда зиддиятли, ҳатто консерватив ҳоллар рўй беришини, уни дарров ўзгартириш, янгилаш қийин эканини кўрамиз. Бироқ сиёсий тафаккур ушбу зиддиятли, консерватив ҳолларни бартараф этиш

қувватига эга эдики, шу сабабли этнофақкурда ён-атрофга соғлом назар ташалаш, давр ва ҳаёт муаммоларини миллий тараққиёт нуқтаи назаридан баҳолаш тажрибаси пайдо бўлди. Демак, этнофақкурнинг шаклланишида ва унда янгиланишлар қилишда сиёсий тафаккурнинг етакчи ўрни бор.

Этнофақкурнинг рационализмга мойиллиги халқнинг, миллатнинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётга муносабатларида яққол акс этади. Ижтимоий-иқтисодий ҳаёт моҳиятан рационализмга, прагматизм тарафдоридир. Шунинг учун ҳам прагматизм фалсафаси асосчилари тадбиркорликка, бизнес ва ўзаро мусобақалашиб, янги инструментларни, техника воситаларини, фаолият шакллари яратиб яшашга урғу беришади [4;5;6;]. Тадбиркорлик эса наф, фойда кўришга қаратилган фаолият туридир [7: С.190].

Этнофақкур халқнинг, миллатнинг тарихий тажрибасига таянади, ундаги замонга мувофиқ келадиган усулларни ўзлаштиради. Ўзбекистоннинг бозор иқтисодиётига ўтиш иқтисодий тафаккурни янгилаш, халқимиз тарихий тажрибасига мурожаат этиш масалаларини кун тартибига қўйди. Бу мавзунини махсус тадқиқ этган мутахассислар фикрига кўра, ўлкамиз халқлари қадимдан замонавий иқтисодий тафаккурга мос қарашларга, тажрибаларга эга бўлган. Уларда “иқтисодиётдаги меркантилизм (қимматбаҳо олтин, кумуш, жавоҳирлар, савдо-сотик ўрни), физиократизм (ер, деҳқончилик ва чорвачилик аҳамияти), классик мактаб (эркин тадбиркорлик, баҳолар эркинлиги, хусусий мулк, рақобатнинг роли), мартинализм (кадр-қиммат, ноёблик) каби таълимотларнинг куртаклари ва аниқ белгилари яққол кўзга ташланади” [8; 240 б]. Демак, бугун иқтисодий тафаккуримиздан жой олган бозор иқтисодиёти, менежмент асослари, талаб ва таклиф, хусусий мулк, тижорат, бизнес кабилар халқимиз тарихий тажрибаларининг объектив давомларидир. Уларда иқтисодий тадбиркорликдан, фаолият турларидан фойда кўриш мумкинлиги рад этилмайди, балки фойда кўришга инсонни фаоллаштирувчи, янги-янги иш усуллари, хизмат турлари ва савдо-сотик воситаларини топиш омили сифатида қаралади.

Этнофақкурни реал ҳаётга муаммолар ва уларни амалий ҳал этиш билан боғлашнинг қанчалик муҳимлиги Президентимиз илгари сураётган инновацион ривожланишдаги вазифалар ҳам тасдиқлайди. Президентимиз Ш.М. Мирзиёев томонидан инновацион ривожланишга оид 30 дан зиёд Фармон ва қарорлар эълон қилинди, мамлакатимизнинг 2030 йилигача бўлган инновацион ривожланиш йўллари белгилаб берилди. Ш. М. Мирзиёевнинг прагматик сиёсати этнофақкурни инновацион ривожланиш томон ўзгартириш, янгилашга қаратилган. Шу мақсадда Ўзбекистонда биргина 2018 йилда чет

эллардаги илғор университетларнинг 7 та филиали очилди, янгича фикрлайдиган, миллий тараққиётни илғор технологиялар билан ривожлантиришга ҳам билими, ҳам тадбиркорлиги билан катта ҳисса қўшадиган олий малакали мутахассислар тайёрлашга киришилди. Бугун Ўзбекистон этнофақкурда инновацион янгиланишни таъминлаш томон йўл тутган.

Этнофақкурнинг ўзига хос хусусиятлари, ижтимоий борлиқ билан алоқалари ва динамизми унинг ижтимоий-иқтисодий муносабатларда, жамият ҳаётида рўй бераётган ўзгаришларда, инсон ҳуқуқ ва эркинликларида, аҳолининг турмуш тарзида акс этади. Этнофақкур ушбу жиҳатлари билан объективлашиб, умуммиллий, умумхалқ ҳаётига, менталитетига оид воқеликка айланади. Шунинг учун этнофақкурни ўрганганда мазкур жиҳатларга, ўзгаришларга мурожаат этиш, улар динамикасини кузатиш, ўрганиш даркор.

Махсус социологик кузатувлар натижаларига кўра, 2011 йили мамлакатдаги иқтисодий ривожланиш ҳолатидан респондентларнинг 91,0 фоизи қониқиш ҳосил қилаётганини билдирган. 2012 йили бу кўрсаткич 97,1 фоизга, 2013 йили эса 97,3 фоизга кўтарилган. Юқоридаги йиллар бўйича мавжуд иқтисодий ҳолатлар қониқмаётганлар 2,3 фоиз, 0,9 ва 0,8 фоизни ташкил этган [9; С. 27]. Кўриниб турибтики, респондентларнинг мутлақ кўпчилиги мамлакатдаги иқтисодий ривожланишдан қониқади. Агар шундай бўлса, нега Ш.М.Мирзиёев давлат раҳбари бўлгач, ижтимоий-иқтисодий ҳаётга “танқидий таҳлил” зарур бўлиб қолди ва бу соҳада салбий ҳоллар илдиз отгани аён бўлиб қолди? деган савол пайдо бўлади. Ш.М.Мирзиёев мамлакатдаги аҳволни таҳлил қилар экан тадбиркорлар ва ишбилармонлар ҳаракати – Ўзбекистон Либерал-демократик партиясининг 2016 йил 19 октябрда бўлиб ўтган VIII съездидаги маърузасида турли “ёвуз иллат”, яъни коррупция, уюшган жиноятчилик, халқ дарди ва ташвишларига бефарқлик, қонунлар ижросининг пастлиги, ишсизлик, қишлоқ хўжалигини молиялаштириш ва модернизациялаш, тадбиркорлар ҳуқуқларини бузиш, бюрократия, суд-ҳуқуқ тизимини либераллаштириш, аҳолини газ, электр энергияси, ичимлик суви билан таъминлашда жиддий камчиликлар мавжудлигини очиқ эътироф этди. Мана, унинг жиноятчилик негизларини топишга даъват этилган сўзлари: “Ҳар бир ҳолат ва вазият бўйича туман ҳокими, вилоят ҳокими ва бошқа масъул раҳбарлар шахсан жавоб берадиган вақт келди. Жиноятнинг сабаби нима ўзи? Ўғирлик қилган бўлса, у нима учун бўляпти? Қани профилактика нозири? Қани бизнинг ишонган маҳалла раисимиз, қани жамоатчилигимиз? Бу саволларга жавоб йўқ” [10; 53 б.]. Мустақиллик йилларида миллий иқтисодиётда

ривожланишлар бўлганини давлатимиз раҳбари эътироф этган ҳолда, асосий мақсад нима эканини уқтирди: “Лекин, ҳаммамизга аёнки, ўсиш суръатлари – бу шунчаки бир мақсад эмас. Бундай ўсиш аввало халқимизга, ҳар бир фуқарога қандай наф етказиши, унинг энг аввало дастурхонида кундалик ҳаётида қандай акс этиши биз учун муҳим масаладир” [10; 60 б.]. Минг афсуски, ўтган ўн йилликларда иқтисодий ривожланиш бу муаммони ечишга ёрдам бермоқда. Аҳоли қашшоқлиги даражаси юқориликча қолаверди. Ҳозирги кунда аҳолимизнинг 12 фоизи қашшоқликда яшайди [11].

Президентимизнинг Фармон ва Қарорларидан, видео йиғилишларидан озгина хабардор киши ижтимоий-иқтисодий ҳаётда қанчадан-қанча муаммолар йиллар давомида ечилмай қолганига гувоҳ бўлади. Мазкур ҳоллардан халқ, кишилар, юқоридаги респондентлар беҳабар бўлишганми? Албатта, йўқ. Бўлмаса, нега жавоблар иқтисодий ўсишни идеал, инсоният ҳавас қиладиган даражада, яъни 97,3 фоиз қилиб кўрсатаяпти? Демак, этнофафаккурда илғаш қийин бир нимадир бор.

Ўша манбадан яна бир мисол келтирамиз. Респондентларнинг 2011 йилда 96,5 фоизи, 2012 йили 96,4 фоизи, 2013 йил эса 96,7 фоизи мамлакатда инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминланишидан қониқаётганини билдирган. Орадан икки йил ўтгач Президентимиз Ш.М.Мирзиёев реал ҳолатга эътибор қаратиб дейди: “Биргина 2016 йилнинг 9 ойида Бош прокуратурага 137 минг, Олий судга 17 минг, Адлия вазирлигига 52 мингдан зиёд мурожаатларнинг салкам 30 фоизи бевосита тергов-суд фаолияти ва суд қарорлари ижроси соҳасидаги масалалар билан боғлиқ. Энг ачинарлиси шундаки, мансабдор шахсларнинг ҳаракатсизлиги оқибатида такрорий мурожаатлар сони ортиб бормоқда. Қани, айтинг-чи, бу аҳволда аҳолининг умуман суд-ҳуқуқ тизимига ишончи ва уни мустаҳкамлаш тўғрисида гапириш мумкинми ўзи?” [10; 48-49 б.]. Президентимизнинг бу саволи юқоридаги респондентларнинг муносабатига ҳам тааллуқлидир. Нима учун суд-ҳуқуқ тизимида салбий ҳолатлар, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини бузиш, менсимаслик оддий ҳолга айланган бир пайтда респондентлар жавоби 96,7 фоизга кўтарилган? Бу ўринда этнофафаккур билан ўтказилган социологик сўровнома натижалари ўртасида кескин фарқлар борлиги кўзга ташланади. Бизнинг фикримизча этнофафаккурдаги қуйидаги жиҳатлар оммавий социологик сўровнома пайтида ҳисобга олиниши даркор.

Биринчидан, этнофафаккурни фақат оммавий сўровнома натижалари (респондентлар жавоблари) билан чегаралаш мумкин эмас. Респондентлар жавоблари аҳоли қатламлари, уларнинг кайфиятларига қараб ўзгарувчан воқелиқдир. Этнофафаккур эса халқ, миллат менталитетидаги барқарор, ташқи

таъсирларга гоҳо бефарқ, муқим хусусиятларга эга воқелик. Этнотафаккур кунаро, ҳар қандай ташқи таъсир остида ўзгарадиган воқелик эмас, у аста-секин трансформацияга учраш хусусиятига эга.

Иккинчидан, оммавий сўровнома расмий кўрсатмалар, ички идеологик тазйиқ ёки таъсир остида давр талабига мувофиқлаштирилиши, фальсификациялаштирилиши мумкин. Этнотафаккур барқарор воқелик сифатида ўзини қайта ва қайта намоён этаверади. У халқ, миллат тафаккури, менталитети, субъектив борлигининг ядросини ташкил этади.

Учунчидан, оммавий социологик сўровнома оперативликни яхши кўради. У куннинг долзарб масалаларини аниқлашга қаратилади. Ҳозиржавоблик, оперативлик бундай кузатувларнинг бош хусусияти ҳисобланади. Этнотафаккурни бундай тадқиқот усуллари билан илғаш, баҳолаш қийин. У узоқ, синчиклаб, изчил ўрганишни тақозо этади. Куннинг долзарб талаблари ёки муаммолари ҳали этнотафаккурга оид бўлавермайди. Улар ўртасидаги фарқлар ҳар икки ёндашувга, тадқиқот усулига алоҳида воқелик, усуллар сифатида қарашга ундайди.

Тўртинчидан, этнотафаккурдаги барқарорлик, муқимлик консерватив ходиса сифатида идрок этилиши мумкин. Бундан кўрқмаслик зарур. Бизнинг фикримизча, айнан ушбу консервативлик этнотафаккурни бирор халққа, миллатга оид воқелик эканини англаиб туради, субъектив воқеликка миллийлик бахш этади. Бирор халқни, миллатни ўрганиш муаммоси пайдо бўлганида унинг менталитетига, тафаккур тарзига мурожаат этилиши шундандир.

Бешинчидан, этнотафаккурни догма сифатида қабул қилмаслик зарур. Ундаги консервативлик мутлақ ўзгармас эмас. Барча онг, тафаккур шакллари сифатида этнотафаккур ҳам трансформациялашади, яъни давр талаблари таъсирида ўзгаради, янгиланади ёки бошқа кўринишга, шаклга ўтади. Бироқ бундай ўзгариш революцион тарзда эмас, балки тадрижий тарзда рўй бергани маъкул. Тўғри, Президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг “танқидий таҳлил” усулида эскича ишлаш, коррупция, бефарқлик каби иллатлар мамлакатни олдинга силжишга халақит бераётгани, шу боис уни инновацион ривожлантириш зарурлиги асослаб берилган. Гап “сити”лар барпо этишда эмас, муаммо халқ, миллат тафаккури, онги ва ўз тақдирига муносабатини ўзгартиришдадир. Президент янги олий ўқув юртлари ва ижод мактаблари очиш, илм-маърифатни юксалтириш, халқ амалий санъати, мусиқа, рақс ва маданиятни инновацион ривожлантириш ҳақида гапирганида, Фармон ва Қарорлар қабул қилганида этнотафаккурни ўзгартиришни ҳам назарда тутаяди. Шундай экан, маълум бир

ислохотлар, модернизация таъсирида этнотафаккурда янгилашиш қилиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар (REFERENCES)

1. Дьюн Д. Реконструкция в философии. Проблемы человека. – Москва, Республика, 2003.
2. Новейший философский словарь. – Минск, Изд. В.М. Скаун, 1998.
3. Жемс В. Прагматизм. – Санкт-Петербург, 1990.
4. Philip P/ Wiener, Evolution and the Founders of Modern Pragmatism. – Cambridge, 1949.
5. James W. Essays in Radical Empiricism. – N.Y., 1949.
6. Лингарт И. Американский прагматизм. – Москва, Ин. лит-ра, 1954.
7. Чжен В.А. ва бошқалар. Законодательные основы рынка. Т.3. – Тошкент, Шарқ, 1996.
8. Раззоқов А. Иқтисодий тафаккур сарчашмалари. – Тошкент, Ўзбекистон НМИУ, 2011.
9. Узбекистан: общественное мнение. – 2013. (по результатам целевого социологического исследования) // Ижтимоий фикр. Право человека. 2014, №1 (65).
10. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-том. – Тошкент, Ўзбекистон, 2017.
11. Узбекистан, бедность. МОТ/Общество. 14.12.2018.

ЁШЛАР ЎРТАСИДА АХБОРОТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Абилов Ўрол Муродович

Фалсафа фанлари доктори, Тошкент тиббиёт академияси Ижтимоий
фанлар кафедраси профессори

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада глобаллашув шароитида ахборот таҳдиди тушунчалари, ахборот хавфсизлигини таъминлашнинг фалсафий жиҳатлари ҳамда ёшлар ўртасида ахборот хавфсизлигини таъминлашнинг ўзига хос хусусиятлари, интернет тармоғидан фойдаланиш шартлари ҳақида фикр юритилган.

Калим сўзлар: *Глобаллашув, бешта ташаббус, ахборот таҳдиди, ахборот хуружи, ахборот хавфсизлиги, интернет, хавфсизлик, стратегия.*

ABSTRACT

This article highlights the problems of using the Internet, as well as specific features of information security among young people, the concept of information threat, philosophical features of information threat in the context of globalization.

Key words: *Globalization, five initiatives, information security, information threat, Internet, security, strategy.*

КИРИШ

Ҳозирги даврда жаҳон миқёсида кечаётган глобаллашув жараёнлари ХХ асрнинг охири ва ХХІ аср бошларида бутун инсоният, ер юзидаги барча халқлар ва миллатлар тараққиёти учун, айниқса, ҳаётга кириб келаётган ёшлар учун мисли кўрилмаган имкониятлар яратиб бермоқда. Авваламбор, фан ва техниканинг илғор ютуқлари, замонавий ахборот-коммуникация технологиялари, хусусан, интернет тармоғи турли давлатлар ва минтақалар ўртасидаги чегараларни очиб бериб, ўзаро ҳамкорликва интеграция ривожига сўзсиз катта ҳисса қўшаётганига бугун барчамиз гувоҳ бўлмоқдамиз. Лекин одамзот тафаккурининг юксак ва ёрқин намоёни бўлган бундай ютуқлар айни пайтда катта куч-қувват ва молиявий имкониятларга эга бўлган айрим сиёсий кучларнинг ғаразли ниятларини амалга оширишда мафкуравий қурол сифатида фойдаланилаётганини ҳам эътибордан четда қолдириб бўлмайди. Биринчи навбатда ёшларнинг онгу тафаккурини, маънавий оламини издан чиқаришга қаратилган бундай уринишларнинг асл моҳиятини, уларнинг узоқ ва давомли, салбий оқибатларини англаш ва бундай хавф-хатарларнинг олдини олиш бугунги кунда ўта муҳим аҳамият касб этиб бормоқда [1].

Бугунги глобаллашган дунёда ёшлар онгига салбий таъсир қилаётган унсурлар ҳам пайдо бўлаётганига бефарқ қарай олмаймиз. Ягона ахборот маконида авж олаётган турли мафкуравий таҳдидлар, ахборот хуружлари ёш авлод онгу шуурига жиддий зарар етказиши мумкин. Энди асосий мақсадлардан бири – ёшларни ўша хуружу таҳдидлардан ҳимоя қилишга қаратилмоғи зарур. Зеро, глобаллашув - инсоннинг онгу шуури, тафаккури самараси сифатида вужудга келган жаҳон миқёсидаги умумий жараён, таъбир жоиз бўлса, инсоният бошидаги яна бир синов. Бугунги кунда дунёдаги айрим кудратли давлатлар ўз миллий манфаатларини амалга оширишда глобаллашув жараёнидан устамонлик билан фойдаланиб қолишга уринмоқда. Бу манфаатларнинг шакли, кўриниши, соҳаси, йўналиши, турлича” [2]. Ана шундай экан ўқувчи-ёшларда ахборот истеъмоли маданиятини шакллантиришга ва юксалтиришга алоҳида эҳтиёж сезилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 2019 йил 19 март куни ёшларга эътиборни кучайтириш, уларни маданият, санъат, жисмоний тарбия ва спортга кенг жалб этиш, уларга ахборот технологияларидан фойдаланиш кўникмаларини сингдириш, ёшлар ўртасида китобхонликни кенг тарғиб қилиш, хотин-қизлар бандлигини ошириш масалаларига бағишланган видеоселектор йиғилиши ўтказилди. Унда давлатимиз раҳбари ижтимоий, маънавиймаърифий соҳалардаги ишларни янги тизим асосида йўлга қўйиш бўйича бешта муҳим ташаббусни илгари сурди.

Биринчи ташаббус – ёшларнинг мусиқа, рассомлик, адабиёт, театр ва санъатнинг бошқа турларига қизиқишларини оширишга, истеъдодини юзага чиқаришга хизмат қилади.

Иккинчи ташаббус – ёшларни жисмоний чиниқтириш, спорт соҳасида қобилиятини намоён қилишлари учун зарур шароитлар яратишга йўналтирилган.

Учинчи ташаббус – аҳоли ва ёшлар ўртасида компьютер технологиялари ва интернетдан самарали фойдаланишни ташкил этишга қаратилган.

Тўртинчи ташаббус – ёшлар маънавиятини юксалтириш, улар ўртасида китобхонликни кенг тарғиб қилиш бўйича тизимли ишларни ташкил этишга йўналтирилган.

Бешинчи ташаббус – хотин-қизларни иш билан таъминлаш масалаларини назарда тутди.

Бугунги кунда мамлакатимиздаги 800 дан ортиқ маданият марказлари, 312 та мусиқа ва санъат мактабларига атиги 130 минг нафар ўғил-қиз камраб олингани, мазкур муассасаларнинг аксарияти ўқув қўлланмалари, ноталар

тўплами, муסיқа асбоблари, мебель ва жиҳозлар билан етарли даражада таъминланмаган.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Мамлакатимиз аҳолисининг 30 фоизини 14 ёшдан 30 ёшгача бўлган йигит-қизлар ташкил этади. Уларнинг таълим олиши, касбхунар эгаллаши учун кенг шароит яратилган. Шу билан бирга, ёшларнинг бўш вақтларини мазмунли ўтказишни ташкил этиш долзарб масала ҳисобланади. Ёшлар қанчалик маънавий баркамол бўлса, турли ёт иллатларга қарши иммунитетини ҳам шунчалик кучли бўлади. Ушбу йиғилишда ёшларни ахборот таҳдиди, интернетдаги зарарли хуружлардан асраш, уларни ахборот технологияларидан унумли фойдаланишга ўргатиш масалаларига ҳам алоҳида аҳамият қаратилди.

Хўш, ахборот таҳдиди нима? Бу саволга адабиётларда: «ахборот таҳдиди - ахборот соҳасида шахс, жамият ва давлатнинг ҳаётий муҳим манфаатларига хавф туғдирувчи шароит ва омиллар йиғиндиси» [3], - деган таъриф берилган бўлиб, уни бир оз такомиллаштирган ҳолда қуйидагича таърифлаш мумкин. Демак, ахборот таҳдиди деб, шахс, элат, миллат, жамият ва давлатнинг ҳаётий муҳим манфаатларига хавф туғдирувчи шароит ва омиллар ҳақида тўпланган, қайта ишланган ҳолда манипуляция шаклида ахборот-коммуникация тизимлари орқали тарқатиладиган кўрқитиш, дўк, пўписа қилишга асосланган хатарли хабарлар йиғиндисига айтилади. Манипуляция” французча manipulation “manipulus” ховуч “manus” кўл сўзларидан олинган бўлиб, ноқонуи“й операция, 1969 йил Нью Йоркда чоп қилинган “Замонавий социология луғати”да эса “бошқаларга билдирмасдан, асл мақсадни яширин тутган ҳолда бошқалар устидан ҳукмронлик қилиб, ўзи истаган хулқ-атворни шакллантириш”, деб таърифланган [4].

Ахборот таҳдидларини қуйидагича таснифлаш мумкин:

1. Таҳдид объектлари бўйича:

- фуқароларнинг ахборот соҳасида амалга оширилувчи конституцион ҳуқуқ ва эркинликларига таҳдидлар;
- жамият маънавий ҳаётига таҳдидлар;
- ахборот инфратузилмасига таҳдидлар;
- ахборот ресурсларига таҳдид.

2. Таҳдид манбаи бўйича:

- ташқи - табиий офатлар, техноген, сиёсий, ижтимоий омиллар, ахборот ва коммуникацион технологиялар, бошқа ташқи таъсирлар билан боғлиқ;
- ички - ҳисоблаш ва коммуникация техникасининг ишдан чиқиши, дастурий таъминотдаги хатолар билан боғлиқ.

3. Таҳдид юзага келишига кўра:

-табiiй (объектив) - инсон ихтиёридан ташқари объектив табiiй жараёнлар ёки табiiй ҳодисаларнинг ахборот муҳитига таъсири натижасида;

-сунъий (субъектив) - инсоннинг ахборот муҳитига таъсири натижасида келиб чиқади.

Сунъий таҳдидлар қуйидагилар билан фарқланади:

-ихтиёрсиз (тасодифий) таҳдидлар - дастурий таъминот, ходимларнинг хатолари, ҳисоблаш ва коммуникация техникасининг ишдан чиқиши ва ҳоказо;

-ихтиёрий (қасддан) таҳдид - ахборотлар базасига ёки маконига рухсатсиз кириш, унинг учун таҳдид қилувчи махсус дастурий таъминотни ишлаб чиқиш, вирусли дастурларни ишлаб чиқиш, тарқаташ ва ҳоказоларни амалга ошириши мумкин. Ихтиёрий таҳдид кишиларнинг ҳаракатларига боғлиқ бўлиб, у ахборотнинг конфиденциаллиги, яхлитлиги ва қулайлигини рухсатсиз бузиш, шунингдек, ресурслардан ўз мақсадларида фойдаланишга қаратилган бўлади.

Таъсир кўрсатиш принципига кўра имкониятдан ва яширин йўллардан фойдаланган ҳолда конфиденциалликни, яхлитликни ҳамда қулайликни бузиш мақсадида амалга оширилиши мумкин. Таъсир характери га кўра у фаол ва суст бўлади. Таъсир этишига кўра ахборот муҳитига умумий таъсир этувчи ва унинг алоҳида элементларига таъсир этувчи таҳдидларга бўлинади [5]. Аниқроғи, «таҳдид» арабча сўз бўлиб дўқ қилиш, кўрқитиш, пўписа; «хуруж» ҳам арабча сўз бўлиб олға чиқиш, отланиш, сўзга чиқиш, тўсатдан ҳужум қилиш деган маъноларни англатади.

Шунга кўра, соддароқ қилиб айтганда ахборот таҳдиди – бу кўрқитишга асосланган зарарли, ўта хатарли хабарларни тарқатиб дўқ қилиш бўлса, ахборот хуружи эса ахборот таҳдиди соҳибларининг ахборот воситалари орқали тўсатдан ҳужум уюштиришлари ҳисобланади. Умуман олганда «ахборот хуружи» тушунчасига қуйидагича таъриф бериш мумкин. Ахборот хуружи бу ўзбек халқининг ички ва ташқи ғанимлари томонидан атайин тўсатдан унинг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий-ҳуқуқий, маънавий маданий ҳаётида юз бераётган ижобий ўзгаришлар, ислохотлар натижасида эришилган марралар, баъзида йўл қўйилган хато ва камчиликлар ҳақида ахборот - коммуникациялари, интернет ва бошқа оммавий ахборот воситалари орқали ишончсиз, ёлғон, уйдирма, одамларнинг онгини заҳарлайдиган ҳар хил маълумотларни тарқатиш учун тўсатдан қилаётган ҳужумидир. Шундай ўта бемаъни ахборотларнинг олдини олиш учун ҳам ахборот хавфсизлигини таъминлаш зарур. Демак, ўзбек халқининг қўлга киритган мустақиллигини мустаҳкамлаш ва ривожлантиришда ахборот хавфсизлигини таъминлашнинг ўрни бекиёсдир.

Ахборот хавфсизлиги тушунчаси XXI асрга келиб ўзгача маъно касб эта бошлади. Унинг бугунги кундаги ўрни ҳақида И.А.Каримов таъкидлаганидек: «Хавфсизлик - узлуксиз ҳолатдир, ҳадсиз - ҳудудсиздир... Ҳар бир минтақада хавфсизликни таъминлаш муаммолари муайян моҳиятга эга. Ҳар бир минтақанинг ўз хусусиятлари, ўз таҳдид манбалари ва хавфсизликни сақлаш омиллари бор» [6]. Юқорида келтирилган «ахборот» ва «хавфсизлик» тушунчаларининг қисқача фалсафий таҳлилларидан келиб чиққан ҳолда «ахборот хавфсизлиги» тушунчасига қуйидагича фалсафий таъриф бериш мумкин.

Ахборот хавфсизлиги бу - муайян шахс, оила, ижтимоий гуруҳ, меҳнат ва хизмат жамоаси, давлат ва жамиятнинг ижтимоийиқтисодий, сиёсий-ҳуқуқий, маънавий-маданий омиллар асосида хавфхатарсиз тарзда нормал фаолият олиб боришлари учун зарур бўлган информацияларни ўрнатилган тартибда сақлаш ва етказиб бериш тизимидир. Ўзбекистонда ахборот хавфсизлигини таъминлаш тизими, бунга:

-Мамлакатимиз мустақиллигини бевосита сақлашга қаратилган, яъни халқимизнинг тарихий макон ва замондаги ўрнини инкор қилувчи ёки бу ҳақдаги тарихий далилларни сохталаштириб, уларни бузиб жаҳон афкор оммасига етказишга уринувчи сохта информациялар оқимидан ҳимояланишни ўз ичига олувчи ҳаққоний маълумотлар тизимини мунтазам равишда ишга солиш;

-глобаллашув шароитида Ўзбекистоннинг иқтисодиёт соҳасидаги эришаётган ютуқларига раҳна солувчи ҳар хил информацион хуружларнинг олдини олиш ва уларга ишончли маълумотлар орқали қакшатқич зарба бериш, яъни бугунги кундаги жаҳон-молиявий инқирози шароитида мамлакатимизда юз бераётган иқтисодий барқарорлик, қолаверса, иқтисодий ўсишнинг сабабларини тушунтириб беришни таъминлаш, уларни сохталаштириб ёки энг ривожланган мамлакатлар билан қиёслаш орқали «Ўзбек модели» ва унинг мантиқий давоми бўлган «Ўзбекистонни янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси» нинг обрўсини туширишга интилаётган ғанимларга қарши информацион ҳужумни уюштириш;

- Мамлакатимиз сиёсий тизимини янада мустаҳкамлаш ва ривожлантиришга, яъни, сиёсий-ҳуқуқий ҳаётни либераллаштиришга, Ўзбекистонда «демократия» йўқ деб, бутун дунёга жар солаётган «сиёсатчи»ларнинг ғоявий хуружлари ва амалий ҳаттиҳаракатларининг олдини олиш ва уларни бадном этиш;

- Ўзбекистонда яшовчи аҳолининг 60% ини ташкил этувчи ёшларни миллий ва мустақиллик ғояси руҳида тарбиялаш, уларнинг онгига миллий мафқуранинг бош ва асосий ғояларини сингдиришга қаратилган, яъни ёшларнинг маънавиятини юксалтириш, ҳар хил мафқуравий хуружларга қарши иммунитетини шакллантириш, «оммавий маданият» унсурлари орқали кўзга кўринмас даражада ўтказилаётган таъсирлар доирасига тушиб қолмаслик учун олиб борилаётган ахборотлар хавфсизлигини таъминлаш ишларини киритиш мумкин.

Ахборот хавфсизлигининг юқорида баён қилинган тизими фуқароларнинг ахборот олиш эркинлигини чекламайди, балки уларнинг бу соҳадаги конституциявий ҳуқуқ ва эркинликларини амалга оширишга хизмат қилади. И.А. Каримов таъкидлаганидек: «Фуқароларнинг ахборот соҳасидаги ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш масаласи инсоннинг ахборот олиш, ахборотни ва ўз шахсий фикрини тарқатиш ҳуқуқи ва эркинлигини ўзида мужассам этган бўлиб, бу Ўзбекистонда демократик жамият асосларини барпо этишнинг муҳим шarti, таъбир жоиз бўлса, тамал тоши ҳисобланади» [7].

Ахборот ва инъикос жараёнининг диалектик алоқадорлиги масаласидаги яна бир жиҳат бу ахборотларда инъикос эттирилган маълумотларнинг хавфсизлигини таъминлаш муаммосидир. Бу хусусда И.А.Каримов: «Айни пайтда жаҳон миқёсида ахборотлаштириш жараёнлари тобора глобаллашиб, бу борадаги рақобат кучайиб бораётган, ахборот наинки товар, балки кучли мафқуравий қуролга айланаётган ҳозирги шиддатли замонда ҳаётнинг ўзи, Ўзбекистон миллий манфаатларини ҳисобга олган ҳолда, бу йўналишда янги-янги вазифаларни олдимизга кескин қилиб қўймоқда» [8], - деган эди.

Демак, ахборот ва унинг хавфсизлигини таъминлаш бу - ғанимларимиз томонидан мамлакатимизга нисбатан қилинаётган ахборот хуружларининг олдини олиш ҳамда уларга нисбатан миллий ахборот воситаларимиз орқали қарши қақшатқич зарба бериш демакдир. Зеро, ахборот хавфсизлигини таъминлаш масаласи мамлакат мустақиллиги ва давлат суверенитетини мустаҳкамлаш воситаси экан, унинг аҳамиятини биринчи навбатда ўқувчи ёшлар орасида тушунтириш, амалиётда қўллаш сирларини ўргатиш борасида мутассадилар қуйидаги ишларни бажаришлари шарт. - интернет тармоғидан мактабда ва уйда фойдаланиш қоидалари рўйхатини тузиш ва унга риоя қилишни талаб этиш;

- интернет тармоғига уланадиган компьютернинг умумий хонада бўлишини таъминлаш;

- ёшлар билан уларнинг интернетдаги дўстлари ҳақида суҳбат қилиш, улар ким эканлиги ҳақида доимий маълумотга эга бўлиш;
- керак бўлмаган контентга блок қўйиш;\
- ёшларни электрон почтада шахсий, яъни хусусий маълумотларни киритмасликка, номаълум хатларга жавоб ёзмастикка ўргатиш;
- интернетдан келиши мумкин бўлган дағдаға ёки кўрқитиш ҳақида маълумот бериб боришга ўргатиш;
- фойдаланадиган сайтлар ҳақида маълумотга эга бўлиш;
- тармоқларда безорилик қилмаслик ёки бошқа инсонларни кўрқитиш учун ишлатмаслик лозим эканлигини тушунтириб бориш кабилардан иборат.

Талаба-ёшларнинг ахборот хавфсизлигини таъминлаш учун қуйидаги ишларни амалга оширишимиз зарур:

1. Ахборот хавфсизлигига тааллуқли педагогик шартларни муваффақиятли амалга ошириш, яъни компьютер хоналарида хавфсизлик ҳудудини ташкил этиш; компьютер хоналарининг ишлаш тартибини тасдиқлаш; Интернет билан ишлашда ёшларга ахборот хавфсизлиги ва уни амалга ошириш бўйича йўлйўриқлар кўрсатиш.

2. Ёшлар ўртасида ахборот хавфсизлиги ҳамда таҳдидлар ҳақида тушунтириш ишларини олиб бориш ва уни бартараф этишни таъминлаш учун таълим-тарбия жараёнини ахборот маданияти, этика, инсонпарварлик ғояларига йўналтириш.

3. Интернет ахборот ресурсларидан олинаётган таълимга тааллуқли маълумотларни филтрлар орқали олиш, Интернетга қўшилган компьютерларда филтр дастурлари ўрнатилган бўлиши шарт. Ана шу ишлар бажарилса, ўқувчи ёшларнинг ахборот хавфсизлиги таъминланади.

АДАБИЁТЛАР (REFERENCES)

1. Каримов И.А. Энг асосий мезон - ҳаёт ҳақиқатини акс эттириш. – Т., Ўзбекистон, 2009. - Б. 5- 6.
2. Расулов А. Глобал жараёнлар ва маънавият. Ўзбекистан матбуоти. – Т., 2008. - №.5-6. - Б.8-9.
3. Президент ёшлар маънавиятини юксалтириш, уларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш бўйича муҳим вазифаларни белгилаб берди. <https://president.uz/uz/2437>
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.2. Е-М. Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. - Б. 538., Миллий истиқлол ғояси. Дарслик. - Т., Академия, 2005. - Б.99.

5. Ёзиева У. Ахборотлар таҳдидидан ҳимояланишнинг педагогик шарт-шароитлари: Монография. - Т., Akadempnashr, 2016 – Б. 25-26
6. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари // Унинг ўзи Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т 6. - Т., Ўзбекистон, 1998. – Б. 37.
7. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси // Унинг ўзи Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т. 19. -Т., Ўзбекистон, 2011. – Б. 71.
8. Каримов И.А. Тошкент ахборот технологиялари университетининг профессор-ўқитувчилари ва талабаларига, бутун жамоасига // Унинг ўзи: Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий кадрият. Т. 14. – Т., Ўзбекистон, 2006. – Б. 53-54.
9. Абилов Ў.М., Худайбердиев А. К. Глобаллашув даврида ахборот таҳдиди, ахборот хуружи ва ахборот хавфсизлигининг фалсафий жиҳатлари ҳақида. *In sarchashmalari*, 2019 йил 9-сон.
10. Атамуратова Ф.С. Соғлиқни сақлашда “адолат” тушунчаси. *BIOETHICS AND MEDICAL LAW Materials of the international scientific and practical conference May 19, 2023.* – Т., 2023. – Б. 97-101.

ТАРИХИЙ-МАДАНИЙ МЕРОС ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ МУАММО СИФАТИДА

Норқулов Дусмурат Ташпулатович

Фалсафа фанлари доктори, Тошкент тиббиёт академияси

Ижтимоий фанлар кафедраси профессори

АННОТАЦИЯ

Мақолада тарихий-маданий бойликни ўрганиш, тадқиқ этишининг айрим гносеологик жиҳатлари, инсон ва жамият ҳаёти билан боғлиқ ижтимоий-фалсафий масалалари муҳокама қилинади.

Калит сўзлар: тарих, тарихий-маданий мерос, маданият, маънавият, жамият, гносеология, артефактлар, бойликлар, ворисийлик, анъана, эномаданият.

ABSTRACT

The article discusses some epistemological aspects of the study of historical and cultural heritage, as well as socio-philosophical issues of the relationship of historical and cultural heritage with the life of man and society.

Key words: history, historical and cultural heritage, culture, spirituality, society, epistemology, artifacts, wealth, succession, traditions, ethnic culture.

КИРИШ

Тарихий-маданий меросга бўлган қизиқиш инсон гносеологик изланишларининг марказида туради. Инсоннинг оламга, ён-атроф ва жамиятга муносабатлари унинг ўтмишга, кекса авлод қолдирган меросга муносабатларининг инъикоси сифатида келади. Масалан, Сукрот ва Платоннинг софистлар ва илк файласуфларга муносабати аввало гносеологик хусусиятга эга. Сукрот “мен билмаслигимни билдим” деганида такаббур софистларга жавоб беради, уларнинг манманлигига муносабат билдиради. “Ота-онангга бетакаллуфингни кўриб кишилар биргаликда сендан нафратланмасин, дўстсиз қолишни истамасанг, кишилар сени ота-онангга бетакаллуфлигингни кўрмасин, агар сен ота-онангни ҳурмат қилмасанг кишилар сенга эзгулик кўрсатмай қўйишлари мумкин” [1; 90 б.]. Бу ўринда Сукрот ота-она деганда кекса авлодни, у яратган ахлоқий меъёрлар ва қадриятларни назарда тутди. Ота-она, унинг назарида, тарихий-маданий мерос субъектлари, уларга муносабат ушбу меросга муносабатдир.

Тарихий меросни эъзозлаш ва уни асраш Шарқ фалсафасида, тафаккури ҳамда турмуш тарзида анъанага, парадигма даражасига кўтарилган. Бу ўринда Конфуций (эр.авв. 551-479 йиллар) қарашлари эътиборлидир.

Конфуций давлат ва жамиятни бошқаришда ўтган авлодлар қолдирган усулларга, ахлоқий нормаларга, шаклланган тарихий анъаналарга таянишни шарт қилиб кўяди. Унинг фикрича урф-одатларга таяниш “олийжаноб эр”даги асосий фазилат. “Урф-адатлардан фойдаланиш кишиларни муросага келтиради. Қадимдаги хукмдорлар усуллари гўзал эди. Улар ўзининг катта ва кичик ишларини урф-одатларга мувофиқ амалга оширганлар” [2; с. 56]. Мутафаккир, урф-одатлар, ота-она, улар мероси инсонсеварликка ўргатади, инсонсевар бўлмай бошқарув билан шуғулланиб бўлмайди, деган фикрни илгари суради. У ижтимоий-ахлоқий идеал сифатида қарайдиган “олийжаноб эр” инсонсевар шахсдир. Конфуцийнинг сиёсий-фалсафий ва ахлоқий қарашлари ушбу “олийжаноб эр”нинг функционал хусусиятларини, бошқалар хулқ-атворида таъсирини очиб беришдек гносеологик мақсадга қаратилган. У давлат ва жамият ишларини бошқарувчи “олийжаноб эр” аввало анъаналарни севиши ва яхши билиши, уларни халққа сингдириши лозим. “Айниқса мутафаккирларнинг “идеал бошқариш” – “жамиятда бошқарув, урф-одатлар ва нарсалар тартиби” (“Ли”) концепцияси жамиятни муҳим, барқарор ривожлантиришга хизмат қилган. Унда бошқаришда, ижтимоий ва шахсий ҳаётда тарихий-маданий анъаналарга, аждодлар тажрибаларига таяниш, жамиятдаги субординация принципларини, стратификация тартибларини сақлаш ғоялари – хизмат, ота ота бўлсин, ўғил-ўғил концепциясининг моҳиятини ташкил этади” [3; 20-21 б.]. Фалсафа фанлари доктори, профессор Ф.Мусаевнинг қайд этишича, Конфуцийнинг сиёсий-фалсафий концепцияси “янги, адолатли жамият қуришга эмас, балки ўтмишни қайта тиклашга, тарихий-маданий тажрибани қайтадан қарор топтиришга қаратилгандир. Бу Конфуцийдаги “историцизм” дир” [4; 18 б.].

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Тарихий-маданий меросга оид илк илмий асарлардан бири Абу Райхон Беруний (973-1048) нинг “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар” асаридир. Унда мутафаккир ўтмишга, тарихий-маданий анъаналарга яхлит воқелик сифатида ёндашади, уларни англашнинг, билишнинг ўзига хос гносеологик методларни яратади. Унинг ўзи ёзади: “Мендан сўралган саволларга олиб келадиган сабабларнинг яқинроғи ўтмиш миллатларнинг ва илгариги даврларнинг воқеаларини билмоқдир. Чунки хабарларнинг аксари ўтмиш миллатларнинг ахволлари, расм ва шариатларининг баёнидан иборат бўлиб, уни билмак ақлий нарсаларга суяниш, сезиладиган нарсаларга солиштириш билангина бўлмай, балки китоб аҳллари ва турли раъй эгаларига

асосланишни талаб қилади. Тарих исботида уларнинг сўз ва раъйларини бир-бирларига солиштириш керак бўлади” [5; 77 б].

Бу ўринда Беруний гносеологик аҳамиятга эга илмий билиш методларини кўрсатиб ўтади. Уларга тарихий воқеалар (фактлар), расм-русумлар, шариат тажрибаларини билиш, рационалга таяниш, ходисаларни, артефактларни бир-бирларига солиштириш, китобларни ўқиш, ўрганиш, халқлар тафаккурига асосланиш кабилар киради. Мазкур методлар гносеологияда ҳануз устувордир. Айниқса тарихий-маданий меросни тадқиқ этганда тажрибалар ва рационалга таяниш уйғун келиши зарур, ҳар қандай ўтмишга оид тажриба, артефакт ва қараш рационаллик талабларига мувофиқ келаганида илмий фалсафани бойитади, унга янгилик қўшади.

Тарихий-маданий мерос бизнинг ўтмишга боғлиқлигимизни, янги авлод мудом олдинги авлодлар қолдирган бойликларга, анъналарга ва ҳаёт тарзига асосланишини ифодалайди. Фридрих Ницше (1844-1900) “биз ўтмишга занжирбандмиз, биз қаерга чопсак, тарих занжири биз билан бирга чопади” [6; С.161], деганида инсон яратган маънавий бойликлар ўтмиш руҳидан униб чиқишини назарда тутди. Инсон тарихга “занжирбанд” бўлиб янги нарса яратади. И.Ньютондан, сиз бутун олам тортишиш қонунига қандай етгансиз, деб сўрашганида, чунки мен буюклар елкасида ўтиргандим, деб жавоб берган экан.

Тарихий-маданий меросни билиш гносеологик тажриба поғонасида қолиши мумкин эмас, у ижтимоий ҳаётнинг туб қонунларини, ривожланиш талабларини англаш орқали шахсда маълум бир фаолликни шакллантириши, уни фаол субъектга айлантириши лозим. Билиш “ўзи ўзи учун” поғонасида қололмайди, ижтимоий борлиқни такомиллаштириш ҳар қандай билиш жараёнининг пировард натижасидир. “Инсоннинг оламини, ижтимоий борлиқни билишга бўлган қизиқишини фақат субъектив воқелик, зарурат деб ҳисобламаслик зарур. Тўғри, билиш мудом субъектив хусусиятга эга сенситив, аффектив жараёндир: инсон ҳис-туйғулари орқалигина билишга эришади ... Шунинг учун ўтмиш ҳақида билимлар бир томондан, тарихнинг ижтимоий воқелик сифатида авлодлар онгида, ҳаёт тарзида, келажагини яратишда муҳим роль ўйнайдиган омил, бундай, ҳатто субъектив характерга эга бўлса-да, омил эволюцион тараққиётни таъминлаш учун зарур. Иккинчи томондан, тарих “ўзи ўзи учун” мавжуд эмас. Тарихий ҳақиқатни билишда шахс маълум бир абстракцияларга берилади, ҳаёлий моделлар ва гипотезалар яратади. Лекин улар абстракция тарзида қолиб кетмайди, шахснинг нафақат тарихга, ўтмишдаги воқеа ва ходисаларга муносабатини, шу билан бирга мавжуд

тарихий-маданий тажрибаларни ўзлаштиришга, улардан фойдаланишга, шу асосда ўзи янги тарихий макон ва ижтимоий муҳит яратиб, жамият тараққиётига хизмат қилишига қанчалик тайёр эканлигини ҳам билдиради” [7; 11-12 б.]. Мазкур фикрлардан аён бўладики, тарихий-маданий меросни билиш, ўрганиш, Фридрих Ницше айтганидек, “бизга ҳаёт ва фаолият” учун зарур. “Биз тарихга қандай хизмат қилсак, у ҳам бизга шундай хизмат қилади” [6; С.159]. Янги ижтимоий макон, инсон ва жамиятнинг туб мақсадларига мос келадиган жамият, тузум барпо этиш ана шу ўрганиш пировард натижаси, мезони ҳисобланади.

Ўзбекистонда тарихий-маданий меросни ўрганиш, асраш ва уни жамият тараққиёти манфаатларига хизмат қилдириш давлат сиёсати даражасидаги вазифадир. Мутақилликнинг илк кунларидаёқ Ўзбекистон ўз тараққиётини тарихий-маданий меросни қайта тиклаш, миллий давлатчилик анъаналарига таяниш, умуминсоний қадриятлар устуворлигини эътироф этган ҳолда маънавий-ахлоқий янгиланиш билан боғлади. Тарихийлик ва ворисийлик анъаналари негизида янги, мустақил, демократик, ҳуқуқий давлат қуриш стратегик мақсадга айланди.

Тарихий-маданий мерос кенг қамровли, ижтимоий ҳаётнинг барча соҳаларига тааллуқли ҳодисадир. Халқ, миллат маънавиятига, ўтмишига, маданий артефактларига оид барча нарсалар, предмет ва қарашлар ретроспектив ёндашиш объекти сифатида қаралиши мумкин. Шундай экан, тарихий-маданий меросда биздан илгари яшаган авлодларнинг ижодий, ахлоқий, маданий бойликлари мужассамдир. Ижтимоий-фалсафий ёндашув нуқтаи назардан улар:

- ижтимоий-амалий тажрибалар;
- шаклланган қадриятлар;
- авлодлараро муносабатларда асраб, бир бирига ўтиб келаётган дунёқарашлар, тасаввурлар;
- тармуш тарзидан жой олган этноанъаналар кибилар сифатида ўрганилиши мумкин.

Маълумки, тарихий-маданий меросга халқ, миллат ҳаётидан жой олган ижтимоий-амалий тажрибалар муҳим ўрин эгаллайди. Бундай тажрибалар боис авлодлар ўртасида алоқалар сақланади ва мустаҳкамланади. Масалан, ўзбек халқи бошқа халқлар ва ўлкалар билан савдо-сотик, иқтисодий алоқаларга киришиб яшашнинг ўзига хос ижтимоий-амалий тажрибаларига эга. Бу тажрибалар натижасида иқтисодий тафаккурнинг ўзига хос тарихи, йўналишлари, ҳатто ҳозирги бозор иқтисодиётининг шаклланишига хизмат

қилган усуллари, концепциялари вужудга келди. Профессор А.Раззоқовнинг ёзишича, ўлкамизда “нодир иқтисодий ғоялар ва фикрлар шакллانган, донишмандлар ва давлат арбоблари бозор иқтисодиётининг муҳим қонун-қоидалари тўғрисида яхши тасаввурга эга бўлганлар, шу асосда иқтисодий сиёсат юргизганлар. Меҳнатнинг бойлик асоси эканлиги, эҳтиёж туфайли фаолият юритиш, меҳнат тақсимооти ва унинг аҳамияти, баҳо ва унинг бозор билан чамбарчас боғлиқлиги, пулнинг вазифалари ва иқтисодиётдаги ўрни, эркин иқтисодий фаолият, солиқлар тизими, судхўрлик, ижара тизими, ер-сув муносабатлари, савдо-сотикнинг аҳамияти, айниқса, хусусий мулкнинг муқаддаслиги, давлатнинг иқтисодиётдаги ўрни, бошқариш тизими яхши тушунилган ва кучли давлат бўлиши кераклиги тарғиб этилган” [8; 240 б.]. Бундай ижтимоий-амалий тажриба тарихий-маданий меросга кенг, ижтимоий-фалсафий ёндашиш имконини беради.

Шаклланган кадриятлар деганда инсон ва жамият ҳаётида эъзозланадиган, кишилар сўзсиз қабул қиладиган, ижтимоий аҳамиятга эга нормалар, идеаллар, қарашлар, урф-одатлар назарда тутилади. Бундай кадриятлар халқ, миллат ҳаётининг, турмушининг ядросини ташкил этади ва этномаданий бойлик сифатида қаралади. Фалсафа фанлари доктори О.Нишонovanнинг ёзишича “этномаданият халқ, миллат яратган моддий ва маънавий бойликларнинг, кадриятлар, артефактлар ва оламни бадий-эстетик идрок этишга қаратилган гносеологик изланишлар ҳамда тажрибаларнинг ўзак қисми, ядросидир. Миллий маданият, мерос мудом ушбу ўзакка, ядрога қурилган, улар орқали миллий хусусият, шакл ва мазмун касб этган” [9; 3 б.]. Демак, тарихий-маданий мерос тизимида халқ, миллат томонидан эъзозланадиган, шакллантирилган кадриятлар марказий ўрин эгаллайди, бу борадаги ҳар қандай тақдимот уларнинг ўрнини, аҳамиятини очиб бериши зарур.

Тарихий-маданий мерос мавҳум нарса эмас, у мудом аниқ халқ, миллат анъаналарини назарда тутати. Этноанъаналари йўқ халқ, миллат учрамайди, бироқ гап уларни асрашда, маънавий-маданий тараққиётга йўналтиришдадир.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг ташаббуси ва сайъ-ҳаракатлари туфайли этноанъаналаримиздан унумли фойдаланиш ва уларни жаҳонга ёйиш мақсадида кўп ишлар амалга оширилмоқда. Президентимизнинг “Шарқ тароналари” халқаро мусиқа фестивалини ўтказишга тайёргарлик кўриш чора-тадбирлари тўғрисида (2019 йил 26 февраль), “II Халқаро мақом санъати анжуманини ўтказишга тайёргарлик кўриш чора-тадбирлари тўғрисида” (2019 йил 26 февраль), “Халқаро хунармандчилик фестивалини ўтказиб боришга оид чора-тадбирлар тўғрисида”

(2019 йил 3 октябрь), “Ўзбекистон Республикасида заргарлик тармоғини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” (2019 йил 18 май), “Халқаро бахшичилик санъати фестивалини ўтказиш тўғрисида” (2018 йил 1 ноябрь) каби Фармон ва Қарорларида тарихий-маданий меросга мутлоқ янгича ёндашиш кўзга ташланади. Уларда тарихий-маданий мерос “ноёб ва буюк санъат”, “тенгсиз маънавий бойлик” экани таъкидланади. “Мана шундай ноёб ва буюк санъат – дейди афсус билан Ш.М.Мирзиёев, - бугунги кунда шунчаки маданий ёдгорлик намунасига айланиб, кўп жойларда унутилиб кетаётгани, ҳимоя ва муҳофазага муҳтож бўлиб тургани – бу ҳам давримизнинг аччиқ ҳақиқатидир. Шу сабабли тенгсиз маънавий бойлигимиз бўлмиш мумтоз бахшичилик санъатини, халқ ижодининг нодир намуналарини асраб-авайлаш ва ривожлантириш, уни келгуси авлодларга безавол ўтказиш жаҳондаги илғор фикрли олимлар ва санъаткорларнинг, шунингдек, давлат ва жамоат арбоблари, барча маданият аҳлининг бурчидир” [10].

Давлатимиз раҳбари бохшичилик санъатини халқаро миқёсда тарғиб этиш, асраш тарафдори. Фестивалда 80 та давлатдан 300 дан зиёд иштирокчи, ижодкор қатнашиш иштиёқини билдирган, 58 нафари ўз репертуари билан иштирок этган. Илмий-амалий конференцияда эса 18 та давлатдан 45 нафар хориж олимлари, мутахассислари қатнашган, маъруза ўқиган. Муҳими шундаки, мазкур Халқаро фестивал ЮНЕСКО томонидан қўллаб-қувватланган.

ХУЛОСА

Хуллас, тарихий-маданий мерос фақат ворисийлик функциясини бажармайди, у халқаро маданий алоқаларни мустаҳкамлаш, халқ, миллат ҳақида объектив фикрларни шакллантириш, ёшларда ўтмишга, ота-бобларимиздан қолган бойликларга ҳурмат туйғусини уйғотиш, инсонда яратишга, ижод қилишга ва бадиий-эстетик изланишлари билан миллий маданиятни юксалтиришга муносиб ҳисса қўшиш истагини ҳам тарбиялайди. Тарихий-маданий меросдаги ижтимоий-фалсафий моҳият ҳам шундадир.

АДАБИЁТЛАР (REFERENCES)

1. Энциклопедия афоризмов. Античность. Древняя Индия. Древний Китай. Библия. – Минск, Современ. литератор., 1999.
2. Мудрецы поднебесной. – Симферополь, Реноме, 1998.
3. Агзамходжаева С. Ижтимоий идеал ва маънавий ҳаёт. – Тошкент, Фалсафа ва ҳуқуқ, 2007.
4. Мусаев Ф. Демократик давлат куришнинг фалсафий-ҳуқуқий асослари. – Тошкент, O`zbekiston, 2007.

5. Ўзбекистонда прогрессив ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихига доир материаллар. – Тошкент, Фан, 1959.
6. Ницше Ф. Сочинения в двух томах. Т.1. – Москва, Мысль, 1990.
7. Алимасов В.А., Ходжаева Б.Х. Ижтимоий-маънавий тараққиётда тарихий шахсларнинг роли. – Тошкент, Fan va texnologiya, 2016.
8. Раззоқов А. Иқтисодий тафаккур сарчашмалари. – Тошкент, O`zbekiston, 2011.
9. Нишонова О. Ўзбек этномаданиятининг эстетик моҳияти. – Тошкент, Фан, 2013.
10. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқаро бахшичилик санъати фестивали очилишига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи// Халқ сўзи, 2020 йил 7 апрель.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЕ АБУ НАСР АЛЬ-ФАРАБИ

Норимбетов Т.Б.

к.психол.н. доц. Каф. «Социально-гуманитарных наук и физически воспитание» АФ.ТГТУ им И.А.Каримова.

Норимбетова Н.Т.

Преп. Каф.«Пед. и психол общ образования» IUY.

АННОТАЦИЯ

Фараби является выдающим мыслителем раннего средневековья. Он еще при жизни получил прозвание «Второй учитель». Нет почти ни одной отрасли знания, в которой бы он не оставил глубоких суждений, метких наблюдений и гениальных догадок. Фараби является автором ряда специальных трактатов по психологии: «Трактат о сущности души», «Слово о сновидении», «О душе», «О силе души», «Ум и понятие», «Слово об уме взрослых», «Слово об уме юных», «О темпераменте» и др. Психологические идеи великого мыслителя содержатся также в многочисленных его произведениях, прямо не связанных с психологией.

Ключевые слова: *Аристотелизм, Муалими сони, Идеализм, Материализм, Теология, Душа и тело, Ал куууат ал-мухаррина, Ал кууут ал-газийя, Ал куууат ал-хасса, Ал-куууат ан-нузуийя, Ал-куууат ан-натика, Ан нафс ал инсанийя, Акциденции, Субстанции, Формирование моральных качеств, усвоение знаний, умения и навыков,*

АННОТАЦИЯ

Фаробий ўрта асрлардаги буюк мутафаккурлардан бири ҳисобланади. У ўз даврида “Иккинчи муаллим”, «Муалимис соний»(Арастудан сўнг) даражасига еришган мутафаккурдир. Ўз даврида билимларнинг ҳамма соҳасида кузатишлар олиб борган ва уларнинг ечимларини тақдим этган уламодир. Унинг психологияга оид асарлари “Рух ҳақида трактат”, “Туш кўриш ҳақида”, “Жон ҳақида”, “Рух кучи ҳақида”, “Ақл ва тушунча”, “Катталар ақли ҳақида фикрлар”, “Ўсмирлар ақли ҳақида фикрлар”, “Темперамент ҳақида” ва бошқа ва психологияга оид бўлмаган илмий ишларида психологияга оид фикрлар баён қилинган.

Калит сўзлар: *Аристотелизм, Муалими сони, Идеализм, Материализм, Илоҳиёт, Рух ва тана, Ал куууат ал-мухаррина, Ал кууут ал-газийя, Ал куууат ал-хасса, Ал-куууат ан-нузуийя, Ал-куууат ан-натика, Ан нафс ал инсония, Бахтсиз ҳодисалар, Моддалар, Ахлоқий фазилатларни шакллантириш, билим, кўникма ва малакаларни эгаллаш,*

ВВЕДЕНИЕ

Мировая общественность готовится торжественно отметить 1150-летие со дня рождения одного из величайших мыслителей Востока, ученого-энциклопедиста Абу Наср ибн Мухаммед аль-Фараби (873-953). Выходец из тюркской племени, преемником которого является народы Центральной Азии, Фараби был одним из выдающихся мыслителей раннего средневековья, оказавших огромное влияние на духовную культуру народов Центральной Азии и народов всего мира. Возвысив арабский аристотелизм до определенной философской системы, он еще при жизни получил прозвание «Второй учитель» или «Муалими сони» (второй учитель - после Аристотеля). Нет почти ни одной отрасли знания, в которой бы он не оставил глубоких суждений, метких наблюдений и гениальных догадок.

Еще молодым аль-Фараби, руководимый жаждой знаний, отправился в страны арабского халифата. Умер в возрасте 80 лет в Дамаске (Сирия). Город Фараб стал позже именоваться Отраром; развалины его сохранились на территории нынешнего Туркестанской области республики Казахстана. Находясь на стыке важнейших караванных путей, Фараб в то время был крупным культурным центром. В нем имелась огромная библиотека, по числу книг уступавшая лишь Александрийской.

Мировоззрение Фараби о психологии, в целом являясь идеалистическим, в то же время содержит ряд материалистических идей, тесно связанных с достижениями древнего и средневекового естествознания. Аль-Фараби был твердо убежден в необходимости изучать светские науки, освободив их от влияния теологии. Он признавал вечность мира, исходил из детерминистического принципа в объяснении явлений природы, отрицал бессмертие души. Особенно ярко материалистические идеи аль-Фараби проявились в взглядах на материю, в подходах к объяснению отдельных сторон психической жизни человека.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ

О творчестве Фараби написано много работ. Несмотря на это, наследие аль-Фараби изучено далеко недостаточно. Особенно это касается его психологических взглядов. Фараби является автором ряда специальных трактатов по психологии: «Трактат о сущности души», «Слово о сновидении», «О душе», «О силе души», «Ум и понятие», «Слово об уме взрослых», «Слово об уме юных», «О темпераменте» и др. Психологические идеи великого мыслителя содержатся также в многочисленных его произведениях, прямо не связанных с психологией. В этой связи большой интерес представляют такие труды Фараби, как «Трактат о взглядах жителей добродетельного города», «Существо вопросов», «О сущности

разума», «О происхождении наук», «Основы мудрости» а др. В этих указанных трудах Фараби много внимания уделяет проблеме души и тела. Так в книге «Существо вопросов» он выступает против учения Платона о душе, считая, что Платон заблуждается, когда объявляет душу первичной и, предшествующей телу. «Душа,-пишет Фараби,-не может, существовать раньше тела, как это утверждает Платон». По мнению Фараби, душа рождается одновременно с телом, не может быть две души в одном. Телу и душе не может переселяться из одного тела в другое. Индивид преходящее, смертен. Состояние тела влияет на состояние души. Для сохранения нормального состояния души и выполнения ею своих функций необходимо здоровое тело. За высказанную мысль о зависимости души от тела Фараби не раз подвергался преследованию со стороны духовенства, которое обвиняло его в безбожии и неверии в бессмертие души, в загробную жизнь.

Конечно, взгляды Фараби о связи души и тела были непоследовательны и противоречивы. Так, иногда он утверждал, что, хотя тело разлагается, душа не исчезает, она уходит в вечность и никогда не возвращается и не перевоплощается. Покидая тело человека, душа объединяется с такими же другими душами, объединяется и все духовное, приобретенное ими, составляя мировую душу. Весьма своеобразна его мысль о том, что бессмертны души добродетельных к сведущих людей, тогда как души людей, невежественных смертны.

Как известно, учение Аристотеля о душе оказало большое влияние на последующие решения этой проблемы. Аристотель трактовал душу, как материальное начало, имеющее определенное местонахождение в теле, а именно в сердце, которое сообщает теплоту крови, питающую «жизненный дух» организма. Аль-Фараби в вопросе о душе находился под влиянием Аристотеля. Чувствуется, что он прекрасно знал произведение Аристотеля «О душе» и применял его без каких бы то ни было неоплатоновских наслоений. По мнению Фараби, вся живая природа наделена душой. Душа делится на движущую (ал кууат ал-мухаррина) и познающую силу. Движущие душевные силы присущи всей живой природе (растения, животные, люди), все они имеют способность к движению. Познающие же силы имеются только у людей и животных, которые способны отражать в мозгу окружающий мир. Растения не имеют такой способности, поэтому они не входят в эту группу.

Человек, считает Фараби, овладевает прежде всего питающей силой (ал кууат ал-газийя), под которой он подразумевает телесное строение организма. Люди имеют также душевную силу, которая делится в свою очередь на два вида. Первую из них он называет «внешней душевной силой» или «силой ощущений» (ал кууат ал-хасса), которая возникает при непосредственном воздействии

внешних предметов на органы чувств (осязание, вкус, слух, зрение, обоняние). К «внутренней душевной силе» относятся сила воображения (ал кууат ал-мутахаййила) (память, представление, воображение), стремящаяся или побуждающая сила (ал-кууат ан-нузуийа) и разумная или мыслящая (ал-кууат ан-натика) сила. Центром человеческой души (ан нафс ал инсанийа) Фараби считает не мозг, а сердце. Сердце является главным органом, который не управляется никаким другим органом тела. Затем идет мозг. Он также главный орган, но господство его является не первичным, а вторичным, потому что, управляя всеми другими органами, он сам управляется сердцем. В мозгу аль-Фараби выделял отдельные центры. «Посредством одной из своих частей (мозг) уравнивает (теплоту), способствующую воображению; посредством другой -то, что способствует мышлению; и (наконец) посредством третьей-то, что способствует сохранению в памяти и воспоминания». Дифференцируя нервы по выполняемой ими функции, аль-Фараби различал нервы двух видов: чувственные и двигательные. По-видимому, он знал о существовании нервных узлов в сердце и спинном мозге, именно этим можно объяснить его слова в «Трактате о взглядах жителей добродетельного города»: «Многие из этих нервов имеют в самом сердце корни, посредством которых они черпают из мозга то, что сохраняет их силы. Многие другие корни берут начало в спинном мозгу, верхняя часть которого связана с (головным) мозгом».

По мнению аль-Фараби, процесс познания имеет две ступени: ощущение и мышление, которые отображают различные стороны объектов: первое отображает их внешние, изменчивые свойства (акциденции), второе-существо предметов (субстанция). Признавая две ступени познания, он не обращался к практике, но был противником скептицизма и агностицизма. Здесь ярко проявляется связь его воззрения с успехами естественнонаучной мысли той эпохи, материалистические тенденции его философских взглядов. Опираясь в своем учении на аристотелизм, аль-Фараби придерживается мнения о полной возможности познания человеком внешнего мира. Преимущества человека перед животными аль-Фараби видит в том, что человек, в отличие от других животных, обладает особыми душевными способностями, высшей формой которых является речь и разум.

Для современной молодежи облик самого Фараби может стать образцом для подражания. С каким усердием и терпением изучал он труды своего духовного отца Аристотеля. Согласно преданиям, Фараби прочитал книгу Аристотеля «О душе» — сто раз, «Естественно гармонию» — сорок, «Риторику» — двести раз, знал более 70 языков; обладал высокими человеческими достоинствами: довольствовался малым, не прельщался богатствами, не искал

высоких должностей, был скромен и прост в быту и в обращении с людьми, при первой же возможности был готов оказать им помощь. Ученый твердил, что формирование моральных качеств, усвоение знаний, навыков владения различными ремеслами достигается кропотливым трудом, огромным усилием воли, через обучение, воспитание и самовоспитание. После приобретения определенных знаний и овладения ремеслом постепенно совершенствуется инициатива, затем молодежь овладевает привычками к логическому мышлению во всех теоретических знаниях. В таком же порядке происходит и процесс совершенствования знания у детей. Привычки и навыки у учащихся образуются при помощи направляющих и вдохновляющих слов учителя. Слово, по мнению Фараби, следует обращать к тем людям, которые изучают науки и овладевают профессией по своему желанию, а по отношению к непослушным, упрямым людям, необходимо принуждение. Это качество Фараби должен осваивать современный молодежь т.к. только своим трудом можно достичь поставленной перед собой цели.

ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ ЛИТЕРАТУРА (REFERENCES)

1. Аль-Фараби. Философские трактаты. Алма-Ата, «Наука», 1970.
2. Аль-Фараби. Комментарии к трудностям в ведении к первой и пятой книгам Евклида. «Вопросы востоковедения», 1959, № 4.
3. Т.Б.Норимбетов. Абу Носир Фаробийнинг таълим-тарбия ва касб-хунар ҳақидаги фикрлари. УзДЖТУнинг “XXI аср интеллектуал салоҳият асри” номли Республика илмий – методик анжуманида 7- қисм 2019й
4. Т.Б.Норимбетов. Tasavvufda komilinson masalasi. (Milliy va ma’naviy qadryatlarning yuksalishida ayollarning o‘rni) Toshkent Islom Universitetining maqolalar to‘plami TIU nashiryoti 2016-yil. 312- bet.
5. Т.Б.Норимбетов. Шарқ алломалари асарларида билимга қизиқишни шакллантиришда оиланинг ўрни ҳақидаги фикрлари. Тошвил “Оила” маркази илмий-амалий конференция. 2018й. 262-265 бетлар.
6. Расулов, Х. М. (2020). Шарқ ва ғарб: сиёсий ва ҳуқуқий маданият компонентлари уйғунлиги. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, (SI-1№ 3).
7. Расулов, Ҳ. (2022). Сиёсат–маданият, ҳодиса ва фан сифатида. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(7), 691-702.
8. Mamanovich, R. H. (2021). Civil Society: Prosperities of Decentralization in Management. *Middle European Scientific Bulletin*, 18, 359-362.
9. Mamanovich, R. H. (2022). The mass media as a subject of political and legal propaganda. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(10), 122-128.

JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISH JARAYONLARI VA UNING AHAMIYATLI JIHATLARI

Xo'janiyazov Amirbek

Toshkent davlat Yuridik universiteti

“Xalqaro tijorat” yo‘nalishi magistranti.

Email: khujaniyazovamirbek@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Jahon savdo tashkilotiga a'zolik jarayonlari, uning tartib taomillari va a'zolik uchun harakat qilayotgan davlatlardan talab qilinadigan vazifalar yoritilgan. Bundan tashqari maqolada a'zo bo'lishdagi davlatlarning a'zolik maqomlari (status) va ularga beriladigan qo'shimcha muddatlar, kotibiyat tomonidan ko'rsatiladigan yordamlar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: *A'zolik qo'mitasi, kotibiyat, LAP, tariflar, notarif, ko'p tomonlama, ikki tomonlama kelishuvlar, GATT, GATS, konsensus, ishchi guruh, implementatsiya, memorandum.*

ABSTRACT

The article delves into the intricate processes of World Trade Organization (WTO) membership, exploring the associated procedures and responsibilities incumbent upon member states. It also sheds light on the various membership statuses and the additional terms granted to states in the process, elucidating the supportive role played by the WTO secretariat in facilitating these dynamics.

Key words: *Accession comitee, Secretary, LAP, tariffs, non-tariff, bilateral agreements, multilateral agreements, GATT, GATS, consensus, working party, implementation, memorandum.*

KIRISH

Hozirgi kunda davlatimiz oldida turgan istiqbolli maqsadlardan biri bu Jahon savdo tashkilotiga (JST keying o'rinlarda) a'zo bo'lishdir. Ushbu maqolada JST ga a'zo bo'lish tartib taomillari va undan kutiladigan natijalar haqida qisqacha ma'lumot beramiz.

Jahon savdo tashkiloti 1995-yil 1-yanvarda Marokash kelishuvi bilan tuziladi, bungacha JST “GATT” ya'ni “ing,-Savdo va tariflar bo'yicha bosh kelishuvi” tarzida faoliyat yuritgan. JST tuzilgan vaqtda uning 128 ta a'zosi mavjud bo'lgan va hozirga kelib a'zolar soni 143 taga yetgan.

JST ga a'zolik jarayoni shunday jarayonki unda, JST a'zolari va a'zolikka harakat qilayotgan davlatlar o'rtasida muzokaralar amalga oshiriladi. Bu jarayoning

asosiy maqsadi shundaki, a'zolik uchun harakat qilayotgan davlatning qonunchiligi va siyosati JST qoidalariga uyg'unlashtirilishi kerak va davlat a'zolikka erishganida to'liq JST qoidalarida savdo munosabatlari va boshqa mutanosib sohalarda faoliyatni tartibga solishi kerak. Savol tug'ilish tabiiy hol nimaga davlatlar JST ga a'zo bo'lish uchun harakat qilishadi. Bunga birqancha sabablar bor, bular:

- a) Xalqaro bozorga kirish imkoniyatlarining o'sishi;
- b) Mahalliy institutsional strukturalarda islohatlar bo'lishi;
- c) Savdo va xizmatlar sohasida shaffof va pragnozlash imkoniyatini beruvchi qoidalar shakllanishi;
- d) Xalqaro savdo munosabatlarida va qoidalarida o'z so'ziga ega bo'lish;
- e) Xalqaro bozorda hamkorlik imkoniyatlarining kengayishi;
- f) Proteksionistik tendensiyalarning liberallashuvi.

Maqola maqsadidan uzoqlashmagan holda a'zolik jarayonini yoritishga harakat qilamiz. Marokash kelishuvining XII moddasi ya'ni a'zolikka nisbatan talablarni belgilovchi norma bo'lib, ko'pincha XII modda asosida JST ga a'zo bo'lgan davlatlar "XII modda a'zolari" deb yuritiladi. Marokash kelishuvi XII moddasiga ko'ra, *Istalgan davlat, yoki o'z tashqi savdo aloqalarini belgilashda to'liq avtonomiyaga ega bo'lgan alohida bojxona hududi Marokash kelishuvi bo'yicha va uning tartib qoidalariga asosan JST ga a'zo bo'lishi mumkin. JST ga a'zolik Vazirlar konferensiyasi tomonidan konsensus asosida (yoki ko'pchilik ovozi 3/2) belgilanadi. Ko'p tomonlama savdo shartnomasiga qo'shilish Marokash kelishuvi qoidalarini bilan tartibga solinadi.*

Marokash kelishuvi XII moddasi a'zolik tartibini tushunishdagi asosiy norma hisoblanadi shu sababli unda belgilangan asosiy prinsiplarni quyida ko'rib chiqamiz.



Davlat yoki alohida bojxona hududi.

Marokash kelishuviga ko'ra, har bir suverenitetga ega bo'lgan davlat JSTga a'zo bo'lishi mumkinligi keltirilgan shu jumladan, suveren davlatlardan tashkil topgan xalqaro tashkilot va ittifoqlar ham unga a'zo bo'lishi mumkin. Ammo Marokash kelishuvi XII moddasi to'liq suverenitetga ega bo'lmagan savdo hamkorlariga ham

a'zo bo'lish imkoniyatini yaratadi, lekin ularga nisbatan quyidagi ikkita talabni belgilaydi:

1. Ular alohida bojxona hududlari bo'lishi kerak;
2. Tashqi savdo munosabatlarida to'liq avtonomiyaga ega bo'lishlari zarur.

Alohida bojxona hududlari ham boshqa a'zo suveren davlatlar kabi huquq va majburiyatlarga ega bo'lishadi. Masalan, Tayvan alohida bojxona hududi, Penghu, Kinmen va Matsu (Xitoy Taypeyi) 2002-yil 1-yanvardan buyon JST a'zosi hisoblanadi.

Kelishiladigan shartlar.

Marokash kelishuvi XII moddasi a'zolik uchun majburiy kelishiladigan shartlarni belgilamaydi bunga asosiy sababi, a'zolik uchun moslashuvchanlikni ta'minlashdir. Chunki har bir davlat o'zgacha geografik joylashuv, siyosat va savdo tartib qoidalariga ega, shu sababdan kelishuvlar shundan kelib chiqqan holda har bir davlatga nisbatan alohida amalga oshiriladi. Kelishuvlar ketma-ketlikda qo'shilayogan davlatning institusional va savdo siyosatidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Vazirlar konferensiyasi.

Tashkilotga a'zolik to'g'risidagi qarorlar Vazirlar konferensiyasi tomonidan qabul qilinadi. Vazirlar konferensiyasi tashkilotning qaror qabul qiluvchi organi hisoblanadi. U JST funksiyalarini bajaradi va buning uchun zarur bo'lgan harakatlarni amalga oshiradi. Vazirlar konferensiyasi barcha a'zolarining vakillaridan iborat bo'lib, kamida ikki yilda bir marta yig'iladi. Qo'shilish to'g'risidagi qarorlarni Vazirlar konferensiyasi yig'ilishlari oralig'ida JSTning barcha masalalari bo'yicha Vazirlar konferensiyasi nomidan ishlaydigan Bosh Kengash ham qabul qilishi mumkin. Bosh Kengash, shuningdek, JSTning barcha a'zolari vakillaridan iborat bo'ladi.

Konsensus.

Konsensus tushunchasi ishtirokchilarning to'liq ovoz berish, barchaning bir qarorga kelishini anglatadi, bitta ishtirokchi ovoz bermagan bo'lsa ham konsensus o'tmagan hisoblanadi. Marokash kelishuvining XII moddasiga ko'ra Vazirlar konferensiyasi ko'pchilik ovozi, ya'ni vazirlarning uchdan ikki qismining ovozi bilan qaror qabul qilinishi mumkin. Ammo ko'pchilik ovozi bilan qaror qabul qilish konsensusga erishilmaganda va a'zolikning so'ngi bosqichida qo'llanilishi mumkin va bunday usuldan JST tuzilgandan buyon bir marta foydalanilgan, ya'ni 1996-yilda Ekuadorni a'zolikka qabul qilish jarayonida. Asosan barcha qarorlar Kelishuvning IX moddasida belgilangan tartibda konsensus orqali amalga oshiriladi.

Majburiyatlarni to'liq qabul qilish (Single undertaking).

Bu prinsipga ko‘ra JSTning barcha xalqaro shartnomalari bir-biri bilan bog‘langan va JSTga a‘zo bo‘lgan subyekt shartnomalarning barchasini qabul qilishi shart, ya‘ni unda ba‘zi shartnomalarni qabul qilishi va ba‘zilarni rad qilish huquqi mavjud emas. Ammo JST da “Plurilateral” o‘zaro shartnomalar ham mavjud bo‘lib, ularga qo‘shilish barcha uchun majburiy hisoblanmaydi. Bularga misol qilib, quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. Fuqaro aviatsiya savdosi bo‘yicha kelishuv (The Agreement on Trade in Civil Aircraft);
2. Davlat xaridlar to‘g‘risida kelishuv (The Agreement on Government Procurement);
3. Axborot texnologiyalar bo‘yicha kelishuv (The Information and Technology Agreement).


Yuqorida XII modda haqida tushnchaga ega bo‘ldik, endi JST ga a‘zo bo‘lish jarayonini uch bosqichda ko‘rib chiqamiz.

1. **A‘zolik uchun JST ga so‘rov (xat);**
2. **A‘zolik uchun kelishuvlar jarayoni;**
3. **So‘ngi bosqich bosqichi: JSTga A‘zo bo‘lish shartlarini tasdiqlash va a‘zolik protokolini qabul qilish va uni ratifikatsiya qilish.**

A‘zolik uchun JST ga so‘rov yuborish, a‘zolik uchun tashlangan ilk qadam hisoblanadi, bu bosqichni ham shartli ravishda to‘rtta jarayonga ajrtish mumkin.



JST ga a‘zo bo‘lishni xohlagan davlat bu haqida JST bosh direktoriga davlatning tashkilotga qo‘shilish istagini ifodalaydigan xat yuborishi kerak. Bu xat uchun alohida talablar mavjud emas, u sodda tilda yozilishi ham mumkin. Xatda Marokash kelishuvining XII moddasi asosida JST ga qo‘shilish istagi ifodalanishi yetarli bo‘ladi. Misol sifatida Afg‘oniston Islom Respublikasi tomonidan yuborilgan xatni ko‘rsatishimiz mumkin.



Davlatlar JST ga qo‘shilishdan oldin, kuzatuvchi maqomida kirishni so‘rashlari mumkin, kuzatuvchi sifatida kirishdan asosiy maqsad, JST faoliyati bilan yaxshiroq tanishish uning istiqbollari o‘rganish va kelajakda a‘zolik uchun tayyorgarlik bo‘lishi mumkin. Kuzatuvchi maqomi ko‘pi bilan *bash yil* muddatga beriladi va shu muddat ichida davlat JSTga qo‘shilish niyatini bilidirishi kerak va hozirgi savdo va iqtisodiy siyosati haqida ma‘lumot berishi va qanday islohatlar amalga oshirishni rejalashtirganligi to‘g‘risida ma‘lumot berishi lozim.

Talabnomaning aylanishi (Circulation of the Request).

JST ga a‘zo bo‘lish talabida yuborilgan xat (talabnoma) Bosh direktor tomonidan qabul qilinadi va barcha a‘zo davlatlarga rasmiy hujjat sifatida yuboriladi (circulation). Bu JST bazasida uch harfli identifikatsiya kodi bilan belgilanadi masalan, O‘zbekiston uchun WT/ACC/UZB kodi foydalaniladi. **Keying bosqichda** xat bosh Kengash raisiga bo‘ljak umumiy Kengash yig‘ilishida ko‘rib chiqish uchun yuboriladi.

Ishchi guruhni tashkil etish.

Bosh kengash a‘zolik uchun talabnomani ko‘rib chiqadi va ma‘qul deb topsa, arizani muhokama qilish uchun ishchi guruh tuzadi. Ishchi guruh tarkibiga muhokamalrda ishtirok etishni xohlagan boshqa a‘zo davlat vakillari ham qo‘shilishi mumkin. A‘zolik uchun ishchi guruh tuzilishi bilan davlatga kuzatuvchi maqomi

beriladi. Bosh kengashda a'zolik talabnomasini ko'rib chiqish uchun o'tkaziladigan birinchi yig'ilishda a'zolikni talab qilgan davlatdan vakil ham ishtirok kerak. Vakil o'z davlatining nima sababdan JST ga qo'shilmog'chi ekanligi va hozirgi iqtisodiy-siyosiy holati haqida ma'lumot beradi. Ishchi guruh tomonidan unga JST doirasida savollar va takliflar beriladi. Ishchi guruhning majburiyati davlatning arizasini ko'rib chiqadi va Bosh konsul yoki Vazirlar konferensiyasiga takliflarni kiritadi, takliflar bilan birga Qo'shilishi protokoli loyihasi ham ilova qilinishi mumkin. Ishchi guruhga rahbarlik qilish uchun vakil Bosh konsul tomonida tayinlanadi. Ishchi guruh a'zolar soni qat'iy belgilanmagan misol uchun, Qozog'iston a'zolik jarayonida ishchi guruhda 52 ta a'zo, Liberyanikida esa 20 ta a'zo bo'lgan. Istalgan JST ga a'zo davlat vakillari kotibyatga yozma murojaat qilgan holda ishchi guruh tarkibiga kirishi mumkin, xalqaro tashkilotlar, a'zolik jarayonidagi va a'zolikni nazarda tutmagan davlatlar ishchi guruh yig'ilishlarida rasmiy ravishda kuzatuvchi maqomida ishtirok etishlari mumkin.

II. A'zolik uchun kelishuvlar jarayoni.

Kelishuvlar a'zolikda eng muhim jarayon hisoblanadi, chunki bu jarayonda a'zo bo'layotgan davlatning savdo qonunchiligi ko'rib chiqiladi va JST qoidalariga uyg'unlashtiriladi. Kelishuvlar jarayonini ham shartli ravishda uchga ajratish mumkin. Bular JST ko'p tomonlama (Multilateral) kelishuvlar, O'zaro kelishuvlar (Plurilateral) va ikki tomonlama (Bilateral) kelishuvlar.



Ko'p tomonlama kelishuvlar ishchi guruh doirasida amalga oshirilib, unda asosan davlatning xalqaro savdo rejimi, JST ga a'zolik uchun amalga oshirayotgan ishlari va ularning amalga oshirilishi ko'rib chiqiladi va ko'riladi. Ko'p tomonlama muzokaralarni ham uch bosqichga ajratish mumkin, ya'ni **Faktlarni topish bosqich, kelishuv bosqichi va ishi guruh hisobatini ishlab chiqish bosqichi**. Faktlarni topish bosqichida, a'zo bo'layotgan davlatning xalqaro tijorat siyosati o'rganiladi, JST qoidalariga moslashtirish lozim bo'lgan normativ hujjatlar aniqlanadi. Bu jarayonda

davlatdan xalqaro tijorat siyosati bo'yicha hujjatlar talab qilinishi mumkin. Bu bosqichda davlat o'zining xalqaro savdo rejimini bayon qilgan holda **Memorandum** topshiradi. Memorandumda quyidagi sohalar bo'yicha ma'lumot bo'lishi shart:

- Iqtisodiy siyosat va tashqi savdo;
- siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun asos;
- tovarlar savdosiga ta'sir qiluvchi siyosat (importni tartibga solish, eksportni tartibga solish, ichki siyosat tovarlar savdosiga ta'sir qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga ta'sir qiluvchi siyosat);

- intellektual mulk huquqlari;
- xizmatlar;
- shaffoflik;
- savdo shartnomalari.

Statistika va nashr etish, qonunlar va me'yoriy hujjatlar ro'yxati, importni litsenziyalash tartibi, bojxona baholash shartnomasini amalga oshirish, savdodagi texnik to'siqlar, Davlat savdosi, xizmatlar sohasi tasniflari va savdo shartnomalari to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlar taqdim etilishi kerak. Barcha qo'shilish hujjatlari tashkilotning rasmiy tillaridan biri ingliz, fransuz va ispan tillarida taqdim etilishi kerak.

Memorandunga qo'shimcha ravishda davlatdan quyidagi hujjatlarni ham taqdim etishi so'raladi:

- Qonunchilik harakatlari rejasi (LAP), qonun hujjatlari nusxalari bilan birga;
- Tegishli bo'lsa, muayyan shartnomalar amalga oshirish uchun harakat rejalari (odatda sanitariya va Fitosanitariya (SPS) choralari, savdo uchun texnik to'siqlar (TBT), intellektual mulk (IP) va bojxona baholashi);

- Qishloq xo'jaligida ichki qo'llab-quvvatlash va eksport subsidiyalari haqida ma'lumot (Vt/ACC/22/Add.1);

- Xizmatlar haqida o'xborot (Vt / ACC / 5);
- SPS va TBT bo'yicha cheklist (Vt/ACC/22/Qo'shish.2);
- Intellektual mulk savdo bilan bog'liq jihatlari bo'yicha nazorat ro'yxati (Vt/ACC/22/Qo'shish.2);

- Subsidiyalar to'g'risida bildirishnoma loyihasi (25-modda, subsidiyalar va kompensatsiya choralari to'g'risidagi bitim);

- Davlat savdo subyektlari bo'yicha so'rovnoma.

A'zo bo'layotgan davlat JST qoidalari va davlat NHHlar o'rtasidagi farqlarini aniqlab, Qonunchilik Harakatlari Rejasi (LAP) da bayon etish va ularni JST qoidalariga moslashtirish bo'yicha davriy jadvala bayon qiladi.

PART I - PENDING BILLS/DRAFTS/REGULATIONS						
Subject	Legislation/ Measures	Authority in Charge	Expected adoption/ enactment date	Status	Expected implementation date	Translation submitted to Working Party
PART II – COMPLETED LEGISLATION/REGULATIONS						
Subject	Legislation/ Measures	Authority in Charge	Date of adoption/ enactment	Status	Date of implementation	Translation submitted to Working Party

Bundan tashqari JST qoidalariga uyg'unlashtirilishi kerak bo'lgan NHHlar nusxasi JST rasmiy tilarining birida taqdim etiladi. Taqdim etilgan memorandum bilan tanishgan a'zolar to'rt hafta ichida o'zlarining savollarini yo'llashlari mumkin. Berilgan savollarga A'zo bo'layotgan davlat javoblar yo'llaydi. Birinchi savol javoblar raundi tugagandan so'ng, ishchi guruh rahbari, birinchi ishi guruh yig'ilishini chaqiradi. A'zo bo'layotgan davlat delegatsiyasi ishchi guruh bilan muhokamaga kirishadi va ular tomonidan berilgan savollar va takliflarni muhokama qiladi. Ishchi guruh yig'ilishi nihoyasiga yetgandan keyin, JST kotibiyati a'zolari yozma ravishda savollar taqdim etishga taklif etadi. Qabul qilingan savollarni kotibiyat a'zo bo'layotgan davlatga yuboradi. Qachonki, yangi savollar, javoblar va qo'shimcha hujjatlar yig'ilganda yangi ishchi guruh majlisi chaqiriladi. Ma'lumot yig'ish bosqichi nihoyasiga yetganda, kotibiyat jarayonning shafoffligini ta'minlash uchun Faktik xulosalar (Factual summary) talab qilishi mumkin. Bu hujjat norasmiy hisoblanib, ko'rib chiqilgan masalalar va muhokama haqida ma'lumot beradi. A'zo bo'lish jarayoni nihoyalaganda, kelishuvlar bosqichi so'ngida ishchi guruh kotibiyatdan ishchi guruh hisobot loyihasini faktik xulosalar asosida tayyorlashni so'raydi. Bu jarayonlardan keyin a'zolik protokoli loyihasi va qaror loyihasi tayyorlanadi, ya'ni a'zolik uchun so'nggi bosqich bo'lib, unda davlatning a'zolik shartlari ham belgilanadi.

Ikki tomonlama muzokaralar.


Tovar va xizmatlar bo'yicha bozorga kirish majburiyatlarini muhokama qilish uchun manfaatdor ishchi partiya a'zolari bilan ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkaziladi. Ushbu muzokaralar odatda ishchi partiyalar yig'ilishlarining chekkasida, istalgan vaqtda Jenevada yoki poytaxtlarda bo'lib o'tadi. Ikki tomonlama savdo va xizmatlar bo'yicha kelishilgan qoidalar kotibiyatga taqdim etiladi va u a'zolik paketiga ilova qilinadi.

A'zolik bosqichi.

Bu bosqich ishchi guruh va a'zolikka intilayotgan davlat o'rtasida kelishuvga erishilgandan keyin boshlanadi. Davlatning a'zolik masalasi Vazirlar konferensiyasi tomonidan konsessuga qo'yiladi va shundan so'ng ishchi guruh mandat yakunlanadi. Davlat kuzatuvchi sifatida yillik to'lovini to'lashi kerak bo'ladi. To'lov miqdori


barcha a'zo davlatlarning bir yillik a'zolik badalining 0.015% tashkil etadi. So'ngra Vazirlar konferensiyasi "A'zolik protokolini" tasdiqlaydi, A'zolik paketi Vazirlar konferensiyasi tomonidan taqdim etilgach, A'zolik protokolini Imzolash marosimi tashkillashtiriladi. A'zolik protokoli imzolanganidan 30 kalendar kunidan so'ng rasmiy ravishda JST a'zosi deb e'lon qilinadi. A'zolik protokoli davlat tomonidan ratifikatsiya qilinishi kerak.

Overview of the accession process



A'zolik jarayonlari jadvali. Wto.org

O'zbekiston Respublikasi ham JST ga a'zolik jarayonida yuqoridagi bosqichlarni bosib o'tmoqda. Aytish kerak O'zbekistonning a'zolik jarayonlari ancha cho'zilyapti, hozirgi vaqtda O'zbekistonning a'zolik jaryonining qaysi bosqichida ekanligini quyidagi jadvaladan bilish mumkin.



O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lishi doirasida 2023-yil 16-noyabr kuni yettinchi ishchi guruh yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Ushbu ishchi guruh yig‘ilishida davomida ham Qonunchilik harakatlari rejasi (LAP) yangi bandlar kiritildi. Bundan tashqari boshqa a‘zo davlatlar bilan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama kelishuvlar amalga oshirildi. Ishchi guruh raisi Koreya Respublikasi elchisi Yun Song Dok “Ushbu yuqori darajadagi katta delegatsiyaning mavjudligi O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lishga sodiqligini aks ettiradi. Iyun oyida Prezidentning JST masalalari bo‘yicha maxsus vakili va JSTga qo‘shilish bo‘yicha yangi bosh muzokarachi etib tayinlangan Janob Azizbek Urunovni alohida olqishlayman” dedi.

REFERENCES

1. Sabirov X.N. Ekanometrika II. O‘quv qo‘llanma. “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” 2022, 430 bet.
2. Pomfret, Richard. 2020. “O‘zbekiston va Jahon savdo tashkiloti”. <http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/> ga qarang. 2(1): 54–61. DOI: <https://doi.org/10.16997/srjed.35>
2. Umirdinov Alisher va Valijon To‘raqulov. 2019. “Markaziy Osiyodagi proteksionizmning so‘nggi tayanchi: O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lishidan keyingi avtosanoati”. Savdo, huquq va taraqqiyot 11(2): 301–33.
3. A Akhrorjon. (2022). Reasons, problems and consequences for the accession of the Uzbek economy to the WTO. International scientific conference "Topical issues of the economy in modern world.

TERGOVCHINING MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA PROKUROR VA SUD NAZORATINING TA'SIRI

Elmurzayev Biloliddin Nurmon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi doktoranti

E-mail: elmurzayevbiloliddin@gmail.com

Tel: +998 97 765 31 96

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan shaxs sifatida tergovchining huquqiy maqomi, protsessual vakolatlari, huquqlari va majburiyatlari tahlil qilingan. Bu orqali tergovchining faoliyatini tartibga soluvchi jinoyat-protsessual qonunchiligi o'rganilgan, undagi kamchilik hamda bahsli normalar haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, tergovchining mustaqilligi kafolatlari, uni ta'minlashda yuzaga kelayotgan amaliy muammolar, ularni bartaraf etish chora-tadbirlari tahlil qilingan. Maqolada tergovchi faoliyatini amalga oshirishda nazorat organlarining ta'siri, xususan idoraviy nazoratning ahamiyati, zarurati, dastlabki tergovga mas'ul shaxs bo'lgan prokurorning tergovchi bilan o'zaro munosabati, prokuror nazorati hamda sud nazoratining tergovchi mustaqilligini ta'minlashdagi o'rni ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada yuqorida nazarda tutilgan masalalar bo'yicha bu borada ilmiy tadqiqotlar o'tkazgan protsessualist olimlarning tasdiqlovchi yoki rad etuvchi fikrlari asosida ilmiy munozara o'tkazilgan, tergov faoliyati bilan shug'ullanuvchi mas'ul shaxslarning tavsiyalari asosida mavjud amaliy muammolar o'rganilgan va sud-tergov amaliyotining tegishli materiallari o'rganib chiqilgan. Maqola yakunida tergovchining mustaqilligini ta'minlashda prokuror va sud nazoratining ta'sirini optimallashtirish yuzasidan bir qancha taklif va tavsiyalar berilgan bo'lib, ular o'rganilayotgan mavzuning bugungi kundagi ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tergovchi, sud nazorati, prokuror nazorati, tergovchining mustaqilligi, dastlabki tergov, tergovchining vakolatlari

KIRISH

Tergovchi surishtiruvchi, prokuror va sudya kabi ishdagi barcha holatlarni sinchkovlik bilan, to'la, har tomonlama va xolisona ko'rib chiqishga asoslangan holda qonunga va huquqiy ongga amal qilib o'zining ichki ishonchi bo'yicha dalillarga baho beradi, mustaqil ravishda jinoyat ishi bo'yicha tergov rejasi va tergov versiyalarini tuzadi, tergov va boshqa prosessual harakatlarni amalga oshirish ketma

ketligini belgilab oladi. Ishni tergov qilish jarayonida kelib chiqadigan turli masalalarni hal etish tergovchining o'z majburiyatlarini bajara olishining muhim sharti hisoblanadi. Tanlov imkoniyatining berilmasligi jinoyat ishini yuritishga mas'ul shaxslarning o'z jinoyat-prosessual majburiyatlarining bajara olmasligiga olib keladi. Amaldagi qonunchiligimizni tahlil qilish orqali, tergovchi mustaqilligini ta'minlovchi elementlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- o'zining ichki ishonchiga asoslangan holda dalillarga baho bera olishi;
- sessual qarorlar qabul qilishdagi mustaqillik (sud va prokuror ruxsati bilan o'tkaziladiganlar bundan mustasno);
- prokurorning bir qancha ko'rsatmalariga qo'shimchilik va ular yuzasidan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qila olish;
- korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jismoniy shaxslar uchun majburiy bo'lgan topshiriqlar bera olish;
- jinoyat ishi doirasida tergov va sessual harakatlar bo'yicha javobgarlikning mavjudligi.

Jinoyat-prosessual qonunchilikda tergovchining sessual mustaqilligi nima ekanligi, uning mohiyati, mazkur tushunchaning mazuni aniq belgilanmagan. Shuning uchun ham mazkur masalaning mohiyati yuzasidan aniq to'xtam mavjud emas. Shuni qayd etish joizki, V.V.Ulanov fikricha, tergov organi rahbari yoki prokuror tomonidan tergovchi faoliyatining nazorat qilinishi uning sessual mustaqilligiga salbiy ta'sir o'tkazmaydi [1]. V.G.Mkrtyan esa boshqa fikrda, unga ko'ra jinoyat-prosessual qonunchiligida shunday normalar borki, ular tergovchining sessual mustaqilligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi [2]. Xususan, tergov yakuni bo'yicha prokuror tomonidan ayblov xulosasining tasdiqlanishi shunday holatlardan biridir. Amaldagi tartibga ko'ra prokuror ayblov xulosasini tasdiqlashi yoki kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan qo'shimcha tergovga qaytarishi mumkin (JPK 384-modda). Bir jihatga e'tibor qaratish kerakki, jinoyat prosesining institusional tuzilishiga ko'ra tergovchi prokuror va sud butunlay mustaqil ravishda faoliyat yurita olmaydi. Prokuror va sud nazorati tergovchilar tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan turli o'zboshimchaliklardan himoya qiladi, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarining ehtimoliy buzilishidan asraydi. Umuman olganda, tergovchining mustaqilligini bir necha yo'nalishlarda ko'rishimiz mumkin bo'ladi: 1) davlat organi, mansabdor shaxs, jamoat birlashmalari va ularning vakillarining har qanday ta'siridan xoliligi; 2) tergovchining o'zi faoliyat yurituvchi huquqni muhofaza qiluvchi organdagi va bevosita uning foliyatini nazorat qilmaydigan yuqori turuvchi rahbarlardan mustaqillik. Bu o'rinda A.V.Smironovning fikrini ham inobatga olishimiz joiz, unga ko'ra tergovchi ijro etuvchi organ tarkibida ish faoliyatini yuritmasligi

kerak [3]. Shu bilan birga, jinoyatlarni tergov qilish bilan shug'ullanuvchi mutlaqo mustaqil, o'zining rahbari, o'rinbosarlari va boshqa ko'plab boshliqlar faoliyat yurituvchi davlat idorasining tashkil etilishi ham tergovchining mustaqilligini to'liq ta'minlay olmaydi. Chunki, hokimiyat va bo'ysinuv munosabatlariga qurilgan bunday tizimda mustaqillikni ta'minlash muammoli masala.

Tergovchi kasbining nufuzi birinchi navbatda yaratilgan moddiy-texnik baza, ish tartibining to'g'ri yo'lga qo'yilgani, shuningdek uning moddiy ta'minoti bilan o'lchanadi. Aksariyat xodimlar ish xajmining ko'pligidan nolishadi. Ularning tergov organi binosi ularning "ikkinchi oilasi"ga aylanib qolgan. Amaldagi jinoyat-prosessual qonunchiligi mazmunidan anglashiladiki, tergovchi yuqori turuvchi rahbarlarining roziligi bilan harakat qiluvchi, jinoyat ishi taqdiriga jiddiy ta'sir qilmaydigan qarorlarnigina qabul qila oluvchi, ishning taqdiriga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan masalalarda prokuror yoki sudning ruxsatini olib harakat qiluvchi shaxsga aylanib qolgan. Bunday tartib ortiqcha vaqtning sarflanishiga, byurokratik to'siqlarning paydo bo'lishiga va eng yomoni ish yuritish samaradorligining pasayishiga ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Tergov faoliyatiga oid sud-huquq islohotlarini amalga oshirishda, tergovchining maqomiga tegishli normalarni shakllantirishda quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish zarur, deb hisoblaymiz. Birinchidan, har bir tergovchiga to'g'ri keladigan jinoyat ishlari sonining me'yorini ishlab chiqish va uning amalda ishlashini ta'minlash kerak. Mazkur masala bugungi kunda tergov organlarida juda dolzarb bo'lib, aynan ish hajmining tartibga solinishi ular faoliyatidagi boshqa qiyinchilik va muammolarning oldini olgan bo'lar edi.

Prokuror nazorati davlat faoliyatining mustaqil, o'ziga xos turi hisoblanadi. Ushbu faoliyatni prokuratura organlaridan boshqa hech bir davlat idorasi, tashkiloti, jamoat tashkilotlari, boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlari, shuningdek, mansabdor yoki jismoniy shaxslar amalga oshira olmaydilar. Prokuror nazorati hujjatlarida davlat nomidan deb qayd etilmasada, O'zbekiston Respublikasi davlati nomidan amalga oshiriladi. Prokuror O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir hilda bajarilishi ustidan nazoratni ma'lum bir idora nomidan yoki shu idora manfaati yo'lida emas, balki davlat nomidan va davlat, jamiyatimiz manfaati yo'lida amalga oshiradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Amaldagi jinoyat-prosessual qonunchiligimizga ko'ra, tergovchining faoliyati ustidan bevosita nazoratni uning rahbari, shuningdek prokuror amalga oshiradi. Dastlabki tergovga mas'ul shaxs sifatida prokuror tergovchi tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning qonuniy va asosliligini tekshiradi, ular bo'yicha

tomonlardan kelib tushayotgan shikoyatlarni o'rganadi, zaruratga qarab ushbu prosessual hujjatlarni bekor qiladi. Bundan norozi bo'lgan tergovchi prokurorning qarorlari ustidan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilish huquqiga ega. Shikoyat bo'yicha esa yakuniy qarorni yana prokuror qabul qiladi, faqat yuqori turuvchisi. Bundan ko'rinadiki, jarayonga uchinchi tomonni jalb etishning imkoni mavjud emas. Prokuror va tergovchi faoliyatining umumiy jihatlari ko'p. Chunki ular umumiy maqsad va vazifalarga ega.

Huquqshunos olimalar Z.F. Inog'omjonova va G.Z. To'laganovalarning fikricha, prokuror jinoyat prosessining eng faol ishtirokchilaridan biri bo'lib, faqat u jinoyat ish yurituvining barcha bosqichlarida, ya'ni jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichidan to shaxsga nisbatan chiqarilgan sudning hukmi kuchga kiritilgunga qadar ishtirok etadi [4]. Prokuror barcha jinoyat ishlari ko'rilishiga boshchilik qilib, ishlar bir bosqichdan keyingisiga o'tishida muhim vazifalarni ado etadi. Shu bilan birga, uning prosessual holati ham turli bosqichlarda turlicha ko'rinishga ega bo'ladi. Prokurorning tergovchi bilan o'zaro munosabati, tergovchining mustaqilligiga ta'siri xususida olimlar turlicha fikr-muloxazalarni bildirganlar. Jumladan, G.Z. Tulaganovanning fikricha, tergovchining mustaqilligini yanada mustahkamlash maqsadida uning prokuror bilan birgalikda qamoqqa olish masalasini hal etishda ishtirok etishi shartligi qonunda belgilanishi kerak [5]. Tergovchi ishning holatlari bilan ko'proq tanish bo'lgani uchun aynan mazkur chorani qo'llash lozimligini sudda isbotlashda prokurorga katta yordam beradi.

Prokuror quyidagi vakolatlarini amalga oshirish orqali dastlabki tergov jarayoniga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsata oladi:

- jinoyat ishini surishtiruv organidan tergovchiga, prokuraturaning bir tergovchisidan boshqasiga, jinoyat-prosessual qonunda belgilangan hollarda va tartibda esa bir dastlabki tergov va surishtiruv organidan boshqa dastlabki tergov va surishtiruv organiga o'tkazadi;

- surishtiruvchini yoki tergovchini, agar u ishni tergov qilish chog'ida qonun buzilishiga yo'l qo'ygan bo'lsa, surishtiruvni yoxud dastlabki tergovni davom ettirishdan chetlatadi;

- ayblov xulosasini yoki ayblov dalolatnomasini yoxud qarorini tasdiqlaydi, ishni sudga yuboradi;

- jinoyat ishlarini surishtiruv va dastlabki tergov organlariga qo'shimcha tergov o'tkazish to'g'risidagi o'z ko'rsatmalari bilan qaytaradi. Prokurorning bu kabi surishtiruv va dastlabki tergov organlariga hamda tergovga qadar tekshiruvni yoki tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga tergovga qadar tekshirish

o‘tkazish, ishlarni qo‘zg‘atish va tergov qilish bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatmalari ana shu organlar uchun majburiy hisoblanadi.

Prokurorning ishni sudga qadar yuritish davridagi vakolatlarini kengaytirish tarafdorlari: L.A.Voskobitova [6], N.A.Kolokolov [7], O.S.Kapinuslar [8] tomonidan ta’kidlab o‘tilgan. Dastlabki tergovda qonuniylikni va shu bilan birga bu davrda shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash vazifalaridan kelib chiqib, aynan prokuror dastlabki tergovda qonunlarning bajarilishini ta’minlashi kerak. Uning vakolatlari jinoyat ishi doirasida dalillarni to‘plash, tekshirish va baholash jarayoniga, qilmishni malakalashga hamda tergov yakuniga ta’sir ko‘rsata oladi. Prokurorning nazorat faoliyati dastlabki tergovdagi qonunbuzilish holatlariga yo‘l qo‘ymaslik va ularning oldini olishga qaratilgan. Shuning uchun dastlabki tergov organlari faoliyati ustidan prokuror tomonidan olib boriladigan nazoratni tergovchining mustaqilligini cheklovchi omil sifatida tushunmaslik kerak. Boshqacha aytganda, agarda tergovchi jinoyat ishini tergov qilish davomida uni JPKda belgilangan tartibda har tomonlama, to‘liq va xolisona amalga oshiradigan bo‘lsa, uning tergovchining faoliyatiga prokuror nazoratining ta’siri deyarli sezilmaydi. Tergovchi tomonidan qonun talablariga rioya qilmaslik holatlariga prokuror munosabatini bildiradi.

Prokuror bilan tergovchining vakolatlarini, prosessual imkoniyatlarini solishtirib bo‘lmaydi, albatta. Tergovchi jinoyat ishi bo‘yicha o‘zining pozitsiyasini prokurorga o‘tkaza olish ehtimoli juda kam. Shuning uchun ham bu borada A.S.Aleksandrovning fikrlariga qo‘shilmaslikdan boshqa iloj yo‘q. Uning bildirishicha, tergovchi jinoiy ta’qibni amalga oshiruvchi boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari kabi “prokurorning prosessual xizmatchilari” hisoblanadi [9]. M.X.Rustambayev ta’kidlaganidek “... tergovchining mustaqil ekanligini ko‘plab olimlar alohida ta’kidlagan bo‘lsalarda, u cheklangandir” [10]. Dastlabki tergovda qonuniylik ustidan nazorat qilish prokuror uchun jinoiy ta’qibga rahbarlik qilish vositasi sanaladi. Surishtiruv va dastlabki tergov, tezkor-qidiruv faoliyatida qonunlarga rioya etilishi, shuningdek mazkur faoliyat turlarini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning qonuniyligi, asosliligini nazorat qilish orqali prokuror jinoyat ishi bo‘yicha o‘zaro hamkorlikda ish olib boruvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning rahbari hamda ularning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi “tashkilotchi” vazifasini bajaradi.

Jinoyat-prosessual qonunchiligimizga ko‘ra, tergovchi prokurorning quyidagi ko‘rsatmalariga rozi bo‘lmasa, o‘z e’tirozlarini yozma ravishda bayon qilgan holda ishni yuqori turuvchi prokurorga taqdim etishga haqli:

- shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish haqidagi;

- jinoyatni tavsif qilish va ayblov hajmi haqidagi;
- qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash uy qamog‘i bo‘yicha qo‘shimcha taqiq (cheklov) belgilash pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to‘xtatib turish to‘g‘risida iltimosnoma qo‘zg‘atish haqidagi;
- ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi prosessual majburlov choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi;
- amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risida yoki jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish to‘g‘risida prokurorga taqdimnoma kiritish haqidagi ishni sudga yuborish;
- jinoyat ishini tugatish haqidagi, tugallangan ishni qo‘shimcha tergovga qaytarish haqidagi.

Ushbu ro‘yxatni yanada kengaytirish zarur, deb hisoblaymiz. Tergovchi prosessual majburlov choralarini tanlash, shuningdek ishda ishtirok etishiga monelik tug‘diruvchi holatlar aniqlanganda uni rad qilish to‘g‘risidagi ko‘rsatmalar bo‘yicha ham yuqori turuvchi prokurorga murojaat qilish imkoniyati berilishi kerak. Prokuror nazoratining obyekti tergovchining faoliyati emas, uning prosessual harakat va qarorlarining qonuniyligi, asosiligi bo‘lishi zarur. Tergovchining faoliyati ustidan prokuror nazoratini amalga oshirishning shakl va usullarini takomillashtirib, uning huquq va qonuniy vakolatlarini holatga xolis va mustaqil baho beruvchi sud orqali taminlash imkoniyatlari ham so‘nggi yillarda prosessualist olimlar va amaliyot xodimlari o‘rtasida faol muhokama qilinmoqda.

Tergovchining prokurorga bo‘ysinuv tartibida faoliyat yuritishi tergovchilar uchun jiddiy muammo emas. Ish hajmining ko‘pligi, moddiy beqarorlik, berilayotgan topshiriqlarning tartibga solinmaganligi - aynan shu muammolar bugungi kunda tergovchilar faoliyatida hal etilishini kutmoqda. Bundan tashqari, mazkur masalalar tergovchining mustaqilligiga ham daxl qiladi. Shuningdek, JPKning 36-moddasiga ko‘ra, tergovchi prokurorning ko‘rsatmalariga rozi bo‘lmasa, o‘z e‘tirozlarini yozma ravishda bayon qilgan holda ishni yuqori turuvchi prokurorga taqdim etishga haqli. Bunday hollarda quyi turuvchi prokurorning ko‘rsatmasini yuqori turuvchi prokuror o‘z qarori bilan yo bekor qiladi yoki ish bo‘yicha tergov yuritishni boshqa tergovchiga topshiradi. Biroq, yuqori turuvchi prokuror tomonidan quyi turuvchi prokurorning xatti-harakatlari ustidan berilgan tergovchining shikoyatini ko‘rib chiqish natijasi ushbu tergovchi uchun salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Yuqori turuvchi prokuror tergovchining shikoyatini qanoatlantirib, quyi turuvchi prokurorning qarori yoki ko‘rsatmasini bekor qilgan taqdirda ham tergovchi o‘zi uchun “noprofessional” yoki “yetarli kompetentga ega bo‘lmagan” deb hisoblagan

yana o'sha prokurorning nazorati ostida dastlabki tergovni davom ettiradi. Prokurorning vakolatlari keng bo'lib, u tergovchining ish yurituvida bo'lgan jinoyat ishi doirasida o'zining fikrlarini o'tkaza oladi va oxir oqibatda jinoyat ishining yakuniy taqdiri prokurorga bog'liq bo'lib qoladi.

Jinoyat prosessi ishtirokchilari tomonidan berilgan har qanday shikoyat, mazkur jinoyat ishining natijasidan manfaatdor bo'lmagan, shu bilan birga, ushbu shikoyatni hal qilish vakolatiga ega bo'lgan davlat organlariga berilgandagina kutilgan natijaga erishish samaradorligi yuqori bo'ladi. Shikoyat sud tomonidan ko'rib chiqilib, uning natijasiga ko'ra surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning harakatlari (harakatsizligi) yoki qabul qilgan prosessual hujjati asossiz (g'ayriqonuniy) deb topilganida, sud uni bekor qilish bilan cheklanib qolmasdan, ushbu mansabdor shaxsga nisbatan majburiy tartibda tegishli chora ko'rish yuzasidan taqdimnoma kiritishi lozim.

Tergovchining mustaqilligi buzilishiga ba'zida ularning o'zlari ham sababchi bo'lishadi. Jinoyat ishi doirasida aniqlangan holatlar yuzasidan o'zlarining qat'iy ichki ishonchlari mavjud bo'lmaganligi sababli ular prokurorning yoki tergov bo'limi boshlig'ining og'zaki buyruqlariga so'zsiz rioya qilishadi. Bu esa mazkur toifa tergovchilarning birorta mas'uliyatli qaror qabul qilishidan oldin yuqoridagi mansabdor shaxslar bilan mastlahatlashish kabi norasmiy amaliyotning shakllanishiga olib keladi.

Prokuror dastlabki tergov, davlat aybloviga mas'ul shaxs sifatida ayblov xulosasini tasdiqlab beradi. JPKning 25-moddasiga ko'ra, birinchi instansiya sudida ish yuritish faqat ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi yoxud tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash uchun ishni sudga yuborish to'g'risidagi qaror mavjud bo'lganda boshlanadi. Demak, jinoyat ishi sudga ko'rilishi uchun albatta prokurorning roziligi talab etiladi. Chunki sudga davlat ayblovini qo'llab-quvvatlovchi mansabdor shaxs sifatida prokuror qatnashadi. Butun dunyo tergov amaliyotida shunday tartib shakllangan. B.Salomov fikricha, jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni amalga oshirgan yoki tergov qilmagan bo'lsada, ayblov xulosasini tasdiqlagan prokuratura organi vakilining sudga davlat ayblovini qo'llashi xolislik tamoyiliga zid bo'lib, sud jarayonida taraflar tengligi va tortishuv prinsiplarini amalda ta'minlanishiga xizmat qilmaydi. Davlat ayblovini qo'llaydigan prokuratura organi vakili o'zi tergov qilgan yoki ayblov xulosasini tasdiqlagan jinoyat ishi yakunidan manfaatdor bo'lganligi bois, garchi sud jarayonida dastlabki tergov harakatlarini o'tkazishda prosessual qonunchilik talabalari buzilganligi yoki ayblanuvchining aybi tasdiqlanmaganligi aniqlangan taqdirda ham jinoyat ish bo'yicha ayblov hukmi chiqarilishiga harakat qiladi. Prokuraturaning jinoyat ishlarini

tergov qilish va jinoyat ish yakunlari bo'yicha tuziladigan barcha ayblov xulosalarini tasdiqlash vakolatini bekor qilish va ushbu vakolatlarni mustaqil faoliyat ko'rsatuvchi Tergov departamenti yoki komitetiga berish lozim [11]. Jinoyat ishlari ko'rilayotgan sud proseslarida, odatda, prokuror ayblov xulosasini o'qib, sud tergovini boshlab beradiyu, chiqib ketadi. Sud jarayonida nimalar bo'lyapti, tergovda to'plangan dalillarning qaysilari tasdiqlanayapti, qaysilari tasdiqlanmayapti, bunga e'tibor ham bermaydi [12].

Bu, birinchi navbatda, fuqarolarning prokuratura organlariga bo'lgan ishonchini so'ndiradi. Sud jarayoni nihoyasiga yetib, oxirgi muzokaraga navbat kelganida esa, prokuror, kutilmaganda, ayblanuvchiga tegishli modda bilan mana buncha muddat so'rayman deb hammani hayratda qoldiradi. Chunki, viloyat, shahar, tuman prokurori yoki ularning o'rinbosarlari ayblov xulosasini tasdiqlab turgandan keyin prokurorlar undan chetga chiqolmaydi xohlagan taqdirda ham.

Ayblov xulosasi prokuror tomonidan tasdiqlab qo'yilgan bo'lsa sudda ishtirok etayotgan yordamchi prokuror unga o'zining muqobil fikrini bera olmaydi. Shularni inobatga olgan holda, ayblov xulosalarni tasdiqlashni prokurorlarning vakolatidan olib tashlash masalasi ham bugungi kunda muhokamalarga sabab bo'lmoqda.

Dastlabki tergovdagi sud nazorati nafaqat jinoyat prosessi ishtirokchilarining huquq va erkinliklari to'la ta'minlanishini nazorat qiladi, balki isbotlash prosesining qonuniy va asosli bo'lishini kafolatlaydi [13]. Dastlabki tergovda sud nazorati odil sudlovga xizmat qiladi, sud hokimiyati qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli bo'lishiga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat-prosessual qonunchiligida belgilangan tartibga ko'ra ishni sudga qadar yuritishda dastlabki tergovning quyidagi holatlarida sud nazorati bilan bog'liq harakatlar amalga oshiriladi. Bular quyidagilar:

- qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoxud qamoqda saqlash yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish masalalari bilan bog'liq iltimosnoma, shikoyat va protestni ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida ajrim chiqargan sudni albatta xabardor qilgan holda ko'rib chiqish;

- pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish;

- ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi;

- shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqidagi yoki ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish to'g'risidagi;

- murdani ekskumasiya qilish haqidagi;

- pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish;

- olib qo'yish va tintuv o'tkazish haqidagi;
- telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish;
- prokurorning amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi yoki jinoyat ishini tugatish haqidagi yoxud mahkumni jazodan ozod qilish to'g'risidagi iltimosnomasini ko'rib chiqish. Lekin jinoyat ishlarini qo'zg'atish yoki rad etish yoxud ayrim tergov harakatlarini amalga oshirishda ularning qonuniyligini ta'minlash masalalari faqat prokuror nazorati bilan chegaralanib, sud nazorati deyarli amalda mavjud emas.

Dastlabki tergov ustidan sud nazoratining kengayishi odil sudlovning amalga oshirilishiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishi ham mumkin. Bunday holatda sudyaning keng vakolatlarga ega bo'lishi sudning nafaqat dastlabki tergovning qonuniyligi ustidan nazoratni amalga oshirishiga, balki doimiy nazoratning amalga oshirishga va amalda tergovni boshqarishiga olib kelishi mumkin. Ushbu qoida tergovchining prosessual mustaqilligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki u jinoyat ishlari bo'yicha o'z qarorlari va harakatlarini amalga oshirishda sudning qaroriga bog'lanib qoladi. Qiziq jihati, amaldagi jinoyat-prosessual qonunchiligimiz bo'yicha dastlabki tergov organi, tergovchilarning bir qator prosessual harakatlarini nazorat qiluvchi sudyaning o'zi keyinchalik sud muhokamasida o'sha jinoyat ishini mazmunan ko'rib chiqib, hal etadi. Bu esa sudda qatnashayotgan jinoyat ishi yurituvchi ishtirokchilari o'rtasida sudyaning xolisligi borasida savollar paydo bo'lishi mumkin.

Prosessualist olim G'.M.Shodievga ko'ra, sud nazorati – jinoyat prosessida shaxsning sud himoyasida bo'lish konstitusiyaviy huquqini ta'minlash hamda prosess ishtirokchilari va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan, ishni sudga qadar yuritish uchun vakolatli mansabdor shaxslarning iltimosnomalari va manfaatdor shaxslarning shikoyatlarini sud tomonidan ishni sudga qadar yuritish jarayonida ko'rib chiqilishi va hal qilinishi orqali qonunan belgilangan prosessual shaklda amalga oshiriladigan faoliyatdir [14]. Boshqa bir olim B.Mo'minov esa ishni sudga qadar yuritishda dastlabki tergovning quyidagi holatlarida sud nazorati bilan bog'liq harakatlar amalga oshiriladi [15]:

- sudning vakolatlariga: qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoxud qamoqda saqlash yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish masalalari bilan bog'liq iltimosnoma, shikoyat va protestni ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida ajrim chiqargan sudni albatta xabardor qilgan holda ko'rib chiqish;
- pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish;
- ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi;

- shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqidagi yoki ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish to'g'risidagi;
- murdani ekskumasiya qilish haqidagi;
- pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish;
- olib qo'yish va tintuv o'tkazish haqidagi;
- telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish;
- prokurorning amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi yoki jinoyat ishini tugatish haqidagi yoxud mahkumni jazodan ozod qilish to'g'risidagi iltimosnomasini ko'rib chiqish.

Jinoyat proessual qonunchiligidagi tergovchining faoliyati ustidan sud nazorati amalda ish yuritish jarayonini ma'lum darajada murakkablashtirdi, tergovchining mustaqilligini cheklovchi yana bir tartib paydo bo'ldi, shu bilan birga tergovning samaradorligini va ishtirokchilar huquqlarini ta'minlash maqsad qilingan bo'lsada, ushbu ikki vazifani parallel ravishda ta'minlashda qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Sudlarda dastlabki tergov jarayonini nazorat qilish bo'yicha prokurordagi kabi vakolatlar yetarli emas, ularni bu borada solishtirib bo'lmaydi. Masalan, qamoqqa olish ehtiyot chorasini qo'llash tartibini olaylik. Uni qo'llashning sudlar ixtiyoriga o'tkazilishi sudlarni shaxsni hisbga olib, unga jazoni ham tayinlovchi markazlashgan organga aylantirib qo'yadi.

Sud gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnomani qanoatlantiradigan bo'lsa, keyinchalik mazkur ish sudga oshirilgach, uni aybsiz deb topib, oqlov hukmi chiqarishi o'zining oldinga xatti-harakatiga zid bo'ladi. Bu esa sudning o'zi qo'llagan ehtiyot chorasini xato tanlanganli yuridik jihatdan xato bo'lganini anglatadi. Aslida shaxsning erkinlik va daxlsizlik huquqi buzilishiga olib kelgan mazkur xarakterlik uchun javobgarlik belgilanishi kerak. Afsuski, sud-tergov amaliyotida bu masala baxs-munozaralarga sabab bo'lmayapti.

Tergov amaliyotida murdani ekskumasiya qilish yoki pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash bo'yicha sudga yuboriladigan iltimosnomalarning deyarli barchasi sudlar tomonidan qanoatlantirilmogda, rad etish holatlari juda kam. Tergovchi ham ushbu tergov harakatlarini o'tkazishga zarurat bo'lgandagina iltimosnomalarni qo'zg'atmoqdalar va tabiiyki, sudlar ularni o'tkazishga ruxsat berishmogda. Boshqacha aytganda, tergov harakatlarini o'tkazish uchun sudda ruxsat olish tartibi shunchaki rasmiyatchilik, formal xarakterga ega. Bundan kelib chiqadiki, bu masalada sud nazorati samara bermoqda, deb aytib bo'lmaydi. Tergovchining

ortiqcha vaqt, kuch va resurs sarflanishiga olib kelmoqda. Qiziq jihati, mazkur harakatlar prokuror nazoratidan olinib sud nazoratiga o'tkazigani bilan baribir prokurorning kuchli ta'siri saqlanib qolmoqda. Chunki mazkur tergov harakatlarini o'tkazish uchun sudga yuboriladigan iltimosnomalarni oldin prokuror tasdiqlab berishi kerak. Agarda prokuror iltimonomaga qo'shilmasa, ish materiallari sudgacha yetib bormaydi.

V. M. Bikov mazkur jinoyat-prosessual shaklning ijobiy jihatlari bilan birga salbiy jihatlari to'xtalgan va amaldagi tartibni "xizmat vaqtini behuda sarflash" deya ta'riflagan [16]. V.A.Semensov fikricha, fuqarolarning huquq va erkinliklariga daxl qiluvchi tergov harakatlarini amalga oshirish uchun sudning ruxsatini olish zarur, bunda tergovning ustidan nazoratni amalga oshiruvchi mansabdor shaxs (prokuror)ning roziligi olinmasligi kerak. Mazkur tartib ortiqcha bo'lib, prokurordan ruxsat olmasdan turib sudga murojaat qilish jinoyat ishi uchun jiddiy oqibatlarini keltirib chiqarmaydi. Bundan tashqari, ikki tomonlama nazoratning o'rnatilishi ish yuritish tartibini murakkablashtiradi, xolos [17]. Ammo, olimlarning mazkur fikrlariga qo'shilib bo'lmaydi.

JPKning 35 va 344-moddalariga asosan, jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni prokuratura, ichki ishlar organlari va milliy xavfsizlik xizmati tergovchilari olib boradi. Ilgari ta'kidlaganidek, mazmuniga ko'ra yagona bo'lgan dastlabki tergov faoliyatining uch davlat organida amalga oshirilishi, o'z-o'zidan, hatto yuzaki nazar tashlaganda ham, shaklan bir xil, mazmunan boshqa-boshqa tarzda tergov o'tkazilishini keltirib chiqaradi. Bunda IIV, DXX va prokuratura tergovchilarining ish faoliyatini boshqarish ustidan idoraviy kontrol ham o'zgacha tarzda kechadi, prokuratura organlarida esa prokuror ham kontrolni, ham nazoratni amalga oshiradi. Lekin bu uch organga bo'lingan tergovning muammolarini hal etilishiga xizmat qilmaydi. Bu muammoni bartaraf etish maqsadida yagona tergov organi tashkil etilishi va u tergov qo'mitasi shaklida alohida davlat organi sifatida faoliyat yuritishi to'g'risida mamlakatimiz olimlari va xorij mutaxassislari tomonidan yillar davomida fikrlar bildirilib, bu masala bahs-munozaralarga sabab bo'lgan.

Yuridik jurnallar sahifalarida, ilmiy anjumanlarda va davriy matbuotdagi chiqishlarda dastlabki tergovni qayta tashkil etish va sifatini tubdan yaxshilash yo'llari bo'yicha ko'plab qiziqarli takliflar bildirilmoqda. Tergovchining haqiqiy sessual mustaqilligini va uning prokurordan mustaqilligini ta'minlaydigan dastlabki tergovni tashkil etish muammosiga asosiy o'rin beriladi. Bizga jinoiy sessi ishtirokchilari bajaradigan funksiyalarni qat'iy belgilab beradigan islohot kerak va shu munosabat bilan muammoni hal qilishning o'z yo'li taklif etiladi:

- prokuror faqat nazorat qilish funksiyasini bajaradi, agar prokuror tergovchining fikriga rozi bo'lmasa, u protest keltirishi (tergov boshqarmasi yoki tergov bo'limiga), rad etilgan taqdirda esa sudga murojaat qilishi;

- tergov boshqarmasi, bo'limi boshlig'i tergovchining prosessual funksiyalariga aralashmasdan, tergovni tashkil etish va samarali amalga oshirish uchun umumiy rahbarlik qilishi;

- sud tergovchi va prokuror o'rtasidagi kelishmovchiliklarni hal qilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

REFERENCES

1. Уланов В.В. Самостоятельность и независимость следователя при осуществлении процессуальных полномочий в уголовном судопроизводстве. <https://cyberleninka.ru/article/n/samostoyatelnost-i-nezavisimost-sledovatelya-pri-osuschestvlenii-protsessualnyh-polnomochiy-v-ugolovnom-sudoproizvodstve>
2. Мкртчян В.Г. Процессуальная самостоятельность следователя. Право: история, теория, практика: материалы III Междунар. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, июль 2015 г.). – СПб.: Свое издательство, 2015. – iv, 144 с. <https://moluch.ru/conf/law/archive/142/8441/>
3. Смирнов А. В. Современные проблемы следственной власти в России. <https://center-bereg.ru/j1535.html>
4. Иноғомжонова З.Ф., Тўлаганова Г.З. Жиноят процесси иштирокчилари. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДЮУ. 2006. – Б. 45.
5. Тўлаганова Г.З. Даствлабки тергов босқичида шахс ҳуқуқларини таъминлаш масалалари: Монография. –Т.: ТДЮУ, 2021. -206.
6. Воскобитова Л.А. Обвинение или обвинительный уклон?. // Актуальные проблемы российского права. - 2014. - № 3. - С. 455-462. http://nbpublish.com/library_read_article.php?id=-27929
7. Колоколов Н.А. «Великое противостояние»: следователь vs прокурор // Вестник Московского университета МВД России. 2014. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/velikoe-protivostoyanie-sledovatel-vs-prokuror>.
8. Капинус О. С. К вопросу о процессуальном положении прокурора в уголовном судопроизводстве. «Прокурор», 2013, N 2. <https://center-bereg.ru/j319.html>
9. Александров А.С. Каким не быть предварительному следствию // Государство и право. <https://www.lawmix.ru/comm/1096>
10. Рустамбаев М.Х., Никифорова Е.Н. Ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари. – Т.: ТДЮИ, 2005. – 363б.

11. Саломов Б. Ўзбекистонда адвокатура: жорий ҳолати ва ривожланиш истиқболлари (таҳлилий маълумот). –Т.:2020. –63б.
<https://info.undp.org/docs/pdc/Documents/UZB>
12. <https://advokatnews.uz/xabar/1138.html>
13. Рябина Т.К. Стадия назначения судебного заседания в свете уголовно-процессуального закона: проблемы теории и практики, пути их решения. // Российский судья -№ 7. 2004. –Б. 6.; Рябина Т.К. Производства по уголовному делу в суде до судебного разбирательства. Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. –Воронеж.: 2005. -23 б.
14. Шодиев Ғ.М. Жиноят ишларини судга қадар юритиш босқичида суд назоратининг объекти сифатида шахсининг ҳуқуқ ва эркинликларини чекловчи тергов ҳаракатлари // Суд-ҳуқуқ ислохотлари: ҳозирги ҳолати ва такомиллаштириш истиқболлари. Илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент: ТДЮИ, 2007. - Б. 132.
15. Мўминов.Б.А “Жиноят ишларини судга қадар юритиш устидан суд назорати” Юридик фанлар доктори (Doctor of Science) диссертацияси автореферати.18 б.
16. Быков В. М. Актуальные проблемы уголовного судопроизводства. С. 208.
<http://cj.bgu.ru/reader/article.aspx?id=20344>
17. Семенцов В.А. Процессуальная самостоятельность следователя и процессуальное руководство // Актуальные проблемы применения норм уголовно-процессуального права при расследовании преступлений: сб. науч. ст. междунар. науч.-практ. конф. Института повышения квалификации Следственного комитета России. М.: Буки-Веди, 2012. С. 360-364

TENDER KO'RNISHIDAGI DAVLAT XARIDI O'TKAZISHNING O'ZIGA HOS JIHATLARI

Abduxalilov Shahboz Zafar o'g'li

TDYU, Biznes huquqi yo'nalishi magistranti

shoh0098james@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Tender ko'rnishidagi davlat xaridi o'tkazishning asoslari, tartibi, bu borada xalqaro tajriba bayon qilingan. Bildirilgan fikrlar asosan kuzatuv natijasidagi xulosaga asoslangan.

***Kalit so'zlar:** Tender, Davlat xaridi, xarid komissiyasi, davlat buyurtmachisi, ishtirokchi, raqobat, korrupsiya, monopoliya, yagona yetkazib beruvchi.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье описаны принципы и процедуры государственных закупок в форме тендера, а также международный опыт в этом отношении. Высказанные мнения в основном основаны на выводах наблюдений.

***Ключевые слова:** Тендер, государственные закупки, закупочная комиссия, госзаказчик, участник, конкуренция, коррупция, монополия, единственный поставщик.*

KIRISH

Bugungi kunda Respublikamizda budjet mablag'laridan oqilona foydalanish masalasiga har qachongidan ham ko'proq e'tibor bo'lmoqda. Mazkur tartibga solinadigan faoliyatlardan biri bu budjet tashkilotlarining xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanish maqsadida amalga oshirgan xaridlari ya'ni davlat xaridlaridir. Respublika budjetining asosiy qismi fuqarolar hamda yuridik shaxslar to'laydigan soliqdan yig'ilishini hisobga olganda, ularning soliq uchun to'laydigan puli turli xil talon-tarojlardan hamda korrupsion xavflardan himoya qilish muhim. Buning asosiy yechimi esa albatta xaridni o'tkazish davomida shaffoflik hamda erkin raqobat muhitini shakllantirish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ushbu masalani tartibga solishga qaratilgan "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonun qabul qilingan. Qonunning qabul qilinishi bilan davlat xaridlarini tartibga solish bilan bog'liq masalalar hamda savolli holatlar barchasi alohida tizimga solindi. Qonun bilan davlat xaridini amalga oshirishning bir qancha turlarini keltirib o'tadi. Ulardan biri bu tender ko'rnishidagi davlat xarididir. Tenderga qonunning o'zida berilgan ta'rifga

asoslanadiga bo'lsak, raqobatli davlat xarididan biri sifatida shartnomani bajarish eng yaxshi shartlarni taklif qilgan ishtirokchi bilan shartnoma tuzilishini nazarda tutadi⁶⁰

Tenderga boshqa turli xil ta'riflar ham mavjud xususan, tender - bu savdo tashkilotchisi (kelajakdagi shartnoma kontragentlaridan biri) tomonidan shartnomada ishtirok etishi tashkilotchining manfaatlariga eng mos keladigan boshqa kontragentni tanlash jarayonidir deyiladi adabiyotlarda⁶¹.

Tender ishtirokchilari mijoz(davlat buyurtmachisi), yetkazib beruvchi(ishtirokchi yoki tender natijalari bo'yicha go'lib) va elektron savdo maydonchasi (maxsus axborot platformasi) hisoblanadi.

Elektron savdo maydonchasi - bu boshqa tomonlarning savdolari o'tkazish va shartnomalar tuzish maqsadida o'zaro hamkorlik qilish imkoniyatlarini ta'minlaydigan resurs. Tender ko'rinishidagi davlat xaridi ham buyurtmachi tomonidan elektron savdo maydonchasida o'tkaziladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tender o'tkazish ta'riflarda ham berib o'tilganidek, eng yaxshi shartlar taklif qilinganda shartnoma imzolanadi. Bu shartlar nafaqat pul bilan bog'liq balki, miqdoriy hamda sifat bilan bog'liq baholanishni ham o'z ichiga oladi. Shartlar kim tomonidan yoki qanday tartibda belgilanishi masalasini ko'rib chiqamiz. Qoidada aytib o'tilganidek, davlat xaridida tender raqobatli savdo qilish usuli hisoblanadi. Bunda inson omili aralashuvini kamaytirish maqsadida qonunchilikda majburiy tartibda uning elektron tartibda o'tkazilishi belgilangan. Qonunchilikda nazarda tutilgan ayrim holatlarda buni chetlab o'tish mumkin.

Savdo ishtirokchilarining har biri o'ziga xos bo'lgan huquqiy maqomga ega hisoblanib, boshqa tomonning vakolatlarini amalga oshirish huquqiga ega emas, aks holda xaridlar paytida manipulyatsiya xavfi keskin oshadi, natijada g'olibni tanlash tartibi buziladi. Ya'ni bunda har kim o'zi uchun belgilangan aniq faoliyat bilan shug'ullanadi. Undan ortig'iga harakat qilish yoki to'liq bajarmaslik savdo o'tkazilishi yoki uning natijasini xavf ostida qoldirishi mumkin.⁶²

Elektron raqamli imzo elektron tarzdagi davlat xaridi uchun muhim element hisoblanadi. Uning mavjud bo'lishi tender tashkil etish hamda unda ishtirok etishni kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasida mavjud qonunchilikka ko'ra davlat xaridi sifatida tenderni o'tkazish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

⁶⁰ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.04.2021-y., 03/21/684/0367-son

⁶¹ Белов В.А. Гражданское право: Общая часть: учебник. М.: АО «Центр ЮрИнфоР», 2004. С.267.

⁶² Service specification in pre-tender phase of public procurement - A triadic model of meaningful involvement – Anne Maria Holma , Jukka Vesalainen ^b, Anne Söderman , Joha na Sammalmaa

1. Xarid komissiyasini tuzish. Qonunda belgilab o'tilganidek bu yetti nafar a'zodan iborat tarkibda tuziladi. Ushbu komissiyani tuzish uchun davlat buyurtmachisi ma'sul hisoblanadi. Bunda xarid komissiyasiga alohida rais tayinlanadi hamda toq sondan iborat tarkibda tuziladi. Ular xarid qilishni tashkil etish hamda takliflarni baholash jarayoni uchun ma'sul hisoblanadilar. Xarid komissiyasining majlislari faqatgina a'zolarining uchdan ikki qismi mavjud bo'lgandagina vakolatli hisoblanadi. Tender o'tkazish jarayonida bu biroz mujmalliklarga sabab bo'lishi mumkin. Sababi 7 kishidan iborat tarkibda a'zolarining bunday foizlarda hisoblanishi 7 kishidan to'rt nafari qatnashganda vakolatli hisoblanmaydi ammo besh kishi qatnashganda vakolatli hisoblanishi matematik usulda hisoblanishini keltirib chiqaradi. Buning o'rniga aniq a'zolar soni ko'rsatilishi maqsadga muvofiq bo'lardi degan xulosa ham kelib chiqadi.

Ikkinchi bosqich bu tender bo'yicha e'lon berish bo'ladi. Bunda davlat buyurtmachisi elektron tarzda e'lon berishning bir qancha yo'llaridan foydalanishi mumkin. Xususan: axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga, shuningdek davlat buyurtmachisining xohishiga ko'ra uning veb-saytiga yoki uning yuqori turuvchi organining rasmiy veb-saytiga, shuningdek ommaviy axborot vositalarida tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni va tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarini joylashtirish yo'li bilan ma'lum qilinadi.

Bunda ushbu turdagi qoidalarining bir qancha turlari kiritilishidan maqsad ishtirok etish istagida bo'lgan hech kim bexabar qolib ketmasligini ta'minlashdir. Bunda hujjatlarni jamlash hamda topshirish uchun ham maqbul muddat belgilangan bo'lib, u kamida 10 kun ko'pi bilan 30 kundan iborat bo'lishi kerak. Tender to'g'risida e'lon qilish bilan bir paytda uning uning xarid qilish hujjatlari ham platformaga joylashtiriladi. Mazkur hujjatlarning ro'yxati alohida komissiya tomonidan tasdiqlanadi. Hujjatlarga qo'shimcha tariqasida shartnoma loyihasi ham ilova qilinadi. Unda ishtirok etuvchi shaxslar hujjatlar topshirish bilan bog'liq tushunmovchiliklar bo'yicha davlat buyurtmachisidan rasmiy tushuntirish olish huquqiga ega hisoblanadi.

Keyingisi bu - takliflar berish bilan bo'g'liq qismi. Bunda belgilangan muddat ichida zarur deb topilgan hujjatlarni tender tashkilotchisining manziliga muhrlangan holda yuboradi. To'plangan hujjatlarning to'g'ri ekanligi uchun aynan ishtirokchining o'zi javobgar hisoblanadi.

Oxirgi eng muhim bosqich bu takliflarni ko'rib chiqish hamda baholash. Ushbu bosqichda xarid komissiyasi tominidan 45 kundan kechikmagan muddat ichida hujjatlar ko'rib chiqiladi hamda baholanadi. Bunda kamida 2ta ishtirokchidan hujjatlar kelib tushgan bo'lishi lozim. Baholash davomida komissiya a'zolarining

aryim huquqlari mavjud. Bunda komissiya a'zolari rozilik berishi yoki qarshi ovoz berishi yoki umuman ovoz berishdan bosh tortish huquqiga ega. Ovizlar soni teng kelib qolgan taqdirda komissiya raisining ovozi hal qiluvchi bo'lib hisoblanadi.

Bunda raqobatli usul bo'lishi uchun maksimal darajada harakat qilingan. Ya'ni hamma hujjati to'liq bo'lgan hamda ikki bosqichdan ham o'tgan kamida ikkita ishtirokchi bo'lmagan holda tender o'tkazilmagan deb hisoblanadi. Ushbu qoidaning kiritilishi bir kishi nomidan ko'z bo'yamachilikka tenderda ishtirok etishlarning oldini oladi.

Shartnoma tuzish bosqichi. Bunda g'olib deb topilgan ishtirokchi bilan xarid hujjatalri hamda go'lib tomonidan taklif qilingan shartlar asosidagi qoidalar bo'yicha shartnoma tuziladi. Bunda go'lib shartnoma tuzishdan bosh tortgan holda zaklat summasi qaytarib berilmadi. Ushbu holatda savolli vaziyat kelib chiqadi. Qanday holatda g'olib deb topilgan ishtirokchi shartnomadan bosh tortishi mumkin. Ushbu tenderga qattiq tayyorlangan hujjatlarni to'liq qilgan holda qanday sababga ko'ra bosh tortishi biroz tushunarsiz. Bunda qonun chiqaruvchi kamchiliklar aniqlangan holda shartnoma tuzilishining bekor bo'lish holatlari nazarda tutilishi maqsadga muvofiq bo'lardi.

Elektron tender o'tkazishning bir qancha asosiy afzalliklari mavjud.

Birinchiidan, bunda onlayn ishtirok etish imkoniyati mavjud, shaxsiy ishtirok etish shart emas ya'ni siz boshqa shaharda bo'lib turgan holingizda ham tenderda qatnashishingiz mumkin. Bu ofisingizda kompyuterda o'tirish imkoniyatini beradi hamda transport xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Ikkinchiidan, protsedurani tashkil etish va o'tkazish uchun byudjet mablag'laridan tejamkor hamda oqilona usulda foydalanish imkoniyatini yaratadi. Ananaviy turdagi tender uchun ma'lum vaqtni belgilashni talab qiladi. Bunda ayrimlar kela olamasligi bilan bog'liq yoki boshqa sabab bilan keyinga qolib ketishi mumkin. Uchinchiidan, elektron tenderlar nafaqat yirik, balki o'rta va kichik korxonalarining davlat buyurtmalariga kirish imkonini beradi, ikkalasi uchun ham savdo bozorlari kengaytiriladi. Ular o'z xizmatlarini raqobatli usulda taqdim eta olishadi. Shuningdek, kim oshdi savdosi ishtirokchilari o'rtasida halol raqobat, savdo jarayonining shaffofligi va ochiqligini ta'minlaydi. Qiziqish bildirgan ishtirokchilar tender bo'yicha ma'lumotlarni tezkor izlash hamda uning ma'lumotlarini olish kabi afzalliklar mavjud. Shuncha afzalliklarga qaramasdan uning bir qancha kamchiliklar ham mavjud.

Birinchiidan, tender jarayonini buzishi mumkin bo'lgan texnik nosozliklar xavfi mavjud va bu eng hal qiluvchi pallada sodir bo'lishi mumkin. Texnik nosozlik bu insonga umuman olganda subyektiv bo'lmagan sabab hisoblanadi. Qanchalik yaxshi ishalashini xohlasakda u bizga bo'ysunmay qolishi mumkin.

Ikkinchidan, kiber hujumlari amalga oshirilishi mumkin. Bugungi kunning eng muhim muammolaridan biri. Hech bir tizim kiber hujumdan to'liq himoyalangan.

Bir qancha ijobiy hamda salbiy tomonlari bo'lishiga qaramasdan, tender ko'rinishidagi davlat xaridi an'anaviy turidan ancha ustun hisoblanadi.

Tender boshqa turdagi davlat xaridlaridan raqobat muhitining ancha obyektiv tarzda yo'lga qo'yilganligi hamda korrupsiyaviy omillarni chetlab o'tishi bilan qolganlaridan ko'ra ancha ishonchli. Biroq bunda ham ayrim holatlar mavjud buni inkor etib bo'lmaydi albatta. Bu o'zaro kelishuv asosida raqobat muhitini buzishga qaratilgan takliflarning komissiya tomonidan tanlanishi. Bunda boshqalar qatnashgan taqdirda ham g'olib bo'lish imkoniyati cheklanadi. Keyingisi, bu tadbirkorlar o'rtasida hali hamon o'zari kelishuv asosida bir tender uchun boshqasini qurbon qilish holatlari ko'zga tashlanib turadi. Bunda raqobatchi sifatida aynan so'nggi bosqichda mag'lub bo'lish uchun o'zaro solishtirilgan holda tender uchun hujjatlar topshiriladi. Bir qaraganda raqobat muhiti mavjud. Ikkita qatnashuvchi bor hamda hujjatlar to'liq. Ayana so'nggi qismda bittasining ustunligi qayd etilgan bo'ladi. Boshqa davlatlarda tender bilan bog'liq ajoyib tajribalar mavjud. Xususan, Buyuk Britaniyada tenderdan keyingi muzokaralar bosqichidan foydalanish imkoniyati mavjud. Bunda ishtirokchi tomonidan narxni tushirish bilan bog'liq muzokalar olib borilishi mumkin. Biroq ularda ham ayrim shunday tushunmovchilik holatlari mavjud. Masalan, Sog'liq saqlash qo'mitasi narx bilan bog'liq muzokara o'tkazish jarayoniga ta'qiq qo'ygan. Bu ta'qiq qonuniy asos ega hisoblanadi.

Bundan tashqari Buyuk Britaniyada xaridlar siyosatining eng muhim talabi shundan iboratki, barcha davlat xaridlari "sotib olingan tovar yoki xizmatlardan foydalanish davrida eng kam xarajat evaziga sifat va samaradorlikning eng yaxshi aralashmasi" sifatida belgilangan pul qiymatiga asoslanishi kerak. Ya'ni bunda sifatdan oldinda pul turadi. Ular ham agar qandaydir jiddiy sabablar bo'lmasa, raqobat orqali erishish kerak deb hisoblashadi. Ularda tender jarayonida Davlat shartnomalari to'g'risidagi Nizomga (yoki Mudofaa va xavfsizlik davlat shartnomalari to'g'risidagi Nizomga) bo'ysunmasa, shartnomaning taxminiy qiymati tegishli chegaradan past bo'lsa, siz kamsitmaslik, tenglik, oshkoralik tamoyillarini qo'llashni davom ettirishingiz kerak deb hisoblashadi. Ya'ni bunda narx taqdim etuvchilar belgilangan talablarni bajargan holda ular bir xil – teng sharoitlarda raqobat muhiti yaratib berish lozimligini nazarda tutadi⁶³.

Respublikamizda davlat xaridi jarayonida raqobat muhitini vujudga keltirishning asosiy qadamlaridan biri bo'lgan maxsus tartibga soluvchi qonun qabul qilingan

⁶³ <https://www.gov.uk/guidance/public-sector-procurement-policy#tenders-not-covered-by-the-public-contracts-regulations-2015>

bo'lsada, hamon ayrim muammolar mavjudki, bu muammolar tashkiliy holat bilan bog'liq emas. Davlat xaridi bilan hamon to'liq qamrab olinmagan xarid turlari mavjud. So'nggi statistic ma'lumotlarga ko'ra amalga oshirilayotgan savdolarning 30 foizi davlat xaridi qoidalari bo'yicha o'tkazilmoqda. Qolgan 70 foizi hamon yagona yetkazib beruvchilar bilan tuzilayotgan to'g'ridan to'g'ri shartnomalarga to'g'ri keladi. Garchi O'zbekiston Respublikasi Raqobatnirivojlantirish qo'mitasi tomonidan ularning soni kamaytirilishga harakat qilinayotgan bo'lsada, amalda ularning soni hamon ko'p. Yagona yetkazib beruvchilar reyteri ko'rib chiqilsa, ularning aksarining faoliyati tabiiy monopoliyaga tortmasligiga guvoh bo'linadi. Bunda raqobat muhitiga tabiiy bo'lmagan to'siqlar yuzaga keltirilgan. Agar davlat budjeti mablag'lari qonunda belgilanganidek raqobat muhitida shaffof foydalanilsa, barcha birdek manfaat ko'rishiga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridi to'g'risida"gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.04.2021-y., 03/21/684/0367-son
2. Белов В.А. Гражданское право: Общая часть: учебник. М.: АО «Центр ЮрИнфоР», 2004. С.267.
3. Service specification in pre-tender phase of public procurement - A triadic model of meaningful involvement
Maria Holma, Jukka Vesalainen, Anne Söderman, Johanna Sammalmaa.
4. ЭЛЕКТРОННЫЕ АУКЦИОНЫ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ М.П. Селезнёва, Самарский государственный экономический университет (Россия, г. Самара)
5. Imomniyozov, D. (2023). THE SYSTEM OF CONTRACTS: ASSESSING THE VALIDITY OF PRIVATIZATION OF STATE PROPERTY. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(7), 13-17.
6. Пашков П.А., Горлов В.В., Муза Ю.А., & Родин Н.М. (2023). ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗЕЛЕННЫЕ ЗАКУПКИ. Экономические системы, 16 (1), 159-166.
7. Ерёмкина К.О., & Татеосян Т.М. (2020). УПРАВЛЕНИЕ ГОСУДАРСТВЕННЫМИ ЗАКУПКАМИ. Форум молодых ученых, (1 (41)), 182-184.
8. ПРОВЕДЕНИЕ ЭЛЕКТРОННЫХ АУКЦИОНОВ В РАМКАХ КОНТРАКТНОЙ СИСТЕМЫ Ерофеев Филипп Станиславович, аспирант. Место учёбы: Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова.

Подразделение: кафедра гражданского права и процесса. E-mail: mosssp@mail.ru

9. Doniyorbek, I. (2022). MAJBURIYATNI BAJARMAGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNI QO'LLASH MUAMMOLARI.

10. <https://www.oecd.org/gov/ethics/>

11. <https://www.gov.uk/guidance/public-sector-procurement-policy#tenders-not-covered-by-the-public-contracts-regulations-2015>

IMPLEMENTATION OF COMPETENCE APPROACH IN TEACHING NON-LINGUIST STUDENTS ENGLISH BY MEANS OF INTERACTIVE TECHNOLOGIES

Khidirova Umida Islom kizi

Karshi Institute of Engineering and Economics

Teacher of English at the chair of “Foreign Languages”

ABSTRACT

The article describes interactive technologies that change the approach to teaching and enhance non-linguist students' communicative activity. In the present paper interactive technologies are considered as special forms of lesson organization which simulate real situations which encourage students to interact and make a joint decision. Use of interactive technologies allows to create a comfortable and communication boosting atmosphere. That leads to significant changes in teachers' behavior as well as in the approach to planning and conducting English lessons. To achieve the set goals, we chose a cluster of interactive methods according to the forms and principles of lesson organization, current teaching conditions and students' ability to speak English.

Keywords: *competence approach, interactive technologies, interactive teaching, project, discussion, brain storm, role and business games, case-study, workshop.*

РЕАЛИЗАЦИЯ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА В ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ НЕЯЗЫКОВ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ С ПОМОЩЬЮ ИНТЕРАКТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Хидирова Умида Ислом кизи

Каршинский инженерно-экономический институт

Преподаватель английского языка кафедры «Иностранные языки»

АННОТАЦИЯ

В статье описаны интерактивные технологии, которые меняют подход к обучению и активизируют коммуникативную активность студентов-нелингвистов. В данной статье интерактивные технологии рассматриваются как особые формы организации урока, моделирующие реальные ситуации, побуждающие учащихся к взаимодействию и принятию совместного решения. Использование интерактивных технологий позволяет создать комфортную и располагающую к общению атмосферу. Это приводит к существенным изменениям в поведении учителей, а также в подходе к планированию и проведению уроков английского языка. Для достижения поставленных целей

мы выбрали кластер интерактивных методов в соответствии с формами и принципами организации урока, текущими условиями обучения и способностью студентов говорить по-английски.

Ключевые слова: компетентностный подход, интерактивные технологии, интерактивное обучение, проект, дискуссия, мозговой штурм, ролевые и деловые игры, кейс-стади, мастер-класс.

INTRODUCTION

Modern methods of teaching foreign languages still pay great attention to information and communication technologies, while the requirements for the quality of the educational process in universities require the widespread introduction of developmental and student-oriented technologies. The modernization of Russian education consists not only in revising the content of educational material, but to a greater extent in revising teaching methods, using effective teaching techniques, intensifying student activity in the classroom, and developing their skills to find solutions to problem situations [2, p. 54]. Many modern scientists, methodologists, such as I.V. Larionova [3], V.Ya. Lyaudis [4], N.D. Galskova [4], E.S. Polat [5], and others, note that passive teaching methods negatively affect students' learning motivation. They develop an indifferent or negative attitude towards learning. That is why it is necessary to change the approach to learning so that students are not passive, they are able to independently find the necessary information, exchange share opinions, defend your point of view, take part in discussions, communicate in a foreign language on every day and professional topics.

If previously a teacher acted as a mentor and transmitter of knowledge, now he is required to change his entire approach to the learning process, turn his thinking around and become an assistant, a guide for students. To do this, it is necessary to create such conditions for communication so that students are included in the situation being studied, are encouraged to take active action, experience a state of success, in other words, so that they have an urgent need and motivation to develop language skills. It is interactive methods that best meet these requirements [6].

When using interactive methods, the educational process is based on the joint activity of all students in the group, without exception, since everyone makes their own individual contribution. In the course of work, there is an exchange of knowledge, ideas, and methods of activity. The teacher has the opportunity to organize various types of work: individual, pair and group, project work, role-playing games, etc. An environment of educational communication is created, which is characterized by openness, interaction of participants, equality of their arguments, accumulation of joint knowledge, and the possibility of mutual assessment and

control. When implementing interactive learning, it is necessary to adhere to the basic principles: interaction, activity, reliance on group experience and mandatory feedback [7].

AIM OF THE WORK.

The purpose of this work is to determine the place of interactive technologies in the system of classes when teaching English and to select the most effective forms for teaching students in non-linguistic areas of university training.

The teacher, along with new knowledge, leads the training participants to an independent search, motivating them to work with various sources of information, becoming one of such sources [8]. In the methodology of teaching foreign languages, there are three forms of interaction between teacher and students: passive methods, active methods and interactive methods.

The passive method is a form of interaction when the teacher controls the course of the lesson, and students act as passive listeners. Typically, this method is used when conducting surveys, independent work, tests, tests, etc. This method is characterized by easy preparation of the teacher for the lesson and the ability to deliver a larger amount of educational material in a limited time frame of the lesson.

The active method is a form in which the teacher and students interact with each other. Students are active participants, the teacher and students have equal rights. If passive methods presupposed an authoritarian style of interaction, then active ones presuppose a more democratic style.

Despite the fact that active and interactive methods have some commonality, there are differences between them. The interactive method is considered as the most modern form of the active method. Interactive method (inter - mutual, act - act in English) - means to interact, to be in the mode of dialogue, conversation with someone. Unlike the active method, the interactive method is focused on the interaction of students with the teacher and with each other, as well as on the dominance of student activity in the learning process. The teacher develops a lesson plan and directs the students' activities to achieve the goals of the lesson.

DISCUSSION.

Interactive learning is a special form of organizing cognitive activity. Its goal is to create comfortable conditions for learning, in which the student feels his success, his intellectual competence, which makes the learning process productive. The objectives of interactive forms of training are:

- increasing student interest;
- effective assimilation of educational material;

- students' independent search for ways and options for solving a given educational task (choosing one of the proposed options or finding their own option and justifying the solution);

- establishing interaction between students, learning to work in a team, show tolerance to any point of view, respect everyone's right to freedom of speech, respect their dignity;

- formation of students' opinions and attitudes;

- formation of life and professional skills;

- reaching the level of conscious competence of the student.

To solve educational problems, the following interactive forms can be used: project, round table (discussion, debate), brainstorming, business and role-playing games, case-study (analysis of specific situations), master class. There are other interactive forms of training (methods "Take a Position", "Decision Tree", trainings, group discussion, interactive excursion, video conference, focus group and others) that can be used in the classroom. In addition, the teacher can develop new forms himself, depending on the purpose of the lesson, as well as modernize and improve existing forms.

In the process of preparing for a lesson, the teacher, depending on the purpose of the lesson, must select suitable interactive forms or may even combine several teaching methods to solve the problem.

The interactive lesson requires adherence to the following principles:

- activity - general team work;

- all participants are equal;

- each participant has the right to his own opinion on any issue;

- there is no place for direct criticism of the individual (only the idea can be criticized).

There is an algorithm for preparing and conducting an interactive lesson, which includes a preparatory part, introduction, main part and conclusions (reflection). It can be supplemented or modified depending on the students' level of foreign language proficiency, the purpose of the lesson and the content of the educational material. Let's look at the general characteristics of the following methods:

1. Project - (from the Latin projectus - speaking) is an independent individual or group creative activity. The advantage of the project method is that it motivates and creates comfortable conditions for communication, develops the ability to work with information, independence and initiative, presentation skills, and the ability to work in a team.

2. Round table (discussions, debates) is a method that allows students to develop the ability to express their thoughts, argue, justify and defend their opinions, find a common solution to a problem, and be tolerant of the opinions of others.

3. Brainstorming is a quick method of solving a problem, in which participants offer as many solution options as possible, even the most fantastic ones, and choose the most effective ones for use. This method develops communicative competence and creativity.

4. Business and role-playing games are simulations of communication situations in which students are close to real life and professional conditions. This activity transforms the acquired knowledge into an activity context. Modern technology offers a huge variety of games.

5. Case-study - this method is based on situational analysis of real situations (identifying problems, finding solutions). Its advantage is that students, analyzing the situation, exchange ideas and experiences, independently study the problem and make their individual contribution to solving the problem.

O‘zbekiston xalq rassomi akademik Malik Nabiyev buyuk siymolar obrazini o‘ziga xos talqin eta olgan iste‘dodli mo‘yqalam sohibidir. Uning «Amir Temur» portreti fikrimiz dalilidir. Buyuk Sarkardaning, taxtda o‘ychan qilichga qo‘llarini qo‘yib o‘tirgan holati mohirona tasvirlangan. Uning yurt tinchligi, xalq farovonligini o‘ta ziyraklik bilan mushoxada etayotganligi ishonarli ko‘rsatilgan. Boshidagi shoxlik toji barvasta qomatlariga juda mos tushgan. Uning nihoyatda qattiq qo‘lligi, dovyurak va abjirligi, o‘ta zakovatlilik yuzidagi qiyofada o‘z ifodasini topgan.

Inson obrazini yaratish – tasviriy san‘atda eng murakkab jarayon hisoblanadi. Tasviriy san‘atning portret janri insonning ma‘naviy qiyofasini o‘zida ifodalashi bilan san‘atning boshqa turlaridan bir muncha farq qiladi. Tasviriy san‘atning asarlarini yaratishda portret rangtasvir ishlash orqali inson obrazini mohirona ko‘rsata olgan buyuk rassomlar qatoriga Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Rembrandt, shuningdek, o‘zbek rassomlaridan Abdulxaq Abdullayev, Rahim Axmedov, Chingiz Axmarov, Malik Nabiyev va boshqa bir qancha rassomlarni kiritish mumkin.

Tasviriy san‘atning asarlarini yaratishda portret rangtasvir ishlashi ko‘rinishini sharqda qiyofa ilmi deyishgan va u bilan shug‘ullanish man etilmagan. Masalan, Muhammad alayhissalomning «Utlub ul-xayri min hison il-vujuh» hadislarida bir misol keltirilgan va uning mazmuni quyidagicha «Sizlar yaxshilikni chiroyli yuzlilardan qidiringlar».

Inson qiyofasini obrazli tasvirlash – bu juda qiziqarli san‘at bo‘lib, u insonlarni yuzi, a‘zolari, tuzilishi, rangi, inson tanasini harakat holatlari, kulishi, uxlash holati kabilardan uning psixologik xarakterini kompozitsiyasini topishga o‘rgatadi. Xitoy va Ovroqada inson qiyofasini o‘qish san‘ati mavjud, u qadimdan to shu kunlarga davom etib kelmoqda. Har bir insonning fe‘l-atvoriga bog‘liq holda tashqi ko‘rinishi berilar ekan. Ko‘zi, qoshi, yuzi, umuman, chehrasi ichki olamiga monand bo‘ladi. Shuning uchun yuzini tasvirlashda odam fe‘l-atvorini yanada chuqur o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish zarur. Chizg‘ilarni qalbdan yuritish buyuk bir san‘atdir.

Bizning fikrimizcha, bunday maxsus psixologik holatni tasvirlash jarayonida psixologiya san'ati kabi rassom-pedagog mutaxassislarni tayyorlashda juda katta ijobiy ta'sirini o'tkazadi. Ular inson qiyofasini rangtasvir, miniatyura va boshqalarda aks ettiradi. Inson qiyofasining dinamik holatlardan eng xarakterli holati kulgi va yig'idir. «L.N.Tolstoy o'z asarlarida odamning ruhiy holatini ifodalovchi ko'rinishlarning 85 xilini va kulishning 97 xilini tasvir etgan».

«Har xil sabab bilan yig'lagan paytda odamning qoshi va og'zi har xil qiyofada o'zgaradi», - degan edi Leonardo da Vinchi.

Psixolog P.M.Yakobson tomonidan ishlangan rasmlardan ko'rinib turibdiki, odamning aftidagi qiyofa, asosan, lablar, qosh va ko'z o'zgarishlarining bir-biriga nisbatan turlicha holatiga, shuningdek ko'zning qanchalik chaq nab turishiga bog'liqdir».

Tomoshabinning asosiy diqqati portretning bosh, yuz qismiga ko'proq qaratilgan bo'ladi. Tasviriy san'at asarlarini yaratishda «plenerda»da portretida eng muhimi uning ko'inishi va yuz ifodasidir. Aynan shu ifodada insonning ichki ruhiy dunyosi aks etadi. Inson xarakterini, umuman butun borlig'ini yorqin namoyon etadigan ifodani topish juda muhimdir. Boshqa detallar esa uni to'ldiradi va kuchaytiradi. Inson tasvirida ko'z, burun va lablar uning xarakterini ifodalaydi.

Ko'zdagi rangdor pardaning rangi odamda hayotiy kuchlar bor - yo'qligini ko'rsatadi: qora, jigarrang va yashil ko'z pardasi - jo'shqinlikdan, g'ayratdan; moviy rang - ta'sirchanlikdan; och jigarrang parda - tortinchoqlikdan dalolat beradi.

Yaponiyada qirqqa yaqin ko'z turlari o'zaro farqlanadi va muayyan hayvonga xos xatti-harakatdagi ko'zlar o'sha turdagi odamga hos deb hisoblanadi. Burun haqida - burun shakli 40 yoshdan keyin barqarorlashadi. Risoladagidek burunning uchi yumaloq, parraklari yaqqol shakllangan bo'ladi. Burun teshiklarining haddan ziyod kattaligi shaxsiyatdagi nuqsonlardan darak beradi. Buruni chiroyli odam kuchli shaxs hisoblanadi. Uzun burun, odatda, yaqqol ko'rinib turuvchi shaxsiyat belgisidir. Lekin u turli ko'rinishda xilma-xil ma'nolarni anglatadi.

Mutaxassislarning fikriga qaraganda erkaklar, ayollar og'izining, ya'ni lab tuzilishida ma'lum ma'nolar yotar ekan. Kuyida o'ziga xos ana shunday lab tuzilishlarini rangtasvir mashg'ulotlar jarayonida amaliy ishlarida qo'llash uchun ta'rifini keltiramiz. Masalan, la'li g'unchalar - ko'rinib turgan lablardagi nafis chiziqlar, o'ziga xos mayin, oq ko'ngil, iboli va halolligidan nishonadir. Labi yaproqlar - yupqa lab sohiblari bosiq, vazmin bo'lsalarda, hamisha maftunkordirlar. Ko'rinishdan qiziqqon, lekin o'zlarini tuta bilishda ularning oldiga tushadigani bo'lmaydi. Bundaylarni yo'ldan "urish" osonmas. Boisi, bunday ayollar hamisha tiniq fikr yuritadilar. Uyg'unlashgan lablar - qandaydir iymanish va istiholaga

borayotganligi sezilib turgandek bunday lab sohiblari aksariyatini ma'naviyati yetarli bo'lib, yozuvchi, shoirlarga xosdir. Ular haqiqat bilan kechirishni mohirona moslashtira bilishadi.

XULOSA

Qo'lga qarab odamning kasbi, xarakteri, xatto bajaradigan ishini ham aniqlash mumkin. Bosh xarakteri uning burilib, egilib turishi, yuz mimikasi, gavdaning umumiy holati inson xarakterini ochishga yordam beradi. Insonning ichki ruhiy holatini ifodalash rassomning muhim, asosiy vazifasidir. Xarakterli ishoralar ham rassom nazaridan qolmasligi zarur. Ular yuz ifodasiga mos bo'lishi kerak. Inson dunyoqarashi uning ruhiyati, har bir harakati, o'zini tutishi, voqealarga bo'lgan munosabati, fikrlashi ham obrazni to'laqonli yoritishga yordam beradi. Qarakat insonning eng zo'r o'ziga xos xarakteridir. Bu narsani faqat mavzuli asar ishlaganda emas, portret ustida ish yuritish jarayonida ham unutilish kerak emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. N.Abdullayev San'at tarixi II-jild I-kitob «San'at», Toshkent, 2001.
2. V.P.Shevchenko «Odam anotomiyasi va rasm». T., A.Qodiriy Nomidagi Xalq me'rosi nashriyoti 1996.
3. N.K.Axmedov. «Odam anotomiyasi» Atlas. Ibn-Sino.T. I-jild. 1996. II-jild 1998.
4. A'Zamjonov, A., & Muhammadali, C. (2022). TASVIRIY SAN'AT DARSLARINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 84-88.
5. A'Zamjonov, A. A. Z. (2022). UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHGA INNOVATSION YONDASHUV YO'LLARI MAVZUSI BO'YICHA AMALIY ISHLANMA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 56-60.
6. A'Zamjonov, A., and Ko'Hinur Hamdamov. "TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARI MAZMUNINING DAVLAT TA'LIM STANDARTLARI BILAN BOG'LIQLIGI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.10-2 (2022): 71-77.
7. A'Zamjonov, A., & Ibrohimov, A. (2022). O'ZBEKISTON TASVIRIY SAN'ATI MEROSI AN'ANALARINI ILMIY PEDAGOGIK JIHATLARINI O'RGANISHNING AMALIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 151-156.

8. A'Zamjonov, A., & Kimsanboyev, M. (2022). O'QITUVCHI FAOLIYATIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 199-205.
9. Davron, O., & Muxammadjon, U. (2022). MODERN METHODS OF TEACHING FINE ARTS. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(8).
10. A'Zamjonov, A. A. Z., & O'Rinov, M. X. O. G. L. (2022). CHIZMACHILIK FANI DARSLARIDA UYG'UNLASHGAN TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 1009-1016.
11. A'Zamjonov, A. A. Z., & O'Rinov, M. X. O. G. L. (2022). TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING CHIZMACHILIK FANIDAGI O'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 1032-1038.
12. Сулайманова, С., Омонов, Д., & Аъзамжонов, А. (2022). Алишер Навоий асарларидан бадийий олий таълим муассасаларида тасвирий санъатни ўқитиш жараёнида фойдаланишнинг зарурияти. *Research Focus*, 1(2), 272-277
13. Arziyeva, N., & Dodoboyev, A. (2022). TASVIRIY SAN'AT VOSITASIDA O'QUVCHILARINING BADIY VA IJODIY QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 996-1002.
14. KAMOLOV, I. B., & ARZIYEVA, N. (2021). The Practical and Social Importance of Art in The Spiritual and Moral Form of the Person.
15. Курбанова, Б. М., Юнусалиев, М., & Арзиева, Н. (2022). ОСОБЕННОСТИ ТЕХНИКИ: АКВАРЕЛЬ, МАСЛО И ГУАШЬ. *Research Focus*, 1(2), 319-325.
16. Sulaymanova, S. B. Q. (2023). BADIY AN'ANALARGA YO'G'IRILGAN QUROQCHILIK SAN'ATI NAMUNALARINING TASVIRIY SAN'ATDAGI O'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(9), 106-111.
17. Sulaymanova, S. (2023). IMPORTANCE OF THE PATCHWORK NEEDLEWORK IN STUDY WHICH HAS GIVEN A BIRTH TO APPLIED ARTS, BASED MUCH ON ANCIENT OLD-TIME TRADITION. *Science and innovation*, 2(C4), 9-12.

OLIY TA'LIM TALABALARIGA IQTISODIY INGLIZ TILINI O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Doniyorova Gulrux Shoniyozovna,
Qarshi Muhandislik Iqtisodiyot Instituti,
"Xorijiy tillar" kafedrasida katta o'qituvchisi.
<https://orcid.org/0009-0001-0210-1513>
gulrukh.1989.12.05@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'rganish (English for Specific Purposes - ESP) oliy ta'lim muassasasida akademik yo'nalishda yoki tashkilotlarda kasb yuzasidan ingliz tilini o'rganish demakdir. Biznes, muhandislik, aniq fanlar, tibbiyot kabi nofilologik sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun ham ingliz tili ko'nikmalariga ega bo'lganlik muhim qadam hisoblanadi. ESP akademik maqsadda yoki ma'lum kasbda faoliyat olib borayotgan soha vakillari uchun mo'ljallanadi. Ushbu maqolada biz oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodlari va jarayon bilan bog'liq muammo va kamchiliklar xususida fikr yuritamiz.

Kalit so'zlar: *ESP, til o'rganish, yondashuv, ehtiyojlarni tahlil qilish, autentik manbalar*

ABSTRACT

Learning English for Specific Purposes (English for Specific Purposes - ESP) means independent learning of the professional language in an academic direction at a higher education institution or in an organization. In non-philological fields ESP is intended for academic purposes or for the field of activity in a certain profession. In the following article, we discuss the problems and issues related to the methods and process of teaching English in higher education.

Keywords: *ESP, language learning, approaches, observational analysis, authentic resources*

KIRISH

Ingliz tilini nofilolog mutaxassislariga moslashtirilgan holda o'rgatish dunyo lingvistlari tomonidan salkam bir asrdan buyon takomillashtirib kelinmoqda. Dadli-Evans, Sent-Jon, T. Xatchinson, A. Uoters va P. Strevens tilshunoslikning ushbu yo'nalishi asoschilaridan hisoblanadi. Xatchinson va Uotersning ta'kidlashicha, "ingliz tili endi til o'qituvchilarining kasb doirasidan chiqib boshqa soha vakillarining xohish-istaklari, ehtiyojlari va talablariga moslashib boradi" [6]. O'rganuvchilar til ko'nikmalariga turli yondashuvlari asosida ega bo'lishi mumkin, chunki ularning

barchasi alohida shaxs va turli fundamental asoslarda shakllangan. Biroq talabalarning bo'lajak kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ularda til malakalarini shakllantirish va mustahkamlash o'qituvchining zimmasidagi vazifa hisoblanadi.

ESP, ya'ni ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'qitish kursi dasturlari Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida talabalarning til bilimlari va ingliz tilini bilish qobiliyatidan kelib chiqqan holda shakllantiriladi. Mashg'ulotlar kasb doirasidagi autentik matnlar bilan tanishish, nutqiy ko'nikmalarni mustahkamlash, idoraviy hujjatlar yuritishda qo'llaniladigan yozish malakasini shakllantirish, tinglab tushunish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi ya'ni amaliy saboqlar tarzida kechadi. Demak, amaliy mashg'ulotlarda o'qituvchi barcha o'quvchilarga o'z til ko'nikmalarini namoyon qila olish imkoniyatini bera olishi kutiladi, qaysidir o'rganuvchi nisbatan quyi darajadagi til ko'nikmasi tufayli o'zlashtirishdan ortda qolib ketishi kabi holatlardan saqlanish lozim bo'ladi. O'zbek va ingliz tillaridagi so'zlarning yozuvda aks etishi va nutqda jaranglashi turlicha, gapdagi so'zlarning ketma ketligi va hosil qilish konstruksiyalarida katta farq borligi asosiy to'siq bolishi mumkin. O'z tajribamizdan shuni aytishimiz mumkinki, talabaga eng avvalo chet tilini o'rganishning ahamiyatini, u orqali boriladigan akademik va kasbiy yutuqlar haqida ma'lumot berib, ularda xorijiy til konikmalarini egallashga ichki xoxish, qiziqishlarini uyg'ota olish muhimdir. Ular ingliz tilini yaxshiroq bilish bilan kelajakda qanchalik muvaffaqiyatli kadr bo'lishlarini tasavvur qilishlari lozim. Oddiy qilib aytganda, talabalar xorijiy tilni o'rganishda qiyinchilikka duch kelganlarida ham o'zlarini ilhomlantira olishlari, fikrlarini ifodalashning boshqa yo'llarini topa olishlari kerak.

METODLAR

Ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'qitishning eng samalari usul va yondoshuvlari xususida butunjahon tilshunos va metodistlari tomonidan uzoq muhokamalar, metodik tadqiqotlar olib borilgan. Xatchinson va Uotersning fikricha "Ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'qitish (ESP) ning aniq bir metodologiyasi mavjud emas, chunki tilshunoslikning ushbu yo'nalishining maqsadi lingvistik xususiyatlarni emas balki o'sha tilning o'zini o'rgatishdir." [6] Shu sababga ko'ra, ESP dasturlari va metodlari talabaning kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib shakllantiriladi. Ammo, grammatik tarjima metodiga javob sifatida yuzaga kelgan "to'g'ridan to'g'ri metod" yoki tabiiy metod ESP mashg'ulotlarida qo'llanilishi mumkin. Ushbu metod o'rganuvchini maqsad qilingan til muhitiga olib kirishning eng "tabiiy" yondoshuvi sifatida ifodalanadi. Ingliz tilini birinchi asosiy tili sifatida o'rganuvchilar so'zlarni va frazalarni butunligicha, anglatgan ma'nosiga qarab

tog`ridan to`g`ri abul qilishadi. ESP soha vakillarining fikricha darsda o`qituvchining grammatika yoki talaffuz qoidalari bilan mashg`ul bo`lishi bu eng katta xatodir. Ammo grammatik xatolarsiz chet tilida so`zlashish imkonsiz va buni amaliy mashg`ulotlarda hisobga olish zarur. ESP dasturi talabalarning bo`lajak kasbiy maqsadlariga va ish beruvchilarning talablariga mos tarzda yaratilishi muhim. Darsda talabalar so`zlarni va ularning ona tilidagi tarjimalarini daftarga yozish o`rniga o`sha xorijiy tilda so`zlashuvchilarning suhbatlarini audio mashqlar ko`rinishida tinglash va tushunilgan mazmuni so`zlab berish vazifasi o`rinlidir. Jon Teylor va Stefen Petlyerning "Career path: Accounting" majmuaviy kitobi ESP o`qitishda yaratilgan muvaffaqiyatli adabiyotlardan desak bo`ladi.

Accountant 1: *Dan, could you look at this for me?*

Accountant 2: *Sure, what is it?*

Accountant 1: *Well, I checked these numbers twice, but they still seem wrong.*

Accountant 2: *Let`s see... Three thousand five hundred over seven hundred is five.*

Accountant 1: *Right. And then I multiplied each entry by five.*

Accountant 2: *Oh, I see the problem. You weren`t supposed to divide thirty - five hundred by seven hundred.*

Accountant 1: *Are you sure?*

Accountant 2: *Yes, you need to multiply them.*

Dialogdagi Ajratib ko`rsatilgan jumlar kasbiy nutqning kalit so`zlari hisoblanadi. Suhbatni eshitish yakunlangach, talaba kalit so`zlardan foydalanib mazmuni o`z nutqida qayta shakllantirishi kutiladi. Bu metod orqali dialogni ko`r ko`rona yodlash emas, nutq malakasini oshirish mumkin.

Samarali ESP darslarini tashkil etishda yo`l qo`yiladigan yana bir muhim kamchilik bu o`rganuvchining qoniqarli darajada nutq shakllantirishi uchun o`rganilayotgan til muhitini yetarlicha yarata olmaslikdir. Haqiqiy ish muhitida kasbiy suhbatlarni samarali amalga oshirish uchun til o`rganuvchilar senariy asosida rol o`ynash mashg`ulotlarini olib borishlari ham natijali hisoblanadi. O`yinlarni tashkil qilishda o`qituvchining o`z ona tilida instruksiya tushuntirishi ham noto`g`ri. Rolli o`yinlarni tashkil etsih, jarayon, baholash, yo`l qo`yilgan kamchiliklar yoki yutuqlar muhokamasi hammasi maqsad qilingan til doirasida bo`lishi kerak. Shundagina talaba ham xatolar bilan bo`lsa ham xorijiy tilda so`zlashishga jur`at topadi.

ESP mashg`ulotlarida matn tarjimasini bilan davomli shug`ullanish ham yondoshuvdagi muhim kamchiliklardan hisoblanadi. Filolog bo`lmagan til

o`rganuvchilariga uzundan uzun zerikarli matnlar tarjimasiga sarflanadigan vaqtda o`qituvchi real autentik manbalarni olib tahlil jarayonini, izohlarni talabalarga havola qilishi mumkin. Ushbu usulda talabalar kundalik kasbiy suhbatda qo`llaniladigan so`zlar, iboralar, terminologiya bilan ishlaydilar. Hattoki, ba`zi holatlarda tanqidiy yondoshuvni ham shakllantiradilar, fikrlar qarama qarshiligi mashg`ulotning qizg`in kechishini ta`minlaydi, unchalik so`zlashuvga moyil bo`lmagan talaba ham muhokamalarga qatnashadi.

TADQIQOT VA MUHOKAMALAR

Izlanishimiz natijasida ESP ni o`qitishni samarali yo`lga qo`yish uchun oliy ta`lim muassasalari xorijiy tillar kafedralari kurs dasturini tuzishda mutaxassis kafedralar bilan hamfikrlikda faoliyat olib borishlari lozimligi aniqlandi. Jumladan, Qarshi muhandislik Iqtisodiyot institutida jami 31 ta ta`limiy yo`nalishlari mavjud. Ular texnik, muhandislik, neft va gaz, geologiya va konchilik, muqobil energetika, iqtisodiyot, oziq-ovqat texnologiyalari va boshqalarni o`z ichiga oladi. Demak, ushbu yo`nalishlarda tahsil oluvchi talabalar ham mutaxassislik fanlarini bilishlari ham ma`lum xorijiy tilda so`zlasha olish darajasini egallashlari kutiladi. Amaliy darslarda matn tarjimasini, grammatik tushunchalar va audio mashqlar bilan bir qatorda ingliz tilida so`zlashuvchi va boshqa davlatlar urf odatlari, tarixi, til xususiyatlari to`g`risida ham ma`lumotga ega bolib borishlari zarur. Masalan, neft va gaz sohasi bo`yicha ingliz tilini o`rganuvchi talaba dunyoning asosiy neft va gaz ta`minotchi davlatlar va xalqaro tashkilotlar haqida ham bilimlarni egallashlari muhimdir. Bugungi kunda Yaqin Sharq, Sharqiy Osiyo mamlakatlari, Eron, Livan va Janubiy Osiyoda tobora ko`proq odamlar ESP kurslarini oliy ta`lim muassasalari fan dasturlariga kiritishgan. Muhammad Ali Chaliqandiy o`z maqolasida, xalqaro savdo va martaba imkoniyatlari tufayli yuqorida tilga olingan mamlakatlar so`nggi paytlarda aniq maqsadlarda ingliz tilini o`rgatishni boshlaganini aytadi. [7]

XULOSA

Ingliz tili butun dunyo bo`ylab biznes, ilm-fan va texnologiyani amalga oshirish uchun muhimdir. U asosiy til bo`lmagan mamlakatlarda mashhur bo`ladi. Biz kompyuterlar uchun o`quv materiallarini yaratamiz va ingliz tilini o`rganuvchilarga turli madaniyatlarni yaxshiroq tushunishlariga yordam berish uchun yanada ilg`or real hayot matnlaridan foydalanamiz. Buning uchun ish beruvchilar va o`qituvchilar birgalikda ish uchun ingliz tili qanchalik yaxshi bo`lishi kerakligini aniqlash uchun ishlaydi. Muxtasar qilib aytganda, ESP har doim ingliz tilini ikkinchi yoki chet tili sifatida o`qitish bilan bog`liq. ESP o`qituvchilari o`z o`quvchilarining ehtiyojlarini va ular o`rganayotgan vaziyatlarni bilishlari muhim, garchi bu boshqalar qilayotgan narsa emas.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Kuk, V. Ikkinchi tilni o`qitish. 3-nashr. London: Hodder Arnold. 2001.
- a. Doniyorova Gulrukh Shoniyozovna, Linguistic analysis of coronavirus terms which “infected” our dictionary: on the example of world languages. *ACADEMICIA: An international multidisciplinary research journal*. Volume 11, Issue 2, 2021
2. Djabbarova Dilfuza G`ayratovna, Reading Skills Through Active Reading Techniques. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*. Volume 5. 2022
3. ESP O`zbekistonda Oliy ta`lim dasturi. Toshkent. Avgust 2020.
4. Gulruh Doniyorova Shoniyozovna, Interpretating English Terminology in Social and Political Aspects of the Society. *International Journal on integrated education*. Volume 5, Issue 3. 2022
5. Hutchinson, T., & Waters, A. *English for specific purposes: A learning-centered approach*. Cambridge, England: Cambridge University Press. 1987.
6. Muhammad Ali Chalikandy, Muayyan maqsadda ingliz tilini o'rgatishning keng qamrovli usuli. *Arab World English Journal, AWEJ* Volume.4 Number.4, 2013
7. Johns, A., & Dudley-Evans, T. (1991). *English for specific purposes: International in scope, specific in purpose*. *TESOL Quarterly*, 25
8. John Taylor, Stephen Peltier, *Career Path: Accounting*. Express Publishing 2013.
9. Strevens, P. *Special-purpose language teaching: A Perspective*. *Language Teaching and Linguistics Abstracts* 10, 3. 1977.

BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA LOYIHALASH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Nasirova Shahlo Qutbiddinovna

Navoiy davlat pedagogika instituti, Biologiya kafedrasini o'qituvchisi.

shahlonasirova55@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Biologiya fanini o'qitishda loyihalash texnologiyasi, ya'ni ijodiy xarakterdagi loyihalar, rolli o'yin loyihalari, izlanish xarakteridagi loyihalar, amaliy xarakterdagi loyihalardan foydalanish haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *ijodiy xarakterdagi loyihalar, rolli o'yin loyihalari, axborot texnologiyalari, ta'lim - tarbiya, izlanish xarakteridagi loyihalar, amaliy xarakterdagi loyihalar.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье описаны сведения об использовании технологии дизайна в преподавании биологии, то есть проектов творческого характера, ролевых проектов, проектов исследовательского характера и проектов практического характера.

Ключевые слова: *творческие проекты, ролевые игровые проекты, информационные технологии, образование, исследовательские проекты, практические проекты.*

ABSTRACT

This article describes information about the use of design technology in teaching biology, that is, creative projects, role-playing projects, research projects and practical projects.

Key words: *creative projects, role-playing game projects, information technology, education, research projects, practical projects.*

KIRISH

Jahonda ta'lim jarayonlariga loyihalash texnologiyasini, shuningdek axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, ta'lim resurslari bazasini yaratish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab quvvatlashga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Jumladan loyihalash texnologiyasi 1920- yillarda amerikalik faylasuf va pedagog J.Dyu va uning shogirdi V.X. Kilpatrik tomonidan ishlab chiqilgan loyihalash metodi asosida vujudga kelgan. J. Dyu o'qitishni o'quvchilarning qiziqishi va ehtiyojini hisobga olgan holda o'quvchilarning muayyan maqsadga yo'naltirilgan faoliyatini faollashtirish orqali tashkil etishni taklif etgan. Buning uchun

o'quvchilarga o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotga qo'llash, ulardan kelgusi hayotda foydalanish yo'llarini ko'rsatish, ya'ni nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'liq holda o'qitish lozimligini uqtirgan. Bu jarayonda o'quvchilar tanish vaziyatdagi ahamiyatga molik muammolarni avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikmalarini amaliyotga qo'llab hal etish orqali yangi bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtiradilar. O'quvchilar muammolarni muvaffaqiyatli hal etishlari uchun o'qituvchi ularga tegishli ko'rsatmalar berishi, foydalaniladigan manbalarni tavsiya etishi, o'qitishdan ko'zlangan natijaga erishish yo'llarini ko'rsatishi, buning uchun muammoni hal etishda o'quvchilarning faoliyatini loyihalashi lozim.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Loyihalash texnologiyasining asosiy g'oyasi amaliy yoki nazariy ahamiyatga molik bo'lgan muammoni hal etish jarayonida ko'zlangan natijaga erishishdir. Agar nazariy muammoni loyihalash lozim bo'lsa, uning aniq yechimi, agar amaliy muammo bo'lsa, amaliyotga qolash masalasi bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish lozim. O'quvchilar ushbu natijaga erishish uchun mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini egallagan bo'lishlari, muammoni anglash va uni hal etish yo'llarini izlashlari bu borada avval o'zlashlirgan bilimlaridan foydalanishlari, fanning turli sohalarida izlanishlar olib borishlari, olinajak natijalarni bashorat qilish, turli yechimdagi variantlar ishlab chiqish, sabab-oqibat bog'lanishlarini tasavvur qilishlari zarur. Loyihalash texnologiyasining asosiy mohiyati ma'lum bir muammoli vaziyatni vujudga keltirish orqali o'quvchilarning qiziqishlarini orttirish, loyihalash faoliyatini shakllantirish, ularning tegishli bilimlarni egallashlari, fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish sanaladi.

Loyihalash texnologiyasining asosiy tezisi: «O'rganilayotgan bilim, ko'nikmalar menga nima uchun zarurligi va undan qayerda va qay tarzda foydalanishni bilaman» sanaladi. Bu tezis o'quvchilarning fan asoslarini ongli o'zlashtirishlari, hayotga moslashishlari va muammoni to'g'ri olishlariga yordam beradi. Biologiyani o'qitishda o'qituvchi loyihalash texnologiyasidan o'quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda nafaqat darsda o'quv muammoni ularni hal etishda, balki darsdan va sinfdan tashqari ishlarda ham ijodiy muammoni ularni hal etishda foydalanishi zarur. Loyihalash texnologiyasida foydalanish o'quvchilarga individual va differensial yondashish imkonini beradi. Har bir loyiha o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi, shu sababli ular ma'lum belgilariga ko'ra quyidasicha tasniflanadi:

Loyihada ko'zda tutilgan faoliyatning ustunligiga ko'ra: tadqiqot xarakteridagi loyihalar; ijodiy xarakterdagi loyihalar; rolli loyihalar; amaliy xarakterdagi loyihalar; izlanish va muammoni hal etishga mo'ljallangan loyihalar.

Loyihalarning predmeti va mazmuniga ko'ra: bir fan sohasini qamrab olgan loyihalar; fanlararo izlanishni talab etadigan loyihalar.

Loyihalar xarakteriga ko'ra: aniq natija olishga mo'ljallangan loyihalar; ko'p yo'nalishli natija olishga mo'ljallangan loyihalar.

Loyihada ishtirok etadigan qatnashchilar soniga ko'ra: yakka tartibdagi loyihalar; ikki o'quvchiga mo'ljallangan loyihalar; o'quvchilarning kichik guruhlarda ishlashiga mo'ljallangan loyihalar.

Loyiha ko'lamiga ko'ra: bir sinf o'quvchilariga mo'ljallangan loyihalar; maktab o'quvchilariga mo'ljallangan loyihalar; shahar miqyosida hal etilishi mo'ljallangan loyihalar; mamlakat miqyosida hal etilishi mo'ljallangan loyihalar; dunyo miqyosida hal etilishi mo'ljallangan loyihalar.

Loyiha muddatiga ko'ra: qisqa muddatli; uzoq muddatlilarga ajratiladi.

Ijodiy xarakterdagi loyihalar. Mazkur loyihani hal etishda qatnashchilardan ijodiy yondashish talab etiladi. Ijodiy loyihalarning tadqiqot xarakteridagi loyihalardan asosiy farqi, ularning mo'ljallangan strukturasi avvaldan belgilanmaydi, balki loyihaning yechimi davomida shakllantiriladi. Ijodiy loyihada qatnashchilarning qiziqishi, motivi, ehtiyojiga ko'ra loyihaning yo'nalishi, olinajak natija belgilanadi. Lekin loyihada ko'zda tutilgan natijani rasmiylashtirish va jihozlashda qat'iy talab qo'yiladi. Biologiya o'qituvchisi ushbu loyihalar turidan darslarda foydalanishi mumkin. Odam va uning salomatligi o'quv kursida «Odamning sutkalik ovqat ratsionida oqsil, yog', uglevodlar miqdori va ulardan ajralib chiqadigan energiya miqdorini aniqlash» laboratoriya mo'ljallanishini kichik guruhlarda tashkil etib, ularga quyidagi topshiriqlar tavsiya etiladi:

1-guruh topshirig'i. O'rta yoshli aqliy va yengil jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchilar uchun bir kecha-kunduzda sarf qilinadigan energiya miqdoriga muvofiq holda ularning ovqat ratsionini tuzing.

2-guruh topshirig'i. O'rta yoshli og'ir jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchilar uchun bir kecha-kunduzda sarf qilinadigan energiya miqdoriga muvofiq holda ularning ovqat ratsionini tuzing.

3-guruh topshirig'i. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bir kecha-kunduzda sarf qilinadigan energiya miqdoriga muvofiq holda ularning ovqat ratsionini tuzing.

4-guruh topshirig'i. O'smir yoshdagi o'quvchilar uchun bir kecha-kunduzda sarf qilinadigan energiya miqdoriga muvofiq holda ularning ovqat ratsionini tuzing.

Rolli o'yin loyihalari. Ushbu loyihalarda struktura aniqlanmaydi va ish tugagunga qadar ochiq bo'ladi. Loyiha qatnashchilari muayyan rollarni bajaradilar. Rollarga muvofiq holda ularning vazifalari aniqlanadi. O'yin sujetiga muvofiq ular rollarni bajarishi, tegishli hollarda «mansabdor shaxs» sifatida muloqotga kirishishi,

bunda mavjud qobiliyat va iste'dodlari, o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini safarbar etishlari lozim. Loyihani hal etish jarayonida ko'zlangan natijaga erishishlari uchun juda ko'p mehnat qilishlari, izlanishlari, mustaqil va ijodiy fikr yuritishlari, mustaqillik va onglilik talab etiladi. Bu yerda ijodiy izlanish mavjud, lekin o'quvchilar ma'lum rollarni bajarish orqali loyiha hal etilganligi sababli rolli o'yin loyihalar sanaladi.

Izlanish xarakteridagi loyihalar. Loyihalarning bu tipi muayyan bir mavzu bo'yicha axborot va material to'plash, to'plangan axborot va materiallar bilan loyiha qatnashchilarini tanishtirish, ularni tahlil qilish, faktlarni umumlashtirish, olingan natijalarni rasmiylashtirishni o'z ichiga oladi. Mazkur loyihalar tadqiqot xarakteridagi loyihalar bilan uyg'unlashib ketadi va uning bir qismiga aylanishi mumkin.

Izlanish xarakteridagi loyihalarning strukturasi quyidagicha bo'lishi mumkin: — kerakli bo'lgan axborotni izlash manbalari;

- izlanish bosqichlari;
- to'plangan axborot, materiallar, faktlar ustida tahlil o'tkazish;
- xulosa yasash;
- izlanish yo'nalishiga o'zgartirishlar kiritish;
- yangi faktlarni to'plash;
- umumlashtirish va xulosa yasash;
- olingan natijalarni rasmiylashtirish.

Bu toifadagi loyihalardan sinfdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanishi mumkin. Bular jumlasiga «O'zbekiston qizil kitobi»ga kirgan o'simliklar va hayvonlar, «O'zbekistonda paxtachilikning rivojlanishi», «O'zbekistonning dorivor o'simliklari» kabi mavzulardagi loyihalarni kiritish mumkin.

Amaliy xarakterdagi loyihalar. Bu toifadagi loyihalar qatnashchilar faoliyatidan kutilgan natijalarning aniq belgilanishi bilan xarakterlanadi. Mazkur natija amaliy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi lozim. Bunday loyihalar juda yaxshi strukturaga ega bo'lishi kerak. Loyiha ssenariysi, qatnashchilarning vazifalari, natijaga erishish bosqichlari, foydalaniladigan metodlar, olingan natijalarni rasmiylashtirish shakllari aniq belgilanishi kerak. Bu loyihani amalga oshirishda qatnashchilarning har birining ulushi, yakka tartibda va kichik guruhda olib boriladigan ishlar natijalari, taqdimot, olingan natijalarni amaliyotga qo'llash yo'llari ko'rsatiladi. Bu toifadagi loyihalardan sinfdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish maqsadga muvofiq. Jumladan, tirik tabiat burchagida boqiladigan kanareyka, to 'ti va boshqa hayvonlarning ovqat ratsionini tuzish, O'zbekistonga kelib-ketuvchi qushlarning kelish, uya qurish, ko'payish, uchib ketish muddatlari, ularning

keltiradigan foydasi, qishlash joyi, ularni muhofaza qilish tadbirlarini o'rganish bo'yicha loyihalarni o'quvchilarning kichik guruhlariga tavsiya etish joiz.

Loyihalar predmeti va mazmuniga ko'ra, bir fan sohasini qamrab olgan loyihalar, fanlararo izlanishni talab etadigan loyihalarga ajratiladi. Bu loyihalarni shakllantirishda o'qituvchi biologiya sohasidagi muammoli, qiyin mavzularni olishi mumkin. Mazkur loyihalar biologiyani o'qitishda tabiiy fanlar, adabiyot, matematika, madaniyat, san'at va gumanitar fanlar bilan fanlararo bog'lanishni amalga oshirishga imkon beradi.

Biologiyani o'qitishda o'qituvchi loyihalash texnologiyasidan foydalanish uchun:

- loyihalar toifasi, mavzusi va qatnashchilar sonini aniqlashi;
- loyihani amalga oshirish uchun turli variantlardagi muammolar zanjirini tuzishi;
- loyiha predmeti, vazifasi va bosqichlarini aniqlashi;
- loyiha qatnashchilari uchun topshiriqlar tuzishi va ularni a'zolar o'rtasida taqsimlashi;
- ilmiy-izlanish, tadqiqot mavzulari bo'yicha o'quvchilarning yakka tartibdagi, juftlikda yoki kichik guruhlarda mustaqil izlanishlarini tashkil etishi;
- loyihadan kutilgan natijalarni aniqlashi, uni rasmiylashtirish va taqdim otini belgilashi;
- loyiha ishini yakunlashi, baholash mezonini va xulosalar yasash yo'llarini aniqlashi lozim;
- loyihalash texnologiyasi — rivojlantiruvchi ta'limga asos bo'ladi. O'quvchilarda aqliy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga zamin tayyorlaydi.

Loyihalash texnologiyasi o'quvchilarda ijodiy faoliyatning shakllanishiga asos bo'ladi. Ma'lumki, ijodiy faoliyat ta'lim mazmunining tarkibiy qismi sanalib, uni o'qituvchining tayyor axboroti orqali shakllantirib bo'lmaydi. O'quvchilar loyihalar yechimi ustida ishlar ekan, ular avval o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini yangi vaziyatlarda qo'llab, yangi bilimlarni o'zlashtiradilar, shu tariqa ijodiy faoliyat tarkib topadi.

Buning uchun:

- o'quvchilarga tayyor bilimlar berilmasdan, balki ularni bilimlarni mustaqil o'zlash tirish usullarini egallash, amaliy va bilishga oid muammolarni avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikmalarini qo'llab hal etishga o'rgatish zarur;
- muloqotga kirishish ko'nikma va malakalarini egallashning ahamiyati, turli ijtimoiy rollarni bajarishda va kichik guruhlarda ishlash ko'nikmasiga ega bo'lish zarurligini tushuntirish;

— bitta muammoni hal etish uchun har xil nuqtayi nazarni bayon etish, boshqa tabiiy fanlar hamda ma'naviyat va madaniyat kabi jabhalarda izlanishlar olib borish zarurligini tushuntirish;

— o'quvchilarning tadqiqot metodlaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishning ahamiyati, zarur axborotlar, faktlar, materiallar to'plash, ularni turli nuqtayi nazardan tahlil qilish, farazlarni ilgari surish, xulosa va yakun yasash lozim. Agar o'quvchilar yuqorida qayd etilgan ko'nikma va malakalarni egallagan bo'lsa, ular doim o'zgarib turadigan hayotga tezroq moslashishga, turli muammoli vaziyatlarni tahlil qilib ulardan chiqishning muqobil variantini topishga, turli vaziyatlarda mo'ljalni to'g'ri olish va har xil jamoalarda ishlab ketish imkoniyatiga ega bo'ladi.

XULOSA

Biologiya fanini o'qitishda loyihalash texnologiyasidan foydalanish o'quvchilarning nazariy bilimlarini amalda qo'llay olish, aqliy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga zamin tayyorlaydi, shuningdek, mustaqil ishlashiga, ijodiy fikrlashiga va ta'lim samaradorligini orttirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. J.O.Tolipova "Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar" Pedagogika oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. Toshkent - "Cho'lpon" – 2011 y.
2. Умарова, Ж. К., & Рахмонова, Р. Б. (2023). НАСЛЕДОВАНИЕ ОПРЕДЕЛЕННЫХ КАЧЕСТВЕННЫХ ПРИЗНАКОВ ХЛОПЧАТНИКА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4-2), 118-124.
3. Ibodova Mahfuza Namozovna "IMPROVING THE METHODOLOGY OF USING ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING THE SUBJECT "ZOOLOGY" IN PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS." *Open Access Repository* 4.3 (2023): 21-25.
4. Ibodova, Mahfuza Namozovna. "AKADEMIK LITSEYLARDA BIOLOGIYA FANINI OQITISHNING INTERFAOL VA MUAMMOLI IZLANISH METODLARIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3.4-2 (2023): 125-131.
5. Ibodova Mahfuza Namozovna "BIOLOGIYANI OQITISHNING INTERFAOL VA MUAMMOLI IZLANISH METODLARI." *PEDAGOGS* jurnali 11.2 (2022): 12-21.

6. Ibodova Mahfuza Namozovna "Effectiveness of independent work in the educational process." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.10 (2021): 322-326.
7. Ibodova Mahfuza Namozovna "A FORMING THE BASIC COMPETENCIES OF PUPILS BY USING OF SELF-STUDY ASSIGNMENTS." *ПЕДАГОГИКА И ПСИХОЛОГИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ* (2018):
8. Muhabbat Ravshanova Ndpi , R., & Mohinur, Q. (2020). Biologiya fanini oqitishda laboratoriya ishlarining ahamiyati. *Science and Education*, 1(3), 550-553.
9. Хужжиев, С. (2022). ФИТОРЕМЕДИАЦИЯ ПОЧВ, ЗАГРЯЗНЁННЫХ ТЯЖЁЛЫМИ МЕТАЛЛАМИ. *ЭКОЛОГИЯ (БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ)*.
10. Shomurodov, H. F., Saribaeva, S. U., Abduraimov, O. S., Khayitov, R. S., & Sayfullaev, A. F. (2021). The Current State of Iris Hippolyti's (Vved.) Kamelin Population in Uzbekistan. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 6589-6597.
11. Sayfullayev, A. (2021). UZLUKSIZ TALIM VOSITASIDA EKOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISH TEXNOLOGIYASI. *Uzluksiz talim*.
12. Sayfullayev, A. F. O. (2023). SHAHARLARNI KO'KALAMZORLASHTIRISHDA KATALPA DARAXTINING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4-2), 77-82.
13. Malikova, A. R. "METHODS OF USING INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF TEACHING BIOLOGICAL SCIENCES IN HIGHER EDUCATION." *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities* 11.1 (2023): 798-800.
14. Nematovna, A. M., & Baxodirovna, M. F. (2023). THE EFFECTIVENESS OF DEVELOPING STUDENTS'CREATIVE THINKING IN TEACHING BIOLOGICAL SCIENCES. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(09), 170-174.
15. Сохибназаров, Р. А., & Сайфуллаев, А. Ф. Ў. (2023). МЕТОДЫ УЧЕТОВ ЧИСЛЕННОСТИ ПТИЦ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4-2), 132-138.

HOZIRGI DAVRDA MILLIY MUNOSABATNING INTEGRATSIYALASHUVIDA O'ZLIKNI ANGLASH MUAMMOLARI

Mirzayev Ikrom Boboqulovich

Toshkent davlat transport universiteti o'qituvchisi

Jo'rayev Jonibek

Isroiljonov G'olib

Toshkent davlat transport universiteti

YMAS-6 guruh talabalari

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hozirgi davrda milliy munosabatning integratsiyalashuvida o'zlikni anglash muammolari, ajdodlarimizning bizga qoldirgan madaniy va ma'naviy meroslarining o'zlikni anglashdagi moxiyati va yosh avlod tarbiyasida vatanga muxabbatni shakillantirish asosiy omil bo'lib qaralishi haqida mulohaza qilamiz.

***Kalit so'zlar:** O'zlikni anglash, Milliy o'zlikni anglash, ajdodlar merosi, millat taraqiyoti, tarixiy xotira, yoshlar ongida milliy o'likni shakillantirish, milliy ong, milliy g'urur, milliy his, milliy iftixor, milliy xarakter.*

ABSTRACT

This article analyzes the problems of self-awareness in the integration of national attitudes in the current period. We will reflect on the essence of the cultural and spiritual heritage left to us by our ancestors in self-awareness and the formation of love for the country is considered the main factor in the education of the young generation.

***Key words:** Self-awareness, National identity, ancestral heritage, nation's development, historical memory, formation of national memory in the minds of young people, national consciousness, national pride, national feeling, national pride, national character.*

KIRISH

Ma'lumki, hozirgi davr globallashuv jarayonlarining nihoyatda chuqurlashib ketganligi va hayotimizning barcha jabhalariga sezilarli ta'sir etayotganligi bilan xarakterlanadi. Albatta globallashuv jarayonining hozirgi davr insoniyat hayotidagi ta'sir doirasi, tutgan o'rni va ahamiyati haqida bu borada tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchi olimlar, siyosatshunoslar hamda taniqli davlat arboblari tomonidan turfa fikrlar, qarashlar, mulohazalar bildirilgan. Kezi kelganda aytish joizki ayni masaladagi qarashlarda birbirini inkor etuvchi holatlarni ham kuzatish mumkin.

Ammo bu boradagi fikrlarning aksariyatida globallashuvning ham ijobiy ham salbiy tomonlarini e'tirof etuvchilar ko'pchilikni tashkil etadi desak xato qilmagan bo'lamiz. Xo'sh, globallashuv jarayonini haqiqatdan ham hozirgi o'ta shiddatli va murakkab davr tezligi talablariga javob beradigan, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ijobiy bir fenomen sifatida qabul qilish kerakmi, yoki aksincha, milliy madaniyatning yemirilishiga, urf-odat, an'ana, qadriyatlarning zaiflashuviga olib keladigan salbiy jarayon sifatidami?

Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish, his etish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko'plab yangi ish o'rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg'unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi - tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoqda. Shu bilan bir qatorda, uning o'ta ta'sirchan ma'naviy, mafkuraviy tahdid sifatidagi jihatlari ham e'tibor qaratish lozim. Globallashuv jarayonining yana bir o'ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog'lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar.⁶⁴

Prezident SH.Mirziyoyev ham globalashuv haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Keyingi yillarda Yer yuzida keskin geosiyosiy o'zgarishlar ro'y berdi, xalqaro miqyosda xavfsizlik va barqarorlik tizimi izdan chiqmoqda. Globallashuv jarayonining tobora shiddatli tus olishi nafaqat insoniyat imkoniyatlarini kengaytirmoqda, balki ziddiyatlarning keskinlashuvi, rivojlangan va qoloq davlatlar o'rtasidagi tafovutning o'sishiga olib kelmoqda. Buning oqibatida tinchlik va barqarorlikka raxna solayotgan, mohiyati va ko'lamiga ko'ra transmilliy xususiyatga ega turli xatti-harakatlar sodir etilmoqda". Bu qarashdan ham ko'rish mumkinki, globallashuv ulkan insoniy imkoniyatlar bilan bir qatorda dunyoda tinchlik va barqarorlikka soya solayotgan bir jarayon sifatida e'tirof etilgan.

Globallashuv jarayonining chuqurlashib borishi natijasida inson uchun xavfli bo'lgan turli xil noan'anaviy tahdidlar yuzaga kelmoqda. Bulardan eng xavflilari

⁶⁴ Мавлонов Ў. М. Глобаллашув жараёнининг миллий маънавиятга таъсири. «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 // Volume: 1, ISSUE: 6.

insonlarning ruhiyatiga ta'sir o'tkazish orqali millatlarning qadriyatlari va turmush tarzini izdan chiqarishga qaratilgan axloq-odob, oila va jamiyat hayotida jiddiy ta'sir ko'rsatadigan ma'naviy tahdidlar hisoblanadi⁶⁵.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma'naviy tahdid – shaxs, jamiyat va davlatning ma'naviyat sohasidagi hayotiy muhim manfaatlariga xavf tug'diruvchi shart va sharoitlar, omillar majmuidir. Ma'naviyatga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va milliy ma'naviy manfaatlar uchun xavf bo'lgan hodisa va jarayonlarni keltirib chiqaruvchi omillar ma'naviy tahdidlar hisoblanadi⁶⁶.

So'nggi yillarda globallashuv jarayonlari inson hayoti va faoliyatining barcha jabha va sohalarini qamrab olayotgan dolzarb hamda keskin muammolarni yuzaga chiqarmoqda. Globallashuv bayrog'i ostida dunyoni qayta taqsimlashga qaratilgan jiddiy harakatlar ko'zga tashlanmoqda. Globallashuv, bir tomondan, dunyo hamjamiyati hayotini, jahon siyosati va halqaro munosabatlarini belgilab beruvchi yetakchi omilga aylanmoqda, ikkinchi tomondan esa, alohida olingan davlat va hududlar ichki siyosatini tarkib topgan umumdunyoviy sharoit bilan muvofiqlashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun ham turli soha olimlari globallashuv jarayonlariga o'z munosabatini bildirish, bu jarayonlarning oqibatlarini talqin etish hamda kelajakka ta'sirini o'rganishga harakat qilmoqda.

Globallashuv jarayonlarining boshlanishini olim va siyosatchilar turli davr hamda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotidagi o'zgarishlar bilan bog'lashadi. Taniqli nemis sotsiologi Ulrix Bek bu haqda shunday yozadi: "Iqtisodiy globallashuv qachon boshlandi, degan savol to'siqlarga to'la chakalakzorga yetaklaydi. Ayrim olimlar (Immanuel Uollerstayn) "kapitalistik dunyo tizimi" ning boshlanishini XVI asr boshidagi mustamlakachilikning paydo bo'lish davri, boshqalar baynalminal konsernlarning paydo bo'lishi bilan bog'laydi. Yana ba'zi mutaxassislarining fikricha, globallashuv mustahkam valyuta kursining bekor qilinishi yoki sharqiy blokning inqirozi bilan boshlangan"1.

Globallashuv jarayonining boshlanishi va sabablarini aniqlashda qarashlarning ko'pligi uning mohiyati borasidagi fikrlarning rang-barangligi bilan bog'liq. Jumladan, globallashuvni ancha keng-davlatlararo va hududlararo munosabatlarning kengayishi bilan bog'liq hodisa sifatida talqin etuvchi olimlar uni Sharq va G'arb mamlakatlari o'rtasidagi aloqalarning kengayishini ta'minlagan Buyuk Ipak yo'lining shakllanish davri bilan bog'laydi. Globallashuv masalalarini tadqiq etgan taniqli

⁶⁵ Йўлдошева С.М. Соғлом турмуш тарзи – таҳдидларга қарши кураш омили сифатида. Соғлом турмуш тарзини шакллантиришда ахлоқий кадриятларнинг ўрни. // Т.:2009. 191 б.

⁶⁶ Исламов И.Н. Маънавиятга таҳдид – келажакка таҳдид. Глобаллашув, модернизация ва толерантлик: муаммолар, ечимлар ва истикболлар. Конференция материаллари.-Т.:2009, 57 б

olimlardan biri I.Vallerstayn global iqtisodiyotning («jahon kapitalistik iqtisodiyoti») paydo bo‘lishini XVI asrga taqagan bo‘lsa, R.Robertsonning fikricha, bu jarayon XV asrda boshlangan, 1870 yildan XX asr o‘rtalariga qadar keng miqyos kasb etgan va “sovuq urush” tugagandan so‘ng yangi yo‘nalish kasb eta boshlagan. Rus olimi V.M.Ryumin esa globallashuvning uch bosqichini ajratadi va har bosqichni jahonda sodir bo‘lgan muayyan voqea-hodisalar bilan bog‘laydi. Jumladan, uning fikriga ko‘ra, XV asr oxiri –XVI asr boshlarini qamrab olgan birinchi bosqich-buyuk jo‘g‘rofiy kashfiyotlar (Amerikaning kashf etilishi, Hindiston tomon dengiz yo‘lining ochilishi va h.k.) bilan bog‘liq, ikkinchi bosqich-sanoat inqilobi hamda bozor almashinuvining kengayishi natijasida vujudga kelgan yagona jahon bozori makonining shakllanishi natijasida boshlangan (XVIII asr), uchinchi bosqich esa XX asr oxirida paydo bo‘lgan zamonaviy axborot texnologiyalari mamlakatlar va xalqlar o‘rtasidagi qat’iy chegaralarni buzganligi bilan bog‘langan. Albatta, globallashuv borasidagi bu va boshqa fikrlar mualliflari o‘z nuqtai nazarini muayyan darajada asoslab bergan. Biznicha, globallashuv jahon miqyosidagi integratsiyalashuv jarayoni va hodisalari sifatida talqin etilsa, uning yangi hodisa emasligi haqidagi fikr asosli tuyuladi. Darhaqiqat, O‘rta asrlardagi salib yurishlari oqibatida Sharq va G‘arb madaniyatlarining muayyan darajada uyg‘unlashuvi yoki Angliyada to‘quv dastgohining paydo bo‘lishi Hindistondagi millionlab to‘quvchilarning xonavayron bo‘lishiga olib kelgani, Fransiya respublikachilik g‘oyalarining paydo bo‘lishi Sharqdagi yakka hukmdorlar hokimiyatini zaiflashtirgani, masalan, Rossiyada dekabristlar harakatiga turtki bo‘lganini tasdiqlaydi.

Dunyoni manfaat boshqaradi, degan gap bor. Shu nuqtai nazardan, globallashuv jarayonlarining asos-mohiyatini foyda va daromad tashkil etgan kapitalistik munosabatlarning takomillashuvisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu, o‘z navbatida, ijtimoiy-siyosiy tizim va iqtisodiyotni liberallashtirishni talab etadi. Tadqiqotchi B.Umarov bu haqda shunday deb yozadi: “Ilmiy adabiyotda liberalizm ta’limoti Uyg‘onish (Renessans) Islohotchilik (Reformatsiya) davri hamda Nyuton ilmiy inqilobi mahsuli sifatida baholanadi. Darhaqiqat, o‘sha zamonlarda ilgari surilgan ilg‘or g‘oya va ta’limotlar feodal jamiyatining inqirozi hamda burjuaziya ozodlik harakati jarayonida vujudga kelgan mafkuraning o‘zagini tashkil etadi. Dastlab XVII asrda eng rivojlangan mamlakat-Angliyada vujudga kelgan ma’rifatparvarlik g‘oyalari asta-sekin Fransiya, Germaniya, Gollandiya kabi mamlakatlarda ham keng tarqala boshlandi”. B.Umarov fikrlarini davom ettirib, aytish mumkinki, Yevropada XVIII asrda keng miqyos kasb etgan ma’rifatchilik harakati ijtimoiy-siyosiy hayotni yangi tartibotlar asosida tashkil etishga qaratilgan, 1789-1794 yillardagi Buyuk fransuz inqilobi boshlab bergan va jahoniy miqyos kasb etgan tub islohotlarga zamin

hozirlagan edi. Asosini liberalizm g'oyalari tashkil etgan mafkura ta'sirida arab millatlari, Turkiya, Eron va nihoyat, Markaziy Osiyo hududida ijtimoiy-siyosiy hayotni isloh etishga qaratilgan ma'rifatchilik harakati avj oldi, ilgari "taraqqiyot yo'lidan chetda qolgan" xalqlar global jarayonlarning subyektiva va obyektiga aylana boshladi. Yuqoridagi fikr-mulohazalarga tayanib, davrimizdagi globallashuv jarayonlari jahon taraqqiyotining tadrijiy rivoji, dunyodagi turli davlatlar va hududlar o'zaro bog'liqligining benihoya kuchayishi hamda inson hayoti va faoliyatining barcha jabhalarida jiddiy o'zgarishlarga olib kelgan yangi bosqich ekani haqida xulosa qilish mumkin. Shu asosda bugungi kunda globallashuvga millat va davlat chegaralarini inkor etuvchi "jahon jamiyati" ni shakllantirayotgan insoniyat hayotidagi obyektiv hamda tabiiy jarayon, deya ta'rif berish mumkin⁶⁷.

Globallashuv mazmun-mohiyati borasida ham mutaxassislar o'rtasida yakdillik yo'q. Bu jarayon bilan bog'liq konsepsiyalarning rang-barangligi, birinchidan, mazkur jarayonning ijtimoiy hayotning turli sohalarini (ma'naviy, madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy) qamrab olgani bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, masalaga yondashuv, tadqiqotchilarning ko'zlagan maqsadlari, mafkuraviy qarashlar o'rtasidagi farq va o'ziga xoslik bilan belgilanadi. Shu bilan birga, globallashuv mohiyati va xususiyatlariga doir qarash va konsepsiyalarning ko'p bo'lishiga qaramay, bu boradagi asosiy yondashuvlarni ajratish mumkin. Bular-iqtisodiy, ekologik, tamadduniy, siyosiy yondashuvlardir.

Iqtisodiy yondashuv globallashuvni mehnat, kapital, tovar va xizmatlarning umumjahon bozori taraqqiyoti bilan bog'laydi. Belorussiyalik olim YE.Meshaykina fikricha, "Globallashuv XX asr oxiri XXI asr boshlarida jahon iqtisodiyotidagi eng xarakterli hodisalardan biridir. Jahon bozori va mehnatning xalqaro taqsimoti tarkibidagi jiddiy o'zgarishlar aksariyat davlatlarni qamrab olgan moslashish jarayonlarini yuzaga keltirib, global xususiyat kasb etdi"¹. Globallashuv muammolarining iqtisodiy jihatlariga asosiy e'tibor qaratgan mutaxassislar, uni jamiyat rivojining postindustrial bosqichi sifatida talqin etib, globallashuv jarayonlarining mohiyati-moddiy ne'matlar ishlab chiqarishdan xizmatlar va axborot ishlab chiqarishga qaratilishi bilan belgilaydi. Xususan, G.Pochensovning fikricha, «Kommunikatsiya jamiyat uchun, uni tashkil etuvchi va moddiy xarakterga ega bo'lgan boshqa tarmoqlar singari, strategik muhim ahamiyatga ega insoniyat tamadduni tobora axborotlashish tomon yuz tutmoqda. Asosiy mahsulot sifatida axborot ishlab chiqarayotgan Yaponiya singari davlatlar XXI asr liderlariga aylanmoqda». Ekologik yondashuv globallashuvni yer sayyorasidagi ekologik vaziyatning yomonlashuvi va shunga muvofiq iqtisodiy taraqqiyotning chegarasini

⁶⁷ Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари. –Т.:Маънавият, 2006. –Б.29.

belgilash bilan bog‘liq ravishda talqin etadi. 1972 yili “Rim klubi” ning topshirig‘i bilan D.Medouz boshchiligidagi bir guruh olimlar tomonidan “Taraqqiyot chegarasi” nomli kitob tayyorlandi. Unda aholining o‘shish sur‘atlari bilan bog‘liq sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojning oshib borishi butun insoniyat uchun halokatli oqibatlariga olib kelishidan ogoh etgan hamda buning oldini olish bo‘yicha tegishli tavsiyalar berilgan edi. Oradan atigi 20 yil o‘tgach, bu vaqt ichida qilingan tahlil va hisob-kitoblar asosida, “texnologiyalarning takomillashuvi, bilim doirasining kengaygani hamda tabiatni muhofaza etishga qaratilgan siyosat ancha qat‘iylashgani”-ga qaramay, insoniyat “muvozanat va barqarorlik chegarasi” dan o‘tib ketganligi ta’kidlandi¹. Bugungi kunda tabiat va atrof muhit holatining keskin yomonlashgani, biosferaga texnogen ta’sirning kuchayishi oqibatida sayyoramizda tiklab bo‘lmas o‘zgarishlar sodir bo‘layotgani ko‘pchilikni sarosimaga solmoqda. Ekologiyaning buzilish sabab va oqibatlari xususida mutaxassislarining izlanishlari insoniyat tamaddunining o‘ta nozikligi haqidagi xulosaga olib keladi. Bu, o‘z navbatida, insoniyat taqdiri bir xil ekanligi hamda butun jahonni qamrab olgan inqiroziy jarayonlarning kuchayib va kengayib borishi haqidagi fikrni uyg‘otadi. Masalan, muammoning bir qirrasiga e’tibor qaratgan U.Bekning fikriga ko‘ra, ekologik sarosima holatiga tushgan tafakkur odamlarning muayyan guruhlar va ularning ishlariga nisbatan zo‘ravonlik aktlarini sodir etishga yo‘naltirilishi mumkin. “Bir paytning o‘zida tahdidlarning kuchayishi kosmopolitik tafakkurni uyg‘otadi... Jamiyat xavf-xatar bilan kurash asnosida shakllanadi; global xavf-xatarga qarshi kurash asnosida esa global jamiyat yaratiladi”².

Darhaqiqat, iqlimdagi global o‘zgarishlar, ularning halokatli oqibatlari hozirgi kunda butun jahon hamjamiyatini chuqur o‘yga solmoqda. Xususan, olimlarning taxminlariga ko‘ra, Yerdagi haroratning ko‘tarilishi natijasida qisqa vaqt ichida sayyoramizdagi o‘simlik va jonzotlarning uchdan bir turi yo‘q bo‘lib ketadi, tropik o‘rmonlar o‘rnini savanna, sahro egallaydi, ayrim orollarda joylashgan davlat va hududlar suv ostida qoladi va h.k. Bundan xavotirga tushgan 150 davlatning 2500 dan ortiq olimlari zudlik bilan 2007 yil 7 mayda XV Umumjahon meteorologik kongressiga to‘planishdi. Bugungi kunda aksariyat olim va mutaxassislarining fikricha, insoniyat tobora tezlashib borayotgan sur‘atlar bilan halokat sari ketmoqda. “Insoniyatning birgina farovonligi emas, balki uning borligi, hayotining o‘zi xavf ostida. Bu- «qiyomat kuni» haqidagi safsatalar emas, balki matematik hisob-kitoblarga tayangan ilmiy bashorat”¹, -deb yozadi rossiyalik olim I.Ilinskiy

Globallashuv jarayoni va uning oqibatlari umumtamadduniy miqyosda madaniyatshunoslik va sotsiologiya fanlari nuqtai nazaridan o‘rganilmoqda. “Rim klubi” bu yo‘nalishda demografiya muammolari, ishsizlik, ochlik, ijtimoiy

adolatsizlik, ma'naviy qadriyatlarning yemirilishi, e'tiqodning susayishi kabi qator masalalarni tilga oladi. So'nggi yillardagi globallashuvni anglashga bo'lgan harakatlar asosida bugungi kunda uni "jahon hududining asta-sekinlik bilan zamonaviy institutlari rivojini ta'minlovchi va ularning o'zaro munosabatlari mexanizmlarini takomillishtirib boruvchi kapital, tovar va xizmatlar to'siqsiz harakatlanadigan, g'oyalar hamda ularni ifoda etuvchilar erkin tarqaladigan yaxlit makonga aylanishi jarayoni"² sifatida talqin etishga olib kelmoqda.

REFERENCES

1. Hoshimov K va boshqalar. Pedagogika tarixi //Pedagogika oliy o.,uv yurtlari va dorilfununlar talabalari uchun O'quv qo'llanma. - Toshkent, O'qituvchi, 1996, - 301-bet.
2. Mahkamov U, Tillaboeva N, Tillaboeva SH. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. T.: 2003 y
3. Ikrom Boboqulovich Mirzaev (2021). MILLIY MADANIYAT FALSAFASI. Academic research in educational sciences, 2 (12), 965-969.
4. 2. Mirzaev Ikrom Boboqulovich O'zbekiston yosh avlodi tarbiyasida milliy qadriyatlarning o'rni // Fan va ta'lim bugungi kun. 2019 yil, 4-son (39). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-natsionalnyh-tsennostey-v-vospitanii-molodogo-pokoleniya-uzbekistana> (kirish sanasi: 18.01.2023).
5. Mirzaev Ikrom Boboqulovich Zamonaviy madaniyat jarayonlarida milliy va umuminsoniy uyg'unlik // Ilmiy jurnal. 2020 yil. 3-son (48). URL: World scientific research journal www.wsrjournal.com Volume-12_Issue-1_February-2023 146 <https://cyberleninka.ru/article/n/garmoniya-natsionalnogojobschechelovecheskogo-v-protsessah-sovremennoy-kultury> (kirish sanasi: 18.01.2023).
6. Ikrom Boboqulovich Mirzaev, D. A. Abduhoshimov ZAMONAVIY KADROLAR TAYYORLASH TIZIMI VA MAQSADLARI // Ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar. 2022. #TSTU konferensiyasi 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zamnaviy-kadrlar-tayyorlashning-tizimli-va-masadli-zhi-atlari> (kirish sanasi: 18.01.2023).
7. Ikrom Boboqulovich Mirzaev GLOBALLASHUV DAVRIDAGI "SOXTA DINIY DUNYOQARASH" // Pedagogik fanlarda akademik tadqiqotlar. 2022. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/globallashuv-davridagi-sohta-diniy-dunyo-arash> (Kirish sanasi: 18.01.2023).
8. O'.Erniyozov, I.Merzayev, & M.Hasanov. (2022). SHAXSNI SHAKILLANTIRISHDA "OILA" VA "JAMIYATNING" AXAMIYATI . World

Scientific Research Journal, 4(2), 96–101. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/1445>

9. Kaipbergenova, D. (2017). THE IMPORTANCE OF MATERIAL DESIGNING IN LANGUAGE TEACHING. *ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА*, 34(3), 62-63.

10. Kaipbergenova, D. (2016). СНЕТ ТИЛИ О'QITUVCHILARINING KASBIY VAZIFALARI VA PEDAGOGIC MAHORATI HAQIDA. *ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА*, 33(4), 48-50.

11. Каипбергенова, Д. О. (2020). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАКТИКИ ОРГАНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ НА ОСНОВЕ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ. In *Инновационное развитие: потенциал науки и современного образования* (pp. 211-213).

12. Каипбергенова, Д. О. (2016). The role of language learning strategies in learning foreign languages. *Молодой ученый*, (12-4), 83-85.

13. Orakbayevna, K. D. (2023). MAMLAKATIMIZDA СНЕТ TILLARINI O'RGANISHDAGI ZAMONAVIY METOD VA METODOLIYA. *Научный Фокус*, 1(1), 1472-1478.

14. Orakbayevna, K. D. (2023). GLABALLASHUV DAVRIDA TA'LIM VA TARBIYANING UZVIYLIGI. *Научный Фокус*, 1(1), 1466-1471.

15. Kaipbergenova, D. (2023). BUGUNGI KUNDAGI MAMLAKATIMIZDA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA ULARNING NATIJALARI. *World scientific research journal*, 15(2), 3-7.

16. Каипбергенова, Д., & Жуманиёзова, Н. С. (2023). БУГУНГИ КУН ТАЛАБА ЁШЛАРИДА АХЛОҚИЙ ДУНЁҚАРАШИ ШАКЛЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 652-668.

17. Orakbayevna, K. D., Normuminovich, M., & Muxiddinova, M. Z. (2021). English language teaching methodology for non-native speakers. *Linguistics and Culture Review*, 5(S3), 1721-1725.

18. Orakbayevna, K. D. (2022, February). SYNTACTIC AND SEMANTIC FEATURES OF COMPARISON IN ENGLISH, UZBEK AND RUSSIAN LANGUAGES. In *Conference Zone* (pp. 145-147).

19. KHUSENALIYEVNA, K. D., CHORIYEVNA, A. Z., & ORAKBAYEVNA, K. D. (2021). Lexico-semantic features of technical teams of English and Uzbek languages. *Journal of Contemporary Issues in Business and Government*, 27(2), 4083-4088.

20. Orakbayevna, K. D. (2022). THE IMPORTANCE OF GRAMMAR IN LEARNING A FOREIGN LANGUAGE. *Confrencea*, 7(7), 69-72.
21. Orakbayevna, K. D. (2022). Using effective language learning strategies in teaching English. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, 2, 1-3.
22. Orakbaevna, K. D. (2022). USING THE PRINCIPLE OF UNITY IN EDUCATION. *PEDAGOG*, 1(4), 1467-1473.

BADIIY MATNDA PEDAGOGIK TERMINLARNING MILLIY XUSUSIYATLARNI IFODALASHDAGI AHAMIYATI

Husanxo‘jayev Obidxon Mamutovich,

Namangan davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedراسi katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
obidxon89@gmail.com

ANNOTATSIYA

Har qanday xalqning lug‘at boyligi tarkibida turli kasbga oid terminlar sistemasi mavjud bo‘lib, ular o‘ziga xos uzoq tarixiy ma‘no taraqqiyotiga ega bo‘ladi. O‘zbek terminologik sistemasida ham bir necha asrlardan buyon tilimiz lug‘at boyligida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan pedagogik terminlarning hozirga qadar ham tilshunoslik, shuningdek, pedagogika, psixologiya fanlari doirasida ham o‘rganilayotgani doimo masalaning dolzarb bo‘lgan tadqiqotlar sirasiga kirishidan dalolat beradi. Pedagogik terminlar milliy adabiyotimizdagi badiiy asarlar matnida ham o‘ziga xos milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada badiiy matnga lingvopedagogik, kulturologik jihatdan yondashuvga alohida e‘tibor qaratilgan. Badiiy matnda milliy ma‘naviyat, madaniyat, ta‘lim va tarbiya, milliy ruhning ifodalanishi personajlar nutqini tahlil qilish orqali yoritilgan. Badiiy matnda o‘zbek millatining lingvopedagogik va psixolingvistik qarashlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *Lingvopedagogika, lingvopedagogik kulturologiya, lingvokulturologik pedagogika, lingvokulturologiya, nutq madaniyati, til madaniyati, muloqot madaniyati.*

ABSTRACT

The vocabulary of any nation includes a system of terms related to various professions, which have their own long historical development of meaning. In the Uzbek terminological system, pedagogical terms, which have had a special place in the vocabulary of our language for several centuries, are still being studied within the framework of linguistics, pedagogy, and psychology. indicates that it is included in the research. Pedagogical terms serve to reflect unique national-cultural features in the text of artistic works in our national literature. In this article, special attention is paid to the linguistic-pedagogical and cultural approach to the artistic text. In the literary text, national spirituality, culture, education and upbringing, the expression of the national spirit are illuminated by analyzing the speech of the characters. Linguistic-pedagogical and psycholinguistic views of the Uzbek nation are analyzed in the literary text.

Key words: *linguo-pedagogy, linguo-pedagogical culturology, linguo-cultural pedagogy, linguo-culturology, speech culture, language culture, communication culture.*

KIRISH

O‘zbek milliy pedagogik terminologik sistemasining yuzaga kelishi va amaliy jihatdan qo‘llanilib kelishi o‘tmishimizning uzoq asrlariga borib taqaladi. O‘zbek milliy pedagogik terminologiyasi ham turkiy pedagogik terminologik sistemaning uzviy qismi bo‘lib, ta‘lim va tarbiyadagi o‘zaro mushtarakligi bilan izohlanadi. Turkiy tillar uchun umumiy iste‘molda bo‘lgan pedagogik terminlar ulug‘ bobolarimizning asarlarida, shuningdek, islom dini va tarixiga bag‘ishlangan asarlarda o‘z ifodasini topgan. Shu bilan birga, arab va fors tillaridan kirib kelgan ilm va ma‘rifat, ta‘lim va tarbiya, ma‘naviyatga oid terminlar ham milliy pedagogikamiz lug‘at boyligidan mustahkam o‘rin egallagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Til tafakkur ifodachisi bo‘lish bilan birga ma‘naviy unsurlar orqali milliy xarakterni ochib beruvchi va ijtimoiy munosabatlarni ro‘yobga chiqaruvchisidir. Gap shundaki, har qanday milliy xarakter o‘ziga xos bo‘lgan ma‘naviyatdan tashkil topadi va falsafiy, psixologik xususiyatlarni o‘zida umumlashtirgan holda lingvokulturologik jarayonlarda voqelanadi. Demak, milliy xarakter milliy madaniyat, ma‘naviyat o‘zaro mushtarak holda lingvopedagogik kulturologiyada aks etadi. Til – ana shunday murakkab, xalqning dunyoni ko‘rish, idrok qilish tarzi, ruhi, madaniyatini ifoda etadigan hodisa. Uni faqat aloqa vositasi sifatida tushunish jo‘n tasavvurdir.

Tilshunos S.G.Ter-Minasovanning fikriga ko‘ra, til milliy xarakterning turli sirli qirralarini ochib berish xususiyatiga egaligi bilan muhim ahamiyatga ega. U nafaqat milliy xarakterning paydo bo‘lishi va mavjudligini tasdiqlovchi, shuningdek, uning eng kichik ko‘zga tashlanmaydigan jihatlarini ochib beruvchilik xususiyatini o‘zida mujassam etadi. Shuningdek, parallel ravishda turli tillardagi milliy xarakterning farqovchi qonuniyat asoslarini ochib beradi yoki guvohlik beradi.

I.A.Sternin, M.A.Sternina milliy xarakterga to‘xtalib shunday yozadilar: ”Milliy xarakter xalqning odob va axloqini ifodalovchi psixologik stereotip sifatida gavdalanadi”.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada pedagogik terminlar lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Bu borada jahon va o‘zbek tilshunosligida amalga oshirilgan ilmiy

tadqiqotlarga metodologik asos sifatida tayaniladi. Pedagogik terminlar xalq tarixining, ma'naviyatining ajralmas qismi ekanligiga alohida urg'u beriladi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Bunday so'z-terminlarni paydo bo'lishi, boyib borishi, muomalada bo'lishi hamda ma'lum miqdorda hozirgi kungacha yetib kelishida qadimiy yozma manbalarning ahamiyati g'oyat beqiyos. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Yusuf xos Hojibning "Qutadg'u bilig", A.Yassaviyning "Devoni hikmat", Boburning "Boburnoma", Alisher Navoiyning ulkan merosi, xususan, "Muhokamatul lug'atayn", "Munshaot", "Vaqfiya", "Xazoyinul maoniy", "Xamsa" asarlari, sharq pedagogikasining qomusi bo'lmish Kaykovusning "Qobusnoma" asari, Jaloliddin Rumiyning qator asarlari ana shunday nodir manbalardandir. O'z navbatida aytish mumkinki, islom ta'lim va tarbiyasiga oid tarixiy va badiiy pandnoma asarlaridagi pedagogik atamalar xalqimiz shuuriga singib, ma'naviy boyligiga aylangan, lug'at boyligimizning husni sanaladi. Aytish mumkinki, islom dini ilm va ma'rifatni, ta'lim va tarbiyani oliy darajada qadrlagan. Bu o'rinda zahmatkash adabiyotshunos olim va pegagog Subutoy Dolimovning Kaykovusning "Qobusnoma" asariga bergan tavsifidan xulosa chiqarish mumkin. U shunday yozadi: "Qobusnoma" asarining fazilatlari cheksiz: unda ham jismoniy, ham aqliy tarbiyaning hamma qirralari o'ta zukkolik bilan tahlil qilinadi. Sharq mutafakkirlaring pedagogikaga oid asarlarini o'rganar ekanmiz, ularda har bir ta'lim-tarbiyaviy masala bilan uzviy ravishda bog'langan hikoyatlarga duch kelamiz. "Qobusnoma" ham o'nlab hikoyatlar asarining ham g'oyaviy, ham badiiy yuksakligini ta'minlagan".

Til o'zining noyob fazilatga egaligi bilan inson bilan jamiyatning bog'lovchi, ko'p vazifa bajaruvchiligi bilan muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Uning muhim vazifalari kommunikativlik, tafakkur, kognitivlik, inson bilimini ifodalash (kumulyativ, yoki yana ma'naviyat xazinasi)dir. Demak, shaxsning ona tilida tafakkuri rivojlanadi, olamni taniydi. Albatta, til olamni anglash jarayonida milliy madaniyati, ma'naviyati, milliy ruhini ifoda etuvchisi hisoblanadi. O'z navbatida lingvopedagogik madaniyat ham til orqali voqelanadi. Demak, har qanday milliy mentalitetga xos bo'lgan lingvopedagogik madaniyat o'sha til sohibi tomonidan amalga oshiriladi.

Shoh va shoir, tilshunos Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining murarakkab foaliyati davomida mohir pedagogog sifatida farzandlarining ta'lim va tarbiyasiga alohida e'tibor qaratadi. U Humoyunning yozgan maktubini tahrir qilar ekan, unga mohir ustoz singari muomala madaniyati bilan fikr aytadi. Uning fikrlarida ustozning shogirdga bo'lgan muhabbati bilan otalik muhabbati uyg'unlashib ketadi. U shunday yozadi: "Xatingni xud tashvish bilan o'qusa bo'ladur, vale asru mug'laqdur (juda

chalkashdir). Nasri muammo hech kishi ko‘rgan emas. Imlong yomon emas, agarchi xili rost emas. Itifotni to bila bitibsen, qulunjni yo bila bitibsen. Xatingni xud har tavr qilib o‘qusa bo‘ladur, vale bu mug‘laq alfozingdin (chilkash so‘zlar) maqsad tamom mahum bo‘lmaydur(tushunmaydi). G‘olibo xat bitarda kohilliging (bo‘shliging) ham ushbu jihattindir. Takalluf (hashamat, bezak) qilay deysan, ul jihatdin mug‘laq bo‘ladur, mundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz(til) bila biti, ham senga tashvish ozroq bo‘lur va ham o‘qig‘uvchig‘a’(BN-65).

Ushbu keltirilgan matnda Z.M.Bobur ulkan til bilimdoni, mohir pedagog, yuksak ma‘naviyatli salohiyat egasi sifatida gavdalanadi. Chunki Humoyunning maktubini til qoidalari asosida to‘g‘ri tahlil etishi, ota va murabiy-pedagog bo‘lib farzandi yozuviga oid atamalarning qo‘llash uslublaridagi imloviy xato va yutuqlarini odob me‘yori doirasida o‘ta ma‘daniyatli tarzda ifodalab berishini milliy lingvopedagogik kulturologiyaning namunasi deb atash mumkin. U o‘g‘lining har bir yozgan harfi va imlosi, shuningdek, bitilgan so‘zning ma‘nolariga ham e‘tibor qaratishi tilshunos-pedagog sifatida katta tajribaga ega shaxsligini angatadi. Shuningdek, u ma‘naviyatli shaxs – pedagog sifatida xatni o‘quvchilarga og‘irlik qilmaydigan sodda tilda ravon yozishni uqtiradi.

Nutq so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning muayyan ko‘rinishi ifodasi bo‘lib, u faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki ham ruhiyat, ham nafasat hodisasi hisoblanadi. Shuning uchun ham yaxshi nutq insonning odob-axloqi, ma‘naviyatini aks ettiruvchi oyna hisoblanadi.

Ko‘rinadiki, matnda ifodalangan jummalardagi tilshunoslik atamaları o‘z nabatida pedagogik atamalar bilan o‘zaro umumiylikni ifodalab lingvopedagogik kulturologiyaning bir ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ma‘lum bo‘ladiki, milliy xarakter butun bir xalqning yoki ko‘p millatli xalqning hayotiy faoliyati, turmush tarzi, hayotiga talluqli bo‘lgan umumiy jihatlarini aks ettiradi. SHu bilan bir qatorda makon va zamonda teritoriya jihatidan tabiiy-geografik joylashuvi faktorlari ham ularning madaniyatidagi farqlanuvchi o‘lchov hisoblanadi. Masalan, tarixan o‘zbek, qirg‘iz, qozoq, tojik va qoraqolpoq xalqlarining yashash tarzi va madaniyati, jug‘rofik joylashuvida o‘xshash va farqlovchi jihatlari mavjud. Demak, bu xalqlarning pedagogikasi, madaniyatida ham o‘ziga xos bo‘lgan milliy xarakter gavdalanadi.

A.Qodiriy “Mehrobdan chayon” romanida milliy lingvopedagogik madaniyat va xarakterni Sultonali tilidan quyidagicha ochib beradi:

-Bo‘stoni ma‘rifat va gulshani haqiqat, – dedi Sultonali, – Imomi A‘zam rahmatullohi allayhi o‘n ikki yoshlarida darsgo‘ylik qilib va hokazo kutubi

mutabarraka ta'lifotig'a ham ibtido qilg'an ekanlarkim, bu karomat janoblaridan po'shida emasdir. Bas, indal'uqalo yoshliqning hech bir nuqs va ahamiyati yo'q, ammo fazlu zakovat lozimdir. Masalan, kaminangiz tahsilda "Aqoid" gacha bordim va qariyib o'n yildan beri mirzoliq qilurman. O'z hunarimda yaxshi tajriba ham ortdirdim, shuning bilan birga nafsilamrni iqror etishka majburmankim shogirdingiz mirzo Anvardan ko'b darajada quyidaman: tahrirda, taqrir, va foizda Anvaringizning yordamig'a muhtojman. Holbuki yoshim undan barobar katta, men o'qug'an darslarni ehtimol Anvar o'qumag'an... Anvarning zakovatiga yolg'iz men emas hatto marhum munshiy mulla Muhammad Rajabning o'zi tahsin qilar, ajoyib o'g'lon deb qo'yar edi. Menim mirzo Anvarni bu o'rung'a sa'i qilishim bo'lsa bir g'araz yuzasidan emas, xolisonadir.

Agar g'arazg'a hisoblansa, masalan: "Birarta noahlning qo'li ostida ishlagandan, ahlining jag'idan tishlagan ma'qul" so'ziga binoandir. Lekin mirzo Anvar nima uchundir biz bir necha mirzolarining ra'yimizga qarshi tushib, bizdan ranjib yuruydur. Hatto janobga bir ariza kirgizib, menim nomzadimni yanglish ko'rsatilibdir, men bu vazifani uhda qilolmayman, deb uzr bayon qilmoqchi emish. Uning bu yo'sun inodi nima uchun, bilmadik ... faqir, og'aynilar tarafidan garchi adabsizlik bo'lsa ham huzurlariga iltimos uchun keldim. Avvalo, mirzo Anvarg'a otaliqlari, soniyan ustozliqlari bor. Siz janob targ'ib qilsangiz va kengash bersangiz qabul qilar, deb o'yladiq.

Ushbu keltirilgan matn lingvopedagogik kulturologik yondashuv asosida tahlil etilsa, A.Qodiriyning o'zbek milliy pedagogik madaniyatini chuqur anglagan bilimdoni ekanligi namoyon bo'ladi. Chunki unda keltirilgan qator so'z-terminlar o'zining qisqa va ma'nodorligi bilan matnning semantik xususiyatiga ta'sir etadi. Matnda ma'rifat va gulshani haqiqat, Imomi A'zam rahmatullohi allayhi, ibtido qilg'an, indal'uqalo,"Aqoid " gacha,tahrirda, taqrir, sa'i qilishim singari so'z va so'z birikmalari orqali o'zbek milliy pedagogik terminlarining tarixan ham semantik maydoni keng ekanligini e'tirof etishimiz mumkin.

Keltirilgan matndan ma'lum bo'ladiki, Sultonali tilidan Abdulla Qodiriy o'zbek ziyolisining ma'naviyati yuksak,tarbiyali va o'zidan ilmi va bilimi, madaniyati yuqori bo'lgan insonlarga hurmati bilan qarash ruhiyatini yuksak badiiy nafislik bilan tasvirlab bergan. Bundan kelib chiqqan, xulosa shundaki, milliy mentalitetga xos bo'lgan mardlik shaxs tarbiyasi bilan bog'lanadi. Milliy tarbiya esa milliy pedagogikaning ajralmas qismidir.

Sultonali tomonidan aytilgan so'zlar insof va diyonat, ma'naviyatli bir o'zbekning xarakterini ochib beradi. Demak, milliy pedagogikamizda ma'naviy tarbiyaviy muhit o'zbek psixologiyasida azaldan mavjud va qadrlil hisoblangan.

Anglashiladiki, Sultonlining soʻzlarida oʻzbekning muloqot madaniyatidagi oʻziga xos bir koʻrinishi tasvirlangan.

“Oʻtgan kunlar“ kunlar romanida ota-ona va oʻgʻil oʻrtasida quyidagi epizod-dialogda milliy taʼlim va tarbiya, madaniyatning yuqori ekanligi ochib beriladi. “Ota-ona duosi – Oʻtga, suvga botirmas! maqoliga amal qilgan holda Otabek ota-ona soʻrovlariga javob beradi.

Anchagina soʻzsiz oʻltirgʻondan soʻng hoji muloyimona soʻz ochdi.

-Oʻgʻlim hali san eshitdingmi, yoʻqmi haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qoʻydiq...

Otabek, maʼlumki, ularning “qilib qoʻygan yoki qilmoqchi boʻlgʻan ishlarini” albatta, bilar edi. Shundoq ham boʻlsa bilmaganga soldi:

-Aqlli kishilarning oʻgʻullari ustidan qilgʻan ishlari albatta nomaʼqul boʻlmas, – dedi.

Keltirilgan matnda shaxs-individning muomalasi, ota-onaning hurmati, qadri birgina jumla orqali namoyon boʻladi. Aytish mumkinki, keltirilgan “Aqlli kishilarning oʻgʻullari ustidan qilgʻan ishlari albatta nomaʼqul boʻlmas“ jumlasini pragmatik maʼnoni ifodalab ikkita maʼnoni ochib beradi. Birinchi maʼno oqil va mehribon, madaniyat va tarbiyasi ulugʻ insonlar. Ikkinchi maʼnosi farzandini dildan yaxshi koʻradigan. Demak, yozuvchi Otabekdagi har ikki holatni his etgan holda milliy lingvopedagogik madaniyatni aks ettirgan. Bunday munosabat lingvopedagogik kulturologiyadagi pertseptiv munosabatni ifodalaydi.

Demak, nutqiy mahoratni egallashga intilish nutq odobi, aniqrogʻi, til va nutq vositalarini puxta bilishni taqozo etadi. Koʻrinadiki, Abdulla Qodiriy bu sohada oʻta tajribali psixolingvist va lingvopedagog sifatida ota bola munosabatiga yondashadi. Shuning uchun ham u oʻzbek milliy lingvopedagogik kulturologiya meʼyorlarini personajlari tilidan mohirona koʻrsata olgan.

Har qanday soʻzning xosiyati nutqning mohiyati bilan aloqadorgina emas, balki mantiqiy tafakkur mezoni hamdir. Nutq, notiq, mantiq, notqlik atamalarining bir-oʻzakdan yasalgani ham bu til birliklarining oʻzaro uzviy bogʻliklikda namoyon boʻlishini anglatadi. Biri birisiz roʻyobga chiqmasligini, biri ikkinchisini taqozo etishini bildiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, inson muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, taʼlim va tarbiya, turli munosabatlar, axloqiy meʼyorlar, gʻoya va mafkura omillari taʼsirida yashab ijtimoiylashadi va kamolotga yetadi. Kishilar oʻrtasidagi oʻzaro muloqot pedagogik-psixologik, lingvistik, mantiqshunoslik fanlarining asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanib, u oʻz ichiga shaxslararo munosabatlarning eng

muhimlarini qamrab oladi. Demak, badiiy matnda yozuvchi personajlar tilidan insonning milliy tafakkuri, ma'naviyati, odob va axloqi, ta'lim va tarbiyasi, urf - odatlariga bo'lgan cheksiz hurmatini ifoda etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Белик А.А. Психологическая антропология (культура-и-личность): История – теоретический очерк // личность, культура, этность: Совр. психол. Антропология // Под общ.ред. А.А.Белика. М.: Смысл, 2001.С. 174-203.
2. Кайковус."Қобуснома" асарига сўз боши. Долимов У. – Т., О'qituvchi. НМИУ, 2006. 14-бет.
3. Махмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Т. Mumtoz so'z. 2017. 37-бет.
4. Стеринин И.А.,Стеринина М.А .Очерк американского коммуникативного поведения // Науч.ред.: И.А.Стеринин, М.А.Стернина. Воронеж: Истоки, 2001.
5. Тер-Минасова С.Г.Язык и межкультурная коммуникация. Учеб.пособие // С.Г.Тер-Минасова, М.: Слово. 2000. – С.159.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILI SO‘Z BIRIKMALARI TIZIMIDA KECHADIGAN DERIVATSION JARAYONLARNING QIYOSIY TAHLILI

Rahmonova Gavhar Nuritdinovna,
Qarshi iqtisodiyot va pedagogika universiteti.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek so‘z birikmalarining sintaktik va morfologik tuzilishidagi hosila jarayonlarning qiyosiy tahlili berilgan. Tilshunoslik evolyutsiyasining muhim jihati bo‘lgan derivatsiya ikkala tilning yangi so‘z va iboralarni qanday yaratishidagi o‘xshashlik va farqlarni ochish uchun o‘rganiladi. Tadqiqotda asosiy mexanizmlarni sinchiklab o‘rganish, ingliz va o‘zbek tillari leksik tizimlarining boyligiga hissa qo‘shadigan lingvistik murakkabliklarga oydinlik kiritish uchun tillararo yondashuv qo‘llaniladi. Derivativlar so‘z yasalishi bilan bog‘liq lingvistik dinamika haqidagi tushunchamizni kuchaytirish, bu ikki tilni bir-biridan ajratib turuvchi o‘ziga xos xususiyatlarni tushunishga qaratilgan.

***Kalit so‘zlar:** Derivatsion; Ingliz tili; O‘zbek tili; So‘z birikmalari; Qiyosiy tahlil.*

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВОДНЫХ ПРОЦЕССОВ В СИСТЕМЕ АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ СЛОВСОЧЕТАНИЙ

Рахмонова Гавхар Нуриддиновна,
Каршинский экономико-педагогический университет.

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится сравнительный анализ словообразовательных процессов в синтаксической и морфологической структуре английских и узбекских словосочетаний. Важный аспект эволюции лингвистики, деривация изучается с целью выявить сходства и различия в том, как оба языка создают новые слова и фразы. В исследовании используется кросс-лингвистический подход для изучения основных механизмов и освещения лингвистических сложностей, способствующих богатству лексических систем английского и узбекского языков. Производные призваны улучшить наше понимание лингвистической динамики, связанной с образованием слов, и понять уникальные особенности, которые отличают эти два языка.

***Ключевые слова:** Деривация; Английский язык; узбекский язык; Словосочетания; Сравнительный анализ.*

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE DERIVATIVE PROCESSES IN THE SYSTEM OF ENGLISH AND UZBEK WORD COMBINATIONS

Rahmonova Gavhar Nuritdinovna,

Karshin University of Economics and Pedagogy.

ABSTRACT

This article provides a comparative analysis of derivational processes in the syntactic and morphological structure of English and Uzbek word combinations. An important aspect of the evolution of linguistics, derivation is studied to reveal similarities and differences in how both languages create new words and phrases. In the research, a cross-linguistic approach is used to study the main mechanisms and shed light on the linguistic complexities that contribute to the richness of the lexical systems of the English and Uzbek languages. Derivatives aim to enhance our understanding of the linguistic dynamics involved in word formation and to understand the unique features that distinguish these two languages.

Key words: Derivation; English language; Uzbek language; Word combinations; Comparative analysis.

KIRISH

Til, dinamik va rivojlanayotgan tizim sifatida doimo o'sish va moslashishga olib keladigan jarayonlarni boshdan kechiradi. Ana shunday asosiy jarayonlardan biri morfologik va sintaktik o'zgarishlar orqali yangi so'zlarni yaratishni o'z ichiga olgan derivatsion jarayondir. Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillari lingvistik doirasidagi hosila (derivatsion) jarayonlarini qiyosiy tahlil qilib, ularning so'z birikmalarini shakllantiruvchi nuanslarni ochib berishga qaratilgan. Bu tillarning yangi iboralar hosil qilishidagi umumiylik va tafovutlarni o'rganib, biz ularning lug'aviy tizimida ma'no yasash asosini tashkil etuvchi murakkab mexanizmlarni ochishga harakat qilamiz. Bu izlanish nafaqat til xilma-xilligi haqidagi tushunchamizni boyitibgina qolmay, balki ingliz va o'zbek so'z birikmalarining ekspressiv imkoniyatlarini belgilovchi o'ziga xos xususiyatlar haqida qimmatli tushunchalar beradi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotni olib borishda ingliz va o'zbek tillaridagi so'z birikmalari tizimidagi hosila jarayonlarni qiyosiy tahlil qilish uchun keng metodologiyadan foydalanildi. Prefikslar, qo'shimchalar, infikslar va boshqa morfologik va sintaktik o'zgarishlarni o'z ichiga olgan hosilalanishga duchor bo'lgan so'zlarga alohida e'tibor berildi. Ma'lumotlar to'plami qiyosiy tahlil uchun mustahkam asos bo'lib, leksik elementlarning keng spektrini qamrab olishga qaratilgan.

MUHOKAMA VA NATIJA

Ingliz tilidagi derivativ jarayonlarni o'rganish ko'plab tilshunoslar uchun qiziqarli mavzu bo'lib kelgan. Ingliz tilida yangi so'zlarni hosil qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan hosila affikslarining boy tizimi mavjud. Bundan farqli o'laroq, o'zbek tilida hosila affikslar tizimi ancha cheklangan. Biroq, har ikkala tilda yangi so'zlarni hosil qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan hosila jarayonlarining o'xshash tizimi mavjud.

Ingliz tilida yangi so'zlarni hosil qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan hosila affikslarining boy tizimi mavjud. Ushbu tilda hosila affikslarining ikki turi mavjud bo'lib, ular prefikslar va suffikslar (qo'shimchalar) deb nomlanadi. Prefikslar so'zning boshiga, qo'shimchalar esa so'z oxiriga qo'shiladi. Misol uchun, "employed" so'zini hosil qilish uchun "employed" so'ziga "un-" prefiksi qo'shilishi mumkin. Xuddi shunday, "happy" so'ziga "-ness" qo'shimchasini qo'shib "baxt" ma'nosini beruvchi "happiness" so'zini hosil qilish mumkin. Ingliz tilida affiksatsiyadan tashqari, yangi so'zlarni hosil qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan boshqa hosila jarayonlari ham mavjud bo'lib hisoblanadi. Ana shunday jarayonlardan biri konvertatsiya bo'lib, u so'zning shaklini o'zgartirmasdan nutq qismini o'zgartirishni nazarda tutadi. Misol uchun, "email" otini inglizchada "I will email you later"da bo'lgani kabi, tegishli fleksiyaning qo'shish orqali fe'lga aylantirish mumkin. Bunday misollar ingliz tilida juda ko'plab topiladi.

Ingliz tilidagi yana bir hosilaviy jarayon - bu birikma bo'lib, u ikki yoki undan ortiq so'zlarni birlashtirib, yangi so'z hosil qilishdir. Masalan, "black" va "board" so'zlari birlashib, "qora taxta yoki doska" so'zini hosil qiladi.

O'zbek tilida hosila affikslar tizimi ingliz tiliga qaraganda ancha cheklangan. Biroq, o'zbek tilida ham ingliz tilida bo'lgani kabi, yangi so'z yasashda qo'llanadigan prefiks va qo'shimchalar tizimi mavjud. Masalan, "vatan" so'ziga "be-" prefiksi qo'shib, "bevatan" (vatani yo'q) so'zini hosil qilishi mumkin. Xuddi shunday, "til" so'ziga "-chi" qo'shimchasi qo'shib, "tilchi" so'zini hosil qiladi.

Ingliz va o'zbek tillarida hosila jarayonlari ko'p jihatdan o'xshash. Har ikki tilda ham yangi so'z yasash uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan affiksatsiya tizimi mavjud.⁶⁸ Biroq ingliz tilida hosila affikslar tizimi o'zbek tiliga qaraganda ancha boy. Bundan tashqari, ingliz tilida o'zbek tilida mavjud bo'lmagan konversiya va birikma kabi boshqa hosila jarayonlari ham mavjud. Bu farqlarga qaramay, ingliz va o'zbek tillarida hosila jarayonlar o'rtasida ham o'xshashliklar mavjud. Har ikki tilda ham yangi so'z yasash uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan affiksatsiya tizimi mavjud. Bundan tashqari, ikkala tilda ham yangi so'zlarni hosil qilish uchun ishlatilishi

⁶⁸ Lehrer, Adrienne. "Prefixes in English word formation." (1995): 133-148.

mumkin bo'lgan transpozitsiya va reduplikatsiya kabi boshqa hosila jarayonlari mavjud.

Ingliz va o'zbek tillaridagi hosila jarayonlarning qiyosiy tahlili ham umumiy qonuniyatlarni, ham o'ziga xos xususiyatlarni ochib beradi. Affiksatsiya, ikkala tilda ham keng tarqalgan strategiya, prefiks va qo'shimchalarning ma'no o'zgarishiga qanday hissa qo'shishi bo'yicha o'xshashliklarni ko'rsatadi. Biroq, affiksning tabiati har xil bo'lib, ingliz tilida ko'proq qo'shimchalarga tayanadi, o'zbek tilida esa prefiks va infikslarga ustunlik beriladi. Murakkablik, garchi umumiy mexanizm bo'lsa-da, har bir tilga xos bo'lgan madaniy va semantik nuanslarni aks ettiruvchi tuzilishdagi o'zgarishlarni namoyish etadi. Hosil jarayonlarni sifat jihatidan tahlil qilish ingliz va o'zbek tillaridagi so'z birikmalarining semantik jilolari va kontekstual moslashuvini o'rganadi. Madaniy va tarixiy omillar muayyan derivativ strategiyalarning maqsadga muvofiqligini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Masalan, ingliz tilining global til sifatidagi ta'siri uning turli madaniy kontekstlarga moslashuvida namoyon bo'lsa, ma'lum bir geografik va madaniy muhitda ildiz otgan o'zbek tili so'z yasashida ko'proq mahalliyashtirilgan moslashish qobiliyatini namoyon etadi. Qiyosiy tadqiqot nafaqat til xilma-xilligi haqidagi tushunchamizni kengaytiradi, balki til va madaniyat o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni ham ta'kidlaydi. Ingliz va o'zbek tillaridagi hosila jarayonlari o'z jamoalarining tarixiy yo'llarini va madaniy murakkabliklarini aks ettiradi. Ko'p asrlar davomida turli til an'analari bilan o'zaro aloqada bo'lgan keng lug'atga ega ingliz tili global miqyosda til evolyutsiyasining dinamik xususiyatidan dalolat beradi.⁶⁹ Bundan farqli o'laroq, Markaziy Osiyo madaniyati va tarixida chuqur ildiz otgan o'zbek tili mintaqaning lingvistik merosi va uning lug'aviy yangiliklarini shakllantiruvchi madaniy o'ziga xoslikni aks ettiradi.

Ingliz va o'zbek tillarida hosila jarayonlar o'rtasidagi sezilarli farqlardan biri, yuqorida aytib o'tilganidek, bu prefikslardan foydalanishdir. Ingliz tilida yangi so'zlarni yaratish uchun asos so'zlarga qo'shilishi mumkin bo'lgan keng ko'lamli prefikslar mavjud bo'lsa-da, o'zbek tilida hosila jarayonlarida asosan qo'shimchalardan foydalaniladi. Bu o'zbek tilining aglyutinativ xususiyatini aks ettiradi, bunda so'z oxiriga qo'shimchalar qo'shib, grammatik munosabatlar va semantik farqlarni bildiradi. Bundan tashqari, ingliz tilida hosila qo'shimchalari so'zning nutq qismini o'zgartirishi mumkin. Masalan, "real" otiga "-ize" qo'shimchasining qo'shilishi "realize" fe'lini hosil qiladi. O'zbek tilida esa hosilalanish jarayonlari, asosan, tayanch so'z kabi grammatik turkumlari o'xshash bo'lgan yangi so'zlarni yaratishni, masalan, otni boshqa otga yoki fe'lni boshqa

⁶⁹ Yurtbaşı, M., 2015. Building English vocabulary through roots, prefixes and suffixes. *Global Journal of Foreign Language Teaching*, 5(1), pp.44-51.

fe'lga aylantirishni o'z ichiga oladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi hosila jarayonlarni qiyosiy tahlil qilishda qo'llanilgan affikslarning turlaridagi farqlardan tashqari yana bir muhim jihat - hosila so'zlarning semantik va grammatik vazifalaridir. Ingliz tilida hosila affikslarining qo'shilishi natijasida ma'no o'zgarishi, ya'ni qarama-qarshi ma'noli so'zlarning yasalishi, harakatga aloqador so'zlarning yasalishi yoki sifat va xususiyatlarni bildirishi mumkin. O'zbek tilida qo'shimchalarning qo'shilishi ham ma'no va shakl o'zgarishiga olib keladi, lekin ikki til o'rtasidagi tuzilish va leksik tafovutlar tufayli semantik va grammatik vazifalari farq qilishi mumkin.

Ingliz va o'zbek so'z birikmalari tizimidagi hosila jarayonlarning qiyosiy tahlili qiziqarli va murakkab mavzudur. Til va tilshunoslik sohasidagi shaxs sifatida men turli tillarda so'zlarning qanday hosil bo'lishini va birikishini tushunish ushbu tillarning tuzilishi va evolyutsiyasi haqida qimmatli tushunchalar berishi mumkinligiga ishonaman. Ingliz va o'zbek tillaridagi hosila jarayonlarni qiyoslaganda yangi so'zlarning yasalish yo'llarida tafovutlar mavjudligi ayon bo'ladi. Ingliz tili lotin va fransuz tillaridan kuchli ta'sir ko'rsatadigan german tili bo'lib, prefikslar, qo'shimchalar va qo'shma so'zlarni o'z ichiga olgan boy hosilaviy morfologiya tizimiga ega.⁷⁰ Boshqa tomondan, turkiy til bo'lmish o'zbek tili ham murakkab so'z yasalish tizimiga ega, lekin uning hosilalanish jarayonlariga turkiy va fors tillari ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu ikki tilda so'zlarning qanday hosil bo'lishini va birikishini o'rganish ularning lug'at tarkibini shakllantirgan madaniy va tarixiy ta'sirlarni tushunishga yordam beradi. Shuningdek, bu tillarda so'zlashuvchilarning tushuncha va g'oyalarni ma'lum so'z yasalishi orqali ifodalash usullarini ham yoritib berishi mumkin. Tahlil morfologik va sintaktik murakkablikdan tashqari, ingliz va o'zbek tillaridagi so'z birikmalarining hosila jarayonlarini shakllantirishda madaniy ta'sirlarning ham ahamiyatini ko'rsatdi. Fikrimizcha, ingliz tili global lingua franca sifatida turli madaniy kontekstlarga silliq moslashish qobiliyatini namoyish etadi, bu uning madaniyatlararo muloqot uchun kanal sifatidagi rolini aks ettiradi. Aksincha, o'zining Markaziy Osiyo merosi bilan chuqur ildiz otgan o'zbek tili so'z yasalishida o'zining madaniy o'ziga xosligining mohiyatini qamrab olgan holda ko'proq mahalliyashtirilgan moslashish qobiliyatini namoyon etadi.

Shaxsiy fikrimizcha, turli tillardagi hosila (derivativ) jarayonlarni o'rganish til tizimlarining xilma-xilligi va zukkoligini chuqur baholash imkonini beradi. Ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi qarama-qarshilik har bir tilning so'z shakllanishini aniq strukturaviy va morfologik xususiyatlarni ko'rsatadi. U tilning tabiiy ijodkorligi va moslashuvchanligini ta'kidlab, tillar qanday rivojlanganligi va murakkab va nozik

⁷⁰ De la Cruz, J.M., 1975. Old English pure prefixes: Structure and function.

ma'nolarni yetkazish uchun moslashganini ko'rsatadi. Derivativ jarayonlarning qiyosiy tahlili tillar ichiga singib ketgan madaniy va tarixiy ta'sirlarni ham aks ettirishini ko'rdik.⁷¹ Ingliz tili, boy ta'sirlar bilan shakllangan til sifatida, german, lotin va fransuz tillari va boshqalarning ta'siri tufayli so'z shakllanishida ajoyib moslashuvchanlikni namoyish etadi. Fikrimizcha bu to'g'ri bo'lib, darhaqiqat, o'zbek tilining aglyutinativ xususiyati va qo'shimchalarga tayanishi tilning o'ziga xos grammatik tuzilishini, turkiy til an'analari bilan tarixiy aloqalarini ochib beradi. Ushbu kuzatishlar til va madaniyat o'rtasidagi chuqur o'zaro bog'liqlikni ta'kidlab, tillar jamiyatlar va ularning tajribalarining organik aksi ekanligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, hosilaviy jarayonlarni o'rganish tilning davom etayotgan evolyutsiyasini eslatib turadi. Tillar o'z so'zlovchilarining kommunikativ ehtiyojlarini qondirish uchun doimiy ravishda moslashadigan "tirik mavjudotlar"dir. Ingliz tilidagi prefiks va qo'shimchalarning murakkab o'zaro ta'siri hamda o'zbek tilidagi qo'shimchalarning boy tizimi tillarning doimiy o'zgarib turadigan kontekstda qo'llanilayotgan sharoitga mos ravishda yaratish va yangilanish qobiliyatiga misol bo'la oladi. Muhim jihati shundaki, ingliz va o'zbek tillarida hosila jarayonlarning qiyosiy tahliliga kirishish qiyosiy tilshunoslikning kengroq sohasini chuqurroq tushunish imkonini beradi. U inson tillarida mavjud bo'lgan morfologik imkoniyatlarning keng doirasi va so'zlarning hosil bo'lishi va o'zgarishining murakkab tizimlari haqida bebaho tushunchalar beradi.

XULOSA

Ingliz va o'zbek so'z birikmalari tizimidagi hosila jarayonlarni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish orqali ushbu tadqiqot til murakkabliklari, madaniy ta'sirlar va so'z yasallishining o'ziga xos xususiyatlarining ko'p qirrali jihatlarini ochib berdi. Qiyosiy tadqiqot ingliz tilining hosilaviy jarayonlarini o'rganishdan boshlandi, bu tilning katta lug'at boyligi tarixiy qarz olish va ta'sir qatlamlari bilan shakllangan. Ingliz tili global til sifatida turli madaniyatlarning ta'sirini o'z ichiga oladi, bu tilning leksik xilma-xilligiga hissa qo'shadi. Boshqa tomondan, O'rta Osiyo madaniy tarixidan kelib chiqqan turkiy til bo'lgan o'zbek tilidagi hosilaviy jarayonlarni o'rganish uning tarixiy yo'nalishini aks ettiruvchi o'ziga xos tomonlarni aniqladi. O'zak so'zlarga affikslar tizimli ravishda qo'shiladigan aglyutinatsiyaning keng tarqalganligi o'zbek tilidagi so'z yasallishiga xos aniqlik va bashoratlilikni ko'rsatadi. Murakkab so'zlar ingliz tiliga qaraganda kamroq tez-tez uchrasa ham, tilning madaniy o'ziga xosligining mohiyatini o'zida aks ettiradi, qo'shma so'zlar mahalliy kontekstga chuqur singdirilgan nozik tushunchalarni qamrab oladi.

⁷¹ Prčić, T., 2005. Prefixes vs Initial Combining Forms in English: A Lexicographic Perspective1. International Journal of Lexicography, 18(3), pp.313-334.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Lehrer, Adrienne. "Prefixes in English word formation." (1995): 133-148;
2. Yurtbaşı, M., 2015. Building English vocabulary through roots, prefixes and suffixes. *Global Journal of Foreign Language Teaching*, 5(1), pp.44-51;
3. De la Cruz, J.M., 1975. Old English pure prefixes: Structure and function;
4. Prčić, T., 2005. Prefixes vs Initial Combining Forms in English: A Lexicographic Perspective1. *International Journal of Lexicography*, 18(3), pp.313-334.

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA DIFFERENSIALLASHTIRISH VA INDIVIDUALLASHTIRISH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

**Umarova J.Q,
Shodiyeva O.M**

Navoiy davlat pedagogika instituti, Biologiya kafedrası dotsentlari.
shodiyevaozoda70@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida Biologiya fanini o'qitishda foydalaniladigan differentsiallashtirish va individuallashtirish texnologiyasi haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: gomogen, geterogen, gomogen, konsepsiya, axborot texnologiyalari, ta'lim - tarbiya, reproduktiv, produktiv, o'qitish metodlari.

АННОТАЦИЯ

В данной статье изложены сведения о технологии дифференциации и индивидуализации, используемой при преподавании биологии в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: гомогенный, гетерогенный, гомогенный, понятие, информационные технологии, образование, репродуктивный, продуктивный, методы обучения.

ABSTRACT

This article provides information about the technology of differentiation and individualization used in teaching biology in higher educational institutions.

Key words: homogeneous, heterogeneous, homogeneous, concept, information technology, education, reproductive, productive, teaching methods.

KIRISH

Ma'lumki, ta'lim jarayoni talabalarning bilim olish, ko'nikma va malakalarni egallash, ularning ilmiy dunyoqarashi, ijodiy izlanishlarini rivojlantirish maqsadiga yo'g'rilgan o'qituvchi va talabalarning o'zaro hamkorligi sanaladi. Boshqacha aytganda, ta'lim mazmunining o'qitish metodlari yordamida o'zlashtirilishiga erishishdir. Jumlaan differentsiallashtirish va individuallashtirish texnologiyasi haqida fikr yuritar ekanmiz, dastlab Differentsiallashtirish haqida ma'lumot bersak, differentsia lotincha («difference») so'zidan olingan bo'lib, u yaxlit narsani turli darajadagi shakl va bo'limlarga ajratish ma'nosini beradi.

Ta'limni differentsiallashtirish:

1. O‘quvchilarni o‘quv jarayoni uchun ahamiyatli bo‘lgan xususiyatlariga ko‘ra guruhlariga ajratib tashkil etiladigan o‘quv jarayonining ma‘lum bir shakli;

2. O‘quv jarayonini tashkil etish didaktik tizimining bir qismi bo‘lib, unda tahsil oluvchilarning har xil darajadagi guruhlarida maxsus o‘qitish jarayoni tashkil etilishini ta‘minlaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Differensial ta‘lim texnologiyasi o‘quv jarayonining muayyan qismining didaktik maqsadini amalga oshirishga imkon beradigan mazmun, vosita, metod va shakllarining majmuasidir.

Bu texnologiyaning asosiy mohiyati o‘qitish jarayonini tabaqalashtirish ustuvor jihati bo‘lib, unda har bir shaxsning imkoniyati va qobiliyatiga yarasha o‘qitish, o‘quvchilarni har xil guruhlarda ishlashga o‘rgatish sanaladi.

O‘qitishning barcha shaklida differensiallashtirish uchraydi, tabaqalashtirish mavjud, shu sababli mazkur texnologiya ta‘lim jarayoniga «singib» ketuvchi texnologiya sanaladi.

Mazkur texnologiyaning afzalliklari:

1. O‘qituvchi talabalarni egallagan bilimi, o‘zlashtirish sur‘atini e‘tiborga olgan holda yordam berish imkoniyati vujudga keladi.

2. Talabalarning tahsil olish sur‘ati va bilimlarni o‘zlashtirish sifati ortadi.

3. Shaxsda mavjud «Men» konsepsiyasining darajasi ortadi, bilimi kuchli talabalarning o‘zlarining qobiliyatlarini namoyon qilish, o‘lashtirishi past bo‘lgan talabalarda bilish quvonchiga ega bo‘lishiga olib keladi.

4. Talabalarning tahsil olishga bo‘lgan qiziqishi, ehtiyoji ortadi.

5. Talabalarning har xil tabaqadagi (gomogen, geterogen) kichik guruhlarda ishlashiga imkon yaratiladi.

Biologiya o‘qituvchisi o‘qitishni differensiallashtirish uchun muayyan bir mavzu bo‘yicha uch xil darajadagi:

A — ijodiy, B — izlanish, C — reproduktiv xarakterdagi o‘quv topshiriqlarini tuzadi.

Bu o‘quv topshiriqlarda ikkita yo‘nalish nazarda tutiladi:

1. Talabalarning muayyan darajadagi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi;

2. Talabalarning tahsil olishdagi mustaqilligini ta‘minlash;

O‘qituvchi A, B, C variantdagi o‘quv topshiriqlarini tuzishda izchillikka amal qilishi kerak.

A — variantdagi o‘quv topshiriqlari o‘rtacha o‘zlashtiradigan talabalarga mo‘ljallangan bo‘lib, u talabalarning DTS bilan me‘yorlangan bilim va ko‘nikmalarni egallashlarini ta‘minlaydi. Shuning uchun ushbu o‘quv topshiriqlarni bajarish

bo'yicha ko'rsatmalarda e'tibomi nimalarga qaratish kerakligi, qanday xulosa chiqarish yo'llari aniq belgilab qo'yilishi lozim.

B — variantdagi o'quv topshiriqlarini tuzishda o'qituvchi talabalarning o'quv va aqliy faoliyat usullaridan foydalanishini nazarda tutgan holda, DTS bilan me'yorlangan bilim va ko'nikmalami egallashdan tashqari shaxsning mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida muammoli va mantiqiy xarakterdagi topshiriqlarni kiritadi.

C — variantdagi o'quv topshiriqlari talabalarning avval o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini yangi vaziyatlarda qo'llab, yangi bilimlarni egallashlariga imkon yaratadi. Talabalar mavzu bo'yicha berilgan o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtiradilar. Shuningdek, talabalarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirilishiga zamin tayyorlaydi.

O'qitishni demokratizatsiyalashtirish talablariga muvofiq talabalarga o'quv topshiriqlarini tanlash huquqi beriladi. Shu tariqa har bir talabaning o'z imkoniyati va qobiliyatiga yarasha rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Mazkur texnologiyada bilimlarni nazorat qilish va baholash individual tarzda bajarilgan o'quv topshiriqlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Shuni qayd etish kerakki, tabaqalashtirilgan yondashuvda, o'quv topshiriqlarini tuzishda talabalarning o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materiallari asos qilib olinadi. Buning uchun o'qituvchi biologiyadan DTS ning mazmuni bilan yaqindan tanishishi, talabalarning o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalarga qo'yiladigan minimum va maksimum talablarni yaxshi bilishi lozim.

Talabalarning mavzu bo'yicha o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar "V" ko'nikmalar asos bo'lib, qisman izlanishli va ijodiy topshiriqlar bilimlarni rivojlantirish, chuqurlashtirish va mustahkamlashga xizmat qiladi, ya'ni o'qitish jarayonini har bir qatnashchisi uchun qiziqarli va foydali bo'lishi, shaxsning rivojlanishiga imkon yaratadi.

Biologiyani o'qitishda tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish uchun o'qituvchi:

1. O'quv fani bo'yicha o'quv materiallarini qism (blok)larga ajratishi, har bir qism bo'yicha talabalar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materialining minimum va maksimum hajmi, talabalarning bilim va ko'nikmalarga qo'yiladigan minimum va maksimum talablarni yaxshi bilishi lozim;

2. Muayyan mavzular bo'yicha qiyinchiligi turli darajadagi o'quv topshiriqlarini tuzishi;

3. Talabalarning har xil darajadagi kichik guruhlarda ishlashini tashkil etish va boshqarish ko'nikmalarini egallagan bo'lishi lozim. Differensiallashtirilgan ta'limda

har bir talabaning shaxsiy xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari hisobga olinadi. Shu sababli o'qitishni differensiallashtirish individuallashtirilgan ta'limni taqozo etadi.

Individuallashtirilgan ta'lim — o'qitish shakli, o'qitish jarayonini tashkil etishning modeli bo'lib, u quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

1. O'qituvchi har bir talaba bilan individual ishlaydi;

2. Har bir talaba o'zining shaxsiy xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlariga mos holda tuzilgan o'quv topshiriqlarini bajaradi, ya'ni o'qitish vositalari (darslik, ko'rgazmali va didaktik materiallar, kompyuter) bilan yakka tartibda ishlaydi.

Individual ta'limning asosiy afzalligi, talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etish, ta'lim mazmuni, vositalari va metodlarini tanlashda ularning shaxsiy xususiyatlari va sur'ati hisobga olinganligi sababli mazkur jarayonni jadallashtirish, ularning o'quv topshiriqlarini bajarishda mo'ljalni to'g'ri olishi va tezroq moslashishi, o'z imkoniyatlari darajasida bilim va ko'nikmalarni egallashlariga imkon yaratish hisoblanadi.

O'qituvchi talabalar bilan individual ishlaganda ularning har bir harakati, bilimlarni o'zlashtirish borasida qo'ygan har bir qadami, o'quv faoliyatidagi yutuq, kamchiliklar va yetishmovchiliklarni aniqlash, ularga barham berish choralarini qo'llash, yutuqlar uchun rag'batlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu talabalarni doimo o'zgarib turadigan o'qitish jarayoniga moslashishi, pirovard natijada o'z imkoniyatlari darajasida o'quv materialini kam vaqt sarflab o'zlashtirishi, o'ziga qulay metod va uslublardan foydalanib ko'zlangan maqsadga erishishiga yordam beradi. O'qitishni individuallashtirish texnologiyasi individual yondashishni talab etadi.

Individual yondashuv — metodikaning tamoyillaridan biri bo'lib, unda o'qituvchi talabalarning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlarini hisobga olgan holda, individual model asosida o'quv faoliyatini tashkil etadi va ular bilan muloqotda yuksak madaniyatni namoyon qiladi, hamkorlikka kirishadi. Darsda vujudga kelgan qulay psixologik-pedagogik muhit hamma talabalarning, shu jumladan, har bir talabaning o'z imkoniyati darajasida rivojlanishiga asos bo'ladi.

O'qitishni individuallashtirish texnologiyasining quyidagi xususiyatlari mavjud:

1. O'qituvchi talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etish, o'qitish mazmuni, vositalari, metodlari va uslublarini tanlashda ularning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlarini hisobga olishi;

2. Individual o'qitishni tashkil etishning o'quv-metodik, pedagogikpsixologik, tashkiliy va boshqarish yo'llarini belgilashi lozim.

Shunday qilib, o'qitishni individuallashtirish texnologiyasi deyilganda, o'qitishning individual shakli va yondashuvi ustuvor bo'ladigan texnologiya tushuniladi. Mazkur texnologiya yaxlit pedagogik jarayonga singib ketuvchi texnologiya bo'lib, uning ustuvorligi talabalarga shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlarini hisobga olgan holda individualyondashuv sanaladi.

Biologiyani o'qitishda individuallashtirish texnologiyasidan dars, darsdan va sinfdan tashqari ishlar, ekskursiyalarda foydalanish tavsiya etiladi. O'qitish samaradorligi talabalarning darsdan tashqari ishlarini talab darajasida tashkil etilishiga bog'liq.

Talabalarning darsdan tashqari ishlari mavzular bo'yicha uy vazifalarini bajarish, muayyan mavzular bo'yicha kuzatish va tajriba o'tkazish, qo'shimcha o'quv adabiyotlari ustida mustaqil ishlash kabilami o'z ichiga oladi.

Talabalarning fan asoslarini chuqur va mustahkam o'zlashtirishlariga erishish, qo'shimcha o'quv adabiyotlari, ko'rgazmali vositalar yordamida mustaqil ishlarini tashkil etish, belgilangan mavzular bo'yicha kuzatish va tajribalar o'tkazish, o'quvchilarning qiziqishlari va bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan ta'limni tashkil etish, ularning ijodiy qobiliyatlari, mustaqil va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, kasbga yo'llash, o'qitishni umumiy jismoniy va aqliy mehnat bilan uzviy bog'lash maqsadida umumiy biologiyadan sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'tkaziladi.

XULOSA

Biologiya fanini o'qitishning samaradorligi dars, darsdan va sinfdan tashqari ishlar, ekskursiyalar, ular o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlar, talabalarning qiziqishlari va ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda tashkil etilishiga bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Ibodova Mahfuza Namozovna CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR THE USE OF INTEGRATIVE TECHNOLOGIES FOR TEACHING BIOLOGICAL SCIENCES IN ACADEMIC LYCEUMS *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol. 11 No. 4, 2023 ISSN 2056-5852
2. Ibodova Mahfuza Namozovna "IMPROVING THE METHODOLOGY OF USING ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING THE SUBJECT "ZOOLOGY" IN PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS." Open Access Repository 4.3 (2023): 21-25.
3. Ibodova, M. N. (2023). AKADEMIK LITSEYLARDA BIOLOGIYA FANINI OQITISHNING INTERFAOL VA MUAMMOLI IZLANISH METODLARIDAN

FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4-2), 125-131.

4. Ibodova Mahfuza Namozovna "BIOLOGIYANI OQITISHNING INTERFAOL VA MUAMMOLI IZLANISH METODLARI." PEDAGOGS jurnali 11.2 (2022): 12-21.

5. Ibodova Mahfuza Namozovna "Effectiveness of independent work in the educational process." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.10 (2021): 322-326.

6. Ibodova Mahfuza Namozovna "A FORMING THE BASIC COMPETENCIES OF PUPILS BY USING OF SELF-STUDY ASSIGNMENTS." ПЕДАГОГИКА И ПСИХОЛОГИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ (2018):

7. J.O.Tolipova "Biologiyani o`qitishda innovatsion texnologiyalar" *Pedagogika oliy o`quv yurti talabalari uchun darslik*. Toshkent - "Cho`lpon" – 2011 y.

8. Ibodova Mahfuza Namozovna BIOLOGIYA FANINI O`QITISHDA INTEGRATIV-BINAR MASHG`ULOTLARINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI *Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(11), November, 2023 417*

9. Умарова, Ж. К., & Рахмонова, Р. Б. (2023). НАСЛЕДОВАНИЕ ОПРЕДЕЛЕННЫХ КАЧЕСТВЕННЫХ ПРИЗНАКОВ ХЛОПЧАТНИКА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4-2),

10. Mukhabbat, R. (2022). THE IMPORTANCE OF ORGANIZING STUDENTS'INDEPENDENT WORK IN BOTANY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(5), 281-284.

10. Shodiyeva O.M. Intrapopulation variability of cotton cultivars // *European Science Review*. - Austria, 2019. -№1-2. P. 63-65.

11. Халикова М.б., Сайдалиев Х., Шодиева О.М., Мамарахимов Б.М. Методы изучения генетической изменчивости в популяции сельскохозяйственных культур. // "Современные достижения селекции и семеноводства, инновационные технологии выращивания хлопчатника " мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман матер.– Душанбе, 2019. Б. 80-85.

12. Sayfullayev, A. (2021). UZLUKSIZ TALIM VOSITASIDA EKOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISH TEXNOLOGIYASI. *Uzluksiz talim*.

13. Sayfullayev, A. F. O. (2023). SHAHARLARNI KO`KALAMZORLASHTIRISHDA KATALPA DARAXTINING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4-2), 77-82.

14. Nematovna, A. M., & Baxodirovna, M. F. (2023). THE EFFECTIVENESS OF DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE THINKING IN TEACHING BIOLOGICAL SCIENCES. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(09), 170-174.

ODAM ANATOMIYASI VA FIZIOLOGIYASI FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Urunova Dilshoda Sobirovna

Navoiy davlat pedagogika instituti,

Biologiya kafedrası o'qituvchisi.

urunovadilshoda98@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida "Odam anatomiyasi va fiziologiyasi" fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

***Kalit so'zlar:** Innovatsiya, subyektiv, aqliy-hujum, fikrlar hujumi, blits -o'yin texnologiyasi, intervyu metodi, konsepsiya, axborot texnologiyalari, ta'lim - tarbiya, reproduktiv, produktiv, o'qitish metodlari.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье описана информация об использовании инновационных технологий при преподавании предмета «Анатомия и физиология» в высших учебных заведениях.

***Ключевые слова:** Инновация, субъективная, ментальная атака, мысленная атака, технология блиц-игры, метод интервью, концепция, информационные технологии, образование, репродуктивные, продуктивные, методы обучения.*

ABSTRACT

This article describes information about the use of innovative technologies when teaching the subject "Anatomy and Physiology" in higher education institutions.

***Key words:** Innovation, subjective, mental attack, mental attack, blitz game technology, interview method, concept, information technology, education, reproductive, productive, teaching methods.*

KIRISH

Ma'lumki, ta'lim jarayoni talabalarning bilim olish, ko'nikma va malakalarni egallash, ularning ilmiy dunyoqarashi, ijodiy izlanishlarini rivojlantirish maqsadiga yo'g'rilgan o'qituvchi va talabalarning o'zaro hamkorligi sanaladi. Boshqacha aytganda, ta'lim mazmunining o'qitish metodlari yordamida o'zlashtirilishiga erishishdir. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining

sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, sliakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ta'lim jarayonida o'quvchi-talaba asosiy obyektga aylanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi.

Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchi-talabani dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;

- o'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarining doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;

- o'quvchi-talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;

- pedagog va o'quvchi-talabaning hainisha hamkorlikdagi faoliyatining tashkillanishi.

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar. amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya — bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan AKT, kompyuter, masofali o'qish, yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi bu o'qituvchi va o'quvchi-talabaning hamkorlikda belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga erishishlari tanlagan texnologiyalariga bog'liqligidadir, ya'ni

o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil etib, har ikkalasi ijobiy natijaga erishsa. o'quv jarayonida o'quvchi talabalar mustaqil fikrlasa, ijodiy ishlasa, izlansa, tahlil eta olsa, o'zlari xulosa qila olsa, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bersa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shular o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya — bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi-talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

O'qituvchi va o'quvchi - talabaning maqsaddan natijaga erishishda qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchi-talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Shu bilan bir qatorda, o'qitish jarayonini oldindan loyihalash tirish zarur, bu jarayonida o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini. mavjud moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarni, AKT vositalarini. eng asosiysi, o'quvchi-talabalarning imkoniyat va ehtiyojini hamda ularning hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olish qobiliyatlarini hisobga olishi kerak. Shundagina kerakli va kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o'quvchi-talabani ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsning texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchi-talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik xaritaning tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor bo'lishi, shuningdek, juda ko'p metod va usullarni bilishi kerak bo'ladi. Har bir darsning rang barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq.

Hozirgi vaqtda ta'limni axborotlashtirishda asosiy yo'nalish turli o'quv fanlari bo'yicha pedagogik dastur vositalarini yaratishdan iborat bo'lib qoldi. Biroq mavjud va ishlab chiqilayotgan kompyuter texnikasi bazasidagi pedagogik dastur vositalari o'qitish nuqtai nazaridan ta'lim sifatida muhim siljishlariga olib kelishi mumkin emas. Buning sabablaridan biri kompyuter texnologiyalarini an'anaviy tashkil etilgan

o'qitish jarayoniga joriy etila boshlanganligida bo'lib, o'z mazmuni va metodi bo'yicha bu texnologiya aniq maqsadga yo'naltirilmagan. Shu munosabat bilan iqtisodiy ta'lim tizimiga axborot texnologiyalarini joriy qilish muammo va istiqbollarni ko'rib chiqish favqulodda muhimdir.

Odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali uzluksiz ta'lim samaradorligini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. Pedagogik texnologiyalar — ta'lim berish va zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash yordamida talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirish imkoniyatini beruvchi o'quv vositalari bo'lib, u o'ziga xos didaktik va uslubiy asosga ega.

Odam anatomiyasi va fiziologiyasi faninining o'qitilish sifati va samaradorligini oshirish maqsadida, pedagogik texnologiyalarni zamonaviy axborot texnologiyalar imkoniyatlari asosida uch turdagi o'quv mashg'ulotlariga, ya'ni ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kompleks holda qo'llash tavsiya etiladi.

Odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanidan o'rganilayotgan materiallarning o'quv soatlari miqdori hisobga olingan holda mavzu bloklariga ajratiladi, har bir ma'ruza mavzu blokiga 2-8 o'quv soati oralig'ida vaqt ajratiladi hamda ushbu mavzu blokiga mos amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari mazmuni va hajmi belgilanadi. Bu usulda har bir mavzuni o'rganishdagi ichki izchillik va uzviylik to'la saqlanadi va talabalarda mavzuga oid malaka va ko'nikmalarini to'laroq va maqsadliroq shakllantirish imkoniyati kuchayadi.

Innovatsiya texnologiyalari o'qitish jarayonida yuqori malakali, raqobatbardosh o'qituvchi kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy omil ko'nikmalarini shakllantirish, metodik mahoratini ko'tarish, o'qituvchi pedagoglarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish omili bo'lib qolmoqda.

Anatomiya va fiziologiya fanini o'qitish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan ba'zi bir treninglar (texnologiyalarga)ga tavsifnoma berib, ba'zilarini o'tkazish tartibi to'g'risida metodik tavsifnoma berib o'tamiz:

«TARMOQLAR» metodi - o'quvchi-talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan.

«3x4» metodi - o'quvchi-talabalarning erkin fikrlashi, keng doirada turli g'oyalarni bera olishi, ta'lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta'rif bera olishiga qaratilgan.

«BLITS-O'YIN» metodi — harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan.

«INTERVYU» texnikasi - o'quvchi-talabalarga savol berish, eshita olish, to'g'ri javob berish, savolni to'g'ri tuzishni o'rgatishga qaratilgan.

«IERARXIYA» texnikasi — oddiydan murakkabga, murakkabdan oddiyga o'tish usullarini qo'llash orqali ularni mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashga o'rgatishga qaratilgan.

«BUMERANG» texnikasi - o'quvchi-talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o'quvchitalabalarni baholay olishga qaratilgan.

«TALABA» treningi - o'quvchi-talabalar bilan individual holda ishlash o'qituvchi va talaba o'rtasidagi to'siqni yo'q qilish, hamkorlikda ishlash yo'llarini o'rgatishga qaratilgan,

«O'QITUVCHI SHAXSI» treningi — o'qituvchining innovatsion faoliyatini ochib beruvchi «O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar» mavzusidagi mustaqil fikrlashga, ijodiy insho yozish orqali fikrlarni bayon qilishga qaratilgan.

«MULOQOT» texnikasi o'qituvchilarni auditoriya diqqatini o'ziga jalb etish, dars jarayonida hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga, uni tashkil etishni o'rgatishga qaratilgan.

«BOSHQARUV» texnikasi o'qituvchilarni auditoriyani boshqarishdagi usullari hamda o'quvchi-talabalarni ish jarayonida boshqarish usullari bilan tanishtiruvchi va shunga o'rgatishga qaratilgan.

Fikrlar hujumi (aqliy hujum)

«Aqliy hujum» - muammolarni hal qilishda keng qo'llanadigan anchagina mashhur metoddir. Bu usul katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, talabalarni ayni bir xil fikrlash inersiyasidan holi qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni yengishdir. U qatnashchilarni o'z tasavvurlari va ijodlaridan foydalanishga undaydi va berilgan har qanday muammoga ko'p sonli yechimlar topishda yordam beradi (Bu vaziyatda men nima qilishim kerak? Bu to'siqni qanday bartaraf qilishimiz kerak?). Aqliy hujum qadriyatlarini tanlash va muqobillarini aniqlashga yordam beradi. Aqliy hujumni o'tkazish qoidalari, foydalanish usullari quyidagilardan iborat:

1. O'ylash jarayonida hech qanday baholashlarga yo'l qo'yilmaydi.

Agar o'ylash jarayonida g'oyalami baholaydigan bo'lsak, qatnashchilar e'tiborlarini o'z fikr va g'oyalarini himoya qilishga qaratib, ularning yangilari va yaxshilari ustida bosh qotirmay qo'yadilar. Baholash qoidadan istisno qilinishi kerak.

2. Hammani o'ta xilma-xil kutilmagan g'oyalar doirasida o'ylashga undash kerak. Haqiqatdan ham aqliy hujumda kutilmagan g'oyalar yuzaga kelmas ekan, ayrim qatnashchilar o'z shaxsiy fikrlarini qayta ko'rib chiqishlari aniq bo'lib qoladi.

3. G'oyalar miqdori rag'batlantiriladi. Miqdor deyarli doimo o'sib, sifatga aylanadi.

Tezkor izchillikda katta miqdorda g'oyalar paydo bo'lganda, odatda, baholash istisno qilinadi.

4. Har bir kishi o'zgalar g'oyasiga asoslanishi va ularni o'zgartirishi mumkin. Oldin taklif etilgan g'oyalami biriktirish yoki o'zgartirishga, ko'pincha, sabab bo'lganlardan ko'ra yaxshiroq g'oyalami keltirib chiqaradi. Samaraii «Aqliy hujum» metodidan foydalanish quyidagilami taqozo etadi:

- qatnashchilar bemalol o'tiradigan qilib joylashtiriladi;
- g'oyalami yozish uchun doska yoki varaqlar tayyorlab qo'yiladi;
- muammo aniqlanadi;
- ish qoidalari belgilanadi;
- g'oyalar hech qanaqasiga baholanmaydi;
- fikrlarga to'liq erkinlik beriladi;
- miqdorga intilish;
- o'qish, qayta o'zgartirish va boshqalar;
- g'oyalar haqida so'rash va aytilishi bilan yozib olish;
- qog'oz varaqlari to'lganda, ularni devorlarga osib qo'yish;
- o'zidan qo'shib yangi g'oyalami rag'batlantirish;
- ishni davom ettirish va o'zgalar g'oyasiga aralashmaslik.

«Aqliy hujum» metodining mohiyati ham o'ziga xos xususiyatga ega. Bunda maqsad berilgan qisqa vaqt ichida ma'lum muammoning yechimini topishga qaratilgandir. Bu psixotexnik o'yin mashg'ulot jarayonida ijodiy va noandoza fikrlashni uyg'otadi. Bitta yoki bir necha guruh tashkil etiladi va ular oldiga muammo qo'yiladi. Talabalar o'z oldiga qo'yilgan muammoni yechish uchun turli g'oyalami ilgari suradi. Echim variantlari qancha ko'p bo'lsa, tanlash jarayoni shunchalik oson bo'ladi. Har bir ilgari surilgan g'oyani atroflicha ko'rib, kengaytiriladi va ular orasidan eng to'g'ri g'oyani muammoning yechimi sifatida qabul qilinadi. Muammoni yechish vaqti oldindan belgilab olinadi va unga qat'iy amal qilinadi. «Aqliy hujum» o'yini qiyin vaziyatlardan qutulish chorasini tez topishga, muammoni ko'ra bilish chegaralarini kengaytirishga, fikrlash bir xilligini yo'qotishga va keng

doirada tafakkur yuritishga imkon beradi. Bundan labhqari jamoadagi munosabatlar o'zgaradi, kurashish kayfiyatidan ijodiy hamkorlik kayfiyatiga o'tiladi va guruh yanada jipslashadi.

«Tarmoqlar» (Klaster) metodi

Bu usulning ma'nosi — fikrlaming tarmoqlanishi. «Klaster» texnologiyasi pedagogik strategiya bo'lib, u o'quvchi - talabalarni biron-bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam beradi. O'quvchitalabalarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi. Bu usul biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchi-talabalaming fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, umumlashtirish hamda o'quvchi-talabalarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

«Bumerang» texnologiyasi

Bu texnologiya bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzulami o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi. Har bir mashg'ulot davomida talabalarning turli topshiriqlarni bajarishi navbat bilan o'qituvchi yoki talaba. iqtisodchi yoki tadbirkor rovida bo'lishi, kerakli ballni to'plashiga imkoniyat yaratadi. «Bumerang» texnologiyasi tanqidiy fikrlash va mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi hamda g'oya va fikrlami yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi, ya'ni bo'lajak iqtisodchilarda jamoa bilan ishlash mahorati. muomalalik, xushfe'llik. o'zgalar fikriga hurmat, rahbarlik sifatlarini shakllantirish, ishga ijodiy yondashish, o'z faoliyatini samarai bo'lishiga qiziqish, o'zini xolis baholash kabilar.

XULOSA

Odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitishda Innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabalarning mustaqil ishlashiga , ijodiy fikrlashiga va ta'lim samaradorligini orttirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Ibodova Mahfuza Namozovna CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR THE USE OF INTEGRATIVE TECHNOLOGIES FOR TEACHING BIOLOGICAL SCIENCES IN ACADEMIC LYCEUMS *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol. 11 No. 4, 2023 ISSN 2056-5852

2. Ibodova Mahfuza Namozovna "IMPROVING THE METHODOLOGY OF USING ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING THE SUBJECT "ZOOLOGY" IN PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS." Open Access Repository 4.3 (2023): 21-25.
3. Ibodova, Mahfuza Namozovna. "AKADEMIK LITSEYLARDA BIOLOGIYA FANINI OQITISHNING INTERFAOL VA MUAMMOLI IZLANISH METODLARIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3.4-2 (2023): 125-131.
4. Ibodova Mahfuza Namozovna "BIOLOGIYANI OQITISHNING INTERFAOL VA MUAMMOLI IZLANISH METODLARI." PEDAGOGS jurnali 11.2 (2022): 12-21.
5. Ibodova Mahfuza Namozovna "Effectiveness of independent work in the educational process." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.10 (2021): 322-326.
6. Ibodova Mahfuza Namozovna "A FORMING THE BASIC COMPETENCIES OF PUPILS BY USING OF SELF-STUDY ASSIGNMENTS." ПЕДАГОГИКА И ПСИХОЛОГИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ (2018):
7. J.O.Tolipova "Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar" Pedagogika oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. Toshkent - "Cho'lpon" – 2011 y.
8. Ibodova Mahfuza Namozovna BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INTEGRATIV-BINAR MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(11), November, 2023 417
9. H.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 5A340605 — «Xalqaro moliya» mutaxassisligining magistrantlari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan. Toshkent - "Iqtisod - Moliya" – 2009 y.
10. Sayfullayev, A. (2020). MICROALGAE AND CYAN BACTERIA AS BIO FERTILIZERS. *SCIENCE, RESEARCH, DEVELOPMENT*# 26.
11. Хужжиев, С. (2022). ФИТОРЕМЕДИАЦИЯ ПОЧВ, ЗАГРЯЗНЁННЫХ ТЯЖЁЛЫМИ МЕТАЛЛАМИ. *ЭКОЛОГИЯ (БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ)*.
12. Shomurodov, H. F., Saribaeva, S. U., Abduraimov, O. S., Khayitov, R. S., & Sayfullaev, A. F. (2021). The Current State of Iris Hippolyti's (Vved.) Kamelin

Population in Uzbekistan. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 6589-6597.

13. Sayfullayev, A. (2021). UZLUKSIZ TALIM VOSITASIDA EKOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISH TEXNOLOGIYASI. *Uzluksiz talim*.

14. Sayfullayev, A. F. O. (2023). SHAHARLARNI KO'KALAMZORLASHTIRISHDA KATALPA DARAXTINING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4-2), 77-82.

15. Nematovna, A. M., & Baxodirovna, M. F. (2023). THE EFFECTIVENESS OF DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE THINKING IN TEACHING BIOLOGICAL SCIENCES. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(09), 170-174.

**TARBIYACHINING PEDAGOGIK KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISH USULI VA KASBGA TAYYORLASH JARAYONIDA
TASVIRIY- IJODIY YONDASHUVI**

Tillayeva Vasila O'ktam qizi

70110201-“Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi”

(Maktabgacha ta’lim) 2-bosqich magistranti

Zufarova Laziza Tolibjon qizi

70110201-“Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi”

(Maktabgacha ta’lim) 2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada tarbiyachi yosh avlodimizni xalqimizning munosib farzandlari qilib tayyorlashdek muhim, faxrli ish bilan birga mas’uliyatli vazifani bajarishi, tarbiyachining siyosiy etukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o‘z mas’uliyatini anglashi, ta’lim-tarbiya vazifalarini ijodiy yondashishga, o‘z mahoratini doimo takomillashtirib borishi haqida ma’lumotlar berilgan.

***Kalit so‘zlar:** ta’lim, tarbiyachining pedagogik kompetensiyasi, qonun, bola, o‘yin, mehnat, mashg‘ulot.*

АННОТАЦИЯ

В статье дается информация о том, что воспитатель наряду с такой важной, гордой работой, как подготовка подрастающего поколения достойными детьми нашего народа, выполняет ответственную задачу, политическая зрелость воспитателя способствует осознанию своей ответственности перед народом и обществом за качество воспитания детей, творческому подходу к задачам воспитания, постоянному совершенствованию своего мастерства.

***Ключевые слова:** воспитание, педагогическая компетентность воспитателя, право, ребенок, игра, труд, обучение.*

ABSTRACT

The article provides information that the educator performs a responsible task, along with an important, proud work, preparing our young generation as worthy children of our people, the educator's political maturity realizes his responsibility to the people and society for the quality of raising children, gives a creative approach to educational tasks, constantly improving his skills.

***Keywords:** education, pedagogical competence of the educator, law, child, play, labor, training.*

KIRISH

Maktabgacha ta'lim taraqqiyoti samarali mexanizmlarini joriy etish o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarishning eng muhim sharti hisoblanadi. Shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion shakllari va usullarini qo'llashga ko'maklashadi.

Mamlakatimizda ayni paytda vujudga kelgan shart-sharoitlar o'qish shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni va bu jarayonga tegishli o'zgartirishlarni kiritishni taqozo etmoqda. Xususan, shu kunlarda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun tarbiyachilarning malakasini oshirish mazmuni va shakllarini takomillashtirish zarurati paydo bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ-2707-sonli, 2017 yil 30 sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risi" dagi PF-5198-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 9-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli Qarori, 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi - faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli Qarori bayon etilgan.

Maktabgacha ta'lim – ta'lim tizimining mustahkam poydevori bo'lib, aynan shu davrda bolaning kelajakdagi barcha faoliyat turlarida muvaffaqiyatga undovchi umuminsoniy xislatlari shakllana boshlaydi. Kichkintoyning shaxsiy faolligi ayniqsa, rasm chizish, qurish-yasash, musiqa va boshqa faoliyat turlarida takomillashib boradi. Bunda bolaning oson o'zlashtirishida faoliyat turlarining o'yin tarzida tashkillashtirilgani samarali natija ko'rsatadi.

Ta'limiy jarayonlarni tizimli olib borish va maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishda "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi yaqindan yordam beradi. O'zbekiston Respublikasining "Ilk va maktabgacha yoshidagi bolalarni rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari"ga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lib, unda maktabgacha ta'lim tashkilotining maqsad va vazifalari, o'quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g'oyalari ifodalangan, shuningdek, bolaning ta'limning keyingi bosqichiga o'tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilangan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – "Ilq qadam" Davlat o'quv dasturi va Maktabgacha ta'limni 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida aks ettirilgan ta'lim va tarbiyaning asosiy tamoyilidir. Ushbu pedagogik konsepsiyamni yozishdan oldin men o'tgan davr mobaynida, o'zimning hamkasblarimning ish faoliyatini kuzatuvim hamda turli o'quv seminarlaridagi kuzatuvlarim asosida yozishga qaror qildim. Pedagogik konsepsiya eng avvalo o'zimning Pedagogik kompetensiyamni oshirishga xizmat qiladi, shu bilan birgalikda ushbu Konsepsiya orqali men tashkilotim va shahrimdagi tarbiyachilarning o'zlarini ustida ishlari uchun ozgina bo'lsa ham turtki, shu bilan birgalikda yo'l ko'rsatuvchi ish bo'ladi deb o'yladim. Ushbu konsepsiyani yozish vaqtida, konsepsiyadagi ko'rsatma va yo'nalishlarni hayotga to'liq tadbiiq etishim uchun men doimiy o'z ustimda ishlashim kerakligi hamda kamida 2 yil davomida ta'lim-tarbiya jarayonimga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tadbiiq etishim lozimligini tushundim. Aytib o'tish lozimki, bolalarga ularning individual ritmda rivojlanishlari va individual potensialini hamda qiziqishni oshirish uchun teng imkoniyatlarni taqdim etuvchi qulay muhitni ta'minlash uchun tarbiyachi shaxsi muayyan kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak.

Pedagogik kompetensiyalar-bilimlar, malaka va ko'nikmalar hamda o'zlashtirilgan qadriyatlar asosida mustaqil harakatlanishga bo'lgan motivatsiyaning uyg'unlashgan majmuini o'zida aks ettiradi. Kompetentli kadr kasbiy vazifalarni samarali va sifatli bajarishi mumkin. Zamonaviy kompetensiya nafaqat malaka, bilim va ko'nikmalarni, balki qadriyatlar va axloqiy fazilatlarni xam o'z ichiga oladi. Har bir tarbiyachi shaxsi, temperamenti va tarbiyachiik uslubi boshqalarinikidan farqlanadi. Biroq bolaga, uning ta'limiga va rivojlanishiga yondashuv barcha tarbiyachilarda bir xil bo'lishi lozim. Shuning uchun ham kasbiy standart barcha tarbiyachilar uchun bir xil talabni qo'ydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, zamonaviy bolalar bog'chasini yangi axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. AKTga egalik qilish ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga, tarbiyachilarning kasbiy malakasini oshirishga yordam beradi.

Kasbiy mahoratning bir qismi sifatida tarbiyachining loyiha madaniyati ham katta o'rin tutadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining loyihaviy faoliyati - bu tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan (muammo "tug'dirish", ma'lumot to'plash va qayta ishlash, tajribalar o'tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish) rivojlantiruvchi ta'lim va o'z-o'zini tarbiyalash usullaridan biridir. va mantiqiy fikrlash; maktabgacha ta'lim tashkilotining uslubiy faoliyati davomida va malaka oshirish kurslarida olgan

bilimlarini birlashtiradi. Loyiha faoliyatining maqsadi - maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyat uchun sharoit yaratish, tarbiyachilar tomonidan kasbiy faoliyatda olingan bilim, ko'nikma va malakalardan foydalanish. Tarbiyachilar tomonidan loyihalarni ishlab chiqish uchun mavzular, mini-loyihalar faoliyatning ijodiy yo'nalishiga qarab mustaqil ravishda tanlanadi. Faoliyatning yakuniy bosqichida taqdimot o'tkaziladi.

Tarbiyachilarning malakasini rivojlantirishning turli shakllari va usullari mavjud bo'lib ularni bosqichma-boqich amalga oshirish mumkin. Tarbiyachilar bilan ishlashda malakani rivojlantirishga qaratilgan ko'plab shakl va usullardan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Seminar - ijodiy darslar ijodiy fikrlashni rivojlantirish va innovatsion loyihalarni yaratishga qaratilgan.

O'yinlarni modellashtirish. Ishbilarmonlik va rol o'ynash o'yinlari haqiqiy jarayonni modellashtirishni o'z ichiga oladi, bu davrda sun'iy ravishda yaratilgan pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish asosida maqbul kasbiy qarorlar qabul qilinadi. Kollektiv muammolarni hal qilish, guruh muhokamasi yoki aqliy hujum; kasbiy mahoratni oshirish uchun kichik guruhlarda treninglar; o'z-o'zini tarbiyalash ishlarining usullari, maktabgacha ta'lim muassasasining innovatsion faoliyati natijalariga bag'ishlangan ilmiy va amaliy konferensiyalar.

Pedagogik halqa - tarbiyachilarni psixologiya va pedagogika sohasidagi so'nggi tadqiqotlarni, uslubiy adabiyotlarni o'rganishga yo'naltiradi, pedagogik muammolarni hal qilishning turli xil yondashuvlarini aniqlashga yordam beradi, mantiqiy fikrlash va o'z pozitsiyalarini dalil qilish ko'nikmalarini yaxshilaydi, bayonlarning ixchamligi, aniqligi, to'g'riligini o'rgatadi. Ushbu shakl ishtirokchilarning javoblari, nutqlari va harakatlarini baholash mezonlarini taqdim etadi:

XULOSA

Ushbu pedagogik konsepsiyada keltirilgan fikr va mulohazalar, yo'nalish hamda takliflar bu eng avvalo ma'lum bir davr ichida o'zimning ta'lim-tarbiya berish faoliyatimning sifat samaradorligini oshirish uchun qilinadigan ishlar sifatida ko'rishimiz mumkin. Bugun tarbiyachining pedagogik kompetensiyalarini doimiy oshirib borishi, bu eng avvalo bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan, ahloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, "Men" obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishda asosiy omildir. Mazkur pedagogik konsepsiyada ko'rsatilgan vazifalar, yo'nalish va natijalarga erishish maqsadida men o'zim uchun bir o'quv yiliga rejalashtirilgan chora-tadbirlar rejamni ham tuzib

chiqdim. Maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilishning zamonaviy sharoitida tarbiyachining maqomi tubdan o'zgarib bormoqda, uning ta'lim funksiyalari, shunga muvofiq, uning kasbiy va pedagogik kompetensiyasiga, uning kasbiy mahorat darajasi talablari o'zgaradi. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolani tarbiyalash va rivojlantirishning zamonaviy tizimida o'zining shaxsiy salohiyatini safarbar qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qodir bo'lgan ijodkor, mahoratli tarbiyachi talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. "Ilq qadam" Davlat o'quv dasturi
2. Sharipova Guzal Sodiqovna. Distribution and modernization of advanced Pedagogical practices in the lesson process. Current research journal of pedagogics (ISSN –2767-3278) volume 03 issue sjif impact factor (2021:5.714) (2022:6. 013) oclc – 1242041055 metadata if – 8.145 12-15 betlar
3. Sharipova Guzal Sodiqovna .Important components of directing students to innovative activity in the conditions of economic development
4. Xalilova Dilnoza Furqatovna. "Maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lajak tarbiyachilarining ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish ". Ta'lim sifati – Yangi O'zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili, Qo'qon 21 iyun 2023 yil. 677-679.
5. Xolto'rayeva, S. X. Maktabgacha yoshdagi bolalarga matematik bilim berish orqali fazoviy tasavvurlarni shakllantirishning dolzarbligi. *Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman*, 579-581.
6. Norboevna, R. N. (2021, April). IMPROVING THE MEMBERSHIP SYSTEM IN ECOLOGICAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN. In *Archive of Conferences* (Vol. 20, No. 1, pp. 97-98).
7. Nigmatov, A. N., & Ravshanova, N. N. (2020). Scientific Preschool Environmental Education and Training Research Methodology. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(08), 23-31.
8. Babayeva, D. R., & Ochilova, X. S. (2022, October). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI NUTQ O 'STIRISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O 'RGATISH. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 8, pp. 21-23).
9. Sharipova, G. S., & Madaminjonova, M. S. (2022, April). BASIC CONCEPT IN CLOTHES DESIGN. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 12-15).
10. Sharipova, G. S. (2022). DISTRIBUTION AND MODERNIZATION OF ADVANCED PEDAGOGICAL PRACTICES IN THE LESSON PROCESS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(06), 12-15.

11. Xolto'rayeva, S. X. (2023). МАКТАВГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI МАКТАВ ТА'LIMIGA TAYYORLASH JARAYONIDA TAYANCH КОМПЕТЕНСИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ. *ҚО 'ҚОН UNIVERSITETI ХАВАРНОМАСИ*, 871-872.
12. ШАРИПОВА, Г. С. (2019). ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛИЗМА НА ПРИМЕРЕ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ ПО ФОРМИРОВАНИЮ УМЕНИЙ И НАВЫКОВ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ. In *Высшее и среднее профессиональное образование как основа профессиональной социализации обучающихся* (pp. 260-268).
13. Садикова, Д. Х., & Калауова, М. С. (2023). РОБОТЫ-ИГРУШКИ И МАТЕМАТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ НА ЗАНЯТИЯХ. *Analysis of world scientific views International Scientific Journal*, 1(5), 5-12.
14. Садикова, Д. Х. (2023). ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ STEAM ТЕХНОЛОГИЙ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 4(2), 5-11.
15. Садикова, Д. Х. (2023, January). АППЛИКАЦИЯ-СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСТВА ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 87-91).
16. Sadikova, D. K., & Mansurova, A. M. (2023). Study of Foreign Experience in The Application of Steam Technologies in Preschool Education. *European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices*, 1(2), 162-167.
17. Раджапова, З. Т., & Мирзаева, Г. З. (2023). ИННОВАЦИОННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ В ЛАНДШАФТНОМ ДИЗАЙНЕ.(в дошкольных образовательных организациях). *Analysis of world scientific views International Scientific Journal*, 1(4), 70-76.
18. Radjapova, Z., & Abdurafova, U. (2023). THE IMPORTANCE OF USING METHODS IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS ON THE BASIS OF AN INTEGRATIVE APPROACH. *Science and innovation*, 2(B1), 337-340.
19. Tirkashevna, R. Z. (2023). PEDAGOGIK KOMPETENTLIK-SHAXSGA TA'LIM-TARBIYA BERISHNING MUHIM SHARTI. *Science and innovation*, 2(Special Issue 9), 125-128.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA LOKAL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Tilakova Shirin Xaqberdi qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti,

Biologiya kafedrası o'qituvchisi

shirin.tilak@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida Biologiya fanini o'qitishda foydalaniladigan lokal texnologiyalar haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *axborot texnologiyalari, ta'lim - tarbiya, reproduktiv, produktiv, o'qitish metodlari .*

АННОТАЦИЯ

В данной статье описывается информация о местных технологиях, используемых при преподавании биологии в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: *информационные технологии, образование, репродуктивное, продуктивное, методы обучения.*

ABSTRACT

This article describes information about local technologies used in teaching biology in higher education institutions.

Key words: *information technologies, education, reproductive, productive, teaching methods.*

KIRISH

Ma'lumki, ta'lim jarayoni talabalarning bilim olish, ko'nikma va malakalarni egallash, ularning ilmiy dunyoqarashi, ijodiy izlanishlarini rivojlantirish maqsadiga yo'g'rilgan o'qituvchi va talabalarning o'zaro hamkorligi sanaladi. Boshqacha aytganda, ta'lim mazmunining o'qitish metodlari yordamida o'zlashtirilishiga erishishdir. Metod so'zi umumiy ma'noda muayyan maqsadga erishish usulidir. O'qitish metodlari tom ma'noda o'qituvchining bilimlarni talabalar ongiga yetkazish va ayni paytda ularni talabalar tomonidan o'zlashtirib olish usulidir. Didaktikada o'qitish metodlari quyidagi metodologik va nazariy qoidalarga asosan ta'riflanadi:

1. O'qitish metodi o'qitish jarayonining o'ziga xos pedagogik sharoitida ob'ektiv reallikni bilish metodlarining ifodasi sanaladi, ya'ni o'qitish metodlari yordamida talabalarning bilish faoliyati tashkil etiladi va boshqariladi.

2. O'qitish metodlari talabalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish

maqsadida qo'llaniladi. Bu ularning asosiy funksiyalari sanaladi, shuningdek, mazkur metodlarning undovchi, rag'batlantiruvchi, uyushtiruvchi va nazorat qiluvchi funksiyalari ham mavjud.

3. O'qitish metodlari yagona ta'lim jarayonining ikkita sub'ekti bo'lgan o'qituvchining pedagogik va talabalarning o'quv-bilish faoliyatini uyg'unlashtiruvchi, hamkorligini ta'minlovchi faoliyat usulidir.

4. O'qitish metodlari o'qitishning moddiy vositalari bo'lgan darslik, ko'rgazmali, didaktik va tarqatma materiallar bilan uzviy bog'langandir.

5. O'qitish metodlari aniq o'qitish usullaridan tarkib topadi va pedagogik jarayonga qo'llaniladi.

6. O'qitish metodlari o'zaro bog'langan faoliyat usullari sifatida darsning barcha bosqichlari, tashkiliy qism, talabalarning bilish motivlarini faollashtirish, yangi mavzuni o'rganish, talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash, olingan natijalarni tahlil qilish, uy vazifasini berishda foydalaniladi.

7. Darsda o'qitish metodlari doimo muayyan birikma holda qo'llaniladi. Darsning har bir bosqichida metodlarning u yoki bu birikmalaridan foydalaniladi. Mazkur bosqichdagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishni ta'minlovchi metod ustunlik qiluvchi yetakchi tizim hosil qiluvchi metod hisoblanadi, qolgan metodlar unga bo'ysunadi. Biologiyani o'qitishda aksariyat hollarda ko'rgazmali metod yetakchi o'rinni egallaydi, boshqa metodlar unga bo'ysunadi yoki singib ketadi.

8. Inson faoliyati metodlarining o'zgarishi, o'qitish metodlarining boyishiga va yangilanishiga olib keladi. Axborotlarning globallashuvi sharoitida dasturli o'qitish, EHM dasturlari vositasida o'qitish va h.k. metodlar vujudga keldi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Didaktikada o'qitish metodlarini tasniflash munozarali masala bo'lib, tasniflash turli asoslar bo'yicha amalga oshirilgan.

Akademik I.D.Zverev metodlarni o'qitish manbalari va o'quvchilar faollik darajasiga ko'ra quyidagicha tasniflashni tavsiya etgan.

Mazkur jadvalga muvofiq, o'qitish metodlarining guruhini tanlab olish imkonini beradi.

O'qitish manbalari bo'yicha	Talabalar faollik darajasiga ko'ra		
	Reproduktiv (qayta aytib berish)	Qisman qidiruv	tadqiqotchilik
Og`zaki	+	+	+
Ko'rgazmali	+	+	+
Amaliy	+	+	+

Taniqli didaktik olim Yu.K. Babanskiy o'qitish metodlarini quyidagi guruhlariga ajratgan:

1. O'qitishning og'zaki metodlari (hikoya, suhbat, o'quv ma'ruzasi).
2. O'qitishning ko'rgazmali metodlari.
3. O'qitishning amaliy metodlari.
4. O'qitishning muammoli-izlanish metodlari.
5. O'qitishning mantiqiy metodlari.
6. Mustaqil ishlash metodlari.
7. O'qitishda o'quvchilar faoliyatini rag'batlantirish va asoslash metodlari.
8. O'qitishning nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari.

Quyida o'qitishning reproduktiv metodlari bo'lgan og'zaki metodlari (hikoya, suhbat, o'quv ma'ruzasi), ko'rgazmali, amaliy metodlarining tavsifi beriladi:

O'qitishning og'zaki bayon metodlari guruhi. O'qitish jarayonida og'zaki metodlardan doimo va muntazam foydalanib kelingan. Bu metodlar metodlar ichida ustunlik qilgan davrlar ham bo'lgan. Hozirgi kunda an'anaviy ta'lim tizimida og'zaki metodlar ustunlik qiladi. Keyingi yillarda og'zaki metodlarni tanqid qilish, ularni o'quvchilar faoliyatiga faol ta'sir ko'rsatmaydigan metodlarga kiritish odat tusiga aylangan. Metodlarga baho berishda xolisona yondashish zarur, uning ahamiyatini mutlaqlashtirish, bo'rttirib ko'rsatish mumkin emas, shuningdek, pasaytirishga ham yo'l qo'yib bo'lmaydi.

O'qitishning og'zaki bayon metodlari qo'llanilganda o'qituvchining so'zi talabalarning bilim olishlari uchun asosiy manba hisoblanadi, ya'ni o'qituvchi talabalarga so'zlar vositasida bilim beradi, o'quvchilar faoliyatini eshitish, fikr yuritish, berilgan savollarga javob topishga yo'naltiradi. Shuning uchun o'qituvchining so'zi oddiy axborot bo'lmasdan, balki ishonchli, asoslovchi, talabalarning faoliyatini faollashtiruvchi ta'sir kuchiga ega bo'lishi kerak.

O'qituvchining yorqin, hissiyotli, dalillarga asoslangan, mantiqiy ketma-ketlikda tuzilgan, ko'rgazmali hikoya, suhbat, ma'ruzalari hozir ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Og'zaki metodlar qisqa muddatda katta hajmdagi o'quv materialini o'quvchilar ongiga yetkazish, muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, ularni hal etish yo'llarini ko'rsatish, o'quvchilarning nutqini rivojlantirish imkonini yaratadi. Shuningdek, ko'pchilik metodlar o'qitish jarayonida og'zaki metodlar bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llaniladi. Og'zaki metodlarning muvaffaqiyatli qo'llanilishi, o'qituvchining:

9. Nutq madaniyatini egallaganlik, jumladan, nutqning ravonligi, ovoz kuchi, intonatsiya, axborotlarning obrazlilik, ishonchliligi, asoslovchi, isbotlovchi, emotsiyali, shaxsiy munosabat bilan yo'g'rilganlik darajasiga;

10. Axborot texnologiyalari asosida yaratilgan elektron darsliklarda ovoz, animatsiya, harakatlarning uyg'unlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

TADQIQOT NATIJASI

Og'zaki bayon metodlari guruhi o'z ichiga suhbat, hikoya, ma'ruza metodlarini oladi. Hikoya metodi o'quvchilarga o'quv materialini yaxlit holda savollar berib, uzmasdan bayon etishni nazarda tutadi. Yangi mavzu mazmunida yangi tushunchalar, ilmiy axborot ko'p bo'lgan taqdirda, shuningdek, o'qituvchi o'quv materiali yuzasidan faol suhbat o'tkazish imkoni bo'lmagan, izohlash va tushuntirishi lozim bo'lgan, o'quv materialining hajmi katta bo'lib, uni dasturda belgilangan vaqtda o'rganish zarur bo'lgan hollarda hikoya metodidan foydalanadi. Hikoya metodidan darsning qaysi bosqichida foydalanishiga ko'ra hikoya metodining didaktik maqsadi turlicha bo'ladi.

Darsning kirish qismida foydalaniladigan hikoya metodi talabalarning yangi mavzu mazmunini idrok qilishga tayyorlash sanaladi. Mazkur jarayonda hikoya metodi mazmun jihatdan o'quvchilarda yangi mavzuni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojni vujudga keltirish, barqaror qiziqishni uyg'otish, dars davomida bajarilishi lozim bo'lgan o'quv topshiriqlarining maqsadini anglashni ta'minlashga qaratiladi.

Yangi mavzuni o'rganish jarayonida foydalaniladigan hikoya metodi mazmun jihatdan yangi mavzu mazmuni mantiqiy ketma-ketlikda, izchillikda rivojlantirilib boriladi, asosiy tushuncha va atamalar alohida ta'kidlanib, ko'rgazmali vositalari va ishonarli misollar foydalanilgan holda bayon etiladi.

Darsning yakunlash qismida foydalanilgan hikoya metodida o'qituvchi o'rganilgan mavzu mazmuni yuzasidan asosiy fikrlarni umulashtiradi, yakunlaydi, xulosa chiqaradi, o'quvchilarga mustaqil ish topshiriqlarini tavsiya etadi.

Talabalarning bilimlarini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan hikoya metodi o'quvchilarning muayyan mavzularni hikoya qilishini taqozo etadi. Talabalarning hikoyalari ularning ilmiy dunyoqarashi, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirishga zamin tayyorlaydi. Bunda talabalar yangi mavzu mazmunidagi asosiy g'oyani ajratish, o'z fikrini asoslash va dalillash, qisqa va lo'nda, mantiqiy ketma-ketlikda bayon etish, ko'nikmalarini egallaydi.

Hikoya metodini qo'llashning samaradorligi o'qituvchining dars rejasini puxta tuzishi, mavzu mazmunini yoritishning eng izchil yo'lini tanlashi, ko'rgazmali vositalar, tarqatma va didaktik materiallarni to'plashi, bayonning tegishli darajadagi ko'tarinki ruhini ta'minlashni taqoza etadi. Hikoya metodining tarkibiga quyidagi metodik uslublar kiradi:

O'quv materialini jonli, ob'ektlarga xos xususiyatlarni bayon qilish, axborotning ilmiyligi, izchilligi, tushunarlilik, nutqning ravonligi va ifodaliligi uslubi.

Suhbat metodi o'qituvchining talabalar tomonidan yangi mavzu mazmunidagi qonuniyat, tushuncha va atamalarning izchillikda faol o'zlashtirishini ta'minlovchi puxta o'ylangan savollar vositasida ishlashini nazarda tutadi. Suhbat metodi yordamida talabalarning avval o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalari faollashtiriladi, tizimga solinadi, umumlashtiriladi, xulosa chiqariladi va yangi o'rganilayotgan tushuncha bilan o'zaro aloqadorligi yoritiladi. Shuni qayd etish kerakki, talabalarning avval o'zlashtirgan bilimlari asosida yangi mavzuni savollar yordamida o'zlashtirish imkonini beradigan mavzular suhbat metodi vositasida o'rganish tavsiya etiladi. Suhbat metodi talabalarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillatish, talabalarning avval o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalari, hayotiy tajribalaridan foydalanib, qator savollar yordamida yangi bilimlarni o'zlashtirish, mazkur bilimlardan amaliyotga qo'llashni anglab olishiga zamin tayyorlashni ko'zda tutadi.

O'quv materialining murakkablik darajasi o'rtacha bo'lib, mavzu mazmunini mantiqiy tugallangan fikrli qismlarga ajratish, mazkur qismlar bo'yicha savollar tuzish imkoni bo'lgan, o'quvchilarning dastlabki bilimlari yetarli darajada, ular suhbat davomida o'z fikrlarini aytishlari, asoslashlari va shu bilan bir qatorda yangi bilimlarni shunchaki eslab qolmasdan, balki mustaqil idrok etishlari, faol egallashlari mumkin bo'lgan hollarda suhbat metodidan foydalaniladi.

Suhbat metodi talabalarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish uchungina emas, balki ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, nutqini rivojlantirish, taqqoslash, tahlil qilish, mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini tarkib toptirishga yordam beradi.

Suhbat metodining samaradorligi o'qituvchining mavzu mazmunni mantiqiy tugallangan qismlarga ajratish, har bir qism bo'yicha savollar zanjirini tuzish, dars davomida mazkur savollardan o'z o'rnida foydalanish, sinf o'quvchilarining bilish faoliyatini faollashtirish va savollarga javob topishga yo'llashi, har bir o'quvchining rag'batlantirishi, o'quvchilarning esa o'z fikrini lo'nda va qisqa bayon etish, dalillash ko'nikmalarini egallaganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Mazkur metod tarkibiga suhbat savollarini ketma-ketlikda qo'yish, yordamchi va qo'shimcha savollarni o'z vaqtida berish, o'quvchilarni faollashtirish, talabalar javobidagi xatolarni to'g'rilash, xulosa va umumlashtirishni tarkib toptirish uslublari kiradi.

O'quv ma'ruzasi metodidan o'quv materialining hajmi katta, mantiqiy tuzilishi murakkab, tushuncha va atamalarga boy bo'lgan hollarda foydalaniladi. O'quv ma'ruzasi metodidan foydalanilganda quyidagi talablarga e'tibor qaratish lozim:

1. Ma'ruza mazmuni chuqur ilmiy, g'oyaviy va mantiqiy ketma-ketlikda ko'rgazma vositalarga asoslangan holda bayon etilishi.

2. Talabalar uchun tushunarli, hissiyotga boy va sodda tilda yoritilishi, 15-20 minutdan so'ng qisqa mustaqil ish yoki savol-javob o'tkazish, talabalarning bilish faoliyati faollashgandan so'ng davom ettirilishi lozim.

Ta'lim jarayonida o'quv ma'ruzasini qo'llash o'qituvchidan jiddiy tayyorgarlik ko'rishni talab etadi va u:

1.Dars mavzusi, maqsadi va dolzarb muammolarni aniqlashi;

2.Tanlangan mavzu bo'yicha darslik, ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan tanishishi;

3.Talabalarning yosh va psixologik xususiyatlari hamda qiziqishlarini hisobga olgan holda ma'ruza rejasi, mazmunini tuzishi;

4.Yuqori samara beradigan o'qitish vositalari va metodlarini tanlashi kerak.

Ma'ruzaning muvaffaqiyatli o'tishi, avvalo talabalarning o'quv-bilish faoliyati qanday tashkil etilganligiga bog'liq.

Unda talabalarning bilish faoliyatini faollashtiradigan ko'rgazma vositalari – O'TV, multimedialar, tabiiy, tasviriy jihozlar va boshqa o'qitish vositalaridan foydalanish hamda ma'ruza davomida talabalar uning rejasi, mazmunini qisqa yozib olishi, savollarga javob topishga erishishi o'qituvchining diqqat markazida bo'lmog'i lozim.

Darsning kirish qismida foydalanilgan o'quv ma'ruzasi metodi yordamida o'quvchilarning diqqati jamlanadi, bilish faoliyati faollashtiriladi, bilimlarni qabul qilishga zamin tayyorlanadi. Buning uchun ma'ruzani boshlashda uning mazmuniga oid qiziq misollar, yorqin va hissiyotga boy voqealar keltirilib, o'quvchilar oldiga muammolar qo'yiladi.

Darsning asosiy qismida foydalanilgan o'quv ma'ruzasi metodi o'quv materiali didaktik tamoyillarga amal qilingan holda ta'lim mazmuni mantiqiy izchillikda, ko'rgazma vositalari – O'TV, multimedialar, tabiiy, tasviriy jihozlar va boshqa o'qitish vositalaridan foydalangan holda bayon qilishni taqoza etadi.

Darsning xulosa qismida foydalanilgan o'quv ma'ruzasi metodi yordamida talabalarning bilimlari tartibga solinib umumlashtiriladi, xulosalar chiqariladi.

Ma'ruza yakunida o'qituvchi talabalarning bilimlarini chuqurlashtirishga, umumlashtirishga qaratilgan xulosalarni yana bir bor takrorlaydi. So'ng o'quv topshiriqlari yuzasidan talabalarning javoblari tekshiriladi va jadvalning to'ldirilishi ko'zdan kechiriladi. Savol-javob, o'quv bahsi o'tkaziladi.

O'qituvchining ma'ruzasi mazmuni va o'quvchilar faoliyatining tashkil etilishiga ko'ra induktiv yoki deduktiv ravishda tuzilgan bo'lishi mumkin.

Ma'ruza induktiv tuzilganda, avval talabalar hodisa va ob'ektlar bilan tanishtirilib, keyin umumiy xulosa keltirib chiqariladi.

Deduktiv ma'ruzada esa buning aksi bo'ladi, ya'ni, avval umumiy tushunchalar beriladi, keyin ob'ektlar va hodisalar yordamida uning mazmuni ochib beriladi. Mazkur metod tarkibiga o'quv materialini mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilish, muammolarni qo'yish, ob'ektlarni aniqlash, taqqoslash, xulosa chiqarish, umumlashtirish, o'quvchilarning diqqatini jalb qilish uslublari kiradi

XULOSA

Biologiya fanini o'qitishda lokal texnologiyalarini amalda qo'llash, talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, ko'rgazmalilik, talabaning bilimlarini nazorat qilish va baholash, bilish faoliyatini faollashtirish va qiziqishini orttirish kabi funksiyalarini darslarda uyg'unlashtirish imkoniyatlarini beradi. Shuningdek talabalarning mustaqil ishlashi va kreativ fikrlashiga, ularning bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Умарова, Ж. К., & Рахмонова, Р. Б. (2023). НАСЛЕДОВАНИЕ ОПРЕДЕЛЕННЫХ КАЧЕСТВЕННЫХ ПРИЗНАКОВ ХЛОПЧАТНИКА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4-2), 118-124.
2. Namozovna, I. M. (2023). IMPROVING THE METHODOLOGY OF USING ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING THE SUBJECT "ZOOLOGY" IN PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Open Access Repository*, 4(3), 21-25.
3. Ibodova, M. N. (2023). AKADEMIK LITSEYLARDA BIOLOGIYA FANINI OQITISHNING INTERFAOL VA MUAMMOLI IZLANISH METODLARIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4-2), 125-131.
4. Ibodova Mahfuza Namozovna "BIOLOGIYANI OQITISHNING INTERFAOL VA MUAMMOLI IZLANISH METODLARI." *PEDAGOGS* jurnali 11.2 (2022): 12-21.
5. Ibodova Mahfuza Namozovna "Effectiveness of independent work in the educational process." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.10 (2021): 322-326.
6. Ibodova Mahfuza Namozovna "A FORMING THE BASIC COMPETENCIES OF PUPILS BY USING OF SELF-STUDY ASSIGNMENTS." *ПЕДАГОГИКА И ПСИХОЛОГИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ* (2018):

7. J.O.Tolipova “Biologiyani o`qitishda innovatsion texnolo giyalar” Pedagogika oliy o`quv yurti talabalari uchun darslik. Toshkent - “Cho`lpon” – 2011 y.
8. Tukhtaev, F., Karimova, D., Malikova, A., & Kamalova, D. (2020). Research of kinetic sorption of Cu 2+ ions in Cuso 4 solution by composite polymeric sorbents under various conditions. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(S6), 505-511.
9. Malikova, A. R. "METHODS OF USING INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF TEACHING BIOLOGICAL SCIENCES IN HIGHER EDUCATION." *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities* 11.1 (2023): 798-800.
10. Mukhabbat, R. (2022). THE IMPORTANCE OF ORGANIZING STUDENTS'INDEPENDENT WORK IN BOTANY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(5), 281-284.
11. Mukhabbat, R., & Normurod, S. (2023). THE VALUE OF USING GAME EXERCISES WHEN TEACHING THE CHAPTER" ORGANS AND ORGAN SYSTEMS" IN THE 7TH GRADE OF BIOLOGY". *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(5), 2365-2369.
12. Muhabbat Ravshanova Ndpi , R., & Mohinur, Q. (2020). Biologiya fanini oqitishda laboratoriya ishlarining ahamiyati. *Science and Education*, 1(3), 550-553.
13. Сохибназаров, Р. А., & Сайфуллаев, А. Ф. Ў. (2023). МЕТОДЫ УЧЕТОВ ЧИСЛЕННОСТИ ПТИЦ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4-2), 132-138.
14. Хужжиев, С. (2022). ФИТОРЕМЕДИАЦИЯ ПОЧВ, ЗАГРЯЗНЁННЫХ ТЯЖЁЛЫМИ МЕТАЛЛАМИ. *ЭКОЛОГИЯ (БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ)*.
15. Sayfullayev, A. F. O. (2023). SHAHARLARNI KO`KALAMZORLASHTIRISHDA KATALPA DARAXTINING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4-2), 77-82.
16. Sayfullayev, A. (2021). UZLUKSIZ TALIM VOSITASIDA EKOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISH TEXNOLOGIYASI. *Uzluksiz talim*.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TA'LIM – TARBIYASINI TASHKIL ETISHDA XALQ ERTAKLARIDAN FOYDALANISH

Xamrayeva Dildora Ruziyevna

Xalqaro Nordik universiteti

70110501 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim)

yo'nalishidagi I bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda, ularni kelajakda yetuk shaxs sifatida kamol topishida albatta tarbiyachilarning o'rni katta. Shunday ekan bolalarni o'qitishda yangi zamonaviy uslublardan foydalanish bolalarni yangi zamon ruhida tarbiyalanishida, ularni yetuk mutaxassis bo'lib yetishida asosiy omil bo'ladi, desak to'g'ri bo'ladi. Ushbu maqolada shu fikrlarning asosini ko'rib chiqish mumkin.

Kalit so'zlar: didaktik o'yinlar, aqliy qobiliyat, imkoniyatlar, xalq og'zaki ijodi.

АННОТАЦИЯ

Воспитателям принадлежит большая роль в воспитании детей дошкольного возраста и их развитии во взрослом возрасте в будущем. Поэтому правильно говорить о том, что использование новых современных методов в обучении детей является главным фактором воспитания детей в духе нового времени и формирования из них зрелых профессионалов. В этой статье можно рассмотреть основу этих идей.

Ключевые слова: дидактические игры, умственные способности, возможности, условия, устное народное творчество.

ABSTRACT

Educators have a great role in educating preschool children and in their development as adults in the future. Therefore, it is correct to say that the use of new modern methods in teaching children is the main factor in bringing up children in the spirit of the new age and making them mature professionals. In this article, you can consider the basis of these ideas.

Key words: didactic games, mental ability, opportunities, conditions, folk oral creativity.

KIRISH

Professor-o'qituvchilarning eng muhim vazifasi - yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir.

SH.M.Mirziyoyev

Jahon maktabgacha ta'lim tizimida xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxs qilib tarbiyalashga doir samarali ta'lim texnologiyalariga asoslangan ta'lim dasturlarini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalariidan foydalangan holda maktabgacha ta'lim bo'yicha samarali o'quv rejasi va o'qitish strategiyalarini ishlab chiqish, aqliy, ma'naviy-axloqiy tarbiyani folklor namunalari orqali singdirish, koreys, yapon folkloridan foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu sohada zamonaviy talablarga javob beradigan ilg'or pedagogik usul va uslublarni ishlab chiqish, o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish va nashr etish ham g'oyat dolzarb vazifadir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga shifokorlar ajratish, tibbiyot hamshiralarning malakasini oshirish, tez tibbiy yordam ko'rsatish uchun dori-darmon, sanitariya-gigiyena vositalari bilan to'liq ta'minlash, bolalarning ovqatlanishini belgilangan me'yorlar darajasida tashkil etish zarurligi ta'kidlandi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga mo'ljallangan o'quv-metodik va didaktik adabiyotlarni nashr etishga doir standartlarni qayta ko'rib chiqish va tasdiqlash masalasiga ham e'tibor qaratildi.

Respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimini qaytadan qurish borasida olib borilayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar, amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar ertangi kunimiz, qolaversa, kelajagimiz egalari bo'lmish yoshlarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning yorqin ifodasidir. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 30 sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq bu sohada yangi tizim yaratildi. Yangi vazirlik oldiga maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo'yildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Respublikamizda maktabgacha hamda umumiy o'rta ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va moddiy texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim

tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali kadrlar bilan ta'minlash, bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy sifatlarni rivojlantirish, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirishning huquqiy-meyoriy asoslari yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.01.2020 yil 07/20/4581/0098-sonli "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni qo'llab-quvvatlash orqali "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini yanada kengaytirish hamda bolalarning maktabgacha ta'limi bilan kengroq qamrab olinishini ta'minlash" ustuvor vazifalar etib belgilandi.⁷² Natijada maktabgacha ta'lim tashkilotlar tarmog'ini kengaytirish va bu tashkilotlarda bolalarning psixologik va jismoniy rivojlanishi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2016- yil 29- dekabrda PQ-2707-son "2017-2021- yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 9-sentabrdagi PQ-3261-son "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-son "Pedagogika oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-sonli - O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, 2016 yil 29 dekabrda —2017-2021yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-2707-sonli, 2017 yil 30 sentabrdagi —Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-5198-sonli Farmoni, 2017 yil 9 sentabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3261-sonli qarori, shuningdek, Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 18 iyundagi 1-MX sonli — "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" hamda "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim

⁷² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.01.2020 yil 07/20/4581/0098-sonli "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori

tashkilotining Davlat o'quv dasturini amalda joriy etish kabi davlat hujjatlarida bu sohaga oid masalalarini hal etish nazarda tutilgan.

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va har tomonlama yetuk, shu bilan birga maktabga tayyorlagan holda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabr 637-son qarorida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi Qonunning 8-moddasida: "Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 20.04.2017 yil 2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori e'lon qilindi. Ushbu farmonda Oliy ta'lim tizimida o'z yo'nalishlari bo'yicha dunyoning yetakchi ilmiy ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarini joriy etish, ayniqsa, istiqbolli pedagog va ilmiy kadrlarni xorijning yetakchi ilmiy ta'lim muassasalarida stajirovkadan o'tkazish va malakasini oshirish borasidagi ishlar yetarli darajada olib borilmayapti. Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko'rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlash shart-sharoitlari keltirib o'tilgan. Hayotimizning barcha sohalari kabi ta'lim tizimini ham modernizatsiyalash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Innovatsion ta'lim muhitini yaratish, uni xalqaro andozalarga to'liq mosligini ta'minlash yoshlarimizni bugungi tez o'zgaruvchan ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishning muhim omilidir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish uzluksiz ta'lim tizimining tuzilmasi hamda mazmunini zamonaviy fan yutuqlari va ijtimoiy tajriba asosida takomillashtirishni ko'zda tutadi. Buning uchun, avvalo, barcha ta'lim muassasalaridagi dars jarayonlarini ilg'or, ilmiy-uslubiy jihatdan asoslangan zamonaviy uslubiyot bilan ta'minlash lozim. Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish maqsadi, vazifalari, hozirgi jamiyatimiz oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Barchamiz shuni chuqur anglab oldikki, faqatgina zamonaviy asosda ta'lim-tarbiya olgan, jahonning manaman degan mamlakatlaridagi tengdoshlari bilan bellasha oladigan, jismoniy va ma'naviy jihatdan barkamol yoshlar biz boshlagan ishlarni munosib davom ettirish va yangi bosqichga ko'tarishga qodir bo'ladi.

Har tomonlama yetuk, barkamol yoshlarni yetishtirish uchun albatta malakali, o'z mutaxassisligini chuqur egallagan pedagog-kadrlar zarur. Shuning

uchun hozirgi kunda pedagoglar, shu bilan birga pedagogika sohasida tahsil olayotgan talabalar oldiga ham juda ko'p vazifalar qo'yilmoqda.

Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod ta'lim-tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Ta'lim-tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida alohida ta'kidlangan milliy model O'zbekiston Respublikasining milliy-hududiy xususiyatlarini inobatga olish hamda ilg'or fan, texnika va texnologiya yutuqlari asosida tayyorlangan kadr (mutaxassis) – komil inson va yetuk mutaxassis qiyofasini o'zida to'laqonli aks ettiruvchi namunadir.⁷³

Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi",- deb ta'kidlangan. Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga to'g'ri keladi: tarbiya-biz uchun yo hayot- yo mamot- yo najot-yo halokat-yo saodat-yo falokat masalasidir⁷⁴. Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi. Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Ana shu dalilning o'zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida MTT tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko'rsatib turibdi. Bunga qo'shimcha isbot qidirib uzoqqa borishning hojati yo'q. MTT tarbiyasini olgan bola bilan MTTga bormagan bolani solishtirganda, ularning fikrlash darajasi o'rtasida yer bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas. Shuning uchun ham biz maktabgacha ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarib, bu borada katta ishlarni boshladik. Agar shu ishni har tomonlama puxta o'ylab amalga oshirmasak, butun ta'lim tizimida sifat o'zgarishiga erishishimiz, ta'limning uzluksizligini ta'minlashimiz qiyin bo'ladi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi MTTlar qurish bo'yicha davlat dasturi qabul qilinib, amalga oshirilmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi hisobga olinib, nodavlat ta'lim tashkilotlari, jumladan,

⁷³ Kasbiy ta'lim metodikasi fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent – 2019. 8-9-betlar

⁷⁴Qodirova. F.R. va boshq. Maktabgacha pedagogika (o'quv qo'llanma). –T.: Ma'naviyat, 2013.

nodavlat MTT tarmog'ini kengaytirishga ham katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu esa tizimda sog'lom raqobatni shakllantirish hamda ta'lim xizmatlari turini ko'paytirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Ravshanova N.N. Maktabgacha yoshdagi bolalarda uzviylik asosida ekologik tarbiya tushunchalarini shakllantirish.//monografiya/ T. : Nizomiy nomidagi TDPU, 2022 y
2. Tolipova J.O., Fofurov A. Biologiya o'qitish metodikasi. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012.
3. Tolipova J.O. Biologiyani o'qitishda innovasion texnologiyalar. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2014.
4. Xolto'rayeva, S. X. Maktabgacha yoshdagi bolalarga matematik bilim berish orqali fazoviy tasavvurlarni shakllantirishning dolzarbligi. *Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman*, 579-581.
5. Norboevna, R. N. (2021, April). IMPROVING THE MEMBERSHIP SYSTEM IN ECOLOGICAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN. In *Archive of Conferences* (Vol. 20, No. 1, pp. 97-98).
6. Nigmatov, A. N., & Ravshanova, N. N. (2020). Scientific Preschool Environmental Education and Training Research Methodology. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(08), 23-31.
7. Babayeva, D. R., & Ochilova, X. S. (2022, October). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI NUTQ O 'STIRISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O 'RGATISH. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 8, pp. 21-23).
8. Sharipova, G. S., & Madaminjonova, M. S. (2022, April). BASIC CONCEPT IN CLOTHES DESIGN. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 12-15).
9. Sharipova, G. S. (2022). DISTRIBUTION AND MODERNIZATION OF ADVANCED PEDAGOGICAL PRACTICES IN THE LESSON PROCESS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(06), 12-15.
10. Xolto'rayeva, S. X. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH JARAYONIDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARBLIGI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 871-872.
11. ШАРИПОВА, Г. С. (2019). ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛИЗМА НА ПРИМЕРЕ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ ПО ФОРМИРОВАНИЮ УМЕНИЙ И НАВЫКОВ БУДУЩИХ

ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ. In *Высшее и среднее профессиональное образование как основа профессиональной социализации обучающихся* (pp. 260-268).

12. Садикова, Д. Х., & Калауова, М. С. (2023). РОБОТЫ-ИГРУШКИ И МАТЕМАТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ НА ЗАНЯТИЯХ. *Analysis of world scientific views International Scientific Journal*, 1(5), 5-12.

13. Садикова, Д. Х. (2023). ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ STEAM ТЕХНОЛОГИЙ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 4(2), 5-11.

14. Садикова, Д. Х. (2023, January). АППЛИКАЦИЯ-СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСТВА ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 87-91).

15. Sadikova, D. K., & Mansurova, A. M. (2023). Study of Foreign Experience in The Application of Steam Technologies in Preschool Education. *European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices*, 1(2), 162-167.

16. Раджапова, З. Т., & Мирзаева, Г. З. (2023). ИННОВАЦИОННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ В ЛАНДШАФТНОМ ДИЗАЙНЕ.(в дошкольных образовательных организациях). *Analysis of world scientific views International Scientific Journal*, 1(4), 70-76.

17. Radjarova, Z., & Abdurafova, U. (2023). THE IMPORTANCE OF USING METHODS IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS ON THE BASIS OF AN INTEGRATIVE APPROACH. *Science and innovation*, 2(B1), 337-340.

18. Tirkashevna, R. Z. (2023). PEDAGOGIK KOMPETENTLIK-SHAXSGA TA'LIM-TARBIYA BERISHNING MUHIM SHARTI. *Science and innovation*, 2(Special Issue 9), 125-128.

19. Akhmedova, N. E. (2023). People's practical art traditions as the basis for developing the artistic-pedagogical abilities of future art teachers. *Science and innovation*, 2(B4), 701-705.

20. Akhmedova, N. (2023). EMBROIDERY IN UZBEKISTAN: A RICH HISTORY AND PRACTICAL CRAFTSMANSHIP. *Science and innovation*, 2(C5), 81-84.

21. Ахмедова, Н. Э. (2022). МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ТЕМУР ВА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ МЕЪМОРИЙ БЕЗАК ТУРЛАРИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ НАТИЖАСИДА ЁШЛАРНИ АҚЛИЙ ВА МАЪНАВИЙ ТАРБИЯЛАШ САЛОХИЁТИГА ТАЪСИР ҚИЛИШ ОМИЛИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 41-45.

БЎЛАЖАК ТАРБИЯЧИЛАРНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШДА АКМЕОЛОГИК КОМПИТЕНСИЯЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА

Мохинур Азимовна Хакимова

Тошкент давлат педагогика унивеситети 2-курс магистранти

АННОТАЦИЯ

Мақолада Олий таълим муссасасида бўлгуси тарбиячининг касбий сифатлари шакллантириб борилиши лозим. Касбий педагогик мотивациянинг пайдо булиши бўлажак тарбиячиларни касбий эҳтиёж, касбий қизиқиши ва педагогик фаолиятга ундайди.

Калим сўзлар: *конгүтив, компетенция, компетентлик, умумий, махсус, экстремал, методик, ижтимоий, назарий, шахсий, касбий компетентлик, билим, кўникма, ривожланиши.*

ABSTRACT

The article presents theoretical knowledge and guidelines for the formation and development of professional competence of a preschool teacher.

Key words: *competence, competence, general, special, extreme, methodical, social, personal, professional competence, knowledge, skills, development.*

Хозирги кунда мактабгача талим тизимида малакали ракобатбардош мутахассисларни тайерлаш долзарб масала хисобланади. Президентимиз Ш. Мирзиёевнинг 2017 йил 9 сентябрдаги "Мактабгача талим тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тугрисида" ги ПК-3261-сонли қарори ҳамда "Мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тугрисида"ги 2017 йил 30 сентябрдаги ПФ-5198-сонли фармонида замонавий инновацион педагогик технологияларни, талим ва тарбиянинг самарали шакллари ҳамда усуллари тавлим-тарбия жараёнига, шу жумладан нодавлат секторида жорий этиш, замонавий педагогик технологиялар ва методларни ҳисобга олган ҳолда ва акмеологик компетенцияларни ривожлантириш, болаларни тарбиялаш ва ҳар томонлама ривожлантириш масалаларини профессионал даражада ҳал этишга қодир бўлган мактабгача таълим муассасалари педагог-тарбиячилари, раҳбар кадрларини қайта тайерлаш ва малакасини ошириш вазифаси белгиланган.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Мазкур муаммоларни ечишда олий талим тизими ҳам алоҳида урин тутуди. Олий таълим жараёнида бўлажак тарбиячиларда касбий мотивацияни шакллантириш мактабгача тавлим тизимида сифатли талимни ташкил этишни

талминлайди. Касбий мотивация талабаларни касбий-дидактик билим, куникма ва малакаларни етарли даражада узлаштиришларига турки беради. Булажак тарбиячиларда касбий фаолиятга таёрлашда акмеологик компитенсияларни ривожлантириш шакллантириш мактабгача таълим жараёнида инновацион гоаяларни яратиш ва самарали равишда ташкил этиш хамда педагогик изланувчанликни амалга оширишни кафолатлайди. Бугунги кунда замонавий тарбиячиларга жамият томонидан куйиладиган талаблардан мухими уларнинг акмеологик компитенсиялар билан боглик сифатларни ривожлантиришга каратилган. Олий таълим муссасасида булгуси тарбиячининг касбий сифатлари шакллантириб борилиши лозим. Касбий педагогик мотивациянинг пайдо булиши блажак тарбиячиларни касбий эхтиеш, касбий кизикиш ва педагогик фаолиятга ундайди. Тарбиячи манавий ва маърифий томондан тарбиялаши хамда умуминсоний кадриятларнинг мохиятини билиши, болаларни Ватанга содиклик рухида тарбиялаш, Ватани, табиатга ва оиласига булган мухаббатини шакллантириши лозим. Шунингдек, мактабгача талим сохасига онд турли маълумотлардан хабардор булиши талаб этилади. Булажак тарбиячилар таълим ва тарбия методикасини эгаллашлари болаларнинг ёш хусусиятларини билиши, уларнинг ички дунёсини тушуна олиш, педагогик техника (мантик, нутк, талимнинг ифодали воситалари) ва педагогик такта эга булиши, уз билими ва педагогик махоратини доимий равишда ошириб бориш малакасига хам эга булишлари зарур. Булажак тарбиячиларни педагогик фаолиятга тайерлашда укув фаолияти мотивацияси асосий омил хисобланади. Укув фаолияти мотивацияси харакатлантирувчи куч булиб, талабаларни билим, куникма ва малакаларни фаол узлаштиришга йуналтирувчи жараёнدير. Укув фаолияти мотивациясининг манбалари мавжуд булиб, уларга куйидагилар киради:

1. Ички манбалар. Улар инсоний тугма ёки орттирилган эхтиёжлари билан белгиланади. Орттирилган этиёжлар фаолликка ундайди хамда гностик ва ижтимоий ижобий этиёжлар хисобланади.
2. Ташки манбалар. Улар шахсининг ижтимоий шарт-шароитлари билан белгиланади. Турли хил талимий вазиятлар ва жамиятни шахедан талаб киладиган доимий хулк-атвори билдиради.
3. Шахсий манбалар. Шахнининг кадриятлари системаси установкалари гоаяларидир. Бу манбалар хар бир шахе фаолиятида у ёки бу даражада мавжуд. Уларнинг барчаси фаолиятга тасир этиб таълим жараенининг мотивациясини ташкил этади. Шахсининг ички коникиши, узини тан олиш, муваффакиятларга эришиши билан намоен булади. Талабаларда касбий мотивация турли мотивлар негизида шаклланади. Касбий сохага онд мотивлар куйидагиларни уз ичига

олади: мактабгача тавлим соҳаси буйича билим олишга интилиш; педагогик фаолиятида муваффақиятга эришиш йулларини пухта эгаллаш; педагогик маҳорат ва этикага эга бўлиш. Мазкур компонентлар касбий фаолиятни ташкил этишнинг асоси ҳисобланали.

Буларнинг барчаси талабаларнинг касбга кизиқиши билан боғлиқ бўлиб, олдида куйган мақсадга эришишда ютуқларни эгаллаш ва касбий фаолиятида ижод қилишга интилишни тасминлайди. Шахсий мотивлар талабаларда касбий фаолиятида уз урнига эга бўлиш ва Узини тарбиячилик касбига бағишлашга ундайди. Талабалар жамоада ва жамиятда з урнига эга бўлиш, ташкилотчилик ва раҳбарлик қилиш қобилияти, шахсий хатти-ҳаракатларини намоён этишга ҳаракат қиладилар. Шунингдек танлаган касбига кизиқиши ортади, интеллектуал жихатдан дунёқараши кенгайди, ижодий фаолият юритишга ҳаракат қилади. Шахсий мотивлар ў фаолияти мазмуни билан бевосита боғлиқ бўлади. Талабаларни фаол уқишга йуналтиради. Амалий мотивлар иш ҳаракатда намоён бўлади, талабалар уз билими ва тажрибасига таяниб амалий машғулотда эртас ва ҳикояларни сахналантирирадилар. Натижада турли ҳаётий вазиятлар, педагогик фаолиятида дуч келадиган муаммоларни ҳал этиш қуникма ва малакалари шаклланади. Булажак тарбиячиларда маънавий сифатлар ҳамда умуминсоний кадриятлар, болаларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, уз Ватани ва онласига бўлган муҳаббат шаклланади. Шунингдек, мактабгача тавлимга оид пухта билимга эга бўлиш талаб этилади. Мактабгача талим соҳасига оид мустаҳкам билимга эга бўлиш болаларни мактаб талимига тайёрлашдаги энг муҳим омиллардан бири ҳисобланади. Булажак тарбиячидан уз касби ва соҳаси буйича жаҳон фанида эришилган сунгги ютуқлар ривожланган давлатлар тажрибасидан хабардор бўлиш такозо этилади. Ф. Хайдаров. Х.Абдукаримов ва бошқаларнинг фикрича "касбни тугри танлашга ҳос етакчи мотивларни аниқлаш муҳим. Етакчи мотивлар сирасига севимли ўқитувчисига таклид қилиш; касбий-мутахассислик йуналишидаги фанларга кизиқиш:касбнинг ижтимоий моҳиятини англаб этиш; касбга ҳос амалий қуникмалар ва ҳулқ-атворнинг шаклланиши; зига ҳос касбий-педагогик тарбиялашга бўлган талабчанликнинг ортиб бориши: касбига ҳос билим ва қобилиятларнинг ривожланиб бориши; касбий изланиш ва ижодкорликка ҳос фаолликнинг ортиб бориши; таҳлил ва уз-зини таҳлил этиш ҳамда узининг касбий фаолиятига баҳо бериб бориш; касбий-педагогик фаолиятга оид синовларга шайлик ҳиссининг пайдо бўлиши ва х.к.лар қиради" Республикамиз ҳукумати мактабгача таълим тизимини ривожлантириш унинг олдида қўяётган вазифаларнинг аксарияти педагог-ўқитувчиларнинг касбий

махорати ва бошқарувчилик салоҳиятига боғлиқ. Бугунги кунда таълим тизими олдида қўйилаётган мақсадларга эришиш, таълим олувчиларнинг хилма-хил фаолиятини уюштириш, уларни билимли, одобли, эътиқодли, меҳнатсевар, баркамол инсон қилиб ўстириш педагог-тарбиячи зиммасига юклатилади. Юқорида келтирилган фикрлар асосида булажак тарбиячиларда касбий фаолиятга таёрлашда акмеологик компетенцияларни ривожлантириш тавлимни сифатли ташкил этиш, талабаларда танлаган касби моҳиятини чуқур англаш ва хис қилишларига ҳам боғлиқ деган хулосани тасдиқлайди. Булажак тарбиячилар таълим ва тарбия методикасини эгаллашлари, болаларни билиши, уларнинг ички дунёсини тушуна олиш, педагогик техника (мантик, нутқ, таълимнинг ифодали воситалари) ва педагогик тактга эга бўлиши, уз билими ва педагогик маҳоратини доимий равишда ошириб бориш малакасига эга бўлишлари лозим.

Фойдаланилган адабиётлар (REFERENCES)

1. Мирзиёев Ш.М. Мактабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш
2. чора-тадбирлари тугрисида қарор. 9.09.2017 й., ПК-3261, «Халқ сузи» газетаси.
3. 2017 й., 11 сентябрь. 181 (6875)-сон.
4. Абулханова-Славская К.А. Фаолият ва шахс психологияси. - М.: Наука, 1980.-335 п.
5. Кулневич СВ. Концепциялардан технологияга қадар шахсининг
6. педагогикаси: дарслик. - Ростов-Дону: "Укитувчи", 2011 - 160 с.
7. Xolto'rayeva, S. X. Maktabgacha yoshdagi bolalarga matematik bilim berish orqali fazoviy tasavvurlarni shakllantirishning dolzarbligi. *Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman*, 579-581.
8. Norboevna, R. N. (2021, April). IMPROVING THE MEMBERSHIP SYSTEM IN ECOLOGICAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN. In *Archive of Conferences* (Vol. 20, No. 1, pp. 97-98).
9. Nigmatov, A. N., & Ravshanova, N. N. (2020). Scientific Preschool Environmental Education and Training Research Methodology. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(08), 23-31.
10. Babayeva, D. R., & Ochilova, X. S. (2022, October). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI NUTQ O 'STIRISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O 'RGATISH. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 8, pp. 21-23).

12. Sharipova, G. S., & Madaminjonova, M. S. (2022, April). BASIC CONCEPT IN CLOTHES DESIGN. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 12-15).
13. Sharipova, G. S. (2022). DISTRIBUTION AND MODERNIZATION OF ADVANCED PEDAGOGICAL PRACTICES IN THE LESSON PROCESS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(06), 12-15.
14. Xolto'rayeva, S. X. (2023). МАКТАВГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI МАКТАВ ТА'LIMIGA TAYYORLASH JARAYONIDA TAYANCH КОМПЕТЕНСИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ. *ҚО 'ҚОН УНИВЕРСИТЕТИ ХАВАРНОМАСИ*, 871-872.
15. ШАРИПОВА, Г. С. (2019). ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛИЗМА НА ПРИМЕРЕ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ ПО ФОРМИРОВАНИЮ УМЕНИЙ И НАВЫКОВ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ. In *Высшее и среднее профессиональное образование как основа профессиональной социализации обучающихся* (pp. 260-268).
16. Садикова, Д. Х., & Калауова, М. С. (2023). РОБОТЫ-ИГРУШКИ И МАТЕМАТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ НА ЗАНЯТИЯХ. *Analysis of world scientific views International Scientific Journal*, 1(5), 5-12.
17. Садикова, Д. Х. (2023). ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ STEAM ТЕХНОЛОГИЙ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 4(2), 5-11.
18. Садикова, Д. Х. (2023, January). АППЛИКАЦИЯ-СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСТВА ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 87-91).
19. Sadikova, D. K., & Mansurova, A. M. (2023). Study of Foreign Experience in The Application of Steam Technologies in Preschool Education. *European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices*, 1(2), 162-167.
20. Раджапова, З. Т., & Мирзаева, Г. З. (2023). ИННОВАЦИОННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ В ЛАНДШАФТНОМ ДИЗАЙНЕ.(в дошкольных образовательных организациях). *Analysis of world scientific views International Scientific Journal*, 1(4), 70-76.
21. Radjarova, Z., & Abdurafova, U. (2023). THE IMPORTANCE OF USING METHODS IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS ON THE BASIS OF AN INTEGRATIVE APPROACH. *Science and innovation*, 2(B1), 337-340.

22. Tirkashevna, R. Z. (2023). PEDAGOGIK KOMPETENTLIK-SHAXSGA TA'LIM-TARBIYA BERISHNING MUHIM SHARTI. *Science and innovation*, 2(Special Issue 9), 125-128.
23. Akhmedova, N. E. (2023). People's practical art traditions as the basis for developing the artistic-pedagogical abilities of future art teachers. *Science and innovation*, 2(B4), 701-705.
24. Akhmedova, N. (2023). EMBROIDERY IN UZBEKISTAN: A RICH HISTORY AND PRACTICAL CRAFTSMANSHIP. *Science and innovation*, 2(C5), 81-84.
25. Ахмедова, Н. Э. (2022). МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ТЕМУР ВА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ МЕЪМОРИЙ БЕЗАК ТУРЛАРИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ НАТИЖАСИДА ЁШЛАРНИ АҚЛИЙ ВА МАЪНАВИЙ ТАРБИЯЛАШ САЛОХИЁТИГА ТАЪСИР ҚИЛИШ ОМИЛИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 41-45.
26. Artikbayeva, A. A. (2023). IJTIMOIY HAMKORLIK ASOSIDA BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPENTENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 4(1), 187-190.
27. Artikbayeva, A. A. (2023). DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF STUDENTS BASED ON SOCIAL COOPERATION DURING THE QUALIFICATION PRACTICE. *Академические исследования в современной науке*, 2(4), 68-70.

TA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARINING BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Nishonova Dilso'z Sadritdinovna

Xalqaro Nordik Universiteti magistranti

Tel nomer: 998996992310

Email:d12642668@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola orqali ta'lim muassasalari rahbarlariga boshqaruv kompetensiyasining qanchalik muhimligi yoritib berilgan. Ta'lim jarayonidagi boshqaruv va rivojlanishga aloqador bo'lgan muammolarni bartaraf etish uchun amaliy va nazariy jihatdan tushunchalar berib o'tilgan. Maqola orqali rahbarlar uchun foydali va kerakli bo'lgan bilimlar va ko'nikmalar, shu bilan birga qobiliyatlar haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lish mumkin. O'ylaymanki, bu bilimlar ta'lim jarayonini va sifatini yaxshilashda foydali bo'ladi.

Kalit so'zlar: *Ta'lim muassasasi, rahbarlik qobiliyati, menejment, kompetentlik, ta'lim sifati, boshqaruv, tafsilotlar, mutaxassislik.*

IMPROVING MANAGEMENT COMPETENCE OF HEADS OF EDUCATIONAL INSTITUTIONS

ABSTRACT

Through this article, the heads of educational institutions are covered by how important management competence is. Concepts have been provided, both practical and theoretical, to overcome the problems involved in management and development in the educational process. Through the article, it is possible to learn in detail about the knowledge and skills that are useful and necessary for leaders, and at the same time about abilities. I think this knowledge will be useful in improving the educational process and quality.

Key words: *educational institution, leadership ability, management, competence, quality of education, management, details, expertise.*

ПОВЫШЕНИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

АННОТАЦИЯ

В этой статье руководители образовательных учреждений узнают о том, насколько важна управленческая компетентность. Были представлены концепции, как практические, так и теоретические, для преодоления проблем, связанных с управлением и развитием в образовательном процессе. Благодаря

статье можно подробно узнать о знаниях и навыках, которые полезны и необходимы лидерам, и в то же время о способностях. Я думаю, что эти знания будут полезны для улучшения образовательного процесса и его качества.

Ключевые слова: образовательное учреждение, лидерские способности, менеджмент, компетентность, качество образования, менеджмент, детали, экспертиза.

KIRISH

Dunyoda ijtimoiy va ta'lim sohalarining innovatsion rivojlanishi ijodiy fikrlash va yetakchilik salohiyatiga ega boshqaruv xodimlariga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirdi. Shu munosabat bilan BMT Bosh Assambleyasining 2030 yillik yubiley sessiyasida qabul qilingan 70 yilga mo'ljallangan barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) ta'limning barcha sohalarida inson resurslarini rivojlantirishning sinergik ta'sirini, kasbiy qiziqishlar va ehtiyojlarga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini shakllantirishni aniqladi. Dunyo bo'ylab boshqaruv kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlashning innovatsion modellarini ishlab chiqish va joriy etish, ta'lim menejerlarining etakchilik va boshqaruv vakolatlarini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Evropa universitetlari assotsiatsiyasi (EUA), Oliy ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha Evropa tarmog'i (EAQA) kabi tashkilotlarda inson resurslarini rivojlantirish infratuzilmasini takomillashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali etakchilik vakolatlarini rivojlantirish va baholash uchun yaxlit platformalarni yaratish. tarkibni, shaklni, usullarni va vositalarni takomillashtirishga alohida e'tibor beriladi. Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv ko'nikmalari va yetakchilik salohiyatini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirish, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etishda muhim o'rin tutadi. Oliy ta'lim tizimida o'qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, ilmiy va innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ishlarni mazmunli va maqsadli tashkil etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishning ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi. Ushbu vazifalarni bajarish oliy ta'lim sifatini ta'minlash uchun uzluksiz malaka oshirish jarayonini amalga oshirishni, integratsiyalashgan axborotni takomillashtirishni va innovatsion yondashuvlar asosida boshqaruv kompetentsiyasini rivojlantirishni uslubiy ta'minlashni talab qiladi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni, apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ2909-son qarori. 2017-yil, 2019-yil 27-avgustdagi PF-5789-son "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz

malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi qarori, 2019-yil 8-oktabrdagi "Konsepsiyani tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son qarori. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish to'g'risida"gi qarori hamda ushbu faoliyat bilan bog'liq boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish. Ta'limni boshqarish, oliy ta'lim tizimida strategik va funksional menejmentni integratsiyalashuvi, rahbar va o'qituvchilarning kasbiy va boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, kasbiy tayyorgarlikning texnologik jihatlari bo'yicha R.Djuraev, A.Musurmonova, A. Magrupov, Sh. Paxrutdinov, B. Xodjaev, M. Yo'ldoshev, M. Mirsolieva, Y. Ismadiyarovlar ta'lim jarayonlarini axborotlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ta'lim sifatini oshirish, malaka oshirish jarayonlari monitoringi mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha izlanishlari U. Begimqulov, N. Muslimov, F. Zokirova, Sh. Sharipov, Q. Olimov, T. Shoymardonov va boshqa olimlar. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligidan T.Bazarov, I.Zimnyaya, E.Zeer, E.Kudryavtseva, A.Markova, A.Derkach va boshqa olimlar kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning boshqaruv, pedagogik va psixologik jihatlari, uslubiy tamoyillar. Xorijiy olimlar R.Boyatzis, D.Bartram [1], J.Raven, V.Xutmaxer, A.Hakim [2] va boshqa olimlar ta'lim sifatini nazorat qilish, axborot-ta'lim muhitini shakllantirish ishlarini o'rganishgan. ta'lim tizimi. Mavjud nazariy manbalar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalari boshqaruv xodimlarining malakasini oshirish tizimida boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari kompleks axborot-metodik ta'minlashni takomillashtirish nuqtai nazaridan to'liq o'rganilmagan va pedagogik muammo sifatida o'rganilmagan. ta'limni boshqarishda. Dissertatsiya tadqiqoti OOMTV YOA 5-5 "O'quv jarayoniga moslashtirilgan Web-tizimini yaratish" (2016-2017) va 561624-ERR- qoshidagi Bosh ilmiy-metodik markazning ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq amalga oshirildi. 1-2015-1-UK-EPPKA2-CBHESP : IMEP: "O'zbekistonda oliy ta'limda ta'lim va jarayonlarni xalqarolashtirish va modernizatsiya qilish" (2015-2017).

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tarmoq manfaatlari bo'yicha o'quv-uslubiy, ijtimoiy-ma'rifiy va ilmiy-innovatsion internet birlashmalarini joriy etish orqali yetakchi kadrlar boshqaruvi kompetensiyasini rivojlantirishning yaxlit axborot-metodik tizimi takomillashtirilmoqda; Boshqaruv malakasini rivojlantirishni baholash tizimi boshqaruv-texnologik (qattiq ko'nikmalar) va ijtimoiy motivlangan (yumshoq ko'nikmalar) kompetensiyalarni aniqlash va sifat mezonlari (uzluksizlik, samaradorlik, innovatsion faoliyat) asosida darajani baholash komponentini aniqlash asosida ishlab chiqilgan. ; A'zolik va ko'rsatkichlarga asoslangan individual o'quv

traektoriyalarini amalga oshirish imkonini beruvchi muqobil va tabaqalashtirilgan o'zgaruvchan dasturlarni joriy etish orqali menejerlarning boshqaruv malakasini rivojlantirish mexanizmlari takomillashtirildi; Boshqaruv faoliyatini uzluksiz monitoring qilish natijalari asosida statistik diagnostika, strategik rejalashtirish va ilmiy hamkorlik xizmatlarini joriy etish orqali boshqaruv vakolatlarini rivojlantirishga qaratilgan integratsiyalangan elektron portfelning tashkiliy-pedagogik imkoniyatlari yaxshilandi.

Fikrimizcha, integratsiyalashgan elektron portfelning joriy etilishi oliy ta'lim muassasalarida samarali boshqaruv tizimini shakllantirishga, rahbar va o'qituvchilarning mustaqil kasbiy va shaxsiy rivojlanish darajasini baholashga, ehtiyojlardan kelib chiqqan holda kasbiy-boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishga olib keladi. Shuningdek, tabaqalashtirilgan ko'nikmalar sizga shakllarni aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, integrallashgan elektron portfel ko'rsatkichlarining sifat tahlili oliy ta'lim muassasalari reytingini aniqlash, xodimlarni boshqarish bo'yicha boshqaruv qarorlari, menejerlarning, shu jumladan dekanlarning boshqaruv va texnologik, ijtimoiy motivlangan kompetensiyalarini rivojlantirish, nazorat qilishda ochiqlik va shaffoflik hamda monitoring. Pedagogik shartlarni belgilaydi. Ilmiy-amaliy tadqiqotlarimiz dekanlarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishga integratsiyalashgan elektron portfel tizimi ko'rsatkichlari asosida tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish imkonini berdi. Shu bilan birga, elektron portfel tizimida mustaqil o'qitish natijalari ko'rsatkichlari 20-85 ball oralig'ida bo'lgan dekan-rahbar xodimlar — ta'lim dasturlari asosida to'liq malaka oshirish kurslarida qatnashish; 86-100 ballga ega bo'lgan ushbu rahbar xodimlar onlayn test sinovidan muvaffaqiyatli o'tgan taqdirda, dissertatsiya (loyiha) ishi himoyasiga bevosita kirish huquqiga ega bo'ladi. Yuqoridagi tahlillar asosida biz malaka oshirish jarayonida boshqaruv malakasini rivojlantirishning yaxlit axborot-metodik tizimini takomillashtirish modelini ishlab chiqdik. Oliy ta'lim muassasalari ta'limni boshqarishning ilmiy, motivatsion, o'zgaruvchanlik, integratsiya va ochiqlik hamda boshqaruvga yo'naltirilganligi tamoyillariga asoslangan boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan integratsiyalashgan axborot-ta'lim muhitini ta'minlashga xizmat qiladi, chunki uning tarkibiy qismlari maqsadli, mazmunli, tashkiliy va boshqaruvchidir.. Faoliyat jarayoni va natijalarni baholash komponentlari aniqlandi.

“Oliy ta'lim muassasalarining rahbar kadrlari kompetensiyalarini boshqarishning integratsiyalashgan axborot-metodik tizimini takomillashtirish” mavzusidagi dissertatsiyada olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi xulosalar chiqarildi:

Zamonaviy muhandis har tomondan ma’naviy jihatdan “bog‘langan”. Bular, biznesning ijtimoiy mas’uliyati, tavakkalchilik menejment doktrinasi, global yo‘nalish, korporativ kodekslar, shuningdek, fuqarolik bag‘rikengligi, sayyorani qutqarish, inson huquqlariga hurmat va siyosiy to‘g‘rilik va boshqalar hisoblanadi. Muhandislik kasbining madaniy tarixidagi yangi bosqichi, uning jamiyatga, tabiatga va umuman madaniyatga xizmat qilishga ko‘proq bog‘liq bo‘lmoqda. Bizning zamonamizda muhandis ko‘proq ijtimoiy yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘z kasbiy faoliyati bilan davrning madaniy va axloqiy ziddiyatlarini hal qilishga majbur bo‘lmoqda.

REFERENCES

15. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. Бирдамлик ва ҳамжихатлик – ижтимоий муносабатларнинг келажакдир. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. 3(3), March, 2023.
16. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. Ижтимоий муносабатларнинг шаклланиши ва барқарорлигини белгиловчи муҳим тамойиллар. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. 3(3), March, 2023.
17. Salimov, B., Madalimov, T. (2023). *Transport falsafasi*. Globe Edit.

18. Salimov Bakhriddin Lutfullaevich. The Importance of Sea Transport in the Communication System. WEB OF SYNERGY: International Interdisciplinary Research Journal. Volume 2 Issue 1, Year 2023 ISSN: 2835-3013.
19. Salimov Bakhriddin Lutfullaevich. The Influence of the Transport and Communication System on Social Relations. Web of Semantic: Universal Journal on Ie Education. Volume 2 Issue 2, Year 2023. ISSN: 2835-3048.
20. Salimov Bakhriddin Lutfullaevich. Reforms in the Fields of Communication and Transport and their Social Impact. Web of Semantic: Universal Journal on Ie Education. Volume 2 Issue 2, Year 2023. ISSN: 2835-3048.
21. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов (2022) Ўзбекистон тараққиётида коммуникация ва транспорт тизимини ўрни. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 1), 403-407.
22. Салимов, Б. Л. (2022). ЖАМИЯТНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА ТАКОМИЛЛАШУВИДА БОШҚАРУВ ВА ТАРБИЯ САНЪАТИНИНГ ЎРНИ. *Academic research in educational sciences*, 3(11), 359-365.
23. Salimov, V. L. (2021). The philosophical role of dialectical categories in human life. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(6), 406-410.
24. Салимов Б.Л. Ижтимоий муносабатларнинг коммуникация ва транспорт тизими билан детерминистик боғлиқлигининг гносеологик таҳлили. Фалсафа фанлари доктори диссертацияси. Ўзбекистон Миллий университети. Тошкент. 2022, 224 б.
25. Салимов Бахриддин Лутфуллаевич. Йўлдошов Сардор Зокир ўғли. (2023). 61. Инсоният ҳаётидаги туб бурилишлар. *Innovative Technologies in Construction Scientific Journal*, 1(2992-8893).
26. Салимов, Б. Л. (2023). 51. ТЕХНИКА ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ИККИ ЁҚЛАМА ТАЪСИРИ. *Inntechcon. uz*, 1(0000).
27. Salimov, V. L. (2023, May). NEGATIVE CONSEQUENCES OF SCIENCE AND TECHNOLOGY DEVELOPMENT. In *International Conference" Law, Economics and Tourism sciences in the modern world"*. (Vol. 1, No. 2, pp. 5-10).
28. Hakim, R. (2021). Political and Legal Culture-the Factors of Stability of the Political and Legal System. *Бюллетень науки и практики*, 7(3), 281-286.
29. Salimov, V. L., Tursunov, S. R., & Haydarov, M. N. U. (2023). SYNERGETIC APPROACH IN THE ANALYSIS OF SOCIAL RELATIONS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(3), 1001-1007.

FAN SIFATIDA MUHANDISLIK FALSAFASINING AHAMIYATI

Salimov Baxriddin Lutfullaevich

Toshkent davlat transport universiteti professori v.b.

Abdusalomov Zoidjon Nozimjon o'g'li,

Toshmurodov Abror Xolmamat o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada muhandislik falsafasining ob'ekti va predmeti, maqsadi va vazifalari, asrlar otishi bilan olimlar va muhandislar tomonidan muhandislikning falsafiy kontsepsiyasi yaratilishi, ushbu falsafiy kontsepsiya bir tomondan, muhandislik tajribasini nazariy tushunishga, ikkinchi tomondan, muhandislik tajribasini rivojlantirishga asoslanganligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: muhandislik, texnika, mexanika, ob'ekt, predmet, vazifa.

ABSTRACT

The article describes the object and subject, goals and tasks of engineering philosophy, the creation of the philosophical concept of engineering by scientists and engineers over the centuries, and the fact that this philosophical concept is based on the theoretical understanding of engineering experience on the one hand, and on the development of engineering experience on the other hand.

Key words: engineering, technique, mechanics, object, subject, task.

KIRISH

Kishilik tafakkurining mahsuli bo'lgan texnika va texnologiyalarni amalda qo'llash va foydalanish muhandislik falsafasining ob'ekti bo'lsa texnika va texnologiyalarni amalda qo'llash va foydalanishning falsafiy jihatlari muhandislik falsafasining predmeti hisoblanadi. Bunda, muhandislik falsafasining falsafa tarkibida vujudga kelgan yangi yo'nalish ekanligi, texnika va texnologiyalar uning tadqiqot doirasidagi masalalar ekanligini alohida ta'kidlamoq joiz.

Insoniyat tarixida davlatchilik va savdoning jadal rivojlanishi ko'plab kichik davlatlar mudofaasi, birinchi navbatda artilleriya va istehkomlar, shuningdek, yo'l - kommunikasiya tizimini barpo etishni, gidrotexnika qurilishi uchun zarur bo'lgan harbiy ishlarni yaxshilashni hamda arxitektura inshootlarini takomillashtirishni rag'batlantirdi. Shahar-davlatlarning mustaqilligini mustahkamlash va ularning mavjudligini saqlash hayotiy ahamiyat kasb eta bordi. Bularniig hammasi oxir-oqibatda kishilik jamiyatida yangi faoliyat turlarining, jumladan, muhandislik faoliyatining paydo bo'lishiga zamin hozirladi. Davrlar o'tishi bilan davlatlarning boyligi ortib, qurilishga ehtiyoj paydo bo'ldi. Qulay va chiroyli me'moriy tuzilmalar

va turli xil mashinalarni ishlab chiqarish uchun yangi ilmiy-muhandis-maslahatchilar hamma joyda zarur bo'la boshladi. Chunki, bu ishlarni amalga oshirish uchun oddiy hunarmandchilik mahorati endi etarli emas edi. Shuning uchun texnik vazifalarni hal etadigan muhandislar va ixtirochilar kerak edi. O'z davrining bilimdon kishilari bo'lgan muhandislar, mavjud muammolarni matematik va mexanik bilimlarga asoslangan hisob-kitoblarga tayangan holda hal etishgan. Agar bu bilim etarli bo'lmasa, ular o'z bilimlarini oshirishga va yangi bilimlarni egallashga harakat qilishgan. Bilim o'sha davr jamiyatida juda haqiqiy kuchga aylanadi va tan olinadi. Shu tariqa, kishilik jamiyatida yangi ijtimoiy qatlam, muhandislar sinfi shakllandi. Bular o'z-o'zidan o'qitilgan muhandislar edilar. Ularning muhandislik ma'lumoti etarli bo'lmaganligi sababli, dastlab oddiy qurilmalarni yasaganlar, masalan, suv va shamol tegirmonlarini o'rnatadilar. Bu odamlar odatda arifmetika va qisman mexanikani bilishgan, ular loyihalarni chizish va elementar hisob-kitoblarni amalga oshirishga qodir edi. Biroq, asta-sekin ular nafaqat o'z bilim doiralarini sezilarli darajada kengaytiradilar, balki qomusiy bilim darajasiga ega bo'lgan ilg'or olimlarga aylanishadi va o'sha paytdagi jamiyatda muhim o'rin egallaydilar. O'z atroflarida talabalarni to'plab, ilmiy, badiiy va muhandislik maktablarini tashkil etadilar. Asrlar otishi bilan olimlar va muhandislar tomonidan muhandislikning falsafiy kontseptsiyasi yaratiladi. Ushbu falsafiy kontseptsiya bir tomondan, muhandislik tajribasini nazariy tushunishga, ikkinchi tomondan, muhandislik tajribasini rivojlantirishga asoslangan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqoridagi mulohazalardan muhandislik falsafasining maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmetini belgilab olishda quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin.

Muhandislik falsafasining maqsadi – barqaror jamiyatni shakllantirish jarayonida muhandislik faoliyatining ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini ko'rsatish.

Muhandislik falsafasining vazifalari:

- muhandislik faoliyatining vujudga kelish shart-sharoitlarini va rivojlanish bosqichlarini aniqlash;
- muhandislik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- zamonaviy jamiyatda muhandislik faoliyatining o'rni va ahamiyatini asoslash;
- muhandisning ijtimoiy – ma'naviy qiyofasini shakllantirish;
- muhandislik faoliyatning mazmun va mohiyati, muhandislik falsafasining ilmiy tadqiqot sohasini shakllantirishdan iborat.

Muhandislik falsafasining tadqiqot ob'ekti - kishilik tafakkurining mahsuli bo'lgan texnika va texnologiyalarini amalda qo'llash va foydalanish hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi muhandislik faoliyati hisoblanadi.

Muhandislik falsafasining predmeti - texnika va texnologiyalarni amalda qo'llash va foydalanishning falsafiy jihatlari hamda muhim fan sifatida muhandislik falsafasining ijtimoiy taraqqiyotga ta'sir etishi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarning barchasi muhandislik tafakkurining falsafiy tushunchasi sifatida bizni muqarrar ravishda zamonaviy dunyoqarashning markaziga tortadi. Muhandislik tafakkuri jamiyatdagi ijtimoiylik modellariga, qabul qilingan tasniflarga katta ta'sir ko'rsatadi. Ilmiylik konstruksiyalariga asoslangan muhandislik tafakkurida falsafiy fanga doir o'ziga xoslik ham mavjuddir. Muhandislik fikrlash texnologiyalari majmuasi allaqachon shakllangan hamda uzoq vaqtdan beri aniq va yashirin tarzda yangi epistemologik, semiotik uslublar bilan fan va ijtimoiy hayotning turli sohalarida mavjud bo'lib kelmoqda. Xususan, muhandislik tafakkurining zarurligi mamlakatimizda o'zgargan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va iqtisodiyotning ijtimoiy-texnologik rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, bu postindustrial jamiyatda muhandislik tafakkurining muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda.

Hech ikkilanmasdan aytishimiz mumkinki, muhandis o'zining zamonaviy kasbiy imidjiga muhtojdir. Muhandisning kasbiy imidjining shakllanishi bir qator omillarga bog'liq bo'ladi va buning uchun hal qilinishi lozim bo'lgan quyidagi uchta vazifani o'z ichiga oladi: fundamental gumanistik qadriyatlar asosida zamonaviy muhandisning aksiologik qiyofasining asosi bo'lishi mumkin bo'lgan bir qator qadriyatlarni belgilash; muayyan hayotiy vaziyatlarda ilmiy ustuvorliklarining aniq afzalliklarini ko'rsatish; muhandislik ta'limida talabalarning shaxsiy tanlovini hurmat qilish.

Muhandislik kasbiy imidjining vujudga kelishi jamiyatdagi mavjud sohalarga ham aloqadordir. Mazkur aloqadorlik, "shaxs – texnologiya – tabiat" konsepsiyasi asosida shakllantiriladi. Texnik ta'limni shakllantirishga qaratilgan zamonaviy muhandisning aksiologik qiyofasi o'z tarkibiga qadriyatlar doirasini sezilarli darajada kengaytiradigan intellektual, axloqiy, kasbiy, ekzistensial xususiyatlarini qamrab olgan. Ushbu jihatlar muhandisning yaxlit shaxs va yetuk mutaxassis sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Muhandislik ta'limini ilmiylashtirish bilan bir qatorda qadriyatlararo munosabatlarini o'rganishga birdek o'rin ajratilishi maqsadga muvofiqdir. Shu o'rinda muhandislikni kelajak ta'limi ekanligini anglab etish muhimdir. Ushbu

mavzuni o'rganishdan maqsadimiz ham muhandislik ta'limining ilmiy ahamiyatini va texnik ta'limning aksiologik ustuvorliklarini falsafiy tushunishni aniqlashdir. Muhandislik falsafasining asoslarini ijtimoiy-falsafiy tahlili texnik ta'lim va axloqiy – me'yoriy qoidalar nuqtai nazaridan amalga oshiriladi. Shuningdek tizimli yondashuvlar, dialektika, sinergetika, modellashtirish va aksiologik qayta qurish tamoyillaridan foydalanish ham kutilgan natijani beradi.

Shunga alohida e'tibor qaratish kerakki muhandislik ta'limida yetuk mutaxassislarni tayyorlashda ijtimoiy – gumanitar fanlardan xabardorlik, badiiy yorqinlik, notiqlik va fuqarolik faolligiga egalik kabilar ham zarur bo'ladi. Zotan insoniylik fazilatlarining mavjudligi bo'lg'usi mutaxassislarning kelgusida yuksak marralarga erishish imkoniyatlarini yanada oshiradi. Chunki, faol va mustaqil bo'lmagan, jamiyat hayotida ishtirok etishni istamaydigan "o'rtacha" mutaxassislar arzimagan moddiy boyluk bilan qanoatlanadi, ba'zan hatto bunga intilmaydi ham Bundaylar mas'uliyatdan qochishadi, kasbiy rivojlanishni va martaba o'sishini xoxlashmaydi. "O'rtacha" muhandis uchun o'z ustida ishlash, yangiliklar yaratish juda og'ir ish.

REFERENCES

1. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. Бирдамлик ва ҳамжиҳатлик – ижтимоий муносабатларнинг келажакидир. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(3), March, 2023.
2. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. Ижтимоий муносабатларнинг шаклланиши ва барқарорлигини белгиловчи муҳим тамойиллар. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(3), March, 2023.
3. Salimov, B., Madalimov, T. (2023). Transport falsafasi. Globe Edit.
4. Salimov Bakhridin Lutfullaevich. The Importance of Sea Transport in the Communication System. WEB OF SYNERGY: International Interdisciplinary Research Journal. Volume 2 Issue 1, Year 2023 ISSN: 2835-3013.
5. Salimov Bakhridin Lutfullaevich. The Influence of the Transport and Communication System on Social Relations. Web of Semantic: Universal Journal on Ie Education. Volume 2 Issue 2, Year 2023. ISSN: 2835-3048.
6. Salimov Bakhridin Lutfullaevich. Reforms in the Fields of Communication and Transport and their Social Impact. Web of Semantic: Universal Journal on Ie Education. Volume 2 Issue 2, Year 2023. ISSN: 2835-3048.
7. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов (2022) Ўзбекистон тараққиётида коммуникация ва транспорт тизимини ўрни. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 403-407.

8. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов (2022). Жамиятнинг шаклланиши ва такомиллашувида бошқарув ва тарбия санъатининг ўрни. *Academic research in educational sciences*, 3 (11), 359-365.
9. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. The philosophical role of dialectical categories in human life. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. Volume: 1, Issue 6, 2021. -P.406-410.
10. Салимов Б.Л. Ижтимоий муносабатларнинг коммуникация ва транспорт тизими билан детерминистик боғлиқлигининг гносеологик таҳлили. Фалсафа фанлари доктори диссертацияси. Ўзбекистон Миллий университети. Тошкент. 2022, 224 б.
11. Салимов, Б. Л. (2023). 61. ИНСОНИЯТ ҲАЁТИДАГИ ТУБ БУРИЛИШЛАР. *Inntechcon. uz*, 1(0000).
12. Салимов Бахриддин Лутфуллаевич. Йўлдошов Сардор Зокир ўғли. (2023). 61. Инсоният ҳаётидаги туб бурилишлар. *Innovative Technologies in Construction Scientific Journal*, 1(2992-8893).
13. Салимов, Б. Л. (2023). 51. ТЕХНИКА ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ИККИ ЁҚЛАМА ТАЪСИРИ. *Inntechcon. uz*, 1(0000).
14. Salimov, B. L. (2023, May). NEGATIVE CONSEQUENCES OF SCIENCE AND TECHNOLOGY DEVELOPMENT. In *International Conference" Law, Economics and Tourism sciences in the modern world"*. (Vol. 1, No. 2, pp. 5-10).
15. Mamanovich, R. K. (2021). Components of political culture in political processes. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(2), 953-959.
16. Rasulov, H. M. (2021). ELECTION PHENOMENON I THE PROBLEM OF IMPROVING THE ELECTRIC CULTURE OF THE POPULATION. *ВОСТОЧНО ЕВРОПЕЙСКИЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ*, 75(part 6), 28.
17. Расулов, Х. (2021). Ҳукуқий маданият: муаммонинг ижтимоий-сиёсий омиллари. *Общество и инновации*, 2(10/S), 335-342.
18. Salimov, B. L., Tursunov, S. R., & Haydarov, M. N. U. (2023). SYNERGETIC APPROACH IN THE ANALYSIS OF SOCIAL RELATIONS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(3), 1001-1007.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI EKOLOGIK TARBIYALASHDA IJTIMOYIY ZARURIYAT SIFATIDA

Ravshanova Nargiza Norboevna

Nizomiy nomidagi TDPU “Maktabgacha ta’lim texnologiyasi” kafedrası
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

Norqulova Latofat Sherali qizi

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Maktabgacha ta’lim turli yosh guruh bolalarida ekologik ong elementlarini shakllantirish, ekologik elementlar bola ongida tabiat to‘g‘risidagi tasavvur, atrof-olam to‘g‘risidagi tushunchalarining mazmun va moxiyati bilan aniqlanishini shakllantirish. Tabiatda sodir bo‘ladigan hodisalar tabiiy ofatlar, insonlar tomonidan yetqazilan zararlar, to‘g‘risidagi elementlar ekologik ta’lim faoliyatida bola ongiga singdirish lozim.

***Kalit so‘zlar.** ekologik ta’lim, ekologik tarbiya, bioloya pedagoglarini, biologik ta’limi nazariyalari, modellarini loyihalashtirish, kontseptual, integrativligi, gumanistik yo‘nalishlar, atrof-olam, ijtimoyi muhit.*

КАК СОЦИАЛЬНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ В ЭКОЛОГИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ ДОШКОЛЬНИКОВ

Равшанова Наргиза Норбоевна

Кафедра “Технология дошкольного образования” ТГПУ им Низами доктор
философии по педагогическим наукам (PhD., и.о., доцент

Норкулова Латофат Шерали

Магистрант 1 курса направления дошкольного образования ТГПУ им.
Низами

АННОТАЦИЯ

Дошкольное воспитание формирование элементов экологического сознания у детей разных возрастных групп формирование представления о природе в сознании ребенка, отождествление элементов окружающей среды с содержанием и сущностью его представлений об окружающем мире. Элементы о природных явлениях, стихийных бедствиях, вреде, причиняемом людьми, должны быть привиты в сознании ребенка в экологической образовательной деятельности.

***Ключевые слова.** проектирование, концептуализация, интегративность, гуманистические направления экологического образования, экологического*

воспитания, теории, модели биологического воспитания педагогов, биологического воспитания, окружающего мира, социальной среды.

AS A SOCIAL NECESSITY IN ECOLOGICAL EDUCATION OF PRESCHOOLERS

Ravshanova Nargiza Norboevna

Department of “Technology of preschool education” of Nizami TSPU associate
philosophy in pedagogical sciences (PhD), Dosent

Norkulova Latofat Sherali

Master's student of the 1st year of the direction of preschool
education of TSPU. Nizami

ABSTRACT

Preschool education formation of elements of ecological consciousness in children of different age groups formation of an idea of nature in the child's mind, identification of environmental elements with the content and essence of his ideas about the world around him. Elements about natural phenomena, natural disasters, harm caused by people should be instilled in the child's mind in environmental educational activities.

Keywords. *design, conceptualization, integrativity, humanistic directions of environmental education, environmental education, theories, models of biological education of teachers, biological education, the surrounding world, social environment.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim tizimida ilk ekologik ta’limni takomillashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasida ilk ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi 434-son qarori asoslanib, maktabgacha ta’lim tizimida uzviylik asosida ilk ekologik tarbiyani ta’lim faoliyatini sivilizasiyaning hozirgi va kelajakdagi holati o‘rtasidagi bog‘lovchi vosita sifatida ta’limiy faoliyatni olib bordik. Pedagogkni maqsadi ta’lim-tarbiyani asosi xisoblanadi, pedagog o‘ziga xos shakl-usullar orqali insoni xayotga tayyorlaydi, inson bilim natijalarini tarbiyasida ko‘rsatadi. Ta’lim malaka va ko‘nikmalar orqali shaxsda tarbiyaning rivojlantirishdir.

Hozirgi vaqta O‘zbekistonda ekologik madaniyatni rivojlantirish maqsadida bir qancha loyihalar olib borilmoqda misol sifatida, YXHT loyihalari Koordinatorining idorasi, Maktabgacha ta’lim vazirligi, “SVB Advisory” Britaniya-O‘zbekiston barqaror rivojlanish kompaniyasi va “Hashar Week” ijtimoiy loyihasi bilan birgalikda

O‘zbekiston Respublikasida mavjud maktabgacha ta’limda ekologik ta’lim va tarbiyani joriy etish dasturini boshladi. Loyiha doirasida «Qiziqarli chiqindi» didaktik o‘yinini va o‘qitish metodikasini aprobechasiyasi uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlari tanlab olindi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni turli xildagi chiqindini saralashga, chiqindi bilan to‘g‘ri ishlashga o‘rgatishga, shuningdek bolani mehnatga o‘rgatishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI:

Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarga ilk ekologik ta’lim-tarbiya berish muammosi, uning nazariy va amaliy ahamiyati pedagogik jarayonlarda o‘rganilgan bo‘lsada, ko‘pgina jihatlarga e’tibor qilinmaganligining mavjudligi, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya faoliyatida bolalarni ekologik tarbiyalashda muammosini yanada chuquroq o‘rganishni taqazo etadi. (O.U.Xasanboyeva, X.D.Djabborova, R.O. Boboyorov, N. Ravshanova, V.V. Zotov, H.H Gara, S.Rubinshteyn , S.N Nikolayeva , V.N. Ogonkov, D. S. Gordeyeva, N.M Kot, A.R. Axmetshina, N. S Zotova, A.V Mironov va boshqalar) ekologik tarbiyaning global jarayonlarida globallashtirish tendentsiyalari, fanlar majmuasini birlashtirish, maktabgacha ta’limning milliy o‘ziga xosligini saqlash va mustahkamlash lozim.

Vazifalar: O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi, jahon hamjamiyatiga yuz tutishi, rivojlangan mamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy ma'rifiy, diplomatik aloqalarning yo'lga qo'yilishi barcha jabhalar kabi ta'lim tizimini isloh qilishni talab etdi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida ta'lim mamlakatimizning ijtimoiy taraqqiyot sohasida ustuvor yo'nalish deb e'lon qilingan.

Mazkur hujjatda mamlakatimizning ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari etib, jumladan, quyidagilar qayd etilgan:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'lim uzluksizligi va izchilligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqdligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondoshuv;
- bilimli bo'lish va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish;

Ma'lumki, mamlakatimizning ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari uzviy ravishda uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatish prinsiplariga bevosita ta'sir ko'rsatadi va ularni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, zamon talablari asosida qayta qurish, uzluksiz ta'lim tizimining turlari, ta'lim muassasalari oldidagi

vazifalar, kadrlar tayyorlash milliy modelini amaliyotga tatbiq etish masalalari bilan bir qatorda uzluksiz ta'lim tizimining quyidagi faoliyat ko'rsatish prinsiplari qayd etilgan.

1. Ekologik ta'limning ustuvorligi ta'lim-tarbiya jarayonining samarali tashkil etilishi va rivojlantirilishi jamiyatimizdagi ustuvor yo'nalish sanaladi. Ta'limning ustuvorligi yuksak ma'naviyatli, bilimli va salohiyatli barkamol shaxsning shakllanishiga zamin yaratadi.

2. Ekologik ta'limning demokratlashuvi ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishda ustoz va tahsil oluvchining hamkorligiga asoslanadi.

3. Ekologik ta'limning insonparvarlashuvi - inson qobiliyatlarini to'liq ochilishi va bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarning qondirilishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhitning o'zaro munosabatlarini uyg'unlashtirishga asoslanadi.

4. Ekologik ta'limning ijtimoiylashuvi - ta'lim oluvchilarda ongli intizom, insoniy qadr-qiyamat tuyg'usi, yuksak ma'naviyat, ijtimoiy normalarga asoslangan xulq-atvor, estetik boy dunyoqarash, mantiqiy va ijodiy fikrlashni tarkib toptirish nazarda tutiladi.

5. Ekologik ta'limning milliy yo'naltirilganligi - ta'limning milliy tariximiz, xalq an'analari va urf-odatlarini bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlashni ta'minlaydi.

6. Ekologik ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishni nazarda tutadi.

7. Iqtidorli yoshlarni aniqlash ta'lim jarayonini differensiallashtirish va individuallashtirish, iqtidorli yoshlarga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratishni ko'zda tutadi. Respublikamizda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlarning muvaffaqiyati uzluksiz ta'lim tizimining barcha turlarida ekologik ta'lim-tarbiya jarayoni tashkil etiladigan o'qitish prinsiplari ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari va uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatish prinsiplariga qanchalik mos kelishi va ularni amaliyotga joriy etishga safarbar etilganligiga bog'liq.

Maktabgacha ta'lim turli yosh guruh bolalarida ekologik ong elementlarini shakllantirishda, ekologik elementlar bola ongida tabiat to'g'risidagi tasavvur, atrof-olam to'g'risidagi tushunchalarining mazmun va moxiyati bilan aniqlanadi. Tabiatda sodir bo'ladigan hodisalar tabiiy ofatlar, insonlar tomonidan yetqazilan zararlar,

to'g'risidagi elementlar ekologik ta'lim faoliyatida bola ongiga singdirish lozim. Albatta faoliyatdan oldin, bolani yosh xususiyatlari inobatga olgan xolda, turli xil metod va ussulardan foydalanib ta'limiy faoliyatlar olib boriladi, shunda bolada malaka va ko'nikma shakillanadi, faoliyat bilan bog'liq bo'lgan harakatlar tabiatni saqlash xarakteriga ega bo'lishi kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, ta'limiy faoliyatning maqsadi bolaga ta'lim-tarbiya berish, shunday ekan biz ta'lim faoliyatiga o'zgacha yondashuvlar orqali ma'lum natijaga erishamiz. Misol sifatida, maktabgacha ta'limda, turli yosh gurux bolalariga uzviylik asosida ilk ekologik tarbiya berishda ta'lim faoliyatini to'g'ri tashkil etish, mavzuga oid jixozlash, (adabiyotlar, krassvordlar, topishmoqlar, AKT, didaktik, xarakatli o'yinlar) ekologik tarbiya tushunchalarini muammosiz o'zlashtirishiga asos bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tizimida ekologik ta'lim, yani konsepsiyasini rivojlantirishda integrasiyalashgan ta'limga urg'i berish, ekologik ta'limni samarali usullarini ishlash, maktabgacha ta'limga oid metodik, o'quv qo'lanma va dasturlarini yaratish, ekologiyaga oid adabiyotlar turini ko'paytirish nazarda tutilgan. Maqsad, ilk ekologik ta'lim-tarbiya orqali, ekologik muammolarni oldini olish, atrof-muxitga nisbatan madaniyat, milliy va umuminsoniy axloq, ilk ekologik tushunchalarni shakllantirishni nazarda tutadi. **Yangilik:** Inson hayotida ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, sport odatlari bilan birga zamonaviy ekologik ko'nikmalar va tabiiy marosimlar keng o'rin olgan. Aynan ilk ekologik tarbiya inson va tabiat o'rtasidagi munosabat va muvozanatga bog'liqliq, ta'limiy faoliyat jarayonida ko'nikmalarni va tabiatni asrash, shaxsiy gigiyenik qoidalarni ilk yoshdan boshlash va uzviylik asosida davom ettirib borish maqsadga muvofiqdir.

Ekologik tarbiyani oiladan, kichik yoshdan boshlash, uzviylik asosida tizimli ravishda maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan keyin o'rta ta'limda davom ettirish maqsadga muvofiqdir. Dastlabki ilk ekologik tarbiya asosi, bolaning kundalik faoliyatidan boshlanadi, ozoda yurish, mexnatsevarlik, uy xayvonlari va xona gullarini parvarish qilish, ifloslantirmaslik, ya'ni chiqindilarni maxsus axlat idishiga tashlash, daraxt shoxlarini sindirmaslik, atrof muhitni ozodaligi uchun ma'suliyatli bo'lishni, jonli, jonsiz tabiatga muruvvatli bo'lishni shakllantirib borish muhim ahamiyatga ega.

TAHLIL VA NATIJALAR:

Demak, ekologik madaniyat tabiatni ilmiy anglashdir, insonni tabiatga bo'lgan munosabat natijasi ekologik madaniyatining ko'zgisidir. O'z navbatida aytishimiz mumkin, tabiatda mavjud jonzotlari ichida, faqat inson o'zida ekologik madaniyatni, tabiatga nisbatan shakllantiradi. Inson va tabiat, bog'liqligini kundalik bir kunlik, bir soniyalik hayot misolida ko'rishimiz mumkin. Aytaylik o'n daqiqada butun yer

yuzida kislorod yo‘q bo‘ldi deylik, natija butun yer yuzida hayot tugaydi, shunday ekan kislorod manbasi daraxt, o‘simlik, gullarni ekib parvarishlab atrof muhitni ko‘kalamzorlashtirishni bolalar o‘rtasida targ‘ib qilishni kuchaytirishning ayni vaqti.

XULOSA VA TAKLIFLAR:

Maktabgacha ta‘limda tizimida, uzviylik asosida ilk ekologik tarbiya berishda, nazariy va amaliy faoliyatlar jarayonida, bola faoliyatiga yaqin bo‘lgan usullardan foydalanib, inson va tabiatning o‘zaro bog‘liqligini, faoliyat jarayonida jamoa bo‘lib yil fasllari o‘zgarishiga qarab jonli tabiat vakillariga yordam berishlari kuzatiladi. Masalan qish faslida qushlarning yemishlari qor tagida qolishini hisobga olgan holda jamoaviy tarzda tarbiyachilar boshchiligida tarbiyalanuvchilar bilan birgalikda donxo‘raklarni ommaviy yasash va MTT ichidagi daraxtlarga ilib chiqish va muntazam qor yoqqan vaqtlarda donxo‘raklarga qushlar uchun yemish don qoldirishni odat qilish. Bolalarning ekologik tarbiyasi faqat ekologik-ma‘rifiy yoki atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarini tashkil etish bilan cheklanib bo‘lmaydi. Shunday ekan, ilk ekologik bilimlarning keng doirada, motiv, inovasion, kognitiv yondashishlar orqali, bola ongiga ekologik muammolar, ilmiy munosabatlar asosida shakllantirish zarurati bilan, ekologik tarbiya ta‘limi jarayonida mustaxkamlanib o‘z samarasini beradi. Ekologik tarbiya mazmun-moxiyati, umumbashariy insoniy qadriyatlar asosida ta‘limiy faoliyatlar olib borilsa, bolada tabiat bilan bog‘liq milliy qadriyatlarga nisbatan ijobiy tasavvurlar shakllanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Ravshanova N.N. Maktabgacha yoshdagi bolalarda uzviylik asosida ekologik tarbiya tushunchalarini shakllantirish.//monografiya/ T. : Nizomiy nomidagi TDPU, 2022 y
2. Tolipova J.O., Fofurov A. Biologiya o‘qitish metodikasi. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012.
3. Tolipova J.O. Biologiyani o‘qitishda innovasion texnologiyalar. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2014.
4. Norboevna, R. N. (2021, April). IMPROVING THE MEMBERSHIP SYSTEM IN ECOLOGICAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN. In Archive of Conferences (Vol. 20, No. 1, pp. 97-98).
5. Ravshanova, N. N. (2020). THE PRINCIPLE OF CONTINUITY IN ENVIRONMENTAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(6), 369-374.

6. Nigmatov, A. N., & Ravshanova, N. N. (2020). Scientific Preschool Environmental Education and Training Research Methodology. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(08), 23-31.
7. Xolto'rayeva, S. X. Maktabgacha yoshdagi bolalarga matematik bilim berish orqali fazoviy tasavvurlarni shakllantirishning dolzarbligi. *Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman*, 579-581.
8. Norboevna, R. N. (2021, April). IMPROVING THE MEMBERSHIP SYSTEM IN ECOLOGICAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN. In *Archive of Conferences* (Vol. 20, No. 1, pp. 97-98).
9. Nigmatov, A. N., & Ravshanova, N. N. (2020). Scientific Preschool Environmental Education and Training Research Methodology. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(08), 23-31.
10. Babayeva, D. R., & Ochilova, X. S. (2022, October). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI NUTQ O 'STIRISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O 'RGATISH. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 8, pp. 21-23).
11. Sharipova, G. S., & Madaminjonova, M. S. (2022, April). BASIC CONCEPT IN CLOTHES DESIGN. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 12-15).
12. Sharipova, G. S. (2022). DISTRIBUTION AND MODERNIZATION OF ADVANCED PEDAGOGICAL PRACTICES IN THE LESSON PROCESS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(06), 12-15.
13. Xolto'rayeva, S. X. (2023). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI МАКТАВ ТА'ЛИМИГА ТАЙЙORLASH JARAYONIDA ТAYANCH КОМПЕТЕНСИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 871-872.
14. ШАРИПОВА, Г. С. (2019). ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛИЗМА НА ПРИМЕРЕ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ ПО ФОРМИРОВАНИЮ УМЕНИЙ И НАВЫКОВ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ. In *Высшее и среднее профессиональное образование как основа профессиональной социализации обучающихся* (pp. 260-268).
15. Садиқова, Д. Х., & Калауова, М. С. (2023). РОБОТЫ-ИГРУШКИ И МАТЕМАТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ НА ЗАНЯТИЯХ. *Analysis of world scientific views International Scientific Journal*, 1(5), 5-12.

16. Садикова, Д. Х. (2023). ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ STEAM ТЕХНОЛОГИЙ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 4(2), 5-11.
17. Садикова, Д. Х. (2023, January). АППЛИКАЦИЯ-СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСТВА ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 87-91).
18. Sadikova, D. K., & Mansurova, A. M. (2023). Study of Foreign Experience in The Application of Steam Technologies in Preschool Education. *European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices*, 1(2), 162-167.
19. Раджапова, З. Т., & Мирзаева, Г. З. (2023). ИННОВАЦИОННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ В ЛАНДШАФТНОМ ДИЗАЙНЕ.(в дошкольных образовательных организациях). *Analysis of world scientific views International Scientific Journal*, 1(4), 70-76.
20. Radjapova, Z., & Abdurafova, U. (2023). THE IMPORTANCE OF USING METHODS IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS ON THE BASIS OF AN INTEGRATIVE APPROACH. *Science and innovation*, 2(B1), 337-340.
21. Tirkashevna, R. Z. (2023). PEDAGOGIK KOMPETENTLIK-SHAXSGA TA'LIM-TARBIYA BERISHNING MUHIM SHARTI. *Science and innovation*, 2(Special Issue 9), 125-128.

CHET TILINI O'RGANISHDA TARJIMANING ROLI

Muminova Dilshodaxon Abduvaxitovna

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Dotsent v.b., filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tel: +998997608887,

e-mail: dilshodamuminova110@gmail.com

ANNOTATSIYA

Chet tilini o'rganishda tarjimaning roli, til o'rganish usuli sifatidagi samaradorligi va til o'rganishdagi ahamiyati ulkan bo'lib, mazkur maqolada aynan bu usulning talabalarni o'qitishdagi ahamiyati keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: metodika, zamonaviy yondashuvlar, ta'lim va til, tarjima amaliyoti, tarjima pedagogikasi, aslyat matni.

ABSTRACT

The role of translation in learning a foreign language, its effectiveness as a language learning method, and its importance in language learning are huge, and the importance of this method in teaching students is widely covered in this article.

Key words: methodology, modern approaches, education and language, translation practice, translation pedagogy, original text.

KIRISH

Bizga ma'lumki, xorijiy tillarni o'qitish va o'rganishdagi eng samarali yondashuvlar masalasi ko'p yillar davomida muhokama qilingan va ular ustida bir qancha tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

XX asrning boshlarida til o'qitishning zamonaviy yondashuvlariga asos solingan va ularning rivojlanishi bugungi kunda auditoriyada qo'llaniladigan til o'qitish va o'rganish usullari uchun asos bo'lgan. Yillar davomida ko'plab til o'qitish va o'rganish borasidagi yondashuvlar o'z davrida til o'qitish metodikasida ustunlik qilib keldi. Har bir dominant usul yoki yondashuv o'zi ishlab chiqilgan muayyan davrning g'oyalari va innovatsiyalarini o'zida aks ettiradi. Jamiyatning qadriyatlari va g'oyalari o'zgara boshlagach, ta'lim va til o'rganishga oid g'oyalar ham rivojlanib boradi. Mana shunday rivojlanish davrida chet tilni o'qitish va o'rganishda tarjima ham o'ziga xos ahamiyat kasb etdi.

Chet tilni o'rganishda tarjimaning roli bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularda tarjimani til o'rganish usuli sifatida samaradorligi va til o'rganishdagi ahamiyati e'tirof etilgan. Jumladan J.Pim "tarjimani ikki tilda mustaqil ravishda o'qish, tinglash, gapirish va yozish bilan bir qatorda, til auditoriyasida qo'llanilishi kerak bo'lgan beshinchi ko'nikma" deb hisoblash kerakligini ta'kidlaydi. Uning

fikricha, agar dars jarayonida bu amaliyot amalga oshirilsa, til o'rganish mashqlarida tarjima amaliyotining qo'llanilishi tarjimani o'qitish usuli sifatida rivojlanishiga olib kelishi mumkin bo'ladi. Bu, shuningdek, dars jarayonida til o'qitish va o'rganishda tarjimaning o'rni va qo'llanilishini kuchaytiradi. Aytish mumkinki, tarjima hech bir holatda auditoriyada o'qitishdan butunlay chetda qolmasligi maqsadga muvofiqdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

An'anaviy tarjima mashg'ulotlari mavjud yondashuvlarda eng samarali deb hisoblangan til o'rganish usullariga mos ravishda o'zgartirilishi kerak. Jumladan, kommunikativ mashqlarni tarjima bilan birgalikda bajarish tadqim etilayotgan axborotni yanada samarali bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Shu o'rinda tarjimaning asosiy mohiyatiga e'tibor qaratsak. G'. Salomov "tarjimaning bosh xossasi uning boshqa til vositalari bilan qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayon, so'z san'ati ekanligini" ta'kidlab o'tgan. Bu fikrni mulohaza etgan holda tarjimaga so'z san'ati, deb ta'rif bersak to'g'ri bo'ladi.

Chunki, o'zga tildagi ma'lumotni o'z tilida qayta bayon etish so'z san'ati bilan bog'liq hodisadir. Tarjima – badiiy va lug'at faoliyatining o'ziga xos turi. Tarjima badiiy, ilmiy ijod kabi til, tafakkur va fantaziya bilan ish ko'radi. Q. Musaevning fikriga ko'ra, "insoniyat faoliyatining murakkab shakli bo'lmish tarjima – bir tilda yaratilgan nutqiy ifodani (matnni), uning shakli va mazmun birligini saqlagan holda, o'zga til vositalari asosida qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayondir". Darhaqiqat, tarjima – ijod mahsulidir. Bir tildagi ijod mahsulini o'zga tilda yaratish ijodkorning ijod mahsuli hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda Q.Musaev fikriga qo'shilamiz.

A. Rojoning fikrining takidicha esa, "ikki til o'rtasidagi tarjima jarayoni tarjimon tomonidan biror asliyat tilidagi yozma matnni tarjima tilidagi yozma matnga, biror asliyat tilidagi og'zaki matnni boshqa tarjima tilidagi og'zaki matnga o'zgartirishdir". M.Snel-Xornbi esa, tarjimaga "bir tilda ifodalangan axborotni boshqa tilga o'girish yoki o'sha tilning belgilarini joylashtirish jarayoni yohud harakati" deb ta'rif beradi. J.Katfordning fikricha esa "tarjima bir tildagi matn materialini boshqa tildagi matn materialining ekvivalenti bilan almashtirishdir".

R.Bellning ta'kidlashicha "tarjima asliyat tilida ifodalangan narsaning semantik va stilistik ekvivalentligini saqlagan holda tarjima tilida ifodalashdir".

Ye.Nayda va S.Taber "tarjima manba tilidagi ma'lumotni, birinchidan, ma'no terminlari, ikkinchidan, uslub terminlari jihatidan eng yaqin ekvivalentini tarjima tilida qayta yaratishdan iborat," jarayon deb hisoblaydi. Demak, olimlarning tarjimaga bergan tavsif va ta'riflarga yondashgan holda tarjimani quyidagicha izohlash mumkin: tarjima asliyat matnidagi og'zaki yoki yozma shakldagi har qanday

soʻz, gap, matn va hokazolarni, asliyat va tarjima tillarining lingvistik: sintaktik, semantik, stilistik xususiyatlari hamda ekstralingvistik: lingvokulturologik, pragmatik va kognitiv xususiyatlarini hisobga olgan holda tarjima tiliga olib oʻtish jarayonidir.

K.Klaudi tarjima pedagogikasi borasida soʻz ketganda “pedagogik tarjima” va “asl tarjima” oʻrtasidagi farqni koʻrsatib oʻtish lozim ekanligini takidlab oʻtadi .

Ular oʻrtasidagi farq uchta belgiga asoslanadi: tarjimaning vazifasi, obʻekti va tarjima kimga moʻljallanganligi. Pedagogik tarjimada tarjima jarayoni til oʻrganishda muhim usul sifatida qaraladi; tarjima qilishdan maqsad oʻquvchiga tillar oʻrtasidagi farqlardan xabardor boʻlib, ushbu farqlarni anglay olishga yordam berish hamda tilni bilish darajasini tekshirishdan iborat. Asl tarjimada esa tarjima qilish jarayonining maqsadi asliyat matn oʻz kontekstida qanday ishlayotgan boʻlsa, tarjima matn kontekstida ham xuddi shunday ishlaydigan tarjima matnini yaratishdir.

Shuning uchun ham pedagogik va asl tarjimada tarjimaning oʻrni va vazifasi juda xilma-xildir: birinchi holatda tarjima til oʻrganish jarayonidagi usul boʻlsa, ikkinchi holatda esa tarjima ushbu faoliyat jarayonining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Pedagogik tarjimaning maqsadi “til oʻrganuvchining tilni bilish darajasi” haqida maʼlumot olishdir va pedagogik tarjimani qabul qiluvchisi bu – oʻsha maʼlumotga harihoh boʻlgan til oʻqituvchisi yoki imtihon oluvchisidir. Asl tarjimaning maqsadi esa “manba matnida mavjud boʻlgan voqelik haqidagi maʼlumot” va bu maʼlumotni turli tillarda soʻzlashuvchilarga yetkazish boʻlib, qabul qiluvchi esa “voqelik haqida maʼlumot olishni istaydigan tarjima tili oʻquvchisi” hisoblanadi. A. Vermes toʻgʻri takidlaganidek: “pedagogik tarjimada asosiy eʼtibor tilga, professional tarjimada esa tilning mazmuniga qaratiladi”. Bundan tashqari, pedagogik tarjimalar odatda talabalarning til koʻnikmalarini rivojlantirish maqsadida ularning til bilimlarini tekshirish va baholash uchun qoʻllaniladi. Asl tarjimalar kamdan-kam hollarda baholanadi. Ayrim baholanadigan tarjimalar ham mavjud boʻlib, ular odatda adabiyotshunoslar tomonidan koʻrib chiqiladi.

Xulosa oʻrnida shuni aytishimiz mumkinki Tarjima oʻquvchini ikki tilni solishtirish va qiyoslashga va ular oʻrtasidagi tarkibiy farqlarni bilishga yordam beradi, bu esa yangi tilni oʻrganishda juda samarali boʻladi. Tarjima til oʻrganishda samarali qoʻllanishi uchun tarjima soʻzlarni birma-bir oʻgirish emas, balki maʼnoni olib oʻtishga eʼtibor qaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI (REFERENCES)

1. Bell R. Translation and Translating. – London and New York: Longman, 1991. – P.5.
2. Catford J. A Linguistic Theory of Translation. – London: OUP, 1965. – P.20.

3. Ingo, R. 1989. Kääntäminen kielenopetuksessa. In Nuopponen & Palmberg (eds.), 61-67.
4. Klaudy K. 2003. Languages in Translation. Budapest: Scholastica.
5. G'afurov I, Mo'minov O, Qambarov N. Tarjima nazariyasi. –T.: Tafakkur bo'stoni, 2012. – B.7.
6. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T: Fan, 2005. – B.8.
7. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – T.: O'qituvchi, 1978. – B.93.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI RAHBARLARINING KOGNITIV KOMPETENTLIGI

N.M.Ergasheva

Halqaro Nordik universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarini kongutiv kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha nazariy bilimlar va uslubiy ko'rsatmalar berilgan.

Kalit so'zlar: kongutiv, kompetensiya, kompetentlik, umumiy, maxsus, ekstremal, metodik, ijtimoiy, nazariy, shaxsiy, kasbiy kompetentlik, bilim, ko'nikma, rivojlanish.

ABSTRACT

The article presents theoretical knowledge and guidelines for the formation and development of professional competence of a preschool teacher.

Key words: competence, competence, general, special, extreme, methodical, social, personal, professional competence, knowledge, skills, development.

KIRISH

Ta'lim sifatining takomillashib borishi natijasida bugungi kun yoshlarining ma'naviy qiyofasi va maqsadlari ham o'zgacha ko'rinish kasb etmoqda. Har bir yosh kadrlar o'z faoliyatini o'ziga xos yo'nalishda tashkil etish yo'llarini aniqlashga intilib bormoqda. Shu o'rinda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari hamda ushbu faoliyatga kirib kelayotgan bo'lajak tarbiyachilar ham o'zida kasbiy layoqatni oshirish uchun tinimsiz izlanishda davom etmoqdalar.

Zamon rivojlanib borar ekan, har bir faoliyat o'zida yangicha usullarni qo'llash zaruratini keltirib chiqaradi. Xususan, maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishning eng muhim bo'g'inida turganliklari tufayli, mazkur yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi pedagoglar zimmasiga chuqur mas'uliyatni yuklaydi. Bu mas'uliyatli vazifani samarali ado etishda tarbiyachi o'zida kasbiy kompetentlikni shakllantirgan bo'lishi g'oyatda muhimdir.

Kompetentlik – kasbiy mahorat belgisi sifatida pedagogdan talab qilinayotgan xususiyatdir. “Kompetentlik” so'zining ma'nosi xabardorlik, obro', o'z sohasi bo'yicha keng qamrovli tushuncha va tajribaga ega bo'lish bilan belgilanadi. Kompetentsiya-shaxsiy sifat bo'lib, turli xil vaziyatda pedagogik faoliyat va ijtimoiy hayotda ifodalanadigan qobiliyat, bilim, ko'nikma va malaka hisoblanadi.

“Kompetentsiya” va “kompetentlik” atamaları o'zakdosh so'zlar bo'lib, ular g'arb ilmiy adabiyotida XX asrning 60 yillari oxiri, 70 yillarda paydo bo'ldi. “Kompetentsiya” atamasi milliy pedagogikada XX asrning 90 yillaridan e'tiboran

ishlatila boshlandi Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik barcha tarbiyachi hamda pedagoglarning o'z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi hamda ta'limiy faoliyatlarni zamon talablari darajasida, ilmiy asosda tashkil etishlari uchun zaruriy sharoitlarni yaratib berish bilan bir qatorda bu sohaga yosh mutaxassislar kelib qolishiga imkoniyat yaratmoqda, bu esa o'z navbatida maktabgacha ta'limtashkilotirahbarlari oldiga yanada yangi vazifalar qo'yadi. Jaxon ta'lim jarayonida kognitiv kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish miqiyosida maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbatining YUNESKO tomonidan 2030 yilda belgilangan xalqoro ta'lim kansebsiyasida "Butun hayoti davomida sifatli talim olish imkoniyarini yaratish" dolzab vazifa sifatira belgilandi. Boshqaruv faoliyati mazmuni, talablari va yo'nalishlarini takomillashtirib borishni rahbar hodimlarni kasbiy faoliyatga tayorlashda kognitiv va kompetensiyaviy yondashuvlar talab etmoqda. Shunga ko'ra, raqobatbardosh va malakali rahbar xodimlarni tayorlashda xamda malakasini oshirishda bilimlarini amalyotda qo'llash katta axamyat kasb etadi. jamiyat rivojining turli soxalariga Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishni didaktiv tizimini takomollashtirishga aloxida etibor qaratilmoqda. Ayniqsa bo'lajak rahbarlarni pedagogik-psixologik xususiyatlari rivojlantirish turli axborotlashtirish sharoitida ularni masofaviy talimni samarali tashkil etish malakasini tarkip toptirish muhim axamyat kasb etadi. Shuningden maktabgacha talim tashkiloti rahbarining kognitiv kompetentligini oshirishda o'z dolzarbligini saqlab qoladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisida kasbiy kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishda kasbiy kompetentlik sifatlarini pedagog shaxsiy xislatlari bilan muvofiqlashuviga e'tibor qaratish lozim. Pedagogning xulq-atvori va qiziqishlari uning kasbiy yuksalishida ta'sir ko'rsatadi. O'z kasbiga nisbatan mehr, doimiy izlanish va aniq maqsadlar orqali harakatlanish kasbiy kompetentlikni takomillashtiradi.

Tarbiyachining kasbiy kompetentligini ko'rsatuvchi sifatlar quyidagilar sanaladi:

- Pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo'lish;
- O'z ustida ishlash;
- Ta'lim jarayonini rejalashtirish, bolalar bilimni baholay bilish;
- Bolalarda motivatsiyani shakllantirish;
- AKTni bilish;
- Ta'lim faoliyatiga yangilik kiritish;
- Bolalar yosh xususiyatlari va individual ishlash yo'llarini mukammal bilish;
- Xorijiy tillar va zamonaviy sohalardan biri haqida xabardor bo'lish.

Kasbiy kompetentsiyani shakllanishi o‘z-o‘zini tahlil qilish, zarur narsalarni anglash, o‘zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash, o‘zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish bosqichlarini qamrab oladi.

Tarbiyachilarda kasbiy kompetensiyani rivojlanishini aniqlashda, kasbiy kompetensiya moduli yaratiladi. Ya’ni, bunda kasbiy kompetenlikni tashkil qiluvchi muhim komponentlarni aniqlashdan oldin, uning yaxlit manzarasi yaratiladi. Kasbiy bilim va tushunchalarni egallashdan avval kasbga nisbatan mehr va qiziquvchanlik aniqlashtiriladi. Qachonki, kasbiy faoliyat egasi o‘z faoliyatiga mehnat deb emas, sevimli mashg‘ulot sifatida qarasa unda ijodiy qobilyat rivojlanib boradi. Kasbiy kompetensiya moduli bu – qiziqish va ishtiyoq bilan kasbiy bilim va tushunchalarni egallash, bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash asosida kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va faoliyatni qadriyat sifatida baholashga erishishdan iborat. Mazkur modul egasiga aylanish kasbiy faoliyatda duch kelinadigan turli holatlarda samarali yechimlardan avtomatik foydalanish ko‘nikmasini vujudga keltiradi.

Maktabgacha ta’lim bolani yangi hayot pog‘onasiga tayyorlashdek muhim vazifani bajaradi. Bolaning ijtimoiy hayotga kirib borishining dastlabki bosqichi tabiiyki, oson kechmaydi. Chunki bola faqatgina ota-onadan iborat bo‘lgan tor doiradan tashqariga chiqadi va jamoaviy hayotga qo‘shiladi. Bu jarayon turlicha individual xususiyatli bolalarga turli xil ta’sir ko‘rsatadi. Tarbiyachining vazifasi bolaning jismoniy va ruhiy xususiyatlaridan kelib chiqib, uni jamoaviy hayot tarziga ko‘niktirish va jamoada erkin yashash malakasini shakllantirishdir.

Hozirgi zamonda maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining kognitiv kompetentligini metodikasini nazariy asoslashda mazmun mohiyatiga etibor qaratish tushunchalarining nisbati yo‘nalishidagi muammolar eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bularning ichida ko‘proq yo‘nalishi Maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining faoliyati pedagogik faoliyatdan iborat bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda, maktabgacha ta’lim sohasi uzluksiz ta’lim tizimining dastlabki bo‘g‘ini bo‘lishi bilan birga keyingi ta’lim tizimida, rahbarlikka tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda bu ta’lim sohasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi bejiz emas. Bu borada davlatimiz tomonidan qabul qilingan qator farmon, qaror va farmoyishlardir O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-sonli O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, 2017-2021yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-2707-sonli, 2017 yil 30 sentabrdagi —Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-5198-

sonli Farmoni, 2017 yil 9 sentabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3261-sonli qarori, shuningdek, Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 18 iyundagi qo'yiladigan davlat talablari kognitiv kompetentlika rahbar hodimlarni ta'lim muassasalarida aniq dasturlar orqali o'rganadi. Mirziyoyev "Har bir raxbarning faoliyat mezoni - bu xalqning orzu - umidlarini o'zi uchun asosiy maqsad qilib, ularni izchillik bilan ro'yobga chiqarishdan iboratdir" deb - rahbar shaxsiga qat'iy javobgarlik va ma'suliyat hissini yuklaganlar. Oxirgi yillarda inson omiliga e'tibor kuchaygani bois boshqaruv masalalariga ham qiziqish kuchaydi. Boshqaruv vazifalaridan yana biri fan taraqqiyotiga, olimlarga g'amx'orlik qilishdir" deb rahbarlikda insonparvarlik g'oyalari muhim o'rin tutishini yozib qoldirgan. "kompetensiya", kognitiv" tushunchalariga yanada ko'proq ilmiy asoslar keltirilganligiga guvoh bo'ldim. Rahbar kasbiy kognitiv kompetentligini tashkil etuvchi muhim tarkibiy qismlardan biri psixologik kompetentlikdir.

Rahbar pedagogning nutk madaniyati ta'lim jarayonini boshkarishda, keng kulamli ta'lim-tarbiya faoliyatini amalga oshirish-da xal qiluvchi, g'oyat muhim urin tutadi. Pedagog nutkining madaniyligi - uning bilim darajasi, aql-idrokining mantiqiy fikrlashdagi yetukligi bilan bir qatorda ona tilining boyligidan foydalana olishiga ham bog'liq.

Til - har bir pedagogning quroli, o'z fikr-munosabatlarining bevosita voqelikka chiqishidir. Donolar ta'kidlaganlaridek, inson aql-zakovati, tafakkuri va ongining eng boy yutuqlari, teran bilimlar, keng miqyosli ilm-fanlar, otashin xis-tuyg'ular nutqda ochik-oydin, jarangdor va jozibador ifodalanmas ekan, tinglovchiga noma'lum bo'lib qolaveradi. Binobarin, rahbar yoki pedagogning notiqlik vazifasi bayon etiladigan fikrlarni tinglovchilar bevosita qabul kilishlari uchun ularga qulayligini inobatga olishga erishishdan iborat. Bu esa notikning uz fikrini kandy shaklda ifoda kilishiga ham bog'liq.

Ta'lim tashkiloti rahbarlari, pedagoglarda muomala odobi, xulqi va notiqlik san'ati ta'lim-tarbiya sifatini oshirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar sirasiga kiradi. Rahbar pedagogning nutq madaniyati ta'lim jarayonini boshqarish, keng ko'lamli ta'lim-tarbiya faoliyatini amalga oshirishda hal etuvchi, g'oyat muhim o'rin tutadi. Pedagog nutqining madaniyligi – uning bilim darajasi, aql-idrokining mantiqiy fikrlashdagi yetukligi bilan bir qatorda ona tilining boyligidan foydalana olishiga ham bog'liq.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikacining 1997 yil 29 avgustdagi «Ta'lim to'g'risida»gi 464-I-sonli qonuni. O'zbekiston Respublikaci Oliy Majlicining Axborotnomasi, 1997 y., 9-con, 225-modda.

2. O‘zbekiston Respublikacida maktabgacha ta’lim konsepsiyasi. Qodipova F.R., Qodipova R.M., Vaxobova F.N. - T., 2000.
3. <http://opi.nuu.uz>.
4. Xolto‘rayeva, S. X. Maktabgacha yoshdagi bolalarga matematik bilim berish orqali fazoviy tasavvurlarni shakllantirishning dolzarbligi. *Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman*, 579-581.
5. Norboevna, R. N. (2021, April). IMPROVING THE MEMBERSHIP SYSTEM IN ECOLOGICAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN. In *Archive of Conferences* (Vol. 20, No. 1, pp. 97-98).
6. Nigmatov, A. N., & Ravshanova, N. N. (2020). Scientific Preschool Environmental Education and Training Research Methodology. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(08), 23-31.
7. Babayeva, D. R., & Ochilova, X. S. (2022, October). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI NUTQ O‘STIRISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 8, pp. 21-23).
8. Sharipova, G. S., & Madaminjonova, M. S. (2022, April). BASIC CONCEPT IN CLOTHES DESIGN. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 12-15).
9. Sharipova, G. S. (2022). DISTRIBUTION AND MODERNIZATION OF ADVANCED PEDAGOGICAL PRACTICES IN THE LESSON PROCESS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(06), 12-15.
10. Xolto‘rayeva, S. X. (2023). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI МАКТАВ ТА‘LIMIGA TAYYORLASH JARAYONIDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARBLIGI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 871-872.
11. ШАРИПОВА, Г. С. (2019). ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛИЗМА НА ПРИМЕРЕ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ ПО ФОРМИРОВАНИЮ УМЕНИЙ И НАВЫКОВ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ. In *Высшее и среднее профессиональное образование как основа профессиональной социализации обучающихся* (pp. 260-268).
12. Садиқова, Д. Х., & Калауова, М. С. (2023). РОБОТЫ-ИГРУШКИ И МАТЕМАТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ НА ЗАНЯТИЯХ. *Analysis of world scientific views International Scientific Journal*, 1(5), 5-12.

13. Садикова, Д. Х. (2023). ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ STEAM ТЕХНОЛОГИЙ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 4(2), 5-11.
14. Садикова, Д. Х. (2023, January). АППЛИКАЦИЯ-СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСТВА ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 87-91).
15. Sadikova, D. K., & Mansurova, A. M. (2023). Study of Foreign Experience in The Application of Steam Technologies in Preschool Education. *European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices*, 1(2), 162-167.
16. Раджапова, З. Т., & Мирзаева, Г. З. (2023). ИННОВАЦИОННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ В ЛАНДШАФТНОМ ДИЗАЙНЕ.(в дошкольных образовательных организациях). *Analysis of world scientific views International Scientific Journal*, 1(4), 70-76.
17. Radjapova, Z., & Abdurafova, U. (2023). THE IMPORTANCE OF USING METHODS IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS ON THE BASIS OF AN INTEGRATIVE APPROACH. *Science and innovation*, 2(B1), 337-340.
18. Tirkashevna, R. Z. (2023). PEDAGOGIK KOMPETENTLIK-SHAXSGA TA'LIM-TARBIYA BERISHNING MUHIM SHARTI. *Science and innovation*, 2(Special Issue 9), 125-128.
19. Akhmedova, N. E. (2023). People's practical art traditions as the basis for developing the artistic-pedagogical abilities of future art teachers. *Science and innovation*, 2(B4), 701-705.
20. Ахмедова, Н. Э. (2022). МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ТЕМУР ВА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ МЕЪМОРИЙ БЕЗАК ТУРЛАРИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ НАТИЖАСИДА ЁШЛАРНИ АҚЛИЙ ВА МАЪНАВИЙ ТАРБИЯЛАШ САЛОХИЁТИГА ТАЪСИР ҚИЛИШ ОМИЛИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 41-45.
21. Artikbayeva, A. A. (2023). IJTIMOIY NAMKORLIK ASOSIDA BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPENTENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 4(1), 187-190.
22. Artikbayeva, A. A. (2023). DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF STUDENTS BASED ON SOCIAL COOPERATION DURING THE QUALIFICATION PRACTICE. *Академические исследования в современной науке*, 2(4), 68-70.

**МАРКАЗИЙ ОСИЁ ДАВЛАТЛАРИ БИЛАН МАДАНИЙ ВА
ГУМАНИТАР ҲАМКОРЛИК ҲИНДИСТОНИНГ ЮМШОҚ КУЧ
ОМИЛИ СИФАТИДА**

ҲИЛОЛА МУСТАПОВА

сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), ТДШУ

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Ҳиндистоннинг Марказий Осиёдаги иштироки, давлатларaro ҳамкорликнинг изчил ва ажралмас қисми бўлган маданий-гуманитар йўналишидаги алоқалари хусусиятлари, Ҳиндистон минтақа давлатлари билан муносабатларида “юмшоқ куч”дан фойдаланишидаги имкониятлари таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: *Болливуд фильмлари, кўшиқлар, ҳинд телевизион сериаллари, ижобий имидж, йога машқлари, рақс санъати, ҳинд таълими, мусиқа фестиваллари*

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется участие Индии в Центральной Азии, особенности культурно-гуманитарных отношений, которые являются последовательной и неотъемлемой частью межгосударственного сотрудничества, а также возможности использования «мягкой силы» в отношениях Индии со странами региона.

Ключевые слова: *Болливудские фильмы, песни, индийские сериалы, позитивный имидж, упражнения йоги, танцевальное искусство, индийское образование, музыкальные фестивали*

ABSTRACT

This article analyzes India's participation in Central Asia, the characteristics of cultural and humanitarian relations, which are a consistent and integral part of interstate cooperation, and the possibilities of using "soft power" in India's relations with the countries of the region.

Key words: *Bollywood Movies, songs, indian TV series, positive Image, yoga Practices, dance art, indian art, music festival*

Адабиётлар таҳлили ва методлар: *Мақола тайёрлаш жараёнида мавзуга доир инглиз, ҳинд ва рус олимларининг илмий ишларига мурожаат қилинди. Шунингдек, мақолада назарий-методологик, статистик таҳлил ва тизимлаштириш тамойиллари, шунингдек, қиёсий, тизимли таҳлил каби усуллардан фойдаланилди.*

Кириш. Ҳозирги халқаро муносабатларда давлатлараро ҳамкорликнинг изчил ва ажралмас қисмини маданий-гуманитар йўналишдаги алоқалар ташкил қилади. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг қуйидаги сўзларини келтириш ўринли бўлади: “Маданий-гуманитар ҳамкорлик давлатлар ўртасидаги муносабатлар муҳитини шакллантиради, инсонларни бирлаштиради” [1]. Шу маънода, Ўзбекистон Республикасининг Ҳиндистон Республикаси билан маданий-гуманитар соҳалардаги алоқаларини йўлга қўйиши ва ривожлантиришини қатор омиллар билан изоҳлаш мумкин. Ҳар бир давлат янги ва энг янги даврда ташқи сиёсатида ўз маданиятига асосланган ўз брендини илгари сургани ҳолда маданий дипломатия жараёнида хорижликларга юксак маданияти (адабиёти, санъати, таълими ва шу кабилар)ни ҳам, анъанавий маданият (аҳоли орасида кенг тарқалган маданияти)ни ҳам кўрсатишга интилади[2].

Дунёдаги кўплаб инсонларнинг Ҳиндистон ҳақидаги тасаввурлари шаклланишида Болливуднинг ҳиссаси катта бўлиб, Марказий Осиё давлатлари ҳам бундан мустасно эмас. Ҳинд фильмлари собиқ Совет Иттифоқи таркибига кирган давлатларда илк бор 1950-йилларда оммалашган. “Жаноб 420” ёки “Диско раққоси” каби классик фильмларни мароқ билан томоша қилиб улғайган катта авлод вакиллари машҳур ҳинд фильмларининг кўшиқларини яхши эслашади. 2018 йил Ҳиндистоннинг собиқ ташқи ишлар вазири Сушма Свараж Тошкентга ташриф буюрган чоғида кекса бир ўзбек аёли таниқли Болливуд фильмидан кўшиқни маромига етказиб қуйлаганида ҳайратини яшира олмаган экан. Ташқи ишлар вазирлиги вакили Равеш Кумар юқоридаги ҳолатга тегишли роликни Инстаграмга жойлаштириб: “Болливуд чегара билмайди!” [3] деган сўзларни ёзиб қолдиради.

Бош вазир Нарендра Модининг 2015 йил Марказий Осиёнинг бешта давлатига амалга оширган ташрифи Ҳиндистон минтақа давлатлари билан муносабатларида ўз “юмшоқ куч”идан унумли фойдаланишига янги имкониятлар яратди. Ҳиндистон маданий маҳсулотлари собиқ совет давридан буён минтақада жуда машҳур бўлиб келган. Бу ердаги инсонлар ҳинд мусиқасини тинглашади ва ҳинд фильмларини мароқ билан томоша қилишади. Ҳиндистоннинг “Марказий Осиё билан боғланиш сиёсати” нафақат энергетика, хавфсизлик соҳаларида, балки сиёсат, маданият ва бошқа соҳаларда ҳам ҳамкорлик қилишга қаратилган яхлит сиёсатдир[4].

Болливуд фильмлари, кўшиқлари ва ҳинд телевизион сериалларининг Марказий Осиёда оммаланиши Ҳиндистоннинг минтақадаги ижобий имижини шакллантиришда муҳим омил ҳисобланади.

Муҳокама. Бугун Ҳиндистон телевидение ва кино саноатида маданиятининг қимматбаҳо қирраларидан унумли фойдаланиш билан бирга, ҳукумат бир қатор маданий ва маърифий алмашинув дастурларини ҳам ташкил қилмоқда. Маданий алоқалар бўйича ҳинд шеърларининг Марказий Осиё давлатларининг тилларига таржима қилинишини молиялаштиради ҳамда маданий фестивалларга ҳомийлик қилиб, минтақа бўйлаб рақс дасталари ва мусиқий гуруҳларнинг гастролларини ўтказди. Марказий Осиё давлатларида дунёнинг 160 дан ортиқ давлатида ўз амалий дастурларини таклиф қилаётган Ҳиндистоннинг Техник ва иқтисодий ҳамкорлик дастури (ИТЕС) фаолият олиб бормоқда. Тиббий ва техник салоҳиятни инобатга олган ҳолда кейинги йилларда, Африка мамлакатларидаги шифохона ва университетларга масофавий тиббиёт ва таълим соҳасида ёрдам берадиган Пан-Африка электрон тармоғи модели асосида Марказий Осиё минтақасининг бешта давлати учун ҳам тиббиёт ва таълимга мўлжалланган ана шундай электрон тармоқ яратиш режалаштирилган[5].

Ҳиндистон нафақат Марказий Осиёдан талабаларни таҳсил олишга қабул қилмоқда, балки талабалар алмашинуви дастурларидан ҳам кенг фойдаланишда давом этмоқда. Ҳар йили минглаб ҳиндистонлик талабалар тиббиёт соҳасида ўз таълимларини давом эттириш учун Марказий Осиё давлатларига келишмоқда. Сўнги йилларда Марказий Осиё мамлакатларида тиббиёт соҳасидаги ҳиндистонлик талабалар сони анча ошди[6].

Ҳозирги вақтда Ҳиндистон икки томонлама алоқаларнинг маданий жиҳатларини янада кучайтиришда ўзининг бой маданий меросидан кенг миқёсда фойдаланмоқда. Қозоғистоннинг Олмаота шаҳрида 1994 йилда ташкил қилинган марказ негизида 2007 йилда Остона (ҳозирги Нурсултон) шаҳрида Ҳинд маданий маркази ташкил этилди. Бу марказ қозоғистонликлар орасида машҳур бўлган ҳинд фильмлари, йога машқлари, рақс санъати ва ҳинд таълимини тарғиб қилиш борасида катта ишларни амалга оширмоқда[7]. Марказ ҳинд ва қозоқ мусиқа фестивалларига ҳам мезбонлик қилмоқда[8]. Икки мамлакатнинг маданият соҳасидаги тегишли мутасадди идоралари бошчилигида мунтазам равишда қозоқ ва ҳинд маданият кунлари ўтказиб келинмоқда. Шунингдек, қозоқ мусиқаси ва фольклор рақслари Ҳиндистонда анча таниқли ҳисобланади. Нурсултон шаҳридаги Свами Вивекананда (Swami Vivekananda) маданият маркази турли маданий тадбирларни ташкил қилиш билан шуғулланади, шу жумладан, йога, рақс ва мусиқа дарсларини ўтказиш, ҳинд фестивалларини нишонлаш ана шулар жумласидандир. Ҳиндистон Қозоғистон талабалари учун Ҳиндистоннинг маданий алоқалар кенгаши (The

Indian Council for Cultural Relations) стипендия дастурлари бўйича турли фанлардан стипендиялар ажратади[9]. Ушбу стипендия дастури бўйича Қозоғистонга ажратилган 15 та йўналиш мавжуд. Дастур Ҳиндистоннинг юзга яқин етакчи олий таълим муассасалари, шу жумладан, Ҳиндистон технологиялар институти ва мамлакатдаги хусусий коллежлар билан ҳамкорликни ўз ичига олади. 1992 йилдан бери Ҳиндистоннинг техник ва иқтисодий ҳамкорлик дастури (ИТЕС) бўйича мингдан ортиқ мутахассислар малака оширдилар. Таълим ва фан вазирлигининг таклифига асосан Ҳиндистоннинг техник ва иқтисодий ҳамкорлик (ИТЕС) дастури доирасида 2018 йил 25 июндан 3 августгача Қозоғистоннинг 25 нафар ўқитувчисига олти ҳафталик махсус курс ташкил этилди[10].

Ҳиндистон маданият вазирлиги кўмагида Қозоғистонда Ҳиндистон маданият фестивали ўтказилди[11]. 2017 йилдан бери 200 дан зиёд қозоқ миллатига мансуб талабаларга Маданий алоқалар бўйича кенгаш томонидан таклиф қилинган ўз таълимларини Ҳиндистоннинг олий ўқув юрларида давом эттириш имконини берувчи грантлар берилди[12].

Тожикистонда эса давлат мустақиллигига эришилганидан буён Ҳиндистон мамлакат ривожланишида муҳим стратегик ҳамкор сифатида баҳоланмоқда. Хусусан, 2006 йилда “юмшоқ куч” омили доирасида 0,6 млн АҚШ доллари миқдоридаги грант ҳисобидан Бедил номидаги Ахборот технологиялари маркази фойдаланишга топширилди. Лойиҳа олти йил давомида Ҳиндистон томонидан тўлиқ молиявий таъминланди ва Тожикистон давлат сектори учун IT-мутахассислар тайёрлаб берди. Бундан ташқари, Ҳиндистон энг замонавий муҳандислик институтини барпо этиб, 2011 йил 2 июнда фойдаланишга топширди, Тожикистондаги 37 та мактабда компьютер лабораториялари яратиш лойиҳасини муваффақиятли тарзда амалга оширди[13].

Маданий алоқаларни янада чуқурлаштириш ва кенгайтириш учун эса Душанбедаги Свами Вивекананд (Swami Vivekananda) маданият маркази Ҳиндистоннинг маданий алоқалар кенгаши томонидан юборилган ўқитувчилар махсус курсларни таклиф қилишмоқда. Марказда ҳинд тили дарслари ҳам мавжуд. Йога ҳам Тожикистоннинг маҳаллий аҳолиси орасида жуда машҳур. Ҳиндистон маданият маркази маҳаллий йога ўқитувчилари билан мунтазам тарзда йога дарсларини таклиф қилади. Ҳар йили «Халқаро йога куни» нафақат маданият маркази томонидан, балки Тожикистоннинг турли шаҳарларида кўплаб кишилар томонидан кенг нишонланади. 2020 йилда Тожикистонлик йога ихлосмандлари маданият Маркази томонидан ташкил этилган «Менинг

ҳаётим, менинг йогам» видеоблоглари танловида икки номинация бўйича иштирок этишди[14].

Шуниси эътиборлики, 1000 дан ортиқ тожик фуқаролари Ҳиндистоннинг техник ва иқтисодий ҳамкорлик дастури (ITEC) ҳамда маданий алоқалар бўйича кенгаш томонидан берилган давлат стипендияларидан фойдаланган ҳолда Ҳиндистоннинг олий ўқув юртларида таълим олиш имкониятига эга бўлдилар[15].

Шунингдек, Ҳиндистоннинг Тожикистонга гуманитар ёрдамлари ҳам салмоқли кўрсаткичларга эга. Ҳиндистон Помир ҳамда Рашт водийсидаги сув тошқини ва кўчки қурбонларига ёрдам бериш учун 2015 йилда 100 минг АҚШ доллари миқдорида гуманитар ёрдам кўрсатди. 2017 йил март ойида Тожикистонда табиий офатлар юз берганида гуманитар ёрдам сифатида яна 100 минг АҚШ доллар ажратган. 2018 йилда Ҳиндистон Тожикистоннинг турли ҳудудларига Россияда ишлаб чиқарилган 10 та тез тиббий ёрдам машинасини ҳадя қилди[16].

Ҳинд мусиқаси ва Болливуд фильмлари Тожикистонда жуда машҳур бўлиб, бу кўпинча мамлакатда ҳинд-урду тилларини ўрганишга катта қизиқиш борлиги билан боғлиқ. Бироқ тожик тилига таржима қилинаётган ҳинд фильмларининг йиллик сони Эрон фильмлариникига нисбатан жуда кам[17].

Душанбе шаҳридаги Ҳиндистон элчихонаси қошида ташкил қилинган Ҳинд маданият маркази (2003 йилда) асосан рақс, йога ва ҳинд таълимининг мамлакатда оммалашishi учун фаолият олиб бормоқда[18].

Тошкентда ҳинд таълими ва йога машқлари билан шуғулланувчи маданий алоқалар бўйича ҳукумат кенгаши томонидан бошқарилувчи Лал Баҳодир Шастри номидаги Ҳинд маданият маркази фаолият олиб бормоқда. Ҳинд тили Ўзбекистоннинг кўплаб олий ўқув юртларида ўқитилмоқда ва ўзбек радиоси қарийб 50 йилдан бери ҳинд тилидаги радиоэшиттиришларни оммага ҳавола этиб келмоқда[19]. Шунингдек, Ўзбекистонда истиқомат қилаётган ҳинд жамоаси Холи, Дивали каби байрам тадбирларида ва Ҳинд маданият маркази ҳомийлигида ташкил этилган турли дастурларда иштирок этади[20].

Ўзбек ва ҳинд халқларининг тарихи, адабиёти, мусиқаси, санъати ва меъморчилигидаги ўхшашликлар, уларнинг ўзаро бойиши ва бир-бирига ўтишида Заҳириддин Бобур ва унинг авлодлари катта аҳамият касб этади. Уларнинг беқиёс мероси Ўзбекистон ва Ҳиндистон ўртасида икки томонлама муносабатларни мустаҳкамлаш, илмий ва маданий соҳадаги самарали алоқаларни ривожлантиришда улкан салоҳиятга эга[21].

Хусусан, 2017 йилда Ҳиндистон Миллий музейи томонидан Бобурнинг 1528 йилда ёзилган «Девони Бобур» қўлёзмаси ҳамда 1640 йилда чизилган «Шахзода Дори Шикоҳнинг тўй маросими» миниатюраси нусхаларининг расман Ўзбекистонга тақдим этилиши икки томон ўртасидаги маданий алоқаларни мустаҳкамлашда рамзий қадам бўлди[22].

Ўзбекистон ва Ҳиндистон ўртасидаги *халқ дипломатияси* ҳам жадал ривожланмоқда. Бу борада икки томонлама маданий алоқаларни кенгайтиришга 1991 йилдан буён ҳисса қўшиб келаётган Ўзбекистон—Ҳиндистон дўстлик жамиятининг ҳам аҳамияти катта. Амалга оширилаётган доимий маданий-маърифий алоқалар натижасида икки мамлакат фуқаролари турли соҳаларда бир-бирлари ҳақида кенг маълумотга эга бўлмоқда. 2017 йил 13–16 январь кунлари Ҳайдаробод шаҳрида ўтказилган рақс фестивалида Ўзбекистондан “Навбахор” ашула ва рақс ансамбли раққосалари иштирок этиб, ҳинд томошабинларини ўз дастурлари билан мамнун қилдилар.

Тошкент шаҳридаги Лал Баҳодир Шастри номли Ҳинд маданият марказида ҳинд мумтоз рақси «Катхак», йога ва ҳинд тили бўйича машғулотлар ташкил қилинган. Тошкент давлат Шарқшунослик университетида ҳинд тили ўргатилмоқда. Шунингдек, университетда Махатма Ганди номидаги Ҳиндистон тадқиқотлар маркази ҳам фаолият юритмоқда. Ўзбек тили бўйича дарслар Дехлидаги Жамия миллия исламия университетида олиб борилмоқда. Тошкент давлат шарқшунослик университети ҳиндшуносларидан профессор Улфат Муҳибова 2007 йилда, доцент Сирожиддин Нурматов 2017 йилда Ҳиндистон маданий алоқалар кенгашининг “Ҳинд тилини ривожлантириш ва тарғиб қилишдаги хизматлари учун” мукофотига сазовор бўлган[23].

Ҳиндистон таълим соҳасида яхши натижаларга эришмоқда, унинг сифати бўйича Жанубий ва Шарқий Осиёнинг аксарият давлатларидан анча илгарилаб кетган. Ҳиндистон олий ўқув юртлари ичида энг машҳур йўналишлар ахборот технологиялари, менежмент ва фармакологиядир. Бу борада Ўзбекистон Республикасининг олий ўқув юртлари 10 дан ортиқ ҳинд олий таълим муассалари ва илмий-тадқиқот марказлари билан ҳамкорлик ўрнатган[24].

Ҳиндистон маданий алоқалар кенгаши (ХМАК) дастурлари доирасида ўзбекистонликларга ҳар йили ҳинд олий ўқув юртларида турли йўналишларда таълим олишлари учун 25 та грант ажратилади. Ҳар йили аксарият ўзбекистонлик мутахассислар Ҳиндистоннинг техник ва иқтисодий ҳамкорлик (ИТЕС) дастури доирасида инглиз тили, банк иши, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик, бошқарув, кишлок хўжалиги ва бошқа соҳаларда Ҳиндистонда малака ошириб келмоқда.

Томонлар ўзаро ҳамкорликнинг энг истиқболли йўналишларидан бири сифатида ахборот технологиялари соҳасини, биринчи галда, ҳиндистонлик мутахассислар ҳақли равишда дунёда етакчи ўринда турадиган дастурий маҳсулотлар ва телекоммуникация ускуналари ишлаб чиқариш, масофали таълим ва бошқа тармоқларни қайд этдилар. Тошкент Ахборот технологиялари университети қошида Жаваҳарлаъл Неру номидаги ҳинд-ўзбек ахборот технологиялари маркази ташкил этилиб, унда бу соҳадаги профессор-ўқитувчиларнинг малакаси оширилмоқда ва талабалардан етук кадрлар тайёрланмоқда[25]. Бу ерда ёш мутахассислар энг илғор усуллар асосида таълим олмақда, дастурлашнинг замонавий принциплари кенг жорий қилинмоқда.

Ҳиндистон ҳукуматининг Маданий алоқалар бўйича кенгаши ҳар йили Ҳиндистондаги олий ўқув юртларида ўқиш учун ўзбекистонликларга 20 та грант тақдим этмоқда[26].

Туризм соҳасидаги ҳамкорлик ҳам ривожланиб бораётган икки томонлама манфаатли ҳамкорлик динамикасида катта аҳамият касб этмоқда. Шунини таъкидлаш лозимки, юртимизда Ҳиндистондан ташриф буюрувчи сайёҳлар салмоғи тобора ошиб бормоқда. ЮНЕСКО маданий меросига киритилган Самарқанд, Бухоро, Хива ва Шаҳрисабзнинг улуғвор меъморий ёдгорликлари, ажойиб табиати ва иқлими, шунингдек ўзбек халқининг анъанавий меҳмондўстлиги замонавий Ўзбекистонга ҳинд сайёҳларнинг қизиқишини оширмоқда. Ўзбекистонга келувчи ҳиндистонлик сайёҳлар кескин кўпайганини 2016 йилда 16 мингга яқин ҳиндистонлик сайёҳ мамлакатимизга ташриф буюрганидан ҳам билса бўлади.

Ўзбекистон ва Ҳиндистон маданияти, урф-одати ранг-баранглиги, дунё маданий меросининг ёрқин намуналарига бойлиги билан улкан сайёҳлик салоҳиятини ўзида акс эттиради. Шу боис мазкур соҳа бугунги кунда икки мамлакат иқтисодий ҳамкорлигининг устувор йўналиши сифатида баҳоланмоқда.

Ҳиндистон ҳукумати Қирғизистонда йога ва ҳинд тилини оммалаштириш бўйича бир қатор тадбирлар уюштириб, унга бу борада моддий жиҳатдан кўмаклашмоқда, шунингдек қирғизистонлик санъаткорларнинг Ҳиндистондаги гастроль сафарларини кўллаб-қувватлади[27] ва Ҳиндистонда қирғиз маданияти кунлари ўтказилди[28].

Ҳиндистон маданий алоқалар кенгаши Қирғизистон фуқароларига Ҳиндистон олий ўқув юртларида таълим олиш учун, Ҳиндистон Техник ва иқтисодий ҳамкорлик дастури эса Ҳиндистонда касбий тайёргарлик ўташ учун

грантлар таклиф этмоқда. Бундан ташқари, Қирғизистондаги Транспорт ва архитектура университетининг IT-маркази, Дипломатик академия қошидаги махсус илмий лаборатория, олтита шифохонани боғловчи телетиббиёт алоқалари, Бҳабҳатрон-II ускунаси ҳамда саратон касалликларини даволаш учун тасвирлаш симулятори — буларнинг бари Ҳиндистон томонидан кўрсатилаётган техник ёрдамга мисоллардир. Ҳиндистоннинг техник ва иқтисодий ҳамкорлик (ИТЕС) дастури доирасидаги техник ёрдам, айниқса, инсон ресурсларини ривожлантириш нуқтаи назаридан берилаётган ёрдам айниқса салмоқлидир.

Таълим борасида, Ўш давлат университети қошида ташкил этилган Ҳиндшунослик маркази (1997 йилда) қирғиз олимлари ва зиёлиларини ҳинд маданияти ва цивилизацияси билан таништиришда қўл келмоқда. Марказ кўнгиллилар томонидан бошқарилади. Унда инглиз ва ҳинд тиллари, йога ва катҳак рақс курслари ташкил этилган.

Шунингдек, 2019 йил март ойида Норин, Қоракўл ва Бишкек шаҳарларида Маҳатма Ганди таваллудининг 150 йиллигига бағишлаб «Олтин Тоғ Ҳиндистон—Қирғизистон» дўстлик жамияти билан ҳамкорликда йога, классик ҳинд рақси ва вегетариан ҳинд ошхонаси фестиваллари бўлиб ўтди[29].

Ҳиндистон *Туркменистон* билан яқин, дўстона ва тарихий алоқаларга эга. Деҳлида XIII асрда Ҳиндистонда яшаган буюк туркман мутафаккири Шамс-ул-Орифиншоҳ Байбаний хотирасига қурилган «Туркман дарвозаси» ана шу дўстликнинг ёрқин ифодасидир. Ҳозирда икки томонлама муносабатлар олий даражадаги мунтазам ташрифлар билан мустаҳкамланиб бормоқда. Туркменистон ҳукумати Ҳиндистондаги туркман маданияти фестивалларини амалий жиҳатдан қўллаб-қувватлади, ўз навбатида, Ҳиндистон ҳам Туркменистонда ҳинд маданияти фестивалларини ташкил қилмоқда. 2015 йилда Деҳлининг кўмаги билан Ашхободда Йога ва анъанавий тиббиёт маркази очилди[30]. Умуман олганда, ҳинд кино ва сериаллари туркманлар орасида машҳур. Худди шу каби ҳинд мусиқаси ҳам туркман халқи қалбидан алоҳида жой олган. Туркменистоннинг турли шаҳарларида мунтазам равишда ҳинд кинофестиваллари ўтказиб келинади. 2017 йил май ойида Ашхобод шаҳрида Ҳиндистон ва Туркменистон ўртасида дипломатик муносабатлар ўрнатилганининг 25 йиллигига бағишлаб «Ҳинд маданияти ҳафталиги» доирасида бадиий кўргазмалар, рақс томошалари, кино ва таомлар фестивали ўтказилди. 2018 йил апрель ойида Ҳиндистоннинг «Табла» гуруҳи Туркменистон давлат маданият маркази томонидан ташкил этилган «Кўҳна мусиқа санъати бешиги» халқаро илмий анжумани ва фестивалида иштирок

этиш учун Туркменистонга ташриф буюрди. 2019 йил август ойида 14 кишидан иборат «Болливуд Роскерс» гуруҳи Туркменистонда чиқиш қилди.

Ўз навбатида, «Галкиниш» туркман маданий фольклор гуруҳи 2018 йил декабрь ойида бўлиб ўтган Халқаро рақс ва мусиқа фестивалида иштирок этиш учун Ҳиндистонга ташриф буюрди. Марказий Осиёдаги биринчи йога ва анъанавий тиббиёт маркази Ҳиндистон бош вазири тарихий ташрифи доирасида 2015 йил июль ойида Ашхободда очилган эди. Ҳиндистондан марказга йога ўқитувчиси ва Аюрведа мутахассиси рўйхатдан ўтган ҳамда қизиқувчиларга дарс ва консультациялар бериб келинмоқда.

Ҳиндистон ўзининг ИТЕС дастури орқали Туркменистон фуқароларига таълим имкониятларини тақдим этиб келмоқда. 1994 йилда Туркменистон учун махсус дастур яратилганидан буён 400 дан ортиқ туркман фуқароларининг таҳсил олиши таъминланди. Бундан ташқари, 300 дан ортиқ туркменистонлик талаба Ҳиндистоннинг турли номдор университетларида таҳсил олмоқда. 2010 йилда Ҳиндистон Ашхободдаги Озоди Жаҳон тиллари институтида ҳинд тили бўлими ташкил этилган бўлиб, у ерда университет талабаларига ҳинд тили ўргатилади[31].

Ҳиндистон ва Марказий Осиё ўртасидаги ҳамкорликнинг асосий йўналишларидан бири — фармацевтика ва соғлиқни сақлаш бўлиб, бу COVID–19 пандемияси талофатларидан сўнг 2021 йил 19 декабрда ўтказилган учинчи Ҳиндистон—Марказий Осиё мулоқоти доирасида яна бир бор алоҳида қайд этилди. Марказий Осиё давлатлари Ҳиндистоннинг COVID–19 вакциналари ва асосий дори воситаларини пандемиянинг дастлабки босқичида етказиб бериш бўйича кўрсатган ёрдамни юксак баҳолаб, миннатдорлик билдирдилар. Ўз навбатида, Нью-Дехли Қозоғистон ва Ўзбекистондан олинган тиббий буюмлар, 2021 йил апрель-май ойларида Ҳиндистонда COVID–19 нинг иккинчи тўлқини пайтида Туркменистон томонидан кўрсатилган ёрдамни юксак баҳолади. Вакциналарни тақсимлаш, технологиялар трансфери, маҳаллий ишлаб чиқариш қувватларини ошириш, тиббий буюмлар етказиб беришни ривожлантириш самарали бўлиши таъкидланди[32]. Зотан, Ҳиндистон ушбу соҳада жаҳон бозорида катта мавқега эга. Ҳинд компанияларининг баъзилари Claris Life Sciences, Ranbaxy, Dr Reddy’s Labs, Lupine Laboratories, Unique Laboratories ва Aurobindo Pharma Марказий Осиёга фармацевтика маҳсулотларини экспорт қилади. Ушбу компанияларнинг баъзилари ишлаб чиқариш бўлиmlарини Марказий Осиёнинг ўзида ташкил қилишни режалаштирмоқдалар. Қозоғистон ва Ҳиндистон биргаликда ташкил қилган “Kazakhstanpharma” қўшма корхонасининг фармацевтика фабрикаси Олмаотада барпо этилди[33].

Хулоса ўрнида таъкидлаш мумкинки, Ҳиндистон, қайсидир маънода, Марказий Осиёга кириб келиш ва ушбу минтақада ўз мавқеини кучайтиришга бошқа буюк давлатлар, хусусан, Россия ва Хитойга қараганда кеч киришган бўлса-да, айрим соҳаларда жуда катта салоҳиятга эга. Айниқса, маданий-гуманитар соҳада ўзининг “юмшоқ кучи”дан минтақада унумли фойланиши учун Ҳиндистоннинг анча катта имкониятлари мавжуд.

REFERENCES

1. Мирзиёев Ш.М. Интеграция ва ҳамкорлик йўлидаги янги имкониятлар // Миллий тикланишдан — миллий юксалиш сари. 4-жилд. — Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2020. — Б. 267.
2. Сайфуллаев Д.Б. Ўзбекистон Республикаси маданий дипломатиясининг шаклланиши ва ривожланиши. Тарих фан. доктори (DSc) дисс. ... Автореф. — Тошкент: 2020. — Б. 5.
3. Wood C. India’s Soft Power at Play in Central Asia. August 23, 2018. // URL: <https://thediplomat.com/2018/08/indias-soft-power-at-play-in-central-asia>
4. Martand Jha. India’s Connect Central Asia Policy. December 02, 2016. // URL: <https://thediplomat.com/2016/12/indias-connect-central-asia-policy-2/>
5. India-Central Asia. 2021. <https://www.insightsonindia.com/international-relations/bilateral-regional-and-global-groupings-and-agreements-involving-india-and-or-affecting-indias-interests/india-central-asia/>
6. Wood C. India’s Soft Power at Play in Central Asia. August 23, 2018. // URL: <https://thediplomat.com/2018/08/indias-soft-power-at-play-in-central-asia>
7. Indian Cultural Centre. Embassy of India — Astana, Kazakhstan, accessed May 31, 2018. // URL: <https://www.indembastana.gov.in/page/icc/>
8. India-Kazakhstan relations. Ministry of External Affairs — Government of India, last modified August 2017. // URL: http://www.mea.gov.in/Portal/ForeignRelation/Bilateral_Brief_India_Kazakhstan_Aug_2017.pdf
9. P.India’s Economic Opportunities in Central Asia. September 17, 2018. // URL: <https://idsa.in/policybrief/indias-economic-opportunities-in-central-asia-pstobdan-170918>
10. P.India’s Economic Opportunities in Central Asia. September 17, 2018. // URL: <https://idsa.in/policybrief/indias-economic-opportunities-in-central-asia-pstobdan-170918>

11. Festival of India in Kazakhstan. Ministry of Culture — Government of India, last accessed June 19, 2018. // URL: <http://www.indiaculture.nic.in/festival-india-kazakhstan>
12. Festival of India in Kazakhstan. Ministry of Culture — Government of India, last accessed June 19, 2018. // URL: <http://www.indiaculture.nic.in/festival-india-kazakhstan>
13. India-Central Asia. 2021. <https://www.insightsonindia.com/international-relations/bilateral-regional-and-global-groupings-and-agreements-involving-india-and-or-affecting-indias-interests/india-central-asia/>
14. India-Central Asia. 2021. <https://www.insightsonindia.com/international-relations/bilateral-regional-and-global-groupings-and-agreements-involving-india-and-or-affecting-indias-interests/india-central-asia/>
15. India-Tajikistan relations. Ministry of External Affairs — Government of India, last modified January 2016, // URL: https://mea.gov.in/Portal/ForeignRelation/Tajikistan_Jan_2016_english.pdf
16. India-Central Asia. 2021. <https://www.insightsonindia.com/international-relations/bilateral-regional-and-global-groupings-and-agreements-involving-india-and-or-affecting-indias-interests/india-central-asia/>
17. Sanjay Sharmal. Central Asia is best place to host centenary of Indian cinema next year. The Times of India, last modified April 1, 2012. // URL: <https://timesofindia.indiatimes.com/city/chandigarh/Central-Asia-is-best-place-to-host-centenary-of-Indian-cinema-next-year/articleshow/12494040.cms>
18. India-Tajikistan relations. Ministry of External Affairs — Government of India, last modified January 2016. // URL: https://mea.gov.in/Portal/ForeignRelation/Tajikistan_Jan_2016_english.pdf
19. India-Uzbekistan relations. Ministry of External Affairs — Government of India, last modified 2013. // URL: <https://www.mea.gov.in/Portal/ForeignRelation/Uzbekistan.pdf>
20. India-Uzbekistan relations. Ministry of External Affairs — Government of India, last modified 2013. // URL: <https://www.mea.gov.in/Portal/ForeignRelation/Uzbekistan.pdf>
21. Маматкулова Д. Ўзбекистон–Ҳиндистон ҳамкорлигидаги устувор йўналишларни ривожлантириш истиқболлари. 01.10.2018. // URL: <http://isrs.uz/uz/maqolalar/uzbekiston-indiston-amkorligidagi-ustuvor-junalislarni-rivozlantiris-istikbollari>
22. Маматкулова Д. Ўзбекистон–Ҳиндистон ҳамкорлигидаги устувор йўналишларни ривожлантириш истиқболлари. 01.10.2018. // URL:

<http://isrs.uz/uz/maqolalar/uzbekiston-indiston-amkorligidagi-ustuvor-junalislarni-rivozlantiris-istikbollari>

23. Ҳиндистон маданий алоқалар кенгаши билан ҳамкорлик кенгаймоқда. https://uza.uz/uz/posts/hindiston-madaniy-aloqalar-kengashi-bilan-hamkorlik-kengaymoqda_245398

24. Маматкулова Д. Ўзбекистон–Ҳиндистон ҳамкорлигидаги устувор йўналишларни ривожлантириш истиқболлари. 01.10.2018. // URL: <http://isrs.uz/uz/maqolalar/uzbekiston-indiston-amkorligidagi-ustuvor-junalislarni-rivozlantiris-istikbollari>

25. IT Park signed a memorandum with the Uzbek-Indian Center of Information Technologies. 2021-03-01. // URL: <https://www.it-park.uz/en/itpark/news/it-park-signed-a-memorandum-with-the-uzbek-indian-center-for-information-technologies-named-after-jawaharlal-nehru-at-the-tashkent-university-of-information-technologies-named-after-muhammad-al-khorazmiy>

26. India-Uzbekistan relations. Ministry of External Affairs — Government of India, last modified 2013, // URL: <https://www.mea.gov.in/Portal/ForeignRelation/Uzbekistan.pdf>

27. Subhash Kumar Baitha. India-Kyrgyzstan relations: future prospects and challenges. International Journal of Applied Social Science 2, No. 9–10 (2015): 316.

28. Orakbayeva U., and Medeubayeva Zh. “Historical and cultural links between Kyrgyzstan and India” (2016): 112. // URL: http://shodhganga.inflibnet.ac.in/bitstream/10603/119852/9/09_chapter%204.pdf

29. India-Central Asia. 2021. <https://www.insightsonindia.com/international-relations/bilateral-regional-and-global-groupings-and-agreements-involving-india-and-or-affecting-indias-interests/india-central-asia/>

30. Joint statement between Turkmenistan and India during the prime minister’s visit to Turkmenistan. Ministr of External Affairs–Government of India, last modified July 11, 2015. // URL: [http://www.mea.gov.in/bilateraldocuments.htm?dtl/25456/Joint Statement between Turkmenistan and India during the Prime Ministers visit to Turkmenistan](http://www.mea.gov.in/bilateraldocuments.htm?dtl/25456/Joint%20Statement%20between%20Turkmenistan%20and%20India%20during%20the%20Prime%20Ministers%20visit%20to%20Turkmenistan)

31. India-Central Asia. 2021 // URL: <https://www.insightsonindia.com/international-relations/bilateral-regional-and-global-groupings-and-agreements-involving-india-and-or-affecting-indias-interests/india-central-asia/>

32. India-Central Asia relations: Growing convergence brings relations to strategic heights. January 11, 2022. <https://www.orfonline.org/expert-speak/india-central-asia-relations/?amp>

33. Ramakrushna Pradhan. India's Soft Power in Central Asia: Why it Must Act on the Look North Policy. Mainstream, VOL LIII No 29 New Delhi July 11, 2015. // URL: <http://www.mainstreamweekly.net/article5792.html>

ФИЛОСОФСКО-ИСТОРИЧЕСКАЯ РЕКОНСТРУКЦИЯ ГУМАНИСТИЧЕСКОЙ ПАРАДИГМЫ НАУКИ В КОНТЕКСТЕ ФИЛОСОФИИ АЛИШЕРА НАВОИ

Иззетова Эмине Мустафаевна

доктор философских наук, профессор, Ташкентский государственный
университет востоковедения

АННОТАЦИЯ

В статье проведен ретроспективный анализ гуманистической парадигмы познания, науки, научного знания, которая реализована в творческом наследии А.Навои. Показана взаимосвязь процесса познания, научного знания, с экзистенциалами бытия человека: любовь, свобода, творчество, духовность, благо, воля, выбор. В формировании уникальности человеческой личности, в разрешении противоречий между человеческим внутренним миром и социальной средой, проблем внутреннего выбора, поиска человеком своего внутреннего «Я» и места в жизни А.Навои особое место отводит созидательной деятельности, науке и этическим ценностям.

Ключевые слова: наука, гуманистическая парадигма, научные знания, этические экзистенциалы, совершенная личность, разум, суфизм, любовь, истин, «мысль сердца», творчество

ANNOTATSIYA

Maqolada A.Navoiy ijodiy merosida amalga oshirilayotgan bilish, ilm-fan, ilmiy bilishning gumanistik paradigmasi retrospektiv tahlil qilingan. Bilish jarayoni, ilmiy bilish va inson borligining ekzistensiallari o'rtasidagi munosabat ko'rsatilgan: sevgi, erkinlik, ijodkorlik, ma'naviyat, yaxshilik, iroda, tanlov. Inson shaxsiyatining o'ziga xosligini shakllantirishda, inson ichki dunyosi va ijtimoiy muhit o'rtasidagi ziddiyatlarni, ichki tanlov muammolarini hal etishda, insonning o'z ichki "men"ini, hayotdagi o'rnini izlashda A.Navoiy alohida o'rin tutadi. ijodiy faoliyatga, ilmiy va axloqiy qadriyatlariga.

Kalit suzlar: ilm, gumanistik paradigma, ilmiy bilim, axloqiy ekzistensiallar, komil shaxs, aql, tasavvuf, ishq, haqiqatlar, "qalb fikri", ijod

ABSTRACT

The article provides a retrospective analysis of the humanistic paradigm of cognition, science, scientific knowledge, which is implemented in the creative heritage of A. Navoi. The relationship between the process of cognition, scientific knowledge, and the existentials of human existence is shown: love, freedom, creativity, spirituality, good, will, choice. In the formation of the uniqueness of the human personality, in resolving contradictions between the human inner world and

the social environment, problems of internal choice, a person's search for his inner "I" and place in life, A. Navoi gives a special place to creative activity, science and ethical values.

Key word: *science, humanistic paradigm, scientific knowledge, ethical existentials, perfect personality, reason, Sufism, love, truths, "thought of the heart", creativity*

ВВЕДЕНИЕ

Гуманизация науки в XXI веке приобретает важное методологическое значение в процессе интеграции различных отраслей знания вокруг комплексного изучения природы, человека и общества, в поиске смысла исторического процесса, его человеческой обусловленности. Современное информационно - цифровое общество как никогда остро осознает необходимость признания « благоговения перед любой жизнью» как принципа уважения не только прав любого человека, но и прав на жизнь всей природы в самом широком смысле слова. Гуманистическая трансформация научного сообщества направляет свой взор на ноосферное сознание, общество знания, постнеклассическую модель науки, на углубление и расширение знания и нравственных норм во всех сферах жизнедеятельности человека. Основные нормы и принципы морали (добро, справедливость, счастье, трудолюбие, терпение, гуманизм, честность, любовь) получили свое развитие в творчестве великого поэта - гуманиста Алишера Навои.

Вопросы гуманизации науки, социально-этических оснований человеческого бытия привлекали внимание как восточных, так и западных мыслителей. Философы Центральной Азии (ал-Хорезми, ал-Фараби, Беруни, Ибн Сина, Алишер Навои) разработали стройную концепцию о нравственно-гуманистических нормах развития научного познания. Они считали, что такой подход является неотъемлемым элементом развития науки. Хотя следует признать, что эти вопросы в том время не вставали перед человечеством в столь остром качестве проблемы его непосредственного бытия. Глубокие изменения, наметившиеся во взаимодействии науки и общества, требуют глубокого исследования данной проблемы, в первую очередь с позиций гуманизма, с точки зрения ее ценностных смыслов.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДЫ

Общеметодологический круг вопросов исследования получил достаточно глубокую разработку в мировой философско-методологической и научной литературе, выполненной в контексте арабо-мусульманской и западной и

философско-культурной парадигмы. Философско-методологические аспекты проблемы рассмотрены в научных исследованиях Ф. Роузенталя, Е.Э.Бертельса, Р.О.Баходиров, М.Н.Абдуллаевой, К.Назарова, Н. Комилова, М.Арипова, Ж.Холмуминова, Ш.Ш.Агзамходжаевой, М. Меликовой, Б.А.Тилляева, Для достижения научной цели и решения поставленных задач были использованы такие методы, как: философско-историческая реконструкция, аналитический - синтетический, сравнительно-исторический, философско-герменевтический, идеографический, системный подход.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Во все времена и эпохи концепции, теории науки должны быть этически соразмерными, соотнесенными с гуманистическими ценностями, «человекообразными». Культурное, гуманистическое значение фундаментальной науки, включающей философские и этические компоненты, делают ее необходимой для человечества. Эти параметры науки сформировались еще в древности. Решение этих проблем мы находим в трудах мыслителей средневекового Возрождения Центральной Азии. Одной из особенностей рассматриваемого периода было то, что нравственность человека являлась центральной проблемой в их исследованиях. Так, например, Алишер Навои был глубоко убежден в том, что наука, научные знания способствуют развитию лучших нравственных качеств ученых, которые в конечном итоге ведут к духовному совершенству, к развитию таких составляющих этой сферы, как интеллект, разум, сознание, мышление, психика, нравственность, воля, вера и т.д. «...Знания приобретаются, чтобы веру укреплять, а не для того, чтобы богатства наживать...ученый, не действующий по закону, - это тучи, не приносящие дождя».⁷⁵

Особое внимание А.Навои уделял формированию духовно-интеллектуального облика молодежи, с высокоразвитым интеллектом, владеющего языками, наделенного лучшими человеческими качествами. Мыслитель считал, что в этом процессе особая роль должна принадлежать разуму, науке, знаниям. Жизненное кредо А.Навои «Знание и мудрость - украшение человека» является ориентиром для современной молодежи, нового поколения молодых ученых. В сложном динамично развивающемся мире эта проблема приобретает особую ценность⁷⁶. Знание – необходимый компонент духовного мира личности, включающий в себя стремление к

⁷⁵ Навои А. Возлюбленный сердце / Собр.соч.: В 10 – ти т. Т.10. – Ташкент: Фан, 1970. – С.81.

⁷⁶ Манурова Р.У. Великие мыслители Средней Азии о воспитании гармоничного и всесторонне развитого поколения// Проблемы педагогики. – 2016. -№ 2 (13). - С. 17- 20.

совершенствованию посредством учения и образования. Приобретение знания отождествляется исключительно с категорией счастья и ведет к достижению наивысшего нравственного самосовершенствования и достоинства. Любое улучшение общественного положения человека зависит от уровня его знания и не должна зависеть от богатства, преимущества рождения, социального положения и т.д. В этой социальной среде ни мораль, ни благополучие, ни действие, никакая другая из общественных ценностей не пользуется такой же долей внимания, как «знание». В концепции А.Навои знание связано с личностью, с внутренними чувствами, с духовным миром человека, этическими экзистенциями.

Значимость знания определяется, прежде всего, его местом и ролью в нравственном совершенствовании личности и общества в целом. Ценность знания определяется тем, служит ли оно добру или способствует процветанию зла, падению нравов. Наука – это ключ к подлинному существованию и препятствие на пути неподлинного бытия. Да, действительно, наука должна служить благу. Это особенно важно в настоящее время. Решение научно-технических задач должно имплицитно включать в себя гуманистические идеалы, ибо в противном случае она же приведет к негативным последствиям, угрожающим, природе, здоровью человека, то есть планете в целом. С этой точки зрения представляет особый научный интерес постановка и решение данной проблемы в творчестве А.Навои.

В духовном мире человека А. Навои уделяет особое внимание разуму, апелляция к которому дает возможность обосновать ценность и высокую степень совершенства человека. Вместе с тем разум служит также обоснованию идеи утверждения приоритета духовного начала, где он играет роль вспомогательного фактора в непрерывном самосовершенствовании человека. В этом плане разум выполняет регулирующую, контролирующую функцию, ограничивая действия человека и помогая ему преодолевать страсти души, отрицательные наклонности. А.Навои считал, что человек познает самого себя, окружающий мир благодаря силе своего разума, способности мыслить:

„Дороже всех богатств, Тебе дана
Бесценная жемчужина одна;
И это - разум. Не сравниваться с ним
Рубинам и алмазам дорогим.
В жемчужине земного бытия
Заклучена жемчужина твоя.
В ней дар познания тайн и высоты,

Вот чем при жизни удостоен ты!».⁷⁷

Главной целью каждого государства, общества являются интересы человека, его счастье. И для того, чтобы быть счастливым, человек, согласно А.Навои, должен всемерно проявлять интерес к земной жизни, использовать и подчинять себе силы природы, трудиться и заниматься самосовершенствованием. Для достижения совершенства человек должен изучать науки. Этот процесс требует настойчивых интеллектуальных усилий, научно-философского постижения мира.

«Друг! Если хочешь к цели ты дойти

И море знаний в мире приобрести,

На путь исканья бодро поспеши!

Надежда – свет взыскующей души.

Чтоб стать ученым, молод ты иль стар,

Условья: воля добрая и дар»⁷⁸.

Кто исполняет все, что обещал,

Тот обретает все, что пожелал.

Ты слово дал – так сохрани его,

Как заповедь пророка самого».⁷⁹

А.Навои в характеристику подлинно разумного, духовно-нравственно развитого человека включает этические категории: искренность, честность, следование нравственной чистоте, цельность, ответственность. Он осознавал, что эти категории выступают ценностно-этическими экзистенциалами жизнедеятельности человека⁸⁰, а так же являются важными факторами развития научного знания. Среди разнообразных ценностных форм психики человека важнейшее значение имеет «воля добрая», сознательная саморегуляция субъектом своей деятельности, проявляющаяся как целеустремленность, решительность, самообладание. Воля является источником осуществления нравственных принципов, основой практической деятельности человека.

Человеческий разум в процессе познания сущего совершенствуется сам и приходит к познанию высшей истины. Поэтому А. Навои рассматривает научное знание в неразрывном единстве с духовно - нравственным совершенством человека. Однако для приобретения знания требуются не

⁷⁷ Навои А. Смятение праведных// Собр. Соч.: В 10 т. Т.3. – Ташкент: Фан, 1968. – С. 208.

⁷⁸ Навои А. Стена Искандера. // Собр.соч.: В 10т. Т.7. - Ташкент: Фан, 1968. – С.156.

⁷⁹ Навои А. Стена Искандера. // Собр.соч.: В 10т. Т.7. - Ташкент: Фан, 1968. - С.255.

⁸⁰ Новикова Е.С. Экзистенциалы человеческого бытия как предмет этического анализа. Автореф. к.филос.н.-Тула, 2007. - <https://www.dissercat.com/content/ekzistentsialy-chelovecheskogo-bytiya-kak-predmet-eticheskogo-analiza>

только трудолюбие, но и определенные нравственные качества - скромность, терпение (сабр), довольство малым (каноат), благовоспитанность. Терпение – это основа жизнедеятельности человека, поэтому этому принципу большое значение придавалось в философии суфизма, к которому проявлял повышенный интерес А.Навои. В своем произведении «Возлюбленный сердец» поэт-философ дает следующее объяснение: «...Терпение это означает переносить все трудности к истине, вынести все слышанное и виденное, как бы оно ни было горько... Оно – путь к решению задач. Оно – спутник докучный, который до цели доведет...»⁸¹. Вместе с тем в науке необходимо воздержание от надменности, гордости: «Человек, который не скрывает своего незнания, расспрашивает обо всем, со временем станет ученым, а тот, кто из гордости не обращается к другим, вредит сам себе. Постоянно накапливая знания, человек становится мудрым. Знание подобно реке, образующейся из ручейка... Кто своим трудом приобретает знание, тот станет мудрым. Кто лишает себя знания, тот в народе слывет своевольным невеждой. Кто прилагает усилие и старание в приобретении знания, тот станет в мире (знатным) и ученым»⁸². Ученого не украшают такие качества, как невежество, не компетентность, высокомерие, надменность по отношению к другим людям, не уважительное отношение к чужому мнению, так как он считает себя носителем истины в последней инстанции. «Поистине, нет ничего злосчастнее невежества. Какая глупость быть самодовольным! Какое несчастье быть самоуверенным!»⁸³. Для А.Навои гуманистический идеал - это совершенный человек (ал камил инсон), воплощающий в себе единство интеллектуального и нравственного совершенства.

В произведениях А.Навои нашли отражение и представления о диалектическом развитии мира всего сущего. Все существующие предметы и явления диалектически взаимосвязаны, все возникающие вещи причинно обусловлены, базируются на принципе детерминизма, зависят друг от друга. Все материальные системы мира подвергаются изменению, они постоянно обновляются, движутся и совершенствуются, поэтому, заключает Навои, разум из-за этих перемен и изменений не в состоянии познать всего⁸⁴.

«Все изменяется, всему пора,

Сегодня не похоже на вчера.

Но разум – хоть не может знать всего, -

⁸¹ Навои А. Возлюбленный сердец / Собр.соч.: В 10 – ти т. Т.10. – Ташкент: Фан, 1970. – С.56.

⁸² Навои А. Возлюбленный сердец. – М.- Л., 1948. – С.146.

⁸³ Навои А. Возлюбленный сердец / Собр.соч.: В 10 – ти т. Т.10. – Ташкент: Фан, 1970. – С. 71.

⁸⁴ Тилляев, Б. А. Рационалистический характер этики в Средней Азии и Иране в XIV-IV вв. / Б. А. Тилляев. - Текст : непосредственный // Молодой ученый. - 2017. № 14 (148). - С. 749-752.

Он лучше, чем отсутствие его»⁸⁵.

Благодаря силе разума человек способен раскрыть глубокие тайны природы. Только познавая тайны природы, устанавливая истину, можно решать практические задачи. Любое действие не может быть без знания.

«Пусть трудно сущность атома понять,
Пусть невозможно истину познать
Когда стремленье явит разум твой,
Ты мир чудес откроешь пред собой»⁸⁶.

Выдающий поэт, философ, видевший мощь разума и пороки безнравственности, считал, что нравственные свойства человека превыше всего, они определяют его деятельность в обществе, его взаимоотношения с другими людьми, а моральные требования и предписания во многом определяют успехи в научно-познавательном процессе. Современная тенденция развития научного познания свидетельствует о том, что субъект познания вовлеченный в виртуальное пространство, в поле искусственного интеллекта, отдает предпочтение рационализации и целесообразности. В этой ситуации на второй план уходят ценностные, этические ориентиры науки и научной деятельности.

Стремление великого гуманиста к нравственности, понимание ее значения в развитии общества обратило его внимание на суфизм⁸⁷, поскольку в нем созданы учения, ведущие к нравственному очищению человека, пути достижения высокой нравственности и истины. Суфизм оставляет человека наедине с совестью, заставляет думать о себе, самосовершенствоваться, воспитывает в духе справедливости и нравственной чистоты.

Соотношение нравственности и познания - это одна из вечных проблем философии. История развития науки, если вспомнить создание атомной и водородной бомбы, современную генную инженерию, экологическую ситуацию, биотехнологии, нанонаучные исследования и т.д., свидетельствует об ее актуальности на всех этапах развития человеческой цивилизации. Представляется, что суфизм не только обратил внимание на проблему взаимоотношения гуманистических идеалов и науки, но и создал свою концептуальную конструкцию. Ступени познания связаны со ступенями постижения Истины: шариат, тарикат, маърифат, хакикат. По мере восхождения к Истине суфий все более и психически, и нравственно

⁸⁵ Навои А. Стена Искандера. // Собр.соч.: В 10т. Т.7. - Ташкент,: Фан, 1968. - С.263.

⁸⁶ Навои А. Стена Искандера// Собр.соч.: В 10т. Т.7. - Ташкент: Фан, 1968. – С. 153.

⁸⁷ См.: Комилов Н. Тасаввуф. – Ташкент: Ёзувчи, 1996. - С. 176; Арипов М. Гуманизм Алишера Навои. – Ташкент: Узбекистан, 1991. – С. 24.

приближается к тому состоянию, когда у него появляется предсказательное (кармат) свойство, когда ему открываются божественные, необычные, сверхъестественные явления. Вот именно на этой ступени человек только при помощи разума не может познавать божественный мир. И здесь необходима интуиция, свойственная только избранным (орифам), которые приобретаю способность предвидения (кармат).

Идеи суфизма открывали большие возможности для человеческого мышления, для свободы, простора человеческой мысли, для самосознания человека. И вместе с тем была поставлена проблема познания мира. Она не сводилась лишь к одному разуму, а представляла собой сложную систему, высшим элементом которой является интуиция. Мы не должны исходить из того, что объективно существующий мир исчерпывается только миром материальной эмпирической действительности. Сущность суфизма, «занявшего место в сердце народа, выражается в идеалах Честности, Истины, Красоты, Совершенства, в идеях Гуманизма, которые дали вдохновение великим ученым, писателям, литераторам»⁸⁸.

В основе любого ценностного знания лежит деление явлений на благоприятные (полезные) и неблагоприятные (вредные). Этот же общий знаменатель (польза - вред) мы обнаружим при историческом подходе к таким человеческим ценностям, как свобода, истина, счастье, любовь, добро, справедливость. Тут естественным образом на передний план выходят эмоциональная окраска, чувственная неповторимость переживания, радость, счастье, смысл жизни, т.е. речь идет о экзистенциальных составляющих существования человека. Каждая из духовных ценностей настолько своеобразна и несводима к чему бы то ни было, что никакие логические операции приблизить нас к постижению этого качественного своеобразия не в силах. Ведь мы живем не в абстрактном мире, а в мире очеловеченном. Этот мир имеет свою цветовую палитру, которая связана с нашим отношением к нему. Мы воспринимаем мир через сознание, а оно, как известно, соткано из опыта взаимоотношений с явлениями жизни, диалогов с природой, человека с человеком, из человеческих смыслов, из стремлений познать самого себя, постичь истину.

«Тому, кто хочет истину познать,
Нет нужды далеко ее искать.
Она с тобою всюду. Нет причин
Идти за нею в отдаленный Чинг...

⁸⁸ Комилов Н. Тасаввуф. – Ташкент: Ёзувчи, 1996. – С.19.

И тот, кто хочет смысл найти во всем,
Найдет ответ на все в себе самом.
Ища познания – по миру блуждай,
Но чтобы все познать – себя познай»⁸⁹.

Жизнь есть любовь, добро, счастье, удивление. Любовь движет истиной. А.С. Пушкин писал: «Нет истины, где нет любви!». Философия любви занимает достойное место в творчестве А. Навои. Любовь выступает как составной элемент гуманистического идеала, гармонично развитой личности, творческого поиска истины. Любовь, по Навои, есть путь благородства и мужества, испытание верности и дружбы, горение сердца и непрерывное движение от одной цели к другой, проявление человеком всех своих способностей и духовных качеств. Для этой любви свойственны три качества: во-первых, жертвенность, идея самопожертвования во имя высшего блага, сочетание борьбы за личное счастье с необходимостью борьбы с социальным злом; во-вторых, она требует нравственной чистоты, очищения сердца от дурных наклонностей, сочетания знания с нравственным совершенствованием; в-третьих, любовь выступает как объединяющее социальное начало, соединяя в себе красоту и добродетель, укрепляет разум и волю⁹⁰.

Любовь в творчестве А. Навои выступает как широкая социально-философская, этико - эстетическая категория, духовная ценность, которая представляет собой направляющую и организующую силу человеческой деятельности - интеллектуальной, нравственной, художественно-эстетической, воспитательной, физической и т.д. А.Навои, отмечал, что красота – это тайна мироздания, а любовь – это средство постижения красоты. Встреча с внутренним существованием мира возможна только в состоянии любви. «Мысль разума», которой дана лишь внешняя сторона предмета, всегда должна сопровождаться «мыслью сердца». «Сердце» не есть некая отдельная инстанция, противоположная разуму, она есть целостность внутреннего бытия, одним из излучений которого может быть и разум. Сердце противостоит лишь отрешенному, оторванному от этой целостности разуму. То, что не дано сердцем, вообще не дано в точном смысле слова, не затрагивает человека и, в конечном счете, делает невозможным объективное познание. Отношение к окружающему миру через «мысль сердца» есть отношение любви.

Проблеме философии любви как гуманистической ценности уделяли много внимания философы последующих эпох. В своих концепциях мыслители

⁸⁹ Навои А. Стена Искандера// Собр.соч.: В 10т. Т.7. - Ташкент: Фан, 1968. –С. 312, 14.

⁹⁰ Арипов М. Гуманизм Алишера Навои. – Ташкент: Узбекистан, 1991. – С. 98 – 99.

подчеркивали приоритет любви над теоретическим научным знанием. Любовь не только конституирует человека как личность, но и является средством более глубокого, а потому и более точного открытия – реальности. Так, например, А.Ф. Лосев, комментируя Платона, писал: «Любящий всегда гениален, так как открывает в предмете своей любви то, что скрыто от всякого нелюбящего... Творец в любой области. В личных отношениях, в науке, в искусстве, в общественно-политической деятельности всегда есть любящий; только ему открыты новые идеи, которые он хочет воплотить в жизнь и которые чужды нелюбящему»⁹¹.

ВЫВОДЫ

Мыслители Центральной Азии уже в те далекие времена теорию знания связывали с личностью, духовным миром человека, экзистенциальной составляющей бытия человека. А.Навои гуманистическую модель знания рассматривал через призму суфизма. Научно-философская концепция ученого характеризуется близостью к современной интерпретации мыслительного процесса, научного познания, глубоким пониманием роли науки в социальном прогрессе. Современная наука претерпевает фундаментальные изменения, вызванные социокультурными преобразованиями. Меняется облик науки, ее место в информационном - цифровом обществе. Здравый смысл нам подсказывает, что познавательный процесс не может быть ограничен чисто логическим развитием знания, в нем важна и субъективная, духовно - ценностная составляющая. По-новому осмысливаются ее задачи, функции, способы и методы взаимодействия с окружающим миром. В связи с переходом науки на постнеклассический этап развития, идет активный процесс формирования гуманистической парадигмы науки, рационально-этические предпосылки которой, на наш взгляд, были заложены великим ученым, философом А.Навои.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (REFERENCES)

1. Арипов М. Гуманизм Алишера Навои. – Ташкент: Узбекистан, 1991. – 242с.
2. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – 272б.
3. Лосев А.Ф. Вступительная статья к первому тому сочинений Платона /Платон. Сочинения.- М.: Мысль, 1968. Т.1. – 63бс.
4. Меликова М. Вопросы исторического познания в духовном наледии

⁹¹ Лосев А.Ф. Вступительная статья к первому тому сочинений Платона/ Платон. Сочинения. - М.: Мысль, 1968. Т.1. - С.70.

- А.Навои //Жамият ва инновациялар. Общество и инновации. 2021. №2. – С.94 – 98.
5. Навои А. Смятение праведных // Собр. Соч.: В 10 т. Т.3. – Ташкент: Фан, 1968. – С. 208.
6. Навои А. Стена Искандера. // Собр.соч.: В 10т. Т.7. - Ташкент: Фан,1968.- С.255.
7. Навои А. Возлюбленный сердец. – М.- Л., 1948. – С.146.
8. Новикова Е.С. Экзистенциалы человеческого бытия как предмет этического анализа. Автореф. к.филос.н.-Тула,2007.- <https://www.dissercat.com/content/ekzistentsialy-chelovecheskogo-bytiya-kak-predmet-eticheskogo-analiza>
9. Тилляев, Б. А. Рационалистический характер этики в Средней Азии и Иране в XIV-IV вв. / Б. А. Тилляев. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. -2017. № 14 (148). - С. 749-752. - URL: <https://moluch.ru/archive/148/41662/> (дата обращения: 06.02.2022).

MUHANDISLIK TAFAKKURINING IJTIMOIIY VA FALSAFIY BILIMLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI

Salimov Baxriddin Lutfullaevich

Toshkent davlat transport universiteti professori v.b.

Buriboyev Behruz Baxtiyor o'g'li,

Oydinov Saidakbar Sayidin o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Muhandislik tafakkuri yaxshi rivojlangan tasavvurga asoslanishi va turli xil fikrlash turlarini o'z ichiga olishi kerak: mantiqiy, ijodiy, vizual-majoziy, amaliy, nazariy, texnik, fazoviy va boshqalar. Ularning asosiylari ijodiy, vizual-majoziy va texnikdir. Muhandislik tafakkuri - bu muammoni bir butun sifatida turli tomonlardan ko'rish, uning qismlari orasidagi bog'lanishlarni tahlil qilish imkonini beruvchi tizimli ijodiy texnik fikrlashdir.

Kalit so'zlar: muhandislik, tafakkur, texnika, tajriba, mantiqiy, ijodiy.

ABSTRACT

Engineering thinking should be based on a well-developed imagination and include different types of thinking: logical, creative, visual-metaphorical, practical, theoretical, technical, spatial, etc. The main ones are creative, visual-figurative and technical. Engineering thinking is a systematic creative technical thinking that allows you to see the problem as a whole from different angles and analyze the connections between its parts.

Key words: engineering, thinking, technique, experience, logical, creative.

KIRISH

“Muhandislik tafakkuri” hodisasi ko'pgina fanlarning: falsafa, psixologiya, pedagogika, gumanitar va texnika fanlarining o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Ijodiy muhandislik muammolarini hal qilishning haqiqiy tajribasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, muhandislik tafakkurining asosi quyidagilardan iborat: bu yuqori darajada rivojlangan ijodiy tasavvur; fantaziya, bilimlarni ko'p ekranligini tizimli ijodiy tushunish; ishlab chiqarish jarayonini ongli ravishda boshqarishga imkon beradigan texnik ijodkorlik metodologiyasi; yangi g'oyalarga ega bo'lish.

Muhandislik fikrlashi qanday bo'lishi kerak? U qanday fikrlashni o'z ichiga olishi kerak? Unga qanday fikrlash turlari kiritilishi kerak?

Muhandislik tafakkuri yaxshi rivojlangan tasavvurga asoslanishi va turli xil fikrlash turlarini o'z ichiga olishi kerak: mantiqiy, ijodiy, vizual-majoziy, amaliy,

nazariy, texnik, fazoviy va boshqalar. Ularning asosiylari ijodiy, vizual-majoziy va texnikdir. Psixologik kategoriya sifatida muhandislik tafakkuri konseptual-majoziy-amaliy tuzilishga ega. Muhandislik tafakkuri - bu muammoni bir butun sifatida turli tomonlardan ko'rish, uning qismlari orasidagi bog'lanishlarni tahlil qilish imkonini beruvchi tizimli ijodiy texnik fikrlashdir. Muhandislik tafakkuri bir vaqtning o'zida tizimni, supertizimni, quyi tizimni, ular o'rtasidagi va ichidagi aloqalarni ko'rishga va ularning har biri uchun - o'tmishni, hozirgi va kelajakni bashorat qilish imkonini beradi. Boshqacha qilib aytganda, muhandislik fikrlashi ko'p qirrali bo'lishi kerak. Muhandis qancha ko'p bilimga ega bo'lsa, shunchalik original va sodda yechim taklif qila oladi. Bunday ko'p ekranli ko'rishning o'ziga xos xususiyati - ularda yashiringan texnik qarama-qarshiliklar va jismoniy qarama-qarshiliklarni aniqlash va bartaraf etish yo'llarini ochadi. Shu bilan birga maqsadli ravishda paradoksal g'oyalarni yaratadi. Muhandislik tafakkurining xususiyatlariga quyidagilar kiradi: texnik qarama-qarshilikni aniqlash va ongli ravishda fikrni ideal yechimga yo'naltirish qobiliyati, bunda ob'ektning asosiy vazifasi o'z-o'zidan, ortiqcha kuch va pul sarflamasdan ish bajarish; texnik tizimlarning rivojlanish qonuniyatlari nuqtai nazaridan fikrni eng istiqbolli yo'nalishga yo'naltirish; psixologik omillarni nazorat qilish qobiliyati; ongli ravishda ijodiy tasavvurni kuchaytirish.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Muhandislik tafakkuri, shuningdek, g'oyani ongli ravishda va maqsadli ravishda yaratgan holda, sub'ektga uning dizaynini ishlab chiqish zarurligini his qilishi bilan tavsiflanadi. Bunda g'oya yangi texnika, texnologiya va boshqalarning haqiqiy loyahasiga aylantiriladi. Demak, texnik universitetning global vazifasi talabalarda tizimli ijodiy muhandislik tafakkurini rivojlantirishdan iborat bo'lib, buning uchun ongli va maqsadli ravishda nostandart texnik g'oyalarni yaratish qobiliyatiga qo'shimcha ravishda, ijodkorlik metodologiyasini o'zlashtirish kerak bo'ladi. Mashinasozlik va texnologiya sohasidagi umumiy ilmiy va maxsus kasbiy bilimlar bazasidan optimal foydalanish ham shular jumlasiga kiradi.

Amaliy muammolarni hal qilishda ilmiy bilimlar amaliyotning turli sohalariga kiritiladi. Bunday faoliyatning xususiyati uning ijodiy xususiyatidir. Diqqat markazi insonga, uning ijodiy aqliy faoliyatiga qaratiladi. Ilmiy ijod va ilmiy tafakkur mavzulari azaldan olimlar, faylasuflar va psixologlarning e'tiborini o'z tortib kelgan. Ushbu tadqiqotlarda muhim o'rinni amaliy savolga javob izlash egallaydi. Muammolarni qanday hal qilish kerak. Bilimlarni rasmiylashtirish va bilimlar bilan ishlashning rasmiylashtirilgan usullaridan foydalanish, ishonchlilik va xatolar muammosini bartaraf etishning eng kuchli vositasi hisoblanadi.

Yangi paydo bo'lgan savollarga javob izlashda bilimlarning mazmuni emas, balki insonning aqliy jarayonlari, ularning tashkil etilishi va natijalarining sifati alohida ahamiyatga ega. Ilmiy bilim va tajribani o'zida mujassam etgan sxemalar va umumiy tushunchalar fikrlash jarayonida yangi bilimlarni maqsadli yaratish uchun hamda mavjud bilimlarning sifatini oshirish uchun qo'llanilishi mumkin. Ilmiy faoliyat va loyihalash amaliyoti sohasidagi ijodiy muammolarni hal qilishda tizimli yondashuv shakllanadi. Tizimli yondashuv, bir tomondan, ilmiy bilimlar va muammolarni hal qilish usullariga, ikkinchi tomondan, bilimlarni ifodalash, uning sifatini baholash va bilimlarni yangi vazifalarga o'tkazish funktsiyalarini bajaradigan sxema-kontseptual fikrlashning psixologik mexanizmlariga asoslanadi. Juda xilma-xil muammolarni hal qilishda aylanma yondashuv asosida aqliy mexanizmlarning umumiyliigi mavjud. Ilmiy bilimlarni tashkil qilish va uzatishning asosiy vositalari kontseptual sxemalar va analogiyalar bilan birgalikdagi tushunchalar ekanligi aniqlanadi.

Vazifalar va muammolarning keng doirasi mavjud bo'lib, ularning o'ziga xosligi mavjud. Bu ularni hal qilishda inson omillarining muhim rolini belgilaydi va vazifalarga ijodiy xususiyat beradi. Ushbu muammolarni hal qilish insonning ishlashga ta'siri bilan bog'liq. Bunday muammolarni hal qilishda ilmiy bilim va tajribani taqdim etish, uzatishning aqliy mexanizmlari ularning sub'ektivligi, ishonchsizligi, shu bilan birga ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan ishlaydi. Doimiy usul va vositalar mavjud bo'lmaganda, biz mavjud bo'lgan bilimlardan yangi bilimlarni hosil qilamiz. Shaxs ilmiy bilim va tajribani o'z tafakkurida shunday tashkil qiladi va qo'llaydi. Muammolarni hal qilishda ob'ektiv yondashuv ratsionalizm normalari va an'alariga asoslanadi. Bu shuni anglatadiki, vazifalar ideal holda, aniq belgilab qo'yilgan bo'lishi kerak. Shuningdek, hal qilish usullari aniqlangan, asosli, kafolatlangan natijaga ega bo'lishi shart va muammoni hal qiluvchi muhandis ham mantiqiy fikrlashi lozim.

Muhandislik tafakkurining falsafiy tushunchasi, o'zida muqarrar ravishda ijtimoiylik tamoyillarini, uning o'ziga xosliklari va farqlarni aks ettiradi. Shuningdek, yaxshi shakllangan tizimlar, fan va ilmiylikning tubdan o'zgartiradigan zamonaviy falsafiy qarashlar ham kiradi. Muhandislik tafakkuri, texnika fanlari, muhandislik faoliyati va muhandislik fikrlash texnologiyalari bilan bog'liqdir. Fan va ijtimoiylikning yangi epistemologik, semiotik, topologik va boshqa bilimlar ham muhandislik tafakkurining shakllanishiga xizmat qiladi.

Muhandislik tafakkuri – kognitiv va instrumental darajada amalga oshiriladigan konstruktiv, ilmiy-nazariy, transformativ, ijodiy, ijtimoiy omillar sifatida tavsiflangan texnik ob'ektlar bilan faoliyatni ta'minlashga qaratilgan fikrlashdir.

Muhandislik tafakkurining xususiyatlari sifatida quyidagi mulohazalarni keltirish mumkin.

1. Muhandislik tafakkurining birinchi xossasi sifatida uning texnikaga oidligi alohida ta'kidlandi. Chunki u texnosferadagi inson faoliyati bilan belgilanadigan eng muhim o'ziga xoslikni aks ettiradi. Muhandislik tafakkurining ushbu xususiyati umumiy ta'lim va texnika bilimlardan tashkil topganligini anglatadi. Ushbu bilimlarning zamonaviy ishlab chiqarishda loyihalash, tashkiliy boshqaruv, ishlab chiqarish, texnologiya va tadqiqot faoliyati sohalarida qo'llash ko'nikmalari muhandislik tafakkurining asosini tashkil etadi. Maktab, kollej, universitet va texnik korxonada o'rtasidagi uzluksizlikni ta'minlaydigan mehnat, o'qitish tizimining yaratilishi muhandislik tafakkurini shakllantirish uchun xizmat qilishiga ishonchimiz komil.

2. Muhandislik tafakkuri konstruktivdir. Konstruktivlik deganda, texnik, moddiy, vaqt, energiya va boshqa resurslarni hisobga olgan holda tahliliy va real maqsadni qo'yish, unga adekvat texnik usullar va vositalarni tanlash, o'z harakatlarining ketma-ketligini rejalashtirish, uning darajasini aniqlash qobiliyati tushuniladi. Maqsadga erishish uchun, uni dialektik tuzatish, agar kerak bo'lsa, o'z vaqtida o'zgartirishlar kiritishni taqozo qiladi. Bu borada loyihalash texnologiyalari, texnik ijodkorlik tanlovlari va ko'rgazmalari samarali vosita hisoblanadi. Muhandislik tafakkurini shakllantirishda texnologiya va informatika kabi fanlar muhim rol o'ynashi mumkin.

3. Muhandislik tafakkuri ilmiy-nazariy bilim sifatida namoyon bo'ladi.

Ilmiy tafakkur olimlarning tadqiqotga va ularning natijalariga yondashishda yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi metodologik tamoyillarga muvofiq amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi. Bu xususiyat texnika bilan chambarchas bog'liq. Zamonaviy, jadal rivojlanayotgan texnosferada ma'lum mashinalar qurilmasining xususiyatlari to'g'risida yuqori ixtisoslashtirilgan bilimlar, ularni ishlatish qoidalari shu qadar tez eskiradiki, ular o'quv bosqichida ahamiyatsiz bo'lib qoladi. Umumiy, fundamental tabiatshunoslikka asoslangan fundamental bilimlar, aksincha, doimo dolzarb bo'lib qoladi. Ularning bilimlari ishlash printsipini, texnik yangiliklar qurilmasini tezda tushunishga va ularni kasbiy faoliyatingizda va kundalik hayotingizda samarali ishlatishga imkon beradi.

4. Muhandislik tafakkuri tevarak-atrofdagi olamning o'zgarishi bilan bog'liq. Modellarni yaratish bosqichida (chizmalar, diagrammalar, algoritmlar va boshqalar) moddiylikni mujassamlashtirishda ushbu modellarni haqiqat bilan aqliy aloqasiz amalga oshirish mumkin emas. Faoliyatni o'zgartirishning amaliy qobiliyatsizligi, shuningdek, fikrlashning o'zini pastligiga olib keladi. Bu real jarayonlarning borishini

intuitiv bashorat qilishning yo‘qligida, mantiqiy tuzilmalarda asosiy xususiyatlarni aniqlashning noto‘g‘riligi bilan bog‘liq xatolarning paydo bo‘lishida namoyon bo‘ladi.

5. Muhandislik fikrlashi ijodiydir. Ijodiy fikrlash har doim ob‘ektiv yoki sub‘ektiv yangi natijalarga olib keladi. Innovatsion fikrlash uchun ijodiy komponent eng muhim hisoblanadi. Ijodiy komponentsiz innovatsion fikrlash bo‘lmaydi. Muhandislik tafakkurida bu xususiyatni aniqlovchi deb atash mumkin emas. Ammo, shunga qaramay, uni ahamiyatsiz deb butunlay chiqarib tashlash noto‘g‘ri bo‘ladi. Zamonaviy muhandis, texnik sohadagi intellektual faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday ishchi kabi, doimiy ravishda kasbiy jihatdan takomillashib borishi lozim. Zamonaviy muhandis, texnik muammolarni hal qilishda ma‘lumotlarning ortiqchaligi, sharoitlarning noaniqligi va vaqt yetishmasligi sharoitida mustaqil ravishda qaror qabul qilishi kerak. Bunday sharoitda ko‘pincha mavjud algoritmlardan chetga chiqish kerak bo‘ladi. Bu ijodiy yondashuvsiz mumkin emas.

6. Muhandislik tafakkuri doimo ijodga qaratilganligi, uning motivatsiyasi insonparvarlik g‘oyalariga asoslanganligi, hal etilayotgan muammolarning ijtimoiy ahamiyatga egaligi (mehnat unumdorligi oshadi, mehnat sharoiti osonlashadi va hokazo) bilan tavsiflanadi. Biz muhandislik tafakkurining bu xususiyatini ijtimoiy ijobiy deb ataymiz. Bu sifatni shakllantirish uchun fizika tarixidan va texnik ixtirolar tarixidan, o‘quv jarayonida foydalanish zarur. Texnika bilan bog‘liq keng ko‘lamli xabarlar, tezislari, tadqiqotlar taklif qilinishi mumkin. Ixtirolarning inson hayotiga ta‘sirini yoritish, texnik innovatsiyalar sohasida professional faoliyat yurituvchi kishilar bilan uchrashuvlar, innovatsion korxonalariga ekskursiyalar uyushtirish ham yaxshi samara beradi. Axloqiy tarbiya doirasida tafakkurning bu xususiyatini shakllantirishda gumanitar fanlar: adabiyot, tarix, rus va chet tillari eng muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, muhandislik tafakkurini shakllantirish vazifalari faqat tabiiy fanlar va matematika fanlari doirasida hal etilmaydi, buning uchun barcha fanlar birlashtirish zarurligini alohida ta‘kidlash zarur.

Jamiyatning “postindustrial” davrga o‘tish sharoitida muhandislik va kasbiy pedagogikaning muhim yo‘nalishi bo‘lgan muhandislik pedagogikasi shakllandi. Muhandislik pedagogikasining mustaqil fanlararo fan sifatida tanlanishiga jamiyatning texnologik va iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi omil sifatida ta‘lim, fan va ishlab chiqarishni innovatsion rivojlantirishning murakkab global muammolarini hal etishning ob‘ektiv zarurati sabab bo‘ldi. Kerakli muammolarni hal qilishning tor empirik usuli oliy texnik ta‘limning sifat darajasini talab qiladigan fanni ishlab chiqarish va bilim iqtisodiyotining zamonaviy talablariga muvofiq rivojlantirishni ta‘minlamaydi.

XULOSA

Muhandislik ta'limi samaradorligini oshirish ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro ta'sirining chiziqli bo'lmagan jarayonlarini "boshqaruvchi" qonuniyatlarni o'rganishga ilmiy yondashuvni qo'llashni talab qiladi. Umumiy ilmiy nuqtai nazardan, muhandislik pedagogikasi - bu ta'limning "ajralmas uchligi"ning eng muhim quyi tizimi sifatida muhandislik kadrlari va oliy texnik maktab o'qituvchilarini tayyorlash tizimini ishlab chiqishni asoslash imkonini beradigan pedagogik nazariyadir. Muhandislik pedagogikasi metodologiyasi va muhandislik-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi ilmiy-tadqiqot faoliyatining strategiyasi bo'lib, ushbu yosh fanning rivojlanish istiqbollari belgilab beradi. Nazariy va eksperimental harakatlarni ma'lum darajada qo'llash asosida tizimli, izchil va maqsadga muvofiq ishlab chiqilgan usullarning kombinatsiyasi, o'zaro bog'liqligi ushbu fanning asosini tashkil etadi. "Muhandislik pedagogikasi" fanining o'rganish ob'ekti murakkabdir. U quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: fanlararo ko'p funktsiyali muhandislik faoliyati, zamonaviy sharoitda texnik oliy o'quv yurtlari o'qituvchilarining muhandislik-pedagogik faoliyati, "ta'lim-fan ishlab chiqarish" integral tizimining funktsional komponenti sifatida muhandislarni tayyorlashning pedagogik jarayoni. Muhandislik pedagogikasi predmeti - bu texnik fanlarni o'qitishni takomillashtirishga qaratilgan barcha narsa va o'qituvchi faoliyatining maqsadlari, mazmuni bilan bog'liq ta'lim shakllari hisoblanadi. Bugungi kun nuqtai nazaridan, muhandislik pedagogikasining o'rganish predmetini aniqlashtirish va konkretlashtirish mumkin. Uning nazariy qismi quyidagilardan iborat: 1) ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi muhim munosabatlar; 2) tez o'zgaruvchan tashqi muhitda muhandislarni innovatsiyalarga tayyorlashning nazariy asoslarini ishlab chiqish. Tizimdagi integratsiya jarayonlarini rivojlantirish bo'yicha nazariy g'oyalarni hisobga olgan holda, texnik fanlar o'qituvchilari va texnik universitetlar talabalarini innovatsion kasbiy faoliyat uchun tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o'z-o'zini tayyorlashning pedagogik tizimlarini ishlab chiqish, joriy etish va optimallashtirish talab etiladi. Muhandislik pedagogikasi muhandislik-texnik ta'lim va texnika fanlari o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini insonparvarlashtirish muammolarini hal qiladi. Ma'naviyat va fanlararo ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun undagi qo'yilgan kuchli imkoniyatlarni amalga oshiradigan ilmiy asoslangan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqadi.

REFERENCES

1. Салимов, Б. Л., Аъзамжонов, А. Б. Ў., & Қодиров, Ш. Қ. Ў. (2023). БИРДАМЛИК ВА ҲАМЖИҲАТЛИК–ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАРНИНГ

КЕЛАЖАГИДИР. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(3), 83-88.

2. Салимов, Б. Л. (2023). Ижтимоий муносабатларнинг шаклланиши ва барқарорлигини белгиловчи муҳим тамойиллар. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(3).

3. Lutfullaevich, S. B. (2023). The Importance of Sea Transport in the Communication System. *WEB OF SYNERGY: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(1), 272-275.

4. Lutfullaevich, S. B., Muradkabilovich, E. Z., & Abdurahimovich, S. A. (2023). The Influence of the Transport and Communication System on Social Relations. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(2), 209-212.

5. Lutfullaevich, S. B., Sheralievich, A. A., & Zafarovich, Z. D. (2023). Reforms in the Fields of Communication and Transport and their Social Impact. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(2), 227-230.

6. Салимов, Б. Л. (2022). Ўзбекистон тараққиётида коммуникация ва транспорт тизимининг ўрни. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 1), 403-407.

7. Салимов, Б. Л. (2022). ЖАМИЯТНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА ТАКОМИЛЛАШУВИДА БОШҚАРУВ ВА ТАРБИЯ САНЪАТИНИНГ ЎРНИ. *Academic research in educational sciences*, 3(11), 359-365.

8. Salimov, B. L. (2021). The philosophical role of dialectical categories in human life. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(6), 406-410.

9. Салимов, Б. Л. (2022). Ижтимоий муносабатларнинг коммуникация ва транспорт тизими билан детерминистик боғлиқлигининг гносеологик таҳлили. *Фалсафа фанлари доктори диссертацияси. Ўзбекистон Миллий университети. Тошкент*, 224.

10. Салимов, Б. Л. (2023). 61. ИНСОНИЯТ ҲАЁТИДАГИ ТУБ БУРИЛИШЛАР. *Inntechcon. uz*, 1(0000).

11. Салимов, Б. Л. (2023). 51. ТЕХНИКА ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ИККИ ЁҚЛАМА ТАЪСИРИ. *Inntechcon. uz*, 1(0000).

12. Salimov, B. L. (2023, May). NEGATIVE CONSEQUENCES OF SCIENCE AND TECHNOLOGY DEVELOPMENT. In *International Conference " Law, Economics and Tourism sciences in the modern world"*. (Vol. 1, No. 2, pp. 5-10).

13. Salimov, B. L., Tursunov, S. R., & Haydarov, M. N. U. (2023). SYNERGETIC APPROACH IN THE ANALYSIS OF SOCIAL RELATIONS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(3), 1001-1007.

EVFEMIZM FAOL TIL BIRLIGI SIFATIDA

Ibragimova So'g'diyona Ikrom qizi

Termiz Davlat Pedagogika Instituti magistranti

ibragimovasugdiyona3@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada evfemizmlarning nutqda qo'llanilish sabablari, evfemizm so'zining lug'aviy ma'nosi, lingvistikada til birligi sifatida ahamiyati haqida so'z boradi. Evfemizmlarning dolzarblik xususiyatlari misollar yordamida hamda tadqiqotchilar fikrlari orqali isbotlab beriladi. Evfemizmlarning davrlar o'tishi bilan o'zgarishi, yangi evfemizm guruhlarining vujudga kelishi haqida yoritiladi.

Kalit so'zlar: *til birligi, evfemizm hodisasi, tarixiy etnografik hodisa, tilshunos, neytral so'z.*

ABSTRACT

This article discusses the reasons for the use of euphemisms in speech, the dictionary meaning of the word euphemism, and the significance of the word euphemism as a language unit in linguistics. The relevance features of euphemisms are proven with the help of examples and researchers' opinions. Changes of euphemisms over time, emergence of new groups of euphemisms are highlighted.

Key words: *language unit, phenomenon of euphemism, historical ethnographic phenomenon, linguist, neutral word.*

KIRISH

Suhbat jarayonida har birimiz yonimizdagi insonni ranjitmaslik maqsadida nojo'ya va qo'pol so'zlarni aytmadan qoldiramiz yoki so'zimizni ma'no jihatdan bezashga majbur bo'lamiz. Bunday vaziyatlarda qo'pol so'zlar o'rnini bosuvchi so'z sifatida evfemizmlardan foydalanishimiz mumkin. Aynan evfemizmlardan foydalanish noqulay vaziyatlardan oson chiqishimizga yordam beradi. Evfemizm yunon tilidan "yumshoq ifodalash" deya tarjima qilinadi va so'zlovchiga aytish noqulay bo'lgan so'zlar o'rnida qo'llaniluvchi sinonimlar sifatida qaraladi. Evfemizmlarning shakllanishi tabu hodisasi bilan chambarchas bog'liq. Tarixiy etnografik hodisa sifatida ikkala hodisa birgalikda shakllangan. Evfemizm xalqlardagi urf-odat, madaniyat va saviyaning rivojlanishi bilan birga taraqqiy etadi [6].

Hozirgi kunda evfemizmlar hayotning barcha sohalarida keng tarqalgan. So'nggi o'n yillar ichida evfemizm til birligi mahalliy va xorijiy tilshunoslarning muhimligi jihatidan mashhur tadqiqot obyektiga aylandi. Tilshunos sifatida evfemizmlarning vazifasi va nutqdagi o'rnini tushunish juda muhimdir. Chunki ularni tushunish

ijtimoiy nutq normalarini yaxshi anglash hisoblanadi. V.N. Yartseva soʻzlariga koʻra "Evfemizmlar - soʻzlovchiga odob doirasidan tashqarida boʻlib tuyuladigan, qoʻpol, behayo soʻzlar oʻrnida ishlatiladigan hissiy jihatdan neytral soʻz yoki iboralardir". Hugh Rison esa evfemizmlarga juda aniq va loʻnda taʼrif beradi: "qoʻpol, yoqimsiz soʻzlar oʻrnida yumshoq, qabul qilinadigan allegorik soʻzlar ishlatiladi va ular evfemizmlardir". Boshqacha qilib aytganda evfemizmlar bizga nutq meʼyorlarini saqlashga yordam beradi. Misol uchun, ingliz tilida oʻlim haqida gapirish ochiqcha emas hamda bir necha yumshoq muqobillari bilan tushuntirishga harakat qilinadi. "To pass away", "to leave this life", "to rest in piece" soʻzlari bilan maʼno neytrallashtirib beriladi. Yoki keksalik haqida gap ketganda ham yoshi ulugʻ maʼnosini beruvchi bir necha stilistik ekvivalentlardan foydalaniladi [2]. Masalan, oʻzbek adabiyotidan A.Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanidan shunday jumlaning evfemizmi sifatida keltirish mumkin: "Raʼnoni egasiga topshirmagunimizcha quyilmaydiganga oʻxshaydi". Ushbu asar qahramoni Nigoroyim tilidan aytilgan jumladagi "egasiga topshirmoq" soʻz birikmasi "erga bermoq" soʻzining yumshatilgan shakli hisoblanadi [6].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Evfemizmlar nutqda koʻp qirrali va murakkab lingvistik hodisa sifatida qaraladi. Barcha evfemizmlarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga boʻlish mumkin [5]:

a) tibbiy sohada qoʻllaniluvchi evfemizmlar (tibbiy atamalar koʻpincha salbiy yoki uyatli maʼnoga ega boʻlganligi uchun evfemizmlarga almashtiriladi);

b) irq va millat uchun ishlatiluvchi evfemizmlar (qadimdan Afrika va Amerika xalqlariga nisbatan qoʻllanilib kelgan "hindu" yoki irqni anglatuvchi "negr" soʻzlari qoʻpol tuyulgani uchun ular oʻrnida mahalliy amerikaliklar, mahalliy afrikaliklar soʻzlari ishlatiladi);

c) har qanday taʼqiq yuzasidan vujudga keladigan qoʻrquvni kamaytirish yuzasidan qoʻllaniluvchi evfemizmlar (masalan, oʻlmoq soʻzi oʻrniga keluvchi soʻzlar);

d) yoshni bildiruvchi evfemizmlar (masalan, qari soʻzi oʻrnida keksa, yoshi ulugʻ soʻzlarining ishlatilishi);

e) tashqi koʻrinishdagi kamchiliklar (semizlik yoki oʻta ozgʻinlik, xunuklik kabi holatlarda);

f) moda omili (ushbu omilning paydo boʻlishi tijorat maqsadlari bilan bogʻliq);

g) din omili (odatda ayrim mamlakatlarda boshqa dinga mansub kishilarga evfemistik soʻzlar bilan murojaat qilinadi);

h) ijtimoiy va moliyaviy holat (kambagʻal yoki nochor soʻzlarini qoʻllash hamma zamonlarda ham salbiy maʼno anglatgan).

Yuqoridagi omillardan tashqari ham evfemizmlarning dolzarbligini oshiruvchi bir necha sabablar bor va bu ro'yxat vaqtlar o'tishi bilan kengayib boraveradi.

Evfemizmgga ta'rif berilayotganda tilshunoslar ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishadi. Sababi evfemizmlar boshqa til hodisalaridan ajralib turuvchi aniq chegaralarga ega emas. Bu tushunchaning mohiyatini yaxshiroq anglash uchun evfemizmlarning bir necha belgi va xususiyatlarini ko'rib chiqish lozim. Xususan, E.P. Senichkina barcha evfemizmlarga xos bo'lgan bir necha universal xususiyatlari borligi haqida yozadi [5; 303]:

1. Salbiy denotatning ma'nosiga mos keluvchi evfemizmlarning mavjudligi;
2. Ma'noni yumshatishga yordam berishi;
3. Almashtirilayotgan so'zga nisbatan denotatsiyaning takomillashtirilishi;
4. Denotatsiyaning takomillashtirilishi obyekt yoki hodisa haqida so'zlovchida taassurot paydo bo'lishiga yordam berishi.

Til va jamiyat taraqqiyotining u yoki bu bosqichiga ko'ra evfemizmlarning guruhleri dolzarbligini yo'qotishi mumkin. Ayrim guruhlar esa nutq normalariga to'g'ri kelmasligi tufayli eskirib bu ro'yxatdan chiqib ketishga sabab bo'ladi. Yangi salbiy hodisalar va munosabatlarning vujudga kelishi natijasida evfemizmlar guruhleri kengaya boradi. B.A.Larin, A.M.Katsev, S.Vidlak, B.Uorren kabi olimlar evfemizmlar lug'atini yaratishgan.

Shunday qilib, evfemizmlar axloq me'yorlariga zid so'z va iboralar o'rnida qo'llaniluvchi muqobil so'zlar hisoblanadi hamda ularni o'rinli qo'llash suhbatdoshingizni ko'ngliga ozor berishning oldini oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Ibragimova Sugdiyona Ikrom qizi. (2023). The Cross-Cultural Specificity of The Taboo Is the Example of The English and Uzbek Languages. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 26, 18–20. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/5192>
2. Qodirova Mukaddas Tog'ayevna, . (2022). THE STUDY OF PRAGMATIC FEATURES OF ADDRESSING UNITS IN UZBEK LANGUAGE. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 3(03), 61–66. <https://doi.org/10.37547/philological-crjps-03-03-12>
3. Yusupova, M. (2023). ANALYSIS OF CLASSIFICATIONS OF EUPHEMISMS . Scientific Journal of the Fergana State University, 28(3), 80. https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol28_iss3/a409-412

4. Ibragimova, S. (2023). TABU HAMDA EVFEMIZMLARNI O'RGANISHDA NAZARIY QARASHLAR VA MUAMMOLAR. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(19).
извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/1281>
5. Сеничкина Е. П. Словарь эвфемизмов русского языка. М.: Флинта: Наука, 2008. 464с.
6. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Evfemizm>
7. <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/92>
8. <https://scienceweb.uz/publication/12149>

BOLALARDA MONOLOGIK NUTQNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Ismatullayeva Gulshoda Ergashevna,

Farg'ona viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim
metodikalari kafedrasida katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada nutq va uni rivojlantirish usullari maktabgacha ta'lim tizimidagi bolalarda monologik nutqni o'stirish orqali tahlil qilingan. Bu hodisa mantiqiy tafakkurning rivojlanishi bilan bog'liq pedagogik-psixologik jarayon ekanligi yoritilgan. Monologik nutqni rivojlantirish orqali bolalarda mantiqiy fikrlashni va muloqotga kirisha olish qobiliyatlarini shakllantirish usullari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: *nutq va uning turlari, monologik nutq, mantiqiy tafakkur, pedagogik-psixologik jarayon, ti va tafakkur, qobiliyat.*

ABSTRACT

In the article, speech and methods of its development are analyzed by developing monologic speech in preschool children. It is explained that this phenomenon is a pedagogical-psychological process related to the development of logical thinking. Methods of forming logical thinking and communication skills in children through the development of monologue speech have been researched.

Key words: *speech and its types, monologic speech, logical thinking, pedagogical-psychological process, thinking and thinking, ability.*

KIRISH

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning ravon so'zlashuvi ularning nutq turlarini egallashlari bilan bog'liq. Bu nutq turlari dialogik va monologik nutq hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasining vazifasi bolalarda ravon so'zlashuv nutqni (dialogik nutq) va monologik nutqni rivojlantirishdan iborat. So'zlashuv nutqini shakllantirish vazifasi ko'p qirrali. Maktabgacha bosqichdagi kichik yoshli bolalarda ularga qaratilgan nutqni tinglash va tushunish, bir-birini tinglash, savollarga javob berish va o'zi ham savollar berishi, suhbat mavzusi bo'yicha izchil javob berish qobiliyati shakllanadi. Nutqning ushbu ikki turlari o'rtasidagi farq matn ichidagi gapning mantiqiy aloqa turi bilan belgilanadi. Monolog doimo vaqtli yoki sabab-oqibatli aloqada bo'ladigan (bir-biriga nisbatan) borliq faktlari haqida xabar qiladi. Vaqtinchalik aloqa ikki tomonlama bo'lishi mumkin: faktlar haqiqatan ham bir vaqtdalik yoki ketma-ketlik munosabatlarida bo'lishi mumkin. Bir vaqtning o'zida mavjud bo'ladigan faktlar haqidagi xabarlar tavsif deb ataladi. Faktlar ketma-ket keladigan xabar bayon qilish deyiladi. Sabab-oqibatli munosabatlarda bo'lgan faktlar

haqidagi xabarlar esa mulohaza deb yuritiladi. Ilk yoshda bola ravon nutqni eshitadi. Dastlab bu unga nisbatan aytilgan luqmalar, so'ngra esa ertaklar, hikoyalar, kattalarning monologik nutqlari bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bolalarda monologik nutqning shakllanishi ularda mantiqiy tafakkurning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, bola nutqi monologik nutqqa aylanishi uchun u tilning lug'atini va grammatik tomonini erkin egallagan bo'lishi kerak. Bolalarning nutqini o'stirish, ular bilan muloqotda bo'lish bola fikrlash tarzini rivojlantiradi. Bunda esa bolalarni monologik nutqqa o'rgatish muhim ahamiyatga egadir. Ma'lumki, hikoya qila olish qobiliyati kishilarning muloqotda bo'lish jarayonida katta rol o'ynaydi. Bola uchun esa bu qobiliyat bilish, o'z bilimlarini, tasavvurlarini tekshirish vositasi hisoblanadi.

Ruhshunoslarning fikricha, bolalarda monologik nutq besh yoshdan boshlab paydo bo'ladi. Ruhshunos D.Elkanin to'g'ri ta'kidlaganiday: „Bola hayot tarzining o'zgarishi, kattalar bilan yangi munosabatlarning va yangi turdagi faoliyatlarning shakllanishi nutq shaklini va uning vazifasini (xizmatini) farqlashga olib keladi. Muomalaning yangi vazifalari vujudga keladi, bola o'z taassurotlarini, kechinmalarini, rejalarini (niyatini) kattalarga yetkazishga harakat qiladi. Nutqning yangi shakli — monologik tarzda xabar qilish, ko'rgan va eshitganlari to'g'risida hikoya qilish paydo bo'ladi...Bolalarni hikoya qilishga o'rgatish jarayonida barkamol tarbiya berishning xilma-xil masalalarini hal qiladi, aqliy rivojlanishga yordam beradi. Hikoya qilib berishda mantiqiy tafakkur, diqqat rivojlanadi, nutq grammatik jihatdan shakllangan bo'lib, o'zini tutish, jamoa oldida so'zga chiqish malakasi hosil bo'ladi“. Shu munosabat bilan maktabgacha ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya dasturida bolalarni hikoya qilishga o'rgatish bo'yicha har bir yosh guruhlariga ish vazifalari va mazmuni belgilab berilgan. Q.Shodiyevaning fikrlariga tayanadigan bo'lsak “O'rta guruhlarda hikoya qilishga o'rgatish vazifalari va ularning mazmuni ancha murakkablashadi. Ushbu guruh bolalari birinchi yarim yillikda tanish hikoya va ertaklarni mustaqil holda qayta hikoya qilishga, asar qahramonlarining suhbatini ifodali so'zlab berishga o'rgatiladi”.

NATIJARLAR

Mashg'ulotlarda birinchi marta o'qib berilgan kichik ertak va hikoyalarning mazmunini qayta hikoya qilishga, o'rtoqlari hikoya qilayotganda e'tibor bilan tinglashga, o'yinchoqlar, turli buyumlar va yil fasllarini tavsiflovchi (avval tarbiyachining savollari, so'ngra namuna va reja asosida) hikoya tuzishga o'rgatiladi.

Ikkinchi yarim yillikda bolalarga tanish ertak va hikoyalarni tinglashni, ularda ishtirok etuvchi personajlarning gaplarini, o'ziga xos xususiyatlarini tushunishni, asar mazmunini hikoya qilayotgan o'rtoqlarining nutqini diqqat bilan eshitishni, asar matnini buzib hikoya qilgan joylarini payqashni o'rgatish davom ettiriladi.

Katta va maktabga tayyorlov guruhlarida esa birinchi yarim yillikda badiiy asarlarni qayta hikoya qilish malakasini o'stirish, adabiy asarlarni mazmunli, mantiqiy izchillikda, aniq va tasviriy, ifodali hikoya qilishga o'rgatishdan iborat. Tarbiyachi qayta hikoya qilishni o'rgatayotganda bolalar diqqatini, ayniqsa, ertakning boshlanmasiga, takrorlanib kelayotgan parchalarga, xulosa qismiga: hikoyalardagi qahramonlarning o'zaro nutqi kabilarga qaratishi lozim. Bolalar asar voqealarini so'zlayotganda ovoz ohangining xilma-xil turini (so'roq, his-hayajon, hayratlanish, iltimos) qo'llay bilishlariga erishishlari zarur. Bolalarga o'yinchoqlar va buyumlar haqida hikoya tuzishni o'rgatayotganda o'yinchoqlarni tanlab berishga, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatuvchi belgilarni (rangi, shakli, qanday o'ynalishi va boshqalar) aniq so'zlar orqali ifodalashga o'rgatish lozim. Bolani kreativ fikrlashga o'rgatishda ijodiy hikoya qilish ko'nikmalarini shakllantirib borish zarur. Bolalarni tarbiyachi tomonidan belgilangan hikoya yoki ertakni nihoyasiga yetkazishga, qisqa, lo'nda jumlar tuzishiga, tasviriy vositalardan foydalanishga o'rgatish nutq o'stirish omillari tarzida belgilanadi. “

MUHOKAMA

Bolalarning shaxsiy tajribalari va tarbiyachi taklif etgan hayotiy mavzular asosida mantiqiy rivojlanib boruvchi hikoya yoki ertak tuzish qobiliyatlarini rivojlantirishda “Quvonchli kun”, “Xafa bo'lgan kunim”, “Mehmonda”, “Bizning oila”, “Eng yaqin o'rtog'im”, “Dam olish kuni”, “Dadamga qarashdim”, “Qo'g'irchoq teatriga bordim” kabi qator mavzularni tavsiya qilish mumkin. Bolalarni o'zlari yaratayotgan hikoya yoki ertaklarida ishtirok etuvchi qahramonlarning ruhiy kechinmalarini bilishga o'rgatish, suratlar bo'yicha hikoya tuzishni o'rgatayotganda esa, avvalo, ularning mustaqil fikrlashlariga, suratda tasvirlangan voqealarga o'z munosabatlarini bildirishlariga imkon yaratish kerak. Shu bilan birga, rasmda aks ettirilgan mavzuli voqeaga qarab ilgari nima bo'lgani va keyin nima bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritishga undash zarur. Tabiat manzaralari aks ettirilgan suratga qarab, undagi go'zallikni, nafislikni ifodalay oladigan tasviriy so'zlar, o'xshatish va sifatlashlar ishtirokida gap tuzishga o'rgatib borishga erishish tarbiyachilarning muhim vazifalaridir. Bundan tashqari, bolalarning birgalikdagi hayot tajribalaridan olingan voqealar: ekskursiya, sayr, mehnat jarayoni, jonli va ravon hikoya qilib berish malakasini tarbiyalash muhim. Bolalarni hikoya qilayotganda tevarak-atrofdagi buyum nomini, voqea-hodisalarni, ularning o'ziga xos

xususiyatlarini, xatti-harakatlarini to'g'ri ifodalashga, voqealarning vaqti va joyini ko'rsatishga o'rgatish hamda topishmoqlar o'ylab topishga undash lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bolalarda monologik nutqni o'stirish mantiqiy tafakkurning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Monologik nutqni rivojlantirish orqali bolalarda mantiqiy fikrlashni va muloqotga kirisha olish qobiliyatlarini shakllantirish ertangi kunimiz istiqbolidir.

FOYDALANILGN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. F.R.Qodirova Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi ruhiy omillari. T.: "ISTIQLOL", 2006 y.
2. S.Q. Shodieva. O'rta guruh bolalari nutqini o'stirish. O'quv qo'llanma T.: "O'qituvchi" 1993 y.
3. D.R. Babayeva. Nutq o'stirish metodikasi. T.: Fan va texnologiyalar 2009 y.
4. Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel "Night and day" by Chulpan. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(6), 119-120.
5. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of Characters in Utkir Hoshimov's Story "Yanga". *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(6), 196-200.
6. Sabirdinov, A. (2020, December). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. In Конференции.
7. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of the banned period in the stories of Naim Karimov. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(11), 4-91.
8. Сабирдинов, А. Г. (1993). Слово и образ в поэзии Айбека.
9. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 03. – С. 245-249.
10. Oripova, G. (2020, December). Rhythm and mything in lyrical genre. In Конференции.
11. Oripova, G. (2019). Traditions of folk ballads and distinctiveness of uzbek poetry of independence period. *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(2), 82-86.
12. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(12), 90-94.

13. Oripova, G., & Ibrohimova, G. (2022). SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA MUMTOZ MUSHTARAKLIK. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 251-255.
14. Oripova, G. M., Akhmadjonova, O. A., Kholmatov, O. U. U., & Muminova, T. S. (2022). INTERPRETATION OF MOTHER IMAGE IN LITERATURE. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 304-309.
15. Oripova, G., & Alijanova, M. A. Q. (2022). ASQAD MUXTORNING “CHINOR” ROMANIDA AYOL PORTRETINING BADIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 221-226.
16. Oripova, G. M., & Abdurasulova, N. A. Q. (2022). O’ZBEK NASRIDA URUSH MAVZUSI VA “YO’QOTILGAN AVLOD” MUAMMOSI. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 213-220.
17. Oripova, G., & Mirzajonova, G. (2023). TARIXIY SHAXSLAR TASVIRI VA MUALLIF MUNOSABATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(10), 411-415.
18. Oripova, G., & Abdurasulova, N. A. Q. (2023). NABI JALOLIDDIN NASRIDA URUSH QATNASHCHILARI RUHIYATI TASVIRI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 495-501.
19. Oripova, G. (2019). Uzbek poetry and the world literature in the years of independence. *Scientific Journal of Polonia University*, 32(1), 116-120.
20. Murodilovna, O. G. (2019). The peculiarities of vazn meter in uzbek poetry of the independence period. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 8(2), 33-39.
21. Murodilovna, O. G. (2020). Melody and musicality in Liryics. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 656-664.

БУГУНГИ ДАВРДА ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШДА ПЕДАГОГЛАРНИНГ МАҲОРАТИНИ БАҲОЛАШ МЕХАНИЗМЛАРИ

Бобошев Зухриддин

Тошкент давлат транспорт университети доценти в.б

e-mail: zuhriddinboboshev88@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада таълим сифатини оширишда ўқитувчиларнинг педагогик маҳоратини баҳолаш механизми ҳамда таълим сифатини ошириш, бу борада юртимизда амалга оширилаётган ишлар, умумий ўрта таълим мактаблари ўқитувчиларининг педагогик маҳоратини баҳолаш ҳамда мазкур жараёни такомиллаштиришнинг аҳамияти ҳақида мулоҳаза тўхталиб ўтилган.

***Калит сўзлар:** Таълим сифати, таълим, билим, педагог, технология, таълим тизими, талаба, когнитив таҳлил, когнитив услуб, педагогик маҳорат, баҳолаш механизми, бевосита баҳолаш.*

ABSTRACT

In this article, the mechanism of evaluating the pedagogical skills of teachers in improving the quality of education and the importance of improving the quality of education, the work carried out in this regard in our country, the evaluation of the pedagogical skills of teachers of general secondary schools, and the importance of improving this process are discussed.

***Key words:** Quality of education, education, knowledge, pedagogue, technology, educational system, student, cognitive analysis, cognitive style, pedagogical skills, assessment mechanism, direct assessment.*

КИРИШ

Бугунги кунда Ўзбекистон кўп асрлик жуда бой педагогик тажрибага эга ҳамда таълим-тарбия жараёнида маълум анъаналар шаклланган. Ушбу тажриба пухта таҳлил ватизимли педагогик усулларни ишлаб чиқишни талаб этади, чунки бозор иқтисодиёти ҳозирда мактаб битирувчиларига нафақат жамиятда ўз ўрнини белгилашга, Ўзбекистонни глобал таълим муҳитига муваффақиятли интеграция қилиш, янгича ўқув услубларини излаш талабини қўяди. Юртимизда таълим соҳасини ривожлантириш, малакали кадрлар тайёрлаш, ўқитувчиларга кўплаб имтиёз ва енгилликлар яратиш ҳамда уларни профессионал компетентлигини оширишга катта эътибор қаратилаётгани ҳеч кимга сир эмас. Мактабгача ва мактаб таълими, профессионал ҳамда оилӣ таълимга доир амалга оширилаётган ишлар жаҳон тажрибасига таянган ҳолда, миллатнинг

ички имкониятларини инобатга олиб амалиётга жорий қилинмоқда. Бунга жамиятда рўй бераётган ўзгаришлар, таълимнинг ташкилий тузилмаларини модернизация қилиш, педагогик маданият мазмунидаги ўзгаришлар, инсонпарварлик тарбиясини таъминлай оладиган ва эҳтиёжларни қондиришга қодир бўлган ўқитувчининг касбий маҳоратини баҳолашнинг объективлигига талабларнинг кучайиши билан боғлиқдир. БМТ нинг барқарор ривожланиш концепциясида “Quality Education”, яъни Сифатли Таълим 17 та мақсадларидан бири сифатида киритилган. 2017-2021-йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг беш устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида белгиланган чора-тадбирларни БМТнинг Барқарор ривожланиш концепцияси билан ҳам оҳанглигини кўплаб сиёсат ва фан арбоблари таъкидламоқдалар. 2020-йил 23-сентябрда қабул қилинган “Таълим тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 3-боби, яъни “Таълим тизимини бошқариш” ҳамда 4-“Таълим фаолиятини ташкил этиш ҳамда унинг назоратини ташкил этиш” бобларида мазкур соҳадаги фаолият ҳамда муносабатларни тартибга солиш ҳамда таълим сифатини ошириш масалалари илгари сурилади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Янги Ўзбекистон ма’мурий ислохотларини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармониға мувофиқ, 2023-йил 1-январдан Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш инспекцияси фаолияти тугатилиб, унинг тегишли вазифа ва функциялари Мактабгача ва мактаб та’лим вазирлигига ўтказилди. 2023-йилда ўқитувчилар мажбурий аттестацияга жалб этилмади ва амалдаги малака тоифалари 2024-йилга қадар амал қилиниши белгиланди.

Шу муносабат билан вазирлик томонидан таълим ташкилотларида фаолият юритаётган педагог кадрларни аттестациядан ўтказиш ва малака тоифалари бериш бўйича янги шаффоф ва адолатли тизим ишлаб чиқилиб, 2024-йил 1-январдан давлат мактабгача, умумий ўрта ва мактабдан ташқари та’лим ташкилотлари педагог кадрларига малака тоифасини беришнинг янги тартиби жорий қилинади. Шундай экан, аввало, бу саъй-ҳаракатларнинг таълим сифатини оширишга ҳамда ўқитувчиларнинг ўз устида ишлашлари, касб маҳоратларини оширишлари учун яхши имконият ҳисобланади. Педагогик маҳоратини баҳолаш, ўқувчиларнинг ўзлаштириш ва ривожланиш даражасини аниқлаш учун амалга оширилган ўқув жараёнларини баҳолашни англатади. Бу, ўқувчиларнинг билим ва кўникмалари ошириш, ўзлаштириш, муаммоларни ҳал қилиш ва бошқа педагогик мақсадларни эришиш даражасини аниқлашга ёрдам беради. Педагогик маҳоратни баҳолаш учун турли усуллар ва воситалар мавжуд бўлиб, бу усуллар қуйидагилардан иборат бўлиши мумкин:

1. Ўқув жараёнларини баҳолаш: Ўқитувчи, ўқувчиларнинг ўзлаштириш даражасини аниқлаш учун ўқув жараёнларини баҳолайди. Бу, синовлар, тестлар, проектлар ва бошқа тажрибалар орқали амалга оширилиши мумкин.

2. Ўқувчилар билим даражасини баҳолаш: Ўқитувчи, ўқувчиларнинг билим ва кўникмаларини баҳолайди. Бу тестлар, топшириқлар ва бошқа тажрибалар орқали амалга оширилиши мумкин.

3. Ўқувчиларнинг ўзлаштириш даражасини баҳолаш: Ўқитувчи, ўқувчиларнинг ўзлаштириш, муаммоларни ҳал қилиш ва бошқа педагогик мақсадларни эришиш даражасини баҳолайди. Бу, ўқувчилар билим ва кўникмалари, қизиқишлари ва қобилиятларига асосланган таҳлиллар орқали амалга оширилиши мумкин.

4. Ўқувчиларнинг ривожланиш даражасини баҳолаш: Ўқитувчи, ўқувчиларнинг ўзларининг ривожланиш даражасини баҳолайди. Бу, ўқувчиларнинг ўзлаштириш ва ривожланиш жараёнларида қайси босқичда туришлари, ўзлаштириш ва ривожланишда қандай ўзгаришлар бўлиши кераклигини аниқлаш орқали амалга оширилиши мумкин.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Педагогик маҳоратини баҳолаш, ўқувчиларнинг ўзлаштириш ва ривожланиш даражасини аниқлашда муҳим аҳамиятга эга. Бу, ўқувчиларнинг ривожланиши учун қандай усуллар ва таҳлиллар ишлатилиши кераклигини аниқлашга ёрдам беради. Таълим сифатини баҳолаш нафақат билим олаётган ўқувчи ва талабаларнинг, балки, ўқитувчиларнинг педагогик маҳоратини баҳолаш орқали ҳам билиш мумкин. Ўқитувчиларнинг педагогик маҳоратини баҳолаш қай даражада муҳимлиги ва бу таълим сифатини қанчалик оширади деган ўй-фикр ҳар бир шахсда туғилиши мумкин. Айнан бу саволга жавобни таълим сифатини оширишда ўқитувчиларнинг педагогик маҳоратини баҳолаш механизмларини такомиллаштиришнинг когнитив таҳлили орқали тушунтиришга ҳаракат қиламиз. Таълимнинг когнитив соҳаси, таҳлили нимани англатади? “Когнитив” тушунчаси одатда ўрганиш соҳаси, муносабат ёки эмпатия турларини муҳокама қилиш учун ишлатилади. Когнитив атамаси инглизча “согнитиве”, яъни “билиш”, “идрок этиш” деган маъноларни ифодалайди. Когнитив услуб тушуначасини биринчи марта австриялик психолог А. Адлер ишлатган ва бу жараён одатда мақсадларни белгилаш ва унга эришиш орқали тузилган инсоннинг ҳаёт йўлининг ўзига хослиги сифатида тушунилган. Когнитив услуб ва когнитивлик тушунчаларини Г. Аллпорт, К. Стаднер, Г. Виткин, В.А. Колга, М.А.Холодная, А. Либнин ва бошқалар ўрганишган. Когнитив тизим, когнитив тузилма - характер, тарбия,

кузатиш ва атрофдаги дунёни акс эттириш натижасида онгда ривожланган билимлар тизими. Ушбу тизимга асосланиб, мақсадлар қо‘йилади ва ма’лум бир вазиятда қандай ҳаракат қилиш кераклиги ҳақида қарорлар қабул қилинади, когнитив диссонансдан қочишга ҳаракат қилади. Когнитив тизимнинг асоси - фикрлаш, онг, хотира ва тилнинг о‘заро та’сири; бундай тизимнинг ташувчиси инсоннинг мияси. Когнитив тизимнинг белгиловчи хусусиятлари қуйидагилардан иборат:

экспрессивлик - тил тизими воситасида со‘злашув қобилияти;

самарадорлик - амалий муаммоларни тез ва самарали ҳал қилишга ё‘налтириш; алгоритмик - алгоритмларга асосланган; ҳазм қилиш қобилияти - тизим о‘рганиш натижасида ассимиляция қилинади;

Аттестация жараёнини когнитив таҳлил қилар эканмиз, бу жараёни, шаффофликка асосланган ҳамда педагогнинг нафақат билим даражасини, балки касбий маҳоратини ҳам текшириш учун хизмат қилиши керак эканлигини англаб етишимиз зарур. Педагогик маҳорат ёки касб маҳорати эса “ёдланган тест савол-жавоблари”га асосланиб хулосага келиш, албатта, биз кутган натижаларга олиб келмайди. Педагогнинг дарс жараёнини ташкил этиши, фанни пухта эгаллаганлиги, синфни бошқариши, машғулот жараёнида юзага келувчи турли вазиятларни одилона ва маҳорат билан бошқариш, ўқувчиларга ўқитилаётган фанни чиройли тарзда етказиш, турфа қизиқишларга эга бўлган ўқувчилар билан бирдек самарали ишлай олиш каби вазифаларни ҳам қамраб олиши керак. Бу жараёнларни баҳолашни эса, албатта, шу йўналишда фаолият юритувчи, касб маҳорати ҳамда иш тажрибасига эга бўлган етук педагоглар жамоаси кузатиши ва баҳолаши мақсадга мувофиқ бўлади. Баҳолаш таълим жараёнидаги ажралмас концептлардан бирибўлиб, бирон-бир домен (билим, кўникма, малака ва компетенциялар мажмуи)нинг тест топширувчиларда шаклланганлик даражасини ўлчаш жараёнидир. (К.Жалилов, 2020). Педагогикада баҳолаш жараёни, хусусан, ўқитувчиларнинг педагогик маҳоратини баҳолаш жараёни қандай амалга оширилади? Бу соҳада “ёдланган тест” усули наф бермаслиги аниқ, чунки маҳорат тушунчаси кенг маънога эга бўлиб, касбий фаолиятнинг юқори даражада ташкилланишини таъминловчи шахс хусусиятлари комплекси (ўқитувчи фаолиятининг гуманистик йўналтирилгани, касбий билимлари, касбий қобилиятлари ва педагогик техникаси ҳисобланади. (И.А.Зязюн). К.Жалиловнинг таъкидлашича, педагогикада, ёки умуман таълим жараёнида бирор бир кўникма ёки малакани баҳоламоқчи бўлсак, шу домен қайси билим, кўникма, малака, компетенцияларни ўз ичига олишини ҳамда шу доменга хос хусусиятлар

ўлчаниши лозимлигини аниқлаб олишимиз керак бўлади. Бунда баҳолаш билвосита яъни, кузатиш, суҳбат, тест ва шу кабилар орқали амалга оширилиши мумкин .

Хулоса қилиб, шуни таъкидлаш жоиз-ки, ўқитувчиларнинг педагогик маҳоратини баҳолаш ҳамда бу механизмни янада такомиллаштириш учун энг аввало, оилий таълим тизимидаги ўқув дастурлари ва ўқитилаётган фанларни кўриб чиқиш, ҳамда педагогик йўналишдаги талабалар учун нафақат фанга оид билимлар, балки, кўпроқ дарсни моҳирона ташкил қилиш, ўқувчини фанга қизиқтира олиш, ўқитилаётган фанни чуқур билиш, муаммоли вазиятларга холис ечим топа билиш ва шу каби кўникма, малакаларни эгаллашни ўргатиш ҳамда уларни амалиётда қўллай олишни ўргатишимиз керак экан.

REFERENCES

1. Kaipbergenova, D. (2017). THE IMPORTANCE OF MATERIAL DESIGNING IN LANGUAGE TEACHING. *ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА*, 34(3), 62-63.
2. Kaipbergenova, D. (2016). СНЕТ ТИЛИ О'QITUVCHILARINING KASBIY VAZIFALARI VA PEDAGOGIC MAHORATI HAQIDA. *ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА*, 33(4), 48-50.
3. Каипбергенова, Д. О. (2020). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАКТИКИ ОРГАНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ НА ОСНОВЕ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ. In *Инновационное развитие: потенциал науки и современного образования* (pp. 211-213).
4. Каипбергенова, Д. О. (2016). The role of language learning strategies in learning foreign languages. *Молодой ученый*, (12-4), 83-85.
5. Orakbaevna, K. D. (2023). MAMLAKATIMIZDA СНЕТ TILLARINI O'RGANISHDAGI ZAMONAVIY METOD VA METODOLIYA. *Научный Фокус*, 1(1), 1472-1478.
6. Orakbaevna, K. D. (2023). GLABALLASHUV DAVRIDA TA'LIM VA TARBIYANING UZVIYLIGI. *Научный Фокус*, 1(1), 1466-1471.
7. Kaipbergenova, D. (2023). BUGUNGI KUNDAGI MAMLAKATIMIZDA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA ULARNING NATIJALARI. *World scientific research journal*, 15(2), 3-7.
8. Каипбергенова, Д., & Жуманиёзова, Н. С. (2023). БУГУНГИ КУН ТАЛАБА ЁШЛАРИДА АХЛОҚИЙ ДУНЁҚАРАШНИ ШАКЛЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 652-668.

9. Orakbayevna, K. D., Normuminovich, M., & Muxiddinovna, M. Z. (2021). English language teaching methodology for non-native speakers. *Linguistics and Culture Review*, 5(S3), 1721-1725.
10. Orakbayevna, K. D. (2022, February). SYNTACTIC AND SEMANTIC FEATURES OF COMPARISON IN ENGLISH, UZBEK AND RUSSIAN LANGUAGES. In *Conference Zone* (pp. 145-147).
11. KHUSENALIYEVNA, K. D., CHORIYEVNA, A. Z., & ORAKBAYEVNA, K. D. (2021). Lexico-semantic features of technical teams of English and Uzbek languages. *Journal of Contemporary Issues in Business and Government*, 27(2), 4083-4088.
12. Orakbayevna, K. D. (2022). THE IMPORTANCE OF GRAMMAR IN LEARNING A FOREIGN LANGUAGE. *Confrencea*, 7(7), 69-72.
13. Orakbayevna, K. D. (2022). Using effective language learning strategies in teaching English. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, 2, 1-3.
14. Orakbaevna, K. D. (2022). USING THE PRINCIPLE OF UNITY IN EDUCATION. *PEDAGOG*, 1(4), 1467-1473.
15. Турдимуратов, Я. А. (2022). КОЧЕВОЕ ХОЗЯЙСТВО УЗБЕКОВ ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА В КОНЦЕ XIX–НАЧАЛО XX ВВ. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(7), 546-557.
16. Turdimuratov, Y. A. (2023). О ‘ZBEKISTONDA BOLALAR SPORTINI RIVOJLANTIRISHGA OID DAVLAT SIYOSATI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(2), 144-152.
17. Turdimuratov, Y. A. (2023). ETNOSPORT – MILLIY SPORT TURLARI VA XALQ O‘YINLARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (11), 132-139.
18. Турдимуратов, Я. А. (2023). НАРОДНЫЕ ПОВЕРЬЯ В ТРАДИЦИОННОМ ХОЗЯЙСТВЕ УЗБЕКОВ, СВЯЗАННЫЕ С «КУЛЬТОМ СВЯТЫХ». *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 188-198.
19. Turdimuratov, Y. A. (2019). NATIONAL VETERINARY MEDICINE IN TRADITIONAL UZBEK LIVESTOCK BREEDING. *Theoretical & Applied Science*, (3), 468-471.

ZAMONAVIY MASHINASOZLIK VA NANOTEXNOLOGIYALAR

Temirov Asomiddin Iskandar o'g'li

Turgunov Kamolbek Saidjon o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti talabalari

Salimov Baxriddin Lutfullaevich

Toshkent davlat transport universiteti professori v.b.

ANNOTATSIYA

Ekspertlar fikricha uchinchi ming yillik nanofan va nanotexnologiyalar asri bo'ladi. Yaqin 40-50 yil ichida nanomahsulot va nanotexnologiyaga bo'lgan biznes va iqtisod eng rivojlangan tarmoqqa aylanadi. XX asrda samolyotlar, raketalar, televizor va kompyuterlar dunyoni o'zgartirdi. Nanotexnologiyalar yordamida yaratilgan xom-ashyolar, dori-darmonlar, aloqa va xizmat ko'rsatish vositalari XXI asr yangi texnika taraqqiyotining asosi bo'ladi.

Kalit so'zlar: *nanofan, nanomashina, nanotexnologiya, mikrotexnologiya, nanostruktura.*

ABSTRACT

Technique, understood as a craft practice, only copies natural forms. Technology is associated with the activities of low-educated social groups, because it is far from intellectual knowledge and social technologies of managing society. Thus, according to ancient philosophers, technology is neutral with respect to culture. The concept of E. Kapp regarding the evolution of technology is known and famous.

Key words: *Mimetic, evolution, concept, Perception, technocracy.*

KIRISH

Ekspertlar fikricha uchinchi ming yillik nanofan va nanotexnologiyalar asri bo'ladi. Yaqin 40-50 yil ichida nanomahsulot va nanotexnologiyaga bo'lgan biznes va iqtisod eng rivojlangan tarmoqqa aylanadi. Nanobiotexnologiyalar vositasida tibbiy xizmat rivojlanadi va inson sog'lig'ini saqlashda yangi imkoniyat paydo bo'ladi, jumladan, inson tomir va to'qimalarida harakatlanib, kasallangan xujayrani topib, o'ldiradigan nanojarrohlarni yaratish ko'zda tutilmoqda. Barcha aloqa tarmoqlarini birlashtiruvchi globallashtirgan yangi aloqa tizimini o'rnatish imkoni tug'iladi.

Atomlar olamiga kirib kelganimizga 100 yildan oshganiga qaramay, uning mohiyatini endigina tushunib yetmoqdamiz. Bu haqda 1959 yili Kaliforniya texnika institutida so'zga chiqqan Nobel mukofoti sovrindori Richard Feynman shunday degan edi: "Bir kun kelib, masalan, 2000 yilda, insonlar 1960 yillargacha bo'lgan nanoolam tadqiqotlariga jiddiy qaramaganlaridan ajablanadilar". Ushbu so'zlar

bugun bashoratdan haqiqatga aylandi. Zarralar olami samarasini qator davlatlar allaqachon anglab yetganga o'xshaydi. Shu sababli bo'lsa kerak, ilmning bu yangi sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Nanotexnologiya tushunchasi uchun tugal va aniq ifoda yo'q, ammo mavjud mikrotexnologiya asosida bu o'lchamlarni nanometrda texnologiya deb yuritish mumkin. Shuning uchun mikrodan nanoga o'tish bu moddani boshqarishdan atomni boshqarishga o'tish demakdir. Sohaning rivoji deganda esa, asosan, uchta yo'nalish tushuniladi:

- o'lchami atom va molekular o'lchamlariga teng elektron sxemalarni tayyorlash;
- nanomashinalarni loyihalash va ishlab chiqish;
- alohida atom va molekularni boshqarish va ulardan alohida mikroob'ektlarni yig'ish.

XX asrda samolyotlar, raketalar, televizor va kompyuterlar dunyoni o'zgartirdi. Olimlarning ta'kidlashicha, nanotexnologiyalar yordamida yaratilgan xom-ashyolar, dori-darmonlar, aloqa va xizmat ko'rsatish vositalari XXI asr yangi texnika taraqqiyotining asosi bo'ladi. Ko'z o'ngimizda ko'plab afsonalar haqiqatga aylanib bormoqda. Insonlar atomlarni boshqarish yo'li bilan oddiy ko'zga ilinmaydigan asbob-uskunalar yaratishni o'rganib oldilar. O'z ichiga fizika, kimyo hamda biologiya fanlarining yutuqlarini qamrab oladigan nanotexnologiya hayotimizga tobora tezroq kirib kelmoqda. Olim-nanotexnologlar nanometrlarda o'lchanadigan o'ta kichik jismlar ustida ish olib borishmoqda.

Mashinasozlik asosan ommaviy nanostrukturali materiallar, xotiraga ega materiallar, kukunli materiallar va nanomahsulotlar komponentlari iste'molchisi hisoblanadi. Kesuvchi asboblari, matritsalar va qoliplarga bardoshli qoplamalarni, shuningdek, mashina qismlarining korroziyaga, issiqlikka chidamli va suv o'tkazmaydigan qoplamalarini qo'llash bo'yicha texnologik jarayonlarni joriy etishdan sezilarli samara kutilmoqda. Nanostrukturali trubotexnik mahsulotlar va qismlarni nanometr aniqligi bilan qayta ishlash va nanoqoplamalarni qo'llash uchun uskunalar katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, tegishli sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashga nanochanglar, nanotubalar, fullerenlar olishning u yoki bu texnologik jarayonini joriy etish orqali ham, blankalar va mahsulotlarni ishlab chiqarishning tegishli texnologik rejimlari orqali ham erishish mumkin.

Hozirgi vaqtda nano darajadagi mashinasozlik kompleksining ilg'or korxonalarida asosiy texnologiyalar joriy etilmoqda. Ulardan quyidagi oltita yo'nalish to'g'ridan-to'g'ri mashinasozlik uchun qo'llaniladi:

- dastur boshqaruvi bilan elektrospark dastgohlarida profilli va profilsiz vositalar bilan elektroeroziv nanometrli ishlov berish;

- nano darajadagi sirt mikrotopografiyasini nazorat qilish uchun yuklangan qismlarning ishchi yuzalarini elektrokimyoviy pardoqlash va o'lovli ishlov berish;

- mikrongacha qalinlikdagi olmosga o'xshash qoplamaning qo'llash bilan qurilmalarni, mashina qismlarini ion-plazma bilan mustahkamlash, bu buyurtmani ta'minlaydi va mahsulotlarning ishlash ko'rsatkichlarining o'sishiradi;

- past uglerodli qotishma po'latlarning korroziyaga chidamliligi va qattiqligini oshirish uchun plazma oqimlarining metall yuzasi bilan yuqori tezlikda kimyoviy-termik o'zaro ta'siri tufayli sirtini o'zgartirish;

- sirt qatlamining parametrlarini nazorat qilish imkoniyati bilan 1,5-2 mm chuqurlikda sirtini qattiqlashtirish;

- ion-plazma cho'kishi: ion bug'lanishining universal printsipligiga asoslanganligi sababli keng assortimentdagi materiallardan yuqori plyonkali qoplamalar olish imkonini beradi.

- Shuningdek mashinasozlikdagi quyidagi vazifalarni amalga oshirish ham bevosita nanotexnologiyalarni qo'llash orqali amalga oshiriladi:

- tozalangan modifikatsiyalangan montmorillonit va uning asosida polimer nanokompozitsiyaning seriyali qo'llanilishini yaratish;

- ko'p funktsiyali nanokeramik qoplamalarni sintez qilish uchun asbob-uskunalarini sanoat ishlab chiqarishini yaratish;

- o'ta yuqori quvvatli qurilmalarni ommaviy ishlab chiqarishni yaratish;

- nanostrukturali keramika va metall-keramika materiallaridan bardoshli mahsulotlar ishlab chiqarishni yaratish;

- nanostrukturali qoplamali monolit qattiq qotishma metall kesish asboblari ishlab chiqarishni yaratish;

- o'ta qattiq materialni kesuvchi qurilmalar ishlab chiqarish;

- nanostrukturali materiallardan detallarni aniq ishlab chiqarish va nanometrik sirt tuzilishi uchun elektrokimyoviy dastgohlarni seriyali ishlab chiqarish.

Samolyotsozlik sanoatida nanotexnologiyalardan foydalanish keng istiqbollarni ochadi. Aerokosmik nanostruktura samolyotlar, raketalar, kosmik stansiyalar va tadqiqot sun'iy yo'ldoshlariga kerakli materiallarni ishlab chiqarish uchun katta ahamiyatga ega. Bu yerda biz past og'irlik va yuqori quvvat, termal barqarorlik va boshqa qimmatli xususiyatlar bilan ajralib turadigan materiallarga muhtojmiz. Buning uchun kam quvvat sarflaydigan va yuqori unumdorlikka ega kosmik nurlanishga chidamli kompyuter tizimlari, kosmik stansiyalar va istiqbolli kichik sun'iy yo'ldoshlar uchun nano o'lchamdagi qurilmalar, nanostrukturali sensorlar va

nanoelektronikaga asoslangan yangi avlod avionika (aviatsion elektronika), issiqlikdan himoya qiluvchi, issiqlikka chidamli kompyuter tizimlari va bardoshli nanostrukturali qoplamalar talab qilinadi. Muzdan himoya qilish va samolyotlarning chidamliligini oshirish muammosi juda muhimdir. Samolyot uchun jiddiy xavf yuqori balandliklarda va past haroratlarda parvoz paytida qanotlarning muzlashidir. Natijalar halokatli bo'lishi mumkin, chunki muzlash hatto qanotlarning parchalanishiga olib kelishi mumkin. Hozirgi vaqtda muammo antifriz yordamida hal qilinadi. Muammoni hal qilishda nanotexnologiyadan foydalanishning istiqbolli yo'llari haqida bosh qotirish darkor.

Chidamlilikka kelsak, vazifa 70-90 mingtagacha parvozlarni amalga oshirish qobiliyatini ta'minlashda yangi nanomateriallar ta'minlaydigan mustahkamlik xususiyatlarini oshirishni talab qiladi. Hayotiylik va vazn yo'qotish hozirgi vaqtda kompozitlar tomonidan ta'minlanadi. Ularga nanomateriallar qo'shilishi kerak. Asosiy e'tibor yaxshilangan charchoq xususiyatlariga ega nanomodifikatsiyalangan polimerlar va polimer kompozitlariga, shuningdek, quyosh batareyalarining energiya samaradorligini bir necha baravar oshirish va muqobil energiya tizimlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Zamonaviy samolyot qurilishining eng muhim vazifasi samolyotning loyihalashni osonlashtirishdir. Bugungi kunda yirik yo'lovchi samolyoti korpusini ishlab chiqarishda foydalaniladigan 50 dan 30 milliongacha qismlarni payvandlangan tikuvlar bilan almashtirish uni sezilarli darajada engillashtiradi, ishlab chiqarish tannarxini kamaytiradi va ekspluatatsion xususiyatlarni sezilarli darajada yaxshilaydi. Bunday almashtirish faqat payvandlanadigan materialning mustahkamligi va payvand chokining mustahkamligining tengligi sharti bajarilgan taqdirdagina mumkin bo'ladi. Samolyotning dizayni bir xil kuchga ega bo'lgan barcha qismlarga ega bo'lishi kerak. Biroq, aviatsiya materiallarini payvandlashning zamonaviy usullari (alyuminiy va titanium qotishmalari) bu talabni to'liq qondirishga imkon bermaydi. Shu maqsadda olimlar nanozarrachalardan foydalangan holda lazerli payvandlashni ishlab chiqdilar. Bu payvandning mustahkamlik xususiyatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Yangi texnologiyaning asosiy g'oyasi - chokga kiritilgan o'tga chidamli birikmaning nanozarrachalari (masalan, titanium karbid) yordamida payvandlash jarayonida kristallanish jarayonini nazorat qilish hisoblanadi. Shunday qilib, chok metalining mexanik xossalari (mustahkamligi va egiluvchanligi) ortadi, nisbiy cho'zilish bir necha marta oshadi, cho'zilish kuchi va oquvchanlik kuchi ko'payadi.

XULOSA

Eng istiqbolli ishlanmalardan biri nanostrukturali qoplamali metall kesish qurilmasini yaratishdir. Ishlanma samolyot dvigatellari, samolyot va raketa qurilishi,

energetika va transport muhandisligi va kemasozlikda foydalanish uchun mo'ljallangan. Loyiyaning asosiy texnologiyasi – nanostrukturali qoplamalarni metall kesish vositalariga qo'llash olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Bunday qoplama qurilmaning qarshiligini 2-2,5 baravar oshiradi, buning natijasida korxonalarining uni sotib olish xarajatlari kamayadi. Nanostrukturali qoplamalarni qo'llash texnologiyasi metall yoki metall-keramik katodlaridan materialning bug'lanishi natijasida olingan plazmadan vakuumli cho'kma usuliga asoslangan bo'lib, hosil bo'lgan qoplama qatlamlarini yordamchi ion nurlari bilan chuqur doping qiladi. Ushbu texnik yuechim qurilmaning qarshiligini oshiradi, bu esa metallni yuqori tezlikda qayta ishlash imkonini beradi va qurilmaning ishlash muddatini oshiradi. Ta'kidlash joizki, nanoqoplamali qurilmaning texnik tavsiflarining (qattiqligi, pishiqligi) yaxshilanishi mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshirishga va ushbu qurilma yordamida ishlab chiqariladigan mahsulotlar tannarxini pasaytirishga olib keladi. Qoplanmagan qurilma bilan solishtirganda, olib tashlangan metall hajmining 2-2,5 baravar ortishi kuzatiladi, qayta silliqlash va kesish tezligi o'rtasidagi qarshilik 1,5-2 barobar ortadi.

Yana bir loyiha – yangi avlodagi nozik, ekologik toza elektrokimyoviy mashinalar ishlab chiqarishni yaratish hisoblanadi. Rivojlanish doirasi - samolyot dvigatellari qurilishi, energetika, avtomobilsozlik, elektron va tibbiyot sanoati uchun qurilmalar ishlab chiqarish hisoblanadi. Loyiyaning raqobatbardosh afzalliklari past operatsion xarajatlar (yuqori mahsuldorlik, qurilmalarning uzoq muddat ishlashi), shuningdek, yuqori nusxa ko'chirish aniqligi va nanometrik sirt aniqligidir. Loyiha doirasida ishlab chiqarilgan elektrokimyoviy mashinalar deyarli barcha turdagi metallarni, jumladan, qattiq qotishmalar va nanostrukturali metallarni aniq nanometrik qayta ishlashga mo'ljallangan. Mashinalarda qo'llaniladigan texnologiya unumdorligi va ekspluatatsiya xarajatlari bo'yicha u dunyodagi yetakchi ishlab chiqaruvchilarning texnologiyalaridan ustunligi bilan ajralib turadi.

REFERENCES

1. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. Бирдамлик ва ҳамжихатлик – ижтимоий муносабатларнинг келажагидир. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. 3(3), March, 2023.
2. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. Ижтимоий муносабатларнинг шаклланиши ва барқарорлигини белгиловчи муҳим тамойиллар. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. 3(3), March, 2023.
3. Salimov, B., Madalimov, T. (2023). *Transport falsafasi*. Globe Edit.

4. Salimov Bakhridin Lutfullaevich. The Importance of Sea Transport in the Communication System. WEB OF SYNERGY: International Interdisciplinary Research Journal. Volume 2 Issue 1, Year 2023 ISSN: 2835-3013.
5. Salimov Bakhridin Lutfullaevich. The Influence of the Transport and Communication System on Social Relations. Web of Semantic: Universal Journal on Ie Education. Volume 2 Issue 2, Year 2023. ISSN: 2835-3048.
6. Salimov Bakhridin Lutfullaevich. Reforms in the Fields of Communication and Transport and their Social Impact. Web of Semantic: Universal Journal on Ie Education. Volume 2 Issue 2, Year 2023. ISSN: 2835-3048.
7. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов (2022) Ўзбекистон тараққиётида коммуникация ва транспорт тизимини ўрни. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 403-407.
8. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов (2022). Жамиятнинг шаклланиши ва такомиллашувида бошқарув ва тарбия санъатининг ўрни. Academic research in educational sciences, 3 (11), 359-365.
9. Salimov Baxridin Lutfullaevich. The philosophical role of dialectical categories in human life. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume: 1, Issue 6, 2021. -P.406-410.
10. Салимов Б.Л. Ижтимоий муносабатларнинг коммуникация ва транспорт тизими билан детерминистик боғлиқлигининг гносеологик таҳлили. Фалсафа фанлари доктори диссертацияси. Ўзбекистон Миллий университети. Тошкент. 2022, 224 б.
11. Салимов Бахриддин Лутфуллаевич. Йўлдошов Сардор Зокир ўғли. (2023). 61. Инсоният ҳаётидаги туб бурилишлар. Innovative Technologies in Construction Scientific Journal, 1(2992-8893).
12. Салимов Бахриддин Лутфуллаевич Равшанов Охунжон Тўймурод ўғли. (2023). 51. Техника тараққиётининг икки ёқлама таъсири. Innovative Technologies in Construction Scientific Journal, 1(2992-8893).
13. Bakhridin Lutfullaevich Salimov. NEGATIVE CONSEQUENCES OF SCIENCE AND TECHNOLOGY DEVELOPMENT. International Conference" Law, Economics and Tourism sciences in the modern world". 2023/5/1. С. 5-10.
14. Salimov Bakhridin Lutfullaevich, Tursunov, Shokhijakhan Ravshanovich, Haydarov, Mehriddin Nuriddin Ugli (2023). SYNERGETIC APPROACH IN THE ANALYSIS OF SOCIAL RELATIONS. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (3), 1001-1007.

GERMANIYA VA TURKIYA MAMLAKATLARI O'RTASIDAGI IQTISODIY-SIYOSIY HAMKORLIKNING TARIXI HAMDA KELAJAK ISTIQBOLLARI

Qadamov Bekzod Yuldashovich

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Germaniya va Turkiya mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy hamkorlikning tarixi hamda kelajak istiqbollari haqida ma'lumotlar berilgan. Mavzuni ochib berishda taqqoslash va tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek Germaniya va Turkiya mamlakatlari o'rtasidagi savdo, madaniy aloqalar haqida ham so'z boradi.

Kalit so'zlar: *Xalqaro hamkorlik, strategiya, integratsiya, madaniy aloqalar, iqtisodiy hamkorlik, siyosiy partiyalar.*

ABSTRACT

This article provides information about the history and future prospects of economic and political cooperation between Germany and Turkey. Methods of comparison and analysis were used to reveal the topic. Trade and cultural relations between Germany and Turkey are also discussed.

Key words: *International cooperation, strategy, integration, cultural relations, economic cooperation, political parties.*

KIRISH

Turkiya ko'plab mamlakatlar bilan iqtisodiy sohada mustahkam aloqa o'rnatgan. Masalan, Yevropa iqtisodiy jamiyati tashkil topganidan buyon mintaqa davlatlari bilan yaqin hamkorlik qilmoqda. Yevropa Ittifoqi va Turkiya o'rtasidagi iqtisodiy aloqa bugungi kunga kelib yangi bosqichga ko'tarilgan. Bilamiz, YI yer yuzidagi eng yirik integratsiyalashgan iqtisodiy tashkilot sifatida xalqaro investitsiya kiritish bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Ittifoqqa a'zo 28 mamlakat jahon importi va eksporti bo'yicha yetakchi. Bunda Turkiyaning ishtiroki ham salmoqli. Aniqrog'i, Turkiya iqtisodiyoti Yevropa Ittifoqi bilan yuqori darajada integratsiyalashgan. YeI-Turkiya Bojxona ittifoqi sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga nisbatan bojxona to'lovi va boshqa turli cheklovlarni olib tashlashdan tashqari integratsiya jarayonini osonlashtirishda hal qiluvchi vazifani bajaradi. Bojxona ittifoqi turk firmalarining Yevropa ishlab chiqarish tarmoqlariga vertikal integratsiyalashuvini rag'batlantiradi, Turkiya bojxona boshqaruvini modernizatsiya qilishga yordam beradi. Xullas,

mamlakatning Yelga a'zoliqi mintaqada iqtisodiy islohotlarni izchil davom ettirish imkonini yaratdi.

Turkiya 2021 yil eng ko'p tovarni Germaniya va AQSHga eksport qilgan. Bu ikki mamlakat bilan savdo hajmi Turkiya umumiy eksportining 15 foiziga to'g'ri keladi. "Anadolu" agentligi xabar berishicha, "Norvegiya boylik jamg'armasi" 2020 yil oxirigacha Turkiyadagi aksiyalariga 812 million dollar sarmoya kiritgan. Demak, ushbu davlatning iqtisodiy salohiyati ortmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatning iqtisodiy sheriklari ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratyapti. Jumladan, prezident Rejep Tayyip Erdo'g'on va AQSH yetakchisi Jo Bayden uchrashuvida ikki mamlakat o'rtasidagi savdo hajmini 21 milliard dollardan 100 milliard dollarga chiqarish maqsadi ilgari surildi. Yana bir ma'lumot: Turkiyada Germaniya sarmoyasi ishtirokida 7 ming 600 dan ziyod kompaniya faoliyat yuritmoqda. Qolaversa, Turkiya rahbari Germaniya sobiq kansleri Angela Merkelning Istanbulga tashrifi chog'ida tashqi savdo hajmini 50 milliard dollarga yetkazishni ko'zlayotgani haqida ta'kidlagandi.

Germaniya – Turkiya munosabatlari (nemischa: Deutsch-türkische Beziehungen; turkcha: Almanya-Türkiye ilişkileri) Usmonlilar imperiyasi davrida boshlangan va iqtisodiy, harbiy, madaniy va ijtimoiy munosabatlarni o'z ichiga oluvchi va ko'p jihatlariga ega mustahkam aloqalar rivojlanishi bilan tugagan. Turkiya Germaniya ikkinchi eng yirik a'zosi bo'lgan Yevropa Ittifoqiga nomzodligicha qolmoqda. Yana Germaniyada bir necha million kishilik turk diasporasi mavjudligi sabab necha o'n yillar davomida o'zaro aloqalar chambarchas bog'liq holda rivojlandi. Turkiya bilan aloqalar 2016 – 2017-yillardagi Turkiyadagi tozalashlardan keyin sezilarli darajada yomonlashdi. Bunga Die Welt nashri jurnalisti Deniz Yücelning hibsga olingani ham sabab bo'lgan edi.

XIX asr oxiri va Birinchi jahon urushi



Usmonli Yildirim armiyasiga qo'mondonlik qilgan nemis generali Erich Von Falkenhayn va hamrohlik qilgan Jemal Posho.

- Bag'dod temiryo'li

- Usmonli-Germaniya ittifoqi
- Geben va Breslauning ta'qibi
- Birinchi jahon urushining Yaqin Sharq teatri

Germaniyaning Bag'dodga temiryo'l tizimini qurish bo'yicha takliflari inglizlarni xavotirga soldi, chunki bu Britaniyaning Hindiston bilan aloqalari ustidan nazoratini xavf ostiga qo'yar edi. Biroq bu masalalar 1914-yil fevralida tinch yo'l bilan hal qilindi va Buyuk urush bilan yakunlangan iyul inqirozida rol o'ynamadi.

Usmonli-Germaniya ittifoqi Germaniya imperiyasi va Usmonlilar imperiyasi o'rtasida 1914-yil 2-avgustda, Birinchi jahon urushi boshlanganidan ko'p o'tmay tuzilgan ittifoq edi. Ittifoq tobora zaiflashib borayotgan Usmonli qurolli kuchlarini mustahkamlash va modernizatsiya qilish bo'yicha hamkorlikning bir qismi sifatida, shuningdek, Germaniyaning qo'shni Britaniya mustamlakalariga xavfsiz o'tishini ta'minlash uchun tuzilgan edi. Shartnoma qilishda Usmonlilar tashabbusi ko'rsatgan. U 1915-yil yanvarida Usmonlilarning urushga kirishini va'da qilgan keng ko'lamli harbiy ittifoq bilan almashtirildi. Birinchi jahon urushining markaziy kuchlari oxir-oqibat nemislar va Usmonlilar, shuningdek, Avstriya-Vengriya imperiyasi va Bolgariyadan iborat bo'ldi.

Nemis generali Otto Liman fon Sanders Gelipolini himoya etgan Usmonli beshinchi armiyasiga qo'mondonlik qilgan.

Generallar Erich fon Falkenhayn va Otto Liman von Sanders Sinay va Falastin yurishi paytida Usmonlilarning Yildirim armiyasiga qo'mondonlik qilgan.

Ikkinchi jahon urushi



Germaniya-Turkiya o'rtasida do'stlik va hujum qilmaslik to'g'risidagi shartnoma

Ikkinchi jahon urushi davrida Turkiya 1944-yil avgustiga qadar Germaniya bilan diplomatik aloqalarini saqlab turdi. Germaniya-Turkiya do'stlik shartnomasi 1941-yil 18-iyunda imzolangan. 1941-yil oktabrida "Klodius kelishuvi"ga (nemis muzokarachisi doktor Karl Avgust Klodius nomi bilan atalgan) erishildi. Unga ko'ra,

Turkiya 1941-1942-yillarda Germaniyaga 45 000 tonna xromit rudasini eksport qilishi kerak edi va Germaniyaning harbiy uskunalar yetkazib berishiga bog‘liq tarzda 1943-1944 yillarda 90 000 tonnadan mineral eksport qildi. Nemislar rudani tashish uchun 117 ta temiryo‘l lokomotivi va 1250 ta yuk vagonini bergan. Ushbu strategik mineralning Germaniyaga yetkazib berilishi oldini olish maqsadida Qo‘shma Shtatlar va Birlashgan Qirollik “oldinini oluvchi xarid“ga shoshqaloqlik bilan kirishib, kerak bo‘lmasa ham, turk xromitini sotib olgan. “Paket kelishuvi“ doirasida britaniyaliklar va amerikaliklar Turkiyaning quritilgan meva va tamaki mahsulotlarini ham xarid qilgan. 1944-yil avgust oyida Sovet armiyasi Bolgariyaga kirdi va Turkiya bilan O‘q kuchlari o‘rtasidagi quruqlikdagi aloqani uzib tashladi. Turkiya Germaniya bilan diplomatik va savdo aloqalarini uzdi va 1945-yil 23-fevralda Germaniyaga qarshi urush e‘lon qildi.

Siyosiy munosabatlar

Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga qo‘shilishi masalasi

Germaniyaning Turkiya tashabbusini qo‘llab-quvvatlashi ushbu mamlakat siyosiy maydonida izchil bo‘lmagan. Vaqt o‘tishi bilan bu turlicha tus olgan; masalan, sobiq kansler Helmut Kol bu masalaga qarshi chiqqan, Gerhard Shröder esa ashaddiy tarafdor sifatida ko‘rilgan.



Istanbulning Bosfor bo‘g‘ozidan ko‘rinib turgan Levent moliyaviy tumani.

Turkiya Yevropa Ittifoqiga qo‘shilishi bilan Istanbul Yelning eng yirik shahriga aylanadi, Turkiya esa Yevropa Ittifoqining eng yirik (quruqlikdagi) a‘zosi bo‘ladi.

Germaniya kansleri Angela Merkel aniq belgilanmagan hamkorlik tarafdori va Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga to‘liq a‘zo bo‘lishiga qarshi chiqqan. Turkiyaning o‘sha vaqtdagi bosh vaziri Rejep Tayyip Erdog‘an 2009-yil iyul oyida bunga javoban, Biz hech qachon imtiyozli hamkorlikni qabul qilmaymiz. Biz Yevropa Ittifoqiga to‘liq a‘zo bo‘lishni istaymiz. Biz to‘liq a‘zolikdan boshqa narsani xohlamaymiz, degan edi. 2006-yilda Merkel Turkiya o‘z portlarini Yevropa Ittifoqiga

a'zo Kiprga ochishdan bosh tortgani sababli ushbu mamlakatning «Yevropa Ittifoqiga qo'shilishga intilishlari haqida gap ketganda, u og'ir muammoga duch kelishi mumkin», degan edi. Merkel yana shunday qo'shimcha qilgan:

Biz Kipr bilan cheklanmagan savdoga oid Anqara protokollarini ham amalga oshirishimiz kerak. Aks holda, Turkiyaning a'zo bo'lish bo'yicha muzokaralarni davom ettirishi bilan bog'liq vaziyat juda chigallashib ketadi. Men Turkiya bunday murakkab vaziyatga duch kelmasligi va Yevropa Ittifoqi bunday holatga tushirmasligi uchun hamma ishni qilishga chaqiraman.

Merkel, shuningdek, Anqara o'z portlarini Kipr kemalari uchun ochish bo'yicha muzokaralarni yon berishlarsiz davom ettirishini tasavvur qila olmasligini aytgan. Turkiya hukumati bunga javoban Yevropa Ittifoqidan orolning Turkiya nazorati ostidagi qismiga qo'yilgan embargoni bekor qilishni talab qilgan.



Angela Merkel, Emmanuel Makron, Rejep Tayyip Erdog'an va Vladimir Putin Turkiyaning Istanbul shahrida Suriya sammiti doirasida matbuot anjumani o'tkazmoqda. 2013-yil 20-iyunida Anqaraning Taksim maydonida va butun mamlakat bo'ylab ommaviy namoyishlarni bostirishi ortidan Germaniya Turkiya bilan Yevropa Ittifoqiga kirish bo'yicha yangi muzokaralar boshlanishiga to'sqinlik qilgan. *Financial Times* nashriga ko'ra, turk rasmiylaridan biri bunday xatti-harakat Yevropa Ittifoqi bilan siyosiy munosabatlarni uzishi mumkinligini aytgan. Turkiyaning Yevropa Ittifoqi ishlari bo'yicha vaziri Egemen Bagish, Yevropa Ittifoqiga Turkiya Turkiyaga Yevropa Ittifoqidan ko'ra ko'proq muhtoj, dedi. Germaniya ta'kidlashicha, bu shart texnik muammodan kelib chiqqan, biroq Angela Merkel Anqara, asosan, tinch namoyishchilarga qarshi politsiya kuchini ko'p qo'llagani o'zini larzaga solganini aytgan. 25-iyunda Yevropa Ittifoqi tashqi ishlar vazirlari Germaniyaning Turkiya bilan Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lish bo'yicha keyingi muzokaralarini Turkiya noroziliklarga munosabat bildirgani sababli taxminan to'rt oyga kechiktirish taklifini qo'llab-quvvatladi^[5]. Turkiya uchun yangi sahifalarni ochish kechikishi mamlakatning Yevropa Ittifoqiga qabul qilinishiga oid yangi

shubhalarni keltirib chiqardi^[6]. Iyun oyi boshida Germaniya kansleri Angela Merkel Turkiyaning ehtimoliy a'zoliqi haqidagi izohlarida murosas taklifiga to'xtalmadi, biroq Turkiya o'zining a'zolikka intilishlariga turtki berish uchun Yevropa Ittifoqiga a'zo Kipr bilan munosabatlarida oldinga siljishi kerakligini aytdi.

Davlat safarlari. Istanbuldagi Nemis favvorasi gumbazidagi Vilgelm II monogrammasi va Abdul Hamid II tug'rosi, Kayzerning 1898-yilda Turkiyaga safariga bag'ishlangan. 2006-yilda kansler Angela Merkel Turkiyaga tashrif buyurdi va bosh vazir Rejep Tayyip Erdog'an bilan ikki tomonlama munosabatlar bo'yicha muzokara o'tkazdi va Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga kirish masalasini muhokama qildi. 2008-yilda bosh vazir Rejep Tayyip Erdog'an Berlinga rasmiy safar qildi va kansler Merkel bilan uchrashdi, shuningdek, Myunxenga ham bordi. U safari chog'ida Germaniya hukumatiga turk o'rta maktablari tashkil etishni va nemis litseylari uchun Turkiyadan ko'proq o'qituvchilarni yuborishni taklif qildi. 2011-yilda bosh vazir Rejep Tayyip Erdog'an Germaniyaga yana bir marta tashrif buyurdi va Dyusseldorfda nutqi chog'ida Germaniyadagi turklarni integratsiyalashga, lekin assimilyatsiya qilmaslikka chaqirdi, bu bayonot Germaniyada siyosiy norozilikka sabab bo'ldi. 2018-yilda Erdog'anning davlat safari oldidan «Erdogan Not Welcome» uyushmasi Berlin, Essen va Bielefeld shaharlarida norozilik namoyishlari uyushtirdi va ularda taxminan 80-200 kishi ishtirok etdi. Erdog'anning Turkiyadagi va xorijdagi tarafdorlari uchun eng muhim voqea Kyoln jome shaharchasida yangi ko'p million yevrolik masjidning ochilishi bo'ldi. Masjidni Germaniyadagi Turkiya hukumati nazorat qiladigan DITIB islomiy tashkiloti boshqaradi. Masjid Kyolnning Erenfeld tumanida joylashgan bo'lib, «Kichik Istanbul» deb ham ataladi. Tashrif sharafiga uyushtirilgan davlat ziyofatiga mezbonlik qilgan Germaniya prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer Turkiyada bir yilga qamalgan nemis-turk jurnalisti Deniz Yucelning tanqidlariga sabab bo'ldi. Yucel bu safarni Turkiyada erkin, demokratik va dunyoviy jamiyatni orzu qilgan barcha kishilarga nisbatan xiyonat deb atadi.

Iqtisodiy aloqalari. Germaniya va Turkiya tarix davomida bir-biri bilan kuchli iqtisodiy aloqalar o'rnatgan. Ayniqsa, mashinasozlik, elektrotexnika uskunalari va avtotransport vositalari va avtomobil sanoati uchun ehtiyot qismlar Germaniya Turkiyaga eksportining asosiy qismini tashkil qiladi. To'qimachilik/charm buyumlari va oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek, tobora ortib borayotgan motorli transport vositalari va elektron mahsulotlar Germaniya Turkiyadan import qilayotgan asosiy mahsulotlaridir. Ayni paytda Germaniyadagi turk ishbiarmonlariga tegishli kompaniyalarda 200 mingga yaqin kishi ishlaydi. Turkiyaga har yili uch milliondan ortiq nemis sayyoh tashrif buyuradi. Turkiyada 4000 dan ortiq nemis kompaniyasi faoliyat yuritadi. Germaniya tashqi savdo, moliyaviy va texnik hamkorlik, turizm va

mudofaa sanoati kabi sohalarda Turkiyaning eng birinchi sherigi bo‘lib qoldi. 2020-yilda Germaniya Turkiyaning eng katta savdo sherigi bo‘lib, o‘zaro savdo hajmi 38 milliard dollarni tashkil qildi. Nemis kompaniyalari Turkiyaning energetika sohasiga qariyb 25 milliard yevro sarmoya kiritgan.

Turkiya va Germaniya siyosiy partiyalari o‘rtasidagi munosabatlar

HDP va Germaniyaning yashillar partiyasi. Germaniya Yashillar partiyasi rahbari Jem O‘zdemir Shirnakdagi to‘qnashuvlar paytida Turkiyada, 2015-yil 15-sentabr 2015-yilning mayida Germaniyaning «Alyans '90/Yashillar» partiyasi Germaniyada yashovchi turk vatandoshlarini 2015-yil iyunida bo‘lib o‘tgan Turkiya umumiy saylovida Turk partiyasi HDP'ga (Demokratik partiya) ovoz berishga undagan.

AKP va CDU

2004-yil 16-fevralda Germaniya muxolifati CDU'ning (Germaniyaning xristian-demokratik partiyasi) o‘sha paytdagi raisi Angela Merkel Turkiyaning hukmron partiyasi AKP vakillari bilan uchrashgan edi. Matbuotning bunga munosabati taajjub uyg‘otgandi. Masalan, Germaniyaning «Der Spiegel» jurnali dastlab «Anti-Türkei-Reise» (*Aksil-Turkiya-sayohati*) haqida yozgan, oradan bir necha soat o‘tib esa «CDU islamischer AKP kooperieren» (*CDU islomiy AKP bilan hamkorlik qiladi*)^[29] deya xabar tarqatgan. 2016-yil 31-iyulda Germaniyaning yakshanba kuni chiqadigan «Bild am Sonntag» gazetasi ma’lum qilishicha, «Union der Vielfalt», CDU a’zolaridan iborat guruh partiya rahbariyatini AKP mamlakatga kirib kelishidan ogohlantirgan^[30].

Rejep Tayyip Erdog‘an va FDP siyosatchisi Wolfgang Kubicki

2022-yil sentabrda Rejep Tayyip Erdog‘an Ozod Demokratik partiya (FDP) siyosatchisi va Bundestag vitse-prezidenti Wolfgang Kubickini haqorat qilganlikda ayblab, sudga bergan^[31].

Turk diasporasi



Turk va kiprlik turk yoshlari Shlezvig-Golshteynning Uetersen shahrida Usmonli harbiy orkestri sifatida chiqish qilmoqda. Germaniyada kamida 2,1 million turk istiqomat qiladi, ular eng katta etnik ozchilikni tashkil etadi. Ularning mutlaq ko‘pchiligi G‘arbiy Germaniyada yashaydi. Germaniya hukumati XIX asrdan boshlab

yaxshi bo‘lib kelgan turk-german munosabatlariga asoslangan holda turklarning o‘z mamlakatiga ko‘chishini qo‘llab-quvvatlagan. Biroq katta miqyosdagi ko‘chish XX asrgacha yuz bermagan. Germaniya Ikkinchi jahon urushidan keyin ish kuchining keskin tanqisligidan aziyat chekkan va 1961-yilda Germaniya Federativ Respublikasi (G‘arbiy Germaniya) bu bo‘shliqni to‘ldirish, xususan, Germaniyaning iqtisodiy mo‘jizasini kuchaytirishga yordam bergan zavodlarda ishlash uchun turk ishchilarini o‘z mamlakatiga rasman taklif qilgan. Nemis hukumati bu odamlarga *Gastarbeiter* (nemischa *mehmon ishchilar*) deb nom bergan. Germaniyadagi turklarning ko‘pchiligi o‘z ajdodlarini Markaziy va Sharqiy Onado‘lidan deb biladi. Bugungi kunda turklar Germaniyadagi eng katta etnik ozchilikdir va Germaniyadagi musulmon ozchilikning aksariyat qismini tashkil qiladi.

REFERENCES

1. Nejat Doğan. Nato'nun O'rgutsel Değişimi, 1949- 1999: Kuzey-Atlantik İttifakından Avrupa-Atlantik Guvenlik Orgutune. Erciyes Universitesi. 2000.
2. Ali. S. USA Nukes in Turkey. Eurasia Review: A Journal of Analysis and News. September 1, 2016. URL: <http://www.eurasiareview.com/01092016-us-nukesin-turkey-oped>.
3. Mustafa Kibaroglu. Turkiye-NATO ilişkileri. Istanbul: Copyright. 2017. Марина Коваленко. На Турцию напало НАТО. 18.09.2018. URL:<https://www.kommersant.ru/doc/4613271>
4. Каипбергенова, Д. О. (2016). The role of language learning strategies in learning foreign languages. *Молодой ученый*, (12-4), 83-85.
5. Orakbaevna, K. D. (2023). MAMLAKATIMIZDA CHET TILLARINI O'RGANISHDAGI ZAMONAVIY METOD VA METODOLIYA. *Научный Фокус*, 1(1), 1472-1478.
6. Orakbaevna, K. D. (2023). GLABALLASHUV DAVRIDA TA'LIM VA TARBIYANING UZVIYLIGI. *Научный Фокус*, 1(1), 1466-1471.
7. Kaipbergenova, D. (2023). BUGUNGI KUNDAGI MAMLAKATIMIZDA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA ULARNING NATIJALARI. *World scientific research journal*, 15(2), 3-7.
8. Каипбергенова, Д., & Жуманиёзова, Н. С. (2023). БУГУНГИ КУН ТАЛАБА ЁШЛАРИДА АХЛОҚИЙ ДУНЁҚАРАШИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 652-668.
9. Orakbayevna, K. D., Normuminovich, M., & Muxiddinovna, M. Z. (2021). English language teaching methodology for non-native speakers. *Linguistics and Culture Review*, 5(S3), 1721-1725.

10. Orakbayevna, K. D. (2022, February). SYNTACTIC AND SEMANTIC FEATURES OF COMPARISON IN ENGLISH, UZBEK AND RUSSIAN LANGUAGES. In *Conference Zone* (pp. 145-147).
11. KHUSENALIYEVNA, K. D., CHORIYEVNA, A. Z., & ORAKBAYEVNA, K. D. (2021). Lexico-semantic features of technical teams of English and Uzbek languages. *Journal of Contemporary Issues in Business and Government*, 27(2), 4083-4088.
12. Orakbayevna, K. D. (2022). THE IMPORTANCE OF GRAMMAR IN LEARNING A FOREIGN LANGUAGE. *Confrencea*, 7(7), 69-72.
13. Orakbayevna, K. D. (2022). Using effective language learning strategies in teaching English. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, 2, 1-3.
14. Orakbaevna, K. D. (2022). USING THE PRINCIPLE OF UNITY IN EDUCATION. *PEDAGOG*, 1(4), 1467-1473.
15. Турдимуратов, Я. А. (2022). КОЧЕВОЕ ХОЗЯЙСТВО УЗБЕКОВ ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА В КОНЦЕ XIX–НАЧАЛО XX ВВ. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(7), 546-557.
16. Turdimuratov, Y. A. (2023). О ‘ZBEKISTONDA BOLALAR SPORTINI RIVOJLANTIRISHGA OID DAVLAT SIYOSATI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(2), 144-152.

ИССЛЕДОВАНИЯ ГЕНДЕРНОГО ЯЗЫКА В КОГНИТИВНОМ АСПЕКТЕ

Низомитдинова З.А.

преподаватель,

Ферганский государственный университет, Узбекистан

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена исследованию гендерного языка в когнитивном аспекте. В работе рассматриваются культурные, социальные и когнитивные механизмы формирования гендерных стереотипов в языке, а также их воздействие на когнитивные процессы восприятия и интерпретации языка.

Ключевые слова: *гендерный язык, когнитивные процессы, гендерные стереотипы, языковой анализ, социокультурные аспекты.*

KOGNITIV NUQTAI NAZARDAN GENDER TILI BO'YICHA TADQIQOTLAR

Nizomitdinova Z. A.

O'qituvchi,

Farg'ona Davlat Universiteti, O'zbekiston

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola gender tilini kognitiv kontekstda o'rganadi. Tadqiqot tildagi gender stereotiplarini shakllantiruvchi madaniy, ijtimoiy va kognitiv mexanizmlarni va ularning idrok etish va talqin qilishning kognitiv jarayonlariga ta'sirini o'rganadi. Tadqiqot tildagi gender stereotiplarini shakllantiradigan madaniy, ijtimoiy va kognitiv mexanizmlarni va ularning idrok etish va talqin qilishning kognitiv jarayonlariga ta'sirini o'rganadi.

Kalit so'zlar: *gender tili, kognitiv jarayonlar, gender stereotiplari, til tahlili, ijtimoiy-madaniy jihatlar*

Гендерный язык представляет собой явление, связанное с использованием языка в контексте гендерных отношений и ролей в обществе. Это включает в себя языковые структуры, лексику и выражения, которые могут содержать элементы, связанные с половой идентичностью и социокультурными стереотипами [1]. Гендерный язык исследует, как язык может отражать, укреплять или вызывать гендерные неравенства.

Изучение гендерного языка в когнитивном аспекте представляет собой важный шаг в понимании того, как язык формирует и воздействует на наше когнитивное восприятие гендерных ролей и идентичности. Когнитивный подход к гендерному языку фокусируется на том, как языковые структуры и выражения влияют на когнитивные процессы, такие как восприятие, память, и мышление, в контексте гендерных концепций.

Изучение гендерного языка с когнитивной перспективы помогает раскрыть тонкие детали того, как слова и фразы могут формировать представления и установки о гендере, влияя на наши когнитивные схемы. Этот аспект исследования также ставит вопросы о воздействии гендерного языка на мыслительные процессы и принятие решений в обществе.

Гендерные роли, формируемые в обществе, оказывают значительное влияние на языковые конструкции. Культурные и социальные аспекты гендерных ролей отражаются в языке через выбор слов, выражений и фраз, которые могут укреплять или подрывать стереотипы о том, какими должны быть мужчины и женщины. Эти аспекты включают в себя использование гендерно-специфичных терминов, прилагательных и грамматических форм, которые могут создавать определенные ожидания и представления о ролях в обществе[2].

Когнитивные механизмы, лежащие в основе формирования языковых стереотипов, играют ключевую роль в процессе восприятия и интерпретации языка с точки зрения гендера. Эти механизмы включают в себя когнитивные схемы и ассоциативные связи, которые формируются в результате обучения и социокультурного воздействия. Например, частое сочетание определенных прилагательных с определенными гендерными группами может укреплять стереотипы и влиять на восприятие гендерных характеристик в языке.

Изучение культурных и социальных аспектов гендерных ролей в контексте языка, а также анализ когнитивных механизмов формирования стереотипов, позволяет более глубоко понять взаимосвязь между языком и гендерными конструкциями, а также выявить механизмы, через которые язык может влиять на формирование гендерных установок в обществе.

Когнитивные процессы, связанные с формированием гендерных стереотипов, в значительной мере опираются на ассоциативные сети в языковом когнитивном восприятии. Люди формируют ассоциации между словами, фразами и гендерными категориями, создавая сложные сети, которые влияют на их представления о мужчинах и женщинах. Например, определенные

профессии могут ассоциироваться с определенным полом, укрепляя стереотипы о том, какие роли считаются "женскими" или "мужскими".

Гендерные стереотипы оказывают существенное влияние на восприятие языка, когда люди интерпретируют и осмысливают сообщения. Когда языковые конструкции соответствуют или нарушают устоявшиеся гендерные стереотипы, это может вызывать различные реакции и восприятия. Например, использование "женских" или "мужских" форм в профессиональных областях может повлиять на восприятие компетентности и статуса говорящего. Эти когнитивные процессы представляют собой сложную динамику взаимодействия между языком и формированием гендерных стереотипов.

Изучение ассоциативных сетей и воздействия гендерных стереотипов на восприятие языка позволяет понять, как эти процессы взаимодействуют и как они влияют на формирование представлений о гендере в языковой практике. В результате исследования этих когнитивных аспектов можно выявить стратегии для изменения существующих стереотипов и создания более инклюзивного языкового пространства.

Анализ языковых корпусов представляет собой мощный инструмент для изучения гендерного языка в контексте реальных текстов и коммуникации. Исследователи проводят систематический анализ больших объемов текстовых данных, выделяя гендерно-специфичные элементы, такие как употребление определенных слов, грамматических форм и фраз. Этот подход позволяет выявить тенденции в использовании языка, связанные с гендерными стереотипами, и определить, как эти стереотипы проявляются в различных областях общества, от медиа до профессиональной сферы.

Экспериментальные методы предоставляют возможность более активного вмешательства и контроля в исследовательском процессе. Эксперименты могут включать в себя создание контролируемых языковых [3] сценариев, анкетирование, а также использование технологий, таких как оцифрованные реакции или нейрообразование [4], для измерения когнитивных реакций на гендерно-загруженные языковые структуры. Этот подход позволяет более точно изучать влияние гендерного языка на когнитивные процессы и реакции.

Исследования гендерного языка в лингвистике, используя анализ языковых корпусов и экспериментальные методы, не только расширяют наше понимание гендерных динамик в языке, но и предоставляют конкретные данные для разработки стратегий по изменению языковых практик в направлении более равноправного и инклюзивного общества [5].

Перед будущими исследованиями гендерного языка в когнитивном контексте стоит задача развития и усовершенствования методологических подходов. Это включает в себя создание более точных инструментов для анализа ассоциативных сетей, а также разработку более сложных экспериментальных протоколов, способных учитывать множество когнитивных факторов. Исследователи будут стремиться к установлению более прочных связей между лингвистикой, когнитивной психологией и гендерными исследованиями.

Будущие исследования направлены на более глубокое понимание того, как гендерный язык влияет на когнитивные процессы. Это может включать в себя анализ эмоциональных реакций, изменения внимания и восприятия, а также влияние на принятие решений. Исследователи будут стремиться расширить методологические рамки для включения более сложных моделей и подходов, позволяющих более полно охватывать взаимосвязь между гендерным языком и когнитивными функциями [6].

Перспективы будущих исследований гендерного языка в когнитивном контексте предоставляют возможность не только углубить наше понимание взаимосвязи между языком и когнитивными процессами, но и создать более эффективные стратегии для преодоления гендерных стереотипов и сексизма в языке.

Несмотря на значительные достижения, перед исследователями по-прежнему стоят вызовы и перспективы. Развитие методологии, включая более точные инструменты анализа и экспериментальные подходы, требует дальнейших усилий. Важно продолжить исследования влияния гендерного языка на когнитивные процессы, освещая более глубокие аспекты этой взаимосвязи.

В целом, исследования гендерного языка в когнитивном аспекте играют ключевую роль в формировании понимания того, как язык не только отражает, но и влияет на формирование гендерных представлений в обществе. Решение этих задач не только расширит наши знания в области лингвистики и когнитивной науки, но и содействует созданию более справедливого и инклюзивного языкового пространства.

ЛИТЕРАТУРА (REFERENCES)

1. Coffey-Glover, L. (2018). Approaches to Studying Language and Gender. In *Men in Women's Worlds* (pp. 19-33). Palgrave Macmillan UK

2. Koenig, M. A., & Eagly, A. H. (2014). Evidence for the social role theory of stereotype content: Observations of groups' roles shape stereotypes. *Journal of Personality and Social Psychology*, 107(3), 371–392
3. Sczesny, S., Formanowicz, M., Moser, F., & Montañés, P. (2016). Gender-fair language: A reaction to the masculine generic. *Journal of Language and Social Psychology*, 35(4), 357–368
4. Лукьянова, Е. (2019). Гендерный язык: проблемы и перспективы. *Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Лингвистика*, (2), 212-219
5. Кузнецова, А. (2017). Гендерный язык: теоретические и практические аспекты. *Вестник Московского университета. Серия 22: Социология*, (1), 5-19
6. Шарова, Е. (2018). Гендерный язык: проблемы и перспективы. *Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Лингвистика*, (4), 226-232

МИГРАЦИОН ЖАРАЁНЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ АСОСЛАРИ: ЯҚИН ШАРҚ АРАБ ДАВЛАТЛАРИ МИСОЛИДА

Мадаминова Дурдона Искандаровна

Шарқ мамлакатлари сиёсати ва халқаро муносабатлар
кафедраси доценти, с.ф.н.

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Яқин Шарқ минтақасидаги миграцион жараёнларнинг кечиши, уларнинг сабаб ва оқибатлари ҳамда муаммонинг ечими юзасидан минтақа давлатлари ўртасидаги ҳамкорликни ривожлантириши истқболлари, бу борада халқаро ва минтақавий ташкилотларнинг тутган ўрни юзасидан таҳлил ўтказилган.

Калит сўзлар: миграция, хавфсизлик, иқтисодий миграция, энергетика омили, демографик динамика, гуманитар инқироз, иқтисодиёт тармоқлари, иқлим миграцияси, табиий омиллар, трансмиллий хусусиятлар, халқаро ва минтақавий ташкилотлар, иммиграция, эмиграция, ремиграция, репатриация.

АННОТАЦИЯ

В данной статье проведен анализ миграционных процессов на ближневосточном регионе, их причины и последствия, а также перспективы развития сотрудничества между странами региона, дана оценка роли международных и региональных организаций по урегулированию данного процесса.

Ключевые слова: миграция, безопасность, экономическая миграция, энергетический фактор, демографическая динамика, гуманитарный кризис, отрасли экономики, климатическая миграция, природные факторы, транснациональные особенности, международные и региональные организации, иммиграция, эмиграция, ремиграция, репатриация.

ABSTRACT

This article analyzes migration processes in the Middle East region, their causes and consequences, prospects for developing cooperation between the countries of the region, and the role of international and regional organizations in this regard.

Key words: migration, security, economic migration, energy factor, demographic dynamics, humanitarian crisis, economic sectors, climate migration, natural factors, transnational characteristics, international and regional organizations, immigration, emigration, re-emigration, repatriation.

КИРИШ

Маълумки, 2018 йилда БМТнинг ташаббуси билан қабул қилинган “Хавфсиз, тартибли ва қонуний миграция ҳақида”ги глобал шартнома (ХМШ) [1], меҳнат муҳожирларини ҳимоя қилиш билан боғлиқ глобал характердаги муҳим ҳужжатлардан бири ҳисобланади. Унга кўра, аъзо давлатлар томонларнинг манфаатларига мос тарзда, миграцияга оид мақсадларни амалга ошириш мажбуриятини олганлар.

2015 йилда БМТ томонидан 2030 йилга қадар Барқарор ривожланиш мақсадларига соғлиқни сақлаш, гендер тенглигини таъминлаш, шунингдек, хавфсиз, тартибли ва қонуний миграцияни йўлга қўйиш, бир сўз билан айтганда, халқаро муҳожирлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш орқали эришиш кўзда тутилган[2].

Адабиётлар таҳлили ва методлар: Мақола тайёрлаш жараёнида мавзуга доир араб, инглиз ва рус олимларининг илмий ишларига муурожаат қилинди.

Муҳокама: Бугунги кунда фаолиятининг асоси муҳожир ва қочоқларга кўмак беришдан иборат бўлган халқаро нодавлат ташкилотлар бир қатор қийинчиликлар гирдобида қолгани боис, мигрантларга кўмак бериш жараёни тобора мураккаб тус олмоқда. Мавжуд вазият муҳожирларга хизмат кўрсатиш имконини чеклабгина қолмай, балки давлат тузилмалари ва бюджетга қўшимча масъулиятнинг юкланишига сабаб бўлмоқда. Натижада, давлатлар ва маҳаллий аҳоли орасида миграция, хусусан, қочоқлар муаммосига нисбатан салбий муносабатда бўлиш ҳолатлари кучаймоқда.

Ксенофобик кайфият замирида кечаётган мавжуд вазият, миграция муаммосининг долзарблигини тўлақонли англаш имконини чеклаш билан бир қаторда, кўплаб ижтимоий-иқтисодий ва демографик муаммоларга қарши кураш механизмларини ишлаб чиқиш имконини берувчи миграция сиёсати самарадорлигининг пасайишига сабаб бўлмоқда.

Қашшоқлик ва ижтимоий тенгсизлик, туғилиш ва касалликлар, жиноятчилик ва инсон ҳуқуқларининг поймол этилиши, айирмачилик ва коррупция каби муаммолар миграцион оқимлар билан боғлиқ ҳолда, қабул қилувчи ва юборувчи давлатларда кузатиловчи ижтимоий муаммоларнинг тўлақонли мажмуини ташкил этмайди.

Қабул қилувчи давлатлар томонидан меҳнат муҳожирларининг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилишда, ХМТнинг “Меҳнат мигрантлари ва уларнинг оила аъзолари ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Конвенциясини ратификация қилиш, “Хавфсиз, тартибли ва қонуний миграция тўғрисида”ги

глобал шартномани амалга татбиқ этиш ҳамда БМТнинг барқарор ривожланиш мақсадларига эришиш талаб этилади.

Яқин Шарқ араб давлатларининг миграция муаммосини ҳал этиш борасидаги сиёсатини таҳлил қилган ҳолда, унинг икки ва кўп томонлама форматга эга эканлигини кўришимиз мумкин.

Форс Кўрфази Араб давлатлари ҳамкорлик кенгаши. ФКАДХК фаолияти, Яқин Шарқ араб давлатларининг миграция сиёсатини тартибга солиш борасидаги кўптомонлама форматга мисол бўла олади. Шунга кўра, минтақадаги миграцион оқимларнинг катта қисмини қабул қилувчи бадавлат араб давлатларини ўзида бирлаштирган мазкур бирлашма, мавжуд муаммони манфаатдор томонлар билан биргаликда ҳал этишни мақсад қилган.

Маълумки, меҳнат миграцияси ФКАДХКга аъзо давлатларнинг (Саудия Арабистони, БАА, Қатар, Ўмон, Баҳрайн ва Қувайт) иқтисодий раванқи учун кўп қиррали ва муҳим аҳамиятга эга. Шу билан бирга, ҳар бир давлатнинг индивидуал ривожланиш хусусиятлари, мавжуд муаммолар ҳамда минтақанинг ривожланиш тенденциялари ва истиқболларини ҳисобга олган ҳолда, меҳнат бозорини янада ислоҳ қилиш долзарб саналади.

Сўнгги ўн йилликларда ФКАДХК аъзо давлатларни ўзида бирлаштирган, алоҳида вазнга эга бўлган кенгаш вазифасини ўтаб келмоқда. САПнинг марҳум қироли Фаҳд Ибн Абдулазиз ФКАДХК ҳақида фикр юритиб, “Мазкур Кенгаш интеграцион ҳамкорлик намунасига айланган ҳолда, АДЛга аъзо давлатлар ўртасидаги муносабатларни мустаҳкамлаши ҳамда ташқи таҳдидларга қарши курашда қалқон вазифасини ўташи лозим”, дея таъкидлаган[3]. Бугунги кунда Араб монархияларининг ФКАДХК доирасидаги ҳамкорлигининг асосий йўналиши, аъзо давлатлар мудофаа қобилиятини мустаҳкамлаш, умумий мудофаа инфратузилмасини шакллантириш ҳамда бу борада глобал миқёсда ягона ташқи сиёсат юритиш йўли билан минтақавий хавфсизликни таъминлашга қаратилган. 1994 йилда ФКАДХК саммити доирасида аъзо давлатлар томонидан илк бор “зўравонликнинг ҳар қандай кўринишларини инкор этиш ва бағрикенгликни тарғиб этишга асосланган исломнинг ҳақиқий қадрият ва тамойилларини талқин қилиш” бўйича ягона ёндашувнинг расман ишлаб чиқилганлиги, юқоридаги фикримизни тасдиқлайди [4].

XX асрда Арабистон ярим оролининг барча монархиялари, миллий даромад ва аҳоли турмуш даражасига кўра, мисли кўрилмаган миқёсдаги юқори ўсиш суръатларига эришдилар. Бунга ягона саноат тармоғи, яъни углеводородларни ишлаб чиқариш ва экспорт қилиш орқали эришилган бўлиб, шу йўл билан улар ривожланаётган давлатлар қаторига кўшилишда давом

этдилар. Ушбу давлатлардаги нефть конлари ўзлаштирила бошлагач, хорижлик ишчи ва мутахассисларни миллий иқтисодиётга жадал тарзда жалб қилиш ишлари бошланди. Бунинг натижасида 1970-2000 йиллар оралиғида, яъни жаҳон бозорида энергия ресурсларининг нархи юқори кўрсаткичга эга бўлган даврда минтақага бўлган миграцион оқимлар сафи кенгайди. Аммо, мазкур жараён минтақа давлатлари учун нафақат ижобий, балки салбий оқибатларни ҳам келтириб чиқарди. Ўтказилган таҳлиллар, сўнгги йилларда ФКАДХКга аъзо давлатларда мавжуд ҳолат тобора салбий тус олганини кўрсатмоқда. Бу эса, ўз навбатида миллий меҳнат бозорларини ислоҳ қилиш заруратини келтириб чиқармоқда.

Таъкидлаш жоизки, ФКАДХКга аъзо давлатлар дунёдаги ягона рецепиент давлатлар эмас, аммо мазкур давлатларда меҳнат ресурсларини жалб қилишнинг ўзига хос ноёб тизими шаклланганлигини тан олмай иложи йўқ. Бугунги кунда, ФКАДХКга аъзо давлатлардаги меҳнат муҳожирларининг умумий сони, уларнинг оила аъзолари билан биргаликда 28 миллиондан ортиқ кишини ташкил этади. Бу эса, мазкур бирлашмага аъзо давлатлар аҳолисининг қарийб ярмини ташкил этади. Шу билан бирга, ҳар бир давлат миқёсидаги муҳожирларнинг улуши сезиларли даражада фарқланади. Шундай қилиб, БАА ва Қатарда бу кўрсаткич халқаро миқёсдаги энг юқори даражага етган бўлиб, 90% ни ташкил этади. Аммо, эътиборга молик жиҳати шундаки, минтақанинг барча давлатларидаги меҳнат муҳожирлари бирдек, иқтисодий ривожланиш ва ЯИМ ҳажмига сезиларли таъсир кўрсатади. Айрим давлатлардаги хусусий секторда банд бўлган ишчи кучининг 99 фоизини айнан муҳожирлар ташкил этади. Маҳаллий аҳоли давлатнинг иқтисодий ҳаётида деярли иштирок этмайди. Улар маъмурий бошқарув органлари ходимлари ёки мансабдор шахслар сифатида фаолият юритадилар. Мавжуд омил давлат тузилмаларидаги иш ўринлари сонининг сунъий равишда кўпайишига, ишбилармон доираларнинг эса, хорижлик мутахассисларга бўлган талабининг янада ортишига сабаб бўлди. Дарҳақиқат, хорижлик мутахассислар муҳим аҳамиятга молик бўлган давлат органлари фаолиятида ҳам иштирок этадилар. Масалан, сўнгги ўн йилликларда БАА миллий разведка хизматлари тизимини янада такомиллаштириш мақсадида мисрлик зобитлар хизматидан кенг фойдаланилган. Айни пайтда, хорижлик мутахассисларни саноат, инфратузилмани ривожлантириш, хизмат кўрсатиш каби соҳаларга жалб қилмай туриб, давлат равнақини таъминлаш билан боғлиқ бўлган юқори марраларга эришиб бўлмайди. Шу билан бирга, ушбу жараён ФКАДХКга аъзо бўлган барча давлатлар миллий хавфсизлиги учун таҳдиддир.

Давлатларнинг миллий бойлиги бўлган энергия ресурсларини экспорт қилиш ҳисобидан, яъни меҳнат унумдорлиги билан боғлиқ бўлмаган ҳолда, даромад олиш ҳамда меҳнат бозоридаги тақчилликни хорижлик ишчи кучи ва мутахассислар ҳисобидан қаноатлантириш имконининг мавжудлиги, маҳаллий аҳоли орасида меҳнатсеварлик иштиёқининг пасайишига сабаб бўлди. Натижада араб монархиялари фуқаролари орасида мавжуд касбларда меҳнат қилишдан у қадар қониқиш ҳосил қилмаслик ҳисси шаклланди. Юқоридагилардан келиб чиқиб, маҳаллий аҳолининг меҳнат бозоридаги бегоналашуви билан боғлиқ мавжуд ҳолатни миллий фожиа сифатида баҳолаш мумкин. Бу эса, ўз навбатида аҳоли орасида кадрлар тайёрлаш сиёсатини юритиш ҳамда ёшларни миллий кадриятлар руҳида тарбиялаш заруратини келтириб чиқарди.

Маълумки, Европа Иттифоқининг айрим давлатларида демографик ўсиш суръатлари хусусиятидан келиб чиқиб, меҳнатга лаёқатли бўлган аҳоли қатламининг тақчиллиги кузатилган. Аммо, Қатар ва БАА каби давлатлар мисолида бунинг аксини кўриш мумкин. Зеро, ФКАДХКга аъзо давлатларда демографик ўсиш суръатлари юқори бўлиб, меҳнатга лаёқатли фаол аҳоли қатламининг ўсиш тенденцияси мавжуд. Шундай бўлсада, иқтисодиётнинг реал секторида улардан меҳнат ресурси сифатида фойдаланиш тобора имконсиз бўлиб бормоқда. Буларнинг бари, сўнгги йилларда ФКАДХКга аъзо давлатларда ишсизлик даражасининг ошишига сабаб бўлмоқда. Шу билан бирга, Саудия Арабистони, Ўмон, Баҳрайн ва Кувайт каби давлатларда фуқаролар орасида иш ўринларининг етишмаслиги билан боғлиқ бўлган норозилик кайфияти юзага келмоқда. Бунинг ортида 2010-йилларда ҳукуматга қарши намоёишлар ҳам кузатилган. Юқоридагилар билан бир қаторда, маҳаллий аҳоли ва муҳожирлар ўртасидаги муносабатлар миллатчилик кайфиятининг авж олиши, мигрантларга нисбатан меҳнат бозорини ўзлаштириш билан боғлиқ айбловларнинг қўйилиши, адолатсиз рақобат муҳити, муҳожирлар иштирокидаги жиноятчиликнинг авж олиши ва миграцияга оид сиёсатга нисбатан танқидий руҳнинг шаклланганлиги кабилар замирида тобора кескинлашмоқда. БАА ва Қатарда, ишсизлар сони ортганига қарамай, аҳоли даромадининг юқорилиги сабабли оммавий тартибсизликлар рўй бермади. Бироқ, келгусида мавжуд ҳолат давлатнинг иқтисодий равнақи ва сиёсий барқарорлигига раҳна солиши табиий.

Яқин Шарқ минтақаси давлатларида миграцион вазият билан боғлиқ ҳолда кузатилган муҳим хусусиятлардан яна бири, хорижлик ишчи ва мутахассисларнинг мақоми билан боғлиқ. Маҳаллий фуқаролар билан бир

қаторда, тенг ҳуқуқларга эга бўлиш ҳамда фуқароликни қўлга киртиш имкони мавжуд бўлган Европа Иттифоқи давлатларидан фарқли ўлароқ, Араб монархияларида бу борадаги вазият сезиларли даражада фарқ қилади. Масалан, хорижликлар учун ФКАДХКга аъзо давлатларнинг фуқаролиги истисно тариқасидагина, олий сиёсий раҳбариятнинг қарори асосида берилади. Бу борада истисно тариқасида сўнгги бир неча йил ичида Баҳрайнда юритилган сиёсатни мисол қилиб келтиришимиз мумкин. Маълумки, сўнгги йилларда Баҳрайн томонидан бошқа араб давлатларининг 100 мингдан ортиқ аҳолисига фуқаролик бериш амалиёти қўлланиб келмоқда. Аммо, мазкур ҳолат муайян сиёсий сабабларга кўра вақтинча қўлланилган чоралардан биридир. Айни шу боисдан, инглиз тилидаги манбаларда ФКАДХКга аъзо давлатлардаги хорижлик ишчилар ҳақида сўз борганда, кўп ҳолларда “мигрантлар” сўзи ўрнида “экспатлар[5]” атамасидан кенг фойдаланилади. Зеро, мазкур атама орқали вақтинчалик асосда ташриф буюрувчилар ҳақида сўз юритилади.

Сўнгги йилларда кўплаб араб монархияларида қуллар меҳнатидан фойдаланиш, инсон ҳуқуқларининг поймол этилиши ҳамда меҳнат муҳожирларининг эксплуатацияси билан боғлиқ муаммолар, Яқин Шарқ минтақасидаги миграция сиёсатининг оғриқли жиҳатларидан бири бўлиб қолмоқда. Гарчанд, реципиент давлатларнинг барчасида бу каби муаммолар кузатилиши табиий ҳол бўлса-да, ФКАДХКга аъзо давлатлардаги мавжуд вазият инсон ҳуқуқлари ташкилотлари томонидан жиддий танқид остига олинмоқда. Арабистон ярим ороли давлатларида меҳнат муҳожирларининг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тизимини ислоҳ қилишда ҳам айнан ташқи кучларнинг танқидий қарашлари сабаб бўлган. Зеро, Европа Иттифоқида ташриф буюрувчи муҳожирларга ғамхўрлик кўрсатиш миграция сиёсатининг муҳим ва ажралмас қисми ҳисобланади. Арабистон ярим ороли давлатларида эса, сўнгги йилларда миграцион вазиятни тартибга солиш ва меҳнат шароитларини яхшилашга уринишлар, асосан, қонун ҳужжатларини қабул қилиш ва назорат органларини ташкил этиш йўли билан амалга оширилди. Аммо, ҳанузгача мазкур давлатлардаги вазиятни қониқарли деб бўлмайти.

Бундан ташқари, ФКАДХКга аъзо давлатлар БМТнинг 1951 йилдаги “Қочоқлар мақоми тўғрисидаги” Конвенциясига қўшилмаган. Бугунги кунда Форс кўрфази давлатларининг Яқин Шарқ минтақасидаги миграцион вазиятни барқарорлаштириш борасидаги сиёсати, аввало ички кўчирилганлар ва қочоқларга инсонпарварлик ёрдамини кўрсатишга қаратилган бўлиб, бунда муҳожирларни ўз ҳудудида қабул қилиш кўзда тутилмаган. Шундай қилиб, Ғарб давлатлари, БМТ ва бир қатор инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш билан

шуғулланувчи халқаро ташкилотларнинг танкидий рухтаги қарашларига қарамай, Арабистон ярим оролидаги монархиялар Яман ва Сурия фуқароларини ўз ҳудудларида нафақат қочоқ, балки меҳнат муҳожирлари сифатида жойлаштириш истагини билдирмадилар. Эътиборга молик жиҳати шундаки, ягона тил ва маданиятга эга бўлган араб давлатлари фуқаролари, Форс кўрфази араб давлатларига интилаётган хорижлик фуқаролар орасида устувор аҳамият касб этмайдилар. Буни, қабул қилувчи давлат раҳбарларининг араб диаспораларидан фойдаланган ҳолда, ички сиёсий вазиятни издан чиқаришга бўлган уринишлардан хавфсираш ҳисси билан боғлаш мумкин. Яқин келажакда мавжуд тенденциянинг ўзгариши ҳам эҳтимолдан йироқ.

ФКАДХКга аъзо давлатлар донор давлатлар учун муҳим даромад манбаи ҳисобланади. Зеро, меҳнат муҳожирлари ўз даромадларининг катта қисмини ўз ватанларига жўнатадилар. Бунда, иқтисодиётга қайтмайдиган пул массасининг чиқиб кетиш ҳажми жуда юқори бўлиб, 2017 йил ҳолатига кўра келтирилган рақамлар юқоридаги фикримизни тасдиқлайди: Баҳрайнда ЯИМнинг 6,6 фоиз, Қувайтда ЯИМнинг 8,8 фоиз, Ўмонда ЯИМнинг 11,7 фоиз, Қатарда ЯИМнинг 5,6 фоиз, Саудия Арабистонида ЯИМнинг 4,7 фоиз, БААда ЯИМнинг 4,6 фоиз. Ушбу кўрсаткични бошқа давлатлар билан қиёслаганда, унинг нечоғли юқори эканини англаш мумкин. Жумладан, кўпсонли муҳожирларни қабул қилувчи Франция ва Германия каби Европа давлатларида мазкур кўрсаткич ЯИМнинг 1 фоиздан ошмайди. Мавжуд ҳолат, ФКАДХКга аъзо давлатлардаги хорижликларнинг нафақат юқори улушга эга эканлиги, балки миграция сиёсатининг ўзига хос хусусиятлари билан ҳам характерланади. Маълумки, кўплаб муҳожирлар ўз оила аъзолари билан биргаликда яшаш имконига эга бўлмай, уларнинг кўплаб соҳалардаги ҳуқуқлари чекланган. Европа Иттифоқидаги муҳожирлардан фарқли ўлароқ, улар кўчмас мулк сотиб олиш ёки тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиш имконига эга эмаслар. Шу боисдан, уларнинг жамиятга интеграциялашуви қийин кечмоқда. Меҳнат муҳожирлари мавқеининг чекланганлиги, бир томондан, уларнинг ижтимоий ҳимояга муҳтожлигини қисқартиради, бошқа томондан эса, уларга катта миқдордаги даромадларини давлат ҳудудидан ташқарига олиб чиқиб кетиш имконини беради. Бу эса, ўз навбатида қабул қилувчи давлатлар миллий валютасининг барқарорлигига салбий таъсир кўрсатиб, (айниқса, пул ўтказмаларининг бошқа валюталарга конвертациясини ҳисобга олган ҳолда), уларнинг пул-кредит сиёсатини мураккаблаштиради. Зеро, сўнгги пайтларда мажбурий тўловлардан қочиш мақсадида пул ўтказмаларининг кулранг схемалари, жумладан, “ҳавала” [6] тизимидан фойдаланиш ҳолатлари кенг

тарқалган. Бунда пул маблағлари, олтин ва қимматбаҳо тошлар кўринишидаги моддий бойликлар, бир давлатдан иккинчисига молиявий хужжатларни илова қилмаган ҳолда ўтказилади. Бу эса, давлат иқтисодиётига жиддий таъсир кўрсатади.

Бугунги кунда, ФКАДХКга аъзо давлатларда олиб борилаётган бир қатор чора-тадбирлар ҳукумат аъзолари томонидан бунинг салбий оқибатлари тўлақонли англаб етилаётганидан далолат беради. Буни пул ўтказмалари устидан назоратнинг кучайтирилиши, ишчилар ҳуқуқларини ошириш борасидаги ташаббусларнинг илгари сурилиши, оила аъзоларини кўчириб ўтказиш жараёнининг соддалаштирилиши, иш берувчи томонидан ходимларни ижтимоий ҳимоялаш масаласига эътибор қаратилиши ҳамда кўчмас мулкка бўлган эгалик ҳуқуқининг шакллантирилиши билан боғлиқ давлат сиёсати мисолида кўриш мумкин. Яқин Шарқ минтақасининг бадавлат давлатларидан юборилувчи пул ўтказмалари ҳисобидан ўз иқтисодий барқарорлигини таъминлайдиган давлатлар кўпчиликини ташкил этади. Бугунги кунда, ўз муҳожирларининг нақд пул ўтказмаларидан кўп жихатдан манфаатдор бўлган давлатлар сирасига Ҳиндистон, Покистон, Бангладеш, Миср ва Шри-Ланка кабиларни киритиш мумкин. Шунингдек, уларнинг сирасига маълум даражада манфаатдор бўлган Марокаш, Тунис, Ливан, Иордания, Непал ва Афғонистон каби давлатларни ҳам киритиш мумкин. Айни пайтда, донор давлатларга етказиб берилаётган пул ўтказмалари барқарор тарзда ҳаракатланишда давом этмоқда. Мавжуд ҳолатнинг сақланиб туриши, аввало ФКАДХКга аъзо давлатлардаги иқтисодий вазиятга боғлиқ бўлиб, бу аввало нефтнинг жаҳон бозоридаги нархи билан белгиланади. Таъкидлаш жоизки, сўнгги йилларда минтақанинг айрим давлатларида кузатилган беқарор сиёсий вазият (масалан, 2011-2013 йиллардаги Мисрдаги сиёсий тўнтаришлар), шунингдек, мазкур давлатларнинг миграция сиёсати мазкур жараёнга сезиларли таъсир кўрсатмади.

Юқорида биз сўнгги ўн йилликларда Яқин Шарқнинг бадавлат давлатлари меҳнат бозорини тартибга солиш ишлари суғ бўлгани хусусида сўз юритдик. Маълумки, 1990-йилларга қадар хорижликлардан иборат штат бирликлари ҳақида статистик маълумотлар юритилмаган. 1980-йилларнинг охирида Уммон биринчилардан бўлиб, меҳнат бозорини тартибга солишга қаратилган ислохотларни бошлаб юборган. Кейинги йилларда эса, минтақанинг бошқа давлатлари ундан ўрнак олган ҳолда, бир қатор таъсирчан чораларни қўллаш устида бош қотира бошлаганлар.

Сўнгги йилларда ФКАДХКга аъзо барча давлатлар ҳукуматлари меҳнат муҳожирларига бўлган қарамликни бартараф қилиш муаммосининг

долзарблигини ва меҳнат бозорини тартибга солиш заруратини ҳисобга олган ҳолда, янада фаол сиёсат олиб бормоқдалар. Меҳнат бозорини ислоҳ қилиш, айниқса, маҳаллий аҳолининг бу борадаги иштирокини таъминлаш, ҳар бир давлат иқтисодий сиёсатининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади. Аҳоли жон бошига тўғри келадиган даромад манбаига кўра, дунёнинг етакчи давлатларидан бири ҳисобланган Қатар қонунчилигида “Қатарлаштириш” дастури муҳим ўрин эгаллайди. Мазкур дастур асосида давлат идоралари ва йирик компаниялар фаолиятида асосий эътибор, миллий кадрлар тайёрлаш сиёсати ва бандликни рағбатлантириш масалаларига қаратилиши лозимлиги мустаҳкамлаб қўйилган.

ФКАДХКга аъзо давлатларда кенг тарқалган чора-тадбирлар сирасига мажбурий квоталар, тўлов ва имтиёзлар тизимини жорий қилиш, таълимни ислоҳ қилишга сармоя ажратиш, миллий кадрлар малакасини ошириш ҳамда давлат томонидан меҳнатга ҳақ тўлаш тизимини тартибга солиш орқали маҳаллий аҳоли бандлигини рағбатлантиришга алоҳида эътибор қаратилади. Мажбурий тўловлар ўз мақоми бўйича солиқ тушумларига ўхшайди, аммо уларнинг ҳажми ҚҚС билан боғлиқ ҳолда белгиланмайди. Бунда ҳукумат вакилларининг мақсади, мажбурий тўловлар ҳажминини ошириш йўли билан, бизнесга босим ўтказиш ва шу орқали маҳаллий мутахассислар бандлигини таъминлаш ва бюджет тушумлари ҳажминини оширишга эришишдан иборат. Шу боисдан, сўнгги йилларда Саудия Арабистони, Баҳрайн ва Ўмон каби давлатлардаги бошқарув органлари меҳнат муносабатларига оид сиёсати тадбиркорлик фаолиятига тўсқинлик қилгани борасидаги норозилик ҳолатлари тез-тез кўзга ташланади.

Шу билан бирга, миграцион вазиятни барқарорлаштиришга қаратилган саъй-ҳаракатлар ва таъсир чоралари у ёки бу давлатнинг ўзига хос хусусиятларига боғлиқ ҳолда амалга оширилади. Масалан, Қатар ёки БААдаги демографик ўсиш суръатлари меҳнат бозорини тартибга солишга қаратилган кўплаб ўзгаришларни амалга ошириш имконини берди. Саудия Арабистони ва Уммонда эса маҳаллий аҳолидан иборат ишчи кучига бўлган талабнинг ўрнини меҳнат муҳожирларининг 10% ҳисобидан қоплаш мумкин.

Бироқ, мавжуд ислохотлар натижасида минтақанинг барча давлатларида бирдек самарага эришилмади. Буни қарийб 30 йилдан буён “ўмонлаштириш” сиёсати юритиб келинаётган Ўмон давлати мисолида ҳам кўриш мумкин. Зеро, ҳукумат вакиллари томонидан илгари сурилган натижаларга эришилмади. Буни меҳнат муҳожирларига бўлган қарамликнинг янада кучайиши ҳамда маҳаллий аҳоли орасидаги ишсизлик даражасининг ошиши кабиларда кўришимиз

мумкин. ФКАДХҚга аъзо бўлган бошқа кўплаб давлатларда ҳам миллийлаштириш сиёсати орқали меҳнат бозорини тартибга солиш борасидаги уринишлар сезиларли натижа бермади. Буларнинг бари, реал иқтисодий рағбатларнинг мавжуд эмаслиги билан характерланади.

Масалан, 2000-2010-йилларда аҳоли орасида юзага келган миграцион вазият таъсирида норозилик кайфиятининг кескин тарзда кучайиши ҳамда уни ҳал қилиш билан боғлиқ муаммонинг жиддий тус олиши, Ғарбий Европа давлатларининг жиддий ташвишига сабаб бўлган эди. Ушбу муаммога ечим топиш мақсадида, сиёсий кучларни фаол жалб қилиш усулларидан кенг фойдаланилган. Шундай бўлсада, миграцион вазият билан боғлиқ ҳолда юзага келган муаммоларнинг кўламига қарамай, сўнгги йиллар ичида муҳожирлар оқимининг камайиш тенденцияси кузатилмади. Мазкур давлатларнинг ҳуқуқ-тартибот органлари томонидан муҳожирларнинг миграция қонунчилиги талабларига риоя этилиши устидан назоратни кучайтириш ҳамда ноқонуний миграцияга қарши кураш чоралари қўлланилишига қарамай, бу борада кутилган натижага эришилмади. Аксинча, мазкур давлатларга ташриф буюрувчи муҳожирлар сони ўсишда давом этди. Буни давлатлар миқёсидаги меҳнат муҳожирлари кўринишидаги арзон ишчи кучига бўлган талабнинг, уларга нисбатан норозилик кайфиятининг шаклланиши ва бу борада маъмурий чоралар қўлланилишидан кўра, устувор аҳамият касб этиши билан белгиланади. Масалан, Шарқий Европа давлатларида меҳнат бозорини фуқароларнинг кайфиятига мос равишда ислоҳ қилиш орқали, давлатнинг иқтисодий равнақи учун манфаатли бўлган Яқин Шарқ ва Шимолий Африка давлатлари муҳожирларидан воз кечиш бўлмайди. Шу боисдан, яқин келажакда Европа давлатлари миграцион сиёсатини ислоҳ қилиш борасида муайян натижага эришиш имконсиз эканини тахмин қилиш мумкин.

Мавжуд тенденцияни Арабистон ярим ороли давлатлари мисолида ҳам кузатиш мумкин. Европа давлатларидан фарқли ўлароқ, мазкур давлатлардаги демографик вазият миграцион жараёнларга у қадар катта таъсир кўрсатмайди, аммо меҳнат самарадорлиги юқори бўлган, арзон ва малакали ишчи кучи ушбу давлатларнинг иқтисодий равнақида муҳим ўрин эгаллайди. Шу боисдан, давлатлар томонидан мазкур жараённи тартибга солиш борасидаги уринишлар, мавжуд тенденцияларни ўзгартириш имконини бермайди. Келгусида мавжуд вазиятнинг янада жиддий тус олиши шубҳасиз, аммо айтиш пайтга қадар унга қарши таъсирчан чоралар ишлаб чиқилмаган. ФКАДХҚга аъзо давлатлар миграцион сиёсатидаги ўзига хосликнинг сақланиб қолаётгани ҳамда унга ечим

топиш борасидаги жаҳон тажрибасининг тўла шаклланмаганлиги, мавжуд вазиятнинг янада жиддий тус олишига сабаб бўлмоқда.

Шунга кўра, биз яқин келажакда ФКАДХК давлатларида меҳнат муҳожирларига бўлган талабнинг сезиларли даражада сақланиб қолиши ҳамда уларнинг бандлигини таъминлаш ва пул ўтказмалари манбаи сифатидаги мавқеини сақлаб қолишда давом этиши борасидаги хулосага келишимиз мумкин. Гарчанд, меҳнат бозорини тартибга солишга доир давлат иштирокининг кенгайишига эришилсада, бу борадаги фаолият самарадорлиги хусусида сўз юритиш мушкул.

Араб давлатлари лигаси. АДЛ ҳақида сўз борар экан, ушбу ташкилотнинг ўзига хос жиҳати хусусида алоҳида тўхталиб ўтиш жоиз. 1945 йилда имзоланган шартнома мазмунидан келиб чиққан ҳолда, АДЛнинг фаолиятидан кўзланган мақсад “ташкилотга аъзо давлатлар ўртасидаги ҳамкорлик алоқаларини мустаҳкамлаш ва шу мақсадда давлатлар ўртасида ягона сиёсий йўналишни ишлаб чиқиш ҳамда араб давлатлари манфаатлари ва уларга дахлдор масалалар доирасида мазкур томонларнинг мустақиллиги ва суверенитетини ҳимоя қилиш”дан иборат. Ҳамкорлик доираси нафақат сиёсий, балки иқтисодиёт, молия, коммуникация, маданият, тиббиёт ва ижтимоий соҳадаги ҳамкорлик муносабатларини, шунингдек, фуқароликни белгилаш, паспорт ва визалар бериш ҳамда жинойтчиларни экстрадиция қилиш кабиларни ҳам ўз ичига олган.

Мазкур ташкилот фаолиятининг ўзига хос жиҳати, араб тилида сўзлашувчи 18 нафар давлат ва Фаластин мухторияти билан бир қаторда, Шарқий Африкада жойлашган (аҳолиси соф араблардан иборат бўлмаган) мусулмон давлатлари (Жибути, Сомали ва Комор ороллари)ни ҳам ўзида бирлаштира олгани билан белгиланади. Бир сўз билан айтганда, ташкилот минтақанинг энг бадавлат (Қатар, БАА, Қувайт, Саудия Арабистони, Уммон, Баҳрайн) ва қашшоқ давлатлари (Сомали, Комор ороллари, Мавритания, Яман, Судан, Жибути)ни ўзида бирлаштира олган ҳолда, Яқин Шарқ ва Африка давлатлари ўртасидаги муҳим боғловчи кўприк вазифасини ўтайди[7]. Тадқиқот иши доирасида ўрганилаётган миграцион жараёнларни тартибга солишда, ташкилот ва унга аъзо давлатларнинг миграцион сиёсатидаги уйғунлик муҳим аҳамият касб этади. Шунга кўра, АДЛга аъзо давлатларнинг бу борадаги сиёсати хусусиятларига алоҳида тўхталиб ўтамиз.

Араб давлатлари лигаси 2014 йилда ташкил этилган ҳамда 2015 йилдан ўз фаолиятини бошлаган миграция масалаларига бағишланган Араб давлатлари иштирокидаги минтақавий маслаҳатлашув жараёнининг бешинчи глобал

Йиғилишига мезбонлик қилган. Мазкур учрашув, сўнгги йилларда миграция масалаларига бағишланган, муҳим аҳамиятга молик бўлган минтақавий маслаҳатлашув жараёни ҳисобланади. АДЛ фаоллигида ташкил этилаётган бу каби тадбирлар, аввало миграцион жараёнлардан ижобий омил сифатида максимал тарзда фойдаланиш мақсадида, араб давлатларининг кенг қамровли ва интеграциялашган стратегиясини ишлаб чиқиш, манфаатдор томонлар иштирокида миграция масалаларига бағишланган минтақавий ва халқаро даражадаги музокараларни ташкил этиш ва шу йўл билан давлатларнинг бу борадаги ёндашувларини мустаҳкамлаш, шунингдек, юборувчи, қабул қилувчи ва транзит давлатлар ўртасидаги ҳамкорлик алоқаларининг янги саҳифаларини очишга қаратилган. АДЛнинг БРМ (Барқарор ривожланиш мақсадлари) мақсадлари билан ҳамоҳанг тарзда илгари сурилган миграцион жараёнларни тартибга солиш борасидаги ташаббуслари унинг дастурий ҳужжатларида ҳам ўз аксини топган. Бундан ташқари, Араб давлатлари иштирокидаги минтақавий маслаҳатлашув жараёни доирасида БРМ мақсадларини амалиётга татбиқ этиш мақсадида, давлатларнинг миграцион сиёсати билан боғлиқ фаолияти юзасидан ўзаро ахборот ва тажриба алмашинувини йўлга қўйиш ва мазкур жараённи тартибга солиш борасидаги амалий натижаларни қўлга киритиш кўзда тутилган.

АДЛ фаолияти доирасида миграцион жараёнларни тартибга солиш самарадорлигини ошириш мақсадида, миллий ва халқаро миқёсдаги ташаббусларни қуйидаги йўллар билан ўзаро мувофиқлаштириш режалаштирилган: миллий миқёсдаги қарашлар ва маълумотларни ўзаро анализ ва синтез қилиш ҳамда улардан глобал миқёсдаги жараёнларда асосий манба сифатида фойдаланиш; глобал мақсадларни араб давлатларининг миллий стратегияси, мавжуд меъёр ва стандартларига татбиқ этиш; ташкилотга аъзо давлатларни миграцион жараёнларни тартибга солишга қаратилган ҳамкорлик жараёнига сафарбар қилиш кабилар шулар жумласидандир.

Ташкилотнинг мунтазам равишда ташкил этиладиган йиллик йиғилишлари кун тартибида миграция билан боғлиқ БРМ мақсадларининг бажарилиши юзасидан ҳисоботларни қабул қилиш анъанаси йўлга қўйилган. Шу билан бир қаторда, Араб давлатлари иштирокидаги минтақавий маслаҳатлашув жараёнининг миграция билан боғлиқ мақсадларни амалга оширишда, БМТнинг Иқтисодий ва ижтимоий комиссияси ҳамда Халқаро миграция ташкилоти томонидан техник ёрдам кўрсатилади.

Умуман олганда, бугунги кунда Яқин Шарқ давлатларидаги миграцион жараёнлар билан боғлиқ бўлган асосий муаммолар сирасига қуйидагиларни

киритиш мумкин: қуролли низолар, экстремистик ҳаракатлар, қашшоқликнинг авж олиши, озиқ-овқат хавфсизлиги ва иқлим ўзгаришлари таъсиридаги кўчишлар ва мажбурий миграция; ноқонуний миграция ва аралаш миграцион оқимлар; одам савдоси ва мигрантлар контрабандаси кабилар шулар жумласидандир. Шу ўринда, мазкур жараёнларни тартибга солиш ва муаммоларга ечим топиш юзасидан ўз ечимини топаётган қуйидаги масалалар мавжудлигини ҳам таъкидлаш жоиз: “халқаро мигрант” атамасига доир ягона таърифнинг ишлаб чиқилмаганлиги; халқаро миграциянинг кўламини аниқлаш ва бу борадаги ишончли маълумотларни жамлаш жараёнининг ўз такомиллига етмаганлиги; маълумотлар алмашинувидаги шаффофликнинг мавжуд эмаслиги кабилар шулар жумласидандир.

Юқорида санаб ўтилган камчиликларни бартараф этишда, тадқиқотга оид ва таҳлилий материалларни ишлаб чиқишни такомиллаштириш, аъзо давлатларга аҳолини рўйхатга олиш, маълумотларни тўплаш ва таҳлилий материалларни тайёрлаш юзасидан техник ёрдам кўрсатиш, уларнинг бу борадаги салоҳиятини ошириш, шунингдек, 2030 йилга мўлжалланган БРМнинг миграцияга оид мақсадларини амалга ошириш бўйича минтақавий маслаҳатлашув жараёнлари фаоллигини ошириш ҳамда қочоқлар ва ички кўчирилганларни қўллаб-қувватлаш мақсадида миллий миқёсда дастурлар ишлаб чиқиш ва статистик маълумотлардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш мақсадга мувофиқдир[8].

Ислом ҳамкорлик ташкилоти. ИХТ кенг таъсир доирасига эга бўлган, нуфузли халқаро ҳукуматлараро ташкилотлардан бири бўлиб, у ислом оламининг халқаро ва минтақалараро аҳамиятга молик бўлган истиқболли ташаббусларини муваффақиятли тарзда илгари суриб келмоқда. ИХТ аъзо давлатлар ўртасидаги сиёсий, савдо-иқтисодий, транспорт-коммуникация ҳамда маданий-гуманитар соҳалардаги ҳамкорликни ривожлантиришда фаол иштирок этмоқда.

Айни пайтда, ИХТга аъзо давлатлар сони 57 нафарга етган бўлиб, у 1,5 миллиардга яқин аҳолини ўзида бирлаштира олган. Шу ўринда таъкидлаш жоизки, Ўзбекистон Республикаси ҳам 1996 йилнинг 2 октябридан мазкур ташкилотнинг тўлақонли аъзоси ҳисобланади. ИХТ фаолиятдан кўзланган мақсад, ислом цивилизацияси тараққиёти билан боғлиқ муаммолар ҳамда халқаро аҳамиятга молик бўлган долзарб муаммоларнинг ечими борасида аъзо давлатлар ўртасидаги ҳамкорликни йўлга қўйишдан иборат. Миграция муаммоси ҳам ташкилотнинг кун тартибида турган муҳим масалалардан бири

ҳисобланади. Сўнги йилларда ИХТ томонидан мазкур масаланинг ечими борасида кўплаб саъй-ҳаракатлар амалга ошириб келинмоқда.

Миграция муаммосини ҳал этишга доир амалга оширилган муҳим тадбирлардан бири сифатида, 2019 йилнинг 23-25 октябрь кунлари Туркиянинг Анқара шаҳрида ўтказилган ИХТ Статистика комиссиясининг 8-сессиясини келтиришимиз мумкин. Ушбу тадбирда ИХТга аъзо давлат вакиллари, шунингдек, Ислом тараққиёт банки гуруҳи, БМТ статистика департаменти, БМТнинг Ғарбий Осиё бўйича иқтисодий ва ижтимоий комиссияси, БМТнинг озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги ташкилоти (ФАО) ва Халқаро меҳнат ташкилоти кабилар иштирок этдилар. Мажлис кун тартибига аҳолини рўйхатга олишда электрон маълумотларни йиғиш технологияларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, қишлоқ хўжалигини рўйхатга олиш ишларини фаоллаштириш ҳамда халқаро меҳнат миграциясига оид миллий статистика тизимларини ривожлантириш каби масалалар қўйилган.

Сессия якунларига кўра, ИХТ статистика комиссиясининг 2030 йилга мўлжалланган янги стратегик ёндашувлари муҳокама этилиб, халқаро меҳнат миграцияси бўйича кўрсаткичларни ишлаб чиқиш, картографик ва йўлдошли маълумотлардан фойдаланиш, сканерлаш, маълумотлар базаларини ишга тушириш бўйича ҳамкорлик ўрнатиш ва тажриба алмашиш юзасидан келишувга эришилган[9].

Умумараб эркин савдо ҳудуди. 1981 йилда АДЛга аъзо давлатлар ўртасида минтақада эркин савдо ҳудудини шакллантириш ва эркинлаштириш мақсадида, араблараро савдони йўлга қўйиш ва ривожлантириш тўғрисидаги (Agreement to Facilitate and Develop InterArab Trade) битим тузилган. Шундан сўнг, 1997 йилнинг февраль ойида АДЛнинг Ижтимоий-иқтисодий Кенгаши томонидан 18 нафар араб давлатини ўзаро бирлаштирган Умумараб эркин савдо ҳудуди (Pan-Arab Free Trade Agreement, PAFТА)ни тузиш тўғрисидаги декларация қабул қилинган. Баъзи манбаларда у Буюк араб эркин савдо ҳудуди (GAFTA) номи билан ҳам юритилади. Айни пайтда, ташкилотга Баҳрайн, Миср, Ироқ, Иордания, Яман, Қатар, Қувайт, Ливан, Ливия, Марокаш, Ўмон, БАА, Фаластин мухторияти, Саудия Арабистони, Сурия, Судан ва Тунис каби давлатлар аъзо ҳисобланади. Россиялик иқтисодчи олим И.М. Батиршиннинг фикрича, эркин савдо ҳудудини яратиш зарурати, Форс кўрфази давлатлари ўртасидаги сиёсий ва иқтисодий соҳалардаги ҳамкорликнинг тўлақонли шаклланмаганлиги билан характерланади[10].

БМТ Ғарбий Осиё бўйича иқтисодий ва ижтимоий комиссияси. БМТнинг Иқтисодий ва ижтимоий Кенгаши резолюциясига мувофиқ, 1973 йилнинг 9

август куни БМТ Фарбий Осиё бўйича иқтисодий ва ижтимоий комиссияси (اللجنة الاقتصادية والاجتماعية لغربي آسيا) ташкил этилган бўлиб, у ўз ичига Баҳрайн, Миср, Ироқ, Иордания, Яман, Қатар, Қувайт, Ливан, Ливия, Мавритания, Марокаш, Ўмон, БАА, Фаластин, Саудия Арабистони, Сурия, Судан ва Тунис каби араб давлатларини қамраб олган. Ташкилот фаолиятидан кўзланган мақсад, минтақа давлатларининг ҳар томонлама иқтисодий ва ижтимоий равнақига кўмаклашиш, уларнинг ўзаро ва дунёнинг бошқа давлатлари билан иқтисодий алоқаларни мустаҳкамлаш, минтақадаги иқтисодий муаммолар, хусусан меҳнат миграцияси билан боғлиқ вазиятни ўрганиш, бу борада статистик маълумотларни тўплаш, баҳолаш ва тарқатиш кабилардан иборат.

Яқин Шарқ минтақаси давлатлари миграцион жараёнларни тартибга солишда Жазоир, Баҳрайн, Миср, Ироқ, Қатар, Қувайт, Ливия, БАА, Саудия Арабистони, Сурия ва Тунис каби давлатлар иштирокидаги Нефтни экспорт қилувчи араб давлатлари ташкилоти (араб тилида منظمة الدول العربية المصدرة للنفط, инглиз тилида OАPEC) доирасида ҳамкорлик алоқаларини йўлга қўйганлар. Бундан ташқари, 1994 йилга келиб, ўн тўққиз араб давлатидан олтитаси Тарифлар ва савдо бўйича Бош келишуви (ГАТТ)га, 2017 йил маълумотларига кўра эса, 12 араб давлати Жаҳон савдо ташкилоти (World Trade Organization)га аъзо бўлган[11].

Жаҳон банки раҳбари Жим Ёнг Ким, Яқин Шарқдаги минтақавий интеграция жараёни ўзига хос мураккаб тарзда кечаётганини маълум қилган. Унинг фикрича, Европадаги интеграция жараёни давлатлар равнақига муҳим таъсир кўрсатиб, қашшоқлик ва тенгсизликни қисқартириб, савдо муносабатларини кенгайтириш имконини берган. Шу ўринда, жаҳон иқтисодиётидаги беқарорлик ва ноаниқликларнинг ривожланаётган давлатларга нисбатан таъсири юқори эканлигини ҳам таъкидланган[12]. Шунга кўра, Яқин Шарқ давлатлари миллий иқтисодиёти механизмларини қайта қуриш, араб Шарқининг икки томонлама муносабатларини диверсификация қилиш ва ривожлантириш йўли билан бу борада ижобий ўзгаришларга эришиш мумкин.

ХВЖ томонидан 2021 йилда берилган маълумотларга кўра, Баҳрайн ва Саудия Арабистони каби давлатлардаги ишсизлик даражаси пандемиядан аввалги даврга нисбатан анча юқори экани маълум бўлади. Пандемия шароитида кузатилган иш ўринларининг кескин қисқариши натижасида юзага келган ишсизлик даражасини қисқартириш учун узоқ вақт талаб этилиши табиий. Пандемия шароитида юзага келган вазият аҳолининг муайян қатламларига ўзига хос тарзда салбий таъсир кўрсатган. Бунда малакаси паст бўлган ишчилар, ёшлар ва меҳнат муҳожирлари кўпчиликни ташкил этади.

Маълумотларга кўра, 2020 йилда аёллар ва ёшлар ўртасидаги ишсизлик даражаси 6-10 фоизни ташкил этган. Бунда нафақат давлат сектори, балки хусусий сектордаги ишсизлик даражасининг ортгани ҳам кузатилган[13].

Юқорида тилга олинган ишсизлик ва ижтимоий тенгсизлик билан боғлиқ ҳолат Яқин Шарқ минтақасида беқарорликнинг авж олишига сабаб бўлмоқда. Гарчанд, аҳоли орасидаги норозилик кайфияти 2019 йилга нисбатан юқори бўлмасда, 2021 йилда нисбатан ўсиш кузатилган. Аммо, мавжуд норозилик намоёишлари аҳоли орасида янги турдаги касалликларнинг кенг тарқалиши, ишсизлик даражасининг авж олиши, озиқ-овқат тақчиллиги ва нарх-навонинг ошиши каби иллатлар замирида янада авж олиш хавфи мавжуд. Буларнинг бари Ироқ, Яман, Ливия, Ливан ва Тунис каби давлатларда сиёсий беқарорликнинг авж олишига замин яратмоқда. Сиёсий ва ижтимоий характердаги беқарорлик ўз ортидан кенг миқёсли қочоқлар тўлқинини ҳамда бунинг ортида бошқа давлатларда ҳам норозилик кайфиятини юзага келтирмоқда. 2020-2021 йилларда қашшоқликнинг аянчли даражасига етганларнинг умумий сони 7 млн. кишини ташкил этган[14].

Маълумки, пандемия шароитида муҳожирлар нисбатан оғир вазиятни бошдан кечирган қатлам сирасига киради. Халқаро миқёсда муҳожирлар маҳаллий аҳоли сонига нисбатан устунлик касб этган ФКАДХКга аъзо давлатларда, ишсизлик даражасининг кескин ошиши, муҳожирларнинг яшаш тарзи ва пул ўтказмалари ҳажмига кескин таъсир кўрсатди.

ФКАДХКга аъзо давлатлардаги ишсизлик кўрсаткичлари
(2019 йилнинг IV чораги / 2020 йилнинг IV чораги %ларда)



Манба: расмий давлат органлари маълумотлари асосида ХВЖ ходимлари томонидан ўтказилган ҳисоб-китоблар⁹².

Хулоса ўрнида таъкидлаш жоизки, Яқин Шарқдаги миграция муаммосини тартибга солиш борасидаги араб давлатлари ҳамкорлиги икки ва кўп томонлама форматлар асосида йўлга қўйилганлигини кўришимиз мумкин. Буни давлатларнинг Форс Кўрфази Араб давлатлари ҳамкорлик кенгаши, Араб давлатлари лигаси, Ислом ҳамкорлик ташкилоти, Умумараб эркин савдо худуди, БМТ Фарбий Осиё бўйича иқтисодий ва ижтимоий комиссияси, Нефтни экспорт қилувчи араб давлатлари ташкилоти каби бирлашмалар доирасидаги ҳамкорлик алоқалари мисолида кўриш мумкин. Таҳлилларга кўра, ФКАДХКга аъзо давлатлардаги меҳнат муҳожирларининг умумий сони 28 млн.дан ортиқ кишини ташкил этади. Бу эса, мазкур бирлашмага аъзо давлатлар аҳолисининг қарийб ярмини ташкил этади. Шу билан бирга, ҳар бир давлат миқёсидаги муҳожирларнинг улуши сезиларли даражада фарқланади. Масалан, БАА ва Қатарда бу кўрсаткич халқаро миқёсдаги энг юқори даражага етган бўлиб, 90 фоизни ташкил этади.

Энергия ресурсларини экспорт қилиш ҳисобидан даромад олиш ҳамда хорижлик ишчи кучи ва мутахассислар ҳисобидан меҳнат бозоридаги тақчилликни қаноатлантириш имконининг мавжудлиги, маҳаллий аҳоли орасида меҳнатсеварлик иштиёқининг пасайиши меҳнат бозоридаги бегоналашуви билан боғлиқ мавжуд ҳолатни миллий фожиа сифатида баҳолаш мумкин. Бу эса, ўз навбатида аҳоли орасида кадрлар тайёрлаш сиёсатини юритиш ҳамда ёшларни миллий қадриятлар руҳида тарбиялаш заруратини келтириб чиқарди. Шу билан бир қаторда, ФКАДХКга аъзо давлатлар донор давлатлар учун муҳим даромад манбаи ҳисобланади. Зеро, меҳнат муҳожирлари ўз даромадларининг катта қисмини ўз ватанларига жўнатадилар. Бунда, иқтисодиётга қайтмайдиган пул массасининг чиқиб кетиш ҳажми жуда юқори бўлиб, минтақа давлатлари ЯИМнинг 4-12 фоизини ташкил этади. Европа давлатлари, хусусан, Франция ва Германия билан қиёслаганда, у ЯИМнинг 1 фоиздан ошмайди.

Сўнгги йилларда маҳаллий аҳоли ва муҳожирлар ўртасидаги муносабатлар миллатчилик кайфиятининг авж олиши, мигрантларга нисбатан меҳнат бозорини ўзлаштириш билан боғлиқ айбловларнинг қўйилиши, адолатсиз рақобат муҳити, муҳожирлар иштирокидаги жинойтчиликнинг авж олиши ва миграцияга оид сиёсатга нисбатан танқидий руҳнинг шаклланганлиги кабилар замирида тобора кескинлашмоқда. Арабистон ярим ороли давлатларида, сўнгги

⁹² Перспективы развития региональной экономики: Ближний Восток и Центральная Азия. // МВФ. 2021. – С. 26.

йилларда миграцион вазиятни тартибга солиш ва меҳнат шароитларини яхшилашга уринишлар, асосан, қонун ҳужжатларини қабул қилиш ва назорат органларини ташкил этиш йўли билан амалга оширилди. Аммо, ҳанузгача мазкур давлатлардаги вазиятни қониқарли деб бўлмади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати (REFERENCES)

1. Глобальный договор о безопасной, упорядоченной и легальной миграции // Управление Верховного комиссара по правам человека ООН. // URL: <https://waps.ohchr.org/ru/migration/global-compact-safe-orderly-and-regular-migration-gcm>
2. Цели в области устойчивого развития ООН. // URL.: <https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/sustainable-development-goals/>
مملكة العربية السعودية على طريق التنمية¹
3. [Королевство Саудовская Аравия на пути прогресса]. – Эр-Рияд, 2002. – С. 23.
4. Мелкумян Е.С. Персидский залив: региональный баланс сил. // Мировая экономика и международные отношения, №9. – 2000. С. 85 – 91.
5. Экспатлар (инг. expatriate сўздан олинган қисқартма (expat) ҳисобланиб, лотин тилидаги expatria “Ватандан ташқарида” маъносини англатади) - хорижий давлат ҳудудидида фаолият юритувчи хорижлик ишчи ва хизматчилар.
6. Хавала – Яқин Шарқ, Осиё ва Африка давлатларига хос бўлган брокерлар ўртасидаги даъво ва мажбуриятларни ўзаро ҳисоб-китоб қилиш имконини берувчи норасмий ҳисоб-китоб тизимидир.
7. МИД РФ // Лига Арабских Государств // URL: <http://www.kremlin.ru/supplement/2259/print>
8. Миграция и цели в области устойчивого развития: роль механизмов межгосударственных консультаций по вопросам миграции и региональных экономических организаций // Международная организация по миграции (МОМ) Шестое Глобальное совещание председателей и секретариатов региональных, межрегиональных и глобальных консультативных процессов по вопросам миграции. – СС. 14-20. // URL.: https://publications.iom.int/system/files/pdf/grcp_6_rus.pdf
9. Халқаро сессияда статистика соҳасида 2030 йилга мўлжалланган янги стратегик ёндашув ва бошқа муҳим масалалар муҳокама қилинди // URL.: <https://gov.uz/uz/news/view/24820>
10. Батыршин И. Экономическая интеграция в рамках Совета сотрудничества арабских государств Персидского залива // Ближний Восток и современность. – 2004. – № 24. – СС. 85-91.

11. Al-Atrash H. Yousef T. Intra-Arab Trade; Is It Too Late? // International Monetary Fund. – 2000. – P. 3 – 18.
12. World Bank Group President Jim Young Kim`s Opening Press Conference. 2016. Spring Meetings Washington. // URL.: <https://live.worldbank.org/2016-spring-meetings-opening-press-conference>
13. Перспективы развития региональной экономики: Ближний Восток и Центральная Азия. // МВФ. 2021. – С. 5. //URL.: <https://roscongress.org/materials/blizhniy-vostok-i-tsentralnaya-aziya-byulleten-perspektiv-razvitiya-regionalnoy-ekonomiki/>
14. Перспективы развития региональной экономики: Ближний Восток и Центральная Азия. // МВФ. 2021. – С. 5. //URL.: <https://roscongress.org/materials/blizhniy-vostok-i-tsentralnaya-aziya-byulleten-perspektiv-razvitiya-regionalnoy-ekonomiki>

ЁШЛАРНИ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ ВА МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ УЙҒОНИШНИНГ АСОСИЙ МУАММОЛАРИ

Мирхамид Гафурович Файзиев

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон миллий унверситети
харбий тайёргарлик ўқув маркази бошлиғининг
ўқув ишлари бўйича ўринбосари

АННОТАЦИЯ

Ўзбек миллий таълим тизими ҳам илгор тажрибаларни қабул қилиш билан бирга минг йиллар давомида шаклланган шарқона усуллардан воз ҳам кечмади. Шарқ, хусусан, ўзбек таълим тизимида ёшлар тарбияси, ахлоқи, ватанпарварлиги, меҳнатсеварлиги, ижодкорлиги, инсонпарварлиги каби сифатларга азалдан алоҳида эътибор қаратилган. Мақола ёшлар тарбиясининг муҳим жиҳати - ватанпарварлик руҳида тарбиялаш каби долзарб муаммога бағишланган.

Таянч иборалар: Ватан, ватанпарварлик, ёшлар, юксак ахлоқ, маънавият ва маърифат, меҳнатга виждонан муносабат, илм, миллий қадриятлар.

АННОТАЦИЯ

Узбекская национальная система образования, перенимая передовой опыт, не отказалась от восточных методов, которые формировались тысячелетиями. На Востоке, в частности, в системе образования Узбекистана особое внимание всегда уделялось таким качествам, как воспитание молодежи, нравственность, патриотизм, трудолюбие, творчество, гуманность. Статья посвящена актуальному аспекту воспитания молодёжи – проблеме воспитания в духе патриотизма.

Ключевые слова: Родина, патриотизм, молодежь, высокая нравственность, духовность и просвещение, сознательное отношение к труду, наука, национальные ценности.

ABSTRACT

The Uzbek national education system, while adopting best practices, has not abandoned the oriental methods that have been formed over thousands of years. In the East, in particular, in the Uzbek education system, special attention always has been paid to such qualities as the upbringing of young people, morality, patriotism, diligence, creativity, humanity.

Key words: Motherland, patriotism, youth, high morals, spirituality and enlightenment, conscientious attitude to work, science, national values.

КИРИШ

XX асрнинг сўнгги ва XXI асрнинг йигирма йилида юз берган ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар туфайли миллатнинг асрий орзуси демократия, озодлик, эркинлик, фаровон ва осойишта турмуш тарзини чуқур англаш фурсати етди. Халқимиз ўз олдига эзгу ва улуғ мақсадлар қўйиб, ўз тақдирини ўзи белгилаб, азалий қадриятларимизга суяниб, шунингдек, тараққийпарвар давлатлар тажрибасини ижодий ўрганиб юксак интилишлар билан яшай бошлади.

Буларнинг барчаси адабий таълимнинг мақсадини ҳам ўзгартирди- энди бош мақсад болаларни эзгу қадриятлар асосида билимли, юқори салоҳиятли, ватани ва халқига содиқ, жисмонан соғлом, теран ва мустақил фикрловчи шахс этиб тарбиялашдир. Сўнгги йилларда бу борада қатор қарорлар қабул қилинди. Республика маънавият ва маърифат кенгашининг раиси Ўзбекистон Республикаси Президенти эканлиги белгилаб қўйилди. Кенгашнинг ҳудудий бўлимларига масъуллик ҳокимлар зиммасига юклатилди. Бу ўзгариш маънавий-маърифий ишларни давлатимиз сиёсатида янада юксак ўринга кўтарди. Давлат раҳбари 2021 йилнинг 19 январь куни маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамоат ташкилотларининг ҳамкорлигини кучайтириш масалаларига бағишлаб ўтказилган йиғилишда, “Агар жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир, ... Биз янги Ўзбекистонни барпо этишга қарор қилган эканмиз, иккита мустаҳкам устунга таянамиз. Биринчиси – бозор тамойилларига асосланган кучли иқтисодиёт. Иккинчиси – аждодларимизнинг бой мероси ва миллий қадриятларга асосланган кучли маънавиятидир”,- деди.

Тадқиқот мақсади. Шунинг учун ҳам бугунги Ўзбекистонда кадрлар тайёрлаш тизимининг шаклланиши ва фаолият кўрсатишининг асосий тамойили тарзида “ўқувчи ёшларни Ватанга садоқат, юксак ахлоқ, маънавият ва маърифат, меҳнатга виждонан муносабатда бўлиш руҳида тарбиялаш” алоҳида таъкидланган.

Мазкур тамойил асосида миллий таълим тизими ва педагогик-методик соҳаларда жадал ўзгаришлар, шиддатли янгиланишлар юз берди. Мавжуд дарслик, қўлланма ва дастурлар замон талабларига мослаштирилиб, босқичма-босқич истеъмолга чиқарилмоқда. Замонавий дарс тушунчаси янгитдан сайқалланди. Ўқувчилардан итоаткорлик, ўқитувчининг ҳар бир гапини ёдлаб олиш талаб этилмай қўйилди. Энди ҳар бир мактаб(нинг истаган) ўқувчиси ўзининг шахсий фикри ва уни ҳимоя қилиш ҳуқуқига эгаллигини, ўқитувчи диктатор эмас, илмга йўл кўрсатувчи йўлловчи (етакловчи) эканини билади. Берилган имтиёз ва ҳуқуқлар суиистеъмол қилинмаслиги учун ўқитувчилар

чуқур билим ва лидер-етакчилик хусусиятлари билан қуролланишлари лозим. Зотан, “Дунёда турмоқ учун дунёвий фан ва илм лозимдур, замона илми ва фанидан бебахра миллат бошқаларга поймол бўлур”.

Муаммонинг ўрганилганлик даражаси. Педагогика нуқтаи назаридан қараганда, мавзу юзасидан миллий таълим тизими ва педагогик-методик йўналишлар доирасида кўплаб илмий изланишлар, фундаментал тадқиқотлар амалга оширилган. Аини муаммо фақат Ўзбекистонда эмас балки ўз келажагига бефарқ бўлмаган хориж мамлакатларида ҳам тизимли ўрганилган ва жиддий тадқиқот ишлари дунё юзини кўрган. Республикамизда ва хорижда нашр этилган илмий-педагогик адабиётлар таҳлили таълим жараёнининг долзарб йўналишлари бўйича қатор илмий ишлар олиб борилаётганини кўрсатди. Жумладан, Р.Джураев, Р.Аҳлидинов, Ж.Йўлдошев, Э.Ғозиев, Ш.Қурбонов, Э.Сейтхалилов, М.Мирқосимов, У.Иноятов, О.Мусурмонова, М.Саидов, Ў.Толипов, М.Усмонбоева, У.Долимов ва шу каби олимлар таълимни бошқариш қонуниятлари, унинг давлат ва шахс эҳтиёжи ҳамда манфаатларини қондиришда тутган ўрни, жамият ривожига боғлиқ талаблари, баркамол шахс тарбиялаш усулларини тадқиқ этишган.

Тадқиқот объекти. Ўзбекистон таълим тизими педагогикасида адабиёт ўқитиш муҳим, ижодкор ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, ҳатто асосий юмуш саналиб, бу муаммонинг босқичма-босқич тизимли ривожланиб боришини кафолатлайди.

Тадқиқотнинг усуллари. Назарий адабиётларни ўрганиш, таҳлил қилиш, тушунчаларга таъриф бериш, кузатиш ва суҳбат, чоғиштириш, қиёсий таҳлил орқали далиллаш каби шахснинг мантикий тафаккур, мустақил фикр кўникмаларини ривожлантиради.

Илмий моҳият. Зотан, “... инсон ақлий ва жисмоний жиҳатдан қанчалик етук бўлса ҳам, ундаги билим ахлоқ нормаларига мос бўлмаса, у киши жамиятнинг ҳақиқий аъзоси бўла олмайди”. Ахлоқий меъёрлар эса адабиёт воситасида вужудга келади. Бунга бадиий адабиётдаги образли тафаккур тарзи имкон беради. Шу соҳаларда мамлакатимиз тараққиётнинг юксак маърифий-маданий жамият сари етакловчи, келажаги буюк давлатни бунёд қилиш йўлини танлагани боис таълим тизимига эътибор ва талаб кундан-кунга кучайиб бормоқда. Зотан, аждодлар танлаган йўлни миллий ғурурга эга, баркамол, ватанпарвар авлодларгина давом эттира олишади.

АСОСИЙ ҚИСМ

Янги Ўзбекистон равнақи, келажак стратегияси ҳақида фикр юритилар экан, бутун Республика таълим тизимида катта ўзгаришлар амалга

оширилмоқда. Педагоглар бу ислохотлар тақдим этган ахборот коммуникатив ва илғор ўқув технологиялари, модуллаштирилган ҳамда замонавий таълим усуллари ёрдамида ёшларни маънавий-ахлоқий такомиллаштириш, чуқур фуқаролик туйғусини шакллантириш, ёт мафкуравий таъсирлардан ҳимояловчи ғоявий иммунитет ҳосил қилиш ва ўқитиш самарадорлигини таъминлашдан иборат. Шу боис ёшларни миллий ғоя руҳида тарбиялаш, уларда ватани ва эли билан фахрланиш, ҳимоясига шай туриш туйғусини ривожлантиришда адабий таълимнинг ўрни беқиёс. Мазкур ҳолат ҳамда шиддатли ахборот оқими туфайли ёшларимизда хориж мамлакатлари турмуш тарзига интилиш, тақлид қилиш, миллийликдан узоқлашиш, давлатлараро ядровий эмас, мафкуравий кураш олиб борилаётгани узлуксиз адабий таълим тизимининг асосий субъекти - ўқувчиларда ватанпарварлик туйғусини тарбиялаш йўсинларини илмий педагогик муаммо сифатида тадқиқ этиш долзарб эканлигини белгилайди. Мамлакатимиздаги УЎТМ, айниқса ижод мактабларининг юқори синфлари, академик лицей ва касб-ҳунар коллежлари таълим олувчиларига «замона илми ва фани»ни сингдиришда адабиёт дарслари муҳим ўрин тутади. Адабиёт ўқитувчиси ўқувчиларни аждодларимизнинг дунё фани ва маданияти ривожига ҳисса қўшган асарлари билан таништириб бориши зарур.

Шунда ёшларда миллий ифтихор туйғуси ва ўзлигини англаши учун илмни эгаллаш истаги уйғонади. УЎТМ «Адабиёт» дастурида белгиланган «Мактабда адабиёт ўқитишнинг бош мақсади соғлом эътиқодли, ўзга инсоннинг туйғуларини англайдиган, ўтқир ҳиссиётли, юксак дидли, ахлоқан баркамол, ақлан етук, ўз хатти-ҳаракатларига масъул бўла оладиган комил инсоннинг маънавий дунёсини шакллантириш...» тарзидаги вазифаларга янгича руҳ бахш этиш фурсати етди.

Бу вазифаларни ҳал қилишнинг муҳим шартларидан бири адабий таълимда ёшлар маънавиятини ривожлантириш тажрибаларини синчковлик ва қунт билан ўрганиш, анъанавий таълимнинг бугунги кун учун ўз долзарблигини йўқотган тамойилларидан воз кечиш, замонавий, тажрибада ўзини оқлаган усул ва технологияларга мурожаат қилишдан иборатдир. Аммо бу кўр-кўрона плагиаторлик дегани эмас. УЎТМдаги кузатувларимиз орқали бир фикр «... педагогик жамоалар танқидий қарамай туриб, ҳадеб ғарб методикасини, телевизион усулларни, бегона байрамлар ва шаклларни кўчириш билан шуғулланишади. Мен аминманки, бизда ўз интеллектуал кучимиз бор, маданиятимиз ва талантларимиз бор. Биз фақат улардаги яхши жиҳатларни олиб, ўрганибгина қолмай, ўзимиз ёшлар билан бирга янги, қизиқарли,

мазмунли, ўзига тортувчан, педагогик жиҳатдан мақсадга мувофиқ кўп нарсалар яратишимиз мумкин».

Ўзбек миллий таълим тизими ҳам илғор тажрибаларни қабул қилиш билан бирга мингйиллар давомида шаклланган шарқона усуллардан воз ҳам кечмади. Шарқ, хусусан, ўзбек таълим тизимида ёшлар тарбияси, ахлоқи, ватанпарварлиги, меҳнатсеварлиги, инсонпарварлиги каби сифатларга азалдан алоҳида эътибор қаратилган. Бунда «Қобуснома», «Қутадғу билиг», «Ҳибат-ул ҳақойиқ», «Маҳбуб-ул қулуб» каби дурдона асарларга таянилган.

Бизнингча, ҳар қандай таълим ва тарбияни ”**Тарбия нимадан бошланади?**” сўроғи билан бошлаган маъқул. Бунда ўқитувчи шахси, имкониятлари, унинг ўқувчиларга ва ўқувчиларнинг ўқитувчиларга муносабатлари каби жиддий масалаларга жавоб изланади. Чунки ёшлар муҳаббатига эга бўлмаган ва табиатан ихтисослашмаган ўқитувчининг бақириб-чақирishi болаларни «ўлдириши», тарбия айнан ўқув фаолияти билан боғланган ҳолда дарсда бошланиши ва ўша ерда тугаши олиб бораётган илмий тадқиқотимиз мобайнида аёнлашди.

Ўқитиш жараёнига технологик бефарқ ёндашилса, ўқитувчи лаёқатсиз бўлса ёки тарбиялаш мақсадида ўз имкониятларини вақтида, ўринли ишга солмаса, ўқувчи, эҳтимол, фанни ўзига керакли жиҳатига кўра қисман ўзлаштириши мумкиндир, бироқ бу ҳолат мамлакат миллий хавфсизлигига таҳдид солади. Ҳар бир таълим муассасаси раҳбар ва педагоглари давлат миқёсидаги бу хавфнинг олдини олиш ва бартараф этиш чораларини кўришлари шарт. Улар, энг аввало, миллий ғурур туйғусига эга бўлишлари лозим. Масалан, Алишер Навоий туркий тил (ўзбек тили) бойликларини намоиш этиш орқали пайдо қилган бу тилдан ғурурланиш ҳисини ўқувчиларга англатиш, туйдириш лозим. Ўқувчилар эътиборини Алишер Навоий нутқ ва тилни ўша даврдаёқ бир жумла ёрдамида («Тил шунча шарафи билан нутққа хизмат қилади») фарқлаб берганлигига қаратиш керак. Ибн Сино эса Трубецкойдан 900 йил илгари товушларни унли ва ундошларга ажратгани, коррелятив товушларни белгилаб бергани ҳақида билиш ўқувчида миллий ифтихор ҳисини мустаҳкамлайди. Адабий таълим давлатнинг ички сиёсатига фаол таъсир этадиган ижтимоий ҳодисадир.

Мамлакатдаги таълим масканлари муваффақият ва фаровонлик тимсоли бўлиш баробарида келажак ворисларини яхши амаллар сари етаклайди. Таниқли сиёсатчи Франсуа Миттеран таълим масканини ”жамиятни ҳаракатлантирувчи куч”- деб ҳисоблаганда жуда ҳақ эди. Бинобарин, мустақил жамиятимизни ҳаракатга келтирадиган, биз кўзлаган манзилга элтадиган

таълим масканлари ижтимоий ҳаётдаги энг кичик ўзгаришни ҳам сезади ва унга муносабат билдиради.

Ижтимоий тафаккур янгилангани таълим тизимини ўзгартиради, бу эса ўз навбатида, яна ижтимоий тафаккурга таъсирини ўтказади. Шу каби илдизини аниқлаш мушкул таъсир туфайли адабий таълимнинг мазмуни ўзгарди. Илгари амал қилган тамойиллар, мезонлар истеъмолга ярамай қолди. Ўзбек адабиётини даврлаштириш таянадиган асослар эскиргач, янгиларини жорий этиш зарурати туғилди. Профессор Қ.Йўлдошев адабий даврларни, янги ўзбек адабиётининг илдизи, асосий белгилари ва тараққиёт босқичларини аниқлаш, бу атаманинг қўлланиш чегарасини белгилаш баробарида жуда муҳим бўлган қуйидаги тўрт босқични кўрсатиб ўтади:

1. Ўзбек маърифатчилик адабиёти.
2. Ўзбек жаҳид адабиёти.
3. Шўро даври ўзбек адабиёти.
4. Мустақиллик даври ўзбек адабиёти.

Бу ўринда ёшларда ватанпарварлик туйғусини шакллантиришда халқ оғзаки ижоди намуналарини, албатта, ҳисобга олиш лозимлигини таъкидлашни истардик. Муаллиф «**Янги ўзбек адабиёти**» атамасини баъзан «**XX аср адабиёти**», баъзан эса «**Жаҳид адабиёти**» истилоҳининг муқобили тарзида қўллаб, ушбу атама миллат адабий тафаккуридаги тамомила ўзига хос хусусиятларни ифодалаши, XIX асрнинг иккинчи ярмидан бугунгача бўлган замоний оралиқда яратилган миллий асарларни англлатишини эътироф этади. Маълумки, ўтган асрда адабиётнинг вазифаси, ижтимоийлиги мудом эврилишда бўлди. XIX асрнинг 60-йилларида ўзбек адабиётида эстетик анъаналар ўзгарди, бадиий ижод руҳият қирраларини акс эттириш, комиллик сифатларини улуғлаш, маъшуқа азобларини тасвирлашдангина иборат бўлмай қолди. Муаллиф яна XIX аср иккинчи ярмидан адабиёт тирикчилиги юмушларига аралашиб, ижтимоий-сиёсий таъсир воситасига айлангани, публицистик руҳ касб эта бошлагани ҳақда сўзлаб, оддий одамлар ҳам бадиий қаҳрамонга айлангани, адабиётга ўзгача руҳ, бўлакча муаммо, янгича ҳаёт тарзи кириб келгани, бундай йўсин бадиий тил ифодасида туб ислоҳотлар бўлишини юзага келтирмай қолмаслигини айтади. Шу тариқа, омманинг фикрини уйғотиш, бунинг бирдан-бир йўли маърифат тарқатиш, атрофга назар солиш, ўз «мен»и билан ўзгалар «мен»ини солиштириш, қиёслаш, шу зайдда миллат аҳли тафаккур оламини уйғотиш, қоқоқликдан халос қилиш ўзбек адабиётининг бош мақсадига айланган. Ҳозирги кунимизда ҳам 1920 йилларда юз берган жараён каби ҳолат рўй бермоқда. Адабиёт ва уни ўқитиш борасидаги педагогиканинг

мақсади, вазифаси буткул ўзгарди. Илгари тузумнинг содиқ, буйруқни ўйламай сўзсиз, бажарадиган кадр етиштириш керак бўлган умумий таълим эндиликда ўқувчига билимларнинг зарурий ҳажмини бериши билан бирга унда мустақил фикрлаш, ташкилотчилик қобилияти ва амалий тажриба кўникмаларини ривожлантиради, таълимнинг навбатдаги босқичини танлашга ёрдамлашади ва касбга дастлабки йўналиш беради.

Маълумки, таълимнинг индивидуал, рақиблик ҳамда ҳамкорлик каби уч тури мавжуд. Индивидуал таълим ёрдамида педагог тарбияланувчининг қалбига, руҳиятига тўғри таъсир этади. Соғлом рақобат ёрдамида ўқувчининг шахсий ва илмий сифатларини камолга етказади. Ҳамкорликдаги таълим ўқувчини ўқитиш ёки тарбиялашдан кўра, уни ўқийдиган, тарбияладиган ҳолатга келтиради. Бунда ҳар бир ўқувчи ўз устида тинимсиз ишлай олади, ўзини ўзи таҳлил қилиб, муваффақият ва нуқсонларидан хулоса чиқаради. Инсоннинг олий қадриятга айлангани таълимни юқоридаги уч тури билан таъминлади. Юксак қадрият ҳисобланмиш ўқувчи маънавияти ва шахсига қўйиладиган асосий ва биринчи талаб ватанпарварликдир. Бу талабни қондиришнинг энг самарали ва ишончли усули уни адабий таълим орқали рўёбга чиқариш ҳисобланади. Зотан адабиёт инсонларни яхшиликка чорловчи, ёмонликдан қайтарувчи илмдир. Айнан у гўзал ахлоқни шакллантиради, инсонни маънавий камолотга етказади. “Ахлоқ – бу хулқлар мажмуи. Хулқ эса эзгулик ёхуд разилликнинг муайян бир инсонда намоён бўлиш шакли. Бинобарин, ҳар бир хулқ эзгулик ва олижанобликнинг ёки разиллик ва бадбинликнинг тимсоли. Шу жиҳатдан улар яхши ва ёмонга бўлинадилар. Лекин булар кишида ўз-ўзидан пайдо бўлмайди. Уларнинг шаклланиши учун маълум шароит, тарбия керак. Кишилар туғилишдан ёмон бўлиб туғилмайдилар. Уларни муайян шароит ёмон қилади... Тарбия туғилган кундан бошланади ва умрнинг охирига қадар давом этади. У икки босқичдан -уй ва мактаб тарбиясидан ташкил топган”.

Демакки, ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш дастлаб оила ўчоғида бошланади, сўнг боғча, мактаб. Олий таълим муассаси каби таълим босқичларида давом эттирилади. Айнан оилада бола ватанпарварликнинг баландпарвоз чақириқ эмаслигини, уни туйиш маълум маънавий тайёргарликдан сўнггина мумкин бўлишини, Ватанни «пул» ёки бирор манфаат манбаи тарзида кўрмаслик кераклигини ўрганади. Акс ҳолда таълимнинг турли босқичларида берилаётган билим ўқувчини нафс гирдобига тушиб қолишдан, маънавий қадриятларни суиистеъмол қилишдан асрай олмайди. Адабиётни таълимнинг турли тизимларида ўқитиш методикасини модернизациялаш,

миллий педагогикамизнинг бор имкониятларини ватанпарварликка йўналтириш зарур. Шу эҳтиёж юзасидан 1988 йилдан то 2007 йилгача бўлган давр оралиғида адабий таълимнинг УЎМКХТ босқичлари учун ўндан ортик дастурлар эълон қилинди. Бироқ бу чоралар бир ёқлама эканлиги, фақат шу билангина адабий таълим мазмунини ўзгартириб бўлмаслиги, бугунги кун талаблари доирасида аён бўлди. Адабий таълим концепцияси, давлат таълим стандарти, замонавий талаблар асосидаги дарслик, ўқув қўлланмаларининг яратилиши шу англаш (англам) маҳсулидир. Аммо уларни талабга тўла жавоб берадиган ўқув воситалари дейиш мушкул.

Дастур ва дарсликлар таҳлили уларда асрлар давомида кадрлаб келинган инсоний фазилятлар, хусусан, ватанпарварлик, халқпарварлик каби кадриятларни асраш ва шакллантиришга ундовчи материаллар, аниқроғи, бадиий матнлар кўнгилдагидек эмаслиги кўрилади. Фикримизча, ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашга йўналтирилган бадиий асарларни қайта саралаш лозим. Асарлар таянган маънавий ва назарий асослар соғлом ақлга, ҳақиқий санъатнинг табиати ҳамда миллий кадриятлар тизимига мувофиқ бўлгандагина илмий аҳамият, амалий қимматга эга бўлади. Аслини олганда, бадиий асарни яратишда ҳам, уни ўқиб тушуниш ва таҳлил этишда ҳам таяниладиган фалсафий-методологик асос муҳим ўрин тутди. Чунки бу оламни эстетик идрок этиш, ундан таъсирланиш, уни тушуниш ва тасвирлаш йўналишини тайин этади. Фалсафий асоснинг тўғри ё нотўғрилиги яхши билан ёмон, хунук билан гўзал тушунчаларига ёндашувнинг моҳиятини, мантикий ё асоссизлигини белгилайди. Истиклолга қадар ўзбек адабиётшунослиги асар модернизм фалсафа асосида таҳлил этиларди. Натижада ўзгача тафаккур тарзи маҳсули бўлмиш бадиий ҳодисаларнинг асл моҳиятини англаш ва сиру синоатларини тўғри изоҳлаш имконсиз бўларди. Адабиёт илми Арастунинг «Поэтика» китобида таърифланган «мимесис», яъни тақлид назариясига таянарди. Кўп қирралари тўғри бўлган бу қарашни ягона ва ҳар қандай адабий ҳодисага истисносиз татбиқ этса бўлаверадиган универсал ақида ҳисоблаш унчалик маъқул эмас. Бизнингча, агар бадиий асар мимесис натижаси бўлса, оламдаги барча халқлар адабиётида бир хил тур ва жанрлар қўлланиши лозим эди. Негаки, барча халқларни деярли бир хил ёки бир-бирига ғоят ўхшаш борлиқ ўраб туради. Инсон ҳамма жойда ҳам яшаб қолиш, тирикчилик ўтказиш учун бир-бирига ўхшаш йўсинда ҳаракат қилади. Демакки, ҳаётга тақлид ҳам деярли бир хилда амалга оширилган бўларди. Ўзбек адабиёти эса ХХ асрга қадар ҳам драматик турдан беҳабар эди. Агар жадидлар бу жанрни миллий адабий амалиётга киритмаганларида у тақлид натижасида ўзи пайдо бўлиб

қолмасди. Шунингдек, «Алпомиш»дай йирик халқ достони ҳам барча миллатларда мавжуд эмас. Бадий ижодда атроф-муҳит, инсоннинг тирикчилик ва турмуш тарзи муҳим ўрин тутгани ҳолда адабиётни фақат ҳаёт ҳодисаларига тақлид натижасигина, деб қабул қилишга асос бермайди. Фикримизча, адабиётни идрок этиш «мимесис» натижасида юз беради. Дейлик, туркий адабиёт намуналари исломдан олдинги даврда тамомила ўзига хос йўналишда ривожланган. Бунга тошбитиклар, Иссиққўрғондан топилган, Селунгурда сақланиб қолган адабий ёдгорликлар гувоҳдир. Эътибор қилинса, тошбитиклардаги тасвирларда ҳақ-ноҳақ, ҳалолҳаром, тўғри-ноғўри каби тушунчалар тилга ҳам олинмайди, Култигин, Билгақоон ва бошқа қаҳрамонларнинг тутумлари муайян ахлоқий ўлчамлар асосида баҳоланмайди. Бу битиклардаги ягона мезон – қудрат ва ғалаба.

Амалий таклифлар. Ўқувчида маънавий туйғуларни уйғотиш ва барқарорлаштириш ваколати ёки вазифаси фақат мактабнинг зиммасидагина эмас. Бола оила, боғча, маҳалла, қариндош-уруғ ва таниш-билишлараро муносабатлар жараёнларида ҳам тарбияланади. Шу боис таълим тизимида кўп қўлланган «**Бутун ҳаёт давомида таълим**» ифодаси «**Барча ҳаёт тарзи орқали таълим**» ифодаси билан алмаштирилди. Дарҳақиқат, тарбия-таълим турмушнинг барча жабҳаларида, инсон умрининг охиригача давом этади. Шунга қарамай, УЎТМ, ижод мактаблари, академик лицей, касб-ҳунар коллежлари ва улардаги адабий таълимнинг ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашдаги ўрнини камситиб бўлмайди. Бу муассасалар адабий таълими муваффақиятида:

- ўқитиш ўқувчининг турли хил қабул қилиш жиҳатларига самарали таъсир этадиган бўлиши;

- ўқувчилар улар олдида қўйилган вазифалар бўйича аниқ тасаввурга эга бўлишлари;

- янгиликлар билан таништириш, мураккаблиklarини соддалаштириб бериш йўллари;

- дедукция билан индукцияни амалда бирлаштириб қўллаш каби омилларга боғлиқдир. Мазкур омиллар ўқитишнинг тезкорлиги ва кафолатини ҳам белгилайди.

Педагогика, жумладан, адабиёт ўқитиш методикаси ижодкор болаларни ривожланишининг келажак истиқболини қуйидагиларда кўради:

- ўқув-тарбия жараёнини инсонпарварлаштириш;

- ўқитишни дифференциациялаш (фарқлаш, ажратиш);

- предметлар ва аниқ методларни интеграциялаш (уйғунлаштириш);

- ўқитиш савиясини ҳозирги замон фани ва маданияти савиясига яқинлаштириш;

- ўқитишнинг янги шакллари излаш; дарсларини лойиҳалаштириш;

- дастурга мос дарсларнинг янги технологияси ҳамда технологик харитасининг яратишни кўзда тутади.

Адабий таълимини такомиллаштириш эса, олиб борилган илмий тадқиқотларимиз асосида ўқувчиларда қуйидагиларга эришишни таъминлайди:

- бадиий адабиёт ўқишга қизиқишини ривожлантиради;

- таълим босқичларида ўқитувчи эътибори бадиий асарнинг ўқувчига маънавий, эстетик ва ҳиссий таъсир этишига қаратади;

- ўқувчида гўзалликни ҳис этишини шакллантириш орқали онгли муносабат ва мустақил фикр эгасини тарбиялашга хизмат қилади;

- адабиётга ижодий, индивидуал ёндашувни шакллантириш компетенцияси ривожланади;

- мақсадли таълимнинг турли босқичларидаги бундай ёндашувлар адабиёт ўқитиш борасидаги тизимли алоқани мустаҳкамлайди.

Ана шундай юмушларни амалга ошириш баробарида шиддатли илмий-техник инқилоблар замонида муваффақиятли фаолият юрита оладиган янги авлод кадрларини етиштириш, ёшларни бунёдкор, ватанпарварлик каби умрбоқий ғоялар билан тўйинтирилган таълим орқали касб-ҳунарга йўналтириш, адабий таълимни илғор педагогик воситалар билан таъминлаш, мактабда ташаббус ва ижодга кенг йўл очиш, уларга мувофиқ тизимларни яратиш каби зарур омилларни яратади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ (REFERENCES)

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев. Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамоат ташкилотларининг ҳамкорлигини кучайтириш масалалари. - Тошкент. “Янги Ўзбекистон” 2021 йил 19 январь.

2. Азбаров Ю.Т. Болаларни севиш санъати.–Т.:“Ўқитувчи”, 1991.– 138 б.

3. Азизходжаева Н.Н. Инновационные и образовательные технологии в подготовке педагогических кадров // Халқ таълими. – Тошкент, 2001. - №4.– С.123-126.

4. Азизхўжаева Н.Н. Ўқитувчи тайёрлашнинг педагогик технологияси. – Т.: ТДПУ, 2000. – 52 б.

5. Активные формы преподавания литературы. Лекции и семинары на уроках в старших классах (составитель: Р.И. Альбеткова). – М.: “Просвещение”, 1991. – 175 с.
6. Ал Бухорий Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил. Ҳадис. –Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1991. – 560 б.
7. Аледова Р.Ш. Амир Темурнинг маърифий-тарбиявий қарашлари: Пед. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – 23 б.
8. Алиев А. Маънавият, қадрият ва бадиият.– Т.:Маънавият,2000.– 630 б.

NASRIY ASARDA UCHLIK TIMSOLINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xodjayev Sidiq Axmedovich,

FarDU katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA

Maqolada nasriy asarlarda uchlik timsolining o‘ziga xos xususiyatlari va ularning badiiy-estetik va falsafiy vazifalari tahlil qilingan.

***Kalit so‘z va iboralar:** uchlik timsoli, badiiy matn, kompozitsiya, badiiy idrok, muallif, gedonistik, kommunikativ badiiy-estetik vazifa, shakl va mazmun birligi.*

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется своеобразие интерпретации символа триады и его художественно-эстетические, философские функции в прозаических произведениях.

***Ключевые слова и выражения:** символ триады, художественный текст, композиция, художественное восприятие, автор, гедонистический, коммуникативный, художественно-эстетическая, философская функции, единство формы и содержания.*

KIRISH

Badiiy adabiyotga mansub asar namunalari ko‘zdan kechirilganda ularda voqelikni badiiy idrok etish hamda badiiy matn yaratish jarayonida yozuvchilar asar arxitektonikasiga turli yo‘llar bilan yondashgani kuzatiladi. Xususan, ba’zi asarlarda kompozitsiya, ba’zilar esa obrazlar uchlik tamoyiliga asoslanganiga guvoh bo‘lish mumkin bo‘lamiz. Zero, badiiy asar yaratilishida ijodkor qo‘llagan uchlik tamoyili va uning asar kompozitsiyasiga alohida xususiyat sifatida singdirib yuborilishi badiiy asarning shakl va mazmun birligini ta’minlovchi muhim unsur sanaladi.

Adabiyot nazariyasi ham hukm va xulosalarda uchlik tamoyiliga tayanadi. Lekin so‘nggi yillarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda, xususan, badiiy asar arxitektonikasiga oid izlanishlarda uchlik tamoyili ko‘pincha e’tibordan soqit qilinadi. Vaholanki, asar kompozitsiyasida uchlik va uning turli shakllari mazmuniy komponentlar yuzaga chiqishini ta’minlovchi asosiy vositalardan biri deyish mumkin. Aslida uchlik voqelikni badiiy idrok etish, tasvirlash tamoyili sifatida adabiyotshunoslikda mavjud. Xususan, ertak strukturasi tashkil etuvchi asosiy tamoyil binarlik(invariantlilik, ikkilanish) hisoblanadi. Biroq syujet qurilishida uning yonida uchlik tamoyili ham ishtirok etadi va u strukturaning ikkilik xususiyatini buzmaganda unga sezilarli o‘zgarishlar kiritadi. Buni, avvalo, badiiy matnning

turli darajalarida kuzatsa bo‘ladi. Tadqiqot davomida ma’lum bo‘ldiki, uchlik asosiga ega badiiy asarlar talaygina bo‘lib, bunday matnlarda uchlik voqelikning asosiy qismida namoyon bo‘ladi. Masalan, barcha asarlarda badiiy voqelik kompozitsion ifodaga ko‘ra, uch o‘lchamli shaklda aks ettiriladi. Ba’zi asarlarda syujet tuzilishiga ko‘ra, uchlikning yondosh yoki sayyor jihatlari ham ko‘zga tashlandi. Biz faslda tadqiq etilayotgan muammoning asosan ana shu uch jihatiga e’tibor qaratamiz. Lekin g‘oyaviylik, falsafiylik hamda badiiy-estetik jihatlar ham nazardan nazardan soqit qilinmasligi lozim.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma’lumki, badiiy asar kompozitsiyasida obraz yoki syujet qurilishida uchlik alohida o‘ringa ega. Chunki badiiy adabiyot o‘z mohiyatiga ko‘ra, borliqni, butun hayotni qamrab oladi. Borliq esa kishiga uch o‘lchamda namoyon bo‘ladi. «Chunki badiiy asardagi shakl va mazmun birligi aniq makon va zamon doirasida namoyon bo‘ladi». Shunday ekan, har qanday badiiy asar kompozitsiyasidagi syujet qurilishi uch o‘lchamda namoyon bo‘lishi haqida so‘z yuritish maqsadga muvofiqdir. Badiiy tahlil asoslari shakllanishida ham uchlik asosida fikr-mushohada yuritish ko‘zga tashlanadi. Masalan, akademik A.M. Levidov «Avtor – obraz –chitatel» «Muallif – obraz – o‘quvchi») nomli dialektikasini badiiy adabiyotda... qanday mujassamlashishini yoritir ekan, bu dialektik qarama-qarshilik asosida uch holat yotishini qayd etadi:

1. Muallif o‘zini bermasligi mumkin emas.
2. Muallif o‘zini berishga majbur.
3. Muallif o‘zini bermasligi kerak («o‘lishi shart»).

Ya’ni, 1. Muallif o‘zini bermasligi mumkin emas, degan fikr o‘z-o‘zidan muayyan bir g‘oyani ilgari suradigan badiiy adabiyot bo‘lishi mumkin emasligini bildiradi. Muallif asar yozish jarayonida qahramonlariga xolis yondashishga harchand harakat qilmasin, ba’zan simpatiyasi yoki antipatiyasi sezilib qoladi.

2. Muallif qahramonlarni ishonarli qilib tasvirlash uchun, aktyorlar o‘z roliga kirganlari kabi asar qahramonlarining qiyofasiga kirishi kerak. Shunga qaramay, obrazlar xatti-harakatiga, ichki dunyosiga aralashmaslikka harakat qilsa-da, ong-u shuuridagi fikrlarni tabiiy ravishda kiritadi, lekin o‘zligini yo‘qotmaydi.

3. Muallif faqat va faqat obyektiv yondashishi, o‘z fikrini aytmasligi, ya’ni «o‘lishi shart», yoki fransuz adibi G.Floberning iborasi bo‘yicha «u(muallif) o‘z ijodida xudoga o‘xshashi shart, ya’ni yaratsin-u jim tursin», voqealarga aralashmasin, ular o‘z tabiiy yo‘nalishi bilan rivojlansin. Olimning ta’kidlashicha, «bu holatlarning har biri alohida olinganda – haqiqat, ular birlashganda, yaxlitlikda ham – haqiqat».

XX asr boshlarida o‘zbek adabiyotiga kirib kelgan, V.G.Belinskiy ta’biri bilan aytganda, «zamonamiz epopeyasi» bo‘lgan epik turning badiiy adabiyotning gedonistik va kommunikativ vazifasini yaxlitlashtiradigan roman janri asrlar davomida shakllanib, sayqallanib bordi va bu jarayon hozirda ham izchil davom etmoqda. Buni adabiyotshunos olim A.Rahimov quyidagicha qayd etgan: «Roman barcha adabiy turlar ichida eng ko‘p o‘qiladigan janrdir. Bu jihatdan uni inson yaratgan mo‘jizalardan biri deb aytish mumkin. Roman adabiy janrlar orasida o‘zining qamrovi kengligi bilan ajralib turadi. U borliq va inson ichki dunyosini ochish imkoniyatlarini chuqurlashtiradi. Shu ma’noda roman epik rivoyaga asoslangan barcha janrlarga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Hayotning ko‘p qirraliligini ochish imkonini beradigan ushbu janr tabiatini o‘rganish maroqli bo‘lib, bu romanni tushunishga ko‘maklashibgina qolmasdan, adabiy janrning juda ko‘p muammolarini anglashga yo‘l ochadi». Demak, zamonaviy roman badiiy-estetik jihatdan teran mazmun va voqelikni ifodalash uchun to‘laqonli ko‘rinishga ega bo‘lgandagina, o‘zida adabiyotning barcha muhim xususiyatlarini jamlagandagina, betakror badiiylilik namunasi hisoblanadi. Roman janri haqidagi fikrini davom ettirib A.Rahimov yana quyidagilarni e’tirof etadi: «Romanning imkoniyatlari beqiyosdir. ... Romanning afzalliklari shundan iboratki, avvalo, unda konkret hayot voqealari beriladi. Ikkinchidan esa, romanga xususiy hayot ham material bo‘ladi. Qadimgi epos bunday imkoniyatga ega emas edi. Chunki hali u davrda shaxs jamoadan ajralib chiqmagandi. Romanning badiiyligi kundalik hayot va tarixiy voqealardan barcha tasodifiy narsalarni olib tashlash, ularning yashirin qalbiga kirish, tarqoq voqealarni ruh va aql maskaniga aylantirishdir. Romanning badiiyligi unda ifodalangan g‘oyaning chuqurligiga bog‘liqdir».

Bunda romandagi uchlik tamoyilining ham alohida o‘rni borligini ta’kidlash zarur. Masalan, A.Qodiriyning «O‘tgan kunlar» romanida umuminsoniylik, milliylik va individuallik tamoyillari syujet kompozitsiyasining asosini tashkil etgan. «O‘zbek adabiy tilining estetik, kommunikativ, funksional usuli asosan XX asr boshlarida, ya’ni adabiyotimizda epik tur endigina ommaviy tus ola boshlagan paytlarda shakllanishga kirishdi. Bu davrda dunyoga kelgan nasriy asarlarning o‘ziga xosligi shundaki, ularda qalamga olingan voqealar mohiyatini asarda ishtirok etuvchi personajlarning o‘zaro suhbatidan yoki yana yagona avtor axborotidan bilib olamiz. Albatta, bu axborot shunchaki yuzaki bo‘lib qolmasligi uchun avtor hayotni chuqur bilishi va uni butun murakkabligi bilan tahlil qila olishi, axborotda ishlatilgan so‘zlar vositasida inson tuyg‘ulariga bevosita ta’sir o‘tkaza olishi kerak». Adabiyotshunos olim Y.Solijonovning mazkur ilmiy-nazariy mushohadalari asar tahlilida qo‘l keladi.

XIX asr o‘rtalaridagi o‘zbek jamiyati tasviri syujetning milliyligini ta’minlagan bo‘lsa, ulardagi insonparvarlik, hayotsevarlik, sevgi-sadoqat kabi tushunchalar romandagi voqealarning umuminsoniyligini ifodalagan. «Sevgi-muhabbat umuman inson naturasining xususiyati bo‘lib, xuddi nafas olish, ko‘rish, ochiqish, tashnalik, aql, so‘z singari birgina xalq yoki qabilaga xos emas». Otabek, Kumush, Zaynab, Homid, Yusufbek hoji, O‘zbek oyim kabi obrazlarning xarakteriga xos jihatlar esa asardagi individuallik tamoyilini namoyon etgan. «Masalani oydinlashtirishda umumiylik – alohidalik – xususiylik kategoriyalarining dialektikasini eslash o‘rinli... Individuallik har bir personaj xakteri va qiyofasini boshqalardan farqlab turuvchi xatti-harakatlar va qiliqlar bo‘lib, milliy xususiyatlar va tipik, umumiy jihatlar ana shu takrorlanmas individuallik, u orqali namoyon bo‘ladi. Har qanday individ takrorlanmasdir». Demak, yozuvchi romanda zamonaviy ijtimoiy muammolar, xususan, hayotda o‘z o‘rnini topish, baxtga intilish, insonni tushunish, o‘z baxti uchun kurashish, sadoqatli bo‘lish kabilarni yuqoridagi uchlik tamoyili asosiga qurgan.

Bundan tashqari, obrazlar kompozitsiyasida ham uchlik tamoyiliga qat’iy amal qilingan bo‘lib, romanda Kumush – Otabek – Zaynab, Otabek – Kumush – Homid sevgi uchliklarida har bir obraz o‘zaro birlashib, yagona badiiy yaxlitlikning bo‘linmas qismlariga aylanib ketadi. Aynan mana shu yaxlitlikni yaratishda xilma-xillikning oliy holati va yorqin ko‘rinishi bo‘lgan uchlikning ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Agar Tohir – Zuhra – Qorabotir, ya’ni erkak – ayol – erkak tarzida shakllangan sevgi uchburchagini an’anaviy deb qabul qilsak, A.Qodiriyning Kumush – Otabek – Zaynab(ayol – erkak – ayol) triadasi o‘zbek romanchiligida noan’anaviy sevgi uchburchagiga asos bo‘ladi. Adibning «Mehrobdan chayon» romanida an’anaviy uchlik bir qator o‘ziga xos jihatlarga ega. Bu esa mana shu «uchlik»ka mansub qahramonlarning spesifik xususiyatlari va syujet maydonining o‘zgacha badiiy-poetik belgilari bilan aloqador. Jumladan, oshiq va ma’shuqa o‘rtasidagi «Qorabotir» rolini –Abdurahmon domla bajaradi. Uning mirzo Anvarga bo‘lgan adovati xon saroyida xizmat qilayotgan paytida, undan yuqoriroq lavozimdagi «maktabdoshi»ga hasad qilishdan, Ra’no yosh mirzoni tanlashidan, Buxoro madrasasida tahsil olgan «olim»ning kichik bir masjidga imom bo‘lgani holda, «bir besavod yetim va badnajot isqirt» ning saroyda vazifador bo‘lishidan boshlangan. Bundan tashqari, Abdurahmonda «O‘tkan kunlar» romani qahramoni Homiddagi jismoniy kuch-quvvat, o‘ktamlik yo‘q. Qurol bilan dushmaniga ochiqdan-ochiq qarshi chiqishga jasorati yetishmaydi. Biroq uning arsenalida tilyog‘lamalik, g‘iybat, bo‘hton, fitna kabi kurash vositalari mavjud bo‘lib, u aynan mana shu qurollar bilan «O‘tkan kunlar»dagi maslakdoshiga yaqin va mushtarak.

Oybekning «Qutlug‘ qon» romanida uchlik tizimi tarixiy-an‘anaviy obraz yaratish yo‘lida ishlangan. Romanda uchlik tizimining tipiklashganini kuzatamiz. «Qutlug‘ qon»da har jihatdan obraz yaratishda tarixiy-an‘anaviylik saqlanib qolgani va keyingi davr romanlarida uchlik tamoyiliga xizmat qilganini alohida ta‘kidlab o‘tish joiz. «Qutlug‘ qon» romanida obraz-triada (S.X. Bu yerda Yo‘lchi – Gulnor – Mirzakarimboy uchligi nazarda tutiladi) tahlil qilinganda ijtimoiy sinfiylik nuqtai nazaridan kelib chiqib baholash kerak.

Bunga yana A.Muxtorning «Chinor» romanida Sattor – Komila – Matniyoz, P.Qodirovning «Qora ko‘zlar»ida Avaz – Hulkar – Xolbek kabilarni ham misol tariqasida keltirishimiz mumkin. To‘g‘ri oshiq-ma‘shuqa va oshiq tipidagi uchlikni xalq dostonlari, ertaklarida ko‘plab topish mumkin. Ammo ma‘shuqa – oshiq – ma‘shuqa tipidagi sevgi triadasi nisbatan keyingi davr romanlariga xos xususiyat sanaladi.

«Bola bosh qahramon bo‘lgan qissalarda, jumladan, G‘afur G‘ulomning «Shum bola», «Bolalik», Chingiz Aytmatovning «Oq kema» qissalarida» asar kompozitsiyasidagi o‘ziga xos uchliklarni, ya‘ni roviy – obraz – prototip yoki roviy-muallif – obraz – prototiplarni kuzatish mumkin. Shu bilan «badiiy adabiyotda bola obrazi eng qadimgi folklor asarlaridan boshlab, zamonaviy davrga qadar allegorik ramziy obraz tadrijiy strukturasi asosida rivojlandi»⁹³.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarlarni o‘rganishda asar kompozitsiyasidagi obrazlar munosabati, syujet va uning komponentlari joylashuvi uchlikning o‘zak, yondosh va sayyor xususiyatlarini yorqinroq ifodalaydi. Badiiy obraz yuzaga chiqishida insonning ongi, ruhi va his-tuyg‘ulari kabi uchlik yoki yozuvchi-matn-o‘quvchi kabi uchlik tamoyiliga asoslangan tarkibiy qismlar asar badiiyatini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Йўлчиев Қ. В. Лирик шеърда бадий макон муаммоси. Сўз санъати халқаро журнали | Международный журнал Искусство слова | International journal of Word Art. №5, 2020. – Б.148-152.<http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-5-23> <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-5-23>.
2. Левидов А.М. Автор – образ – читатель. – Л., 1977. – С. 159.)
3. Муҳаммаджонова Гўзалхон. Мустақиллик даври ўзбек насрида инсон концепцияси. Филол.фан.д-ри. ... (DSc). – дисс.автореф. – Фарғона, 2022. – Б. 31)

⁹³ Р.М.Умурзаков. XX аср ўзбек киссаларида бола образи: давр ва руҳият. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Фарғона, 2021.

4. Белинский В.Г. Танланган асарлар. –Т.: Ф.Фуллом номидаги Адабиёт ва санъат, 1977. – Б. 176.
5. Раҳимов А. Роман санъати. – Фарғона: «Фарғона», 2015. – Б.6.
6. Солижонов Й. XX асрнинг 80-90 йилларида ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси: Филол. фан. д-ри. – дисс.автореф. – Т., 2003.
7. Зияева Ю. Т. Ойбекнинг «Қутлуғ қон» романида «ошиқ – маъшуқа – рақиб» образи талқини. «Jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani 2022- yil, 31-oktyabr. 109-113 б.
8. Р.М.Умурзақов. XX аср ўзбек қиссаларида бола образи: давр ва руҳият. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Фарғона, 2021.
9. Хо‘jayev, S., & qizi Tuychiboyeva, N. K. (2022). BOLA RUHIYATI TASVIRI (SH. AYTMATOV VA O ‘. HOSHIMOV ASARLARI MISOLIDA). *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(3), 125-129.
10. Хо‘Jayev, S., & Abdumalikova, D. R. Q. (2022). BADIY ADABIYOTDA OPA-SINGILLAR OBRAZI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 734-740.
11. Хо‘Jayev, S., & Tuychiboyeva, Nodira Komiljon Qizi (2022). BOBO VA NABIRA MASALASI. (SH.AYTMATOVNING “OQ KEMA” ASARI MISOLIDA). *International scientific journal of Biruni*, 1 (2), 376-381.
12. Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel “Night and day” by Chulpan. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(6), 119-120.
13. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of Characters in Utkir Hoshimov’s Story “Yanga”. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(6), 196-200.
14. Sabirdinov, A. (2020, December). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. In Конференции.
15. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of the banned period in the stories of Naim Karimov. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(11), 4-91.
16. Сабирдинов, А. Г. (1993). Слово и образ в поэзии Айбека.
17. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. *Scientific Journal of Polonia University*, 32(1), 116-120.
18. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. *International*

Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. –P.33-39.

19. Murodilovna, O. G. (2020). Melody and musicality in Lyrics. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 656-664.

20. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 03. – C. 245-249.

21. Oripova, G. (2020, December). RHYTHM AND MYTHING IN LYRICAL GENRE. In Конференции.

22. Oripova, G. (2019) "Traditions of folk ballads and distinctiveness of uzbek poetry of independence period," *Scientific journal of the Fergana State University: Vol. 2 , Article 12.*

23. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(12), 90-94.

24. Oripova, G., & Ibrohimova, G. (2022). SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA MUMTOZ MUSHTARAKLIKLAR. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 251-255.

25. Oripova, G. M., Akhmadjonova, O. A., Kholmatov, O. U. U., & Muminova, T. S. (2022). INTERPRETATION OF MOTHER IMAGE IN LITERATURE. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 304-309.

26. Oripova, G., & Alijanova, M. A. Q. (2022). ASQAD MUXTORNING “CHINOR” ROMANIDA AYOL PORTRETINING BADIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 221-226.

27. Oripova, G. M., & Abdurasulova, N. A. Q. (2022). O’ZBEK NASRIDA URUSH MAVZUSI VA “YO’QOTILGAN AVLOD” MUAMMOSI. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 213-220.

28. Oripova, G., & Mirzajonova, G. (2023). TARIXIY SHAXSLAR TASVIRI VA MUALLIF MUNOSABATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(10), 411-415.

29. Oripova, G., & Abdurasulova, N. A. Q. (2023). NABI JALOLIDDIN NASRIDA URUSH QATNASHCHILARI RUHIYATI TASVIRI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 495-501.

HSK 5 IMTIHONI O‘QISH VA YOZISH KO‘NIKMASIGA TAYYORLANISHNING ENG OSON VA SAMARALARI YO‘LLARI

Hamdamova Charos Hamdamovna
Samarqand davlat chet tillar instituti,
Yaqin sharq tillari kafedrası o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

2009 – yil noyabr oyidan boshlab, Xalqaro Xanban tashkiloti xorij fuqarolari uchun yangi xitoy tili darajasini aniqlash imtihoni – HSK ni joriy qildi. Yangi ko‘rinishdagi imtihon shakli, nafaqat Xitoy, balki xorijlik talabgorlar tomonidan ham iliq kutib olinishiga muvaffaq bo‘ldi. Oxirgi paytlarda xorijiy tillarni o‘qitish masalasiga katta e‘tibor qaratilmoqda. Mazkur maqolada xitoy tilidan til bilish darajasini belgilovchi “HSK” sertifikatini qo‘lga kiritish uchun topshiriladigan imtihonlarga tayyorlanish jarayoni haqida ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: HSK, Xitoy, til, daraja, yozish, o‘qish, ko‘nikmalar, sertifikat.

ПРОСТЫЕ И ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ ПОДГОТОВКИ К ЭКЗАМЕНУ HSK 5 ПО ЧТЕНИЮ И ПИСЬМЕНИ

АННОТАЦИЯ

С ноября 2009 года Международная организация Ханьбан ввела новый тест на знание китайского языка – HSK – для иностранных граждан. В последнее время большое внимание уделяется преподаванию иностранных языков. В данной статье представлена информация о процессе подготовки к экзаменам для получения сертификата «HSK», определяющего уровень владения китайским языком.

Ключевые слова: HSK, китайский язык, уровень, письмо, чтение, навыки, сертификат.

SIMPLE AND EFFECTIVE WAYS TO PREPAR FOR THE HSK 5 READING AND WRITING EXAM

ABSTRACT

Since November 2009, the Hanban International Organization has introduced a new Chinese language test - HSK - for foreign citizens. Recently, much attention has been paid to teaching foreign languages. This article provides information about the process of preparing for exams to obtain the HSK certificate, which determines the level of Chinese language proficiency.

Key words: HSK, Chinese language, level, writing, reading, skills, certificate.

KIRISH

Tabiiyki, talabgorni imtihon oldidan qanday qilib qisqa vaqt ichida xitoy tili darajasini aniqlash imtihoniga tayyorlanish, aynan qaysi materiallar bilan muntazam va doimiy mashg'ulotlar olib borish, talabgorning bilim va ko'nikmalarini oshirish, qobiliyatini yuqori darajada namoyon qilish, ko'zlagan natijasiga erishish kabi savollar qiynaydi. Bugungi kunga kelib, kitob do'konlari yoki internet sahifalarida juda ko'p va turli – tuman HSK imtihoniga tayyorlanish uchun kerakli bo'lgan material, manba va savollar katalogini uchratish mumkin. Ammo ular orasida imtihonni yuqori natijalarga topshirish, tanlov savol - testlarni aynan qanday texnikalardan foydalanib ishlash, vaqtdan to'g'ri va unumli foydalanish, savollarning aynan qaysi jihatlariga e'tabor berilsa kutilgan natijaga erishish haqidagi darslik va manbalarni uchratish mushkul.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Birgina savollar kitobi bilan ishlangan taqdirda, talabgor o'zi bajargan testlarni mustaqil tekshirish imkoniyatiga ega bo'ladi, biroq javoblari noto'g'ri belgilangan holatda nega noto'g'ri, to'g'ri javob qaysi, nega aynan o'sha javob to'g'ri singari tushunmovchiliklarga duch kelishi, o'qituvchi bilan shug'ullanish biroz ko'p vaqt olishi mumkinligini inobatga olgan holda, talabgor bilan shug'ullana oladigan ham "murabbiy", ham savollarni o'zida mujassam etgan katalog va albatta darslik o'rnini bosadigan material ishlab chiqilishi hamda o'sha materialdan foydalanib, qisqa muddat ichida talabgorlarni HSK 5 imtihoniga sifatli tayyorlash vaqti yetdi, nazarimda.

Ushbu kitobni yaratishda ma'lumotlar, shunchaki grammatik qoidalar bilangina emas, balki xitoyliklarning madaniyati, urf – odatlari, udumlari misolida oson tilda yoritilgan.

O'ylaymanki, xitoy tilini o'rganishga bel bog'lagan, ayniqsa, HSK 5 imtihoniga jiddiy tayyorlanish maqsadida bo'lgan o'quvchilarning talab va istaklariga binoan yaratilgan ushbu eng yangi "HSK 5 imtihonidan o'tishning eng oson va samarali yo'llari" maqolam, HSK 5 imtihonidan yuqori ball bilan o'tish, Xitoy hukumati granti asosida Xitoy Xalq Respublikasida tahsil olish istagida bo'lgan barcha yoshlar uchun qo'llanma vazifasini o'taydi.

Talabgorlar orasida HSK 5 imtihoni nima? Imtihonni topshirishga qobiliyatim yetadimi? Imtihon qay tartibda bo'ladi yoki qanday topshiriladi? Imtihon sertifikatini qo'lga kiritilgan taqdirda, uning yordamida nimalarga erishish mumkin, kabi savollarga quyida javob beraman.

HSK 5 imtihoni (bundan keyin imtihon deb ataladi)ga tayyorlangan yoki tayyorlanib kelayotgan talabalar orasida imtihon o'zi qay tartibda olinishi, qanday

bo‘lishi to‘g‘risida tasavvur va tushunchaga ega bo‘lmagan talabalar, afsuski, mavjud. Ular xitoy tili yuzasidan chuqur bilimga ega bo‘lishsa-da, ammo ularning imtihon to‘g‘risida hech qanday tushunchaga ega emasliklari, ularning imtihonda bor qobiliyatlarini namoyon eta olishlariga to‘sqinlik qiladigan omillardan biridir.

Ushbu imtihon ona tilisi xitoy tili bo‘lmagan talabgorlar uchun mo‘ljallangan imtihon bo‘lib, imtihonda talabgorning kundalik hayotda, ishda yoki o‘qishda xitoy tilini qay darajada qo‘llay olishini tekshirishga mo‘ljallangan.

Imtihon topshirish usuliga ko‘ra 2 ga, ya‘ni yozma va og‘zaki imtihonga bo‘linadi. Yozma imtihon 6 qismdan iborat bo‘lib, HSK 一级, HSK 二级, HSK 三级, HSK 四级, HSK 五级, HSK 六级 nomlari bilan ataladi va o‘z navbatida ular og‘zaki imtihon bilan mutanosib bo‘lib, HSK 一级, HSK 二级 og‘zaki imtihonning 初级 (boshlang‘ich), HSK 三级, HSK 四级 og‘zaki imtihonning 中级 (o‘rta), HSK 五级, HSK 六级 esa og‘zaki imtihonning 高级 (yuqori) qismiga to‘g‘ri keladi:

Yozma imtihon	Og‘zaki imtihon
HSK 六级	HSK 高级
HSK 五级	
HSK 四级	HSK 中级
HSK 三级	
HSK 二级	HSK 初级
HSK 一级	

Yozma imtihonni talabgor o‘z xohishiga ko‘ra, qog‘ozda yozma tariqa yoki kompyuter orqali internetda topshirishi mumkin.

Talabgor imtihonning qaysi darajasini topshirishni bilmayotgan hollarda, yaxshisi quyidagi 3 muhim jihatga e‘tibor berish lozim:

1. O‘zining so‘z boyligini tekshirish. Buning uchun talabgor, har bir darajaga tegishli bo‘lgan so‘zlarni ko‘rib chiqishi va ular orasidan bilmaydiganlarini ajratib olib, ularning son – sanog‘iga qarab, o‘z so‘z boyligini aniqlash mumkin. Buning uchun quyi darajadan yuqori darajaga qarab, daraja so‘zlarini o‘zlashtirish va o‘z bilimini tekshirish maqsadga muvofiq. Egallagan so‘zlari va ularni qo‘llay olishiga qarab, o‘z bilimining qaysi darajaga mosligini aniqlash oson bo‘ladi.

2. Xitoy tilini o‘rganishga ajratadigan (yoki ajratgan) vaqtini aniqlash. Aniqrog‘I, HSK 5 imtihonini topshirish uchun talabgor haftasiga kamida 2 – 4 ta darsdan saboq olgan bo‘lishi va xitoy tilini o‘rtacha 2 yil o‘zlashtirgan bo‘lishi lozim.

3. Nima sababdan imtihon topshirmoqchi ekanligiga qarab. Agarda talabgor shunchaki o‘z bilimini tekshirmoqchi bo‘lsa, yuqoridagi 2 jihat yetarli, biroq

Xitoydagi oliy ta'lim muassasasida ta'lim olish uchun talabgor kamida 4 – darajaning sertifikatiga ega bo'lgan bo'lishlari lozim.

Eng yangi HSK imtihoni to'g'risidagi qo'llanmalarga ko'ra, HSK 五级 (HSK 5) 3 qismdan iborat bo'lgan 100 ta savoldan tashkil etadi.

1. Eshitish	1 – qism;	20	45	Davomiyligi: 30 daqiqa.
	2 – qism.	25		
2. O'qish	1 – qism;	15	45	Davomiyligi: 45 daqiqa.
	2 – qism;	10		
	3 – qism.	20		
3. Yozish	1 – qism;	8	10	Davomiyligi: 4 daqiqa.
	2 – qism.	2		
Javoblar varaqasini to'ldirish uchun vaqt				5 daqiqa.
Jami:	/	100		Davomiyligi: 120 daqiqa.

HSK 五级 (HSK 5) imtihoni qanday topshiriladi? Talabgorlar imtihonga maxsus ruxsatnoma bilan imtihonga kiritiladi.

Imtihon boshlangach, talabgor nazoratchining ko'rsatmasiga binoan, javoblar varaqasini to'ldiradi.

Javoblar varaqasi to'ldirib bo'lingach, talabgorlarga variantlar kitobi tarqatiladi. Talabgor variantlar kitobini zudlik bilan kleylangan holatda yangi va yopiq ekanligini tekshirishi va variantlar kitobiga putur yetgan taqdirda, bu haqda darhol nazoratchiga xabar berishi lozim bo'ladi.

Nazoratchi imtihonda diqqat qilinishi kerak bo'gan jihatlarni tushuntirgunga qadar, talabgor variantlar kitobini ochmasligi maqsadga muvofiq.

Nazoratchi audio yozuvni qo'yishi bilan, imtihonning eshitish qismi boshlanadi. Imtihonning eng dastlabki qismida imtihonga aloqador xabarlar eshittiriladi. Agarda talabgor audioyozuvni eshitmayotgan yoki audio yuzasidan yana boshqa muammoga duch kelayotgan bo'lsa, zudlik bilan bu haqda nazoratchiga xabar berishi lozim.

Eshitish qismi yakuniga yetgach, talabgor imtihonning o'qish qismiga o'tishi mumkin. O'qish qismi uchun 45 daqiqa vaqt ajratiladi. O'qish qismi yakuniga yetishiga yana 5 minut qolganda, nazoratchi bu haqda talabgorni ogohlantiradi.

O'qish qismidan keyin esa imtihonning yozish qismi boshlanadi. Yozish qismi uchun talabgorga 40 daqiqa beriladi. Xuddi yuqoridagi singari imtihon yakuniga yana 5 minut qolganda, nazoratchi yana bu haqda talabgorni ogohlantiradi.

Yozish qismi yakuniga yetgach, nazoratchi variantlar kitobi va javoblar varaqasini yig'ib oladi va shu bilan imtihon o'z yakuniga yetadi.

HSK sertifikatidan qay holatlarda foydalanish mumkin? Talabgor HSK sertifikatini qo'lga kiritgach, undan quyidagi holatlarda foydalanishi mumkin:

1. Xitoydagi ta'lim muassasalarida tahsil olish uchun grantlarda ishtirok etishi;
2. Ish topishda, ishga kirishda;
3. O'qitishga aloqador muassasalarda ishlashi yoki oldin ishlab turgan bo'lsa, lavozimini oshirishda, yoki ayni damdagi maoshiga qo'shimcha ustama qo'shilishida.

XULOSA

Imtihon yakuniga yetkandan o'rtacha 3 hafta o'tib, talabgor imtihondan o'tgani (yoki aksincha) to'g'risida bilib olishi mumkin. Talabgor imtihondan o'tgan taqdirda u 4 xil – ya'ni, eshitish, o'qish, yozish qismidan to'plagan ballari va ularning umumiy kamida 180 ball bo'lgan taqdirda imtihondan o'tganligi to'g'risida sertifikatga ega bo'ladi. Sertifikatga ega bo'lgan talabalar Xitoyda psixologiya, qishloq xo'jaligi, sanoat, tibbiyot (xitoy tabobati bundan mustasno), iqtisodiyot, huquqshunoslik, boshqaruv, o'qitish singari sohalari bo'yicha tahsil olish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 刘超英, 等, “新 HSK 速成强化教程”, 北京语言大学出版社, 2013.
2. Гурулева Татьяна Леонидовна. "Экзамен HSK 2.0: причины и последствия структурно-содержательной трансформации" Современное педагогическое образование, no. 3, 2021, pp. 43-48.
3. Рыжко Екатерина Борисовна. "ЕДИНЫЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКЗАМЕН ПО КИТАЙСКОМУ ЯЗЫКУ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЭКЗАМЕН HSK: ОБЩИЕ ЧЕРТЫ И КЛЮЧЕВЫЕ РАЗЛИЧИЯ" Педагогические измерения, no. 2, 2020, pp. 65-71.
4. Санжиева, И. Б. Соотношение уровней владения китайским языком в экзамене HSK и европейской системе: к постановке проблемы / И. Б. Санжиева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 25 (315). — С. 486-488. — URL: <https://moluch.ru/archive/315/71924/> (дата обращения: 01.12.2023).

JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI

Yuldasheva Nargiza Egamberdiyevna

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg‘ona filiali “Sport psixologiyasi, ijtimoiy-tabiiy fanlar” kafedrasini mudiri

Djalalov Baxromjon Begmurzayevich

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg‘ona filiali “Sport psixologiyasi, ijtimoiy-tabiiy fanlar” kafedrasini dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada integratsiya, integratsiyalash, pedagogik integratsiya tushunchalarining etimologiyasi (kelib chiqishi) va mazmuni yoritib berilgan. Shuningdek, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlari haqida batafsil so‘z yuritilgan.

***Kalit so‘zlar:** integratsiya, integratsiyalash, integrativ yondashuv, kasbiy kompetentlik, o‘quv fanlari, umumkasbiy va mutaxassislik fanlari, tinglovchi.*

ABSTRACT

This article describes the etymology (origin) and meaning of the concepts of integration, integration, pedagogical integration. Also, specific features of the integrative approach to the development of professional competence of physical education teachers are discussed in detail.

***Key words:** integration, integration, integrative approach, professional competence, academic subjects, general professional and specialist subjects, listener.*

KIRISH

Integratsiya – o‘qitishning maqsad va omillarini bir butun qilib birlashtirish. Integratsiyalash - lotincha «integer» - umumiylik, «integerara» – umumiylikni to‘ldirish, yaratish, tiklash demakdir. Ta’lim mazmunidagi uyg‘unliklarni ta’minlash muammolari ham integratsiyalashning shug‘ullanadigan sohasi hisoblanadi. U tushunchalarni umumlashtirishni o‘rgatish[2].

O‘zbek tilining izohli lug‘atida «Integratsiya (lot. integratio) – tiklash, qaytadan

boshlash, to'ldirish. 1. Ayrim qismlarning, elementlarning bog'liqlik holatini, ularni qo'shib birlashtirishni ifodalovchi tushuncha. 2. Fanlarning yaqinlashishi va o'zaro bog'lanish jarayoni. 3. Ikki va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish», «Integral (lot. integer – bir butun, buzilmagan, qayta tiklangan) – mat. Oliy matematikada cheksiz kichik sonlar yig'indisi sifatida qaraladigan butun miqdor. Integrallash – mat. berilgan funksiyaning, matematik ifodaning integralini topish, aniqlash»[8, 557].

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida qayd etilishicha, «Integral [lot, integer-butun] - matematik analiz (tahlil) ning asosiy tushunchalaridan biri. Integrallash-matematikada aniqmas integralni izlash amali. Integratsiya (lot. Integration - tiklash, to'ldirish, integer-butun so'zidan), fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni, differensiasiya bilan birga kechadi»[9, 55].

«Macmillan English Dictionary for Advanced Learners» lug'atida esa quyidagicha izohni uchratish mumkin: Integral (integral) – 1. To'liq bo'lishi uchun biror bir qismni yaxlitlash; Integratsiyalash (Integrate) – 2. Ikki yoki undan oshiq narsalarni to'liq tizim yoki bo'lak bo'lishi uchun birlashtirish. Integratsiya (Integration)-narsalarni, odamlarni yoki turli xil fikrlarni bitta qilib jamlash, jamlab olmoq[5, 1692].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

“Pedagogik integratsiya” termini-tushunchasi, olimlarning fikricha, integratsiyaning muayyan ko'rinishlarini tushuntirish, prognozlash va ularni pedagogika predmetligi doirasida uning vazifalariga muvofiq tarzda boshqarishni nazarda tutadi. V.S.Bezrukova bu qoidani tasdiqlab, uni ilmiy integratsiyaning pedagogik nazariya va amaliyot doirasida amalga oshiriladigan turi sifatida ta'riflaydi[5, 25].

Fanda "integratsiya" tushunchasi XVIII asrdayoq G.Spenser tomonidan qo'llanilishiga qaramay, unga davr taqozosiga ko'ra, yaqin paytlargacha yetarli ahamiyat berilgan emas.

Ilmiylik nuqtai nazaridan olib qaraganda, integratsiyaning asosini olamning yaxlitligi va uni tashkil etuvchi qism (element)larning o'zaro aloqadorligi, munosabatlari tashkil etadi. Taniqli rus psixologi G.S. Kostyukning fikricha: "Tabaqalanish differentsiatsiya — ruhiy jarayonlar va holat (xususiyat)larni ko'payishiga olib kelsa, integratsiya — tartibga keltirish, subordinatsiya va uning natijalarini ma'lum ketma-ketlikda joylashtirishga olib keladi. Integratsiyalash yo'li bilan yangi psixologik jarayon, yangi faoliyat tuzilmasi hosil bo'ladi. Bu yangi tuzilma ilgari alohida-alohida bo'lgan elementlardan sintezlash yo'li bilan hosil qilinadi[1, 17].

Genetik jihatdan integratsiya–uzviylik, fanlararo aloqadorlik, o‘zaro aloqadorlik va nihoyat o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi, kengaytiruvchi hamda chuqurlashtiruvchi, o‘quv fanlari mazmunini eng kamida DTSlari darajasida sintezlab, mantiqan tugallangan mazmun, shaklning oliy darajasi. Chunki predmetlararo aloqadorlikning har qaysi quyi darajasi, o‘rganilayotgan o‘quv fanlari doirasida ma’lum didaktik birliklar orasida o‘rnatilib, ularni o‘rganish mazmuni va muddatlarini muvofiqlashtirishni ko‘zda tutadi. Bundan farqli o‘laroq, integrativ aloqadorlik asosida tashkil etilgan o‘quv fani yoki integratsiyalab o‘rganilayotgan fan, hodisa yoki jarayonlarni yaxlit tizim shaklida har tomonlama aloqadorlik va munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishni talab etadi.

Bu o‘z navbatida hozirgi va istiqbol talablariga javob beradigan, mustaqil fikr yurituvchi va ijodiy faoliyat ko‘rsatuvchi, malakali mutaxassis shaxsini shakllantirishga imkon beradi. Chunki u taxsil oluvchilardan faqatgina tahlil qilish va sintezlash operatsiyalarini talab qilish bilan chegaralanib qolmasdan, balki mavhumlashtirish, algoritmlashtirish, turkumlash, shartli belgilar yordamida ifodalash, sabab-oqibatli aloqadorlikni aniqlash, tahlil etish, sintezlash, tizimlashtirish, modellashtirish kabi yuksak darajali tafakkurlash operatsiyalarini talab etadi. Bu operatsiyalar o‘rganilayotgan obyektning barcha muhim jihat va xususiyatlarini ajratib olib (tabaqalashtirib), mohiyati va mazmunini anglab yetish va ularni umumlashtirish orqali amalga oshiriladi. Demak, integratsiya har doim ham uning ikkinchi tomoni bo‘lgan tabaqalashtirish (differentsiatsiya)ga tayangan holda, rivojlanib boradi yoki aksincha[10, 48-52].

Integratsion ta’lim yo‘nalishlarining muayyan aspektlarini tahlil qilishda M.N.Berulava, M.Pak, N.Y.Borisova, K.Y.Kolesina, R.Z.Mustafina, D.T.Mugallimova, S.I.Yakimenko va boshqalarning ishlaridan foydalanildi.

M.N.Berulavaning tadqiqotida integratsion ta’lim pedagogik hodisa sifatida qaraladi. U bugungi kunda integratsiya muammosiga ikki xil mazmunli va jarayonli yondashuv mavjudligini ko‘rsatib, ikkinchisiga nisbatan e’tibor qaratadi.

M.N.Berulavaning fikriga ko‘ra, integratsiya – bu ta’lim vositalari, shartlari va metodlarini qo‘llash jarayonidir, integratsiyaning ma’lum bir natijalari ta’lim oluvchilar bilimlarini sintez qilish natijasida ko‘rinadi[3, 48-49].

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda pedagogik jarayonda integratsiya tushunchasiga turli yondashuvlar ishlab chiqilgan. K.Y. Kolesina integratsion yondashuv asosida ta’lim jarayonini tashkil qilish natijaviylik va ishonchlilikning oshishini ta’minlaydi, deb ta’kidlaydi. U integratsiyaning umumdidaktik jihatlarini ta’lim jarayoni mazmunining moddiy va ma’naviy jihatlarini sifatida ko‘rib chiqadi.

K.Y.Kolesinaning tadqiqotlarida, mazmuni yangilovchi integratsion jarayonlar didaktik tamoyilga (ta'limda integratsiya tamoyiliga) o'tadi. Yanada to'liqroq tahlil mazmuni integratsiyalashning texnologik jihatlarini (fanlararo ta'limiy topshiriqlarni o'zaro taqsimlash) batafsil tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. K.Y.Kolesinaning tadqiqotlarida ushbu muammoning psixologik jihatini tahlil qilinadi[7, 18].

Ta'lim integratsiyasiga umumiy yondashuvni talablarning individual xususiyatlari bo'yicha ko'rib chiqadi[6, 51]. O'quv fanlarini bir fanga integratsiyalash uchun: tadqiqot obyektlari bir xil yoki bir biriga yaqin bo'lishi kerak; integratsiyalanayotgan o'quv fanlarida bir xil yoki o'xshash tadqiqot metodlaridan foydalaniladi; integratsiyalanayotgan o'quv fanlari umumiy qonunlar, umumiy nazariy tamoyillar asosida quriladi.

A.A.Pinskinning tadqiqotlarida o'quv fanlarini integratsiyalash ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishni ta'minlovchi didaktik sharoitlar sifatida ko'rib chiqiladi. Uning fikriga ko'ra, ta'limning asosiy tarkibiy qismlari bilan bir qatorda ta'lim metodlari ham o'quv fanlari integratsiyasining yetakchi yo'nalishlarini belgilaydi.

Integratsiya talablari asosida ta'lim jarayonini tashkil etish deganda, bir nechta o'quv fanlarining yanada chuqur o'zlashtirilishini ta'minlash (uning mustaqilligini saqlash bilan birga), mustahkamlash, o'zaro boyitish, tinglovchilarning evristik va bilish imkoniyatlarini kengaytirish; intellektual qobiliyatlarini oshirish va o'qitish samaradorligini rag'batlantirish tushuniladi.

Integratsiya talablari asosida ta'lim jarayonini tashkil etish ta'lim mazmuni, shakllari, bilim va ko'nikmalar sintezini tashkil qilish jarayoni sifatida talqin qilish ba'zi bir muhim xususiyatlarni aniqlashga olib keladi.

1. Xilma xillik. Bu xususiyat integratsiyalashgan ta'lim joriy etilgan ko'plab o'quv predmetlari, shuningdek, o'quv jarayonini ilmiy tashkil qilish va turli ta'lim shakllarini qo'llashni nazarda tutadi.

2. Ichki differensiya. Integratsiya bo'ysunish turiga ko'ra, mustaqillik, o'z konseptual asoslarini saqlab qoladi.

3. Umumiylik. Integratsiyalashgan ta'limni umumlashtirilishi fanlar tarkibini birlashtirilishi va yagona jadvalga integratsiyalashgan fanlar mavjudligi bilan ta'minlanadi.

4. Ko'p funksiyalilik. Integratsiyalashgan ta'limning ushbu xususiyati bir necha funksiyalarni bajarishni nazarda tutadi, bular ta'limni tashkil etishni optimallashtirish, grafika bilimlarni o'rganish dolzarbligini ta'minlashdir.

Shunday qilib, ushbu sohada ishlayotgan turli ta'lim muassasalarining tajribasi, adabiyotlar tahlili, oliy ta'limda integratsiyalashgan ta'limni tashkil etishning ayrim

kamchiliklari mavjudligini ko'rsatdi, ma'lum bir grafika asosida integratsiyalashgan ta'limni samarali amalga oshirish ta'minlash kerak[4, 48-51].

Umumkasbiy va mutaxassislik fanlari integratsiyasi asosida tinglovchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga doir materiallar mazmuni va ularni tanlash prinsiplarini o'rganishga oid o'quv-metodik, didaktik, ilmiy adabiyotlar tahlilidan ma'lum bo'ldiki, mazkur tanlangan materiallardan o'quv jarayonida foydalanish ta'lim-tarbiyaviy ishlarni mazmun va sifat jihatdan takomillashtirishga, tinglovchilarda nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarning shakllanishiga keng imkoniyat yaratib beradi.

Umumkasbiy va mutaxassislik fanlari integratsiyasi asosida tinglovchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga doir tanlangan materiallar quyidagi muammolarni hal etishi zarur:

1. Tinglovchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga doir tanlangan materiallardan o'qitish samaradorligini oshirishda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda qanday an'anaviy, noan'anaviy metodlar hamda shakllarni qo'llab foydalanish kerakligi aniqlashtirilishi shart.

2. Tinglovchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga doir tanlangan materiallar mazmuni sodda, qisqa, lo'nda va eng muhimi tugallangan matnda ifodalangan bo'lishi lozim.

3. Tanlangan materiallar mazmuni va undagi faktlar haqqoniy bo'lishi zarur.

4. Tanlangan materiallar mazmuni va sinov savollari aniq hamda tushunarli bo'lishi talab etiladi.

Umumkasbiy va mutaxassislik fanlari integratsiyasi asosida tinglovchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga doir materiallarni o'qitish metodikasi bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqotning nazariy va pedagogik tajriba-sinov ishlarining amaliy natijalari, olingan ilmiy xulosa va tavsiyalar quyidagi talablarga bo'ysunishi shart:

- tanlangan materiallar umumkasbiy va mutaxassislik fanlari konsepsiyalari, DTSlari, dasturlari va o'quv rejalarida o'z mazmunlarini topgan bo'lishi;

- fan-texnika-ishlab chiqarishning hozirgi zamon taraqqiyoti talablariga javob berishi;

- tanlangan materiallarning takrorlanmasligi;

- tinglovchilar uchun notanish, qiyin atamalarning bo'lmasligi kabilar.

Yuqorida ta'kidlangan fikrlarga asoslanib, aytish mumkinki umumkasbiy va mutaxassislik fanlari integratsiyasi asosida tinglovchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga oid tanlangan materiallar bilan ularni ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda tanishtirish maqsadga muvofiq.

Qadim zamonlardan beri mustaqil (masalan, tabiat, jamiyat, insoniy fikrlash faoliyati) va turli sohalaridagi bilimlarning rivojlanishida susayishlar kuzatildi.

XX asrning oxiriga kelib, fanlar integratsiyasi jarayoni boshlanishi farqlash bilan bog‘liq ravishda hukmronlik qilishga imkon berdi. Ilgari yangi ilmlar bilimlarni ajratish hisobiga paydo bo‘lgan bo‘lsa, endi ular o‘zaro ta’sirlar, bilimlar integratsiyasi tufayli qayta paydo bo‘lishga kirishdilar (biogeokimyo, biofizika, mikroelektronika, plazmokimyo va boshqalar). Ular asosiy fanlar (matematika, fizika, biologiya, falsafa va boshqalar)ning amaliy tadqiqotlar sohasiga yanada chuqur kirib borishi bilan mavjud bo‘ldi.

Bugungi kunga kelib jahondagi mamlakatlarning 70 foizi ta’lim tizimida integrativ xarakterdagi o‘quv dasturlari va darsliklaridan foydalanib kelmoqda. Buyuk Britaniya ta’lim tizimida asosan integrativ fanlar joriy etilgan. Niderlandiyada alohida o‘quv predmetlari, Irlandiyada fan va texnika bloklarida barcha o‘quv fanlari mujassamlashtirilgan. Avstraliyada integratsiyalashgan fanlar, Yaponiya, Shimoliy Irlandiya, Uels, Gong-Long, Germaniyada integratsiya alohida fan sifatida o‘qitiladi. Koreya va Shvetsariyada integratsiyalashgan fanlar yoki predmetlar alohida o‘qitiladi. O‘zbekistonda hozirda bu sohada dastlabki qadamlar qo‘yilmoqda.

Ta’lim integratsiyasidan foydalanish natijasida pedagogik, psixologik jihatdan ta’lim maqsadlarini amalga oshirishda qulay shart-sharoit vujudga keladi; umumdidaktik talablar uzviylikda bajariladi; o‘quvchining vaqti, kuchi tejaladi; ortiqcha ruhiy va jismoniy zo‘riqishlarning oldi olinadi, ta’lim samaradorligi oshadi. O‘quvchilar zarur ko‘nikma va malakalarni, tushunchalar hamda bilimlarni o‘quv predmetlari mazmunini uyg‘unlashtirish natijasida har tomonlama chuqur o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ladilar.

O‘qitish jarayoni mazmunini integratsiyalash – o‘quvchi shaxsini rivojlantirish va o‘zini o‘zi rivojlantirishga yo‘naltirilgan olam haqidagi yaxlit tushunchalarni shakllantirish maqsadida ta’limning ma’lum tizimi doirasida mazmunning tuzilmaviy komponentlari o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish jarayonidir.

J.B.Ergashev fikriga ko‘ra integratsiya – tizimning, bir butun organizmning bir-biridan farq qiluvchi alohida bo‘laklarining o‘zaro bog‘langanligini anglatuvchi hamda xuddi shu holatni keltirib chiqaruvchi jarayon.

N.M.Ahmedovanning tavsifi bo‘yicha integratsiya – o‘zaro bog‘langan holda rivojlantirish, bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq ekani ta’kidlanadi. Integratsiya turli xil qism va elementlarni bir butunlikka birlashtirish jarayoni. Integratsiya jarayonlari tashkillashtirilgan tizimlarda bo‘lishi mumkin – bu holda ular tizim butunlik darajasini va tashkillashtirilgan darajasini ko‘taradi.


A.I.Avazboyev va Y.U.Ismadiyarovlar ta'rificha integratsiya – u yoki bu fanning ularni unifikatsiyalar va majmualashtirishga olib keladigan tarkibiy qismlarning yagona dunyoqarash mantiqiy-metodologik o'zaro ta'siri jarayoni. Fan-texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida, integratsiya jarayoni differentsiya jarayoniga nisbatan ustunlik qilmoqda. Ilmiy bilimlar differentsiyasi fan, texnika taraqqiyotida ma'lum ahamiyatga ega, ammo u hal qiluvchi ahamiyat kasb etmaydi. Bu vazifani ilmiy bilimlar integratsiyasi jarayoni bajaradi.

Ta'lim tizimiga tatbiq etilganidek, “integratsiya” konsepsiya sifatida ikki xil ma'noga ega: birinchi navbatda, u tinglovchilar atrofidagi dunyoning yaxlit ko'rinishini hosil qiladi (bu yerda integratsiya ta'limning maqsadi deb hisoblanadi), ikkinchidan, u mavzu bilimlarining yaqinlashishi uchun umumiy platformani topadi (bu yerda integratsiya – o'rganish vositasi). Amalda bilimlarning integratsiyalashuvidan maqsadga yo'naltirilmagan holda foydalanish ko'proq darajada amalga oshiriladi. Uzoq muddatli kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, umumkasbiy fanlar bo'yicha o'qiyotgan tinglovchilar matematika, fizika va informatika fanlarini o'rganishda bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llashda qiyinchiliklarga duch keladi. Ularda mustaqil fikrlash, olgan bilimlarini o'xshash bo'lgan masalalarga tatbiq etish yoki boshqa holatlarga o'tkazish qobiliyati kabilar shakllanmagan bo'ladi.

R.V.Salomova fanlarni integratsiyalashgan holda o'qitish ularning tutash mavzularini bir vaqtda va bir-biriga bog'liq holda o'rganish imkoniyatini yaratadi deb hisoblaydi. Integratsiyalash fanlarni o'qitishning yangicha yondashuvidir. Bunday darslar turli fanlarning o'quv materiallari bir-birini to'ldirishi hisobiga vaqtni tejash imkoniyatini beradi. Integratsiyaning asosiy usullari quyidagilardan iborat:

- darslar boshqa fanlardagi mavzularga bog'lab o'tkaziladi;
- darslar ijodiy laboratoriya ishlari ko'rinishida olib boriladi;
- darslar elektron axborot ta'lim resurslari bilan to'ldiriladi.

Malaka oshirish jarayonida integratsiya ma'lum fan doirasida va fanlararo bo'lib (1-rasmga qarang), uni o'quv mashg'ulotlarida amalga oshirish integrativ yondashuv jarayoni bo'lib xizmat qilishini ta'kidlab o'tamiz.



1-rasm. Integratsiya turlari

Integrativ yondashuv mazmunan tutash, aloqador, mantiqiy bir-birini taqozo etuvchi va bir-biriga singib chuqurlashtiruvchi va kengaytiruvchi o'quv fanlarini integratsiyalash uchun qo'llanib, yaxlit mantiqiy mukammal bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy sifatlarni shakllantirishdan iborat.

N.M. Ahmedova fikriga ko'ra integratsiya – u yoki bu kasb egasiga kerak bo'ladigan tarqoq bilimlar majmuini yaxlit holga keltirish va vaqt meyorlarini kreativlik asosida sarf etish mahorati. Integrativ yondashuv esa bo'lajak o'qituvchining chet til ta'lim sharoitida tinglovchilarning mutaxassislikka oid bilim, ko'nikma, amaliy ish-xarakat usullari va shaxsiy sifat hamda fazilatlarini yaxlitligini ta'minlash xohish-istaklari, ehtiyojlari hamda ularga ta'lim-tarbiya berish maqsad va vazifalariga mos qulay ta'lim muhitini tashkil etishga qaratilgan yaratuvchanlik va izlanishli-tadqiqotchilik faoliyati.

Turli yondashuvlarni umumlashtirib, integratsiyani birlashma va murakkablikning o'sishi bilan birga ayrim fanlarning strukturaviy elementlarining yagona mafkuraviy va mantiqiy-metodologik asoslari bo'yicha o'zaro ta'sir qilish jarayoni deb hisoblashimiz mumkin. Shu nuqtai nazardan fanlar integratsiyasi tegishli tuzilishga ega bo'lgan tizim sifatida qaralishi va rivojlanishning turli bosqichlariga ega obyektiv jarayon sifatida e'tiborga olinishi kerak. Integrativ yondashuv esa turli fanlarni o'zlashtirishdan olingan bilim, ko'nikma, malaka va tajribalarni hisobga olish, tayanish, integratsiya qilish, chet tillarda muloqot, kasbiy shakllanish, kasbiy moslashish, kasbiy kommunikativlik, kasbiy kompetentlikni baravar rivojlantirish.

Boshqariladigan bilimlar integratsiyasini amalga oshirishda 2 ta yo'nalish mavjud. Ulardan birinchisi an'anaviy tavsifga ega va unda o'qituvchi muayyan

davrlar mobaynida tabiiy ravishda ikki yoki undan ortiq ilmiy fanlar bo'yicha o'quv materiallarining mazmunidan kelib chiqqan aloqalarni ko'rib chiqadi. Ikkinchi yo'nalish, integratsiyalashuv jarayoni uchun asos bo'lib, birorta texnika yo'nalishidagi institutlar fanlari chegarasiga mutlaqo mos kelmaydigan ma'lum bir ma'lumot va ko'nikmalar to'plamini tanlashdan iborat.

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tinglovchilari turli xil fanlarni o'rganishlarida tizimli bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari zarur. Umumkasbiy va mutaxassislik fanlarining tarkibiy qismlari o'rtasidagi aloqalar turli xil bo'lib, ular orasidagi elementlarning tarkibiga bog'liq. Ta'lim intizomining turli tarkibiy qismlari o'rtasida aniqlangan faktlar, hodisalar, tushunchalar, toifalar, qoidalar, formulalar, sxemalar orqali fanlar o'rtasida o'rnatilgan ko'plab ulanishlarni aniqlab olish mumkin. Ushbu aloqalar ilmiy mavzudagi «informativ» yoki informatsion tomonlari o'rtasida paydo bo'ladi. Shu bilan birga, har bir fan turli xil tarkibiy qismlarga ega: fan tili, tadqiqot usullari, nazariya, qo'llaniladigan qism, mashq va fanning muayyan tuzilishini tashkil etuvchi vazifalar.

O'zaro aloqalar integratsiyalashuvi jarayoni mustaqil bilimlar sohasidagi umumiy va nazariy tushunchalarni shakllantirish yoki amaliy muammolarni hal qilish usullari natijasida yuzaga keladi. Shunday qilib, bilimlarni birlashtirish yangi nazariy va amaliy natijalarni amalga oshishi va mutaxassislarini tayyorlash darajasini oshirishga yordam beradi.

M.J.Turdiyeva fikricha ta'lim jarayonini integrativ dasturlar va darsliklar asosida tashkil etish nazarda tutilar ekan, bunda integratsiyaning turli darajalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Jumladan:

1. Mavzularni ketma-ket taqdim etish asosida integratsiya, bunda o'quv materiallarini bayon qilishda konsentrizm prinsipiga amal qilinadi. Ya'ni oldingi o'quv material keyingisini to'ldiradi. Lekin hech qachon bir-birini takrorlamaydi. Bunday integrativ yondashuv natijasida tinglovchining bilim, ko'nikma va malakalari hamda ijodiy faoliyatlari muntazam ravishda rivojlanib, boyib boradi.

2. O'quv dasturlarida o'zaro uyg'unlashgan nuqtalarni vujudga keltirishga asoslangan integratsiya; bunda ham takror tarzda beriladigan tavlologiya asosidagi o'quv materiallarining oldini olish uchun dasturlarda mavzulararo uyg'unlikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Buning afzalligi shundaki, tinglovchining vaqti va kuchi tejiladi, darsliklarning hajmi ixchamlashadi va tannarxi arzonlashadi [2].

3. Modullashgan integratsiya: bunday integratsiya doirasida turdosh o'quv fanlariga oid bilim va tushunchalar bir tizimga solingan holda, uzviy tarzda tinglovchilarga taqdim etiladi.

4. Integrativ dasturlar: ushbu tipdagi dasturlar bir necha o‘quv predmeti yoki o‘quv fanlariga oid mavzularni uyg‘unlashtirilgan holda taqdim etishni nazarda tutadi. Bugungi kunda o‘quv rejasida o‘quv predmetlarining soni maksimum ko‘payib ketganligini inobatga olsak, bunday tipdagi dasturlarni yaratishga kuchli ehtiyoj sezilmoqda.

5. Mavzulararo integratsiya: bunda ayni bir kurs doirasida beriladigan o‘quv materiallari boshqa bir kurs doirasidagi mohiyatan yaqin bo‘lgan o‘quv materiallari bilan integratsiyalashtiriladi.

Dunyoda son-sanoqsiz aloqalar mavjud bo‘lib, har bir bog‘liqlik boshqalariga zarar keltirmasligi zarur. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘p fanlarning dasturlarida, bir xil hodisalarni o‘rganishga bag‘ishlangan mavzular va muammolar bir-biriga o‘xshash bir necha “nuqtalar” mavjud. Bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun matematik va tabiiy-ilmiy fanlarni umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bilan integratsiyasi asosida, o‘qituvchi va tinglovchilarning faoliyatini tashkil etishni hisobga olib, tegishli ta‘lim texnologiyalarini ishlab chiqish lozim.

Har bir guruh tinglovchilarida xotiralar, hislar, chalg‘ishlarga e‘tibor qaratishlar bo‘lishi tabiiy holdir. Ulardan ba‘zilari o‘qituvchining tushuntirish sur‘atidan qoniqishadi, lekin ba‘zilari uchun u juda tezdir. Jadvalda ishlatiladigan ma‘lumotlar kimgadir aniq ko‘rinadi, boshqalari esa uzoq tushuntirishlardan so‘nggina buni qabul qiladi. Tinglovchilarning mustaqil ilmiy izlanishlari ularning imkoniyatlarini biroz tenglashtiradi, chunki har bir kishi o‘zi muammoni hal qilish usulini tanlaydi. O‘qituvchi dars mashg‘ulotlarida vazifalar, uslublar, vazifani hal qilish uchun mos keladigan usullarni va vositalarni tanlashi kerak bo‘ladi.

Ta‘limning mazmuni shaxsning faoliyatida oqilona tashkil etilishi lozim, ya‘ni u muayyan shakllarda taqdim etiladi. Ta‘limga nisbatan “shakl” tushunchasi ta‘lim berish usuli va ta‘limni tashkil qilish sifatida ikki xil holatda qo‘llaniladi. O‘quv shakllari tinglovchilar tarkibi o‘zgarishi bilan individual, guruhli shuningdek, jamoa va juftlikka ajratiladi. O‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish shakllari muayyan turdagi sinflarni – ma‘ruza, seminar, amaliy mashg‘ulotlar, ixtiyoriy mashg‘ulotlarni tashkil etadi. Ular maqsadlar, mazmunlar, usullar, o‘quv qo‘llanmalarni, o‘qituvchi va tinglovchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘z ichiga oladi, chunki ular birlashtiruvchi rol hisoblanadi.

Ushbu ta‘lim shakllari doirasida tinglovchilarning jamoa, guruh, individual ishlarini tashkil etish mumkin. Ta‘limning umumiy va maxsus shakllarini birlashtirib, ta‘lim tizimlarining turli ma‘ruza-seminar, masofa va boshqa shakllari olinadi.

Ma'lumki, tinglovchilar o'zi biladigan narsalar orqali o'tiladigan tushunchalarni yaxshi anglaydi, esda tutadi va bu faoliyatni mustaqil ishlarda aniqlik bilan bajaradi. Tinglovchilar mustaqilligi va mustaqil faoliyati uchun eng samaralisi bu laboratoriya mashg'ulotlari.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, kompyuter dasturlaridan foydalanish an'anaviy ta'lim usullari bo'yicha katta afzalliklarga ega. Ammo ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish an'anaviy ta'limning to'liq o'rnini bosmasligi kerak, faqat uni samaraliroq qilishi lozim.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Dehqonova O.Q. Maktab fizika ta'limida fanlar integratsiyasini takomillashtirish: p.f.b.f.d. (PhD) dissertatsiya. – Farg'ona, 2023. – B. 17.
2. Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboeva O., Pedagogika fanidan izohli lug'at. – Toshkent: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2008. – 480 b.
3. Muslimov Sh.N. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: p.f.b.f.d(PhD) dissertatsiya. – Toshkent, 2020. – B. 48-51.
4. Macmillan English Dictionary for Advanced Learners. Macmillan Publishers Limited. – England. 2002. 1692 p.
5. Безрукова, В.С. Педагогическая интеграция: сущность, состав, механизмы реализации / В.С.Безрукова // Интеграционные процессы в педагогической теории и практике: Сб. науч. Трудов.автореф. Дисс....канд.пед.наук. – Свердловск: СГИПИ,1999. – С. 3 – 25
6. Брякова И.Е. Методическая система формирования креативной компетентности студентов-филологов педагогического вуза: автореф. дис. ...докт.пед.наук. – Санкт-Петербург: 2010. – С. 51.
7. Колесина К.Ю. Построение процесса обучения на интегративной основе: Автореф. дисс... канд. пед. наук. -Р.н/Д., 1995. – Б. 18.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti, -T.: 2006. 3 jild. -557 b.
9. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. –Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. 8-jild. - B. 55.
10. Эльцов А.Б. /Интегративный подход как теоретическая основа осуществления школьного физического эксперимента. -М.: Рязань, 2007. – С. 48-52.
11. Egamberdievna, Y. N. (2021). IMPROVING THE PEDAGOGICAL COMPETENCE OF THE TEACHER OF PHYSICAL EDUCATION OF THE

SECONDARY SPECIAL EDUCATION SYSTEM. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 1(1.5 Pedagogical sciences).

12. Siddikov, B., & Djalalov, B. (2020, December). MODERNIZATION OF EDUCATION-THE FUTURE INNOVATIVE COMPETENCE OF TEACHERS AS A MAIN FACTOR OF FORMATION. In *Конференции*.

13. Ахмедов, Б. А., Сиддиков, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2020). МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. *Academy*, (9 (60)), 20-22.

14. Джалалов, Б. Б. (2018). Развитие профессиональной компетентности педагогических кадров в условиях глобализации как педагогическая проблема. In *international scientific review of the problems and prospects of modern science and education* (pp. 53-55).

15. Джалалов, Б. Б. (2022). ВО ‘LAJAK О ‘QITUVCHILARNING INNOVATSION KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA SMART-TA’LIMNING IMKONIYATLARI. *УЧИТЕЛЬ*, 3(4).

16. Юлдашева, Н. (2022). ОЛИЙ КАСБИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ МУТАХАССИСЛАРИНИНГ НАЗАРИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 1(28), 69-77.

17. Юлдашева, Н. Э. (2020). Развитие профессиональной компетентности воспитателя дошкольной образовательной организации. *International scientific review*, (LXXIII), 82-84.

18. Юлдашева, Н. Э. (2023). ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ФАКУЛЬТЕТА ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ПО ДИСЦИПЛИНАМ ЕСТЕСТВЕННО-НАУЧНОГО ЦИКЛА. *GOLDEN BRAIN*, 1(13), 205-210.

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHI, UNING MAMLAKAT IJTIMOIIY-IQTISODIY TARAQQIYOTIGA TA'SIRI

G.S.Sharipova

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha ta'lim kafedrası (PhD), professori v.b.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi va undagi istiqbollar tahlil qilingan. Mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishning muhim muammolarini hal etish uchun iqtisodiy asoslarni yaratishning hal qiluvchi omili hisoblanadi. Ular bozor talablariga eng ko'p egiluvchanlik va moslashganlikka ega bo'lgan holda, aholi turmush tarzi va shart-sharoitiga yangilik kirituvchi, bosh yo'lni ko'rsatuvchi bo'lib chiqadi.

Kalit so'zlar: tarbiya, ta'lim, mehnat, iqtisod, kichik biznes, tadbirkorlik, xususiy tadbirkorlik, korxonona.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется развитие малого бизнеса и частного предпринимательства и его перспективы. В экономике страны малый бизнес и частное предпринимательство являются решающим фактором создания экономических основ для решения важных задач развития. Обладая наибольшей гибкостью и приспособляемостью к требованиям рынка, они являются новаторами и первооткрывателями образа жизни и условий жизни населения.

Ключевые слова: воспитание, образование, труд, экономика, малый бизнес, предпринимательство, частное предпринимательство, предприятие.

ABSTRACT

This article analyzes the development of small business and private entrepreneurship and its prospects. In the country's economy, small business and private entrepreneurship is a decisive factor in creating economic foundations for solving important problems of development. Having the most flexibility and adaptability to the market requirements, they are the innovators and pioneers of the lifestyle and conditions of the population.

Key words: upbringing, education, labor, economics, small business, entrepreneurship, private enterprise, enterprise.

KIRISH

Jahon amaliy tajribasining ko'rsatishicha, kichik biznes yirik ishlab chiqaruvchilarga nisbatan kapital mablag' sarfini kam talab qilishi, ihsamligi, shart-sharoitdan kelib chiqqan holda o'zi ishlab chiqarayotgan mahsulotlar turlarini tez o'zgartira olishi, ishlab chiqarish quvvatlarini jadal modernizatsiya qilish imkoniyatiga egaligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik tadbirkorlik bozor konyukturasiining o'zgaruvchan talablariga xamda vaqti-vaqti bilan bo'lib turadigan iqtisodiy inqirozlarga tezroq moslasha oladi.

Yurtimizda tadbirkorlik nima uchun kutilgan darajada rivojlanmayapti? Chunki bu soha vakillarini asossiz ravishda tekshirish holatlari ko'p. Ochig'ini aytganda, tadbirkorlikning erkin rivojlanishiga o'zimiz – davlat idoralari yo'l qo'ymayapmiz. Hech kimga kerak bo'lmagan tartib-taomillar hamon saqlanib qolmoqda, joylarda ko'pgina amaldorlar faqat o'z shaxsiy manfaatini o'ylab ish ko'rmoqda" [1] ushbu fikrlaridan tadbirkorlik faoliyati va tadbirkorlar iqtisodiyot uchun nechog'lik muhim ahamiyat kasb etishini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish hamda uning boshqaruv faoliyati mexanizmlarini takomillashtirish masalalari bugungi kun uchun dolzarb va ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Aynan kichik biznes va tadbirkorlik o'zining harakatchanligi, kam kapital mablag'larini jalb qilgan holda ishlab chiqarishni yengilroq va tez modernizatsiya qilish orqali ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini qisqa davr ichida yangilab raqobatdosh mahsulotlarni iste'molchilarga taqdim etadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tobora rivojlanishi ular faoliyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga bog'liqdir. Mamlakatimizda ushbu sohada zamonaviy boshqaruv usullarini qo'llash hamda rivojlangan xorij tajribasini chuqur o'rganishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda tadbirkorlik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari mujassamlashgan, yaqqol namoyon bo'ladigan hamda tez rivojlanib borayotgan va harakatchan sohasiga aylanib bormoqda. Mamlakatda bozor munosabatlarining shakllanishi va iqtisodiy taraqqiyotida uning o'zni va roli tobora sezilarli tus olib bormoqda.

Tadbirkorlik ideologi hisoblangan XX asr buyuk iqtisodchisi Yozef Shumpeter: "Tadbirkorlikning jamiyat ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotidagi hal qiluvchi rolini u bo'lmagan joyda juda his qilish mumkin"deb ta'kidlab o'tgan [2].

Kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni hal qilish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta‘minlash nuqtai-nazaridan juda dolzarb hisoblanadi.

M.V.Mamutning xulosasiga ko‘ra, kichik biznes subyektlarini mikro kreditlash amaliyotini rivojlantirish uchun banklar va nobank kredit tashkilotlarining mikro kredit operatsiyalari Markaziy bank tomonidan nazorat qilinmasligi kerak [3].

Nobel mukofotining sohibi, M.Yunusning xulosasiga ko‘ra, endi ish boshlayotgan kichik biznes subyektlarini kreditlashda asosiy e‘tibor kreditlashning ijtimoiy samarasiga qaratilishi kerak. Tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy imkoniyatlari kengaygandan so‘ng, ular bozor stavkalarida beriladigan kreditlarga bo‘lgan talabning oshishiga sababchi bo‘lishadi [4].

F.Allen va D.Geyl kichik va o‘rta biznes subyektlari faoliyatini moliyalashtirishning ikki tizimi – banklar faoliyatiga asoslangan tizim va moliya bozorlariga asoslangan tizimning mavjudligini e‘tirof etishadi va bunda birinchi tizimning nisbatan muhim ahamiyat kasb etishini ta‘kidlashadi [5].

Fikrimizcha, F.Allen va D.Geylning mazkur xulosasi o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, mazkur mamlakatlarda kichik biznesni kreditlash tizimida tijorat banklari yetakchi mavqega ega; ikkinchidan, kichik biznes subyektlari uchun qimmatli qog‘ozlar bozori orqali resurslar jalb qilish imkoniyati mavjud emas.

Shanel-Reyno va Bluaning xulosasiga ko‘ra, kichik va o‘rta korxonalar bilan aloqalarini yaxshi yo‘lga qo‘yilishi ularning tijorat banklari kreditlaridan foydalanish imkoniyatini oshiradi. Chunki, yirik korxonalar kichik va o‘rta korxonalar bilan ishbilarmonlik munosabatlariga kirishishdan oldin ularning bozor talablariga javob bera olishini tahlil qiladi. Shuningdek, yirik korxonalar hamkori bo‘lgan kichik va o‘rta korxonalar holatini doimiy ravishda nazorat qiladi [6].

J.Shanel-Reyno va E.Bluaning mazkur ilmiy xulosasi taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasining tahliliga asoslangan va shu jihatdan ishonchli hisoblanadi. Ular tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar aniq ma‘lumotlar tahliliga asoslangan bo‘lib, yirik biznesning kichik va o‘rta biznes subyektlari faoliyatini rivojlanishida muhim rol o‘ynashini asoslashga xizmat qiladi.

MakNotonning fikriga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun likvidli ta‘minot vazifasini bo‘lg‘usi hosil o‘taydi. Ammo qurg‘oqchilik bo‘lsa, ular mo‘ljallangan miqdorda hosilni yig‘ishtirib olisha olmaydi. Shu sababli, bo‘lg‘usi hosil qurg‘oqchilikdan, tabiiy ofatlardan sug‘urtalangan bo‘lishi kerak [7].

Buning ustiga, bo‘lg‘usi hosilni ular tomonidan sug‘urta qilinganligi qurg‘oqchilikning yuz berishi natijasida olinmagan hosil tufayli yuzaga keladigan

kredit riski muammosining chuqurlashishini oldini oladi. Ammo fikrimizcha, iqtisodchi olimlarning kichik biznes subyektlari faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirishga qaratilgan xulosalari, taklifi va tavsiyalarini respublikamiz amaliyotida qo'llash imkoniyatlarini asoslab berish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, xususiyl mulkning qonuniy hamda amaliy jihatdan ustuvor rolini ta'minlash, iqtisodiyotda davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgan aniq manzilli chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovich ta'kidlaganlaridek: "Bizning bosh vazifamiz – tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratishni ta'minlashdir. Biznes bilan shug'illanayotgan har kishida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga astoydil ishonch bo'lishi shart. Odamlar biznes bilan shug'ullanishdan manfaatdor bo'lishi zarur. Tadbirkor va xalq boy bo'lsa – mamlakat ham boy bo'ladi" [8].

Ishchi kuchining to'la va samarali bandligi milliy iqtisodiyotning barqaror va mutanosib rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Biroq, o'zgaruvchan bozor sharoitida ushbu holatni ta'minlash juda murakkab bo'lib, aksariyat hollarda ishchi kuchiga talab va uning taklifi o'rtasida nomuvofiqlik mavjud bo'ladi. Bunga nisbatan yuqori haq to'lanadigan ish o'rinlari orqali namoyon bo'luvchi ishchi kuchiga talabning taklifdan ortda qolishi, aksariyat holatlarda esa yirik xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan yangi ish o'rinlari yaratishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emasligi sabab bo'ladi. Shunday holatlarda kichik biznes ishchi kuchi to'la bandligini ta'minlashning yashirin imkoniyatlari sifatida maydonga tushadi.

Ishchi kuchi bozorida kichik biznes korxonalarining ish beruvchi sifatidagi o'rni uning muhim ijtimoiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Statistika va etakchi ommaviy axborot vositalari ma'lumotlariga ko'ra, har yili ish o'rinlarining 2/3 qismi kichik tadbirkorlik hisobiga yaratiladi. Bu borada kichik biznesning roli ayniqsa inqiroz vaqtida, shuningdek depressiv hududlarda katta ahamiyat kasb etadi. Shunday tarzda kichik biznes millionlab kishilarga qiyinchilik vaqtlarini engib o'tishga yordam beradi, demak, jamiyatdagi ijtimoiy tanglikni yumshatishga imkon beradi.

Biroq, mazkur funksiyani kichik biznesning o'ziga xos xususiyatlari qatoriga kiritish mumkin emas, chunki ish o'rinlari shuningdek davlat, korporativ tuzilmalar, hatto notijorat tashkilotlari tomonidan ham tashkil etiladi.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, yirik korxonalar nisbatan kichik biznes subyektlarida yangi ish o'rinlarini yaratishga moyillik kuchliroq bo'lib, u quyidagi sabablar orqali izohlanadi:

1) kichik biznesning kapital sig'imi past bo'lgan yangi ish o'rinlarini tezlik bilan tashkil etishga qodirligi. Kichik korxonadagi bir ish o'rniga to'g'ri keluvchi kapital sarflari yirik korxonalar nisbatan sezilarli darajada past. Ba'zi bir mutaxassislarning fikricha, buning natijasida ish o'rnini qiymati o'rtasidagi farq o'n barvardan oshib ketadi: «yirik biznesda bitta ish o'rnini tashkil etish 100-150 ming AQSh dollari tursa, kichik biznesda bitta ish o'rnini yaratish taxminan 10 ming AQSh dollariga tushadi»;

2) kichik korxonalar kapital texnik tuzilishining nisbatan yuqoriligi. Ya'ni, ularda foydalanilayotgan ishlab chiqarish vositalari birligiga yirik korxonalar qaraganda ko'proq jonli mehnat (ishchi kuchi) birligi to'g'ri keladi;

3) kichik korxonalar tashkil topish jarayonlarining engilligi. Yangi kichik biznes korxonalar yirik korxonalariga nisbatan tezroq va ko'proq miqdorda tashkil etilishi tabiiy. Buni birgina yirik korxonalar tashkil etish uchun o'rtacha 15-20 kun talab etilgani holda kichik biznes subyektlari uchun o'rta hisobda 2 ish kuni talab etilishi orqali ham izohlash mumkin;

4) kichik korxonalar ma'lum qismi faoliyatining yirik korxonalar faoliyatining hosilasi sifatida amalga oshirilishi. Ya'ni, yirik korxonalar tashkil etilishi o'z navbatida, yana kichik biznes korxonalaridagi ish o'rinlarining ko'payishiga olib keladi;

5) kichik biznes korxonalarida ishchi kuchini yollashda miqdor samarasining amal qilishi. Ishchi kuchini yollashning miqdor samarasi – kichik tadbirkorlik subyektlari sonining nisbatan tezlik bilan ko'payishi, yirik korxonalar tarkib topishiga nisbatan hosilaviy tarzda ko'proq tarkib topishi natijasida yangi ish o'rinlarining yaratilishi. Ya'ni, kichik biznes korxonasi tomonidan yollash mumkin bo'lgan ishchilar soni yirik korxonalar qaraganda oz bo'lsada, bunday korxonalar sonining ko'pligi pirovardida jami yirik korxonalaridagi ishchilar umumiy sonidan ko'proq ishchilar yollanishiga imkon yaratadi. Buni quyidagi formulalar orqali ifodalash mumkin: kichik biznes korxonalarida band bo'lgan ishchilar umumiy soni (ya'ni, kichik korxonalar soni (K_k)ning ularda band bo'lgan ishchilar o'rtacha soni (I_k)ga ko'paytmasi) yirik korxonalarida band bo'lgan ishchilar umumiy soni (ya'ni, yirik korxonalar soni (K_y)ning ularda band bo'lgan ishchilar o'rtacha soni (I_y)ga ko'paytmasi)dan katta bo'ladi:

$$K_k * I_k > K_y * I_y \quad (1)$$

Ushbu holatda yirik korxonada band bo'lgan ishchilar o'rtacha soni kichik korxonaga nisbatan ko'pligi aniq:

$$I_k < I_y \quad (2)$$

Demak, bundan kichik korxonalar sonining yirik korxonalar soniga nisbatan ko'pligini ta'kidlash mumkin:

$$K_k < K_y \quad (3)$$

6) mehnat qilish va ishga yollashning moslashuvchan shart-sharoitlari keng tarqalganligi.

Kichik biznesning ijtimoiy funksiyalari qatoriga ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoniga ish beruvchilarning boshqa guruhlar tomonidan deyarli foydalanilmayotgan qo'shimcha mehnat resurslarini jalb etishga ko'maklashishni kiritish to'g'ri bo'ladi. Ularga "ishchi kuchi" tovarining egasi sifatidagi mehnat potentsiali obyektiv omillar orqali cheklangan kiradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aksariyat ish beruvchilar ularga to'laqonli ishchilar sifatida qaramaydilar, shunga ko'ra ularni ishga joylashtirish imkoniyatini ta'minlash holatida emaslar. Kichik biznes esa bu qadar qat'iy talablarni qo'ymaydi. Oilaviy firmalarda eng kam darajada mehnatga layoqatli bo'lgan oila a'zolarining mehnatidan ham foydalaniladi.

Yollanma mehnatdan foydalanuvchi kichik korxonalar kasanachilar, o'quvchi yoshlar, keksa yoshdagi fuqarolar mehnatidan foydalanishga nisbatan ko'proq moslashgan. Keyingi ikkita guruhning aholi umumiy sonidagi ulushi doimiy ravishda ko'payib borayotganligini hisobga olgan holda, kichik biznesning qarab chiqilayotgan funktsiyasining amaliy ahamiyati ham oshib bormoqda [9].

Milliy iqtisodiyotda kichik biznesning to'laqonli rivojlanishi hamda o'z vazifalarini samarali bajarishida soha tarkibiy tuzilmasining mukammallik darajasi muhim o'rin tutadi. Tarkibiy tuzilmaning mukammal bo'lishi kichik biznes salohiyatidan to'liq foydalanish hamda uning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Iqtisodiy taraqqiyotning yuksalib borishi bilan kichik biznesning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish obyektiv zaruratga aylanadi. Chunki, mamlakatdagi barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini, YaIM hajmidagi, bandlikni ta'minlashda soha ulushini oshirib borish pirovardida yangidan-yangi kichik biznes subyektlarining tashkil etilishini taqozo etadi. Bu esa ko'p jihatdan kichik biznes tarkibida yuqori texnologik ishlab chiqarishning ustuvor holdagi rivojlanishiga bog'liq.

E.Tixonovanning ta'kidiga ko'ra, "Kichik biznesning rivojlanish muammosi odatda yaxlit holda, uning o'ziga xos, ayrim hollarda o'zgacha xususiyatlarga ega bo'lgan alohida qism va elementlarini ajratmagan holda ko'riladi. Shunga ko'ra, kichik korxonalar oldindan tarkib topgan bozorlarda faoliyat yurituvchi an'anaviy hamda yangi texnologiyalar, mahsulotlar va bozorlarni o'zlashtiruvchi innovatsion korxonalar ajratish muhim holat hisoblanadi" [10].

Yuqoridagi fikrga tayangan holda, kichik biznes faoliyati uchun tashkil etish jihatidan engil va qulay rivojlanish shart-sharoitlariga ega bo'lgan an'anaviy soha va tarmoqlar (masalan, chakana savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat ko'rsatish va boshqalar) hamda ma'lum darajada texnologik asoslarni taqozo etuvchi, tashkil etilishi jihatidan nisbatan murakkabroq talablarga ega noan'anaviy soha va tarmoqlarni ajratish mumkin.

1-jadval

Ilg'or ilm-fan yutuqlariga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yetarli darajada rivojlanmasligi sabablari hamda rivojlantirish chora-tadbirlari [9]

Sabablar	Chora-tadbirlar
<ul style="list-style-type: none"> ✓ ushbu yo'nalishdagi faoliyatni tashkil etishning katta hajmdagi ✓ mablag'larni taqozo etishi; ✓ ulardagi xavf-xatar (risk) darajasining yuqoriligi; ✓ tadbirkorlardan maxsus bilim va malakalarning taqozo etilishi; ✓ texnik va texnologik asosning mavjud emasligi; ✓ mahsulot va xizmat bozorida raqobatning kuchliligi; ✓ kapital aylanish tezligining pastligi. 	<ul style="list-style-type: none"> ✓ mazkur yo'nalishdagi faoliyatni moliyalashtirishning imtiyozli manbalarini barpo etish; ✓ yuqori texnologik kichik biznes korxonalarini imtiyozli sug'urtalash ishlarini takomillashtirish; ✓ oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi, bizneskurslar orqali yuqori texnologiyalarni yaratish va ulardan foydalanishga yo'naltirilgan mutaxassislarni tayyorlash; ✓ kichik innovatsion korxonalarining "oyoqqa turib olishi" uchun davlat tomonidan maxsus biznes sharoitlar yaratish.

Kichik biznes subyektlarining o'z faoliyatini dastlab sodda, past texnologik darajaga ega bo'lgan sohalardan boshlab, korxonalar soni o'sib borishi bilan texnologiyadan foydalanishning o'rtacha darajasi ham o'sib borishini quyidagi holatlar orqali izohlash mumkin:

1) tadbirkorlarning o'z faoliyatini yaqqol ko'zga tashlanib turuvchi ehtiyoj (talab)ni qondirishdan boshlashi. Masalan, aholi yangi turar-joy massivining barpo etilishi birinchi navbatda bu hududda oziq-ovqat do'konlari, bozorhalar, umumiy ovqatlanish shoxobchalari, maishiy xizmat ko'rsatish (sartaroshxona, maishiy texnika ta'miri, poyafzal tuzatish va h.k.) shoxobchalarining tashkil etilishini taqozo etadi. Korxonalar soni ushbu hududdagi aholi ehtiyojini to'liq qondiradigan darajaga etishi

bilan asta-sekin ehtiyojning yuqori texnik va texnologik asosda qondiriluvchi turlariga ixtisoslashgan korxonalar tashkil etib boriladi;

2) dastlab an'anaviy sohalarga kiritilgan kapital ma'lum vaqtdan so'ng ko'payib ("kapitalning dastlabki jamg'arilishi"), ko'proq mablag' talab qiluvchi sohalarni yo'lga qo'yish imkonini ham yaratadi.

Bundan ta'kidlash mumkinki, mamlakatdagi kichik biznes subyektlarining soni nisbatan oz bo'lib, ulardagi kapitallashuv darajasi ham past bo'lgan holatda mazkur korxonalarda texnika va texnologiyadan foydalanishning o'rtacha darajasi ham past bo'ladi. Chunki, raqobatning past darajasi mavjud tadbirkorlik subyektlarini texnologik daraja u qadar yuqori bo'lmagan, an'anaviy tarmoqlarda faoliyat yuritish hamda etarlicha foyda normasiga ega bo'lish imkonini beradi.

Kichik biznes subyektlarining soni ortib borishi bilan ular o'rtasidagi raqobat kuchayib, aksincha, an'anaviy tarmoqlardagi foyda normasi pasayib boradi. Bu esa, kichik biznes subyektlarini texnik-texnologik darajasi yuqori bo'lgan tarmoqlarga o'tishga majbur qiladi. Boshqa tomondan, kapitallashuv, ya'ni korxonalarda asosiy ishlab chiqarish fondlari va aylanma mablag'lar qiymatining oshib borishi bilan ularning ishlab chiqarish jarayoniga yuqori qiymatdagi texnik vositalarni jalb etish imkoniyatlari kengayib boradi. Shuningdek, ilg'or ilmfan yutuqlariga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning etarli darajada rivojlanmasligi sabablari hamda bu borada qilinishi lozim bo'lgan ishlarni quyidagi jadval orqali kuzatish mumkin (1-jadval).

Hozirda iqtisodiyotdagi davlat mulkining ulushini pasaytirish bo'yicha tub chora-tadbirlarni qo'llash yo'li bilan ishlab chiqarishning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishning kuchli omili sifatida xususiy sektor, kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish; xizmat ko'rsatish sohasi va servis, kichik biznes, kasanachilik, ijtimoiy va bozor infratuzilmasini jadal rivojlantirish, mavjud quvvatlarni modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirish hamda yangilarini kiritish, uy-joy qurilishini kengaytirish uchun qulay sharoit va rag'batlarni yaratish, ta'lim, sog'liqni saqlash va uy-joy sohaslarini muvozanatli rivojlantirish orqali aholi daromadlari va bandligining izchil o'sishiga yo'naltirilgan faol ijtimoiy siyosatni amalga oshirish muhim hisoblanadi.

XULOSA

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining taraqqiy etishini ta'minlaydi. Aholi bandligini ta'minlashdagi mazkur sohaning ahamiyati soha uchun yanada e'tiborni kuchaytirish lozimligini ko'rsatadi. Demak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida tarkibiy

o'zgarishlar, imkoniyat va imtiyozlarni muntazam amalga oshirish har jihatdan mamlakat iqtisodiyoti rivojiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. –T.: “Xalq so‘zi” gazetasi. 23.12.2017.
2. Шумпетер Й. Теория экономического развития. -М.: “Эксмо”, 2007.
3. Мамут М.В. Микрофинансирование: новые возможности финансово-кредитной системы // “Банковское дело”. – Москва, № 4, 2009.
4. Юнус М., Жоли А. Создавая мир без бедности: социальный бизнес и будущее капитализма. Пер. с англ. – М.: “Альпина Паблишерз”, 2010.
5. Allen F., Gale D. Comparing Financial Sestems. – Cambridge, Mass: “MIT Press”, 2000.
6. Chanel-Reynaud G., Bloy E. La Banque et le risqué PME – Presses Universitaires de Lyon, 2001.
7. МакНотон Д. Банковские учреждения в развивающихся странах. Пер. с англ. -М.: “ИЭР”, 1994.
8. Тихонова Е.О. Роль интеграции в развитии традиционного и инновационного малого бизнеса // “Российское предпринимательство”. №2, 2008.
9. Раджапова, З. Т., & Мирзаева, Г. З. (2023). ИННОВАЦИОННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ В ЛАНДШАФТНОМ ДИЗАЙНЕ.(в дошкольных образовательных организациях). *Analysis of world scientific views International Scientific Journal*, 1(4), 70-76.
10. Norboevna, R. N. (2021, April). IMPROVING THE MEMBERSHIP SYSTEM IN ECOLOGICAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN. In *Archive of Conferences* (Vol. 20, No. 1, pp. 97-98).
11. Nigmatov, A. N., & Ravshanova, N. N. (2020). Scientific Preschool Environmental Education and Training Research Methodology. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(08), 23-31.
12. Babayeva, D. R., & Ochilova, X. S. (2022, October). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI NUTQ O ‘STIRISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O ‘RGATISH. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 8, pp. 21-23).
13. Sharipova, G. S., & Madaminjonova, M. S. (2022, April). BASIC CONCEPT IN CLOTHES DESIGN. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 12-15).

14. Sharipova, G. S. (2022). DISTRIBUTION AND MODERNIZATION OF ADVANCED PEDAGOGICAL PRACTICES IN THE LESSON PROCESS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(06), 12-15.
15. Xolto'rayeva, S. X. (2023). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI МАКТАВ ТА'LIMIGA TAYYORLASH JARAYONIDA TAYANCH КОМПЕТЕНСИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 871-872.
16. ШАРИПОВА, Г. С. (2019). ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛИЗМА НА ПРИМЕРЕ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ ПО ФОРМИРОВАНИЮ УМЕНИЙ И НАВЫКОВ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ. In *Высшее и среднее профессиональное образование как основа профессиональной социализации обучающихся* (pp. 260-268).
17. Садикова, Д. Х., & Калауова, М. С. (2023). РОБОТЫ-ИГРУШКИ И МАТЕМАТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ НА ЗАНЯТИЯХ. *Analysis of world scientific views International Scientific Journal*, 1(5), 5-12.
18. Садикова, Д. Х. (2023). ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ STEAM ТЕХНОЛОГИЙ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 4(2), 5-11.
19. Садикова, Д. Х. (2023, January). АППЛИКАЦИЯ-СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСТВА ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 87-91).
20. Sadikova, D. K., & Mansurova, A. M. (2023). Study of Foreign Experience in The Application of Steam Technologies in Preschool Education. *European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices*, 1(2), 162-167.

NEW MODELS FOR ANALYSING THE FINANCIAL STATEMENTS OF ORGANISATIONS

Teshabayev Dilmurod Bokhodir ugli

master's student

Fergana Polytechnic Institute, Department "Accounting and audit"

e-mail: dilmurod.eagle@mail.ru

ABSTRACT

The article under discussion depicts new models for analysing the financial statements of organisations. The relevance of the problem under consideration is due to several factors at once: the rapidly changing needs of internal and external users of reporting, the trend towards unification of accounting standards, the processes of digitalisation and globalisation of the modern economy. The essence of the concept of digital reporting format XBRL, the format of aggregated accounting data showcases as well as the process of transition to these formats are considered in the article. The main advantages of integrating the above mentioned formats into accounting practice and the practice of analysing reports for their users are identified.

Key words: *financial statement, organisation, aggregated accounting data showcases, format XBRL, digitalisation, globalisation.*

АННОТАЦИЯ

В обсуждаемой статье представлены новые модели анализа финансовой отчетности организаций. Актуальность рассматриваемой проблемы обусловлена сразу несколькими факторами: быстро меняющимися потребностями внутренних и внешних пользователей отчетности, тенденцией к унификации стандартов бухгалтерского учета, процессами цифровизации и глобализации современной экономики. В статье рассмотрена сущность понятия формата цифровой отчетности XBRL, формата витрины агрегированных учетных данных, а также процесс перехода к этим форматам. Выявлены основные преимущества внедрения вышеуказанных форматов в практику бухгалтерского учета и практику анализа отчетов для их пользователей.

Ключевые слова: *финансовая отчетность, организация, витрины агрегированных учетных данных, формат XBRL, цифровизация, глобализация.*

INTRODUCTION

The shortcomings of the modern financial reporting system and the study of the current state of information disclosure in financial statements indicates the need to develop and apply new formats of data presentation and disclosure, which, in turn,

entails changes in the reporting forms themselves. In our opinion, the process of emergence of new types of reporting can be considered as a response of the accounting system to the changing demands of users.

The country's development in a digitised economy further tightens the requirements for financial reporting due to the spread of new digital technologies and modern business trends. By improving information technologies for processing and forming reporting information, such qualitative characteristics as predictive value, confirmatory value, completeness, absence of errors, verifiability and timeliness can be significantly improved. At the same time the factor of digitalisation will not be able to improve such qualitative characteristics of financial reporting as relevance, materiality, truthful presentation, and timeliness. These characteristics depend on the accountant's professional judgement and competent actions.

In general, digitalisation significantly increases the information value of financial reporting, and in this regard, it is said that it is important to improve approaches to the formation of financial reporting in the new conditions. As an indicator of improvement, many researchers suggest the possibility of customising the user menu for each indicator in the digital form of reporting [1]. This will allow access to additional information related to determining the value of this indicator, including the calculations performed and the possibility of access to the regulatory framework that served as the basis for such calculation.

MAIN PART

The end of the 1990s led to the creation of one of the first digital formats, the XML reporting format, which is still successfully used worldwide today. Despite the digital reporting format, XML format makes it difficult for users to analyse the data due to the lack of an accessible way to visualise it directly from this format, a problem that is solved by processing with the help of certain visualisation software. This format of information presentation is not a set of tables and schemes, but contains the data for report formation and the necessary programme. According to A.E. Kovalev, the beginning of XML format application meant the separation of financial reporting data from the form and the emergence of the structure of accounting data [4].

A vivid representative of digital reporting is the XBRL format, which is considered a new format worldwide, as it is used only by some non-credit financial organisations, but there are certain prospects for application in the commercial sector. Integration of the XBRL format, in which the content of reporting is presented in the form of an array, allows processing of reporting data using a computer. Mandatory reporting in XBRL format for tax authorities, stock exchanges and statistical services

has been practised for several years in the USA and European Union countries. As part of the presentation of financial statements to external users, this format is currently used by such giants as Microsoft, Reuters, Morgan Stanley and others [2].

XBRL (extensible Business Reporting Language) is an international standard of business reporting disclosure, the purpose of which is to regulate the exchange of business and financial information [6]. Each unit of information in the XBRL format is endowed with tags whose meanings are contained in a taxonomy. A taxonomy is a “dictionary” of tags adapted to a national standard. For example, there are taxonomies of IFRS (International Financial Reporting Standards), US GAAP (Generally Accepted Accounting Principles), UK GAAP. Thus, the procedure of XBRL reporting is reduced to assigning tags from the taxonomy to the corresponding accounting data. Transformation of financial statements into this electronic format can be performed using special software or manually, which is practised only by small businesses. At the moment, according to the SEC XBRL Spy research, the most common software developments for translation of reporting into the XBRL format are the following: Rivet, IMetrix, Corefilling, Fujitsu, Simplex, Hitachi [3].

The effectiveness of integrating the XBRL standard into modern accounting practice depends on the possibility of using it to optimise the process of preparation of financial statements for accountants, collection, analysis and processing of reports for external users. The benefits of using the format can be conditionally divided for the following categories of economic entities: preparers of reports, investors and regulators [10].

A significant benefit of switching to the XBRL format for preparers of reports is the actual reduction in the time of its preparation by 15%, which is due to two factors. Firstly, the format in question provides full integration of reporting and accounting, due to which the formation of reporting becomes fully automated. Secondly, organisations can now avoid duplication of data in dozens of forms for different regulators due to full identification of data [9].

Due to the translation of reporting into the XBRL format, investors can most effectively and easily analyse the financial condition of an organisation. This advantage is associated with the fact of increased compatibility of reports of different companies: XBRL format makes it possible to process both numerical and textual information, which allows investors to compare the reporting indicators of several organisations [5].

In our opinion, the use of XBRL format for the commercial sector will avoid repeated generation of financial statements for different groups of users with different requirements to information presentation. At present, due to limited technical

capabilities and time, the business entity submits a compulsory copy of financial statements to the tax authority, as well as to its investors, owners, statistical authorities and other users. In this regard, the reporting is uninformative and irrelevant for many users.

In the conditions of development of the digital economy within the framework of application of the XBRL format it will be possible to form the desired and necessary form of reporting for users, having set up in advance in the accounting system a set of key indicators for each group of interested parties. In this way, a differentiated approach to the presentation of information to different users will be ensured. On the one hand, this will ensure confidentiality of information, on the other hand, it will eliminate the redundancy of indicators for some groups of users, and for others it will ensure the formality of data. Thus, the application of a differentiated approach to the presentation of information will make it possible to limit access to insider information. The current presentation format of financial statements and its future presentation format

Sufficiently detailed financial statements will be submitted to the State Information Resource of Accounting (Financial) Statements (SIRAS). To reduce the labour intensity of the accounting process, the detailing of information for different groups of users can be carried out by levels of aggregation. For example, the item “Inventories” in the context of types of tangible assets is unlikely to be useful for tax authorities, but for investors, the owner and top management of the company can be essential information for decision-making. For such users of financial statements as counterparties and tax authorities, information on fixed assets in aggregated form will be sufficient, while for investors it will matter what objects are included in fixed assets and what their physical and moral depreciation is.

Marina Durovic, Ana Rep and Nikolina Dechman note that information is considered useful if it is relevant to the decision maker. Financial reports presented in XBRL format contain interactive tags and allow the user or decision maker to easily find relevant information [7]. Thus, the ad hoc disaggregation of financial statements for specific groups of users will maximise the impact of their decision making.

The next stage in the development of accounting reporting is the form of an aggregated accounting data mart (AADM). The concept of data mart was developed by Forrester Research in 1991. Nowadays, data mart is an integral part of decision support systems (DSS) and BI (Business Intelligence) in modern large companies.

In its original version, data mart is a set of thematic databases containing information related to certain aspects of an organisation's business. The peculiarity of the accounting data mart transferred as reporting (accounting data) is that it should

not be highly specialised. Its difference from the repository will consist in aggregation of all accounting information, aggregation of data to the level beyond which they cease to be classified as trade secrets.




Fig.1. Reporting data as a development of the fourth generation of accounting reporting

As a result, at the fourth stage of development, reporting will be an integral element of the analytical pyramid of economic information already nowadays used to improve the validity of managerial decisions.

In this pyramid (Fig. 1) the level of the analytical pyramid, following AADM, is occupied by OLAP-systems. OLAP-systems provide solution of many analytical tasks, for example, analysis of key performance indicators, marketing, financial and economic analysis, scenario analysis, modelling, forecasting, etc. The peculiarity of OLAP-systems consists in multidimensional data storage. This gives the user the opportunity to build operational non-regulated queries to the data of AADM, using a number of analytical directions. The OLAP user operates with familiar economic categories and concepts, which greatly simplifies the work with data. AADM together with OLAP form a multidimensional model of financial reporting.

When using a multidimensional model of financial reporting, the traditional approach of forming reports in accordance with the ideas about information requests of groups of users of reporting information differing in specific information requests loses its relevance. The history of recent financial crises shows that in order to obtain reliable conclusions it is necessary to study the organisation from a variety of angles. In this respect, information segregation poses a significant threat. In addition, “...the current business climate is so dynamic that corporate users now recognise their information requests from 3-6 months ago as irrelevant...” [8].

It is probably worth paying attention to the general permissive principle of providing financial information when forming the AADM: “Everything that is not prohibited is allowed”, instead of the current permissive principle. It is expected that the amount of information included in the AADM will be much larger than what is currently presented in the reports. This volume of information will allow the user to

assess the financial position and financial and economic activities of the organisation from different angles. The construction of AADM is based on the division of all available accounting information into that which is a commercial secret and information that should be made available to a wide range of interested users.

At this point in time, the XBRL framework is actively developing a means of communicating multidimensional data, but ultimately this is not necessary. If the accounting information system is to be highly organised on the basis of a multidimensional data model, there is no need for its intermediate conversion to XBRL format only at the data transfer stage. It is much easier and more logical not to convert data from a multidimensional database structure to XBRL, transfer it in XBRL format and then do the reverse conversion to a multidimensional database structure, but immediately provide the end user with access to aggregated accounting data.

The structure and basic aggregates used in AADM should be standardised in the same way as XBRL taxonomies are now formed, but not within the framework of the activities of one specialised international consortium alone, but with the active participation of the International Accounting Standards Committee. At least the basic data set of the AADM should be standardised within the framework of international and national standards. It is assumed that the structure of the AADM will remain unchanged over a relatively long time horizon. The very process of forming the AADM for the reporting period of a particular economic entity will be an automated standardised algorithm, hence, the quality of information contained in the AADM will be determined mainly by the work of the system of registration of facts of economic life at the levels of transactional systems and data warehouses. Therefore, the international standardisation process in accounting will return to its original task of developing the accounting mechanism (IAS), instead of the currently implemented task of reporting (IFRS).

The use of a multidimensional data model assumes that the data set included in the SAI will be stable and will not change over long periods of time. This should eliminate the current practice of constant changes in reporting.

CONCLUSION

The application of new information technologies, including in the field of accounting, exacerbates the need to address the issue of commercial secrecy as the most important parity between the interests of society and the economic entity, taking into account new conditions.

REFERENCES

1. Дружиловская Т.Ю. Модернизация финансовой отчетности организаций в условиях цифровой экономики / Т.Ю. Дружиловская, Э.С. Дружиловская // Учет. Анализ. Аудит. – 2019. – № 6 (1). – С. 55-59.
2. Гордова М.А. Методика гармонизации бухгалтерского учета государств членов Евразийского экономического союза в условиях цифровой экономики // Интернет-журнал «Науковедение». – 2017. – Т. 9, № 5 [Электронный ресурс] URL: <https://naukovedenie.ru/PDF/83EVN517.pdf/>
3. Калабихина, И.Е., Досиков, В.С., Волошин, Д.А. Внутренние заинтересованные пользователи финансовой и интегрированной отчетности российских компаний // Проблемы рыночной экономики. – № 4. – С. 18-27
4. Ковалев А.Е. Концепция интерактивной бухгалтерской отчетности // Учет и контроль. – 2019. – № 5 [Электронный ресурс] URL: https://gaap.ru/articles/Kontseptsiya_interaktivnoy_bukhgalterskoy_otchetnosti/
5. Морозова, Т. В., Сафонова, Э.Г., Калачева, О.Н. Оценка влияния на таксономию МСФО-отчетности формата XBRL// Азимут научных исследований: экономика и управление. - 2018. – № 2 (23). – С. 237-241.
6. Нестерова, Д.А. Стандарт XBRL: перспективы перехода для российских компаний // Экономика и бизнес: теория и практика. – 2018. – № 4. - С. 184-188.
7. Ismanov I.N., Teshabayev D.B. Problems of accounting in small business and private entrepreneurship entities in accordance with the International Financial Reporting Standards (IFRS). // American Journal of Economics and Business Management. – ISSN 2576-5973 (online), Published by “Global Research Network LLC” under Volume: 6 Issue: 5, 2023. – Pp. 241-245.
8. Durovich M. Towards full digitization of the financial reporting - overview of the financial reporting languages / M. Durovich, A. Rep, N. Dečman // 12th International Odyssey Conference on Economics and Business At: Šibenik, Croatia, 2021. – Pp. 55-70.
9. Gartner: Data mart promises don't add up; Gartner [Электронный ресурс]. - URL: <https://adtmag.com/articles/2003/04/02/gartner-data-mart-promises-dont-add-up.aspx>
10. XBRL в России: от таксономий к онтологиям// [Электронный ресурс] URL: <https://bosfera.ru/bo/xbrl-v-rossii-ot-taksonomiy-k-ontologiyam>
11. XBRL financial statements // [Электронный ресурс] URL: <https://ir.thomsonreuters.com/financial-information/sec-filings/xbrl-financial-statements>

BIOLOGIYA FANLARINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

p.f.f.d.(PhD) M.N.Ataqulova.,

Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti

manzuraataqulova98@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Biologiya fanlarini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish va uning ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: *biologiya, ta'lim, pedagogika, interfaol metodlar, innovatsiya, tarbiya, kreativ topshiriqlar, dars, darsdan tashqari mashg'ulotlar.*

АННОТАЦИЯ

В этой статье представлена информация об использовании интерактивных методов и их значении в преподавании биологических наук.

Ключевые слова: *биология, обучение, педагогика, интерактивные методы, инновации, обучение, творческие задания, урок, внеклассная работа.*

ABSTRACT

This article provides information on the use of interactive methods and their importance in teaching biological sciences.

Keywords: *biology, education, pedagogy, interactive methods, innovations, education, creative tasks, lesson, extracurricular activities.*

KIIRISH

Hozirgi kunda o'quvchilar, talabalar, tinglovchilar aqliy ta'limini rivojlantirish uchun ta'lim va tarbiya birligiga beriladigan bilimning ilmiy bo'lishi, bilimning sistemali va izchil bo'lishi barobarida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga erishilmoqda.

Biologiya fanlarini o'qitishda tizimida pedagogik faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning oldidagi muhim vazifalardan biri o'quvchilarning fan asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish asnosida ularning barkamolligini ta'minlash sanaladi. Ushbu muammolarni hal etishda innovasion texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Innovasion texnologiyalaridan foydalanilgan darslar axborotlarga boy, ko'rgazmali, interfaol bo'lib, vaqtdan unumli foydalanish, har bir o'quvchining o'z tempiraminti bo'yicha bilim olish, o'qituvchida esa, o'quvchilar bilan tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan ta'limni amalga oshirish imkoniyati vujudga keladi, shu bilan bir qatorda o'qitishda natijalarini nazorat qilish va baholash uchun zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Respublikamizda ta'limni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish masalari yuzasidan bir qator olimlarimiz ishlarida, jumladan I.T.Azimov, A.K.Raximov, J.O.Tolipova, N.J.Toshmanov, M.S.Usmonova, G.S.Ergasheva, N.Karimova, M.G'.Boratova va boshqalar ishlarida o'z aksini topgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Biologiya fanlarini o'qitishdatizimida tashkil etiladigan o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish yuzasidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda pedagogik va axborot texnologiyalaridan uyg'un foydalanish muhim vazifa sifatida belgilangan. Darhaqiqat, axborotlar globallashtirilgan davrda ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitish samaradorligini oshirish ham dolzarb muammo sanaladi.

Biologiya fanlarini o'qitishdatizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Biologik ta'limning roli insoniyat hayotida katta ahamiyatga ega. Biologiya o'qituvchi biologik bilimlarning har bir inson hayoti va mehnatidagi rolini chuqur anglashi, bunga ishonch hosil qilishi lozim, bu shunday ishonchni o'quvchilarda tarbiyalash uchun zarurdir.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Oliy ta'lim muassasalari talabalarning kelajakda bilim olishida, kasb tanlashida, hayotda o'z o'rnini topishida, hamda maktab va oliy ta'limdagi faoliyatida ham katta o'rin tutadi. Bu boradagi masalalar hozirgi kunda o'quvchi yoshlarni xalqaro PIRL, PIZA kabi baholash dasturlari asosida baholash jarayonida yoki ishtirokidagi kuzatuvlarda ham namoyon bo'lib qolmoqda.

Barchamizga ma'lumki PIRL xalqaro baholash dasturi asosida yuqori o'rinni Rossiya davlati egallab kelmoqda, ushbu ma'lumot yuzasidan Rossiyadagi ayrim maktablarda yuqori natijaga erishgan o'quvchilarni erishgan yutug'i taxlil qilinganida ularning 90%i 3-5 yoshidan maktabgacha ta'lim muassasasiga borgan bolalar bo'lib chiqqan. Bundan tashqari bu yoshdagi bolalarda oilada kitobga qiziqtirish, muntazam kitob o'qib berish holatlari ham yaxshi yo'lga qo'yilgani ma'lum bo'ldi. Shu nuqtai

nazardan biz ham ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etishda birinchidan maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni ertaroq (2-3) yoshdan jalb etishimiz, ikkinchidan esa maktabgacha muassasalarida ta'lim sifatini ham oshirishimiz muhim sanaladi.

Shu nuqtai nazardan maktabgacha ta'lim muassasalarida tabiiy fanlarni o'qitishda tabiatga tegishli bo'lgan qiziqarli topshiriqlar, rolli o'yinlar, o'yin mashqlari, kreativ topshiriqlar berish orqali ham o'quv mashg'ulotlarni qiziqarli tarzda tashkil etish lozim.

Hozirgi vaqtda ta'limdagi yangi innovatsion texnologiyalardan, interfaol metodlardan kreativ yondashuv asosida foydalanish ta'limning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

Kreativ topshiriqlar bolalar diqqatini jamlashda, tasavvurini boyitishda, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda va o'quv jarayonlariga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, bunda tabiatga oid turlicha noodatiy rasmlarni nomlash, chizish, tasvirlash kabi yoki qiziqarli savollar berish orqali ham tashkil etish mumkin: masalan;

Dunyoda yo'q hayvonni rasmini chizib keling.,

o'zingizni qaysi gulga yoki daraxtga uxshatasiz va nima uchun?

o'zingizni qaysi gulga uxshatsangiz usha gulni rasmini chizib keling.,

Siz gumbak ichidagi qurtsiz, his hayajoningizni yozib keling.,

Siz bir kunlik kapalaksiz, tasavvuringizni yozib keling kabi topshiriqlar berish maqsadga muvofiqdir.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarga dars jarayonlarida muvaffaqiyatli ish olib borishining birinchi sharti shuki, tarbiyalovchi ta'lim jarayoni ishonchga asoslanadi, bunda biologiya o'qituvchisi uziningning kasbiy mahoratini namoyon qilishi ya'ni o'quvchilarga har bir inson tabiatni o'rganish zarurligini singdirishi lozim, bu uchun esa yuqori saviyadagi bilim va mustahkam irodani talab etadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida esa dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni olib borishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayonidagi uzviylikni rivojlantirishda muhim sanaladi.

Biologiya fanlarini o'qitishda bir qator interfaol metodlardan – “Asiment”, “keys stadi”, “Aqliy hujum”, “Insert” va “organayzerli” hamda “enerjayzerli” metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz[5].

Ayniqsa o'quvchi – yoshlarning aqliy qobiliyatini oshirishda muammoli ta'lim texnologiyasi ahamiyatlidir. masalan, “Aqliy hujum” metodidan foydalanish jarayonida masalan, botanika darslarida “Novda mavzusini” o'tishda o'quvchilarga quyidagicha aqliy hujum savolini berishimiz mumkin;

- Terak daraxtini barchamiz bilamiz va ko'rganmiz. Terakning bo'yi 20-30 metrcha keladigan baland bo'yli daraxtdir. Lekin terak bo'yi baland bo'lsada undan ko'pincha qurilish material sifatida foydalanilmaydi, xush, unda nima uchun terak qishloqlarimizda juda ko'p ekiladi? O'quvchilar maktabgacha ta'lim muassasalarida o'rgangan va bilimlari va tasavvurlari asosida ushbu muammoli savollarga turlicha javob beradilar, ya'ni terakning bir qator boshqa foydali xususiyatlarini ham sanab o'tadilar.

Boshlang'ich ta'limdan o'rta ta'limga o'tgach Tabiiy fanlar darslarida yanada murakkabroq muammoli savollar, masalan munozarali darslar tashkil etish yoki keys-stadi savollari berish orqali ularning fikrlash qobiliyatlarini yanada rivojlantirish mumkin.

1.Keys savoli: Abdulla gazetada mog'orlangan qo'ziqorinlardan qizilmiya olinishini o'qidi va qiziqib qoldi, agar bu zamburug' bo'lsa ular o'rmonda o'sadi, demak biz uni o'rmondan izlashimiz kerak deb o'yladi va o'rtoqlariga ham bu haqida so'zlab berdi. Keyin ular o'rmonga borib mog'or zamburug'ini izlashdi. lekin ikki soat o'tsa ham hech qanday mog'or topilmadi.



1-rasm. Mog'or zamburug'ining tuzilishi

Savol. Aytingchi o'quvchilar, bolalar mog'or zamburug'ini qayerdan izlashlari kerak edi?


Umumta'lim maktablarida biologiya fanlarini(8-sinfda) odam va uning salomatligi darslarida o'quvchilarga keys topshiriqlar berish ham o'quvchilarning boshlang'ich ta'limda olgan bilimlarini rivojlantirishda hamda noanaviy darslar tashkil qilishda muhim sanaladi.

2.Keys savoli: Nima uchun *Golovin-Sivtsev* jadvalida aynan quyidagi harflardan foydalanilgan? (2-rasm)

2-rasm. O'qituvchi uchun javob: Chunki bu harflarni eni va buyi bir xil va ular so'z yasashda ishlatilmaydi.

Umumta'lim maktablarida biologiya fanlarini o'rganish o'quvchi yoshlarni tabiatga nisbatan mehr va muxabbatni oshirishda, tabiiy borliq insoniyatning barcha moddiy va ma'naviy boyliklarining manbai ekanligini his qilish imkoniyatlarini beradi. Bundan tashqari maktabda biologiya kursini o'rganishni to'g'ri yo'lga qo'yilganda u maktabni tamomlab chiqqandan keyin ham mustaqil ravishda ma'lumot olish yo'li bilan bilimlarni tinmay yangilab borish ehtiyojini tug'diradi va rivojlantiradi.

“Bog`lang” metodi



• Namuna sifatida quyidagi topshiriq bilan ham tanishtirib o'tamiz. **Qo'yidagi rasmdagi bog'liqlikni toping)**

Ko'rinib turibdiki topshiriqdagi rasmlar bir qarashda umuman bog'liqligi yuq, ammo mantiqiy fikrlab uylab ko'riladigan bo'lsa, rasmdagi xarita topshiriqni javobini topishdagi kalit hisoblanadi, ya'ni xaritada dunyo miqiyosida joylashgan alyuminiy zavodlari

tasvirlangan, qolgan rasmlarda esa, allyuminiy zavodidan chiqadigan zaharli moddalarni inson organizmiga va tabiatga bo'lgan ta'siri natijalari aks ettirilgan.

XULOSA

O'qituvchi - talaba bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi va shu bilan birga biologik ta'lim jarayonida ham butun yosh avlodni tabiatga to'g'ri munosabatda bo'lishga olib keladi, unga nisbatan uzini tarbiyalaydi, tabiatning chiroyini idrok etishdan tashqari uni muhofaza qilish, asrash, tabiat boyliklarini o'z qo'llari bilan yaratish va ko'paytirishga o'rgatadi, zamonaviy texnologiyalar, ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari izlab topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlari, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi[4].

Biologiya fanlarini o'qitishda yangicha innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish ta'limning asosiy jihatlaridan biridir, xususan interfaol metodlar – keys stadi, insert, baliq skeliti, bumerang kabi bir qator metodlar dars jarayonini noananaviy tarzda tashkil etishda samarali o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. J.O.Tolipova “Biologiyani o’qitishda innovatsion texnologiyalar” Pedagogika oliy o’quv yurti talabalari uchun darslik. Toshkent - “Cho’lpon” – 2011 y.
2. Abduquddusov O.A.Kasbiy kompetentsiyani shakllantirishda o’quv maliyotining o’rni. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. Toshkent 2016 yil 30-b
3. Uzluksiz ta’lim tizimida biologik ta’limning roli. Nasirova Sh. “PEDAGOGS” international research journal maqola ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995
4. Nematovna A. M., Baxodirovna M. F. THE EFFECTIVENESS OF DEVELOPING STUDENTS'CREATIVE THINKING IN TEACHING BIOLOGICAL SCIENCES //International Journal of Advance Scientific Research. – 2023. – T. 3. – №. 09. – C. 170-174.
5. Bekpulatugli, Kulmamatov Bunyod. "THE WORLD OF PLANTS AND ITS PROTECTION IN UZBEKISTAN." *Frontline Social Sciences and History Journal* 3.05 (2023): 71-75.
6. Shomurodov, H. F., Saribaeva, S. U., Abduraimov, O. S., Khayitov, R. S., & Sayfullaev, A. F. (2021). The Current State of Iris Hippolyti’s (Vved.) Kamelin Population in Uzbekistan. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 6589-6597.
7. Sayfullayev, A. (2021). UZLUKSIZ TALIM VOSITASIDA EKOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISH TEXNOLOGIYASI. *Uzluksiz talim*.
8. Shamsidinova, G. D., Sayfullaev, A. F., Achilova, N. R., & Baratov, U. D. (2021). Prospects for the development of" Education for sustainable ecological development" on the basis of the declaration of Uzbekistan. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(3), 144-149.
9. Malikova, A. R. "METHODS OF USING INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF TEACHING BIOLOGICAL SCIENCES IN HIGHER EDUCATION." *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities* 11.1 (2023): 798-800.
10. Muhabbat, R., & Mohinur, Q. (2020). Biologiya fanini oqitishda laboratoriya ishlarining ahamiyati. *Science and Education*, 1(3), 550-553.
11. Ibodova, M. N. (2023). AKADEMIK LITSEYLARDA BIOLOGIYA FANINI OQITISHNING INTERFAOL VA MUAMMOLI IZLANISH METODLARIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI. *Sharq uyg'onishi: Innovatsion, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar* , 3 (4-2), 125-131.

KIBERMAKONDAGI AXBOROT XURUJLARIGA QARSHI KURASHISHDA YOSHLARNING O'RNI

Odinayeva Gulshoda Shavkatovna

Termiz muhandislik- texnologiya instituti

Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi Kibermakondagi axborot hurujlariga qarshi kurashishda yoshlarning o'rni qanchalar muhim ekanligi haqida batafsil to'xtab o'tilgan. Shuningdek bugungi axborot asrida yoshlarning nimalarga jiddiy e'tibor qaratishlari, mafkuraviy imunitet shakillantirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'z: *Kibermakon, ijtimoiy tarmoq, ekstremizm, axborotning himoyasi, ommaviy madaniyat.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье подробно рассматривается, насколько важна роль молодежи в борьбе с информационными атаками в современном киберпространстве. Также в сегодняшний информационный век, на что молодежь обращает серьезное внимание, анализируются вопросы формирования идеологического иммунитета.

Ключевые слова: *Киберпространство, социальная сеть, экстремизм, защита информации, общественная культура.*

KIRISH

Takidlash joizki, bugungi kunda global o'zgarishlar ta'sir qilmagan biror bir sohani topish mushkul. Shubhasiz, bu jarayonning insonlar orasidagi muloqotning kuchayib ketishiga, qo'shayotgan hissasi haqida yetarli darajada dalillar bor. Ayni paytda bugungi dunyoni ommaviy axborot vositalarisiz, ya'ni ijtimoiy tarmog'larisiz tasavvur etish qiyin, zero hayotimizning bir qismiga aylanib ulgurdi desak, adashmagan bo'lamiz. O'tgan asrlarda internet, OAV haqida, virtual muloqot haqida tasavvurga ega bo'lmagan odamlar bugun muloqotning eng oson yo'liga o'tishdi. Bu muloqotning afzalligi shundan iboratki, u hech qanday masofa bilmaydi. Shu bois, onlayn muloqotni joy, muhit va boshqa sub'ektiv jihatlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Uning muhim jihati, onlayn muloqotda nafaqat suhbatlashish, balki, har qanday savolga javob topish, turli ma'lumotlar almashish, nimadir sotish va sotib olish, turli xorijiy tillarni o'rganish, qiziqarli filmlarni tomosha qilish, hattoki pul ishlash uchun ham imkoniyatlar mavjud. Lekin tanganing ikki tarafi mavjud. Quyidagi maqolada

internet platformalari va ijtimoiy tarmoqlarning keltirishi mumkin bo'lgan xavf-xatari to'g'risida so'z yuritamiz.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kibermakon-kompyuter tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan muloqot maydoniga nisbatan ishlatiladigan tushunchadir. Ijtimoiy tarmoq esa bu qiziqishlari o'xshash yoki oflayn aloqaga ega bo'lgan odamlar o'rtasida muloqot qilish, tanishish, ijtimoiy munosabatlar yaratish uchun, shuningdek, ko'ngilochar (musiqa va filmlar) va ish maqsadlarida ishlatiladigan onlayn platforma.

Aytish mumkinki, bugungi kunda mashhur bo'lgan ijtimoiy tarmoqlarda o'z sahifasiga ega bo'lmagan insonni topib bo'lmaydi, bu holatni yuqori darajasini ayniqsa yoshlar orasida ko'rish mumkin. Bugungi axborotlashgan jamiyat yoshlari, jumladan mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlod asosiy vaqtining taxminan 50% foizini virtual muloqotga ajratmoqda. Chunki, bugungi yoshlar o'z hayotini, ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur eta olmaydilar.

Bugungi kunda dunyoda internet foydalanuvchilari 2,8 milliarddan ko'p bo'lib, jumladan Xitoyda 500 million, Rossiyada 50 million, O'zbekistonda 10,5 milliondan ortiq foydalanuvchilar ro'yxatda bor va ijobiy yoki salbiy mazmundagi axborotlarni global tarmoqqa chiqishi uchun bir soniya yetarli. Jumladan, ijtimoiy tarmoqlardagi mafkuraviy tahdidlarga e'tibor qaratganda quyidagi axborotga duch kelamiz: «Mutaxassislarning qayd etishicha, «IShID», «Al-qoida» kabi terrorchi tashkilotlar o'z targ'ibotining 99 foizini internet orqali amalga oshiradi. Terrorchilar o'zlariga tegishli veb-sahifa va ijtimoiy tarmoqlarda «shahidlik», «jihod», «hijrat», «takfir», «xalifalik» kabi tushunchalarni buzib talqin qilish natijasida juda ko'p yoshlar to'g'ri yo'ldan adashib ketayotganini aytish muhim. Bugungi kunda terrorchi g'oyalarni targ'ib qiladigan 1100 dan ortiq internet saytlari aniqlangan»⁹⁴. Bu esa bizni oldimizga yoshlarimizni ongini ana o'shanday kuchlar egallab olmasdan ilgari band qilish majburiyatini yuklaydi.

Ekstremizm(lotincha— o'ta, keskin degan ma'nolarni anglatadi) — siyosatda va mafkurada ashaddiy, favqulodda harakat va qarashlarga asoslanib faoliyat yuritish. Ekstremizmning siyosiy va diniy ko'rinishlari yaqqol ajralib turadi, ular zo'rlik yoki zo'rlik ishlatishga davat qilish. Ekstremistik kuchlar o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun OAVdan keng foydalanish, puxta ishlangan strategiya asosida virtual jamoalar tuzishga internet tizimini ijtimoiy tarmog'i orqali turli tillarda targ'ibot olib borishga harakat qilmoqdalar. Deylik, yirik terroristiki tashkilotlar o'z jamoalariga faol tarzda

⁹⁴ Tulepov A. Internet tahdidlardan himoya. T.:»Movarounnahr» 2015. B-15

ijtimoiy tarmoqlar orqali, asosan, 17- 35 yosh oralig'ida bo'lgan kishilarni qo'shib olmoqda. Bunda psixologik ta'sir samaradorligini yanada oshirish maqsadida ijtimoiy tarmoq a'zolarining sahifalari, sharh va izohlar hamda olib borilayotgan suhbat qo'yilayotgan rasmlar, suhbat va mavzularni puxta o'rganadi va shu asosida "nishon"ga olingan shaxsga mavzuga oid materiallar internetning "Facebook", "Vkontakte", "Telegram", "Odnoklassniki", "Vkontakte", "Viber", "Instagram", "WhatsApp" va "Twitter" kabi keng auditoriyaga ega bo'lgan ijtimoiy tarmoqlar orqali jo'natiladi va o'zaro aloqa yo'lga qo'yiladi.

Bunday holatlarning tobora ommalashuvi ayniqsa, fuqarolarni xususan yoshlarni ongida turli ko'rinishdagi buzg'unchi «fatvo»larning berib borilishi muammoning naqadar jiddiy ekanini ko'rsatadi. Chunki yoshlar katta kuch hisoblanib, ularni endi ongiga nimani singdirilsa, o'sha xotiraga muhrlanadi. Radikal oqimlar, shuning uchun ham aynan yoshlarni, o'z tuzog'iga ilintirishga harakat qiladilar. Zero yoshlardagi qiziqqonlik, ishonuvchanlik, kuch- g'ayrat ularning maqsadini amalga oshirish uchun ahamiyatga ega.

Axborot xavfsizligi- axborotni ruxsatsiz kirish, foydalanish, oshkor qilish, buzish, o'zgartirish, tadqiq qilish, yozib olish yoki yo'q qilishning oldini olish amaliyotidir. Ushbu universal kontseptsiya ma'lumotlar qanday shaklda bo'lishidan qat'iy nazar (masalan, elektron yoki, jismoniy) amal qiladi. Axborot xavfsizligini ta'minlashning asosiy maqsadi ma'lumotlarning konfidensialligi, yaxlitligi va mavjudligini muvozanatli, qo'llashning maqsadga muvofiqligini hisobga olgan holda va tashkilot faoliyatiga hech qanday zarar yetkazmasdan himoya qilishdir. Ma'naviy tahdidlar- hayotning hali oq-u qorasini yaxshi bilmagan, hayotiy tajribasi kam bo'lgan yoshlar va kelajak avlodlarimiz uchun internet tizimidagi manbasiga aylandi. Axborot xuruji, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarimizning kelgusi kamolotiga zarar yetkazuvchi ko'pgina ma'naviy tahdidlarni vujudga keltirdi. Ulardan:

- Noqonuniy oqimlar sonining ko'payib borishi, muqaddas dinimizni niqob qilib, o'zlarining g'arazli maqsadlariga erishish yo'lida internet tizimining ijtimoiy tarmog'idan foydalanayotgani natijasida yoshlarimiz bilib- bilmay ularga qo'shib bormoqda.

- Yoshlarimiz nazarida oilaning muqaddas dargoh ekanligi, turli tanishuv sahifalari va ijtimoiy tarmoqlarda o'zbek xalqining madaniyati, ma'naviyati va ma'rifatiga tahdid soladigan behayo va pornografik mazmundagi materiallarning ko'payishi natijasida unutilmoqda.

“Ommaviy madaniyat” targ'ibotchilari internet tizimining ijtimoiy tarmog'i imkoniyatlaridan foydalanib, o'zlarining g'ayriinsoniy maqsadlariga erishmoqda⁹⁵.

⁹⁵ O.Musurmonqulov, O.Musurmonqulova «Axborot asrida yoshlar dunyoqarashi: nazariya va amaliyot

Yoshlar tomonidan qabul qilinayotgan, ijtimoiy tarmoqda tarqatilayotgan, yot g'oyalar va axborotlar, dunyodagi barcha mamlakatlarni ham tashvishga solmoqda. Ma'naviyatimizga tajovuz qilishga urinayotgan g'arazli kuchlarga, yoshlar ongi, qalbi va ichki dunyosini egallashga qaratilgan har qanday xatti-harakatlardan hamisha ogoh turishimiz kerak. Shunda bizni hech kim va hech narsa o'z tanlagan yo'limizdan ortga qaytara olmaydi hamda biz ko'zlagan ulug'vor maqsadimizga yetamiz albatta.

Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatning ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz zarur bo'lsa, biz mamlakatimiz suvereniteti va mustaqilligiga, xalqimizning tinch va osuda hayotiga tahdid soladigan har qanday urinishlarga qarshi keskin zarba berishga qodirmiz»⁹⁶. Ushbu so'zi bilan prezidentimiz Sh. Mirziyoyev yoshlarimizga e'tiborini yaqqol ko'rsatib berdi.

Buning uchun esa jamiyat hayotining modernizatsiyalashish sharoitida jamiyatda ma'naviy sohada quyidagi vazifalarni bajarishimiz lozim:

1. Yoshlarimizni ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish:

2. Turli qarash va fikrga ega bo'lgan yoshlarning o'ziga xos orzu-intilishlarini uyg'unlashtiruvchi g'oyalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, yagona Vatan tuyg'usi, adolat - qonun ustuvorligida, xalq roziligi, jaholatga qarshi ma'rifat, innovatsion taraqqiyotni ta'minlash barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddas maqsadga aylanishiga erishish, milliy hamjihatlikni yanada mustahkamlash:

3. Ota-bobolarimiz dinining gumanistik mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish borasidagi ishlarni davom ettirish.

Buning uchun, avvalo:

4. Ommaviy axborot vositalarida milliy ma'naviyatimiz aks etgan ko'rsatuvlar, seriallar, kino va badiiy filmlar namoyishini omma e'tiboriga taqdim qilish:

5. Internet tizimidan foydalangan holda milliy saytlar ko'paytirish hamda yoshlarbop ruknlarni ochish va ular orqali milliy g'oyalarni singdirib borishni ta'minlash:

mavzuidagi» Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami T.: O'zDJTU 2013 yil, B-11-12.

⁹⁶ Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T., O'zbekiston: NMIU, 2016. B-11.

6. Jamiyatda ma'naviyatni takomillashtirish mavzuida ilmiy loyihalar joriy etish hamda qonun ustuvorligini ta'minlash zarurdir⁹⁷.

Bugungi kunda eng muhim vazifa - dunyoda g'oyaviy va informatsion xurujlar, turli mafkuraviy tahdidlar avj olayotgan paytda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning tafakkurida sog'lom dunyoqarash asoslarini shakllantirish hisoblanadi fikrimizcha. Ta'kidlash joizki, bunday tahlikali va murakkab davrda ma'naviy – ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil qilish, quyidagilarga bog'liq hisoblanadi: dunyoda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, yoshlarni turli xil mafkuraviy xurujlardan himoya qilib, diniy ekstremizm va terrorizm yoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, g'animlarning g'arazli urinishlari nimaga qaratilganligini har tomonlama anglash hamda jamoatchilikka yetkazish, vatanimiz mustaqilligi, tinch va osoyishta hayotiga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi kurashish, yoshlarga yurtimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy targ'ibot va mafkuraviy jarayonlarni hamda ijobiy natijalarini tushuntirish, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning «Ma'naviyat va ma'rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi» ekanligi to'g'risidagi qarashlarining har bir fuqaroga mazmun-mohiyatini, xususan, yoshlar ongi, qalbi va ichki dunyosiga singdirish zarurligi hususida so'z yuritganlar.

Dunyo aholisining 90 % dan ortig'ida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish imkoniga ega. Foydalanayotganlar soni esa hayratlanarli. «Facebook» ijtimoiy tarmog'idan o'zidan 1,5 milliarddan ortiq kishi foydalanadi. Rus olimi I.N.Panarinning ta'kidlashicha, har kuni 936 milliondan ortiq foydalanuvchi «Facebook» ijtimoiy tarmog'idan foydalanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, internetdan foydalanuvchilar sonining 51 % foizi bir oyda bir marta tarmoqqa kiradi, bir kun davomida facebookda foydalanuvchining bo'lish vaqti 21 daqiqa ekan. Kanadada facebookdan eng faol foydalanuvchilar yashaydi. 253 million kishidan ortiqrog'i Osiyolik foydalanuvchilardir. Facebookka kirish ma'lumotlarga ko'ra, Xitoyda ta'qiqlanmaganda, foydalanuvchular soni bundan ham ko'p bo'lishi mumkin edi. Mashhurligi bo'yicha ikkinchi o'rinda «Google»ga tegishli video-xosting xizmati turadi. Bir oyda saytdan 1,3 milliarddan ortiq kishi foydalanadi. Bir oyda internet foydalanuvchilari saytda joylashtirilgan videolarni ko'rish uchun 6 milliard soatdan ko'proq vaqtni sarflashar ekan. Hisob-kitoblarga ko'ra mutaxassislar insonlarning ijtimoiy tarmoqda sarflaydigan minimal vaqti 3 soatni tashkil etar ekan. Bir qarashda kishini xavotirga soladigan hech narsa yo'qdek.

⁹⁷ Berdaliyev N.Sh. «Globallashuv sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari T.: «Fan va texnologiya» 2020 yil, B-130.

Uch soat mobaynida inson turli hududlarda yashaydigan yaqinlari, tanishlari, qarindoshlari bilan muloqot qilmoqda, bunda nima sun'iylik bor deb o'ylash mumkin. Ushbu muloqot jarayonlarining ijobiy tomonlarini inkor etib bo'lmaydi, albatta. Ammo, ijtimoiy tarmoqlarda faqat ezgu niyatni ko'zlagan insonlar o'tirmasligini o'nlab misollar bilan asoslash mumkin. Yoshlar bunday holatga ko'proq yolg'iz qolish istagi kuchayganida namoyon bo'ladi. «Ko'k kit» o'yini ham tarmoqlarda mashhur bo'lib, u ham yolg'izlikni, jamoaviy munosabatlardan qochishni targ'ib qilib, oxir-oqibat yoshlarni o'z joniga qasd qilishga yetaklovchi jihatlarni oshkor qiladi. 2015 yildan boshlab bu haqidagi dastlabki shov-shuvlar boshlangan. «Ko'k kit», «Tinch uy», «f58», «f57» kabi «o'lim guruhleri» haqida turli fakt va ma'lumotlar internetda bor: «Ko'k kit»ni 18 yoshga to'lmagan, mustaqil fikri, qiziqqan mashg'uloti yo'q o'smirlar «Ko'k kit»ga qiziqish bildirgan. Boshida qiziq va oson, topshiriqlar berib o'smirning ichiga kirib oladi. Keyinchalik ko'k kitning suratini tanasiga tig' bilan chizdirib, bitta kuyni 3 kun tinimsiz tinglab, topshiriqlarni bajargan o'smirlarni maqtab, tabriklaydi. Va nihoyat 50 kunda so'nggi – 50 topshiriq (suiqasd)ni bajartirib, uni videoga olishni o'rgatuvchi o'lim o'yini, deyiladi⁹⁸.

Birinchidan, bu tahdid 18 ga to'lmagan yoshlarni, o'smirlarni o'z nishoniga olgan bo'lib, yoshlarni biz bu kabi tahdidlardan xabardor qilishimiz kerak:

Ikkinchidan, esa yoshlarning qiziqishlarini bo'sh vaqtini va ixtiyorini egallashga yo'naltirilgan. Shuning uchun, yosh-avlodni bo'sh vaqtini samarali o'tkazishlariga zamin yaratishimiz lozim. O'smirlar o'z bo'sh vaqtini til o'rganishga, sport yoki boshqa yoqtirgan mashg'ulotlari bilan birga, targ'ibot guruhlarini shakllantirish masalasiga e'tibor qaratish kerak. Shundagina o'smir-yoshlariga hech qanday tashqi kuchlarning ta'siri bo'lmaydi deb o'ylayman.

Uchinchidan, ularni o'z qo'l-oyoqlaridan foydalanib, g'oyaviy qul qilib, qurbon qilmoqchi. Shuning uchun, yoshlarning mafkuraviy immunitetni mustahkamlash uchun targ'ibot ishlarini o'tkazib borishimiz kerak:

To'rtinchidan, bular taraqqiyot strategiyasiga, ota-onalar, ustozlar, yoshlarga oid davlat siyosatiga, yoshlar maqsadlariga qarama-qarshi hisoblanadi. Shu sababdan bu tarbiya subektlarini bir nuqtaga jamlash shuningdek, mahallalarda, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ma'naviy tanlovlar, tadbirlar treninglar, hamda targ'ibot ishlarini ta'sirchanligini ta'minlash uchun, zamonaviy informatsion va kompyuter texnologiyalarini samarali joriy qilishga qaratilgan samarali usullarni ishlab chiqish zarur hisoblanadi:

⁹⁸ T.X. Tashmetov «Globallashuv sharoitida milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirishning zamonaviy usullar» nomli Monografiya. T.:»Nishon nashir» 2020. B-88

Beshinchidan, yoshlarni bunday turli xil zararli g'oyalar ta'siriga tushib qolmasliklari uchun, har tomonlama mafkuraviy qurollantirishga davrning o'zi talab etmoqda. Zero, buyuk ajdodlarimizni « Alisher Navoiy , Ibn Sino, Al Beruniy, Imom Buxoriy, Burhoniddin Marg'inoniy, Imom Termiziy, Abu Mansur Moturudiy shu kabi boshqa allomalarimizning asarlari milliy tarbiyaning bosh g'oyasi bo'lib qolishi va ular yozgan asarlarida keltirilgan ibratli fikrlaridan bahramand bo'lishimiz kerak.

Ta'kidlashimiz joizki, bugungi kunda yoshlarni ma'naviy salohiyatini yuksaltirish va oshirish uchun, internet tizimidagj ijtimoiy tarmoqlarni salbiy ta'sirining oldini olish uchun, zamonaviy axborot texnologiyalari orqali maxsus internet dasturlarini ko'proq tuzib, yoshlar uchun ko'zda tutilgan, turli mavzular yuzasidan sohaviy tizimli va maqsadli loyiha dasturlarni tuzish va ularni doimiy a yangilab turish maqsadli, deb o'ylayman.

Yoshlarning ongiga: zamonaviy axborot texnologiyalar asosida milliy mafkura, milliy g'oya, milliy g'urur kabi oliy insoniy tushunchalarni targ'ib qilish jarayonida ularni ongi, qalbi va ichki dunyosiga singdirish bugungi kunning muhim talabidir. Yoshlarda vayronkor g'oya va mafkuralarning har qanday ko'rinishlariga qarshi kurashish orqali, mafkuraviy immunitetni innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda singdirish maqsadga muvofiqdir.

Tarixdan ma'lumki, ilgari xavf faqatgina maxfiy xabarlar va hujjatlarni o'g'irlash yoki nusxa olishdan iborat bo'lsa, hozirgi paytdagi xavf esa kompyuter ma'lumotlari to'plami, elektron ma'lumotlar, elektron massivlardan ularning egasidan ruxsat so'ramasdan foydalanishdir. "Bulardan tashqari, bu harakatlardan moddiy foyda olishga intilish ham rivojlandi".⁹⁹

"Axborotning himoyasi" deb boshqarish va ishlab chiqarish faoliyatining axborot xavfsizligini ta'minlovchi va tashkilot axborot zaxiralarining yaxlitligi, ishonchliligi, foydalanish osonligi va maxfiyligini ta'minlovchi qat'iy reglamentlangan dinamik texnologik jarayonga aytiladi".¹⁰⁰

Axborotning buzilishi yoki yo'qotilishi xavfiga olib keluvchi himoyalalanuvchi obyektga qarshi qilingan harakatlarga- axborot xavfsizligiga tahdid deyiladi. Bugungi kunda keng tarqalgan tahdidlardan: zamonaviy korporativ tarmoqlar va tizimlar duchor bo'ladigan tahdidlarni tahlil qilamiz. Bunday tarmoqlarga bo'lish tabiiy, sababi bir tahdid uchun ichki va tashqi manbalarga qarshi harakat turlari turlicha hisoblanadi.

⁹⁹ Ibrohimov Azimjon Abdumo'min o'g'li (2021). Korporatsiyani boshqarishda fidutsiar majburiyatlar va ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari. *Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences*, 1 (10), 841-853. doi: 10.24412/2181-1784-2021-10-841-

¹⁰⁰ Usmonova Muniskhon (2020). The role of forensic psychiatric examination in invalidating an agreement entered into by a citizen

“Umumjahon axborot globallashuvi jarayonlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini nafaqat mamlakatlar iqtisodiyoti va boshqa sohalariga joriy etish, balki axborot tizimlari xavfsizligini ta’minlashni ham taqozo etayapti. O‘zbekiston axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi xalqaro xavfsizlik tizimiga Markaziy Osiyoda birinchilardan bo‘lib qo‘shildi”.¹⁰¹

XULOSA

Xulosa qilib aytishim mumkinki , bugungi globallashuv sharoitida har bir axborot iste’molchisi, axborotdan foydalanish madaniyatiga ega bo‘lishi shart. Kibermakondagi axborot hurujlariga qarshi kurashishda yoshlarning o‘rni beqiyos. Chunki bugungi kun ijtimoiy tarmoqdan foydalanuvchilarning eng katta qismi aynan yoshlar ekanligi haqida yuqorida aytib o‘tdik. Agarda ular kompyuter tarmoqlaridan g‘oyaviy bo‘shliqqa yo‘l qo‘ymasdan, o‘zlarini vaqtini ijtimoiy tarmoqlardan bilim olishga, tajriba almashishga va yutuqlardan to‘g‘ri foydalanishga ajratsalar albatta maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Biz milliy g‘oya va ma’naviyat fanlarini manba sifatida singdirishda samarali bo‘lgan bir nechta innovatsion texnologiyalarni asos qilib oldik. Bunda egallangan bilim, tajriba, shuningdek, ajdodlarimiz meros qilib qoldirgan ulkan ma’naviy merosni tadqiq qilish kerak bo‘ladi. Zero, yosh-avlod milliy o‘zligi bilan birga, zamon bilan hamnafas, dunyoni chuqur anglaydigan insonlar, bo‘lib ulg‘aysin. Biz uchun odob-axloq tushunchalarini rad etadigan yot va zararli g‘oyalarni turli xil «da’vati» ham, umuman begona g‘oyalar ham o‘z ta’sirini o‘tkazmaydi. Internet tizimining ijtimoiy tarmoqlarisiz zamonaviy dunyoni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ammo uning zararli oqibatlarini minimallashtirish va foydali tomonlarini targ‘ib qilish bugungi kun talabidir. Shu sababli jamiyatimiz vakillari oldida turgan asosiy vazifalar, o‘sib kelayotgan yosh avlod ongi va tafakkurida zararli g‘oyalarning mavjud bo‘lmasligini ta’minlash, ularda internet tizimining ijtimoiy tarmoqlardan to‘g‘ri va maqsadli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

REFERENCES

1. O. Musurmonqulov, O.Musurmonqulova «Axborot asrida yoshlar dunyoqarashi: nazariya va amaliyot mavzuidagi» respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami T.: O‘zDJTU 2013 yil, B-11-12.
2. Berdaliyev, N. Sh. «Globallashuv sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari» mavzusidagi

¹⁰¹ Asadov, Sh. F (2021). Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlat ishtiroki (davlat-xususiy sheriklik misolida). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1 (11), 789-799. doi: 10.24412/2181-1784-2021-11-789-799

xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari T.: «Fan va texnologiya» 2020 yil, B-130.

3. Rajabov H.I «Globallashuv sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari T.: «Fan va texnologiya» 2020 yil, B-207.

4. Tashmetov T. X. «Globallashuv sharoitida milliy g‘oyani yoshlar ongiga singdirishning zamonaviy usullar» nomli Monografiya. T.:»Nishon nashir» 2020.

5. Shakambarov, A. A. (2023). MA’NAVIY MARGINALLASHUVDAN HIMOYALANISH–MILLIY MADANIY MEROSMIZNI ASRAB-AVAYLASH YO’LIDIR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(9), 308-311.

6. Shakambarov, A. A. (2023). MA’NAVIY MARGINALLASHUV YOSHLAR MA’NAVIYATI SHAKLLANISHIGA XAVF SOLUVCHI TAHDID SIFATIDA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(6), 418-422.

7. Normatova, F. A. (2023). TARIX FANINI O‘QITISHDA SAMARALI INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(6), 15-18.

8. Шакамбаров, А. А. (2023). ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ И ЗНАЧЕНИЕ ДУХОВНОЙ МАРГИНАЛИЗАЦИИ. *International scientific journal of Biruni*, 2(2), 133-137.

9. Отамуродова, Д. А. (2023). АГРАР СОҲА ИҚТИСОДИЁТИГА БИОХИЛМА-ХИЛЛИК ВА ЭКОЛОГИК ОМИЛЛАРНИНГ ТАЪСИРИ. *International scientific journal of Biruni*, 2(2), 151-159.

UO‘K (UDK, UDK): 811.22.1: 81.2-5-98

FORS TILIDA POLISEMIYANING FE‘LLAR ORQALI NAMOYON BO‘LISHI

Ahmedova Dilfuza Rafukjanovna

f.f.d., dotsent

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika kafedrası

dilakhmedova@mail.ru

+99890 357 60 30

+99890 931 34 58

ANNOTATSIYA

Polisemiya tilning ham nazariy, ham amaliy jihatdan o‘rganilishi zarur bo‘lgan hodisasi hisoblanadi. Uning nazariy hal etilishi esa tilning mantiq bilan bog‘liq, u bilan aloqador tomonini aloqadorlik qonuniyatlarini hal qilib chiqish bo‘ladi. Uning amaliy tomoni esa tarjima, izohli lug‘at kabi lug‘atlar strukturasi demakdir. Polisemiya so‘zning semantik strukturasi nuqtai nazaridan olib o‘rganiladi. So‘zning semantik strukturasi esa uning obyektiv borliq bilan bog‘liq tomonidir. Ma‘lum tildagi polisemiya o‘rganilar ekan, o‘sha xalqning tarixiy taraqqiyoti, fikrlash doirasi, nuqtai nazari kabilarga ham e‘tibor berilgan bo‘lardi. Til boyligining mana shunday tarmog‘i esa, to‘laligi bilan olib qaralganda, tekshirish obyekti bo‘lmay kelmoqda. U ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo‘lishiga qaramay, mana shunday muammoli masala barcha xalqlar tilshunosligida hamon e‘tibordan chetda turibdi. Eron tilshunoslari tomonidan ham fe‘llarda ko‘pma‘nolilik, xususan soda fe‘llar ma‘nolari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. So‘zning semantik tarkibidagi leksik ma‘nolar dastlab ikkita katta guruhga - hozirgi leksik ma‘nolarga va avvalgi leksik ma‘nolarga ajratiladi. Hozirgi leksik ma‘no til taraqqiyotining hozirgi bosqichiga, avvalgi leksik ma‘nolar esa til taraqqiyotining o‘tmishdagi bosqichlariga xosdir. Shuning uchun hozirgi leksik ma‘no tavsifiy semasiologiyada, avvalgi leksik ma‘nolar esa tarixiy (diaxron) semasiologiyada o‘rganiladi. Mavzuimiz obyekti bo‘lgan fors tilidagi soda fe‘llarda polisemiya masalasi ham shular jumlasidandir.

Kalit so‘zlar: polisemiya, ko‘chma mano, ma‘no ko‘chishi, leksik ma‘no, soda fe‘l, uzual va okkozional ma‘no, metonimiya, metafora, sinekdoxa

ПОЛИСЕМИЯ ПРОСТЫХ ГЛАГОЛОВ В ПЕРСИДСКОМ ЯЗЫКЕ

Ахмедова Дилфуза Рафукжановна

д.ф.н., доцент

Кафедра переводоведения и международной журналистики
Ташкетский государственный университет востоковедения, Ташкент,
Узбекистан

АННОТАЦИЯ

Полисемия – явление языка, которое необходимо изучать как теоретически, так и практически. Ее теоретическое решение связано с логикой языка, оно связано с решением законов связи. Его практической стороной является структура словарей типа переводного и толкового словаря. Многозначность изучается с точки зрения семантической структуры слова. Семантическая структура слова – это его аспект, связанный с предметным существованием. При изучении многозначности того или иного языка внимание будет обращено на историческое развитие этого народа, масштаб мышления и точку зрения. Такая сеть языкового богатства, взятая в целом, больше не является объектом изучения. Несмотря на свою теоретическую и практическую значимость, столь проблемный вопрос до сих пор остается без внимания в языкознании всех народов. Иранские лингвисты также провели исследования двусмысленности глаголов, особенно значений простых глаголов. Лексические значения в семантической структуре слова изначально делятся на две большие группы - текущие лексические значения и предшествующие лексические значения. Текущее лексическое значение характерно для текущего этапа развития языка, а предшествующие лексические значения характерны для прошлых этапов развития языка. Поэтому текущее лексическое значение изучается в описательной семасиологии, а прежние лексические значения изучаются в исторической (диахронической) семасиологии. Среди них – вопрос многозначности простых глаголов персидского языка, являющийся предметом нашей темы.

Ключевые слова: полисемия, мобильное значение, передача значения, лексическое значение, простой глагол, узуальное и окказиональное значение, метонимия, метафора, синекдоха.

POLYSEMY OF SIMPLE VERBS IN THE PERSIAN LANGUAGE

Dilfuza Akhmedova

DSc, Lecturer at the Tashkent State

University of Oriental Studies

Tahshkent, Uzbekistan

ABSTRACT

Polysemy is a language phenomenon that needs to be studied both theoretically and practically. Its theoretical solution is connected with the logic of language, it is connected with the solution of the laws of communication. Its practical side is the structure of dictionaries such as translation and explanatory dictionaries. Polysemy is studied from the point of view of the semantic structure of the word. The semantic structure of a word is its aspect associated with objective existence. When studying the polysemy of a language, attention will be paid to the historical development of this people, the scale of thinking and point of view. This network of linguistic richness, taken as a whole, is no longer the object of study. Despite its theoretical and practical significance, such a problematic issue still remains unattended in the linguistics of all nations. Iranian linguists have also conducted research on verb ambiguity, especially the meanings of simple verbs. Lexical meanings in the semantic structure of a word are initially divided into two large groups - current lexical meanings and previous lexical meanings. The current lexical meaning is characteristic of the current stage of language development, and previous lexical meanings are characteristic of past stages of language development. Therefore, the current lexical meaning is studied in descriptive semasiology, and the previous lexical meanings are studied in historical (diachronic) semasiology. Among them is the question of polysemy of simple verbs in the Persian language, which is the subject of our topic.

Key words: *polysemy, mobile meaning, conveying meaning, lexical meaning, simple verb, usual and occasional meaning, metonymy, metaphor, synecdoche.*

KIRISH

Til ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning o'zaro aloqasini yo'lga qo'yishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham til jamiyatga bog'liq holda o'zgarib turadi, uning yangi-yangi qonuniyatlari vujudga keladi. Polisemiya har qanday tilda ham salmoqli o'rin tutadi. Til boyligi faqat so'zlar, iboralar bilangina emas, so'zlarning leksik ma'nolari

bilan ham o'lanadi. Demak, so'zlarning ko'p ma'noliligi – polisemiya til boyligida o'z o'rniga ega (1,3).

Mavzuning maqsadi. Fors tilida sodda fe'llarda polisemiya hodisasini o'rganish, bu fe'llarga birlashuvchi ma'nolarning o'zaro munosabatini yoritishdan iborat.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Polisemiya haqida leksikologiya, semasiologiya yoki tilshunoslikka kirishga bag'ishlangan darsliklarda berilgan ma'lumotlardan tashqari, ma'lum tomonlarini o'rganishga bag'ishlangan ba'zi ilmiy ish yoki maqolalar ham e'lon qilingan.

Polisemiya hodisasi bo'yicha o'zbek tilida 1966 yili T.Aliqulov "Ot so'z turkumida polisemiya hodisasi" mavzusi bo'yicha nomzodlik ishi qilgan. M.Mirtojiev 1995 yilda "Ўзбек тилида полисемия" nomli monografiyasini nashr ettirgan (1). Rus tilshunosligida ham polisemiya bag'ishlangan ishlar ko'p. Fors tilida polisemiya hodisasi masalalari L.Peysikovning «Лексикология современного персидского языка» va A.Quronbekovning "Fors tili leksikologiyasi" (2) kitoblarida yoritilgan.

Eron tilshunosligida fe'llarda ko'p ma'nolilik hodisasiga bag'ishlangan qator ishlarni kuzatish mumkin. Bulardan بررسی معنایی افعال مرکب اندام بنیاد از دیدگاه "شهلا شریفی" (5) "معناشناسی شناختی راحله", (6) "بررسی معنایی فعل مرکب در زبان فارسی" ابراهیم مرادی, (7) "رویکردی شناختی به مسئله هم معنایی بافتی در سطح افعال زبان فارسی" گندمکار علی صفری, (8) "معناشناسی زمینه و تناوب فعل های مرکب در زبان فارسی" رویکردی شناختی به یک "لیلا شریفی", (9) "فعل چندمعنای فارسی فضای" ارسالان گلغا, (10) "عناصر مؤثر در تغییر معنای فعل" حمید ربیعی, (11) "معنایی فعل «شدن» در زبان فارسی: نگرش شناختی" ishlarini sanab o'tish lozim.

Mavzuning vazifalari. - fors tilidagi jami sodda fe'llar ichidan polisemantik xususiyatga ega fe'llar ajratib olindi;

- polisemantik fe'llarda leksik ma'no taraqqiyoti natijalari o'rganildi;

- leksik ma'no taraqqiyoti natijasida fors tilidagi sodda fe'llar anglatgan ma'no miqdori jihatidan alohida guruhlarga bo'linadi;

- bir leksikaga birlashgan ma'nolarning o'zaro munosabati aniqlandi.

So'zning leksik ma'nosi qotib qolgan, o'zgarimas hodisa emas, u ancha barqaror bo'lsa-da, ma'lum omillar ta'sirida, uzoq yillar davomida o'zgarishi mumkin. Bunday o'zgarishlarga sabab bo'ladigan omillar ikki xildir: 1) ekstralingvistik (nolisoniy) omillar – ijtimoiy-iqtisodiy hayot, ong, tafakkur rivoji va b.lar. Masalan, *oyoq* so'zi dastlab inson a'zolaridan birini nomlagan, keyinchalik u *xontaxta*, *kursi*, *stol*, *stul*, *karavot* kabi mebellarning «oyog'i»ni ham atay boshlagan: *xontaxtaning oyog'i*, *kursining oyog'i*, *stolning oyog'i*, *karavotning oyog'i* kabi. Bunga inson

yashab turgan muhitda turli-tuman mebel-jihozlarning paydo bo'lganligi, shu bilan bog'liq ravishda inson ongida yangi tasavvurlarning yuzaga kelganligi, nihoyat, til bilan ijtimoiy hayot, ong va tafakkur o'rtasidagi murakkab aloqalar sabab bo'lgan; 2) lingvistik (lisoniy) omillar – til birliklarining til sistemasi ichidagi munosabatlari. Masalan, tilning lug'at boyligidagi **aniq** va **ochiq** leksemalari kontekstual sinonimiya munosabatida bo'lishi mumkin: *aniq gapirmoqva ochiq gapirmoq* kabi, ammo «*ochiq eshik*»ni «*aniq eshik*» deb bo'lmaydi, bunga **aniq** va **ochiq** leksemalarining ma'no xususiyatlaridagi o'ziga xoslik, ularning valentlik imkoniyatlari yo'l qo'ymaydi. Demak, leksemaning leksik ma'nosi yuqorida keltirilgan omillar ta'sirida o'zgarib turadi, leksik ma'no taraqqiyoti deyilganda shular nazarda tutiladi. Bunday taraqqiyotning yo'llari ham har xildir: ma'noning ko'chishi, kengayishi va torayishi, bundagi miqdor va hajm o'zgarishlari shular jumlasidandir.

Tillarning boy yoki kambag'al ekanligi nafaqat shu tildagi so'zlarning miqdoriga, balki so'zlar bildirayotgan ma'nolarning soniga ham bog'liq bo'ladi. Til birliklari monosemantik va polisemantik xususiyatlarga ega.

Leksik monosemiya (yunoncha: *monos* – «bir»+*semia* – «belgi») – leksemaning faqat bitta ma'noga ega bo'lishi. Masalan, o'zbek tilidagi **guruch** leksemasi »*sholidan oqlab olinadigan oshlik don*» ma'nosini, **abadiy** leksemasi «*mangu, doimiy*» ma'nosini, **tun** leksemasi «sutkaning kun botishdan kun chiqqungacha, oqshomdan tong otguncha bo'lgan qismi» ma'nosini ifodalaydi. Bu leksemalarning boshqa ma'nolari yo'q.

Atoqli otlar ham shartli ravishda monosemantik leksemalar qatoriga qo'shiladi.

Monosemiya xodisasi o'zbek tilshunosligida *bir ma'nolilik* deb ham yuritiladi. Bir ma'nolilik ko'proq terminlarga, yangi yaratilgan yoki boshqa tildan yangi o'zlashtirilgan leksemalarning boshlang'ich ishlatilish davriga xosdir.

Yangi yaratilgan yoki boshqa tildan yangi o'zlashtirilgan leksemalar vaqt o'tishi bilan turli lisoniy va nolisoniy omillar ta'sirida ko'p ma'noli so'zlarga aylanib qolishi mumkin.

Leksik polisemiya (yunoncha: *poli*-«ko'p»+*semia*-«belgi») – leksemaning bir necha ma'noga ega bo'lishi. Masalan, **tuz**leksemasining semantik tarkibida quyidagi leksik ma'nolar bor: 1) «kislota tarkibidagi vodorod o'rnini biror metall egallashi natijasida xosil bo'ladigan kimyoviy birikmalar» (*asosiy tuzlar, sulfat kislota tuzlari*); 2) «kimyoviy birikmaning ovqat uchun ishlatiladigan bir turi» (*osh tuzi*); 3) ko'chma: «*kimsaning boshqa odamga bergan, yedirgan-ichirgan ovqati*» (*tuz bermoq, tuzini yemoq*); 4) ko'chma: *mantiq, ma'no, mazmun*.

Leksik polisemiya, odatda, bir leksemaning semantik tarkibidagi leksik ma'nolar orasida mazmuniy bog'lanish borligiga tayanadi, shu xususiyati bilan leksik

omonimiyadan farqqiladi. Leksik polisemiyaning yuzaga kelishi ma'no taraqqiyoti qonuniyati bilan belgilanadi.

Prof.A.Quronbekovning ta'kidlashlaricha polisemiya tarkibidagi vujudga kelgan omonimlarni boshqa ma'no belgilaridan farqlash o'ta qiyin. Masalan: "*parde*" – "*parda*", "*ekran*", "*san'at asari*", "*soz pardasi*". Bu ma'nolar orasidagi "*deraza pardasi*" bilan "*soz pardasi*"ni bir-biridan uzoq ma'noli omonimlar deyish mumkin. Ularning orasidagi bu farq faqat sintaktik va semantik valentlikda ma'lum bo'ladi. *Parde-ye panjare* – *deraza pardasi*; *parde-ye 'aroq* – *Iroq ohangi* orasida farq juda katta. Bularni bir so'zning bir-biriga yaqin ma'no belgilari deb bo'lmaydi. Bu bir-biridan uzoq ma'no belgilari – omonimlardir. Lekin lug'atlarda so'zning bu ma'nosi omonim sifatida qaralmaydi. Ko'p ma'noli so'zlardagi ma'no yaqinligi bilan omonimlar o'rtasidagi farqlarni ajratishning aniq ko'rsatkichlari ishlab chiqilmagan. Bu mavzu fors tili leksikologiyasida o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan biridir (2,18).

Misollar tahlili natijasida huddi shunday muammoli holga خوردن fe'li misolida duch kelindi. خوردن 1) yemoq; 2) ichmoq; 3) yutmoq; 4) og'z. tushunarsiz gapirmoq; 5) o'zlashtirib olmoq; 6) sport. yutqazmoq; 7) mo'ljalga tushmoq; 8) urilib ketmoq; 9) tegmoq; 10) og'z. to'g'ri kelmoq kabi ma'nolarni anglatadi. Nazarimizda ushbu fe'lning 6, 7, 8, 9, 10 ma'nolari uning bosh ma'nosidan tubdan farq qilib, buni alohida omonim sifatida ajratish maqsadga muvofiq lekin bu masala alohida tadqiqotni talab etadi.

So'z ma'nolarini analiz qilish orqali shuni kuzatish mumkinki, barcha so'zlar dastlabki bosqichda monosemantik xarakterga ega bo'ladi. Ulardan muayyan narsa va hodisalarni ifodalash maqsadlarida foydalaniladi. Keyinchalik ular boshqa predmet va hodisalarni ifodalash maqsadlari uchun ham ishlatiladi. Natijada so'zlarning keyingi ma'nolari kelib chiqadi.

Polisemiya hodisasining yuzaga kelishida ko'chma ma'noning hosil bo'lishi muhim rol o'ynaydi. Ko'chma ma'nolar bir toifa voqelik atamasini boshqa toifadagi voqelikka ko'chirish jarayonida vujudga keladi. Masalan: چاقوی فولادین (*čāquye fulādin*) – po'lat pichoq; اراده فولادین (*erādeye fulādin*) – po'lat irodali. Bu o'rinda birinchi birikmada "*po'lat*" tom ma'noda, ikkinchi birikmada ko'chma ma'noda, ya'ni "*mustahkam*", "*bukilmas*" ma'nosida qo'llanilmoqda (2,9).

Polisemiyaning vujudga keltiruvchi faktorlarni olimlar ikkiga bo'ladilar. **1. Lingvistik faktor.** **2. Nolingvistik faktor.** Ellipsis, so'z formasining fonetik o'zgarishi va semantik kalka hodisalarini lingvistik faktorlar yordamida hosil bo'ladi deb talqin qiladilar.

Aslida birikmaga teng bo‘lgan til birligining tarkibidan biror komponent tushib qolsa–yu, qoldirilgan qism orqali butun ma’no ifodalanadigan bo‘lsa, bu hodisaga ellipsis hodisasi deyiladi.

So‘z formasining fonetik o‘zgarishida shu so‘zning tarkibidagi so‘z yasovchi yoki shakl yasovchi qo‘shimcha nutq jarayonida tushirib qoldiriladi, lekin shunga qaramasdan kutilgan ma’no yuzaga chiqaveradi.

Lingvistik faktor yordamida ma’no ko‘chishning keyingi yo‘li semantik kalka sanaladi. Semantik kalka usulida chet tillaridan o‘zlashayotgan so‘z aynan tarjima qilinadi. Bu tarjima tilida azaldan ishlatilib kelinayotgan so‘zlar hisobiga amalga oshiriladi. O‘z–o‘zidan yangi paydo bo‘lgan so‘z avvalgisiga nisbatan ikkinchi ma’no bo‘lib qolaveradi.

Shuningdek, so‘zlarning sinonimik, antonimik, paronimik munosabatlari natijasida ham yangi ma’no hosil bo‘lishi kuzatiladi.

Umuman olganda, ma’no ko‘chish hodisasi uchun xilma-xil omillar asos vazifasini o‘tashi mumkin.

Ma’noning ko‘chishi – bir predmet (yoki hodisa) nomining keyinchalik boshqa predmet yoki hodisani anglatish xususiyatiga ega bo‘lishi. Bunday ko‘chish shu nom bilan atalayotgan ikki yoki undan ortiq predmet (hodisa) o‘rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Masalan, *nafas* leksemasining bosh (to‘g‘ri) ma’nosi «o‘pkaga olinadigan va undan chiqariladigan havo»dir, ammo *nafasingizni iliqqiling* deganda *nafas* leksemasi «havo»ni emas, «gap»ni va «niyat»ni ifodalamoqda, chunki nafas olish va nafas chiqarishsiz gap shakllanmaydi, gapsiz esa fikr-niyat ifodalanmaydi: *nafas, gap, fikr-niyat* o‘rtasidagi ana shu aloqa va bog‘lanish *nafas* leksemasining mazmun mundarijasidagi ma’no ko‘chishlariga sabab bo‘lgan.

Yangi ma’noning nolingvistik usul bilan hosil qilinishi 4 xil yo‘l bilan amalga oshiriladi.

1. Metafora, 2. Metonimiya, 3. Sinekdoxa. 4. Vazifadoshlik.

Polisemiya hodisasida shu narsaga alohida diqqat qilinadiki, ko‘chma ma’noda biror predmet, voqea yoki hodisa nomi shunga o‘xshagan boshqa predmet yoxud voqea-hodisalarga ko‘chiriladi. Natijada tilda o‘z nomiga ega bo‘lmagan predmet, voqea-hodisa yangi nom oladi va oldingi nomga nomdosh bo‘lib qoladi. Bularning birinchisi nomdoshlovchi, ikkinchisi nomdoshlanuvchidir.

Predmet yoki voqea– hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlik asosidagi ma’no ko‘chishiga metafora deyiladi (lotincha *metaphora* –ko‘chirish degan ma’noni bildiradi) .

Predmetlar o‘rtasidagi o‘xshashlik uchun ularning turli jihatlari asos qilib olinishi mumkin.

Masalan: *odamning burni-geografik burun, ko'ylakning etagi-daryoning etagi, osmondagi oy-bayroqdagi oy kabi*. Bu o'rinda predmetlarning tashqi jihatdan o'xshashliklariga alohida ahamiyat berilgan. Shuningdek, ularning ichki o'xshashliklari, vazifaviy bir xilliklari asosida ham ma'no ko'chiriladi. Misol uchun *toza ko'ylak-toza odam, to'g'ri yo'l-to'g'ri gap, do'stim keldi-suv keldi* kabi.

Metafora usuli bilan ma'no ko'chish hodisasi ot, fe'l, sifat so'z turkumlarida ko'p uchraydi.

Misollarga e'tibor beraylik: *oltin kuz, temir intizom, po'lat iroda; shirin gap, achchiq haqiqat, uzun suhbat; suhbat qizidi, ko'ngli sovudi, gap cho'zildi*. E'tibor berilsa, barcha o'rinlarda o'xshashlik birinchi planga chiqayotganini va metaforani vujudga keltirayotganini sezish mumkin.

Metonimiya so'zi yunoncha *metomumia* — qayta nomlash so'zidan olingan bo'lib, biror predmet, voqea—hodisani o'xshashlik asosida emas, balki o'zaro aloqadorlik asosida yangi nom bilan ataydi.

Metonimiyaning asosiy ko'rinishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

1. Biror predmet yoki hodisadagi nom shu qismga ko'chiriladi. Masalan: *shahar*- odamlar g'uj yashaydigan, madaniy markaz. *Butun shahar ko'chib chiqdi* gapida esa shaharda yashovchi odamlar nazarda tutilyapti. *Bosh* - odam gavdasining yelkadan yuqori qismi. *Boshim qotib qoldi* gapida esa miya ma'nosini beryapti. Demak, bunday holatlarda predmetlar o'rtasidagi ma'no ko'chirish uchun mezon qilib olinadi.

2. Biror narsaning nomi shu narsaga asoslangan o'lchov birligining nomi sifatida olinadi. *Kun* - quyosh, *kun* - 24 soatlik o'lchov birligi, *soat-kun vaqtlarini aniq ko'rsatib beruvchi mexanizm*, *soat* - aniq vaqt, *oy* - samodagi planeta nomi, *oy-yil bo'lagi*.

3. Bir predmetning nomi shu predmetdan hosil qilingan narsaga ko'chiriladi. Masalan, *choy* - o'simlik, *choy* - ichimlik, *suv* - tabiiysuyuqlik, *suv* - har xil sanoat mahsulotlari va hokazo.

4. Belgining nomi shunday belgisi bor narsaga ko'chiriladi; *achchiq* (*maza, ta'm*) - *achchiq* (*qalampir*), *chayon* (*zaharli hasharot*) -*chayon* (*serjahl, yomon odam*), *zahar* (*og'u*) - *zahar* (*maraz odam*) va shu kabilar.

5. Ayrim narsa— predmetlar nomi ma'lum bir xatti – harakatlar natijasida o'zaro aloqadorlik yo'li bilan hosil qilingan, lekin bu usul diaxron xarakterga ega bo'lib, tilimizning bugungi bosqichida uchramaydi. *Qatlama* — xamirni qat - qat qilib qo'yish natijasida, *to'y* - *to'ymoq* fe'lidan, *qirindi* - *qirmoq* so'zidan yasalgan.

6. *Boburni yodladim, Amerikani uchratdim, Navoiyni varaqlab ko'rdim* kabi birliklarda ham aloqadorlik hodisasi mavjud deb qaraladi.

Sinekdoxa qism orqali butunni, butun orqali esa qismini ifodalash sanaladi. Sinekdoxa usuli asosida ham predmetlar orasidagi aloqadorlik yotadi. Shu bois unga metonimiyaning bir ko‘rinishi sifatida baho berish ham mumkin, lekin bu aloqadorlikda butun–bo‘lak munosabati doimo yaqqol ko‘rinib turadi. Misollarga e‘tibor beraylik.

Tuyoq boqmoq (mol yoki qo‘y boqmoq), tirnoqqa zor (farzandga) kabi ko‘rinishlarda qism orqali butun ifodalanyapti.

O‘zbekiston yutdi, Farg‘ona keldi iboralarida esa bir kishi yoki guruh nazarda tutiladi. Bunday o‘rinlarda esa butun orqali qism ifodalanadi.

Ma‘no ko‘chishning yana bir usuliga funksional ko‘chish deyiladi. Ba‘zi bir adabiyotlarda unga vazifadoshlik asosidagi ma‘no ko‘chish deb ham baho beriladi. Bu usulning mohiyati shundan iboratki, ma‘no ikki predmet o‘rtasidagi vazifaviy o‘xshashlik asosida ko‘chiriladi.

Masalan: *oyoq*– insonning tik turishi uchun xizmat qiladigan anatomik organ. *Stulning oyog‘i* deb ataganimizda ham ana shu funksiyaga asoslaniladi.

Odamning ko‘zi - derazaning ko‘zi (har ikkalasi ko‘rish uchun), *qushning qanoti - samolyotning qanoti* (hap ikkalasi uchish uchun) misollarida ham vazifadoshlik asosidagi ma‘no ko‘chishni kuzatishimiz mumkin.

Yana shuni ham alohida aytib o‘tish joizki, ba‘zi bir holatlarda bir vaqtning o‘zida metaforik – funksional, metaforik– metonimik yoki metonimik – funksional, metoforik – sinekdoxa usullari namoyon bo‘lib qoladi. Misol uchun *ko‘k – osmon, ko‘k – tepa, yuqori, bosh – kalla, bosh – bir juft* holatlarida metaforadan tashqari metonimik holat ham mavjud. Umuman olganda, so‘z ma‘nosining ko‘chishi murakkab va ko‘p qirrali hodisa sanaladi.

So‘zning semantik tarkibidagi leksik ma‘nolar dastlab ikkita katta guruhga - hozirgi leksik ma‘nolarga va avvalgi leksik ma‘nolarga ajratiladi.

Hozirgi leksik ma‘no til taraqqiyotining hozirgi bosqichiga, avvalgi leksik ma‘nolar esa til taraqqiyotining o‘tmishdagi bosqichlariga xosdir. Shuning uchun hozirgi leksik ma‘no tavsifiy semasiologiyada, avvalgi leksik ma‘nolar esa tarixiy (diaxron) semasiologiyada o‘rganiladi.

Hozirgi leksik ma‘nolar o‘z navbatida *bosh ma‘no* va *xosila ma‘no* kabi tiplarga bo‘linadi, ular kontekst talabiga ko‘ra *to‘g‘ri ma‘no* va *ko‘chma ma‘no*, *nominativ (nomlovchi) ma‘no* va *majoziy ma‘no*, *erkin ma‘no* va *bog‘li ma‘no* (yoki *bog‘langan ma‘no*) nomlari bilan ham ataladi. Tildagi leksik polisemiya ana shu bosh va hosila ma‘nolar tizimiga asoslanadi.

Hosila ma‘no bosh ma‘nodan taraqqiy etib chiqqan ma‘nodir. Masalan, *tulki* so‘zining hosila ma‘nosi “*O‘taketgan ayyor, makkor odam*”dir. Bu ma‘no ayrim

kishilarning xatti-harakatini tulkining xiylakorligiga o'xshatish, nisbatlash orqali (metafora yo'li bilan) yuzaga keltirilgan: *Xaqiqatda esa bu **tulkilar** uni laqillatadilar.*

So'zning hosila ma'nosi kontekst talabidan kelib chiqib, *ko'chma ma'no* (so'zning to'g'ri ma'noda ifodalangan narsa-hodisalardan boshqa narsalarga nom bo'lib ko'chganligi uchun), *majoziy ma'no* (mavhum tushuncha yoki g'oyalarni konkret obraz orqali ifodalashga hizmat qilganligi uchun), *bog'li ma'no* (reallashuvi ma'lum kontekst, so'z qurshovi bilan cheklanganligi uchun) degan nomlar bilan ham ataladi.

Eski leksik ma'no leksemaning o'tmishda qo'llangan, hozir esa arxaiklashgan ma'nosidir.

Etimologik leksik ma'no – leksemaning kelib chiqishida uning mazmun planiga asos bo'lgan dastlabki ma'no. U **ma'no etimoni** deb ataladi.

Uzual ma'no leksemaning mazmun mundarijasida bor bulgan leksik ma'nodir. U til egasi bo'lgan xalq tomonidan tan olingan, demak, ko'pchilikka tushunarli bo'lgan ma'no hisoblanadi. Masalan,

رفتن fe'lining mazmun mundarijasida quyidagi leksik (uzual) ma'nolar bor: 1) *yurmoq; ketmoq; yo'lgatushmoq*; 2) *yaqinlashmoq*; 3) *oqmoq*; 4) *botmoq*; 5) *tortmoq, o'xshamoq (birorkimsaga)*; 6) *o'chmoq*; 7) *ahdqilmoq*

Okkazional ma'no leksemaning tildagi ma'nosiga xos bo'lmagan, ayrim shaxsning (muallifning) nutqiy vaziyatidan kelib chiqib, shu leksema mazmuniga yangicha «tus» berishi natijasida yuzaga keltirilgan sun'iy ma'nodir. U individual xarakterda bo'ladi va faqat kontekstda anglashiladi.

لابد چادرشبتون رفته زير رختوابها (3,262)

“*Balki choyshabingiz kirlar orasiga kirib ketgandir”.*

Yuqoridagi jumlada رفتن fe'lining «yo'qolmoq» ma'nosida kelganini anglash qiyin emas. Aslida bu ma'no رفتن fe'lining mazmun mundarijasida yo'q, u asar muallifining uslubiy maqsadda kashf etgan leksik qo'llashidir.

Demak: a) uzual ma'no til birligi (leksik ma'no), okkazional ma'no esa nutq birligi (leksik qo'llash) sanaladi; b) uzual ma'no (yoki ma'nolar) kontekstgacha shakllangan bo'ladi, okkazional ma'no esa kontekstning o'zida yuzaga keladi, shu kontekst doirasidagina leksemaga birlashtiriladi; v) uzual ma'no leksemaning biror predmet yoki hodisani nomlashi bilan bog'langandir (unda obrazlilik ifodasi bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin), okkazional ma'no esa nomlamaydi, unda obrazlilik ifodalanadi, xolos; g) uzual ma'no tilning lug'at boyligidan o'rin oladi, okkazional ma'no esa vaqt o'tishi bilan lug'at boyligiga kirib qolishi mumkin bo'lgan (hozirgacha kirmagan) potensial imkoniyatdir. Bunday imkoniyat amalga oshishi ham, oshmay qolishi ham mumkin.

Leksik ma'no taraqqiyoti natijalari ikki xil bo'ladi: 1) so'zning semantik tarkibidagi ma'nolar miqdori ko'payadi, demak, miqdor o'zgarishi yuz beradi, bu hol polisemiyaga (ko'p ma'nolilikka) va omonimiyaga olib keladi. 2) so'zning semantik tarkibida ma'no hajmi o'zgaradi. Bunda ma'nolar miqdori ortmaydi, bitta ma'noning hajm ko'lami kengayadi yoki torayadi, xolos. Ma'noning kengayishi – leksemaning ma'no hajmida tor ma'nodan keng ma'noga qarab siljishning yuz berishidir.

Fors tilida sodda fe'llar anglatgan ma'no miqdori jihatidan quyidagi guruhlarga bo'lindi:

- Ikki ma'noli fe'llar;
- Uch ma'noli fe'llar;
- To'rt ma'noli fe'llar;
- Besh va undan ortiq ma'noli fe'llar;

Bir leksemaga birlashgan ma'nolarning o'zaro munosabati ikki xil bo'ladi:

- 1) ma'no biri ikkinchisidan o'sib chiqqan bo'ladi.
- 2) ma'nolar biri ikkinchisidan o'sib chiqmagan bo'ladi

Manolari biri ikkinchisidan o'sib chiqqan fe'llarni bir nechta nuqtai nazardan o'rganish mumkin:

- A) ma'nolari qay tarzda bog'lanishi jihatidan yondashib;
- B) ma'nolari taraqqiy ettirish usullari jihatidan yondashib;

a) fe'l ma'nolari qay tarzda bog'lanishi jihatidan yondashuv

1. Ikki ma'noli fe'lar.

Biz tahlil qilgan sodda fe'llar orasida ikki ma'noli fe'llar eng kam qismni tashkil etdi.

Bu fe'llarning tahminan asosiy qismida ikkinchi ma'no birinchisidan o'sib chiqqan bo'ladi.

- نواخ 1) *chalmog*; 2) *urmoq*;
- مردن 1) *o'lmoq*; 2) *o'chmoq*;
- افزودن 1) *ko'paymoq*; 2) *ko'paytirmoq*;

2. Uch ma'noli fe'llar.

Bunday fe'llarning ko'pida ma'nolar biri ikkinchisidan o'sib chiqqan bo'ladi.

Ma'nolarning miqdori ikkitadan ortganda, albatta, ularning bog'lanishi ham murakkab tus oladi. Shu jihatdan fe'l ma'nolarining bog'lanishi ikki turli bo'ladi:

- 1) Ma'nolar o'zaro birin ketin bog'lanadi.

Bunda ma'nolarning bog'lanishi 1→2→3 shaklida bo'ladi.

شناختن

1) *tanimoq* (kimnidir); →2) *tanimoq* (nimanidir); →3) *anglab yetmoq, tushunmoq*;

2) keyingi ikki ma'noning har biri o'zicha birinchi ma'noga bog'lanadi:

1 | →2

1 | →3

پرسیدن

1) *so'ramoq*; | →2) *ma'lumot olmoq*;

1) *so'ramoq*; | →3) *kasal holidan xabar olmoq*;

دویدن

1) *yugurmoq*; | →2) *og'z. shoshilmoq*;

1) *yugurmoq*; | →3) *quvlamoq*;

3. To'rtma'nolife'llar.

Quyidagi to'rt ma'noli fe'llarda ma'nolar biri ikkinchisidan o'sib chiqqan. Bunda ma'nolarning bog'lanishi quyidagicha:

1) Keyingi uch ma'noning har biri o'zicha birinchi ma'noga bog'lanadi. Bu quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

1 | →2

1 | →3

1 | →4

کشتن

1) *o'ldirmoq* | →2) *o'chirmoq*

1) *o'ldirmoq* | →3) *bostirmoq*

1) *o'ldirmoq* | →4) *so'ndirmoq*

2) ma'nolari ikki xil: ham birin ketin, ham o'zicha bog'lanadi:

Bu fe'larning ikkinchi, uchinchi ma'nosi o'zicha birinchi ma'nosiga bog'lanadi, to'rtinchi ma'nosi esa uchinchi ma'nosiga bog'lanadi:

1 | →2

1 | →3 →4

ماتدن

1) *qolmoq*; | → 2) *to'xtamoq*;

1) *qolmoq*; | → 3) *tirikqolmoq*; → 4) *saqlanmoq*;

4. Besh va undan ortiq ma'noli fe'llar.

Sodda fe'llarning ma'no miqdori ortgan sari shu fe'l anglatayotgan ma'nolar munosabati murakkablashib boradi. Shunday holatni besh va undan ortiq ma'noli fe'llarda ham ko'rish mumkin. Bu fe'llarning ma'nolari bir biriga quyidagi usullar orqali bog'lanadi:

1) Fe'llarning barcha ma'nosi o'zicha birinchi ma'nosiga bog'lanib, quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

1 | → 2

1 | → 3

1 | → 4

1 | → 5 va h.

پریدن

1) *uchmoq, qanot qoqmoq*; | → 2) *uchib ketmoq*;

1) *uchmoq, qanot qoqmoq*; | → 3) *sakramoq*;

1) *uchmoq, qanot qoqmoq*; | → 4) *sakrab turmoq*;

1) *uchmoq, qanot qoqmoq*; | → 5) *yo'qolmoq, parlanib ketmoq*
(*hid, suyuqlik*);

1) *uchmoq, qanot qoqmoq*; | → 6) *titramoq, uchmoq*
(*ko'zi uchmoq*);

کشیدن

1) *tortmoq*; | → 2) *cho'zmoq*;

1) *tortmoq*; | → 3) *chizmoq (chiziq, rasm)*;

1) *tortmoq*; | → 4) *tortib o'tmoq (sim)*;

1) *tortmoq*; | → 5) *chiqarmoq*;

1) *tortmoq*; | → 6) *uzib olmoq*;

1) *tortmoq*; | → 7) *o'ziga jalb etmoq*;

1) *tortmoq*; | → 8) *o'lchamoq*;

1) *tortmoq*; | → 9) *siqmoq*;

1) *tortmoq*; | → 10) *solmoq (ovqatni)*;

1) *tortmoq*; | → 11) *chidamoq*;

1) *tortmoq*; | → 12) *davom etmoq, cho'zilmoq*;

- 1) *tortmoq*; | →13) *sixga termog*;
 1) *tortmoq*; | →14) *yetib bormog*;
 1) *tortmoq*; | → 15) *chekmog*.

گذشتن

- 1) *qo'ymog*; | →2) *tegmog*;
 1) *qo'ymog*; | →3) *belgi qo'ymog*;
 1) *qo'ymog*; | → 4) *qorovul qo'ymog*;
 1) *qo'ymog*; | →5) *bermog (birorto 'garak)*;
 1) *qo'ymog*; | →6) *tashlab ketmog*;
 1) *qo'ymog*; | →7) *ruxsat bermog*;
 1) *qo'ymog*; | →8) *soch, soqol o'stirmog*;

رفتن

- 1) *yurmog; ketmog; yo'lga tushmog*; | →2) *yaqinlashmog*;
 1) *yurmog; ketmog; yo'lga tushmog*; | → 3) *oqmog*;
 1) *yurmog; ketmog; yo'lga tushmog*; | →4) *botmog*;
 1) *yurmog; ketmog; yo'lga tushmog*; | →5) *tortmog, o'xshamog
(birorkimsaga)*;
 1) *yurmog; ketmog; yo'lga tushmog*; | →6) *o'chmog*;
 1) *yurmog; ketmog; yo'lga tushmog*; | →7) *ahd qilmog*;

گذشتن

- 1) *o'tmog (vaqt, voqea), o'tib ketmog*; | →2) *kesib o'tmog*;
 1) *o'tmog (vaqt, voqea), o'tib ketmog*; | →3) *o'tmog*;
 1) *o'tmog (vaqt, voqea), o'tib ketmog*; | →4) *kechib o'tmog*;
 1) *o'tmog (vaqt, voqea), o'tib ketmog*; | →5) *oqib ketmog*;
 1) *o'tmog (vaqt, voqea), o'tib ketmog*; | →6) *kimdandir o'tib
ketmog*;

2) ma'nolari ikki xil: ham birin ketin, ham o'zicha bog'lanadi:

Bu fe'llarning ikkinchi, uchinchi ma'nosi o'zicha birinchi ma'nosiga bog'lanadi, qolgan ma'nolari esa uchinchi yoki keyingi ma'nosiga bog'lanib, quyidagi ko'rinishlarga ega bo'ladi:

1 | 2

1 | 3 → 4 → 5 va h.

yoki

1 | → 2 → 3

1 | → 4
1 | → 5 → 6

خوابیدن

1) *uxlamoq*; | → 2) *yotmoq*;

1) *uxlamoq*; | → 3) *qaytmoq* (*shishning qaytishi*); → 4) *to'xtamoq*; → 5) *tinchlamoq*;

ساختن

1) *tayyorlamoq, ishlab chiqarmoq*; | → 2) *qurmoq, yaratmoq*;

1) *tayyorlamoq, ishlab chiqarmoq*; | → 3) *soxtalashtirmoq* (*hujjatlarni*); → 4) *chiqishmoq* (*biror kimsa bilan*); → 5) *til biriktirmoq*;

انداختن

1) *otmoq*; | → 2) *daraxtlarni chopmoq*; → 3) *o'tinyormoq*;

1) *otmoq*; | → 4) *yo'zmoq* (*dasturxon*);

1) *otmoq*; | → 5) *po'sttashlamoq*; → 6) *ag'darmoq*;

B) ma'noni taraqqiy ettirish usullari jihatidan yondashuv

Fe'l ma'nolarini o'zaro qiyoslab o'rganish ularning taraqqiyotida quyidagi ikki asosiy usul mavjudligin ko'rsatadi:

1) Tadbiq usuli.

Fe'l ma'nosi mavjud ma'noga xos liniyaning tadrijiy davomi sifatida, uning taraqqiyoti natijasida yuzaga keladi. Ma'noning bunday taraqqiy etishini ma'no taraqqiyotiga olib keluvchi ko'chirishning (metafora metanomiya kabilarning) birortasiga tenglashtirib bo'lmaydi. Bu usul ko'chirishga emas, tadbiqqa asoslanadi. Bunday usul bilan taraqqiy etib chiqqan ma'nolar ko'pchilikni tashkil qiladi. Quyidagi fe'llar ma'nolari ko'chma ma'no emas, balki bosh ma'noga bog'liq ma'nolarga ega fe'llar qatoriga kiradi:

پريدن 1) *uchmoq, qanot qoqmoq*; 2) *uchib ketmoq*; 3) *sakramoq*; 4) *sakrab turmoq*, 5) *yo'qolmoq, parlanib ketmoq* (*hid, suyuqlik*); 6) *titramoq, uchmoq* (*ko'zi uchmoq*).

Bu fe'lning bosh ma'nosi "*uchmoq*". Uning anglatadigan barcha ma'nolari *uchmoq* bilan bog'liq ma'nolar hisoblanadi.

پريدن (3,261) رو دوچرخه هامون و رفتيم

"Velosipedlarimizga *sakrab o'tirib, yo'lga tushdik*".

پريدن (4,67) آن شب تا صبح خوابهای آشفته دیدم و پریدم.

"O'sha tunda ertalabgacha yomon tushlar ko'rib, *cho'chib uyg'onib ketdim*".

1) *tortmoq*; 2) *cho'zmoq*; 3) *chizmoq* (*chiziq, rasm*); 4) *tortib o'tmoq* (*sim*); 5) *chiqarmoq*; 6) *uzibolmoq*; 7) *o'ziga jalb etmoq*; 8) *o'lchamoq*; 9) *siqmoq*; 10) *solmoq* (*ovqatni*); 11) *chidamoq*; 12) *davom etmoq, cho'zilmoq*; 13) *sixga termoq*; 14) *yetib bormoq*; 15) *chekmoq*.

Bu fe'l anglatuvchi barcha ma'nolar uning bosh ma'nosi "*tortmoq*" bilan bog'liq ma'nolardir. Quyidagi jumalarda keltirilgan *کشیدن* fe'li anglatgan ma'nolar barchasi bosh ma'noga bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

ماھیرا *کشید* رو قالی (4,263)

"*Baliqni gilam ustiga olib bordi*";

این سه تا بچه را با خون دل بزرگ کردم، نمیدانم چی *کشیدم* (4,69)

"*Bu uch bolani katta qilguncha nimalarni ko'rmadim*";

دایره ای که آقا روی تخته *کشیده بود* جلوی چشم چرخید (3,254)

"*Doskaga chizilgan doira ko'zim oldida aylana boshladi*";

برای خودش پلو *کشید* تو بشقاب (3,270)

"*Tarelkaga o'ziga palovdan soldi*";

گوشه اتاق نشسته و دارد قلیان میکشد (4,266)

"*Xona burchagida o'tirib qalyon chekyapti*";

Bunday ma'no taraqqiy etish hollarini quyidagi fe'llar misolida ham ko'rish mumkin.

1) *yurmoq; ketmoq; yo'lga tushmoq*; 2) *yaqinlashmoq*; 3) *oqmoq*; 4) *botmoq*; 5) *tortmoq, o'xshamoq* (*biror kimsaga*); 6) *o'chmoq*; 7) *ahd qilmoq*;

4,255) *رفتم* تو حیاط پای شیر

"*Hovlida vodoprovod yoniga bordim*";

4,257) *میگن* برین ماهی بخورین

"*Borib baliq yenglar deyishadi*";

4,254) کم کمک خرناسم *رفت* هوا

"*Asta sekin xurрак ota boshladim*";

1) uxlamog; 2) yotmog; 3) qaytmog (shishning); 4) to'xtamog; 5) tinchlanmog;

(3,189) روی تخت خوابیدم و منتظر ماندم

“*Kravatga yottim...*”;

(3,254) شکم حسابی دم کرد و قار و قورش خوابید

“*Qornim to'yib go'ldirashi to'xtadi*”;

1) otmog; 2) daraxtlarnichopmog; 3) o'tinyormog; 4) yozmog (dasturxon); 5) yopmog; 6) po'stashlamog; 7) ag'darmog; 8) og'z.tushirmog (aldamog); 9) og'z. tashlabketmog;

(3,261) حالا قالیرا تو حیاط انداخته بود

“*Endi gilamni hovliga opchiqib tashladi*”;

(3,269) زن آقای حیدری سفره را انداخت

“*Og'oye Haydarning ayoli dasturxon yozdi*”;

(4,265) چادرشرا انداخت سرش و از در خانه آمد بیرون

“*Boshiga chodirini tashlab, uydan chiqib ketti*”;

(3,266) رختخوابمرا انداختم و خوابیدم

“*Joyimni solib yottim*”;

1) yemog; 2) ichmog; 3) yutmog; 4) og'z. tushunarsizgapirmog; 5) o'zlashtiribolmog; 6) sport. yutqazmog; 7) mo'ljalgatushmog; 8) urilibketmog; 9) tegmog; 10) og'z. to'g'rikelmog

(4,256) روزی سه تا نهنگ هم بخوری چیزی نمیشه

“*Kuniga uchta nahang yesang ham hech narsa bo'lmaydi*”;

(3,255) حقش بود که دو تا چای پرمایه بخوریم که نخوردیم

“*Ikki piyola achchiq choy ichish kerak edi, ichmadik*”;

(4,255) چند قلب آب خوردم

“*Bir ikki qultum suv ichdim*”;

(4,270) سر انگشتهایم خورد به ماهی

“*Sekin baliqni ushlab ko'rdim (barmoqlarim baliqqa tegdi)*”;

2) Ko‘chirish usuli.

Bunday usul bilan taraqqiy etib chiqqan ma’nolar tadbiq usuli bilan taraqqiy etib chiqqan ma’nolarga nisbatan ozroq. Fe’l ma’nolarining taraqqiyotida ko‘chirishning faqat bir yo‘li - metafora mavjud. Bunda bir predmetga xos harakat boshqasiga ko‘chiriladi.

Quyidagi fe’llarning ma’nolari orasida ko‘chma ma’nolar ham mavjud. Buni keltirilgan misollar orqali ko‘rishimiz mumkin.

کشتن fe’li 1) *o‘ldirmoq*; 2) *o‘chirmoq*; 3) *bostirmoq*; 4) *so‘ndirmoq* kabi ma’nolarga ega. Lekin quyidagi jumlada *o‘ldirmoq* to‘g‘ri ma’noda emas, ko‘chma ma’noda ishlatilganini ko‘rish mumkin.

صبا؟ تو اينجايی؟ تو که منو کشتی (4,182)

“*Sabo sen shu yerdamisan? Meni o‘ldirib qo‘yay dedingku*”.

خودمرا کشتم و جان به جانش کردم که یک ذره از گوشت ماهی بگذارد تو دهانش (3,274)

“*Bir bo‘lak baliq go‘shidan tatib ko‘rish uchun yalinib yolvordim*”.

مردن fe’li *o‘lmoq* va *o‘chmoq* ma’nolariga ega. Lekin ushbu misolda fiziologik o‘lim emas, balki *xavotir olmoq*, *qiynalmoq* kabi ma’nolarni anglatib kelgan.

داشتم از نگرانی میمردم (3,183)

“*Xavotirdan o‘zimni qo‘yarga joy topa olmadim*”.

ساختن fe’lining 1) *tayyorlamoq*, *ishlab chiqarmoq*; 2) *qurmoq*, *yaratmoq*; 3) *soxtalashtirmoq* (*hujjatlarni*); 4) *chiqishmoq* (*biror kimsa bilan*); 5) *kelishib olmoq* kabi ma’nolari mavjud. Lekin quyidagi misollarda *to‘g‘ri kelmoq* ma’nosida ishlatilganini ko‘rish mumkin.

این چیزی به ما نمیسازه (3,257)

“*Bunaqa narsalar bizga to‘g‘ri kelmaydi*”.

هر چیزی به هر کس نمیسازه (3,271)

“*Har narsa har bir kishiga to‘g‘ri kelavermaydi*”.

خواندن fe’li 1) *o‘qimoq*; 2) *o‘rganmoq*; 3) *kuylamoq*; 4) *chaqirmoq*; 5) *og‘z. moskelmoq*; 6) *nomlamoq*; 7) *o‘lchamoq* kabi ma’nolarga ega. Uning ko‘chma ma’noda ishlatilgan *javranoq* ma’nosi quyidagi misolda ko‘rinadi.

نسیم هم مدام زیر گوشت میخواند: ... (4,71)

“*Nasim ham tinmay javrardi...*”.

شکستن fe'lining 1) *sindirmoq (sinmoq), buzmoq (buzilmoq)*; 2) *qonunni buzmoq*; 3) *tinchlikni buzmoq*; 4) *harorat tushmoq* kabi ma'nolari mavjud. Quyidagi jumlada uning to'g'ridan to'g'ri *sindirmoq* emas, balki ko'chma ma'nosi aks etadi.

(4,74) با این سیلی دنیای زیبا و معصوم شکست

“*Shu tarsaki bilan mening ma'sum va go'zal dunyoyimni vayron qildi*”.

Peppermint, a medicinal plant containing essential oils, contains 2.75% essential oil in its leaves, 4.60% in its flowers, and 0.3% in its stems.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 20 майда қабул қилинган “Доривор ўсимликларни маданий ҳолда етиштириш ва қайта ишлаш ҳамда даволашда улардан кенг фойдаланишни ташкил етиш”даги 251 сон қарори. Тошкент. 2022.
2. Государственная фармакопея. ХИ издание. Выпуск 1. Общие методы анализа. 1987. М. С. 285.
3. Государственная фармакопея. ХИ издание. Выпуск 2. Общие методы анализа. 1987. М. С. 295-324.
4. Begmatova M., O'ralova S. Subject: some biological characteristics of cherry (*hypericum perforatum* l) planted in different crop schemes //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 51-58.
5. Бегматова М. Х., Уроқов А. У. Лекарственные свойства и фитохимический состав условиях *hypericum perforatum* интродукции //Eurasian Journal of Academic Research. – 2021. – Т. 1. – №. 9. – С. 177-182.

6. Бегматова М. Х., Мусурмонова Н. Х. *Hypericum perforatum* изучен в почвенно-климатических условиях при условии интродукции //Eurasian Journal of Academic Research. – 2021. – Т. 1. – №. 9. – С. 183-186.
7. Фарманов Н. и др. Далачой (*Hypericum perforatum* L.) ни дориворлик хусусиятлари ва кимёвий таркиби //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 59-64.
8. Бегматова М.Х. Далачой (*Hypericum perforatum* L.) ning морфо- биологик хусусиятлари. Диссертация // Самарканд 2021 й.-127 б.
9. Аралов Атлас и ресурсов лекарственных растений . Москва, 1976.
10. Ataboeva X., N. va boshqalar. O‘simlikshunoslik. T., “Fan” nashriyoti, 1995.
11. Акопов И.Э. «Важнейшие отечественные Лекарственные растения и их применение» Справочник - Ташкент-1990 й. 38 бет.

STUDYING EFFECTIVE METHODS FOR OBTAINING INDIGO DYE FROM THE INDIGOFERA L PLANT TRADITIONALLY

Khushnodbek Eshchanov Odilbekovich

Urgench State University

Doctor of Philosophy in Chemistry (PhD)

olmos_77@mail.ru

Gayrat Yakubov Kuvandikovich

Urgench State university, Associate professor

E-mail: gayratindigoae@gmail.com

Manzura Nurullayeva Shavkatovna

Urgench State university, Doctor of Philosophy in Biological Sciences (PhD)

E-mail: manzura646@gmail.com

Oydin Zaripova

Urgench State university, Student of the Department of Chemistry

E-mail: oydinzaripova2@gmail.com

ABSTRACT

In this article, the use of natural dyes and the creation of methods for their effective extraction, as well as the extraction of indigo dye from the Indigofera tinctoria L plant traditionally grown in the Khorezm region during our research, and the indigo dye particles in solution after product extraction options are provided. Extraction of indoxyl- β -D-glucoside from the leaves of Indigofera tinctoria L plant was carried out in aqueous medium, and hydrolysis of indoxyl- β -D-glucoside released into the solution was carried out with the presence of β -glucosidase enzyme. Lactobacillus acidophilus bacteria were used to obtain β -glucosidase enzyme. According to the obtained results, the formation of dye was observed in the remaining solution even after the indigo dye was extracted. In order to solve these problems, we conducted research.

Keywords: *Indigofera tinctoria L, indigo, solution, indican, β -glucosidase, extraction, Lactobacillus acidophilus, indoxyl.*

ИЗУЧЕНИЕ ЭФФЕКТИВНЫХ МЕТОДОВ ПОЛУЧЕНИЯ КРАСИТЕЛЯ ИНДИГО ИЗ РАСТЕНИЯ ИНДИГОФЕРА ТРАДИЦИОННЫМ СРЕДСТВОМ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрено использование природных красителей и создание методов их эффективного извлечения, а также извлечение красителя индиго из растения Indigofera tinctoria L, традиционно выращиваемого в

Хорезмской области во время наших исследований, и частиц красителя индиго. В растворе после предоставления вариантов экстракции продукта. Экстракцию индоксил- β -D-глюкозида из листьев растения *Indigofera tinctoria* L проводили в водной среде, а гидролиз выделившегося в раствор индоксил- β -D-глюкозида осуществляли в присутствии фермента β -глюкозидазы. Для получения фермента β -глюкозидазы использовали бактерии *Lactobacillus acidophilus*. Согласно полученным результатам, образование красителя наблюдалось в оставшемся растворе даже после экстракции красителя индиго. Для решения этих проблем мы провели исследование.

Ключевые слова: *Indigofera tinctoria* L, индиго, раствор, индикан, β -глюкозидаза, экстракция, *Lactobacillus acidophilus*, индоксил.

INTRODUCTION

Today, the production and use of synthetic dyes cause many environmental and everyday problems. Due to the pollution caused by the production and use of many synthetic dyes, there is a renewed interest in obtaining and using natural dyes that do not harm the environment. The use of indigo dye obtained by synthetic and natural methods is still a large part. The use of synthetic dyes can cause harmful effects on the environment and the human body. It encourages research on the use of natural dyes and energy-saving methods to avoid harming the natural environment.

Natural indigo dye can be obtained from tropical and subtropical plants belonging to the genus *Indigofera* [1-8]. In our experiments, it was found that the biomass of the *Indigofera tinctoria* L plant is used as a raw material in indigo dye, and the concentration of dye compounds in the leaves is high. In the *Indigofera* plant, Indigo dye is not found in the plant as a free form, but in the form of an indican (indoxyl- β -D-glucoside) compound. Extraction of indigo from plant biomass involves several steps; indican located in cell vacuole is released from plant biomass by water and fermentation, and β -glucosidase enzyme hydrolyzes indican into indoxyl and glucose[2].

The formation of indigo is observed when two molecules of indoxyl combine in the presence of oxygen in an alkaline environment [3]. Under the catalytic of the β -glucosidase enzyme, inhibitions were carried out at different temperatures and pH values of the medium to hydrolyze the indican contained in the *Indigofera* plant. In these studies, the process's duration is very long and is 10–36 hours [4-6].

Taking into account the research data presented above, experiments were conducted to obtain indigo from the plant *Indigofera tinctoria* L traditionally.

MATERIALS AND EQUIPMENT

Dried indigofera leaves, distilled water, 0.1 N NaOH solution, *Lactobacillus acidophilus* colony, dimethylformamide, Bante 210 digital stationary pH meter, 1 L conical flask, 1 L beaker, digital magnetic stirrer hot plate (MS7-H550-S, China), Schott funnel, 6 50 ml volumetric flasks, 200 ml volumetric flask, UV-1800 Shimadzu spectrophotometer.


SEPARATION OF INDIGO DYE

10 g of dried Indigofera leaves were cut and placed in a 1 L flask, 150 ml of distilled water was poured over it, and extraction was carried out for 90 minutes at a temperature of 50°C. After the plant mass in the flask was mixed with water, 1 ml of the *Lactobacillus acidophilus* colony was added to the mixture in the flask and placed in a thermostat at a temperature of 37°C for 24 hours. At the end of the specified time, the solution in the flask passes through a Schott funnel and separates. 0.1 N NaOH solution was added until the pH of the solution reached 8-8.5. Air was passed for 1-1.5 hours until blue precipitates were formed through the solution, the pH indicator of which was brought to the specified value. The blue precipitates were separated by filtration. The mass of the obtained sample was measured on an analytical balance.

RESULTS AND DISCUSSION

It is released as a result of the extraction of indoxyl-β-D-glucoside contained in the Indigofera plant into an aqueous solution at a temperature of 50°C. The reason for keeping the mixture in a thermostat for 24 hours at a temperature of 37°C is that it is most convenient for *Lactobacillus acidophilus* bacteria to multiply at this temperature [7]. Indoxyl and glucose are formed due to the hydrolysis of indoxyl-β-D-glucoside released from the plant mass into the aqueous environment with the participation of the β-glucosidase enzyme produced by *Lactobacillus acidophilus* bacteria.

As a result of the oxidation of indoxyl formed during hydrolysis under the influence of air oxygen, indigo dye material is formed. The resulting blue indigo dye substance precipitates in the solution.



Indigo dye is slightly soluble in water and relatively well soluble in chloroform, concentrated sulfuric acid, nitrobenzene, and dimethylformamide. Therefore, indigo precipitates in water.

The indigo precipitate was quickly separated by filtration, and the mass of the precipitate was measured on an analytical balance. Based on the above experiments, it was found that the amount of indigo dye extracted from the *Indigofera tinctoria L* plant grown in the Khorezm region is on average 0.2-0.3 g per 10 grams of leaf in laboratory conditions. It has been shown that 30-60 kg of indigo can be obtained on average from 1 ton of leaves in different phases of the plant, depending on the ontogeny periods.

When studying the processes of obtaining indigo dye traditionally obtained from the *Indigofera* plant, parts of the indigo dye were observed in the plant residues and the filtrate.

It is possible to increase the productivity of the product by extracting the indigo dye that is formed over time. Therefore, it is possible to obtain more dye than the 0.2-0.3 g mass of indigo dye obtained by the traditional method. Researching obtaining indigo dye from the *Indigofera* plant faster, in less time and a productive amount is one of the urgent issues. Therefore, research is being conducted to increase the activity of *Lactobacillus acidophilus* bacteria and the β -glucosidase enzyme produced in it to obtain indigo dye productively.

CONCLUSION

When the indigo dye obtained by the traditional method was obtained, it was observed that the dye sample was formed again over time in the plant residues and in the solution. This situation shows that it is possible to obtain more mass of paint than the mass of paint obtained by the traditional method. A low-energy and efficient method is required to perform this task. We are conducting new research to address these issues.

REFERENCES

1. Martin-Leake, H. (1975). An historical memoir of the indigo industry of Bihar. *Economic Botany*, 29(4), 361-371.
2. Minami, Y., Takao, H., Kanafuji, T., Miura, K., Kondo, M., Hara-Nishimura, I., ...& Matsubara, H. (1997). β -Glucosidase in the Indigo Plant: Intracellular Localization and Tissue Specific Expression in Leaves. *Plant and cell physiology*, 38(9), 1069-1074.

3. Maugard, T., Enaud, E., Sayette, A. D. L., Choisy, P., & Legoy, M. D. (2002). β -Glucosidase-Catalyzed Hydrolysis of Indican from Leaves of *Polygonum tinctorium*. *Biotechnology progress*, 18(5), 1104-1108.
4. Doke Jr, J. M. (2005). An improved and efficient method for the extraction of phycocyanin from *Spirulina* sp. *International Journal of Food Engineering*, 1(5), 1-2.
5. Gillam, E. M., Notley, L. M., Cai, H., De Voss, J. J., & Guengerich, F. P. (2000). Oxidation of indole by cytochrome P450 enzymes. *Biochemistry*, 39(45), 13817-13824.
6. Gillam, E. M., & Guengerich, F. P. (2001). Exploiting the versatility of human cytochrome P450 enzymes: the promise of blue roses from biotechnology. *IUBMB life*, 52(6), 271-277.
7. Huang, Z., Zhou, X., Stanton, C., Ross, R. P., Zhao, J., Zhang, H., ... & Chen, W. (2021). Comparative genomics and specific functional characteristics analysis of *Lactobacillus acidophilus*. *Microorganisms*, 9(9), 1992.
8. Ergashev, A., Eshchanov, R., Yakubov, G., Turdieva, N., Turaeva, N., & Urinova, H. (2014). Abiotechnology of *Indigofera tinctoria* L. on the saline land of Aral Sea Basin and producing of the natural plant indigo pigment for the industry. *Journal of Chemistry and Chemical Engineering*, 8(7).

COVID 19 PANDEMIYASI DAVRIDA VUJUDGA KELGAN NEOLOGIZMLAR

Nasirova Moxigul Furkatovna

SamDChTI, Ingliz tili leksikologiyasi va stilistikasi

kafedrasi o'qituvchisi

Tel: +998915292508

ANNOTATSIYA

Maqolada COVID-19 pandemiyasi davrida paydo bo'lgan neologizmlar haqida ma'lumot berilgan. Pandemiya davrida "Koroneologizm" atamasi tilshunoslik atamalari qatoriga kiritildi. Bugungi kungacha koroneologizmlar bir qancha xorijiy olimlari tomonidan ma'lum darajada o'rganilgan, ammo o'zbek tadqiqotchilari tomonidan bu mavzu deyarli tadqiq etilmagan. Maqolani yozishdan asosiy maqsad ingliz, rus va boshqa tillar tarkibidagi koroneologizmlarni tadqiq etish, ularning o'zbekcha ekvivalentlarini muayyan qilish hamda koroneologizmlar tarjimasiga bog'liq muammolarni bartaraf etishdan iborat.

***Kalit so'zlar:** Neologizm, sotsiolingvistika, koroneologizm, COVID-19, pandemiya, leksikografiya, etimologiya.*

НЕОЛОГИЗМЫ, ВОЗНИКШИЕ ВО ВРЕМЯ ПАНДЕМИИ COVID-19

Носирова Мохигул Фуркатовна

Преподаватель кафедры английской
лексикологии и стилистики СамГИИЯ

Tel: +998915292508

АННОТАЦИЯ

В статье представлена информация об неологизмах появившихся во время пандемии COVID-19. В период пандемии в перечень лингвистических терминов был включен новый научный термин «коронеологизм». К настоящему времени коронеологизмы в той или иной мере изучены рядом зарубежных ученых, но узбекскими исследователями эта тема практически не изучена. Основной целью написания статьи является исследование коронеологизмов в английском, русском и других языках, определение их узбекских эквивалентов.

***Ключевые слова:** Неологизм, социоллингвистика, коронеологизм, COVID-19, пандемия, лексикография, этимология.*

NEOLOGISMS ARISING DURING THE COVID-19 PANDEMIC

Nasirova Moxigul Furkatovna

Lecturer at the Department of English

Lexicology and Stylistics, SamSIFL

Tel: +998915292508

ABSTRACT

The article provides information about neologisms that appeared during the COVID-19 pandemic. During the pandemic, a new scientific term “coroneologism” was included in the list of linguistic terms. To date, coroneologisms have been studied to some extent by a number of foreign scientists, but this topic has practically not been studied by Uzbek researchers. The main purpose of writing the article is to study coroneologisms in English, Russian and other languages, to determine their Uzbek equivalents.

Key words: *Neologism, sociolinguistics, coroneologism, COVID-19, pandemic, lexicography, etymology.*

KIRISH

Dunyoning deyarli barcha tillariga COVID-19 pandemiyasining dastlabki daqiqalaridan boshlab ta'sir ko'rsatildi, chunki pandemiya davrida turli jargonlar va texnik atamalardan foydalanish va amaliyotda tadbiq etish boshlandi. Butun dunyo bo'ylab karantin paytida uyda qolgan insonlar turli tillarda COVID-19 pandemiyasi bilan bog'liq neologizmlar (koroneologizmlar)ni yaratishni boshladilar. Bu ommaviy axborot vositalari orqali butun dunyo bo'ylab tarqala boshladi va ularning ba'zilari hatto rasmiy tilga kirdi. Ushbu tadqiqot ishimiz turli xil elektron bazalardagi ma'lumotlarga hamda bir qancha tilshunos olimlarning tadqiqot ishlariga asoslangan holda ingliz va o'zbek koroneologizmlarini o'rganishga yo'naltirildi. Ushbu tadqiqot ingliz va o'zbek tillarida sotsiolingvistika, korpus tilshunosligi, leksikografiya, etimologiya va nutq uslublari yo'nalishlari bo'yicha faoliyat olib boradiganlar uchun muhim sanaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

COVID-19 pandemiyasi jamiyatning sog'liqni saqlash, ta'lim, til va madaniyat jihatlariga ta'sir ko'rsatgani ma'lum. Karantinda qolgan shaxslarning aksariyati, bir-birlari bilan onlayn muloqotda bo'lib, o'ylab topilgan lug'at va yangi atamalardan foydalanishni boshladilar. Ushbu yaratilgan so'zlarning ba'zilari turli lug'atlarga kiritildi, chunki ularning qo'llanish chastotasi va jamiyatga ta'siri yuqori. Neologizm so'zi bu yaratilgan yangi so'zlar, atamalar va iboralarni ifodalovchi atamadir. Neologizm bu til foydalanuvchilari tomonidan qabul qilingan yoki qabul qilish

jarayonida bo‘lgan so‘zlar deb ta’riflanadi.¹⁰² Neologizmlar butun dunyo bo‘ylab ommaviy axborot vositalari va onlayn aloqa orqali tarqaladi va protologizmlardan farqli o‘laroq, ular ixtirochilarning shaxsiy yoki kichik jamoada foydalanishi bilan chegaralangan bo‘lib, ular lug‘atlarga kiritilmagan. Koroneologizmlar COVID-19 pandemiyasi davrida ishlab chiqilgan neologizmlar hisoblanadi.¹⁰³

Pandemiya davrida vujudga kelgan bir qator yangi so‘z va iboralar va ularning tavsifini quyidagi tarzda bayon qilishimiz mumkin:

Biosurveillance (Bionazorat) - bu asosan AQShda Milliy xavfsizlik xizmati tomonidan o‘rnatilgan kuzatuv kameralari orqali COVID-19 pandemiyasi davrida infeksiyalangan yoki sog‘lom shaxslarning harakatlarini kuzatishni anglatadi. U AQShda, xususan, COVID-19 cheklovlarini buzmoqchi bo‘lgan shaxslarni aniqlash uchun keng qo‘llanilgan.

“Koronavirus karantini” - bu Covid-19 pandemiyasi tufayli odamlarning uyda qolishga majbur bo‘lgan vaqt davri. Shu davrda butun O‘zbekiston bo‘ylab eng ko‘p ishlatilgan ibora “uyda qol” iborasi edi. Buni dunyoning barcha tillaridagi ekvivalentlari mavjud.

“Niqoblar rejimi” - Covid-19 tarqalishining oldini olish uchun jamoat joylarida niqob taqish talabi.

“Masofaviy o‘qitish” - bu talabalar Internet orqali bilim oladigan va Covid-19 pandemiyasi tufayli maktabga bormaydigan ta’lim shaklidir.

"Covidiot" - bu xavfsizlik qoidalarini e’tiborsiz qoldiradigan va Covid-19 tahdidini jiddiy qabul qilmaydigan odam. Bu avval rus tilida paydo bo‘lib keyin boshqa tillarga o‘tgan.

"Kovidfobiya" - bu Covid-19 yuqishidan qo‘rqish, jamoat joylaridan qochish va ijtimoiy izolyatsiyaga tegishli yangi so‘zdir.

"Covid shoki" - bu Covid-19 pandemiyasi va uning oqibatlaridan kelib chiqqan stress va shok holati.

“Covid pasporti” - sayohat qilish va jamoat joylariga tashrif buyurish uchun Covid-19 ga antikorlar mavjudligini yoki infeksiya uchun salbiy test natijasini tasdiqlovchi hujjat.

"Covid qahramoni" - tibbiyot xodimi yoki Covid-19 ga qarshi kurashning oldingi safida ishlaydigan mutaxassis.

"Covid testi" - bu nazofarengal tampon yoki so‘lak testi yordamida o‘tkaziladigan Covid-19 infeksiyasining mavjudligi.

¹⁰² Levchenko, Y. (2010). Neologism in the lexical system of modern English. Munchen, Germany: GRIN Verlag.

¹⁰³ Roig–Marin, A. (2020). English-based Coroneologisms: A short survey of our COVID-19-related vocabulary. English Today, 15(3), 1-3. Doi:10.1017/S0266078420000255.

“Covid protokoli” - jamoat joylari va tashkilotlarda Covid-19 tarqalishining oldini olish uchun ishlab chiqilgan chora-tadbirlar va qoidalar majmui.

“Covid vaksina pasporti” - Covid-19 ga qarshi emlanganligini tasdiqlovchi hujjat.

"Covid xavfi" - Covid-19 yuqtirish yoki infeksiya tashuvchisiga aylanish ehtimoli.

"Covid-lockdown" - Covid-19 ga qarshi kurashish uchun joriy etilgan harakat va jamoat joylarining ishlashiga qat'iy cheklovlar.

"Covid klaster" - bu ma'lum bir joyda yoki tashkilotda Covid-19 bilan kasallangan odamlar guruhi.

"Covid resurs" - Covid-19 bilan kurashish uchun zarur bo'lgan tibbiy va boshqa resurslar, masalan, tibbiy asbob-uskunalar, dori-darmonlar va xodimlar.

“Covid pass” - bu Covid-19 pandemiyasi davrida muayyan joylar yoki tashkilotlarga tashrif buyurish uchun talab qilinadigan hujjat.

"Covid inqirozi" - Covid-19 pandemiyasi tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy va ijtimoiy inqiroz.

“Covid monitoring” – Covid-19 tarqalishi va uning oqibatlarini kuzatish tizimi.

“Covid ekspert” - Covid-19 va uning oqibatlariga qarshi kurashda bilim va tajribaga ega mutaxassis.

“Ijtimoiy masofa” bu Covid-19 yuqish xavfini kamaytirish uchun qabul qilingan chora bo'lib, u odamlar orasidagi masofani saqlashdan iborat.

“Niqob majburiyati” - Covid-19 tarqalishining oldini olish uchun niqob kiyish talabi.

“Karantin jarimalari” - Covid-19 pandemiyasi davrida karantin qoidalarini buzganlarga nisbatan qo'llaniladigan jarimalar.

"Covid-19 uchun test" - bu organizmda virus mavjudligini aniqlash jarayoni. Shu bilan birga vaksinaning turli ko'pligi uchun ularni har biri yangi so'z sifatida tillar tarkibiga kirib keldi. Masalan Moderna, Sputnik va h.k.

"Covid statistikasi" - Covid-19 tarqalishi va uning oqibatlari, masalan, yuqtirganlar va o'limlar soni haqidagi ma'lumotlar.

"Covid Fond" - bu Covid-19 va uning oqibatlariga qarshi kurashda yordam berish uchun yaratilgan moliyaviy resurs.

“Covid iqtisodiyoti” – Covid-19 pandemiyasining iqtisodiy oqibatlari va ularni yumshatish choralari.

"Covid volunteer" - bu Covid-19 ga qarshi kurashda ixtiyoriy ravishda qatnashadigan va muhtojlarga yordam ko'rsatadigan shaxs.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kungacha koroneologizmlar ingliz, rus, turk, arab, fors tadqiqotchilari hamda boshqa mamalakatlar olimlari tomonidan ma`lum darajada o`rganilgan, ammo o`zbek tadqiqotchilari tomonidan bu mavzu deyarli tadqiq etilmagan. Suning uchun ingliz, rus va boshqa tillar tarkibidagi koroneologizmlarni tadqiq etish, ularning o`zbekcha ekvivalentlarini muayyan qilish hamda koroneologizmlar tarjimasiga bog`liq muammolarni bartaraf etish tilshunosligimizdagi muhim masala hisoblanadi. Bundan tashqari o`zbekcha koroneologizmlarning boshqa tillardagi ekvivalentlarini aniqlash dolzarb masala deb bilamiz.

ADABIYOTLAR RO`YXATI (REFERENCES)

1. Akut, K. B. (2020). Morphological analysis of the neologisms during the COVID-19 pandemic. *International Journal of English Language Studies*, 2(3),1-7.
2. Levchenko, Y. (2010). *Neologism in the lexical system of modern English*. Munchen, Germany: GRIN Verlag.
3. Mallinson, C., Childs, B., & Van Herk, G. (2013). *Data collection in sociolinguistics: Methods and applications*. California, US: Routledge.
4. Mattiello, E. (2018). *Analogy in Word-formation*. Berlin, Germany: De Gruyter Mouton. Doi:10.1515/9783110551419
5. Piller, I., Zhang, J., & Li, J. (2020). Linguistic diversity in a time of crisis: Language challenges of the COVID-19 pandemic, *Multilingua*, 39(5), 503-515. Doi:10.1515/multi-2020-0136.
6. Plag, I. (2018). *Word-formation in English*. Cambridge, UK: Cambridge University Press.
7. Roig-Marín, A. (2020). English-based Coroneologisms: A short survey of our COVID-19-related vocabulary. *English Today*, 15(3), 1-3. Doi:10.1017/S0266078420000255.
8. Семерджи́ди В.Н. Коронеологизмы и способы их образования / Актуальные аспекты лингвистики, лингводидактики и межкультурной коммуникации, Краснодар, 2021.
9. Т.А Бунина, М.В Гринева, О новом по-старому: коронеологизмы в английском языке // - НОВЫЙ ЯЗЫК. НОВОЕ МЫШЛЕНИЕ, 2021
10. Katermina, V., & Yachenko, E. (2020). Axiology of COVID-19 as a linguistic phenomenon in English mass media discourse. *Advances in Journalism and Communication*, 8(10), 59-67. Doi:10.4236/ajc.2020.82005
11. Khalfan, M., Batool, H., & Shehzad, W. (2020). COVID-19 neologisms and their social use: An analysis from the perspective of linguistic relativism. *Linguistics and Literature Review*, 6(2), 117-129.

FOTOEFFEKT QONUNLARINI O‘RGANISH

Aslonov Xayrullo Shukrullo o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Rasulova Shodiyaxon Anvarjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti “Aniq fanlar” fakulteti , Fizika va astronomiya yo‘nalishi 3-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Fotoeffekt, elektromagnetik dasturlar nazorati bilan ishlaydigan effekt hisoblanadi. U yuqori energiyali fotonlar bilan bir nechta atomlarda ta'qiqlanadi va elektronlar uchun bilimlangan energiya darajalari ko'rsatadi. Fotoeffektida elektronlar fotonlar bilan zamonda ta'qiqlanganda atom tugarak odamning energiyasini ixtiyoriy darajalarda ortda solishlari mumkin. Fotoeffektning qonunlaridan biri, fotoelektrik effektida ta'sirga tushgan foton energiyasining keskinlarosiylikda eng kamini (minimal) bo'lishi qonuni hisoblanadi. Bu qonun bo'yicha, fotonlar vakuumning taliqli atmosferasi ostida boshqa narsaga ta'sir etishmaydi, balki yuqori energiyali fotonlar kamaymaydigan energiya bosimi qo'yadigan bir katlarda ta'sir ko'rsatadi. Bu minimal energiya fotosi natijasida yuksak energiyali foton vazxonasidan, biron bir atomdan bo'sh atomigacha foto atomning yosh bor elektronigacha foto atomning o'xshashish energiyaning vakumning taliqli atmosfera vazni ostida ko'rsatilishi abbreviatsiyaning maksimal debi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: *Materialning xususiyatlari, Elektron energiyasi, Yorug'likning intensivligi, Elektron chiqish tezligi, Yorug'lik energiyasi miqdori, yorug'lik material yuzasiga tushganda elektronlarning chiqishi. Bu effekt 1905 yilda Albert Eynshteyn tomonidan ilgari surilgan fotoelektrik effekt tenglamalari bilan izohlanadi. Fotoelektrik effektning asosiy qoidalari. Bu qoidalar fotoelektrik effektни tasvirlashda foydalaniladigan asosiy tamoyillardir. Fotoelektrik effekt turli xil ilovalarda, masalan, quyosh panellarida yoki fotoelektrik batareyalarda energiya konvertatsiyasi uchun ishlatiladi.*

АННОТАЦИЯ

Фотоэффект – эффект, работающий под управлением электромагнитных программ. Он запрещен фотонами высокой энергии в нескольких атомах и показывает известные уровни энергии для электронов. В фотоэффекте, когда электроны сталкиваются с фотонами во времени, атомы могут перегонять энергию человека на произвольных уровнях. Одним из законов фотоэффекта является закон о том, что энергия фотона, испытывающего фотоэффект, наименьшая (минимальная) в напряжении.

Согласно этому закону, в плотной атмосфере вакуума фотоны не влияют ни на что другое, а фотоны высокой энергии воздействуют на слои, оказывающие неубывающее энергетическое давление. В результате этой фотографии с минимальной энергией, из высокоэнергетической фотонной клетки, от любого атома к пустому атому и к молодому электрону фотоатома, энергия подобия фотоатома проявляется при идеальном атмосферном давлении вакуума.

Ключевые слова: *Свойства материала, Энергия электронов, Интенсивность света, Скорость эмиссии электронов, Количество энергии света, Эмиссия электронов при попадании света на поверхность материала. Этот эффект объясняется уравнениями фотоэффекта, выдвинутыми Альбертом Эйнштейном в 1905 году. Основные правила фотоэффекта. Эти правила являются основными принципами, используемыми для описания фотоэлектрического эффекта. Фотоэлектрический эффект используется для преобразования энергии в различных приложениях, таких как солнечные панели или фотоэлектрические батареи.*

ABSTRACT

The photoeffect is an effect that works with the control of electromagnetic programs. It is forbidden by high-energy photons in several atoms and shows known energy levels for electrons. In the photo effect, when electrons collide with photons in time, atoms can overtake a person's energy at arbitrary levels. One of the laws of the photoeffect is the law that the energy of the photon affected by the photoelectric effect is the least (minimum) in the tension. According to this law, photons do not affect anything else under the dense atmosphere of a vacuum, but high-energy photons affect layers that exert a non-decreasing energy pressure. As a result of this minimum energy photo, from a high-energy photon cage, from any atom to an empty atom to a young electron of a photo atom, the photo atom's similarity energy is shown under the vacuum's ideal atmospheric pressure.

Key words: *Material properties, Electron energy, Light intensity, Electron emission rate, Light energy amount, Electron emission when light hits the surface of the material. This effect is explained by the photoelectric effect equations put forward by Albert Einstein in 1905. Basic rules of the photoelectric effect. These rules are the basic principles used to describe the photoelectric effect. The photoelectric effect is used for energy conversion in various applications, such as solar panels or photovoltaic batteries.*

KIRISH

Elektromagnit nurlar ta'sirida moddadan elektronlarning ajralib chiqishiga fotoeffekt hodisasi deyiladi. Fotoeffekt hodisasini birinchi marta 1887-yilda G. Gers

kuzatgan. Gers razryadli ochiq konturda elektr tebranishlarini uyg'otish orqali elektron magnit to'liqlar generatsiyasini hosil qilishda katodni ultrabinafsha nurlar bilan yoritilganda, razryadnikning metall elektrodleri orasida uchqunning uzunligi ortishini kuzatgan yoki boshqacha aytganda, metall elektrodga tushayotgan ultrabinafsha nurlar katod va anod orasida hosil boladigan uchqunning uzunligini orttiradi. Kuzatilgan bunday hodisaning mohiyati V. Galvaks, A. Stoletov, P. Lenard va boshqa olimlarning bu borada o'tkazgan tajribalarida tushuntirildi. Gers kuzatgan hodisaning mohiyati shundan iboratki, manfiy zaryadlangan katodni ultrabinafsha nurlar bilan yoritilganda katod manfiy zaryadini yo'qotishi kuzatilgan. Musbat zaryadli anod yoritilganda zaryad yo'qotilishi kuzatilmagan.


ADABIYOTLAR SHARHI

1897-yilda Dj. Tomson elektronni kashf qildi. 1898-yilda Tomson va Lenardlar o'tkazgan tajribalarida modda yoritilganda undan ajralib chiqayotgan zarralarning magnit maydonida og'ishiga asoslanib, ularning solishtirma zaryadini (e/m kattalikni) aniqladilar. Bu bilan yorug'lik ta'sirida katoddan ajralib chiqadigan zarralar manfiy zaryadli elektronlar ekanligi aniqlandi. Yorug'lik ta'sirida (ultrabinafsha, ko'zga ko'linadigan, infraqizil va boshq.) metallardan elektronlarning ajralib chiqishi fotoelektrik effekt yoki fotoeffekt deb ataldi. Yorug'lik ta'sirida metallardan ajralib chiqqan elektronlar fotoelektronlar deyildi. Fotoeffekt - yorug'lik materiya bilan o'zaro ta'sir qiladigan va elektronlar ajralib chiqadigan fizik hodisa. Bu hodisa 1905 yilda Albert Eynshteyn tomonidan ilgari surilgan nazariya bilan izohlangan va bu nazariya uchun u oxir oqibat Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan. Fotoeffektning asosiy qoidalari: Yorug'lik energiyasi fotonlar deb ataladigan energiya paketlarida tashiladi. Foton energiyani elektronlarga o'tkazadi. Elektronning ajralishi uchun yutilgan fotonning energiyasi chegara qiymatidan yuqori bo'lishi kerak. Energetik fotonlar materiya bilan uchrashganda elektronlarni chiqaradi. Ozod qilingan elektronlar fotoelektronlar deb ataladi. Fotoelektronlarning kinetik energiyasi yutilgan foton energiyasi bilan modda bilan o'zaro ta'sir qilishning turi va xossalari o'rtasidagi bog'liqlikda bo'ladi. Fotoelektronlarning kinetik energiyasini oshirish mumkin emas. Agar fotonning energiyasi yetarlicha yuqori bo'lsa, ortiqcha energiya elektronning potentsial energiyasi sifatida so'rilgan energiya miqdorini oshiradi. Amalda, fotoeffekt fotografiya, quyosh energiyasi, optik sensorlar va turli xil tahlil usullari kabi ko'plab sohalarda muhim ro'l o'ynaydi. Fotoeffekt - yorug'likning metallar kabi moddalar bilan o'zaro ta'sir qilish, elektronlarni chiqarish hodisasi. Fotoelektrik hodisani Albert Eynshteyn o'z tadqiqotida tushuntirib bergan va ba'zi asosiy qoidalarga ega. Tekshirilayotgan moddaga tushadigan yorug'lik chastotasi elektronlarning ajralishi uchun zarur bo'lgan minimal energiya darajasini belgilaydi.

Bu holat fotoelektrik chegara deb ataladi. Fotoelektrik effektda metall yuzasidagi atomlarga energiya o'tkazish orqali elektronlar ajralib chiqadi. Buning uchun yorug'lik energiyasi atom yoki kristall tuzilishdagi elektronlardan yuqori bo'lishi kerak. Fotoeffekt yorug'lik chastotasi ortishi bilan elektronlarning kinetik energiyasining ortishi bilan tavsiflanadi. Agar yorug'lik chastotasi elektronlarning ajralish energiyasiga to'g'ri kelmasa, fotoelektr effekti yuzaga kelmaydi. Tekshirilayotgan metallarning har biri fotoelektrik chegaraga ega va bu qiymat metallning turi, tozaligi va tuzilishiga qarab o'zgaradi. Fotoeffekt kuzatilayotganda, yorug'lik intensivligi oshganda, ajralib chiqadigan fotoelektronlar soni ortadi, lekin har bir elektronning kinetik energiyasi o'zgarmaydi. Fotoelektrik effekt yorug'likning atom zarralariga ta'sirini tushuntiruvchi asosiy qoidalarni o'z ichiga oladi. 1905 yilda Albert Eynshteyn tomonidan tasvirlangan fotoelektr effekti quyidagi asosiy qoidalarga asoslanadi: Yorug'lik energiyasi kvant yo'lida tarqaladi: Nur o'zini zarrachalar kabi tutadi va energiya paketlarini (fotonlarni) olib yuradi. Har bir foton chastota va shu chastotaga mos keladigan energiyani ifodalaydi. Elektronlar fotonlar bilan o'zaro ta'sir qilishi mumkin: sirtga tushgan yorug'lik sirtidagi elektronlar bilan o'zaro ta'sir qiladi. Agar fotonning energiyasi sirtidagi elektronning bog'lanish energiyasidan oshsa, elektron sirtidan ajralib chiqadi va fotoelektron deb ataladi. Elektronlarning energiyasi foton energiyasiga bog'liq: Elektronning harakat energiyasi foton energiyasiga va sirtning xususiyatlariga bog'liq.

MUHOKAMA

Agar fotonning energiyasi elektronning bog'lanish energiyasidan yuqori bo'lsa, ajratilgan elektronning kinetik energiyasi ortadi. Ammo fotonning energiyasi kamroq bo'lsa, elektronning parchalanishi mumkin emas. Foton energiyasi chastotaga bog'liq: yorug'lik chastotasi ortishi bilan fotonning energiyasi ortadi. Shuning uchun yuqori energiyali fotonlar past energiyali fotonlarga qaraganda fotoelektr effektini osonroq keltirib chiqaradi. Ushbu asosiy qoidalar fotoelektr effektini tushuntiradi. Fotoelektr effekti zamonaviy kvant nazariyalarining muhim namunasidir va Eynshteynga 1921-yilda fizika bo'yicha Nobel mukofoti sovrindori bo'ldi.



Fotoeffektning faqatgina birinchi qonunini to‘liq nazariyasi asosida tushuntirish mumkin. Ammo to‘liq nazariyasi fotoeffektning ikkinchi va uchinchi qonunlarini tushuntira olmaydi. Haqiqatdan ham to‘liq nazariyaga asosan fotokatodga tushayotgan ixtiyoriy to‘liq uzunlikka ega bo‘lgan yorug‘likning Intensivligi ortgan sari ajralib chiqayotgan fotoelektronlarning energiyalari ham ortishi kerak edi. Ammo tajribalarning ko‘rsatishicha, fotoelektronlarning energiyasi yorug‘lik intensivligiga mutlaqo bog‘liq emas. To‘liq nazariyasiga asosan, elektron metalldan ajralib chiqishi uchun kerakli energiyani har qanday yorug‘likdan olishi mumkin, ya‘ni yorug‘lik to‘liq uzunligining ahamiyati yo‘q. Faqat yorug‘lik Intensivligi yetarlicha katta bo‘lishi lozim. Vaholanki, to‘liq uzunligi qizil chegaradan katta bo‘lgan yorug‘likning intensivligi har qancha katta bo‘lsa ham, fotoeffekt hodisasi yuz bermaydi. Aksincha, to‘liq uzunligi qizil chegaradan kichik bo‘lgan yorug‘lik intensivligi kuchsiz bo‘lsa ham, fotoeffekt hodisasi kuzatiladi. Bundan tashqari, nihoyatda kuchsiz intensivlikdagi yorug‘lik tushayotgan taqdirda, to‘liq nazariyasiga asosan, yorug‘lik tolqinlar tashib kelgan energiyalar evaziga metalldagi elektron ma‘lum miqdordagi energiyani to‘plab olishi kerak. Bu energiya elektronning metalldan chiqishi uchun yetarli bo‘lgan holda fotoeffekt sodir bolishi kerak. Hisoblashlarning ko‘rsatishicha, intensivligi juda kam bo‘lgan yorug‘likdan A_{ch} ga yetarli energiyani elektron to‘plab olishi uchun soatlab, hattoki kunlab vaqt o‘tishi lozim ekan. Tajribalarda esa metallga yorug‘likning tushishi va fotoelektronlarning vujudga kelishi orasida 10^9 sekundlar chamasi vaqt o‘tadi, xolos. Demak, yorug‘likning to‘liq nazariyasi va fotoeffekt hodisasi o‘rtasida ma‘lum nomuvofolliklar mavjud. Shuning uchun yorug‘likni uzluksiz elektromagnit to‘liq jarayoni deb tasavvur qilish yorug‘lik tabiatini to‘la aks ettira olmaydi. Bu fikr 1905-

yilda A.Eynshteynni yorug‘likning kvant nazariyasini yaratishiga olib keldi. Eynshteyn Plank gipotezasini rivojlantirib, yorug‘lik ulushlar shaklida chiqarilgani kabi xuddi shunday ulushlar shaklida yutiladi deb hisoblansa, fotoeffekt qonunlarini tushuntirish mumkin deb ko‘lsatadi. Eynshteynning fikricha, yorug‘lik to‘lqinlari energiyasining oqimi uzluksiz bo‘lmasdan, balki energiyaning diskret ulushlari oqimi bo‘lib, ularni kvantlar yoki fotonlar deyiladi. Foton — yorug‘likning elementar zarrasi deb tasavvur qilinadi. Issiqlik nurlanishi, fotoeffekt hodisalari foton tushunchasi asosida tushuntiriladi. Bu hodisalarni tushuntirishda yorug‘lik energiyasi (ya’ni, elektromagnit energiya) fotonlarda mujassamlangan, yorug‘lik energiyasi fotonlar ko‘rinishida tarqaladi degan fikr asos qilib olingan. Ventilli fotoelementlardan amaliyotda elektr energiyasi generalori sifatida foydalaniladi. Quyosh batareyasi deb yuritilayotgan kremniyli fotoelementlar batareyasi kosmik kemalarda, raketalarda radioappaturalar ishlashida tok manbai sifatida foydalaniladi. Quyosh batareyalarining foydali ish koeffitsienti 20—22% bo‘lganda, ular ishlab chiqarish hamda maishiy zarurlatlarda elektr energiyasi manbai sifatida birinchi o‘rinda turadi.

XULOSA

Eynshteyn tenglamasining asosida elektron faqat bitta fotonni yutadi degan tasavvur yotadi. Lekin intensivligi juda katta bo‘lgan yorug‘liklar uchun fotoeffekt qonunlari o‘z kuchini yo‘qotadi. Haqiqatdan ham, intensivligi juda katta bo‘lgan yorug‘lik bilan tajriba olib borilayotgan bo‘lsa, metallidagi elektronga bir vaqtning o‘zida ikkita foton tushishi mumkin. Bu holda elektron yutgan energiya ikkala foton energiyalarining yig‘indisiga teng. Bunda sodir bo‘ladigan fotoeffektning ko‘p fotonli fotoeffekt deb ataladi. Tabiiyki, ko‘p fotonli fotoeffektning qizil chegarasi kichik chastotalar (katta to‘liq uzunliklar) sohasiga siljiydi. Fotoeffektning kvant nazariyasining muvaffiqiyati yorug‘likning kvant tabiatini namoyon qiluvchi isbotlardan biridir. Keyinchalik yorug‘likning kvant tabiati ko‘pgina tajribalarda ham tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. G.Axmedova, O.B. Mamatqulova, I. Xolibaye “Atom fizikasi”.T; “O‘zbekiston” 2013.
2. T.M. Mominov, A.B. Xo‘jaqulov, SH.X. Xushmuratov “Atom yadrosi va zarralar fizikasi”.
3. Polvonov S.R., Kanokov Z., Ruzimov SH.M. Atom va yadro fizikasidan masalalar to‘plami. O‘quv qo‘llanma. -T.: “UNIVERSITET”, 2017, 200 b.

4. Kadilin V.V., Mercy V.Yu., Samosadny V.T. Amaliy yadro fizikasi. Qo‘llanma. M.: MEPhI, 2007.
5. Muxin K.N. Eksperimental yadro fizikasi: Darslik. 3 jildda. T.1. Atom yadrosi fizikasi. - Sankt-Peterburg: "Lan" nashriyoti, 2009. 384 b.
6. Bekjonov R.D. Atom yadrosi va zarralar fizikasi. T.: O‘qituvchi, 1994.576 b.
7. Shirokov Yu.M., Yudin N.P. Yadro fizikasi, M.: Nauka, 1980.-728 b. 7. Teshaboev K.T. Core va elementar zarralar fizikasi. T.: “O‘qituvchi”, 1992 yil.

ALFA-ZARRANING SOCHILISHI. REZERFORD FORMULASI

Aslonov Xayrullo Shukrullo o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti

Informatika va aniq fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Abdurashidova Madinaxon G'ayratjon qizi

Fizika va astronomiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada alfa zarraning sochilishi, Rezerford formulasi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: *Rezerford tajribasi, alfa zarraning sochilishi, Rezerford sochilishi.*

ABSTRACT

This article covers the scattering of alpha particles, Rutherford's formula.

Keywords: *Rutherford experiment, alpha particle scattering, Rutherford scattering*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается рассеяние альфа-частиц по формуле Резерфорда.

Ключевые слова: *эксперимент Резерфорда, рассеяние альфа-частиц, резерфордовское рассеяние.*

KIRISH

Zarrachalar fizikasida Rezerfordning tarqalishi-bu zaryadlangan zarralarning Kulon ta'sirida elastik sochilishi. bu 1911-yilda Ernest Rezerford tushintirilgan fizik hodisadir. Atomning sayyoraviy Rezerford modali Bor modelining rivijlanishiga olib keldi. 1911-yilda Rezerford atomning yangi modelini tavsiya etdi. Atom markazida yadro joylashgan bo'lib uning o'lchami 10^{-10} m. Atomning qolgan hamma hajmida elektronlar harakat qiladi. Yadro ichida elektronlar yo'q. Yadro musbat zaryadlangan protonlar va zaryadga ega bo'lmagan neytronlardan iborat. Atomdagi elektronlar soni yadrodagi protonlar soniga teng. Bu sonlar kimyoviy elementlarning tartib raqamini belgilaydi. Elektronlarni ba'zi -birlarini temir atomi oson yo'qotishi mumkin, bunda atom musbat ionga aylanadi. Atom qo'shimcha elektronlarga ega bo'lsa manfiy ionga aylanadi. Rezerford elektronlar yadro atrofida orbita bo'ylab harakat qiladi deb faraz qiladi. Shu sababdan uning modali planetar model ham deyiladi.

Rezerford tajribasida qalinligi 10^{-5} - 10^{-4} sm bo'lgan metal folgalar ishlatilgan. Bunday holda katta burchaklarda sochilishda alfa-zarralarning yadro bilan ko'p marta to'qnashishlarini hisobga olmaslik mumkin. Ikki va undan ko'p marta to'qnashishda katta burchaklarga sochilish ehtimoliyati juda kichik. Elektronlar

massasi kichik bo'lganligi tufayli alfa-zarralarning elektronlarda katta burchaklarda sochilishi ehtimoliyati ham juda kichik U vaqtda alfa-zarralarning faqat bitta yadro bilan o'zaro ta'siri hisobga olinadi. Alfa-zarra bitta yadro bilan o'zaro ta'sirlashib boshqa yadrolardan uzoqdan uchib o'tadi. Rezerford nazariyasi faqat bitta yadro elektr maydoni ta'sirida bo'ladigan katta burchakdagi sochilishlar uchu o'rinli bo'ladi. Bunday sochilish Rezerford sochilishi deyiladi. Bu sochilish elastik sochilish hisoblanadi, chunki sochilish natijasida alfa-zarraning kinetik energiyasi o'zgarmaydi. Yuqorida qaralgan masala Quyosh atrofida planetalar harakati to'g'risidagi Kepler masalasiga o'xshaydi.

Har ikki masalada ham jismlarning o'zaro ta'sir kuchi markaziy bo'lib ta'sirlashuvchi jismlar orasidagi masafaning kvadratiga teskari proporsional ravishda o'zgaradi. Planetalar holida qaralsa, bu kuch tortishish kuchidir, zarralar holida esa bu kuch itarishish kuchidir. Bunday hol planetalar ellips va giperbola bo'yicha, alfa-zarralar esa faqat giperbola bo'yicha harakat qilishida ko'rinadi. Rezerford alfa-zarralarning sochilishini sxema orqali tushuntirdi: Onuqtaga sochadigan yadro joylashtirilgan. Yadro zaryadi $+Ze$ va alfa-zarra zaryadi $+2e$ ga teng. Yadroning massasi alfa-zarra massasidan nisbatan shunchalik kattaki, yadroni qo'zg'almas deb qaealadi. Lekin haqiqatda yadro harakatsiz emas, shuning uchun alfa-zarra massasini keltirilgan massa bilan almashtirib yadro harakatini hisobga olish mumkin. Yadroga tomon uchib kelayotgan alfa-zarra va yadro orasidagi itarishish kuchi Kulon qonuniga bo'ysunadi deb faraz qilinadi. Bu kuch alfa-zarra va yadro orasidagi masofa kvadratiga teskari proporsional.

Klassik mexanikadan ma'lumki alfa-zarra 0 nuqtadagi yadroga nisbatan giperbola bo'ylab harakatlanishi kerak. Alfa-zarraning massasi m , sochuvchi yadrodan uzoqroq nasdofadagi tezligi v bilan belgilanadi. Agar alfa-zarra yadro bilan ta'sirlashmasa, u yadrodan b masofadan uzoqlikda uchib o'tib ketgan bo'lar edi. b masofa alfa-zarraning yadroga yaqinlashish masofasi deyiladi, lekin uni tajribada o'lchash imkoniyati mavjud emas. Uchib kelayotgan alfa-zarra b masofagacha yaqinlashadi, so'ng yadrodan itarilib giperbola bo'yicha harakatlanishi kerak. Yadrodan itarilayotgan alfa-zarraning chetlanish burchagi φ Kulon qonuni asosida quyidagicha aniqlanadi:

$$\operatorname{ctg} \frac{\varphi}{2} = \frac{mv^2 b}{2Ze^2}$$

Bu formuladan tajribada aniqlanishi mumkin bo'lgan parametrlar asosida sochilishning effektiv kesimini aniqlashda foydalaniladi.

Bu formulada m -alfa-zarra massasi, v -uning tezligi, Ze -yadro zaryadi, $2e$ -alfa-zarra zaryadi, Z -yadroning zaryad soni yoki qisqacha yadro zaryadi deyiladi. b -alfa-zarraning yadroga eng kichik yaqinlashish masofasi, φ -ni nishonga olish masofasi.

MUHOKAMA

Alfa-zarra qanchalik yadro yaqinidan o'tsa, ya'ni b qanchalik kichik bo'lsa, alfa-zarra shunchalik katta burchakka o'g'adi. Bu formulani tajribada tekshirish qiyin, chunki bu formulaga o'lchab bo'lmaydigan kattalik b kiritilgan. Shuning uchun bu formuladan kelib chiqadigan statistik natijalarni qarab chiqish mumkin.

Rezerford o'z tajribalarida radioaktiv poloniy-214 yemiriliashida hosil bo'ladigan energiyasi 7,67 MeV bo'lgan alfa-zarradan foydalandi. Alfa-zarralarning parallel dastasi vakuumda qinligi $6 \cdot 10^{-7}$ m bo'lgan oltin folgaga yo'naltirilgan va unda sochilishi kuzatilgan. Alfa-zarralar manbasi oldiga markazida tirqiyah bo'lgan diafragma qo'yilgan. Manbadan chiqqan alfa-zarralarning tirqishga tushganlari tirqishdan dasta ko'rinishida chiqib Iyumi-nessensiyali ekranga tushadi. Ekran rux sulfidi (ZnS) bilan qoplangan.

Ekraning har bir alfa-zarra kelib urilgan joyida yorug' dog'lar chaqnashlar hosil bo'lishi kuzatilgan. Bir sekundda ekranga tushayotgan alfa-zarralar soni juda ko'p bo'lganligi uchun ularning hosil qilgan yorug' dog'lari qo'shib bir-birini qoplagan markaziy yorug' dog'ni hosil qiladi. Endi ekran oldiga $6 \cdot 10^{-7}$ m bo'lgan oltin folga joylashtiriladi. Alfa-zarralar oltin folgadan o'tib ekranga tushadi. oltin folga bo'lmaganda ekranda hosil bo'lgan markaziy yorug' dog' intensivligi oz bo'lsada kamayadi. Ekranda alfa-zarralar dastasi hosil qilgan markaziy yorug' dog'dan tashqarida boshqa yorug' dog'lar ham hosil bo'ladi. Bu yorug' dog'larni oltin folgadan o'tayotganda o'z harakati yo'nalishini o'zgartirgan, ya'ni oltin folga atomlarida sochilgan alfa-zarralar hosil qiladi.

XULOSA

Ektranda hosil bo'lgan yorug' dog'lar lupa yoki mikroskop orqali kuzatiladi. Bu tajribada quyidagi hollar muhimdir: oltin atomining diametri $3 \cdot 10^{-10}$ m, u vaqtda qalinligi $6 \cdot 10^{-7}$ m bo'lgan oltin folgada 3300 atom qatlami bo'lib bunda atomlar zich joylashadi. shuning uchun alfa-zarralar oltin folgadan o'tganda taqriban 3000 ta oltin atomlari bilan to'qnashadi. Alfa-zarraning ko'pchilik qismi folgadan o'tganda oltin atomlarida 1/3 darajada bo'lgan kichik burchaklarda sochilishi kuzatilgan. Lekin sochilgan alfa-zarralar orasida 150° burchakgacha yetadigan katta burchaklarda sochilgan alfa-zarralar mavjudligi ham aniqlangan. Bunday katta burchaklarda sochiladigan alfa-zarralar soni juda oz bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Ahmadjonov O. Fizika kursi. Optika atom yadro fizikasi. III-tom - Toshkent: O'qituvchi, 1989. - 272-b.

2. Savelov I.V. Umumiy fizika kursi. III-tom.-Tshkent:O'qituvchi, 1976.-449-b.
3. Bekjonov R.B., Ahmadxo'jayev B. Atom fizikasi .-Toshkent: O'qituvchi,1979.
4. Chertov A., Vorobyov A. Fizikadan masalalar to'plami.- Toshkent: O'zbekiston, 1997.- 604-bet.

ATOMDAGI ELEKTRON SATXLARNING LEMB SILJISHI

Aslonov Xayrullo Shukrullo o'g'li

Andijon davlat pedagogika insituti Anq fanlar kafedrası o'qtuvchisi

Qodirjonova Odinaoy

Andijon davlat pedagogika instituti "Aniq fanlar" fakulteti, Fizika va astronomiya yo'nalishi 3-kurs talabasi

Soliyeva Mubina Zokirjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti "Aniq fanlar" fakulteti, Fizika va astronomiya yo'nalishi 3-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

